


# O'ZBEKISTON TARIXI

I kitob



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA  
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON  
MILLIY UNIVERSITETI

# O'ZBEKISTON TARIXI

I kitob

*Oliy o'quv yurtlari tarix fakultetlari talabalari uchun darslik  
Ta'lim yo'nalishi:*

*5120300 – Tarix (jahon mamlakatlari bo'yicha)*

TOSHKENT  
«DONISHMAND ZIYOSI»  
2021





UO'K 94(575.1)  
KBK 63.3(50')  
S 16

*Darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan nashrga tavsiya etilgan (2018-yil 14-iyundagi 531-sonli buyruq).*

Mas'ul muharrir:

**A.S. Sagdullayev** – tarix fanlari doktori, professor, akademik

Taqrizchilar:

**R.X. Sulaymonov** – tarix fanlari doktori, professor,

**N.U. Xolmatov** – tarix fanlari doktori, professor,

**B.B. Aminov** – tarix fanlari nomzodi

Sagdullayev A.S.

S 16 **O'zbekiston tarixi, I kitob** [Matn] / A.S. Sagdullayev. – Toshkent: «Donishmand ziyosi» MCHJ, 2021. – 624 b.

ISBN 978-9943-6445-3-3

Oliy o'quv yurtlari tarix yo'nalishi bakalavriat talabalari uchun mo'ljallangan ushbu «O'zbekiston tarixi» darsligining I kitobi eng qadimgi davrlardan boshlab XIV asrning o'rtalariga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga qamrab olgan. Mazkur darslik mustaqillik yillarida olib borilgan tadqiqotlarning umume'tirof etilgan natijalari bilan boyitilganligi, fan bo'yicha innovatsiyalarni o'quv jarayoniga joriy etilganligi bilan ilgari o'quv adabiyotlaridan farq qiladi.

Ushbu darslik ma'lumotlaridan magistrlar, izlanuvchi-tadqiqotchilar, o'qituvchilar va tarixchi-olimlar ham foydalanishlari mumkin.

UO'K 94(575.1)  
KBK 63.3(50')

ISBN 978-9943-6445-3-3

© «Donishmand ziyosi», 2020

## KIRISH

O'zbekiston tarixi chuqur ildizlar va boy madaniy o'tmishga ega. Ko'p ming yillar davomida rivoj topgan bu tarix ajdodlarimiz va xalqimiz tarixi sifatida o'rganiladi. Istiqloq o'zbek xalqi hayotida tub ma'naviy yangilanish yo'lini ochib berdi. Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy, fan-ta'lim va madaniy sohalarida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston mustaqil, suveren davlat sifatida jahon tarixida abadiy o'rin oldi. Biz hozirgi davr tinchlik, barqarorlik va totuvlik, milliy taraqqiyot sharoitida, mustaqillik mohiyatini chuqur anglab, xalqimiz tarixidagi bunyodkorlikka intilish, vatanparvarlik namunalari, buyuk ajdodlarimizning betimsol jasorati va ezgu, yaratuvchanlik ishlarini yangi asoslarda rivojlantirib davom etishimiz lozim.

2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ko'zda tutilgan mamlakatimizni modernizatsiya qilishning ustuvor vazifalari barcha soha va tarmoqlar qatori oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish uchun yangi imkoniyatlar yaratishni talab qilmoqda<sup>1</sup>. Mamlakatimizda oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilashda zamonaviy bilimga ega yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini yanada ta-

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni [Elektron resurs]. <http://strategy.regulation.gov.uz/uz/document/2>.

komillashtirish, oliy ta'lim sifatini tubdan oshirish muhim ahamiyatga ega<sup>1</sup>. Shu bois yoshlarimizni istiqloq g'oyalari ruhida tarbiyalashga ko'maklashadigan boy tariximizni, ma'naviy qadriyatlarimizni aks ettiradigan zamonaviy o'quv qo'llanma va darsliklar katta o'rin tutadi. Bu borada O'zbekiston tarixini o'rganishga xolis, haqqoniy yondashib, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda bu fanni o'qitish uslubiyatini takomillashtirish o'z dolzarbligi bilan ajralib turadi.

O'zbekiston tarixini zamonaviy talab darajasida o'rganish, tarixiy-madaniy jarayonlarni va o'tmish voqealarini yangi ilmiy yondashuvlar va qarashlar tamoyillari orqali ta'riflash, asl manbalarga tayanib masalani tahlil etish muhim vazifa hisoblanadi.

Bugungi kunda madaniy va ma'naviy merosni tiklash hamda keng targ'ib qilish, tarix ilm-fan sohasidagi innovatsiya mazmuniga ega tadqiqotlar natijalarini ta'lim jarayoni, darslik va o'quv adabiyotlariga tatbiq etish, darsliklarning yangi avlodini yaratish va iqtidorli yoshlarni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etish dolzarb ahamiyat kasb etadi<sup>2</sup>.

O'zbekiston jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo'shgan hissasini o'rganish va targ'ib etish, ta'lim-tarbiya sohasida undan keng foydalanish, yosh avlodni tarbiyalashda o'ta muhimdir. Zero, ma'naviyatning asosi bo'lgan tarix, insonparvarlik qadriyatlariga sodiqlik, milliy g'urur va iftixor, vatanparvarlik tuyg'ularini yuksaltirishda, tarixiy xotira esa milliy o'zlikni anglashga, inson dunyoqarashini kengaytirishga va tarixiy ongini shakllantirishga ko'mak beruvchi katta kuch hisoblanadi.

Mamlakatimizda yuksak bilimli, ma'naviy barkamol avlodni yuzaga keltirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Ilm-fan taraqqiyotini ta'minlash borasida mamlakatimizda amalga

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni.

<sup>2</sup> *Mirziyoyev Sh.* Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: «O'zbekiston». 2017. – B. 472–473.

oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va mazkur sohada erishilgan yutuqlar hozirgi kunda xalqaro hamjamiyat tomonidan haqli tarzda e'tirof etilmoqda.

Shubhasiz, yangi avlod o'quv adabiyotlari ham yuqorida ta'kidlangan mulohazalarga hamohang ravishda zamonaviy talablarga javob berishi darkor. Ta'lim tizimini sifat jihatidan takomillashuvi uchun eng avvalo ilm-fan yangiliklarini o'quv jarayoniga tatbiq etish lozim.

O'zbekiston tarixi o'quv fan dasturi asosida 5120300 – Tarix (jahon mamlakatlari bo'yicha) bakalavriat bosqichi talabalari e'tiboriga havola etilayotgan mazkur darslik O'zbekiston tarixi darsligining I kitobini tashkil etib, eng qadimgi davridan XIV asrning o'rtalariga qadar bo'lgan tarixiy davrni qamrab oladi. Darslikni tayyorlash jarayonida yozma manbalar, arxeologiya, antropologiya, numizmatika hamda epigrafika materiallari, O'zbekiston tarixining turli davrlariga oid so'nggi ilmiy tadqiqotlar natijalaridan keng foydalanildi.

Darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining «Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiyasi»da ilgari surilgan talablarga mos ravishda tayyorlangan. O'quv adabiyotlarining mazmuni bilim oluvchilarda mustaqil va erkin fikrlash, o'zlashtirib olingan bilimlarni bosqichma-bosqich boyitish va mukammallashtirib borish, mustaqil ta'lim olish, yangi bilimlarni o'quv va ilmiy adabiyotlaridan izlab topish hamda amaliy ko'nikmalar shakllantirishni ta'minlashi kerak.

Ushbu darslik shu vaqtgacha respublika professor-o'qituvchilari, tarixchi olimlar tomonidan yaratilgan darsliklardan farqli o'laroq quyidagi jihatlarni o'zida aks ettirgan:

– O'rta Osiyo qadimgi va o'rta asrlar davrlari tarixi bo'yicha antropologiya, arxeologiya, etnologiya, manbashunoslik va tarixiy geografiya sohalaridagi ilmiy tadqiqotlar natijalaridan keng foydalanildi hamda so'nggi yillarda yuzaga kelgan innovatsiyalar, O'zbekiston tarixi faniga oid yangi yondashuv va ilmiy qarashlar ko'rib chiqildi;



– bu borada tarixiy davrlashtirish, antropogenez – odamning paydo bo‘lishi, ilk davlatchilik va etnogenez bo‘yicha mavjud nazariyalar va ilmiy qarashlar qiyosiy tahlil qilindi;

– O‘zbekiston davlatchiligi tarixi, boshqaruv tizimi va ilk davlatlar paydo bo‘lishining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy asoslari xususida qator yangi ma‘lumotlar umumlashtirilgan holda, dastlab ochib berildi;

– «Avesto» xususidagi ma‘lumotlar (geografik, hududiy nomlar, ijtimoiy-iqtisodiy ma‘lumotlar, siyosiy tarix) kengaytirilib, mazkur manbaning ma‘naviy hayotdagi ahamiyatiga alohida e‘tibor qaratildi;

– O‘rta Osiyo qadimgi tarixiga oid qadimgi fors bitiklari va yunon-rim mualliflarining ma‘lumotlari o‘zbek tiliga tarjima qilindi va xrestomatiya materiallari sifatida dastlab darslik matniga tatbiq etildi;

– «Buyuk ipak yo‘li» mavzusi eng qadimgi va o‘rta asrlarda mavjud aloqa va savdo yo‘llari bilan uzviy bog‘langan holda yangi materiallar bilan boyitildi;

– etnik tarix masalalari, qadimgi migratsiyalar va etnomadaniy jarayonlari yangi asoslarda ko‘rib chiqildi;

– IX–XII asrlarda hukmronlik qilgan sulolalar va davlatlar xususida birlamchi tarixiy manbalarga tayanib, davr tarixiy voqeligi asnosida yoritildi;

– buyuk allomalar va tarixiy shaxslarning faoliyatiga xalqaro miqyosda yangicha baho berilishi inobatga olindi;

– rivojlangan o‘rta asrlar davlatchiligi mavzularida unvonlar va mansablar, boshqaruv tizimi, soliqlar va islohotlar masalalariga katta e‘tibor qaratilib, madaniyat tarixi alohida bo‘limda yoritildi;

– mavzularda masala mohiyatini aks ettiruvchi manbalar va tarixiy adabiyotlar, shu mavzu yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar alohida qayd etildi.

Har bir mavzu so‘nggida tayanch tushunchalar hamda o‘z-o‘zini nazorat savol va topshiriqlar berildi. Kitobning oxirida glossariy bayon etilgan.

Mazkur darslik mualliflar jamoasi tomonidan tayyorlangan. Alohida mavzular va paragraflarni quyidagi mualliflar yozishdi: 1.3, 1.5, 3.1, 3.2, 3.3 hamda 5, 6, 7, 8-mavzular, 10.1, 16.2. – t.f.d., prof. A.S. Sagdullayev; 4.2 – t.f.d., prof. A.S. Sagdullayev, o‘qituvchi J.E. Tog‘ayev; 2.1, 2.3, 2.4. – t.f.d., prof. A.S. Sagdullayev, t.f.d., prof. B.J. Eshov; 1.1, 1.2, 1.6, 2.2, 4.1, 4.3, 9-mavzu, 10.2, 10.3, 10.4, 16.1. – t.f.d., prof. B.J. Eshov; 1.4 – t.f.d., prof. B.J. Eshov, t.f.n., dots. A.B. Xoliqulov, 16.3. – t.f.d., prof. B.J. Eshov; 11.1. – t.f.d., prof. B.J. Eshov, t.f.n., dots. A.B. Xoliqulov; 12.1, 12.2. – t.f.n., dots. A.A. Odilov; 12.3, 12.4. – t.f.n., dots. A.A. Odilov, t.f.n., dots. A.B. Xoliqulov; 12.5. – t.f.n., dots. A.A. Odilov; 13.1, 13.2. – t.f.n., dots. A.A. Odilov; 13.3, 13.4. – t.f.n., dots. A.A. Odilov, katta o‘qituvchi A.M. Xidirov; 14-mavzu t.f.n., dots. A.A. Odilov; 15.1, 15.2, 15.3. – t.f.d. O‘.M. Mavlonov, 15.4. – t.f.d. O‘.M. Mavlonov, t.f.d. O.P. Kobzeva.

Darslik qo‘lyozmasi matnlarini kompyuterda terish t.f.n., dots. K.D. Saipova va o‘qituvchilar J.E. Tog‘ayev, illyustratsiyalar va jadvallarni tayyorlash A.Sh. Shaydullayev tomonidan amalga oshirildi.

Darslik matnida o‘z aksini topgan materiallar, tarixshunoslik ma‘lumotlari va ayrim jadvallar har bir mavzuning yakunida keltirilgan adabiyotlardan foydalanilgan. Shuningdek, «Kartografiya» ilmiy-ishlab chiqarish davlat korxonasi tuzilgan va nashr etilgan «Atlas», «Jahon tarixi», «O‘zbekiston tarixi» tarixiy xaritalaridan foydalanildi.

Darslik yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalar mualliflar jamoasi tomonidan mamnuniyat bilan qabul qilinadi.

**1-MAVZU**  
**«O‘ZBEKISTON TARIXI» FANI TO‘G‘RISIDA**  
**UMUMIY MA‘LUMOTLAR**

**Reja:**

- 1.1. «O‘zbekiston tarixi» fanining ijtimoiy fanlar tizimida tutgan o‘rni. Fanning maqsadi, vazifalari va ahamiyati.
- 1.2. «O‘zbekiston tarixi» fanining nazariy-uslubiy asoslari va dolzarb masalalari.
- 1.3. O‘zbekistonning qadimgi va o‘rta asrlar tarixini davrlashtirish. Jahon tarixini davrlashtirish to‘g‘risidagi nazariyalar.
- 1.4. Manbashunoslik va tarixshunoslik masalalari.

**1.1. «O‘zbekiston tarixi» fanining ijtimoiy fanlar tizimida tutgan o‘rni. Fanning maqsadi, vazifalari va ahamiyati**

Tarix fani orqali insoniyatning paydo bo‘lishi, ibtidoiy jamiyatning rivojlanish xususiyatlarini, moddiy va ma‘naviy madaniyatning taraqqiyoti, sivilizatsiyaning vujudga kelishi, etnomadaniy jarayonlar, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy munosabatlardagi davriy o‘zgarishlarning omillari, boshqa ko‘pdan ko‘p voqea-hodisalarning sabablari hamda mazmun-mohiyati o‘rganiladi. O‘zbekiston tarixi jahon tarixining ajralmas qismidir. Bir umumiy geografik mintaqa – O‘rta Osiyoda qadimdan yashab kelgan qo‘shni qabila va elatlar ni bir-biriga yaqin bo‘lgan madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, o‘zaro aloqalar, umumiy madaniy va etnik ildizlar birlashtirib turgan. O‘rta Osiyo jahon sivilizatsiyasi va insoniyat madaniyati tarixining maskanlaridan biridir.

Tarixni o‘rganish nafaqat ilmiy, ma‘rifiy, balki chuqur ma‘naviy-ruhiy ahamiyatga ega bo‘lib, har birimizda o‘zimiz tug‘ilgan va

yashayotgan ona zamin bilan mustahkam aloqadorlik hissini rivojlantiradi. Vatan tushunchasi tarixiy xotira, tarixiy ong asosida shakllanadi. Oliy ta‘lim tizimida «O‘zbekiston tarixi» fanini har tomonlama hamda chuqur o‘qitish maqsadida bir qator yangi avlod o‘quv dasturlari, o‘quv qo‘llanmalar va darsliklar yaratilib, bu boradagi ilmiy tadqiqotlar natijalari o‘quv jarayoniga bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.

Mazkur darsliklarni sinovdan o‘tkazish jarayoni ularning ayrimlari «O‘zbekiston tarixi» fanini o‘rganish-o‘rgatishda sifat jihatdan yangi darajaga ko‘tarilganini ko‘rsatmoqda.

Tarixiy haqiqat to‘la ro‘yobga chiqishi va haqqoniy tarix yozilishida tarix fanining predmeti va obyektining to‘g‘ri belgilanishi dolzarb ahamiyatga ega. Zero, fanning o‘rganish predmeti va objekti aniq bo‘lmasa, uning oldidagi vazifa noaniq bo‘lib, maqsadga erishish mushkul. Bunday holat o‘quv jarayoni samaradorligiga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

«O‘zbekiston tarixi» fani boshqa ijtimoiy fanlardan farqli o‘laroq mustaqil fan. Shuningdek, u fanlar orasida alohida o‘z o‘rni va mavqega ega. U barcha fanlar tarixini ham o‘z ichiga olgan holda, ularning rivojiga katta ta‘sir etadi. Bu holat fanning o‘rganish vazifasida to‘la namoyon bo‘lmog‘i kerak. Tarix fani o‘z xususiyatiga ko‘ra, o‘zining diqqat-e‘tiborini o‘tmishga va zamonaviy jarayonlarga qaratadi, undan saboq berishga va xulosa chiqarishga xizmat qiladi.

Tarixiy voqea va hodisalar qat‘iy aniqlikda, davriy ketma-ketlik – xronologik asosda o‘rganiladi. Shuningdek, tarixiy voqea va hodisalar, hujjat va dalillarning haqiqiyliigi va haqiqiy emasligi, ular qachon va qayerda, qanday tarixiy muhit va sharoitlarda tarixan voqea bo‘lganligi aniqlanadi. Va nihoyat, o‘tmish voqeliklarining muayyan sabab va oqibatlari, ularning aniq shakl-shamoyillari va holati oydinlashtiriladi.

«O‘zbekiston tarixi» fani o‘tmishdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotning ahvoli, rivojlanishi xususiyatlari va tanazzulining sabablari hamda oqibatlarini o‘rganadi, ulardan kelajak uchun saboq va xulosa chiqaradi. Bu esa kelajak avlodlar uchun dasturilamal bo‘ladi.



«O'zbekiston tarixi» fani ko'p qirralik va xilma-xillik xususiyatiga ega. U jamiyat taraqqiyoti va inqirozlarining faqat bir tomoninigina emas, balki jamiyatning barcha tomonlarini uzviy o'zaro bog'liqlikda, bir butunlikda o'rganadi. «O'zbekiston tarixi» fani, mamlakatimizning hududida eng qadimgi davrlardan to hozirgacha kechgan voqeliklar, insoniyat hayoti va jamiyatning asosiy xususiyatlarini tahlil qiladi. Uning o'rganish predmetiga esa mana shu makondagi turli voqea va hodisalar, ulardagi umumiy aloqadorlik va yaxlit birlik hamda qonuniyatlar hodisasi va jarayonlar, umuman, insonning yaratuvchanlik faoliyati kiradi.

O'tgan tarixiy-madaniy jarayonlar, voqealar va hodisalarni xalq hamda tarixiy shaxslar faoliyatisiz tasavvur etish mushkul. Tarix fanining asosiy maqsadi – o'tmish voqeliklarni anglash, ulardan tegishli saboqlar chiqarish, hushyorlik va ogohlikka, vayronkor g'oyalarga qarshi turishga undovchi, milliy birlik, hamkorlik va bag'rikenglikka chaqiruvchi g'oyalarni targ'ib etishdir. Ezgulik va bunyodkorlikka intilgan o'tmish ajdodlarimiz bilan bugungi avlod o'rtasidagi bog'liqlikni unutmasdan insonparvarlik qadriyatlarini yanada mustahkamlash milliy taraqqiyotning asosiy kafolati hisoblanadi.

Tarixning ibtidoiy bosqichi jarayonlari, sivilizatsiya, davlat va jamiyat taraqqiyoti natijasi ekanligini, urbanizatsiya va madaniyat, turli-tuman o'zaro aloqalar, muhim voqealar hisoblanishini, tarixning taraqqiyot bosqichida fan, texnika va madaniyat, axborotlar o'zlashtira berishini hamda ularning jamiyat rivojiga bog'liqligini va nihoyat, o'zbek xalqiga mos bo'lgan mustaqil taraqqiyot yo'li tamoyillarini anglash ham O'zbekiston tarixi fanining asosiy maqsadlari hisoblanadi.

Har qanday fanda bo'lgani kabi «O'zbekiston tarixi» fanining vazifalarini quyidagicha belgilash mumkin:

1. Tarixni manbalar asosida o'rganib, xolislik va haqqoniylik mezonlariga tayanib, o'qituvchi va talabalarga tarixiy rivojlanish qonuniyatlarini yetkazish.

2. Fandagi dalillar va ularning umumlashmasiga asosiy e'tibor qaratib, qiyosiy tahlilni amalga oshirish.

3. Zamon talablaridan kelib chiqib, imkoniyat darajasida fandagi innovatsiyalarni doimiy ravishda jalb etish.

4. Turli davrlardagi jamiyat taraqqiyotining turg'unlik, inqiroz va taraqqiyot bosqichlari sabablarini ochib berish.

5. Fandagi ilmiy asoslangan yangi nazariyalarni tahlil va umumlashtirish uslubi asosida o'quv jarayoniga joriy etish.

6. Tarixning harakatlanuvchi omillarini talabalarga ko'rsatib berish.

7. Davlat va jamiyat taraqqiyotida mustaqillikni mustahkamlash hamda saqlash omili bo'lgan komil insonni tarbiyalashda tarixning rolini asoslab berish.

8. Talabalar va bo'lajak mutaxassis kadrlarga chuqur milliy va umuminsoniy tarixiy, ilmiy-nazariy dunyoqarashni singdirish.

9. Yoshlarda milliy tafakkur, g'urur va o'zlikni anglash, vijdon va umuminsoniy barkamollikni tarbiyalash.

10. Yosh avlodda vatanparvarlik va milliy jasoratni, millat va Vatanga sadoqatlilikni rivojlantirish.

11. Talabalarga milliy va tarixiy qadriyatlarni e'zozlash, asrab-avaylash ruhini singdirish, ularda yuksak axloqiy fazilatlar (halollik, poklik, odillik, rostgo'ylik, mehnatsevarlik, kamtarinlik, imon va e'tiqodlilik)ni tarbiyalash.

12. Yoshlarni Vatan va xalq, millat, ota-ona va farzand, tabiat va jamiyat oldidagi muqaddas burchlarni chuqur his etish va ularga sadoqatlilik ruhida kamol toptirish.

Elatlar va xalqlar, millatlar va davlatlarga taalluqli murakkab ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar tarixda o'z aksini topadi. Har bir voqea va hodisa inson (yoki uning bir guruhi) xatti-harakati, uning ko'zlagan ma'lum maqsadga intilishi jarayonida sodir bo'ladi. «O'zbekiston tarixi» fanining o'rganish makoni – obyekt yurtimiz tarixi va madaniyatidir. Tarixiy obyektga nisbatan «O'zbekiston tarixi» fanining maqsadi, vazifasi, yo'nalishi va harakat doirasi yoki chegarasi belgilanadi. Ma'lum bir ma'noda obyekt

bilan predmet bir-biriga juda yaqin tushuncha bo'lsa-da, ular tarix fanida tutgan o'rni va vazifasi bilan farqlanadi.

Obyekt aniq tarixiy davr, makon, zamon va geografik mintaqaviy chegaralar, ma'lum bir xalq, millat va mamlakat tarixi bilan bog'liq bo'lib, ma'lum hudud doirasidagi voqea va hodisalarni bir yaxlitlikda o'z ichiga oladi. Predmet esa mana shu bir butun obyekt ichidagi aniq siyosiy, tarixiy-madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardan iborat bo'ladi.

«O'zbekiston tarixi» fani ijtimoiy-siyosiy, umuminsoniy fan bo'lib, inson va millat o'z o'tmishini bilishi, o'zligini anglashi hamda kelajagini belgilashida asosiy dasturilamal hisoblanadi. Shu bilan birga, u ijtimoiy-siyosiy hayot sohasidagi yagona fan ham emas. Jamiyat, insoniyat va tabiatning o'tmishini o'rganuvchi boshqa soha fanlari ham bor. Masalan, arxeologiya, etnologiya, antropologiya, demografiya, madaniyat, iqtisodiyot va boshqa fanlar shular jumlasidandir. Ammo bu fanlarning hammasi ham, tabiat, jamiyat ham, avvalo, katta tarixda aks etadi. Soha tarixi fanlari ham tarix fanining o'rganish obyekti va predmeti hisoblanadi.

Tarix fani boshqa, ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan mustahkam va uzviy aloqa birligida rivojlanadi. Shuning uchun ham, tarixchilar falsafani, adabiyot va tilni, dinshunoslikni va boshqa fanlarni, ayniqsa, ularning tarixiy jihatlarini bilmay turib, haqqoniy tarixni to'la yoritib berisholmaydi.

Tarix bilan boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'rganish obyekti bitta, ya'ni jamiyatdir. Predmeti esa inson va jamiyatdir. Shuning uchun ham boshqa fanlar tarix fani taraqqiyotiga, tarixiy haqiqatning ro'yobga chiqishiga bevosita yordam beradi. Shuningdek, tarix fani ham boshqa soha fanlari rivojiga katta ta'sir etadi. Ammo tarix ularning, shuningdek ijtimoiy-gumanitar fanlarning ham tarixidir.

Tarix fani, ya'ni Vatan tarixi – millat va ona yurt kelajagining ravnaq topishida muhim ahamiyatga ega. Masalaning mohiyati shundaki, **birinchidan**, ijtimoiy-gumanitar fanlarning rivojlanishi har jihatdan tarix fanining naqadar haqqoniy bo'lishiga bog'liqdir.

**Ikkinchidan**, tarix falsafasi qanchalik to'la va ravon yuzaga chiqsa, boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarning mazmun va mohiyati hamda ta'sirchanligi ham shuncha yuksak darajada bo'ladi.

Tarix falsafasi deganda, tarix, ya'ni o'tmish tajribasi va sabog'idan to'g'ri xulosa chiqara olish tushuniladi. Boshqacha aytganda, o'tmish – tarixga qarab, kelajakni his etish, ko'ra bilish va to'g'ri belgilay olish ham tarix falsafasini anglashni bildiradi.

Insonning shaxsiy manfaat va ehtiyojlari, qolaversa, uning qobiliyati va iste'dodi, voqealarni teran idrok etishi tarix falsafasini anglab yetishda muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, inson aql-idroki, uning tafakkur darajasi, hayotiy falsafasi, jamiyat taraqqiyoti yo'lidagi barcha sa'y-harakatlari va intilishlari ma'lum millat va jamiyat mentalitetini belgilab beradi. Mana shu mentalitet millat yoki xalqning umummadaniy – ma'naviy darajasi, aql-idroki va tafakkur maydonining salohiyatiga qarab o'ziga xos mazmun-mohiyat kasb etadi. Tarix esa, ana shu o'ta murakkab, o'ta ziddiyatli, shu bilan birga nihoyatda qudratli ruhiyat va faoliyat orqali xotiraga aylanadi.

## 1.2. «O'zbekiston tarixi» fanining nazariy-uslubiy asoslari, usullari va dolzarb masalalari

Har qanday fan kabi «O'zbekiston tarixi» fani ham o'zining metodologik ilmiy-nazariy asoslari va tamoyillariga ega. Bular «O'zbekiston tarixi» fanining asosini tashkil etib, uning rivojlanishi, jamiyat va xalq manfaati yo'lidagi nufuzining ortib borishi uchun o'ta muhim ahamiyatga ega. Ilmiy-nazariy tamoyillar Vatan tarixining haqqoniy yozilishi, tarixiy haqiqatning yuzaga chiqishiga xizmat qiladi.

Agar tarix insoniyat yashab rivojlanishi uchun ijtimoiy zaruriyat va ma'naviy-ma'rifiy ehtiyoj bo'lsa, tarix fani esa bu ehtiyojlarning ro'yobga chiqishi uchun mas'ul bo'lgan yuksak intellektual, ilmiy-amaliy faoliyatdir. Buning samarali bo'lishi, ya'ni tarix fani rivojlanishida uslubiy ilmiy g'oya va nazariyalarning tamoyillari tarixning



mazmun va mohiyati hamda falsafasini chuqurroq ochib berishga, shuningdek, tarix fanining maqsad va vazifasini to'laroq ro'yobga chiqishiga bevosita yordam beradi.

«O'zbekiston tarixi» fanining metodologik ilmiy-nazariy asoslari, g'oya va ta'limotlari nimalardan iborat bo'lishi o'ta muhim masala hisoblanadi.

«Tarix» moziyni o'rganish haqidagi fan bo'lib, ilmiy atama sifatida ikki o'zaro aloqadorlikdagi tushunchani ifodalaydi. Birinchidan, tarix jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi fan. Uning mavzusi kishilik jamiyati o'tmishining turli-tuman sohalardagi taraqqiyoti va o'zgarib borish jarayonini o'rganadigan fandır. Ikkinchidan, tarix bu insoniyat to'g'risidagi fan bo'lib, jamiyatning o'tmishini tadqiqot yo'li bilan aniqlab, o'tmishda inson tomonidan yaratilgan, uning zakovati natijalari bo'lgan jarayonlarini tadqiq etish va bizgacha bo'lgan davrni o'rganib, kelajak avlodga yetkazadigan fandır.

Tarixshunoslikdan ma'lumki, tarixiy jarayon tarix qonunlari bilan asoslanadi. Tarix fanining asosiy tayanch tushunchasini tarixiy asos va tarixiy manba, tarixiy makon va tarixiy zamon tashkil etadi. Tarix fanini o'rganishdagi eng dolzarb muammo – bu tarixiy voqelik va tarixiy manbalar bo'lib, mana shu ikki muammoga tom ma'noda ilmiy yondashish tarix fanining nazariyasi va metodologiyasini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, har bir fanda bo'lganidek, tarix, jumladan «O'zbekiston tarixi» fanida ham o'zining nazariyasi va metodologiyasi mavjud. Nazariya – bu ilmiy bilimlar yig'indisi va boshqa fanlar bilan mavjud bo'lgan aloqadorlikni bilish jarayonidir.

Tarixchi olimlar tarixni o'rganish obyekti (ma'lum mavzu) hamda evolutsiyasini, uning ma'no va mazmunini to'g'ri bilishi, tahlil qila olishi kerak. Agar tarix falsafasi tarixiy voqeliklar tahlilidan kelib chiqadigan haqiqat (xulosa)larning so'zdagi aniq ifodasi bo'lsa, tarix fani metodologiyasi mana shu tarixiy haqiqatlarning ro'yobga chiqishi – tarix haqiqiy yozilishi uchun, birdan-bir to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi dasturdir.

Avvalo, metodologiya haqida to'xtalsak, uning lug'aviy ma'nosi yunoncha «**metodos**» va «**logos**» degan ikki so'z birikmasidan ibo-

rat bo'lib, metod, ya'ni usul – tadqiqot olib borish usuli (yo'li), nazariya va ta'limot, logiya esa fan deganidir. Metodologiya, ya'ni uslubiyat ilmiy-tadqiqot olib borish yoki biror-bir masalani ilmiy o'rganishning eng qulay usullari, eng to'g'ri va mukammal g'oyasi, nazariyasi va ta'limotlari majmuidan iborat bir butun fandır. Boshqa ma'noda esa, metodologiya ilmiy bilish yoki ma'lum bir ilmiy faoliyatni tashkil etish va amalga oshirishda qo'llaniladigan usullar haqidagi fandır. Demak, tarix fani metodologiyasi tarixni o'rganuvchi va o'qituvchilarni aniq maqsad sari to'g'ri yetaklaydi, ya'ni tarix haqqoniy yozilishi va o'rganilishiga yo'l-yo'riq ko'rsatadi.

Tarix fanini o'qitish uslubiyati deganda, bu yo'nalishdagi ilmiy bilimlarning tuzilishi va rivojlanishi, ularning natijalarini asoslash yo'llarini amaliyotda mazkur fanga xos bo'lgan ilmiy bilimlar mexanizmini samarali tatbiq etilishi tushuniladi. Tarix fani metodologiyasi deganda, tarix fanlari doirasidagi ilmiy bilimlarning tuzilishi tamoyillariga, shakli va ilmiy jihatdan tarix fani doirasida qo'llaniladigan ta'limotiga aytiladi. «O'zbekiston tarixi» fanining nazariy-metodologik asoslari o'zida mazkur fanning qonuniyatlari va tamoyillarini, shu fanga xos bo'lgan qat'iy tushunchalar majmui va bilish uslublarini o'z ichiga oladi.

Tarix fanining rivoji darajasini uning nazariy-uslubiy holati belgilab beradi. Bu holdagi uzviy va ikki tomonlama bog'liqlik umumiy qonuniyatidir. Mana shu o'zaro aloqadorlik qonuniyatini, mumtoz tarixshunoslik talablari va hozirgi zamon sivilizatsion yondashuvlarga asoslangan holda «O'zbekiston tarixi» fani metodologiyasini quyidagi ikki qismga bo'lish tavsiya etiladi:

1. «**O'zbekiston tarixi**» fanining uslubiy, ilmiy-nazariy, g'oyaviy va falsafiy asoslari. Bunga quyidagilar kiradi:

- din bilan dunyoviylik o'rtasida mo'tadil munosabat bo'lishi va dunyoviylik aslo dahriylik emasligi;
- tarixni milliy, umuminsoniy, muqaddas hodisa hamda qadriyat deb tushunmoq;
- tarixga hozirgi zamon sivilizatsiyasi nuqtayi nazari va bag'rikenglik asosida yondashish;



– tarixiy taraqqiyot asosini evolutsiyon – tadrijiy yo‘l va islohotchilik tashkil etadi, deb anglatmoq;

– tarixga milliy mentalitet nuqtayi nazaridan o‘zgaralar tarixiga hurmat ruhida murojaat etish;

– tarix, jamiyat va tabiat hamda insoniyat (barcha tarixiy voqelik va jarayonlar) dialektika hamda sinergetika qonuniyatlari asoslarida rivojlanishi haqiqat ekanligi;

– tarix milliy va umuminsoniy xotira, millat va xalqlarning joni, tani hamda g‘oyaviy muhofaza quroli ekanligi.

## 2. «O‘zbekiston tarixi» fanining ilmiy-uslubiy tamoyillari.

Ular quyidagilardan iborat:

– ilmiy xolislik;

– tarixiy-tahliliylik;

– mantiqiy-uzviylik;

– vorislik va xronologik izchillik;

– bag‘rikenglik va vatanparvarlik;

– qiyoslash, kuzatish va umumlashtirish;

– bahslashish, munozara yuritish va asoslab berish;

– matematik hisoblash;

– shakllash va modellashtirish;

– alohidalikdan umumiylikka va umumiylikdan alohida (juz‘iy)likka;

– etnografiya, arxeologiya, antropologiya, geneologiya kabi ko‘plab yordamchi fanlarning yutuqlari hamda usullaridan ham keng foydalanish.

Jahon tarixi din tarixi bilan uzviy bog‘liq. Ijtimoiy hayotni dindan, dinni ijtimoiy hayotdan ajratib bo‘lmaydi. Agar ajratilsa, tarixga ham, dinga ham, mantiqqa ham zid bo‘ladi. Ma‘lumki, sobiq sovet tarix fani «din ilimga zid, tarixiy taraqqiyotga to‘sqinlik qiladi», degan dahriylikka amal qildi. Biroq tarix qanday bo‘lsa, uni shundayligicha o‘rganish ustuvor bo‘lmog‘i kerak. Shuning uchun ham u hozirda din bilan mo‘‘tadil, mutanosiblik asosida o‘rganilmog‘i eng asosiy zaruriyat bo‘lib turibdi. Bu esa yoshlarni har xil din niqobidagi dinga


aloqasi bo‘lmagan terroristik guruhlariga adashib kirib qolishlarining oldini oladi, shuningdek, tariximizni haqqoniy va to‘la yozilishiga imkon beradi.

Tarixiy-tanqidiylik va qiyosiy tahlil tamoyili eng qulay usul hisoblanadi. Bu usul tarixiy voqea va hodisalarning nechog‘liq to‘g‘ri hamda noto‘g‘riligini aniqlashga, tarixni haqqoniy va to‘g‘ri yozilishiga yaqindan yordam beradi.

Istiqlol tufayli o‘z tariximizni o‘zimiz yozish va tarix fani metodologiyasini ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo‘ldik. O‘tgan davr ichida O‘zbekistonning yangi tarixi yozildi va tarix fani jadal rivojlanmoqda. Butunlay yangi ruh va mazmundagi ilmiy qarashlar paydo bo‘ldi, o‘quv qo‘llanma va darsliklar, tarixiy asarlar chop etildi.

«O‘zbekiston tarixi» fanining dolzarb masalalari. O‘zbekiston tarixini o‘rganish hamda o‘qitish borasida bugungi kundagi ilmiy tadqiqotlarning ko‘lami nihoyatda keng va rang-barangdir. Chunonchi, davr taqozosi, zamonaviy shart-sharoit, talab va ehtiyojlardan kelib chiqib, bugungi tarixiy izlanish va tadqiqotlar yangi asoslarda jadal rivojlanib bormoqda. Ushbu tadqiqotlarning natijasi o‘laroq, O‘zbekiston jahon sivilizatsiyasi o‘choqlaridan biri ekanligi jahon jamiyatchiligi tomonidan tan olingan holda e‘tirof etildi. Tarixning turli davrlariga oid innovatsiyalar va kashfiyotlar, dissertatsiyalar, ilmiy ishlanmalar, fundamental asarlar – monografiyalar, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari ko‘rinishida o‘quv jarayoniga joriy etilmoqda.

Tarixiy muammolar bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan olimlarning fidokorona mehnatlarini inkor etmagan holda, «O‘zbekiston tarixi» fanining dolzarb muammolari, yechimini kutayotgan mavzular, bahs-munozarali masalalar ham mavjud ekanligini ta‘kidlash maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunga qadar olib borilgan tarixiy tadqiqotlar haqida ko‘p gapirish mumkin. Ammo O‘zbekiston tarixining tarkibiy hamda yordamchi qismlari bo‘lgan arxeologiya, etnologiya, numizmatika va san‘atshunoslik, tarixshunoslik, manbashunoslik va muzeyshunoslik, tarixiy demografiya, tarixiy geografiya, fan tarixi kabi sohalarda tadqiqotlarga muhtoj





bo'lgan mavzular, bahs-munozaralarga sabab bo'layotgan muammolar ham talaygina.

Bu o'rinda fanning har qanday yo'nalishida tadqiqotlar ko'lamini qanchalik kengaysa, muammoli masalalar ham shunchalik ko'payishini ta'kidlash lozimdir. Darslik yaratish nuqtayi nazaridan barcha dolzarb muammolarni sanab o'tishning imkoniyati yo'q. Shunga qaramasdan, o'quvchilar e'tibor berishlari kerak bo'lgan ayrim masalalarga qisqacha to'xtalib o'tishni lozim topdik. Mutaxassis talabalar, ya'ni tarix yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan respublika oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilayotgan «O'zbekiston tarixi» darsligi hanuzgacha yaratilmagan.

«O'zbekiston tarixi» fanining tarkibiy qismlari bo'lgan arxeologiya, numizmatika, muzeyshunoslik, san'atshunoslik, tarixshunoslik kabi fanlardan ham mutaxassis talabalar uchun tavsiya etiladigan darsliklar va o'quv qo'llanmalari yaratish O'zbekiston tarixini o'qitish samaradorligiga juda katta ijobiy ta'sir ko'rsatishi shubhasizdir.

Yurtimiz tarixining davrlari, taraqqiyot bosqichlari va madaniy yuksalish jarayonlari rang-barangdir. Har bir muayyan tarixiy davr o'z navbatida ko'plab tarixiy-madaniy jarayonlar bilan bog'liq holda kechgan. Xususan, qadimgi davrdan boshlab yuz bergan ilk davlatchilik va shaharsozlik madaniyatining taraqqiyot bosqichlari, ijtimoiy-siyosiy tizim va davlat boshqaruvi, etnomadaniy va iqtisodiy aloqalar, migratsiya jarayonlari, ko'chmanchi va o'troq aholi o'rtasidagi munosabatlar, moddiy va ma'naviy madaniyatning rivojlanishi kabi ko'plab jarayonlar bevosita bir-biri bilan bog'liq holda bo'lib o'tgan. Ulardagi o'zaro bog'liqlik va o'ziga xoslikni ko'rsatib berish ham fandagi muammolardan biri hisoblanadi.

«O'zbekiston tarixi» fanining qadimgi va o'rta asrlar davri bo'yicha – ilk davlatchilikning shakllari va turlari, boshqaruv shakllari, unvonlar va mansablar, etnogenez masalalari, turli davrlardagi migratsiya jarayonlari, o'rta asrlar shaharlari va boshqa masalalar hali ko'plab tadqiqotlar talab etadi.

Masalaning yana bir e'tiborli tomoni shundaki, tarixning turli davrlari bo'yicha mavjud bo'lgan dolzarb muammolar yuzasidan

tadqiqot ishlari olib borilib, ularning natijalarini darsliklar va o'quv qo'llanmalar orqali o'quv jarayoniga joriy etish «O'zbekiston tarixi» bo'yicha ta'lim olayotgan mutaxassis talabalarning bu fanni yanada chuqurroq va teranroq o'zlashtirishlari uchun katta imkoniyatlar yaratishi shubhasizdir.

### **1.3. O'zbekistonning qadimgi va o'rta asrlar tarixini davrlashtirish. Jahon tarixini davrlashtirish to'g'risidagi nazariyalar**

O'rta Osiyo xalqlarining tarixiy taqdiri qadimgi davrlardan boshlab bir-biriga uzviy bog'langan bo'lib, O'zbekiston tarixi mintaq va jahon tarixining ajralmas qismidir.

So'nggi yillarda O'zbekistonning turli hududlarida arxeologiya, antropologiya, tarixiy etnografiya, epigrafika va numizmatikaga oid kashfiyotlar tufayli tarixni xolisona yoritishga xizmat qiladigan muhim ma'lumotlar to'plandi. Ular yurtimiz tarixining qadimgi bosqichlaridagi iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy-siyosiy jarayonlari haqida yanada to'laroq tasavvurlar hosil qilish imkonini beradi. Yangi ilmiy ma'lumotlar eng qadimgi xo'jaliklar va mehnat qurollari, xo'jalikning ishlab chiqaruvchi shakllariga o'tilishi, ishlab chiqarishda metallning ishlatila boshlanishi, ayirboshlash va savdo-sotiq, ilk shaharlar va davlatlarning tashkil topishi va boshqa tarixiy-madaniy jarayonlar bilan bog'lanadi. Davrlashtirish – insoniyat tarixini o'z xususiyatlariga ega, turli belgilarga ko'ra, bir-biridan ajralib turgan katta davrlarga bo'lishdir.

O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekiston tarixini zamon talablariga asoslanib davrlashtirish masalasida olimlar orasida bahs-munozaralar davom etmoqda. Mazkur mavzu turli yillarda tadqiqotchilar tomonidan ko'rib chiqilgan (S.P. Tolstov, V.M. Masson, E.V. Rtveladze, A.A. Asqarov, R.X. Sulaymonov va boshq.). Bu muammo yuzasidan, xususan, qadimgi davrlar va o'rta asrlar tarixini davrlashtirishga oid turli fikr-mulohazalar bildirilgan. Shu bilan birga, jahon tarixshunos-



ligida tarixiy davrlashtirish masalasiga doir to'plangan tajriba, uning ijobiy va salbiy tomonlari deyarli tahlil qilinmadi. Ayniqsa, o'tgan asrning 90-yillarida tarixiy ildizlarni bilishga tabiiy intilishdan kelib chiqqan ayrim mualliflarning kitoblarida tarixni davrlashtirish orqali ta'riflash mezonini unutildi.

Mustaqillik yillarida haqqoniy tarixni yaratish borasida olib borilgan tadqiqotlar tufayli sovet davri tarixshunosligida ustunlik qilgan markscha nazariyaga tayangan jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy belgilarga ko'ra, tarixni davrlashtirish masalasi qayta ko'rib chiqildi.

Ma'lumki, markscha g'oyalarga asoslangan jahon tarixini tizimli anglash yondashuvi XIX–XX asrlar tarix fani taraqqiyotiga kuchli ta'sir qildi. Bu g'oya turli xalqlarning bir xil, umumiy qonuniyatlari ta'siridagi tobora o'sib boradigan rivojlanishi nazariyasidan kelib chiqqan. Insoniyat tarixi markscha qarashlarida yuksalgan ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarning tadrijiy almashuvi sifatida bayon etildi. Mazkur g'oya ko'p jihatdan Yevropa mamlakatlari tarixiga mos keladi. Misol uchun, quldorlik tuzumi Qadimgi Yunoniston va Rimda, feodalizm – Fransiyada, kapitalizm – Angliyada klassik tarzda namoyon bo'ldi. Biroq sovet davri tarixshunosligida, bu nazariya jahonning turli mintaqalarida o'z xususiyatlariga va rivojlanish qonuniyatiga ega tarixiy jarayonlari inobatga olinmagan holda, boshqa mamlakatlar va xalqlar tarixiga nisbatan umumiy qonun tarzda qo'llanildi.

Ma'lumki, yer yuzida hayot va insoniyatning vujudga kelishi haqidagi ilk tasavvurlar Qadimgi Sharq va Yunoniston asotirlarida o'z aksini topdi. Yunon tarixchisi Gerodot (mil. avv. 484-yilda Kichik Osiyodagi Galikarnass shahrida tug'ilgan, mil. avv. 431–425-yillar o'rtasida vafot etgan) Qadimgi Sharq xalqlari va yunon-fors urushlari tarixini yoritib, ahamoniylar sulolasi podsholari (Kir II, Kambiz, Doro I, Kserks) hukmronligi yillari sanasining izchilligida voqealarni bayon etgan. Muallif dunyoda mashhur tarixiy asarlardan biri «Tarix» kitobini yozishda tarixiy, geografik va etnografiya materiallaridan keng foydalangan. Gerodot 10 yil davomida Old Osiyo, Misr, Ossuriya, Bobil va Qora dengizning shimoliy sohillariga sayohat qilib, ko'pdan ko'p tarixiy ma'lumotlar to'plagan.

Yunon-rim tarixchilari va faylasuflari tarixiy voqealar va dalillarni tizimli bayon etish uslubini yaratishdi. Qadimgi Rim faylasufi va shoiri Lukretsiy Kar (mil. avv. 99–55-yillar) insoniyat tarixini ilk bor uch davrga ajratdi – bu tosh, mis va temir davrlaridir.

XV–XVI asrlarda Italiyada «**medium aevum**», ya'ni «**o'rta asrlar**» atamasi paydo bo'lib, XVII–XVIII asrlar tarixshunosligida «qadimgi dunyo», «**o'rta asrlar**» va «**yangi davr**» tarixi tushunchalari o'rin topdi. Mazkur davr tarixchilari qadimgi – antik davri tarixini madaniy yuksalish sifatida ta'rifladilar. Shuningdek, tarixni «qadimgi dunyo», «o'rta asrlar» va «yangi davr»ga ajratib o'rganish muayyan ma'noga ega emas, bu davrlashtirish tarixiy materiallarning farqlanishini aks ettiradi, xolos, degan g'oya ilgari surildi.

XVIII asrda shotland olimi A. Fergyson jahon tarixini «**yovvoyilik**», «**varvarlik**» va «**sivilizatsiya**» bosqichlariga ajratdi. Rimlik Lukretsiy Kar g'oyasi izidan borgan daniyalik qadimshunos K.Y. Tomsen XIX asrning 30-yillarida turli yodgorliklarda topilgan arxeologik materiallarni tosh, bronza va temir davrlarga ajratib berdi. Bu «uch asrlik» davrlashtirish tizimidan foydalangan shved olimi S. Nilson arxeologiya va etnografiya ma'lumotlarini qiyoslab, insoniyat tarixida «yovvoyi» bosqichi, nomadizm (ko'chmanchi chorvachilik), ziroatchilik davri va sivilizatsiya bosqichi namoyon bo'lgan, deb o'z nuqtayi nazarini bayon etgan.

1870-yillarda amerikalik etnograf – olim L.G. Morgan asarlarida ijtimoiy-iqtisodiy belgilarga asoslangan davrlashtirish tizimi taklif qilindi. L. Morgan insoniyat tarixidagi «yovvoyilik, varvarlik va sivilizatsiya» davrlarini alohida bosqichlarga bo'ladi: o'zlashtiruvchi xo'jaliklar – termachilik, ovchilik va baliqchilikning rivojlanishi, ishlab chiqaruvchi xo'jaliklar – dehqonchilik va chorvachilikning taraqqiy etishi, temirning kashf qilinishini davrlashtirishning yuqori nuqtasi sifatida e'tirof etdi. Morgan «ibtidoiy jamoa tuzumi asosini urug' tashkil etgan, u matriarxat va patriarxat davrlaridan iborat bo'lgan, ibtidoiy jamiyat iqtisodiyoti jamoatchilik mulkchiligiga tayangan va bu holat (jamoatchilik tamoyillari) insonning ijtimoiy



hayoti tomonlarini belgilab bergan». degan fikr-xulosalarni o'rtaga tashlagan. Tadqiqotchi urug'chilik jamoasi davrida umumiy turmush tarzi, mehnat qurollari va xo'jaligi hamda umumiy manfaatlar jihatdan odamlar guruhlarining birlashgani haqidagi qarashlarni birinchi bor fanga kiritgan. Shuningdek, u jamoatchilik va xususiy mulkchilik shakllarining nisbati masalasini ilgari surdi.

XIX asrda insoniyat tarixini har tomonlama rivojlangan ijtimoiy va madaniy komplekslar (majmualar) – sivilizatsiyalar belgilab berishi to'g'risida konsepsiya shakllangan. Shuningdek, turli mintaqalardagi jamiyatlar taraqqiyotiga geografik muhitning ta'siri, tabiat sharoitining xilma-xilligi tufayli inson madaniyati umumiy tarixiy qonuniyat asosida taraqqiy topmagani kabi g'oyalar paydo bo'ldi.


Sovet davri tarixshunosligida umumjahon – tarixiy jarayonlarning biryoqlama rivojlanishi tan olinib, madaniy-tarixiy konsepsiya, sivilizatsiya yondashuvidan foydalanishga markscha nazariya to'siq bo'lib turdi. Bu nazariya mazmunida ijtimoiy sinflarning vujudga kelishi, hukmron sinflarning manfaatlarini himoya qilish zaruriyati, qarama-qarshi sinflar o'rtasidagi doimiy ziddiyatlar va kurashlar haqidagi g'oyalar katta o'rin topgan edi.

Bir necha yuz ming yillarni o'z ichiga olgan eng qadimgi tarixni davrlashtirish haqida fanda yagona fikr yo'q. Yevropa va Osiyo hududlarida tarixiy va madaniy jarayonlar rivojlanishning notekisligi, ayniqsa, turli davrlarda moddiy madaniyatdagi o'zgarishlarning bir-biriga mos kelmasligi sababli, ayrim hududlarga tegishli sana va davrlashtirish bir-biridan farqlanadi.

Mehnat qurollari va hunarmandchilik buyumlari ishlab chiqarishning rivojlanishi va ularning xomashyo hamda ishlab chiqarish texnikasi izchil o'zgarishiga asoslangan qadimgi tarixning davrlarga bo'linishi va sanasi tizimidan, ya'ni arxeologik davrlashtirishdan foydalanish keng qo'llaniladi. Umumiy ko'rinishda bular tosh davri (paleolit, mezolit, neolit), mistosh davri (eneolit), bronza asri va temir davridir.

Arxeologik davrlashtirishni yer tarixining geologik davrlari bilan solishtirgan holda, pleystotsen – muzlik davri arafasi va muzlik davri, golotsen – muzlik chekinishidan so'ng davrlar ajratilib, ular Qadimgi Sharqda mil. avv. IV mingyillikka qadar ibtidoiy jamiyat tarixiga to'g'ri keladi. XX asrda L.G. Morgan davrlashtirish tizimi tahrir qilingan bo'lsa-da, uning ko'p jihatlaridan foydalanildi. Ibtidoiy tarixining ilk bosqichi «**ibtidoiy to'da**», ikkinchi bosqichi – «**ibtidoiy urug' jamoasi**» va so'nggi bosqichi – «**harbiy demokratiya**» davri deb atash rasm bo'ldi (S.P. Tolstov, M.O. Kosven, A.M. Xazanov va boshq.).

**O'rta Osiyo qadimgi tarixini davrlashtirish shartli ravishda quyidagicha namoyon bo'ladi:**



Tosh davri insoniyat tarixida eng uzoq davom etgan zamon bo'lib, moddiy manbalar va arxeologik yodgorliklar topilgan joylar nomiga qarab, alohida bosqichlar va madaniyatlarga bo'linadi. Qadimgi tosh davri – paleolit tarixi bilan antropogenez – odamning paydo bo'lishi va rivojlanishi muammosi bog'lanadi.

Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, O'rta Osiyo janubida ilk davlatchilik tuzumiga o'tish bosqichi bronza davriga to'g'ri keladi. Mintaqaning boshqa hududlarida ilk shaharlar va davlatlarning vujudga kelishi turli davrlar bilan belgilanadi. Ularning o'troq dehqonchilik viloyatlarida va dasht chorvadorlar madaniyati sharoitida shakllanishi turlicha omillarga asoslangan. Mazkur xususiyatni ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni o'rganish va tarixni davrlashtirish jarayonida hisobga olish lozim.

O'rta Osiyo xalqlari ajdodlarining davlatchiligi tarixi ancha qadim ildizlarga ega. Asrlar davomida ular chet el bosqinchilari (ahamoniylar, yunon-makedonlar)ga qarshi kurash olib borishdi. Turli mahalliy sulolalar davrida o'lkamizda siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar o'zgarib turdi. O'rta Osiyo bronza davri tarixiga mansub yozma manbalar aniqlanmagan. «Avesto»da oila va jamoa, iqtisodiy va boshqaruv tizimiga oid, ya'ni kohin – «zaotara», jangchi – «ratayshtar», hunarmand – «xuti», ziroatchi – «vastyoshan» hamda uy egasi – «nmanopati», urug' jamoasi boshlig'i – «vispati», zodagon – «azata», mulk – «gayta», uy-qo'rg'on – «maytana» kabi ijtimoiy qatlamlar va mulk egalarini belgilab beruvchi maxsus tushunchalar mavjud. Ulardan ilk davlatchilik tizimiga o'tish va dastlabki davlatlarning rivojlanishi tarixini o'rganishda foydalanish mumkin.

O'zbekiston tarixini o'rganishda arxeologik davrlashtirish muhim ahamiyat kasb etdi. Shuningdek, qadimgi va o'rta asrlar tarixni davrlashtirish masalasida tarixiy-madaniy taraqqiyotning ijtimoiy-iqtisodiy omillariga asosiy e'tibor qaratildi. Tarix fanida yer yuzida odam paydo bo'lganidan toki Sharqda ilk davlatchilik vujudga kelgunigacha bo'lgan davrni «Ibtidoiy jamiyat tarixi» deb atash rasm bo'ldi. Milodiy 476-yilda G'arbiy Rim imperiyasi qulaguniga qadar kech-

gan voqealar «Qadimgi dunyo tarixi» deb ataldi. Yangi madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy shakllar rivojini o'z ichiga olgan olis jarayonlar tarixi turli-tuman arxeologik manbalar asosida o'rganiladi.

«Qadimgi dunyo tarixi» ibtidoiy urug'chilik tuzumining yemirishi natijasida quldorlik davlatlarning vujudga kelishi, o'rta asrlar – ularning o'rnida feodal ishlab chiqarish usuliga asoslangan davlatchilikning tarixi sifatida tavsiflangan. Bunday yondashuv ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarining shakllanishi, rivojlanishi, inqirozi, ya'ni tobora o'sib almashuvi nazariyasiga asoslangan.

Shu bois O'rta Osiyo ilk o'rta asrlar (V–VIII) davri G'arbiy Yevropada feodal jamiyati vujudga kelishi sabablari, uning xususiyatlari va rivojlanish qonuniyatlarining ayrim jihatlari bilan qiyoslandi.

O'rta Osiyo ilk o'rta asrlar ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarini (mulkchilik, yer egaligi, mulkdorlar ahvoli, ijtimoiy guruhlarning o'zaro aloqalari) Yevropa ilk o'rta asrlar jamiyati bilan qiyoslaganda quyidagi holatlar e'tiborga molik:

– O'rta Osiyoga nisbatan G'arbiy Yevropada ilk o'rta asrlar uzoq davr mobaynida rivojlangan (V asr oxiri – XI asr o'rtalari);

– G'arbiy va Markaziy Yevropa mamlakatlari ilk o'rta asrlarda taraqqiyot jihatdan O'rta Osiyodan orqada qolgan, misol uchun, franklar jamiyatida xususiy – oilaviy yer egaligi VI asrda shakllana boshlagan;

– O'rta Osiyoga nisbatan ilk o'rta asrlarda G'arbiy Yevropada shaharlar madaniyati rivojlanmagan (Fransiya, Angliya va Germaniyada dastlabki shaharlarning vujudga kelishi jarayoni X–XI asrda boshlanadi), xo'jalik shakllari va hunarmandchilik natural ahamiyatga ega bo'lib, savdo-sotiq va tovar-pul munosabatlari sust taraqqiy topgan, hunarmandchilik esa qishloq xo'jaligidan ajralib chiqmagan;

– feodalizm klassik tarzda namoyon bo'lgan Fransiyada VIII asr oxiridan boshlab hosildor yerlarning asosiy qismi (shuningdek, o'tloqlar, o'rmonlar, ko'llar) qirol, cherkov va feodallar qo'lga o'tadi, dehqonlar ularga qaram bo'lib, og'ir majburiyatlarni bajarishgan. Shu bois, O'rta Osiyo ilk o'rta asrlar jamiyati taraqqiyoti-



da va Yevropa ilk oʻrta asrlar davri ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida oʻxshashliklar deyarli yoʻq.

Oʻrta Osiyoda tarixiy voqelik, jumladan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, yer va mulk egaligi ham mutlaq boshqa boʻlgan. Shu sababli, mintaqa oʻrta asrlar tarixiga Yevropa tarixiga oid formatsiyali yondashuvdan kelib chiqqan «feodalizm» va «feodal jamiyati» kabi atamalar mazmuni koʻp jihatdan mos kelmaydi.


Oʻrta Osiyo, jumladan, Oʻzbekiston qadimgi davr va oʻrta asrlar tarixini davrlashtirishda hanuz inkor etilmagan arxeologik davrlashtirish va fanda eʼtirof etilgan atamalar (paleolit, mezolit, neolit, bronza davri, ilk temir asri, antik davri, ilk oʻrta asrlar, rivojlangan oʻrta asrlar) hamda etnik va siyosiy, sulolaviy belgilarga asoslangan (ahamoniylar, salavkiylar, yunon-baqtriya, yuechji-kushonlar, afrigʻiylar, eftaliylar, Turk xoqonligi, Arab xalifaligi, somoniylar, qoraxoniylar, anushteginiylar va h.k.) davrlashtirish tamoyillaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

#### 1.4. Manbashunoslik va tarixshunoslik masalalari

Oʻzbekiston tarixini oʻrganishda manbalarning oʻrni va ahamiyati ulkan ahamiyat kasb etadi. Ular xalqimizning madaniy-tarixiy boyligi hisoblanib, maxsus arxivlarda, kutubxona va muzeylarda avaylab, ehtiyotkorlik bilan saqlanmoqda. Xalq ogʻzaki ijodi orqali avloddan avlodga meros boʻlib oʻtib kelayotgan tarixiy voqea va hodisalar bayoni, nomoddiy madaniyat asosida bizgacha yetib kelgan.

Binobarin, aynan tarixiy manba va yodgorliklar orqaligina tarixni yoritish – tarixiy maʼlumotlarni va dalillarni olish, ularni qiyoslash va umumlashtirish, tarixiy-madaniy jarayonlar hamda voqea-hodisalarning sabablari va oqibatlarini, mazmun-mohiyatini tahlil qilish asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish imkoniyatlari kengayadi. Oddiyroq qilib aytganda, maʼlum manbalar va ularni umumlashtirmasdan turib haqqoniy tarixni yaratish mumkin emas.

#### Arxeologik yodgorliklar va moddiy manbalar turlari



Tarixiy manbalarni umumiy tabiati, oʻtmishni oʻzida aks ettirishiga qarab quyidagi besh asosiy turkumga boʻlish mumkin:

**1. Moddiy yoki arxeologik manbalar.** Maʼlumki, eng qadimgi davr tarixining oʻziga xos xususiyati shundan iboratki, u yozma manbalar orqali yoritilmagan. Odamzodning uzoq oʻtmishidan darak beruvchi asosiy maʼlumotlar – moddiy (ashyoviy) manbalar boʻlib, ularning barchasini odamlar yaratgan va ular inson hayoti hamda faoliyatida muhim oʻrin topgan. Moddiy manbalarning koʻpi yer ostida arxeologik yodgorliklarning madaniy qatlamlarida saqlanadi va ular arxeologik qazuv ishlari orqali topib tekshiriladi.

Moddiy ashyoviy manbalarga insonning turmush tarzi, moddiy madaniyati va ishlab chiqarish bilan bogʻlangan topilmalar, yaʼni tosh, suyak, metallardan ishlangan mehnat hamda jang qurollari, qoʻlda va charxda yasalgan sopol idishlar, kulolchilik buyumlari – urchuq



boshi, sopol chiroq hamda qadimiy zeb-ziynatlar, san'at buyumlari, tanga pullar va boshqa topilmalar kiradi. Moddiy manbalar yozuvsiz zamonlardagi tariximizni tiklash uchun ulkan ahamiyat kasb etadi. Ular arxeologik yodgorliklar – odamlar yashagan joylar, eng qadimgi g'or-makonlari, qadimiy manzilgohlar, qishloq va shahar xarobalari, qoyatosh suratlari, hunarmandchilik ustaxonalari, istehkomlar, ibodatxonalar, qadimgi sug'orish inshootlari, ishlab chiqarish uchun xomashyo qazib olingan konlar o'rganilishi natijasida topiladi.

**2. Yozma manbalar** tarixiy manbalarning muhim va asosiy turi bo'lib, ular insonning ijtimoiy faoliyati, o'zaro munosabatlari natijasi o'laroq yaratilgan va o'sha zamonlarda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy voqealarni o'zida aks ettirgan manba sifatida O'zbekiston tarixini o'rganishda muhim o'rin tutadi. Ularga epigrafik yodgorliklar, ya'ni tosh, metall, suyak, yog'och, charm va sopolga bitilgan yozuvlar, «Avesto», mixxat yozuvlar, qadimgi va o'rta asrlar mualliflarining asarlari pergament va qog'ozlardagi qo'lyozmalar, o'rta asrlar binolari va qabr toshlaridagi yozuvlar kiradi.

Yozma manbalar o'z navbatida ikki turga bo'linadi: 1) Oliy va mahalliy hukmdorlar mahkamasidan chiqqan rasmiy hujjatlar (yorliqlar, farmonlar, inoyatnomalar va boshq.), moliyaviy hisobot daf-tarlari, rasmiy yozishmalar; 2) Tarixiy, geokosmografik hamda bibliografik asarlar.

Tarixiy manbalarni o'rganishning o'zi tarix fanining maxsus sohasi bo'lib, mazkur fanning rivojlanishi va tarix yozilishida katta ahamiyatga ega. Hozirgi paytda manbashunoslik fani keng rivojlanmoqda. U yuqorida ko'rsatilgan metodologik ilmiy-nazariy usullarga tayanadi.

Manbashunoslik fani asosan tarixiy manbalarni o'rganish bilan mashg'ul bo'lib, manbalarning qimmatini, haqiqiy va haqiqiy emasligini aniqlash bilan birga, ularni turkumlarga ajratadi. Tarixiy manbalarni aniqlash va saralash, ularning ilmiy qimmatini belgilash, tahlil qilish va yaratilish tarixi, shart-sharoitini o'rganish kabi sohalarga bo'linadi.

Manbalar tarixiy jarayon va voqealarni o'zida aks ettirgan bo'lib, tarixiylikning in'ikosi bo'lmog'i kerak. Mana shunda ularning muhim ahamiyati va tarixiy ekanligi yuqori bo'lib, tarixiy haqiqatning yuzaga chiqishiga yaqindan yordam beradi.

**3. Etnografik manbalar.** «Etnografiya» so'zi yunon tilidan olingan bo'lib, (*ethnos* – xalq, *grapho* – yozaman) «xalq haqidagi ma'lumotlar, xalqshunoslik» degan ma'noni bildiradi.

Xalqlarning kelib chiqishi bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlar, masalan, xalq, qabila va urug' nomlari, inson qo'li, aql-zakovati bilan yaratilgan qurol va buyumlarning, naqsh va bezaklarning, kishilar ongida, shuningdek, og'zaki va yozma adabiyotida saqlanib qolgan ma'lumotlar (an'analar, urf-odatlar), kishilarning turmush tarzi etnografik manba hisoblanadi.

**4. Lingvistik manbalar.** Lotincha «*lingua*» – til so'zidan olingan. Tilimizdagi, uning leksik tarkibida uzoq o'tmishdan qolgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'muriy va huquqiy atamalar: *chokar* (ilk o'rta asrlarda katta yer egasining mol-u jonini qo'riqlab, uni ichki va tashqi yovlardan muhofaza qilgan), *kashovarz* (qishloq jamoalarining oddiy mehnatkash a'zosi), *kadivar* (katta yer egalari qaram bo'lib qolgan qishloqning ziroatkor aholisi); *vag'nze* (ibodatxona tasarrufidagi yerlar) va boshq.; joy, xalq, qabila va urug' nomlari: *do'rmon*, *qo'ng'iroq*, *mang'it*, *jaloir*, *qatag'on*, *ming*, *chig'atoy* va boshqalar ko'p uchraydi. Shu va shunga o'xshash terminlar, shubhasiz, qimmatli tarixiy material bo'lib, uzoq o'tmishdagi ajdodlarimizning ijtimoiy-siyosiy hayotini o'rganishda yordam beradi. Ularning kelib chiqishi va etimologiyasini lingvistika fani o'rganadi.

**5. Xalq og'zaki adabiyoti.** Og'zaki adabiyot madaniyatning eng qadimgi sohalaridan bo'lib, uning ildizi qadim zamonlarga borib taqaladi. Og'zaki adabiyotning ayrim namunalari qadimgi yunon tarixchilari, shuningdek, Sharq olimlarining asarlari orqali bizgacha yetib kelgan. Kaykovus, Jamshid va Siyovush, To'maris va Shiroq haqidagi qissalar shular jumlasidandir. «Alpomish», «Go'ro'g'li» kabi dostonlar, shuningdek, xalq ertaklari, marosim qo'shiqlari,



matal va topishmoqlarning o'z davri ijtimoiy munosabatlari tarixini o'rganishdagi o'rni beqiyosdir. Yozma adabiyotdan avval paydo bo'lgan bu xalq durdonalari turli ijtimoiy tabaqaga mansub kishilarning turmushi, ma'naviy qiyofasi, urf-odati, shu davrda hukm surgan ijtimoiy munosabatlar haqida qiziqarli ma'lumotlar beradi.

Minglab yillar davomida yaratilgan ushbu tarixni o'qitish va o'rganishda yordamchi fanlarning ahamiyati beqiyosdir. Chunonchi, O'zbekiston tarixini o'rganishda tarix fanining paleografiya, epigrafika, numizmatika, geraldika, sfragistika, diplomatika, xronologiya, metrologiya kabi yordamchi fanlar qo'lga kiritgan yutuqlarga tayaniladi.

**Paleografiya** (yunon. *palaios* – qadimgi, *grapho* – yozaman; qadimiy yozuv) qadimiy qo'lyozma asarlarning qog'ozi, muqovasi, siyohi, yozuvi va yozish usullarini tekshiradi.

**Epigrafika** (yunon. *epi* – ustida, tepasida, *grapho* – yozaman; biron narsa, buyum ustidagi yozuv) tosh, metall buyumlar, yog'och va boshqa qattiq buyumlar ustiga o'yib yozilgan qadimgi bitiklarni o'rganadi.

**Numizmatika** (yunon. *numisma* – pul) qadimiy pullarni, ashyosi, shakli, vazni, yozuvlari, zarb etilgan joyi va vaqtini tekshiradi.

**Geraldika** (lotin. *herald* – gerb, belgi, nishon) qadimiy gerblar, turli-tuman nishon va belgilarni o'rganadi.

**Sfragistika** (yunon. *sphragis* – muhr) qadimiy muhrlar va ularning yozuvlari hamda tasvirlarini o'rganadi.

**Diplomatika** (yunon. *diploma* – ikki buklangan qog'oz; hujjat) rasmiy hujjatlarni o'rganadi va tahlil qiladi.

**Xronologiya** (yunon. *xronos* – vaqt, *logos* – tushuncha, bilim; vaqt haqida tushuncha) qadimgi xalqlar orasidagi va mamlakatlarda amalda bo'lgan yil hisobi va taqvimini o'rganuvchi fan.

**Metrologiya** (yunon. *metron* – o'lchov, *logos* – tushuncha, bilim; o'lchovlar haqida tushuncha) o'tmishda turli mamlakatlar va xalqlar orasida amalda bo'lgan masofa, og'irlik va sath o'lchov birliklarini o'rganadi.

Mavjud o'quv qo'llanmalari va darsliklarning aksariyatida yoritilayotgan mavzuning tarixshunosligi berilmaydi. Mutaxassis talabalar uchun yaratilayotgan darsliklarda qisqacha, ekskurs tarzida ma'lum davr, mavzu va muammo bo'yicha tarixshunoslik yoritib berilsa, kelajakda tadqiqot ishlarini olib borishi mumkin bo'lgan iqtidorli yoshlarimiz uchun foydadan xoli bo'lmaydi. Shuningdek, tarixshunoslikdan boxabar bo'lish – yosh olimlarning istiqbolli va dolzarb mavzularni tanlashlari uchun katta ahamiyat kasb etadi.

«O'zbekiston tarixi» fani bo'yicha o'quv adabiyotlari yaratishda **tarixiy geografiya** va **toponimika** masalalariga ham alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Maktab va o'rta maxsus ta'lim uchun yaratilgan ayrim darsliklarda xaritalar berilgan bo'lsa-da, oliy ta'lim adabiyotlarida bu narsa deyarli yo'q hisobi. Tarixiy geografiya va toponimika bilan bog'liq bo'lgan – tog'lar, daryolar, ko'llar, dasht hududlari, tekisliklar, voha va vodiylar, qadimgi makonlarning joylashuvi, hududlarning chegaralari, joy nomlari hamda ularning mazmun-mohiyati, kelib chiqishi kabi ko'plab masalalar bo'yicha ma'lumotlar olish talabalar bilimining yanada chuqurlashuviga keng imkoniyatlar yaratadi.

Shuningdek, geografik nomlar, ularning ma'lum xalqlar va elatlar yashaydigan hududlarda paydo bo'lganligi, bu jarayon tabiiy-geografik shart-sharoit, xo'jalik shakli, turmush tarzi, urf-odat va an'analar bilan bog'liq bo'lganligi bois ham soha mutaxassislari tor yo'nalishli tadqiqotlarda tarixiy geografiya va toponimikani chetlab o'tisholmaydi.

Tarixni o'rganishda lozim bo'lgan yana bir muhim jihat – **madaniy meros va ma'naviyat** masalasidir. O'z tarixini chuqur anglagan, o'rgangan va bilgan xalq yoki millat hech qachon o'zligini yo'qotmasligi barchaga ayon. Istiqloq yillarida xalqimizning qadriyatlarini, urf-odatlarini, marosimlari va bayramlari, og'zaki ijodi an'analarini qayta tiklash va targ'ib etishga zamin yaratildi. Tarixiy-madaniy merosni o'rganish yoshlarimizda tarixiy ongning rivojlanishiga, o'z ajdodlarining qanday bunyodkor bo'lganligini, xalqimiz



madaniyatining jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rnini anglab yetishlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston hududlarida sodir bo'lgan tarixiy-madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar, turli davrlarda yuz bergan madaniy yuksalish va inqiroz holatlari, bosqinchilarga qarshi ozodlik kurashlari, ezgulik va bunyodkorlikka intilishi, bu yurtda buyuk allomalar faoliyati O'zbekistonning o'ziga xos serqirra va rang-barang tarixidan dalolat beradi. Aynan shuning uchun ham bu tarix eng qadimgi davrlardan boshlab minglab yillar davomida ajdodlarimiz va xalqimiz tarixi sifatida o'rganilib, o'ziga xos tarixshunoslik yo'nalishiga ega.

Umuman olganda, «tarixshunoslik» atamasi quyidagi ma'noda muhim masalalarni o'rganishda qo'llanishi mumkin:

1. Mamlakatlar, tarixiy-madaniy viloyatlar, elatlar, xalqlar, sulolalar tarixi tarixshunosligi.

2. Ma'lum bir tarixiy davr tarixshunosligi (masalan: tosh davri, bronza va temir asri, o'rta asrlar).

3. Tarixiy-madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar tarixshunosligi, alohida ilmiy maummolar, mavzularning o'rganilishi tarixi (tarixiy sivilizatsiyalar va shaharlar, etnogenez masalalari, madaniy aloqalar va qadimgi yo'llar, diplomatiya va xalqaro munosabatlar, me'morchilik va tasviriy san'at, yozuv madaniyati va boshq.).

O'rta Osiyoning qadimgi hamda o'rta asrlar tarixi va madaniyatiga oid quyidagi manbalar mavjud:

1. «Avesto», qadimgi fors bitiklari, yunon-rim tarixchilari va geograflarning O'rta Osiyo xalqlari haqidagi ma'lumotlari (Gekatey, Gerodot, Ktesiy, Diodor, Strabon, Kvint Kursiy Ruf, Arrian, Pompey Trog, Pliniy, Tassit va boshq.).

2. Antik davri xorazm yozuv namunalari va hujjatlari, baqtriya-yunon, baqtriya-kushon va sug'd yozuvlari hamda tangalardagi yozuvlar.

3. Ilk o'rta asrlar mualliflarining xabarlari (vizantiyalik Prisk Paniyskiy, Prokopiy Kesariyskiy, Menandr Protektor, Stefan Vizantiyskiy, Suriya hujjatlari, arman va xitoy manbalari, xorazm yozuvlari, sug'd yozuvlari va boshq.).

4. O'rta Osiyo rivojlangan o'rta asrlar davri tarixiga doir asarlar (Tabariy, Firdavsiy, Narshaxiy, Beruniy, Ibn Xavqal, Maqdisiy, Istaxriy, Balazuriy, Ibn Fadlon, Bayhaqiy, Ibn Xurdodbeh va boshq.).

5. Movarounnahrda mo'g'ullar hukmronligi davri haqida ma'lumotlar beruvchi manbalar (Shahobiddin Nasaviy, Juvayniy, Rashediddin, Jalol al-Qarshiy, Hamidulloh Qazviniy va boshq.).

Bugungi kunga kelib tarixshunoslik va manbashunoslik maxsus fanlar sifatida to'la shakllandi.

#### *Tayanch so'zlar*

Ijtimoiy fanlar, voqea-hodisalar, inson va tabiat, o'tmish tajribasi, ilmiy-nazariy asoslar, usullar, fan tamoyillari, davrlashtirish, tarixiy manbalar, yozma manbalar, moddiy manbalar, etnografik ma'lumotlar, lingvistik ma'lumotlar, arxiv manbalari, manbashunoslik, tarixiy geografiya, toponimika, madaniy meros, bunyodkorlik, ezgulikka intilish, bag'rikenglik.

#### *Savol va topshiriqlar*

1. O'zbekiston tarixi fanining ahamiyatiga baho bering.
2. O'zbekiston tarixi fanining predmeti va obyekt haqida ma'lumot bering.
3. O'zbekiston tarixi fanining usullari va tamoyillari haqida fikr yuriting.
4. O'zbekiston tarixi fanining maqsadi hamda vazifalari xususida so'zlab bering.
5. Tarixni davrlashtirishda nimalarga asosiy e'tibor berish lozim?
6. Tarix fanining metodologiyasi deganda nimani tushunasiz?
7. O'zbekiston tarixini o'rganishdagi manbalar haqida ma'lumot bering.
8. Tarixni o'rganishdagi manbalarning turkumlari, ularning o'ziga xos jihatlari haqida so'zlab bering.
9. Tarixni o'rganishda yordamchi fanlar haqida qanday fikr bildirasiz?
10. Tarixni o'rganishning ahamiyati to'g'risida gapirib bering.



### *1-mavzu bo'yicha foydalanilgan adabiyotlar*

1. *Алимова Д.А.* О некоторых современных проблемах в изучении истории Узбекистана // *О'zbekistonda tarix fani: yutuqlar va rivojlanish muammolari.* I qism. – T., 2006. – B. 6–13.
2. *Asqarov A.* O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. – Toshkent: Universitet, 2007.
3. *Asqarov A.* O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi. – Toshkent: «O'zbekiston», 2015.
4. *Isomiddinov M., Mirsoatova S.* «Farg'ona odami» va antropogenez jarayoni // *Vodiynoma.* – Toshkent, 2016. №1.
5. Новая история Центральной Азии. Переоценка истории, современные проблемы и подходы // *Материалы международной научной региональной конференции.* – Ташкент, 2004.
6. *Перциц А.И., Монгайт А.Л. Алексеев В.П.* История первобытного общества. – М.: Высшая школа, 1968.
7. *Rasulov A., Isoqboyev A.* Tarix fanining ilmiy tadqiqot asoslari va uslubiyoti. – Namangan, 2008.
8. *Ртвеладзе Э.В., Сагдуллаев А.С.* Современные мифы о далеком прошлом народов Центральной Азии. Издание 2-е, дополненное. – Ташкент, 2007.
9. *Rtveladze E.V., Saidov A.X., Abdullayev Ye.V.* Qadimgi O'zbekiston sivilizatsiyasi: davlatchilik va huquq tarixidan lavhalar. – T.: «Adolat», 2001.
10. *Sagdullayev A.S.* Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. – Toshkent: Universitet, 2004.
11. *Sagdullayev A., Aminov B., Mavlonov O., Norqulov N.* O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. – T.: «Akademiya», 2000. – 271 b.
12. *Toshpo'latov T., G'afforov Ya.* Tarix o'qitish metodikasi. – Toshkent: «Turon-Iqbol», 2010.
13. *Xolboyev S.* Milliy mustaqillik va taraqqiyotning o'zbek modeli. – Toshkent: «O'zbekiston», 2015.
14. *Eshov B.* O'zbekiston tarixini davrlashtirish masalalari. // *O'zbekiston tarixi fanidagi innovatsiyalar.* – Toshkent: «Noshir», 2012.
15. *Eshov B.J., Odilov A.A.* O'zbekiston tarixi. I jild. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2014.

### 2-MAVZU

#### O'ZBEKISTON TARIXINING ENG QADIMGI DAVRI

##### Reja:

- 2.1. Insoniyatning dastlabki ajdodlari. Antropogenez jarayoni.
- 2.2. Paleolit – qadimgi tosh davri tarixi.
- 2.3. Mezolit, neolit va eneolit davri tarixi.
- 2.4. Ibtidoiy e'tiqodlar va tasviriy san'at.

##### 2.1. Insoniyatning dastlabki ajdodlari. Antropogenez jarayoni

Hozirgi davr tarixshunosligida olimlarning bir guruhi odamzodning dastlabki vatani Afrika degan fikrni ilgari sursa, boshqalari – Yevropa va Osiyo deyishadi. Insoniyatning kelib chiqishi va rivojlantirish masalasi bir necha avlod tadqiqotchilari tomonidan o'rganilib, turli nazariyalar yuzaga kelgan. Antropogenez eng qadimgi davr tarixini o'rganishda muhim va dolzarb muammo hisoblanadi.

Turli davrlarda yashagan mutafakkirlar insoniyatning paydo bo'lishi haqida ilmiy ta'rifga yaqin fikrlarni bayon etishgan. Yunon faylasuflari mil. avv. VI–V asrlardayoq odamning kelib chiqishi tamomila tabiiy hodisa deb tavsiflashga urinishgan. Ko'pchilik tadqiqotchilar insonni mehnat va aqliy jihatdan kamol topishi natijasida hozirgi darajasiga yetib kelgan, degan fikrni ilgari surishadi. Odamni xudo yaratganligi yoki odam boshqa koinotdan kelib yerga tarqalganligi haqidagi nazariyalar ham bor.

Geologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, osmoniy jism – Yer bundan besh milliard yil ilgari paydo bo'lib, unda dastlab hech qanday hayot bo'lmagan. Yer tarixi geologik jihatdan arxey, paleozoy, mezozoy va kaynozoy eralariga bo'linadi. Arxey erasi oxirlarida yerda oddiy mavjudotlar, paleozoyda esa suvda va quruqlikda yashovchi

hayvonlar, mezozoyda sudralib yuruvchi jonzotlar va nihoyat, kaynozoyda sut emizuvchi hayvonlar paydo bo'ladi. Kaynozoy erasining to'rtlamchi davri bundan 3 mln yil ilgari boshlanib, bu davrda odamzodning dastlabki ajdodlari paydo bo'ladi.

Fanda odamning paydo bo'lishi masalasi arxeologik va antropologik ma'lumotlar bo'yicha o'rganiladi. Avvalambor, insoniyat paydo bo'lishining Qadimgi Sharq va Yunoniston asotirlari ma'lum va ilohiyot bilan bog'liq bo'lgan nazariyalar mavjud.

Yakka xudolikni targ'ib etgan barcha diniy ta'limotlarda insonning paydo bo'lishi yoki yaratilishi ilohiyot bilan bog'lanadi. Xususan, Bibliya ta'limotiga ko'ra, odam xudo tomonidan tuproqdan yaratilgan. Muqaddas Qur'oni karimda esa odamning loydan yaratilib, Allohning irodasi bilan unga jon ato etilgani ta'kidlanadi. Insoniyatning ilk vakillari sifatida Bibliyada Adam va Yeva, Qur'oni karimda Odam Ato va Momo Havo nomlari keltiriladi. Hozirgi kunda odam paydo bo'lishi haqidagi diniy va dunyoviy ta'limotlar birbiridan ajralgan holda, mustaqil rivojlanmoqda. Jahon miqyosida ikkala ta'limotning ham tarafdorlari ko'p.

Dunyoviy fanlar, xususan, antropologiya, arxeologiya, tarix fani antropogenez jarayonini ilm-fan sohalarida erishilgan natijalarning dalillariga asoslanib o'rganadi. Tarix fanida insoniyat tabiatning bir qismi bo'lib, u yerdagi taraqqiyotning ma'lum bosqichida vujudga kelib, uzluksiz izlanish va mehnat tufayli takomillashib borganligi haqidagi xulosalar ustunlik qiladi. Fanda odamning paydo bo'lishi va rivojlanish jarayoni antropogenez (yunoncha *antropos* – odam, *genesis* – kelib chiqish, rivojlanish) deb ataladi.

Ilmiy adabiyotlarda antropogenez jarayoni quyidagi bosqichlarga bo'lib o'rganiladi:

1. Odamning ibtidoiy ajdodlari.
2. Eng qadimgi odamlar.
3. Hozirgi qiyofadagi qadimgi odamlar.

XIX asrning ikkinchi yarmida insonning kelib chiqish masalasi bilan bog'liq evolutsiya (rivojlanish, takomillashish) nazariyasi vujudga

keldi. Shu tariqa tabiatshunoslik ta'sirida etnologiya fanida evolutsiya maktabi paydo bo'ldi. Mazkur oqim yo'nalishida ustunlik qilgan ta'limotga ko'ra, organik – jonli olam singari, inson, jamiyat va madaniyat quyi shakllaridan yuqori, yuksalgan shakllariga sari bosqichma-bosqich tadrijiy rivojlangan. Yevropa tabiatshunoslari bu jarayonda mehnatning roli yuksak bo'lganligini ta'kidlashadi. Bunda ibtidoiy odamning mehnat faoliyati asosida jismoniy va aqliy o'zgarishiga urg'u berilgan edi. Antropologiya fanida ilk qazilma va zamonaviy qiyofadagi odamlar oilasi «*hominidae*» – «gominiylar» deb ataladi.

XX asrda olimlar ibtidoiy odamlarning ilk ajdodlarini 1925-yilda Janubiy Afrikada R. Dart tomonidan topilgan «*australopithecus*», ya'ni «janubiy maymun» deb atalgan qazilma odam bilan bog'ladilar. U bundan 6–5 million yil ilgari shakllangan. Avstralopitek tik turib yurgan bo'lsa ham, biroq zamonaviy qiyofadagi odamning eng qadimgi ajdodlaridan ancha farqlangan. Shu bois, ayrim antropologlar uni inson ajdodi bo'lishidan shubhalanadi, boshqalari esa avstralopitekdan antropogenez jarayoni boshlangan, deb hisoblaydi.

Taxminan bundan 2 mln yil avval ancha takomillashgan gominiylar vujudga keladi. Ularning qazilma skelet suyaklari va tosh qurollari Efiopiya hududida hamda Tanzaniyadagi Olduvay darasida (Sharqiy Afrika) topilgan («*zinjantrop*»). Bu ibtidoiy odamlar paleoantropologiya fanida lotincha maxsus atama bilan «*homo*», ya'ni «odam», ularning dastlabki turlari «*homo habilis*» – «ishbilarmon odam» va keyingi bosqich vakillarini «*homo erectus*» – «tik yuruvchi odam» deb atash rasm bo'ldi. «*Homo erectus*» zamonaviy odamga ancha o'xshab, gavdasi baquvvatroq bo'lgan. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, u turli tosh qurollarini yasash ko'nikmalariga ega bo'lib, olovni bilib olgan va uni kashf etgan. Sharqiy Afrika iqlimi u paytlarda ancha salqin edi. Olov ibtidoiy to'da uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, sovuq kunlarda odamlarning tanalarini isitgan va yirtqich hayvonlardan himoyalashda vosita bo'lgan. «*Homo erectus*» odamlari uzoq masofalarda ko'chib yurib, keng mintaqalarni, jumladan Osiyo hududlarini o'zlashtirgan.



Osiyoda qazilma odamlar qoldiqlari Indoneziyadagi Yava orolidan XIX asrning oxirlarida topilgan bo'lib, fanda ularni «pitekantrop» («maymun – odam») deb atash rasm bo'lgan. Pitekantrop bundan taxminan 1 mln – 700–600 ming yil ilgari (E. Dyubua) yashaganliklari aniqlangan. Shuningdek, 1927-yilda Xitoy hududlaridan topilgan (D. Blek) qadimgi odam qoldiqlari («sinantrop» – «xitoy odami») bundan 600–500 ming yil ilgari davrga oidligi aniqlangan. Qadimgi qazilma odam qoldiqlari Germaniyaning Geydelberg va Vengriyaning Budapesht shahri yaqinidan ham topilgan.

Zinjantrop, pitekantrop va sinantrop gominiylar rivojlanishining ilk paleolit davri bosqichlarida yashashgan. Bu turdagi eng qadimgi odamlar gaudalarini tik tutib yurishgan va toshdan turli mehnat qurollari yasab, ulardan foydalana bilishgan. Qurol yasay bilishi, o'simlik ildizlari va mevalarni iste'mol qilishda shu qurollardan foydalanishi, shuningdek, ayrim hayvonlarni ovlashi ilk odamlarni hayvonot olamidanda ajratib turgan. Ibtidoiy odamlarning makonlaridan qo'pol tosh qurollar va hayvonlar suyaklari topilgan. O'rta paleolit odamning qazilma qoldiqlari Germaniyaning Neandertal vodiysidan topilganligi sababli fanda uni «neandertal odami» deb nomlash rasm bo'lgan. Neandertal qiyofadagi odamlarning suyak qoldiqlari bugungi kunga qadar Afrika, O'rta Yer dengizi qirg'oqlari, O'rta Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari hududlaridan, Qora dengiz bo'ylaridan, Shimoliy Yevropa hamda Osiyo yerlaridan ko'plab topilgan. Bu qiyofadagi odamlar jismoniy jihatdan nisbatan ancha baquvvat bo'lib, o'rtacha 20–25 yil umr ko'rgan. Ular toshdan xilma-xil qurollar yasab, yirik hayvonlarni ovlash ko'nikmalariga ega bo'lishgan.

Neandertalning tashqi qiyofasida ibtidoiy belgilar saqlanib, shuningdek, u zamonaviy qiyofadagi odamga ancha yaqinlashib qolgan edi.

Fransiyaning Tordoni viloyatidagi so'nggi paleolit davriga oid Kromanon g'oridan qadimgi odam qabrining o'rganilishi tufayli bu yerda baland bo'yli (180 sm), miya kosasi hajmi zamonaviy insonga o'xshash odam dafn etilganligi aniqlangan. Olimlar g'ordan topilgan

odam skelet suyaklari qoldiqlari asosida uning tashqi qiyofasini tikladilar. Kromanon g'orida topilgan odam «kromanon odami», ya'ni «**homo sapiens**» (aql-idrokli odam) deb ataldi. Zamonaviy odam dastlabki vakillarining suyak qoldiqlari bugungi kunda yer yuzining yuzdan ziyod makonlaridan ochib o'rganilgan. Kromanon odami zamonasiga kelib insonning biologik va jismoniy qiyofasi hozirgi zamon odamidanda farq qilmaydigan darajada edi. Kromanonlar davrida urug'chilik jamoasi vujudga keladi.

Yuqorida odamning paydo bo'lishi va rivojlanishi masalasiga qisqa ta'rif berildi. Mazkur mavzu o'ta bahsli muammodir. XX asrning 70-yillariga qadar antropogenezning biryoqlama nazariyasi tan olingan edi. (Homo erectus – neandertal – homo sapiens, ilk zamonaviy odam). Bugungi kunga kelib, odamning rivojlanishi jarayonidagi to'rtta yo'nalishi to'g'risida quyidagi g'oyalar ilgari surildi: 1) Yevropa neandertallari; 2) Afrika homo sapienslari; 3) Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo homo sapienslari; 4) Sibir-Olttoy homo sapienslari. O'lis o'tmish zamonlarda ular umumiy ildizga ega bo'lgan, keyinchalik bu odamlar bir daraxtning turli shoxlariga o'xshab ajralgan va davr o'tishi bilan yana birlashib, yaqinlashgan deb hisoblanadi. Mazkur nazariyaga ko'ra, neandertallar va ilk zamonaviy odamlar bir davrda, turli hududlarda istiqomat qilishgan. Ular biologik jihatdan aralashib (qorishib) borishgan va o'zaro aloqalarini davom ettirib, ko'nikmalar va bilim-tajriba, tosh qurollar yasash usullari hamda tosh qurollar bilan almashib turishgan.

Qiyosiy o'rganish uchun misol keltiradigan bo'lsak, o'tgan asrning 30-yillari boshlarida Falastinda «Echki g'ori» degan o'rta paleolit g'or-makonida tosh qurollari bilan birga ibtidoiy odamlarning skelet suyaklari aniqlangan. Antropologik belgilarga ko'ra, «falastin odamining» tashqi qiyofasi Yevropa neandertallaridan farq qilgan (peshonasi kengroq, miya kosasi balandroq, yuzining tuzilishi zamonaviy odamga yaqinroq bo'lgan). Shu bois neandertal va zamonaviy qiyofadagi eng qadimgi odamning qo'shilishi, qorishib ketishi haqidagi g'oya vujudga keldi. Shuningdek, zamonaviy ko'rinishdagi



odamning ildizlari juda qadimgi davrlarga borib taqalishi, uning neandertallar bilan bir zamonda rivojlanishi degan g'oyalar ilgari surildi.

Ammo sovet davri tarixshunosligida bu g'oyalar rad etildi, shu davr qarashlariga ko'ra, antropologik ko'rinishdagi neandertal odami doimo bir xil bo'lmagan, u tadrijiy rivojlanib, ancha o'zgaragan.

Bu nazariyaning davomi shundaki, o'rta tosh asridagi tinimsiz mehnat va tabiiy muhitni bilishga intilish jarayonida inson tafakkurining rivojlanishi natijasida, neandertal qiyofasidagi odamlar hozirgi qiyofali odamlarga aylana borishgan. Ular jismoniy va aqliy jihatdan kamol topib, zamonaviy qiyofadagi kishilar vujudga keldi va shu bilan antropogenez jarayoni nihoyasiga yetdi, deb taxmin qilindi.

Odamning paydo bo'lishi yerdagi eng buyuk hodisalardan biri bo'lib, u dastlab toshdan oddiy to'qmoq yasagan bo'lsa, uzluksiz mehnat, tinimsiz izlanishlar natijasida yuksak madaniyat yaratish darajasiga yetib keldi. Biroq ta'kidlash lozimki, insoniyatning paydo bo'lishi va rivojlanishi masalalarini o'rganishda talabalar turli nazariyalarga e'tibor berishlari lozim.

Toshkent viloyatidagi Obirahmat g'or-makonida yangi arxeologik tadqiqotlar tufayli, hozirdan taxminan 50 ming yil avval yashagan qadimgi odamning suyak qoldiqlari aniqlandi. Topilgan odam bosh suyagi va tishlari kromanon odamining neandertal odami bilan omuxtalashganligidan guvohlik beradi. Bu topilma, Falastinda «Echki g'ori»dagi paleoantropologik ashyolar singari hozirgi qiyofadagi odamlarning ajdodlari bilan neandertalning chatishganligidan dalolatdir. Shuningdek, Obirahmat odami qoldiqlarining topilishi natijasida, O'zbekiston hududi ilk zamonaviy odam – Homo sapiens shakllangan hudud hisoblanadi.

Antropogenez jarayonida mehnatning inson turmush tarzidagi o'zgartiruvchanlik mohiyatini arxeologiyaga oid manbalar tasdiqlaydi. Ularga ko'ra, turli davrlarga oid moddiy madaniyatning yangi asoslarda rivojlanishidan mehnat qurollarining o'zgarishi darak beradi. Inson o'zini o'rab olgan muhitni hamda tabiatda sodir bo'lgan

hodisalarni bilish oqibatida, uning dunyoqarashi, ilk e'tiqodlari va ma'naviy madaniyati rivoj topgan. Zero, zamonaviy odamning jismoniy va aqlli rivojlanishini ham mehnatsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

## 2.2. Paleolit – qadimgi tosh davri tarixi

Paleolit (yunoncha, *palaios* – qadimgi, *litos* – tosh) – insoniyat tarixining eng qadimgi davri bo'lib, uning boshlanish sanasi jahon tarixida taxminan bundan 3–2 mln yil ilgari davr bilan belgilanadi. Insoniyat minglab yillar davomida toshga ishlov berish texnikasini takomillashtirib va rivojlantirib borgan, turmush tarzi hamda yashash sharoitini yaxshilashga harakat qilgan. Paleolit davri arxeologik nuqtayi nazaridan uch bosqichga: ilk, o'rta va so'nggi bosqichlarga bo'linib o'rganiladi. Ular arxeologik davrlashtirishga mansub bo'lib, ibtidoiy jamiyatdagi qurollar yasash xomashyosiga va uni ishlash texnikasi o'zgarishini belgilariga ko'ra ajratilgani ma'lum.

Ilk paleolitning dastlabki davrida Janubiy va Markaziy Yevropada iqlim subtropik, Janubiy Osiyo va Afrikada tropik bo'lib, bu hududlarda bsiqsevar hayvonlar keng tarqalgan. Misol uchun, Yevropada fillar, begemotlar va yovvoyi otlar, Osiyoda yovvoyi ho'kizlar, karkidonlar, otlar va zebralar paydo bo'lgan va issiqsevar o'simliklar keng tarqalgan.

Ko'pchilik tadqiqotchilar O'rta Osiyo paleoliti haqidagi bahslarda bu jarayonni asosan Yevropa paleoliti bilan bog'lab kelishardi. Ammo so'nggi yillarda O'zbekiston arxeologlari tomonidan olib borilgan ko'pgina tadqiqotlar bu masalaga ancha oydinlik kiritdi.

O'zbekistonning paleolit davri yodgorliklarini o'rganishda qadimshunos olimlarning xizmatlari katta (A.P. Okladnikov, O'. Islov, M.R. Qosimov, T. Mirsoatov, R.H. Sulaymonov, E.B. Bijanov va boshq.). Ularning tadqiqotlari tufayli qadimgi tosh davriga oid muhim makonlar aniqlandi, ko'pdan ko'p arxeologik kashfiyotlar jahon miqyosida tan olindi.

Farg'ona vodiysidagi So'x daryosi vohasida Haydarkon qishlog'i chekkasida Selung'ur g'orida ilk paleolit davriga oid madaniy qat-



lamdan tosh parchalari va siniqlaridan yasalgan qirg'ichlar, tishsimon qurollar, qo'l cho'qmorlari, tosh bo'laklari topilgan. Shuningdek, g'or-makonidan yovvoyi hayvonlarga tegishli bo'lgan 5 mingdan ortiq suyak qoldiqlari aniqlangan.

Seleng'ur qurollarining yoshi 1 mln yildan ziyodroq, deb taxmin qilinadi. Topilmalarning orasidan eng ahamiyatlisi ibtidoiy odamning bosh suyagi parchasi, tishlari va yelka suyagi bo'lagidir. Arxeologiya fanida «Farg'ona odami» – «Fergantrop» deb shartli ravishda nomlangan bu qazilma odam qoldiqlari O'rta Osiyo insoniyatning eng qadimgi ajdodlari rivojlangan o'choqlardan biri ekanligidan dalolat beradi. Biroq O'rta Osiyoda ilk paleolit davri odamning butunlay saqlangan bosh suyagi topilmagan, shu sababli mintaqadagi bu davr ibtidoiy odamning antropologik tuzilishi haqida aniq bir narsa deyish mushkul.


Ko'lbuloq makonidan (Toshkent vil.) ko'p qatlamli yodgorlik ochilgan bo'lib, uning eng pastki qatlamlari ilk paleolit davriga oiddir. Qizilolmasoy va Toshsoy (Ohangaron) makonlaridan ham ilk paleolit davriga oid chopper, nukleus va qirg'ichlardan iborat tosh qurollar topilgan.

Ko'lbuloqda istiqloq yillarida o'zbekistonlik arxeologlarning chet ellik hamkasblari bilan qo'shma ishlari natijasida paleolitning barcha bosqichlariga oid (ilk, o'rta, so'nggi paleolit) madaniy qatlamlaridan tosh qurollar aniqlandi.

Ilk paleolit davri odamlari toshdan ishlangan sixchalar, chopqichlar, qo'l cho'qmorlari, tosh parchalari va siniqlaridan ishlangan qurollardan foydalanishgan. Qurollarning ko'pchiligi tashqi ko'rinishda qo'pol va soddadir. Eng qadimgi tosh qurollar mintaqaning turli hududlarida Janubiy Tojikistondagi Qizqal'a, Janubiy Turkmanistonda Qoratangir, Qirg'izistondagi On-Archa daryosi bo'yida (Norin tumani), Janubiy Qozog'istonda Chimkent shahridan shimoldagi Kichik Qoratog' oldida Bo'riqazigan va Tanirqazigan makonlaridan topilgan.

Bundan ko'rinib turibdiki, ilk paleolit davri makonlari tog'larda va tog'oldi hududlarida tarqalgan. Misol tariqasida, On-Archa mako-

ni dengiz sathidan 2500 m balandlikda, Seleng'ur g'ori esa 2000 m balandlikda joylashgan. Ilk paleolit davri makonlaridan topilgan hayvon suyaklari va tosh qurollari ibtidoiy odamlar ovchilik va termachilik bilan shug'ullanib, tabiatda tayyor mahsulotlarni o'zlashtirib yashashgan.



Ilk paleolit davri tosh qurollari

O'rta paleolit (muste madaniyati) – qadimgi tosh asrining muhim va ajralmas qismi hisoblanadi. Bu davrga kelib (bundan 100–40 ming yil muqaddam) neandertal qiyofali odamlar keng hududlarga yoyiladi hamda avvalgi davrga nisbatan tabiat bilan faolroq munosabatga kirishadi.

O'rta paleolit davrida tabiiy sharoit o'zgarib Yevropa, Osiyo va Amerikaning katta qismini ulkan muzliklar qoplaydi. Natijada mamontlar, shimol bug'ulari, ayiqlar, umuman sovuqsevar hayvonlar



keng tarqaladi. Muzlikning siljishi oqibatida ob-havoning sovushi neandertal odamlarning tabiiy sharoitga moslashishiga turtki bo'lgan edi. Bunday moslashuv yashash zaruriyatining turli ko'rinishlari – sovuqdan saqlanish, boshpana izlash, kiyim kiyish va olovni kashf etish kabilar bilan izohlanadi. Bu davr odamlari o'z faoliyatlari davomida dunyoni bilish, tabiat to'g'risida, undagi o'zgarishlar va voqealarga munosabat borasida ma'lum dunyoqarashga ega bo'lib, ibtidoiy bilimlar hamda fikrlash ko'nikmalarini egallay boshlaydi.

O'rta paleolit davrida tosh qurollar turlari va ularning vazifasi takomillashuvida anchagina o'zgarishlar kuzatiladi. Hozirgi kunda o'rta paleolit davri tosh qurollarining 60 dan ziyod turlari aniqlangan bo'lib, ular orasida o'tkir uchli qurollar va tarashlagichlar keng tarqalgan.

Bu davrga oid O'zbekistondagi dastlabki yodgorlik Teshiktosh (Surxondaryo) g'or makoni 1938-yilda A.Okladnikov tomonidan ochilgan edi. Keyinchalik O'rta Osiyo hududlarida tadqiqotchilar tomonidan o'rta paleolit davriga oid ko'plab makonlar aniqlandi va ularda tadqiqot ishlari olib borildi. Omonqo'ton (Taxtaqoracha dovoni, Samarqand), Qo'tirbuloq va Zirabuloq (Zarafshon vodiysi), Obirahmat (Toshkent viloyati), Ko'lbuloqning yuqori qatlamlari (Toshkent viloyati), Qizilnur (Qizilqum), Xo'jakent (Toshkent viloyati) kabi ko'plab makonlar o'rta paleolit davriga oiddir.

Boysun tog'idagi Teshiktosh g'or-makoni topilmalari dunyo arxeologiya fanida mashhurdir. Tadqiqotlar natijasida g'or-makonning beshta madaniy qatlamidan 3000 ga yaqin tosh qurollar topilgan. Shuningdek, turli hayvonlar: qoplon, yovvoyi ot, eshak, quyon va turli qushlarning suyak qoldiqlari aniqlangan. Tosh qurollar orasida qirg'ichlar alohida o'rin egallab, ularning ba'zilar kesgich qurol vazifasida ishlatilgan bo'lishi ham mumkin. Shuningdek, o'tkir uchli cho'qmorlar, tosh pichoqlar va sixchalar ham topilgan.

Eng muhimi shundaki, Teshiktosh g'or-makonining yuqori qatlamlaridan 9 yashar bolaning skelet suyaklari topilgan. Bu bola neandertal tipidagi qadimgi odam vakiiidir. U dafn etilganda ibtidoiy dafn

marosimlariga amal qililib, jasad atrofiga tog' echkisi shoxlari qadab qo'yilgan. Shuningdek, g'or-makondan gulxan izlari va kul qoldiqlari topilib, gulxan o'rni va atroflaridan tog' echkisi suyak qoldiqlari aniqlangan.

Toshkent viloyatidagi Obirahmat makoni Chotqol tizmasidagi Paltov soyining yuqori oqimida joylashgan. Makondan mehnat qurollari, jumladan, nukleuslar, parrakchalar, o'tkir uchli sixchalar, qirg'ichlar va keskichlar topilgan. Obirahmatdan bug'u va tog' echkisi, jayron, arxar suyaklari aniqlangan.

O'rta paleolit davri hayvonot olami turli-tuman bo'lib, neandertal odamlari tog' echkisi, bug'u, qulon, yovvoyi ot hamda mayda hayvonlarni ovlashgan. Ibtidoiy odamlar olovdan foydalanish va uni saqlash uslublarini bilib olishgan. Vaqt o'tib, odamlar yog'ochni yog'ochga ishqalash, chaqmoqtoshlardan o't chiqarish, ya'ni olovni sun'iy hosil qilish yo'llarini topishgan. Olov sovuqdan va yirtqich hayvonlardan saqlanish, go'shtni pishirishga imkoniyat yaratgan.

Toshkent vohasining Xo'jakent, Ko'lbuloq makonlari, Farg'ona vodiysidagi Bo'ribuloq, Tomchisuv yodgorliklari, Zarafshon vohasidagi Omonqo'ton, Qo'tirbuloq makonlari ham o'rta paleolit davriga oiddir.

O'rta paleolitning boshlariga kelib, shimoldan ulkan muzlikning siljib kelishi natijasida, iqlim tamoman o'zgaradi. Natijada, ibtidoiy odamlar turmush tarzida katta o'zgarishlar bo'lib o'tadi. Sovuq iqlim tufayli odamlar ko'proq g'orlarga joylasha boshlaydilar. Janubdagi kichik tuyoqli issiqsevar hayvonlar qirilib ketib, shimol bug'ulari, mamontlar, ulkan ayiqlar paydo bo'ladi. Yirik hayvonlarning yoyilishi esa, o'z navbatida, jamoa bo'lib ovchilik qilishning vujudga kelishiga olib keladi.

O'rta paleolit davrida g'or va ungurlarni o'zlashtirish, gulxan atrofida to'planish va nihoyat, jamoa bo'lib ov qilish uslublarining paydo bo'lishi mintaqadagi qadimgi odamlar hayotida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.





O'рта paleolit davri tosh quollari

O'рта paleolit davriga oid Uchtut shaxta-ustaxonasi topib tekshirilgan. Bu yodgorlik chaqmoqtosh kovlab olish bilan bog'liq bo'lib, Zarafshon vohasining o'рта qismida joylashgan (Navoiy viloyati). Shuningdek, Uchtutdan 1–2 km Sharqda Ijond va Vaush kabi o'рта paleolit makonlari aniqlangan. Ulardan hayvon suyaklari va turli xil tosh quollari (nukleuslar, sixchalar, keskichlar) topilgan.

So'nggi paleolit davri mil. avv. 40–12 ming yilliklarni o'z ichiga oladi. Bu davrga oid Samarqand makoni (shaharning o'zida), Xo'jag'or (Farg'ona vodiysi), Bo'zsuv va Tuyabo'g'iz, Ko'lbuloq (Toshkent viloyati), Takalisoy g'or-makoni (Samarqand viloyati) yodgorliklari topib tekshirilgan.

So'nggi paleolit davriga kelib qadimgi odamlar O'рта Osiyoning keng hududlariga tarqala boshlaydilar, ularning turmush tarzida va mehnat quollarida yangi unsurlar paydo bo'ladi. Qurollarning turlari ko'payadi. Ayniqsa, ovchilik bilan bog'liq bo'lgan nayzasimon o'tkir qurollar, turli pichoqlar, qirg'ichlar va keskichlar shular jumlasidandir. So'nggi paleolit davrining eng muhim xususiyati shundaki, bu davrda ibtidoiy to'dadan urug'chilik jamoasiga o'tila boshlandi.

So'nggi paleolit davri odamlarning zamonaviy jismoniy qiyofasi shakllanishida, ibtidoiy to'dadan urug' jamoasiga o'tilishida, tosh qurollar tayyorlashda yangi yutuqlar qo'lga kiritilishida muhim ahamiyat kasb etgan davrdir. Bu davrga kelib, mehnat quollari yasash texnikasida, qadimgi odamlarning yashash sharoiti hamda turmush tarzida, ularning ijtimoiy munosabatlarida, fikrlash va dunyoqarashida, jismoniy qiyofasida keskin o'zgarishlar bo'lib o'tdi.

Bu davrdagi qurollar ilgari davr tosh quollariga nisbatan ancha takomillashadi. Ushbu davrning muhim xususiyatlaridan yana biri – suyakdan qurollar yasash edi. Misol tariqasida, bu davr topilmalari orasida suyakdan yasalgan garpunlar va ignalar uchraydi.

Xullas, so'nggi paleolit davri makonlaridan aniqlangan topilmalar ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlardan dalolat beradi. Xo'jalikdagi asosiy mashg'ulot ovchilik va termachilik bo'lib, erkaklar ovchilik bilan, ayollar esa termachilik bilan shug'ullanganlar. Bu davrda birgalikda yashagan va mehnat qilgan hamda umumiy mulk va oziq-ovqat mahsulotlariga ega bo'lgan qarindoshlar urug' jamoasi vujudga kelgan. Ilk urug' jamoalarida yoshi katta ayollarning mavqei ancha baland bo'lganligi tufayli, jamoa a'zolari ayol kishi – ona tevaragida jipslashgan. Shu tariqa matriarxat urug' jamoasi paydo bo'lgan.



### O'рта Osiyoda paleolit davr yodgorliklari va qurollarning rivojlanishi

Sana (mil. avv. m.y.)	Davr	Yodgorliklar	Qurollar
- 12 - 20 - 30 - 35	So'nggi paleolit	Bo'zsuv Uchbuloq Samarqand makoni	Nayzasimon qurollar sixchalar, tosh parrakcha, qirg'ichlar, teshgichlar
- 40 - 50 - 60 - 70 - 80 - 90 - 100	O'рта paleolit	Obirahmat Xo'jakent Ko'lbuloq Teshiktosh Qo'tirbuloq Omonqo'ton Uchtut	Tosh qirg'ich, tosh parrakcha, nayzasimon tosh uchi, nukleus, o'tkir uchli cho'qmorlar, qo'l chopqichlari, kurakchalar
- 200 - 300 - 400 - 500 - 600 - 700 - 800 - 900	Ilk paleolit	Qoratangir Bo'riqazigan Tanirqazigan Qizqala Seleng'ur On-Archa	Qo'l cho'qmorlari, toshqirg'ich, tosh parchalari, choppyerdaryo toshlaridan ishlangan qurollar

So'nggi paleolit davriga kelib, hozirgi zamon qiyofasidagi odamning shakllanishi bir vaqtning o'zida jahon tarixida yevropoid, negroid va mongoloid irqalarining paydo bo'lishiga olib kelgan edi. Ular bir-birlaridan tanasining rangi, soch va ko'zlarining shakli hamda rangi, muskullar va bo'ylarining uzun-kaltaligi, bosh suyagining shakli, yuz tuzilishi va boshqa belgilari bilan farqlangan. Irqlarning shakllanishida tabiiy sharoit ham muhim ahamiyat kasb etgan. Negroidlar Afrikada, yevropoidlar Yevropada, mongoloidlar Osiyo hududlarida keng tarqalishgan.

So'nggi paleolit davriga kelib odamlar g'orlardan chiqib, yengil turar-joylar – chayla va yarim yerto'lalarda yashay boshlashadi. Ular endi faqat tog'li hududlarda yashab qolmay, vohalar bo'ylab tarqalib,

tekisliklarda, daryo va ko'llar bo'ylarida joylashadilar hamda qarindosh-urug'chilik jamoalariga bo'linishadi.

Paleolit davri tarixiga oid quyidagi muhim xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Ilk paleolit davri mehnat qurollari o'zining soddaligi va qo'polligi bilan keyingi davrlarning mehnat qurollaridan ancha farq qiladi. Makonlar suvga yaqin yerlarda joylashgan. Eng qadimgi odamlar dastlab to'da bo'lib yashashgan. Makonlarda topilgan hayvon suyaklari va tosh qurollarning xususiyatlari eng qadimgi odamlar ovchilik va termachilik bilan shug'ullanib, shu asosda hayot kechirganligini ko'rsatadi.

Shubhasiz ma'lumki, u paytda odamlarning aqliy va jismoniy rivojlanish darajasi ularga yakka-yakka yashash uchun hech qanday imkoniyatlar yaratib bermagan. Ularning oziq-ovqat zaxiralari chegaralangan edi, bundan tashqari, yakka yashagan, odamlar yirik yirtqich hayvonlarning hujumidan o'z hayotlarini saqlay olmasdilar. Ochlik xavfi va ko'p vaziyatlarda noma'lum tabiiy jarayonlar eng qadimgi odamlarni to'da bo'lib yashashga majbur qilgan. Olimlar fikriga ko'ra, ilk paleolit davridagi iqlim issiq bo'lganligi uchun odamlarning uy-joy va kiyimga ehtiyoji bo'lmagan.


2. O'lkamizda topib tekshirilgan o'рта paleolit davri makonlari, asosan, g'orlarda joylashgan. Demak, muzlik bosib kelishi bilan boshpana zarur bo'lib qolib, odamlar tabiiy pana joylar – g'orlarni egallashga harakat qilishgan. Muzlik davrida neandertal odamlari murakkab sinovlardan o'tgan. Odamlarning asosiy mashg'uloti ovchilik bo'lib, bu jarayon ko'p sonli va turli shakllardagi qurollarni ishlab chiqarishni talab etgan va eng qadimgi xo'jalikning asosi bo'lib xizmat qilgan. Odamlar asta-sekinlik bilan yirik hayvonlarni ham ov qilishni o'rganib bordi, ular olovdan foydalanish va uni saqlashga harakat qildilar. Uzluksiz mehnat asosida inson aqliy va jismoniy jihatdan o'zgarib bordi.

3. Olov – sovuqdan va yirtqich hayvonlardan saqlanish, ovqat pishirish uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi. Avvalo o'tni egallash



o'rmondagi yong'inlardan, tabiiy o'tlardan foydalanishdan boshlangan. Bunday o'tlarni o'chirmasdan, uzoq vaqt davomida saqlab turish va bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish mumkin bo'lgan. Shu bilan birga, odamlar yog'ochlarni ishqalash yo'li bilan va chaqmoqtoshlardan o't chiqarish yo'llarini topishgan.

4. Odamlar yirik hayvonlarni ov qilishi natijasida ovchilikning usullari ko'payib borgan (hayvonlarni o'rab olish, botqoqlikka haydash, jarga qulatish va boshqalar). Hayvonlarni ovlash jarayoni mehnatni maqsadli tashkil qilishni talab etgan. So'nggi paleolitda qurollar yasashning yangi usullari vujudga kelgan. Qurollar tosh parrakchalaridan yasalib, ko'pincha nukleuslarning (*nukleus* – tosh o'zak) yangi shakllari bilan bog'lanishadi va qurollarning xili ko'paya boshlaydi.



So'nggi paleolit davri uy-joylari. Tiklangan

5. So'nggi paleolit davrida zamonaviy qiyofali odam keng hududlarni o'zlashtirdi. Zamonaviy qiyofali odamning paydo bo'lishi sabablaridan biri – bu jamoada yaqin qarindoshlar o'rtasida nikohning man qilinishi bo'lib, ushbu jarayon odamning jismoniy turini biologik jihatdan tez o'zgarishiga olib kelgan.

So'nggi paleolit davrining muhim xususiyatlaridan biri – ibtidoiy to'dadan urug' jamoasiga o'tilishidir. Urug'chilik tuzumining boshlang'ich va asosiy shakli matriarxat – ona urug'idan iborat bo'lgan. Urug'chilik tuzumi inson hayotidagi bir qator ijobiy o'zgarishlarning paydo bo'lishiga asos solgan. Manzilgohlar ov qilinadigan joylar bilan bog'langan, bu joylarga qarindosh-urug'lar ega bo'lib, ular ovchilik bilan tirikchilik o'tkazishgan, shuningdek baliqchilik rivoj topgan.


### 2.3. Mezolit, neolit va eneolit davri tarixi

Tosh asrining keyingi rivojlanish bosqichi fanda mezolit (o'rta tosh) davri O'rta Osiyoda nisbiy tarzda mil. avv. 12–7 mingyilliklar bilan belgilangan. Mezolit – odamlarning yer yuzi bo'ylab keng tarqalish davri bo'lib, ular dengiz, ko'llar va daryo bo'ylari hamda tog'li hududlarda yoyilishgan. Kaspiy bo'ylaridan Tyanshan – Pomirgacha, Markaziy Qozog'istondan Kopetdog' etaklarigacha bo'lgan hududlardan mezolit davri yodgorliklarining namunalari topib o'rganilgan. Machay (Surxondaryo), Obishir (Farg'ona vodiysi), Bo'zsuv, Qo'shilish (Toshkent), Aydabol, Jayronquduq (Ustyurt), Sulton Uvays (Quy Amudaryo o'ng sohil yerlari) kabi O'rta Osiyodagi 50 dan ziyod yodgorliklar shular jumlasidandir.

Mezolitning ilk va so'nggi bosqichlarini belgilashda tadqiqotchilar geografik shart-sharoit, toshni qayta ishlash texnikasi va odamlarning turmush tarzi hamda mashg'ulotlariga asosiy e'tibor qaratishadi.

Mezolit davriga kelib yer yuzidagi ulkan muzlikning yana shimolga tomon siljishi natijasida iqlim barqarorlashib, hozirgi davrdagiga ancha o'xshab qolgan edi. Buning natijasida O'rta Osiyo






Mezolit davri ixtirosi. O'q-yoy

hayvonot olami va o'simliklar dunyosida ancha o'zgarishlar sodir bo'ldi.

Paleolit davrining yirik hayvonlari yo'qola borib, ular o'rniga kichik tuyoqli, tez yuguruvchan hayvonlar – jayron, sayg'oq, bug'ular, tog' echkisi, arslon, yo'lbars, qoplon, quyon kabilarni ko'paytirdi. Shuningdek, janubga xos issiqsevar, yovvoyi boshqoqli o'simlik va daraxtlar ham tobora ko'payadi. Tabiat va iqlimdagi bu o'zgarishlar mezolit davri kishilarining hayotida ham o'zgarishlar sodir bo'lishiga sabab bo'ldi.

Bu davrga kelib kishilar nisbatan nozikroq qurollar tayyorlashni o'zlashtira boshladilar. Xususan, janubiy o'lkalarda, shuningdek, O'rta Osiyoda turli geometrik shakldagi mayda qurollar – mikrolitlar paydo bo'lib, ular uchun suyak va yog'och dastachalardan qadama sifatida foydalanilgan. Undan tashqari, bu davrda insoniyat o'z tarixidagi dastlabki murakkab moslama – o'q-yoyni kashf etdi. Natijada chopqir, kichik tuyoqli hayvonlar va parrandalarni ov qilish imkoniyati paydo bo'ldi.



Mezolit davri tosh qurollari

Mazkur davrning eng katta yutuqlaridan yana biri Yaqin Sharq hududlarida yovvoyi hayvonlar – it, qo'y, echki kabilarning qo'lga o'rgatilib, xonakilashtirilishi bo'ldi. Arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, mezolit davrida Old Osiyoning ba'zi viloyatlarida termachilikdan yovvoyi o'simliklarni xonakilashtirishga hamda ovchilikdan chorvachilikka o'tish boshlanadi. Bu jarayon ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi va tabiiy-geografik sharoit bilan bevosita bog'liq edi.



Mezolit davrining mashhur yodgorliklaridan biri Surxon vohasidagi Machay (Boysun) g'or-makonidan ko'plab suyak va tosh qurollar topilgan. Suyak qurollar bigiz, igna, kabilardan iborat bo'lsa, tosh qurollar – pichoqlar, arrasimon qurollar, kesgichlar, ushatgich toshlar, nayza va o'q uchlari kabilardir. Bu qurollarning o'ziga xos belgilari mavjud bo'lsa ham Yaqin Sharqdagi mezolit yodgorliklaridan topilgan tosh qurollarga o'xshab ketadi.

Machay makonidan odam bosh suyaklari, tishi, jag'i va boshqa qismlari qoldiqlari topilgan bo'lib, bu topilmalarni o'rganish tadqiqotchilarga O'rta Osiyoning janubidagi mezolit davri kishilarining yevropoid irqiga mansub ekanligini aniqlash imkonini berdi.

Machay g'orida bo'ri, tulki, bars, mo'ynali suvsar, quyon, jayra, olmaxon kabi hayvonlarning ham suyak qoldiqlari topilgan. Machaylik mezolit davri odamlari olovdan keng foydalanishgan hamda hayvon va parranda go'shtlarini olovda pishirib yeyishgan.

Farg'ona vodiysidan mezolit davriga oid Obishir g'or-makonidan tosh qurollar, bigizlar, qirg'ichlar, pichoq qadamlari topilgan. Shuningdek, topilmalar orasida yovvoyi hayvonlarning maydalangan va sindirilgan suyaklari, baliq tutishda ishlatiladigan qadoq toshlar ham bor. Topilgan ashyolarga asoslanib, obishirliklar baliqchilik, ovchilik va termachilik bilan shug'ullangan, deyishimiz mumkin.

Markaziy Farg'ona hududlaridan Sho'rko'l, Achchiqko'l, Yangiqadam, Bekobod, Zambar, Toypoqko'l kabi 80 ga yaqin mezolit davri yodgorliklari aniqlandi. Ularning ko'pchiligi ko'l yoqalaridan topilgan bo'lib, aftidan bu joylar mezolit davri kishilarining yashashlari uchun ko'pgina qulayliklarga ega bo'lgan. Bu yerlardan topilgan ko'pgina qurol va tosh buyumlar o'zining nisbatan nozikligi, ixchamligi bilan paleolit davri qurollaridan ajralib turadi. Markaziy Farg'onadagi mezolit davri qabilalari xo'jalik hayotida ovchilik, termachilik hamda baliqchilik ustunlik qilib, qulay tabiiy-geografik sharoit mazkur hududlarda qadimgi odamlarning keng tarqalib yashashlari uchun imkoniyat yaratgan.

Toshkentning g'arbida, qadimgi Bo'zsuv anhuri sohilida Qo'shilish mezolit makoni o'rganilgan. Ushbu makondan chaqmoqtoshdan

ishlangan nukleuslar, mayda parrakchalar, uchrindilar, qirg'ichlar, har xil shakldagi qurollar, tosh pichoqlar, silliqlangan tosh qurollar topilgan. Qo'shilish makoni topilmalari mil. avv. XI–X mingyilliklariga oid bo'lib, bu yerda yashagan qadimgi qabilalar ovchilik va termachilik bilan shug'ullanishgan.

Xullas, mil. avv. XI–X mingyilliklariga kelib Kaspiy bo'ylaridan Pomir tog'larigacha, Kopetdog' etaklaridan Markaziy Qozog'iston-gacha bo'lgan keng hududlarda mezolit davri qabilalari yoyilishadi. Ushbu hududlarning geografik sharoiti xilma-xil bo'lib, mezolit davri makonlari pasttekisliklar, daryo va soy bo'ylari hamda tog'oldi hududlarida joylashgan. Bu davr qabilalari va urug'lari ovchilik, baliqchilik hamda termachilik bilan kun kechirishgan.

Mezolit davrida ham urug' a'zolarining jamoa mehnati va o'zaro yordamlari hayotning zaruriy sharti bo'lgan. Kamon va o'qlardan iborat yangi qurollarning, xo'jalikning yangi turlari vujudga keldi. Mil. avv. IX–VII mingyilliklar davomida Old Osiyoda ovchilikdan chorvachilikka va termachilikdan dehqonchilikka, xo'jalikning ishlab chiqarish shakliga o'tish boshlangan. Bu jarayon tarixda bir vaqtda boshlanmagan va ba'zi joylarda ancha erta, boshqa joylarda biroz kech sodir bo'lgan.

Hayvonlarni qo'lga o'rgatish qay tariqa boshlangan? Tarixchilar va etnograflarning aytishicha, ovda kamon ishlatilishi natijasida bevosita iste'moldan ancha ko'p o'lja topish mumkin edi. Ovchilar yarador hayvonlarni yoki ularning bolalarini birdaniga o'ldirmasdan, uylariga olib kelishgan. Ayrim hollarda, bu hayvonlarni odamlar oziq-ovqat g'amlab qo'yish maqsadida boqishlari lozim bo'lgan.

Termachilik mashg'ulotining rivojlanishi natijasida, inson o'simliklar olami haqida ko'p ma'lumotlarga ega bo'lgan (o'simlik va daraxtlar o'sishi qonuniyatlari, hosil qilishi, ularning foydaliligi va zararliligi, don va urug'lar, mevalar, ildizlar haqida va boshqa ma'lumotlar). Mezolit davrida qadimgi Sharqdagi issiqtalab yovvoyi boshqoli o'simlik va daraxtlar ham tobora ko'paya borgan. Bu yerda dehqonchilik rivoj topishiga turli xil imkoniyatlar bo'lgan. Old



Osiyo va Ikki daryo – Dajla va Frot oraligʻida yashovchi termachilar bugʻdoy va arpa ekish tarixini boshlab berishgan. Shu hududlarda mil. avv. X–IX mingyilliklarda it va mushuk qoʻlga oʻrgatilgan. Ular eng qadimgi xonakilashtirilgan hayvonlar boʻlib, it ovchilarga xizmat qilgan.

Oʻrta Osiyodan mezolit davri odamlari soʻnggi paleolit davriga nisbatan jadal rivojlanib, keyingi davrlar madaniyati rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar yaratib berishgan.

Oʻrta Osiyo neolit va eneolit davri madaniyatini oʻrganishga taniqli olimlar, yirik qadimshunos – mutaxassislar katta hissa qoʻshishgan (S.P. Tolstov, Ya.Gʻ. Gʻulomov, V.M. Masson, O.K. Berdiyev, Oʻ. Islomov, V.I. Sarianidi, A.V. Vinogradov, M. Joʻraqulov, N. Xolmatov, A. Isoqov va boshq.). Ularning saʼyi-harakatlari tufayli dasht-choʻl va vohalarda qidiruv hamda qazishma arxeologik ishlar olib borilgan. Bu tadqiqotlarning natijalari ilmiy maqolalar va monografiyalarda oʻz aksini topgan.

**Neolit davri moddiy madaniyati va xoʻjaligi.** Oʻrta Osiyoning janubida neolit davri mil. avv. VI ming yillikda boshlangan. Neolit tosh asrining soʻnggi bosqichi hisoblanadi. Bu davrda odamlar turli tabiiy sharoitga moslasha boshlashgan va shundan kelib chiqib, turli geografik hududlardagi tegishli uy-joylar, mehnat qurollari va xoʻjaliklar ham har xil shaklda rivojlanib borgan.

Oʻrta Osiyoning issiq iqlimli janubiy oʻlkalarida yashagan kishilar dehqonchilik, chorvachilik va uy hunarmandchiligi shakllari bilan mashgʻul boʻlishgan. Shimoli-sharqiy oʻlkalarda yashovchi aholi, (togʻlar, togʻoldi va dashtlar) tabiiy sharoiti tufayli, avvalgidek, asosan oʻzlashtiruvchi xoʻjalik bilan shugʻullanib, moddiy madaniyat jihatdan orqada qolib ketgan. Bunga xoʻjaliklar va moddiy madaniyatning notekis rivojlanishi sabab boʻlgan.


Janubiy Turkmaniston aholisi 8–7 ming yil avval dehqonchilikning dastlabki shakllari bilan shugʻullana boshlashgan. Bu hududlarda ilk neolitda oʻtroq manzilgohlar va guvaladan qurilgan uy lar paydo boʻladi (Joytun, Chagʻalli, Choʻpontepa). Ulardan topilgan don qol-

diqlari (arpa, bugʻdoy), toshdan ishlangan oʻroqlar va yorgʻuchoqlar dehqonchilik kashf etilganligidan dalolat beradi.

Oʻrta Osiyoning boshqa viloyatlarida neolit davri qabilalari daryo sohillari va tarmoqlari yoqasida, koʻl boʻylarida yashab, tabiiy imkoniyatidan kelib chiqqan holda, asosan ovchilik va baliqchilik bilan shugʻullanganlar (Xorazmda Kaltaminor madaniyati, Janubiy Tojikistondagi Hisor madaniyati yoki Fargʻona neolit davri madaniyatlari). Neolit davrining eng katta yutuqlaridan biri – bu kulolchilikning paydo boʻlishidir.

Qadimgi Sharq tarixidan maʼlumki, eng qadimgi idishlar mil. avv. VIII–VII mingyilliklarga oid boʻlib, toshdan va yogʻochdan yasalgan hamda novdadan toʻqilgan. Savatlar baʼzan loy bilan suvalgan va ana shunday savat tasodifan gulxanga tushib qolgan boʻlishi mumkin. Oʻtda savatning novdalari kuyib ketgan, suvalgan loy esa shu darajada qotib qolgan. Albatta, loy gulxanga boshqa vaziyatlarda ham tushib qolishi mumkin edi. Odamlar oʻtda kuygan loyning pishiqligini eʼtiborga olib, loydan yasalgan va gulxanda kuydirilgan buyumlarning roʻzgʻor uchun foydali amaliy ahamiyatini tushunib yetishgan. Shu asosda kulolchilik rivoj topgan.

Neolit davri kishilari qay bilimlar, yoʻllar va uslublar orqali kulolchilikni kashf etmasinlar, ular loydan har xil idishlar yasashni va



Sopol idish yasash tasma uslubi



olovda pishirishni o'rgandilarki, bu o'sha zamon uchun juda katta madaniy yutuq edi.

Sopol idishlar ovqat tayyorlash va oziq-ovqatni saqlash uchun odamlarga yangi imkon yaratgan. Chorvador va dehqon, ovchi va baliqchilar ham sopol idishlardan keng foydalanishgan. Neolitda vujudga kelgan kulolchilik, ayniqsa dehqonchilik va uy chorvachiligi taraqqiyoti uchun zaruriy shart edi.

Janubiy Turkmanistondagi neolit davri madaniyati Joytun madaniyati deb ataladi (mil. avv. VII–V m.y.). Joytun makoni O'rta Osiyo hududida eng mashhur dehqonchilik maskanidir. Uning xarobalari Ashxoboddan 25 km shimoldagi Qoraqum bilan kesilib chegaralangan yerlarda joylashadi. Joytun makonida yarim gektar maydonni egallagan 30 ta bir xonali qadimgi uy-joylarning qoldiqlari topib tekshirilgan. Ular guvaladan barpo etilgan. Uylarning har birida alohida o'choqlar, supalar va tokchalar bor. Har bir uyda yakka 5–6 kishidan iborat oila yashagan. Joytun manzilgohida 30 ta uy-joy bo'lib, uylarda taxminan 150–180 kishi yashashi mumkin bo'lgan.

Joytunliklar dehqonchilik hamda xonaki chorvachilik bilan shug'ullanib, echki va qo'ylarni boqqanlar. Uylarning sathidagi loy suvoqlarida arpa va bug'doy donlari saqlanib qolgan.

Yodgorlikda topilgan, qo'lda tasma uslubida yasalgan sopol idishlar rangli naqshlar bilan bezatilgan. Idishlar har xil shakllardan iborat bo'lib (xumcha, tuvaksimon, qozoncha, kosasimon, piyola), qadimgi dehqonlarning xo'jalik hayoti va uy ro'zg'orida katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Joytunda tosh boltalar, o'roqlar, kamon o'qlarining uchlari, munchoqlar, urchuqlar hamda loydan ishlangan va gulxanda pishirilgan odamlar va hayvonlarning haykalchalari topilgan.

Neolit davrida kulolchilikdan tashqari, to'qimachilik ham kashf etiladi, o'zaro buyum va oziq-ovqat almashinuvi rivojlanadi, qadimgi jamoalarning moddiy va ma'naviy madaniyati jadal rivoj topadi.

Xo'jalikning ilg'or ishlab chiqaruvchi shakllari – dehqonchilik va chorvachilikning kashf etilishi tarix fanida «neolit inqilobi» deb

ataladi. Odam uzoq tarix davomida tabiatda mavjud bo'lgan tayyor mahsulotdan foydalanib, xo'jaliklarning ibtidoiy o'zlashtiruvchi shakllarini rivojlantirgan. Bu jarayon odamning aqliy va jismoniy taraqqiyoti, amaliy bilimlari, tajribasi va mashg'ulotlari hamda ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanganligi bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Neolit davriga kelib, inson o'z mehnat faoliyati bilan tabiiy sharoitga faol ta'sir etib, ilg'or unumdorlik xo'jaligiga o'ta boshlagan.

Shu bilan birga, eng qadimgi xo'jalik mashg'ulotlari (madaniyatlarning notekis rivojlanganligi tufayli) neolitda o'z ahamiyatini yo'qotmagan. O'rta Osiyoning turli viloyatlarida (Xorazm vohasi, Farg'ona vodiysi, Hisor tog'lari) ovchilik va baliqchilik, qisman chorvachilik shu davrda xo'jalikning asosini tashkil etgan.

Xorazm vohasida Kaltaminor madaniyatiga tegishli (mil. avv. V–IV mingyilliklar) Yonbosh (Jonbos 4) yodgorligi diqqatga sazovordir. Makonda 290 kv. metr hajmli turar-joyning qoldig'i topilgan. U kulba shaklida bo'lib, yog'och ustun, sinchlar bilan ko'tarilgan. Kulba o'rtasida katta markaziy o'choq, uning atrofida esa mayda o'choqlar qoldiqlari topilgan. Etnografik ma'lumotlar bilan solishtirilgan holda, Kaltaminor madaniyati manzilgohlari yirik jamoalar a'zolariga tegishli bo'lganligi aniqlangan. Jonbos 4 kulbasida 100–120 kishi yashagan, deb taxmin qilinadi.

Kulba o'rtasidagi katta markaziy o'choq turli marosimlar paytida butun jamoa a'zolariga xizmat qilgan. Uning atrofida joylashgan mayda o'choqlar esa ayrim oilalarga tegishli bo'lgan. Kaltaminor madaniyati makonlaridan sopol idishlar, tosh qirg'ichlar, nukleuslar, nayza va o'qlarning uchlari va boshqa tosh qurollar topilgan.

Neolit davri yodgorliklari Buxoro vohasi va Qizilqumda ham topib tekshirilgan. Darvozaqir I makonidan chaylasimon uy-joy qoldig'i, bir nechta o'choq, tosh qurollar va sopol idish parchalari topilgan. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, Zarafshon etaklaridagi neolit davri makonlaridan topilgan tosh qurollari orasida silliqlangan bolta va ponalar, pichoqlar, qirg'ichlar, o'q va nayza uchlari bor.



Neolit davrida qadimgi qabilalar O'rtasiy hududlarini keng miqyosda o'zlashtirishadi. Bu davrda mintaqahududlarida ziroatchilar bilan birga ovchilar va baliqchilar ham yashaganligi bizga ma'lum. Xullas, neolit davri yodgorliklari O'rtasiy qadimgi tarixining dolzarb masalalarini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Bu davr mehnat vositalarida o'zgarish yuz berib, xususan, tosh, suyak va yog'ochga ishlov berishning an'anaviy uslublari yuksaklikka erishgan. Ayniqsa, toshni silliqlash, parmalab teshish singari texnologiyalar kashf etilgan, mikrolit qurollar yanada takomillashgan.

Hozirgi O'zbekiston hududlarida mezolitning oxiri va neolit davrida janubi-g'arbiy Ustyurt va Qizilqumning ichki hududlari, Zarafshon va Amudaryo etaklari ovchilar va baliqchilar jamoalari tomonidan keng o'zlashtirilgan edi.

Soha mutaxassislarining e'tirof etishlaricha, neolit davrida aynan qulay ekologik muhit va tabiiy iqlim sharoiti yangi hududlarni o'zlashtirish imkonini beradi. Shu tariqa, jamoalar turli tabiiy-geografik sharoitga moslashadi, bu jarayon turli neolit madaniyatlarining paydo bo'lishiga sabab bo'lgan edi.

**Eneolit davri.** Eneolit – mis-tosh davridir. Mil. avv. IV ming yillikka qadar odamlar faqat toshdan, yog'ochdan va suyakdan yasalgan qurollardan foydalanganlar. Misning kashf etilishi, misdan ishlangan qurollar va buyumlardan foydalanish insoniyat tarixida yana bir taraqqiyot bosqich bo'lib, kishilik madaniyatining yangi asoslarda rivojini tezlashtirishga imkon bergan.

Eneolit davriga o'tish ishlab chiqaruvchi kuchlarning yanada yuksalganligini ko'rsatadi. Misdan ishlangan qurollar tosh qurollarga nisbatan ancha takomillashgan bo'lsa-da, lekin og'ir qurollar yasash uchun mis yaroqsiz bo'lgan. Shu sababdan, eneolit davri qabilalari tosh qurollardan ham keng foydalanishgan. Mis va tosh qurollarning birgalikda ishlatilishi qadimgi xo'jalik tarmoqlarining rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Qadimgi Sharqda ishlab chiqaruvchi xo'jaliklar va hunarmandchilikning rivojlanishi asosida katta, sersuv daryolar vodiylarida sha-

har-davlatlar paydo bo'ldi. Bu yerda qulay tabiiy sharoitdan tashqari, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ham ishlab chiqaruvchi kuchlar taraqqiyotining umumiy rivojini tezlashtirishga imkon bergan.

Qabilalarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti bir xil darajada bo'lmagan. Neolit davri qabilalari orasida vujudga kelgan iqtisodiy va madaniy notekislik eneolit zamonida ancha kuchaydi. Mazkur davrda Yevropa va Osiyo aholisi xilma-xil xo'jalik turlari bilan ajralib turgan. Shu asosda ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari taraqqiy etgan.

Ovchilik va baliqchilik asosida rivojlangan jamiyatlar iqtisodiy va madaniy jihatdan orqada qolgan. Ularning ijtimoiy munosabatlarida tosh davri tuzumiga xos xususiyatlar saqlangan. Biroq qadimgi Sharq shahar-davlatlari chegaralarida yashovchi dehqonchilik bilan mashg'ul bo'lgan qabilalar ham (Kavkazorti, O'rtasiyning janubi) qadimgi urug'chilik tuzumining ko'pgina xususiyatlarini saqlab qolishgan. Mazkur viloyatlarda dehqonchilik xo'jaligi ortiqcha mahsulotni keng darajada yaratilishiga asos bo'lmagan. Urug', qabila-viy tuzumi xususiyatlari saqlanib qolgan holda, jamoalar oziq-ovqat mahsulotini umumiy mulkka aylantirib, mahsulotlar baravar taqsimlangan edi. Iste'mol vositalarining baravarligi, mehnat unumdorligining pastligi va xo'jalik ishlarini butun urug' a'zolari tomonidan birgalikda amalga oshirilishi an'analari – ibtidoiy tuzumning asosiy belgilaridir.

Eneolit davri qabilalarining iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyoti bir xil darajada bo'lmagani tufayli arxeologik ma'lumotlar O'rtasiy aholisining iqtisodiy-madaniy jihatdan notekis rivojlaniganidan dalolat beradi.

Shuning uchun ham mintaqaning turli viloyatlarida neolit bilan eneolit xronologik jihatdan bir vaqtga to'g'ri kelgan. Turkmanistonning janubida mis-tosh davrining boshlanishi mil. avv. IV mingyillikka mansub bo'lgan bo'lsa, xuddi o'sha zamonda O'rtasiyning shimoliy dasht va sharqiy tog'li viloyatlarida qadimiy qabilalar asosan ovchilik, baliqchilik va chorvachilikning ilk shakllari bilan



shug'ullanishgan. Bu ikki davr (neolit va eneolit) madaniy-xo'jalik darajalari jihatdan bir-biridan farq qilgan. Madaniy-xo'jalik turlari qadimgi mashg'ulotlar, turarjoy, uy-ro'zg'or buyumlari, ishlab chiqarish qurollari asosida o'rganiladi.

Metallning kashf etilishi va xo'jalikda mis qurollarning joriy qilinishi bir necha asrlar davomida sodir bo'lgan. Odamlar o'z mehnat qurollarini yasash uchun har xil toshlar qidirish jarayonida tabiiy misga duch kelishgan. Dastlabki mehnat qurollari yerdan sof holda topilgan misdan yasalgan. Kuchli olovda mis rudasini suyuqlikka aylantirish metallchilikning rivojlanishiga sabab bo'lgan. O'rta Osiyo va Qozog'istonning viloyatlarida ochiq mis konlari, ular atrofida metall eritish qo'ralari topildi.

Misdan harbiy qurollar, uy-ro'zg'or buyumlari va zeb-ziynatlar ham tayyorlangan. Ammo, butun ilk metall asri davomida tosh qurollardan keng foydalanilgan. Shuning uchun ham bu davr mis-tosh davri deb ataladi.

O'rta Osiyo eneolit davrining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlari moddiy topilmalar asosida o'rganiladi. Bu hududning janub qismida Joytun madaniyatining an'analari yangi asosda ancha yuksak darajada rivoj topib, yangi madaniy-tarixiy jarayonlar bilan bog'lanadi.

Ilk va rivojlangan mis-tosh davrida qabilalarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishida katta farqlar va notekisliklar saqlanadi. Yangi xo'jalik turlari – dehqonchilik va uy chorvachiligi avvalgidek O'rta Osiyoning janubi-g'arbida qulay geografik sharoitda rivojlaniishi tufayli, bu yerdagi qabilalarning madaniy-xo'jalik va ishlab chiqarish taraqqiyotining yangi bosqichi boshlanadi. Quyi Zarafshon va quyi Amudaryo havzalarida yashovchi qabilalar ziroatchilikka o'tishmagan. O'rta Osiyoning sharqiy qismidagi tog'li tumanlar aholisi xo'jaligida ovchilik ustunlik qilar edi.

O'rta Osiyoning shimoliy va sharqiy viloyatlarida Kaltaminor va Hisor madaniyatlariga mansub madaniy-xo'jalik an'analari taraqqiy etgan. Dasht va tog' makonlaridan topilgan xilma-xil moddiy man-

balarni o'rganish natijalari (sopol idishlar, tosh qurollar, hayvon va qushlar suyaklari) qabilalarning iqtisodiy hayotida ovchilik va baliqchilik tirikchilikning asosiy manbai bo'lganligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, dasht qabilalari tarixida chorvachilikning ilk bosqichi boshlangan. Aholining asosiy qismi daryolarning irmoqlari sohilida va ko'llar atrofida yashashgan. Tabiiy boyliklar eneolit davri odamlari uchun hayot manbai edi.

Kopetdog' atrofidagi yerlar o'zining tabiati va iqlimi jihatidan (yerlari quruq va issiq iqlimli) dehqonchilik uchun qulay edi. Eng qadimgi sug'orish tarmoqlari shunday sharoitga ega bo'lgan soylar etaklarida vujudga kelgan. Tog' daryolari bo'ylarida yashovchi qabilalar qadimdan arpa, beda va boshqa ekinlarni sug'orishda, asosan soy suvlaridan foydalananglar.

Janubiy Turkmanistonda eneolit davriga oid 32 ta qadimgi makon ma'lum. Ularning asosiy qismi Ashxobodga yaqin joyda va Geoksur vohasidan topib tekshirildi. Geoksur vohasi 8 ta qadimgi manzilgohdan iborat bo'lib, eneolit davrida o'troq dehqonchilik tumaniga aylangan edi. Qadimiy vohaning aholisi 4000–5000 kishidan iborat bo'lgan.

Geoksurtepa I atrofidagi qadimgi sug'orish maydonlari 50–75 gektar bo'lib, kanallarning uzunligi o'rtacha 3 km.ni tashkil etgan. Qabilalarning hayotida chorvachilik ham katta ahamiyatga ega bo'lgan. Makonlardan yovvoyi qushlar va hayvonlar suyaklari topilgan. Ovchilik dehqonchilik qabilalari hayotida saqlangan bo'lsa ham, lekin xo'jalik turi sifatida katta ahamiyatga ega bo'lmagan.

Eneolit davri madaniyatini yaratgan qadimgi dehqonlar atrofi devorlar bilan o'ralgan manzilgohlarda, xom g'ishtdan qurilgan uylarda yashashgan. Uy-joylar dumaloq va to'rtburchak shaklda bo'lgan. Uylarning devorlari somonli qorishma bilan suvalgan. Dastlab eshiklar uchun yog'och ishlatilmay, ular hayvon terilari bilan to'silgan, so'nggi eneolit davrida yog'och eshiklar paydo bo'lgan. Ba'zi manzilgohlar mudofaa devorlari bilan o'ralgan.

Qurilish uslublari ancha rivojlangan. Uylar ichida to'rt burchakli yoki halqa shaklidagi o'choqlar o'rnatilgan. Turarjoylar yonida



don saqlash uchun xo'jalik xonalari va maxsus molxonalar qurilgan. Aholi ko'proq mayda chorva – qo'y-echkilarni boqishgan.

Janubiy Turkmaniston eneolit davri sopol buyumlari qadimgi hunarmandchilik kasbini o'rganishda g'oyat qimmatli moddiy manba hisoblandi. Sopol idishlar rangdor bo'lib, naqshlar ichida geometrik chiziqlar va hayvon yoki qush rasmlari uchraydi. Sopol buyumlar har xil shakllarda yasalgan, ko'pchilik sopol idishlarning tagi yassi. Don saqlash uchun xumsimon idishlar ishlatilgan. Ular bilan birga tovoqsimon, piyola va kosasimon mayda idishlar ham bo'lgan. Sopol buyumlarning qizil, qora va sariq rangli naqshlari mineral bo'yoqlar bilan ishlangan.

Moddiy topilmalar orasida mis pichoqlar va ignalar, toshdan yasalgan o'roq va pichoq qadamlari, qirg'ichlar, nayza va o'q paykonlari, yorg'uchoqlar va boshqa qurollar uchraydi.

Eneolit davri qadimgi jamiyatning ijtimoiy, xo'jalik va madaniy rivojlanishida katta o'zgarishlar sodir bo'lgan. So'nggi eneolit ona urug'i – matriarxat tuzumidan patriarxat – ota urug'iga o'tuvchi davr bo'lib hisoblanadi, lekin ota urug'i hukmronligi faqat bronza asrida o'rnatilib, qadimgi qabilalar orasida keng yoyildi.

Arxeologik qazishmalari natijasida topilgan manbalar e'tiqod va diniy qarashlardan ham dalolat beradi. Eneolit davri ibodatxonalarida rangli devor naqshlari topilgan. Inshootlar o'rtasidagi markaziy o'choq diniy marosimlar o'tkazishga xizmat qilgan. Bu o'tga sig'inishning dastlabki shakllari bo'lishi ham ehtimoldan xoli emas. Chunki odamlar ibodatxonadagi markaziy o'choqni ovqat pishirish uchun emas, balki tabiiy kuchlarga sig'inish maqsadida ishlatganlar. Dehqonchilik bilan shug'ullanadigan qabilalar orasida olovdan tashqari quyoshga, yerga, suvga, hosildorlik bilan bog'liq jarayonlarga sig'inish keng tarqalgan. Ibodatxonalar eneolit davri ijtimoiy hayotining diniy markazlari hisoblangan.

Loydan ishlangan hayvon haykalchalari va rangli sopol idishlardagi hayvon rasmlari totemizm (hayvonlarga sig'inish) shakllari bilan bog'liq bo'lgan.

Metall buyumlarning ishlab chiqarilishi va mehnat qurollari yasash uslubi o'zgarishi bilan odamlar mis konlarini qidirishga majbur bo'lishgan. Ilk mis-tosh davrida mis juda qimmatli, noyob ashyo bo'lib, sof mis faqat ayrim joylarda uchragan.

Dehqonchilik bilan shug'ullanadigan qabilalarning uzoq hududlarga tarqalishi yangi yerlarni o'zlashtirishdan tashqari, tabiiy qazilma boyliklar, mis konlarini izlash zaruriyati bilan bog'liq bo'lgan. Bu masalada, yuqori Zarafshonning Panjikent shahridan 15 km. g'arbda topilgan Sarazm manzilgohi muhim yodgorlikdir.

Sarazm manzilgohiga mil. avv. IV mingyillikning oxirlarida asos solingan. Qadimgi inshootlar ko'p xonali uylardan iborat bo'lib, uylar kichik oilalarga mo'ljallanib, 2–3 xonali qilib qurilgan. Ular uyjoy va ro'zg'or-xo'jalik vazifasini bajargan. Turarjoyga moslangan xonalardan dumaloq shaklda ishlangan o'choqlar topilgan.

Zarafshon vohasining yuqori qismida dehqonchilik madaniyati yoyilishiga Janubiy Turkmanistonning Geoksur turidagi aholisi sabab bo'lgan. Shuningdek, Sarazm moddiy topilmalari orasida Janubiy Afg'oniston va Kaltaminor madaniyatlariga mansub buyumlar ham bor. Ular eneolit davri qabilalari o'rtasidagi keng madaniy va iqtisodiy aloqalar va shu davrga oid qabilalar migratsiyalaridan, ya'ni bir joydan ikkinchisiga ko'chishlaridan dalolat beradi. Shahrizabz atrofida topilgan, mil. avv. IV mingyillikning oxirlari – III mingyillikka oid misedan ishlangan xanjar va bolta aynan mazkur migratsiyalar yo'nalishini ko'rsatib beradi. Sarazm madaniyati bronza davrida ham rivojlandi.

O'rta Osiyodagi eneolit davri jamiyati neolit zamoni jamiyatidan ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari taraqqiyoti darajasi yuqori bo'lishi bilan ajralib turadi. Eneolit davri aholisining eng katta ishlab chiqarish yutug'i, bu sun'iy sug'orish – irrigatsiyaning rivoj topishidir.

Boshqa bir madaniy yangiliklardan biri – bu so'nggi mis-tosh davri qurilishida me'moriy rejalashtirishga amal qilinishidir. Ko'chalar, maydonlar va katta jamoa binolari tartib bilan qurilgan. Binokorlikda xom g'isht ishlatila boshlangan.



Qabilalar mahsulotlari umumiy mulkka aylantirilgan bo'lib, jamoadagi ayrim oilalarning o'rtasida baravar taqsimlanar edi. Uy jamoasining a'zolari umumiy turarjoyda yashashgan, birgalashib mehnat qilishgan, qurollar, ro'zg'or buyumlari va xo'jalik mahsulotlari umumiy bo'lgan.

Eneolit davri tarixiy-madaniy munosabatlarini o'rganishda O'rta Osiyo, Eron va Mesopotamiya aholisining madaniy aloqalariga e'tibor berish lozim. O'rta Osiyo janubidagi mis-tosh davri me'morchiligida va tasviriy san'atida qadimgi Sharq shahar-davlatlarining madaniy ta'sirini ko'rish mumkin. Tashqi savdo va ayirboshlash asosida O'rta Osiyo janubida misdan ishlangan idishlar, qurollar va zeb-ziynatlar ko'payib borgan.

O'rta Osiyo janubiy hududlarida quyidagi yangi tarixiy-madaniy jarayonlar eneolit davri bilan bog'liqdir:

1) xo'jalikning boshqa shakllariga nisbatan dehqonchilikning ustunlik qilishi, sun'iy sug'orishning vujudga kelishi;

2) toshdan ishlangan qurollar mavjud bo'lgan holda mis qurollarning paydo bo'lishi;

3) katta-katta jamoalarning uy-joylari, me'morchilikda rejaga amal qilinishi;

4) kulolchilikning muhim yutug'i – xumdonlarning paydo bo'lishi;

5) o'troq xo'jaligining rivojlanishi, yirik manzilgohlarning vujudga kelishi, jamoa birlashmalarining katta uylari va qurilishda xom g'ishtdan foydalanilishi;

6) turli hayvonlarning loydan yasalgan va ona urug'i tuzumiga (matriarxatga) xos ayol haykalchalarining yasalishi;

7) rangdor sopol buyumlar, ya'ni turli tasvirlar ishlangan sopol buyumlarning mavjudligi.

#### 2.4. Ibtidoiy e'tiqodlar va tasviriy san'at

Mehnat qurollarini yasash, ovchilik va yovvoyi mevalarni terib olish, tabiat hodisalarini kuzatish hamda hayvonlar hayoti va odat-

larini o'rganish jarayonlari eng qadimgi odamlarning fikrlash va so'zlash qobiliyatini o'zgartirib bordi. Bu o'zaro ta'sir asosida rivojlanib, ayniqsa avloddan avlodga o'tish jarayonida bilim, tajriba va ko'nikmalarni oshirishda fikrlash qobiliyati, tafakkur ancha taraqqiy topgan.

O'rta paleolit davrida odamlar marhumdan qo'rqqanliklari tufayli, unga mehribonlik qilish, jasadni yirtqich hayvonlardan saqlash va ehtimol, o'likdan xalos bo'lmoq zaruriyati sabablarga ko'ra marhumlarni yerga ko'mish marosimi vujudga kelgan. Bu jarayon ibtidoiy odamlarning aqliy jihatdan rivojlanganligidan dalolat beradi. Neandertal odamlar dafn etilgan qabrlar (Teshiktosh g'ori, Fransiya-dagi Le Muste g'ori va boshq.) arxeologiya fanida ma'lum eng qadimgi qabrlardir. Ular sayoz qazilgan bo'lib, g'or-makonlarning chetida joylashgan. Jasadlar yonboshlab, bukchaytirilgan holda, uyquga botgan odam sifatida ko'milgan. Qabrlar ichiga tosh qurollar qo'yilgan. Jumladan, Teshiktosh g'oridagi neandertal bolaning jasadi kiyik shoxlari bilan o'ralgan.

O'rta Osiyoda paleolit davri e'tiqodlariga doir ma'lumotlar ko'p emas. Shu boisdan, adabiyotlarda ko'pincha so'nggi paleolitda vujudga kelgan totemizm (urug' jamoalari a'zolarining ma'lum hayvon zoti, qushlar va o'simliklar bilan qalin aloqadorligiga ishonish), animizm (insonni o'rab turgan muhitda jonlar, ruhlarning mavjudligiga ishonish), fetishizm (omad va farovonlik keltiruvchi yoxud baloqazoni bartaraf etuvchi, «yomon ko'zdan» saqlovchi narsa – tumor, munchoq, hayvon shoxi, tishi va h.k. ga ishonish hamda magiya (sehrgarlikka e'tiqod qilish) haqida gapiriladi. Bu e'tiqodlar inson tabiat hodisalarini tushunib yetmaganidan kelib chiqqan.

Taraqqiyot jihatdan orqada qolgan qabilalar va elatlar hayotini, urf-odatlarini va diniy qarashlarini hamda zamonaviy xalqlar madaniyatida ibtidoiy e'tiqodlar izlarini tadqiq etish natijasida turli davrlarda rivojlangan e'tiqodlarning mazmun-mohiyatini o'rganish mumkin.

So'nggi paleolit davriga oid g'orlar devorlaridagi rangli rasmlar (Altamir, Lasko, Kapova g'ori) ibtidoiy e'tiqodlarning o'rganishida



muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, Yevroosiyo hududlarida bu zamonda mamont suyagidan hamda loydan yasalgan ma'buda-ayol haykalchalari tarqalgan.

O'zbekistonda qoyatosh rasmlarini o'rganishda A.P. Okladnikov, A.R. Muhammadjonov, J. Kabirov, R. Ravshanov, X. Botirov, M. Xo'janazarov va boshqa olimlarning xizmatlari kattadir.

XXI asrga qadar yurtimizda aniqlangan tasviriy san'at obidalari orasida mezolit davriga oid Zarautsoy (Zarautkamar) rasmlari eng qadimgi deb hisoblanardi. Biroq, 2001-yili Kitob shahridan 25 km shimoli-g'arbda Zarafshon tizimi yonbag'irlarida o'rganilgan Siypantosh rasmlari taxminan mezolit va neolit davrlariga oid (R.H. Sulaymonov) ekanligi ma'lum bo'ldi. Mineral bo'yoq-oxra, jigar, qizil va oq rangdagi geometrik rasmlar (halqa, xoch, romb va chiziq), quyoshning ramziy tasviri, yovvoyi buqa va ayol barmoqlari izlari, umuman Siypantosh rasmlari samoviy e'tiqodni o'zida aks ettiradi, degan taxminga asos bo'ldi. Ko'p jihatdan mazkur tasvirlar tushunarli emas, ammo ularning qadimiyligi shubha uyg'otmaydi. Rasmlarning mazmuni va tasviriy uslubiga ko'ra, ular mezolit davriga mansub bo'lishi mumkin.

Zarautkamar va undan biroz so'ng paydo bo'lgan Sarmishsoy, Bironsoy, Ilonsoy va boshqa qoyatosh rasmlar ajdodlarimiz tasviriy san'ati va ma'naviy madaniyati tarixini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Ularning mazmuni va manzaralar ma'nosi quyidagilarni o'rganishda manba bo'lib xizmat qiladi:

- hayvon ovi qurollari va usullari;
- qadimgi davr kishilarining xo'jaligi, hayvonlarni xonakilashtirish va chorvachilikning paydo bo'lishi;
- insonning e'tiqodi va diniy qarashlari;
- odamning san'at sohasidagi iste'dodi, tevarak dunyo va o'z hayoti, turmush tarzi, mashg'ulotini hamda hayvonot olamini ifodalashga intilish.

O'tmish tariximizning xilma-xil yodgorliklari orasida muhim ahamiyatga ega bo'lgan va tog'li tumanlarda keng tarqalgan bu

qoyatosh rasmlari ishlanish usuliga ko'ra ikki xildir. Ularning bir xillari bo'yoq (oxra) bilan, boshqalari esa urib-o'yib ishqlash, chizish usuli bilan ishlangan rasmlar – petrogliflardir.

Qoyatoshlarda O'zbekistonning qadimgi hayvonot olamining rasmlarini kuzatish mumkin. Ular buqalar, sherlar va yo'lbarslar, qoplon, tulki va bo'rilar, bug'u va jayronlar kabilardir. Rasmlar orasida o'q-yoy, qopqon kabi qurollar ham ko'pchilikni tashkil etadi. Mavjud qoyatosh rasmlari mazmunan boy va manzarasi jihatdan xilma-xildir. Unda odamlar tasviri, ov va yirtqich hayvonlar to'qnashuvlari manzaralari tasvirlangan.

Qoyatosh rasmlari o'ziga xos an'analari, insonning estetik iste'dodi, go'zallikka intilish g'oyalari aks ettiruvchi tasviriy san'at obidalari bo'lib, O'zbekistonda Ko'hitang, Zarafshon, Nurota va Chotqol tog'larida topib o'rganilgan.

Toshkent vohasi qoyatosh tasvirlari G'arbiy Tyanshandagi (Tangritog') eng ko'p tarqalgan qadimgi san'at turi hisoblanadi. Bu hudud tasviriy san'at yodgorliklariga juda boy. Ular mavzularning turli-tumanligi, yuqori badiiy darajasi manzaralari bilan ajralib turadi. Toshkent vohasidagi petrogliflar O'rta Osiyoda mashhur hisoblanadi. O'ziga xos va betakror qoyatosh suratlariga Xo'jakent, Boshqizilsoy va Chotqol kabilar kiradi.

Ushbu yodgorliklardagi qoyatosh rasmlarining xronologik sanasi – eneolit – bronza davridan antik davrgacha boradi. Mazkur suratlar mazmun va mavzu jihatdan ancha boy va rang-barangdir. Ular orasida ot va tuya, echki, tog' takasi va arxar hamda bo'ri, tulki, qoplon kabi hayvonlar tasvirlari, shuningdek, ma'nosi hozirgacha noma'lum bo'lgan turli shakl va belgilar saqlanib qolgan. Rasmlar orasida yakka, to'lda holda va raqsga tushayotgan yoki, biror-bir odatni ijro etayotgan holatdagi kishilarning tasvirlari ham uchraydi.

Xullas, O'zbekiston tog'li hududlarida keng tarqalgan qoyatosh rasmlarini o'rganish katta ilmiy ahamiyatga ega. Chunki, ular ham boshqa moddiy manbalar qatori qadimgi ajdodlarimizning turmush tarzi, ijtimoiy hayoti, madaniyati va san'ati, diniy tasavvurlari haqi-



dagi muhim manba hisoblanadi. Rasmlar urug'chilik jamoalarining e'tiqodlari, hayotiy muhim mashg'ulotlari, inson tevarak-olamni shu yo'sinda tasavvur etgani haqida dalolat berib, qimmatli tarixiy manbadir.

Mavzuni o'rganish jarayonida talabalar quyidagi yakuniy xulosalarga e'tibor berishlari kerak:

– mezolit davriga kelib, O'rta Osiyo urug'chilik jamoalari turlicha tabiiy sharoitga moslashib joylashadilar (dengiz va ko'llar bo'ylari, tog'lar va tog'oldi hududlari, daryo vohalari);

– tabiiy-geografik sharoit insonning mashg'ulotlari, turmush tarzi va moddiy madaniyatiga ta'sir qilgan;

– neolit davrida o'z xususiyatlariga ega tabiiy-geografik sharoitda turlicha xo'jalik-madaniy xillar (tiplar), ya'ni muayyan tevarak-atrof muhit bilan bog'liq urug'chilik jamoalariga xos xo'jalik va madaniyat shakllanadi (misol uchun, o'troq ziroatchilar va xonaki chorvachilik bilan mashg'ul bo'lgan jamoalar, ovchilar – baliqchilar, ovchilar – termachilar);

– O'rta Osiyo mintaqasida neolit davriga oid bunday xo'jalik-madaniy tiplarning rivojlanishini Joytun, Kaltaminor, Hisor madaniyatlari misolida ko'rish mumkin, eneolit davrida turlicha xo'jalik madaniy xillar keng hududlarda yoyila boshlaydi;

– xo'jalik-madaniy xillarning taraqqiy etishi hamda yangi etnomadaniy jarayonlarning vujudga kelishi natijasida, so'nggi eneolit va bronza davriga kelib mintaqa hududlarida tarixiy-madaniy viloyatlarining rivojlanishi boshlanadi. Tarixiy-madaniy viloyat – bu xronologik jihatdan uzoq tarixiy davr mobaynida o'zaro munosabatda bo'lgan aholi tarixiy taqdirining birligi natijasida qabilalar, so'ngra elatlar tomonidan yaratilgan muqarrar madaniyat umumiyligi bilan ajralib turgan hududdir;

– insoniyat tarixining so'nggi paleolit davrida eng qadimgi tasviriy san'at (haykaltaroshlik va rassomchilik) paydo bo'lgan. Qoyatosh rasmlarida dastlab hayvonlarning suratlari va keyingi davrlarda (mezolit, neolit) ov manzaralari tasvirlangan;

– O'rta Osiyo janubida dehqonchilik vujudga kelishi natijasida yer, suv va hosildorlik bilan bog'liq e'tiqodlar shakllanadi, shuningdek, olovga sig'inish odatlari yoyiladi, Kaltaminor madaniyatiga oid Jonbos 4 kulbasi o'rtasidagi topilgan katta markaziy o'choq ham bundan dalolat beradi;

– mintaqa janubidagi eneolit davri ziroatchilari madaniyatiga oid sopol haykalchalari (ayollar va hayvonlar tasviri) hamda sopol idishlarning sirtidagi qush, ilon, echki, qoplon va buqalar hamda quyosh ramzi tasvirlari hosildorlik e'tiqodi, Quyoshga sig'inish va totemizmgga doir odatlarning keng tarqalishidan guvohlik beradi. Natijada, navbatdagi tarixiy bosqich bronza davrida tabiiy kuchlar, olov va Quyoshga bag'ishlab, maxsus yirik inshootlar – ibodatxonalar barpo etiladi.

### *Tayanch so'zlar*

Antropogenez, turli qarashlar va yondashuvlar, koinot, Odam Ato va Momo Havo, Adam va Yeva, odamning ibtidoiy ajdodlari, hozirgi qiyofadagi odamlar, neandertal, sinantrop, zinjanthrop, pitekantrop, kromanon, paleolit, Seleng'ur, Ko'lbuloq, Qizilolmasoy, tosh qurollar, Teshiktosh, Siypantosh, Zarautsoy, Omonqo'ton, Obirahmat, matriarxat, olovning kashf etilishi, mezolit, Machay, o'q va yoy, ulkan muzlik, hayvonlarning qo'lga o'rgatilishi, neolit, kulolchilik, sopol idishlar, dehqonchilikka o'tish, Joytun, Kaltaminor, Hisor, eneolit, mis qurollar.

### *Savol va topshiriqlar*

1. Insoniyatning dastlabki ajdodlari haqida nimalarni bilasiz?
2. Antropogenez jarayoni, mazkur mavzuga oid nazariyalar haqida gapirib bering.
3. Ilk paleolit davriga oid eng muhim tadqiqotlar haqida ma'lumot bering.
4. O'rta paleolit davrining o'ziga xos xususiyatlari nimalarda edi?



5. So'nggi paleolit davri qaysi jihatlari bilan farqlanadi?
6. Mezolit davrining yutuqlari nimalardan iborat?
7. Neolit davrining o'ziga xos xususiyatlari ifodalangan klaster tuzing.
8. Eneolit davri moddiy madaniyatining o'ziga xos jihatlari tavsiflang.
9. Ibtidoiy e'tiqodlar shakllanishi xususida fikr yuriting.
10. Qadimgi tasviriy san'at namunalari haqida ma'lumot bering.

### 2-mavzu bo'yicha foydalanilgan adabiyotlar

1. *Asqarov A.* Buxoroning ibtidoiy tarixidan lavhalar. – Toshkent: «Fan», 1973.
2. *Брей У., Трамп Д.* Археологический словарь. / Пер. с англ. Г.А. Николаева. – М.: «Прогресс», 1990.
3. *Виноградов А.* Древние охотники и рыболовы Среднеазиатского Междуречья. – М., 1981.
4. Выдающиеся памятники археологии Узбекистана. / Науч. ред. Э.В. Ртвеладзе. – Ташкент: «Сан'аг», 2013.
5. *Грот Оби-Рахмат.* Сб. статей. – Новосибирск: РАН, 2004.
6. *Исламов У., Тимофеев В.* Культура каменного века Центральной Азии. – Ташкент, 1986.
7. *Исламов У.И., Крахмал К.А.* Комплексные исследования древнепалеолитической пещерной стоянки Сел-Унгур // Раннепалеолитические комплексы Евразии. – Новосибирск, 1992.
8. *Исламов У.И., Крахмал К.А.* Палеоэкология и следы древнейшего человека Центральной Азии. – Ташкент, 1995.
9. *Kabirov J.* Sarmishsoyning qoya toshlaridagi rasmlar. – Toshkent: «Fan», 1976.
10. *Kabirov J., Sagdullayev A.* O'rta Osiyo arxeologiyasi. – Toshkent: «O'qituvchi», 1990.
11. *Кларк Дж.Д.* Доисторическая Африка / Пер. с англ. Г.С. Киселева. – М.: «Наука», 1977.
12. *Массон В.М.* Поселение Джейтун. – Л.: «Наука», 1971.
13. *Молони Н.* Археология Оксфордская библиотека. – М.: Росмэн, 1996.

14. *Неструх М.Ф.* Происхождение человека. – М.: «Наука», 1977.
15. *Перици А.И., Монгайт А.Л., Алексеев В.П.* История первобытного общества. – М.: Высшая школа, 1968.
16. *Sagdullayev A.S.* Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. – Toshkent: Universitet, 2004.
17. *Сулейманов Р.Х.* Статистическое изучение культуры грота Оби-Рахмат. – Ташкент: «Фан», 1972.
18. *Ташкенбаев Н.Х., Сулейманов Р.Х.* Культура древнекаменного века долины Заравшана. – Ташкент: «Фан», 1980.
19. *Eshov B.J., Odilov A.A.* O'zbekiston tarixi. I jild. Eng qadimgi davrdan XIX asr o'talarigacha. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2014.
20. *Kohl Ph.* Central Asia, Paleolithic beginnings to the Iron Age. – Paris. 1984.



### 3-MAVZU BRONZA DAVRI TARIXI

#### Reja:

- 3.1. Ziroatchilik va chorvadorlar madaniyatlari doirasining kengayib borishi.
- 3.2. Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar.
- 3.3. Madaniy aloqalar, aholi va etnik jarayonlar.

#### 3.1. Ziroatchilik va chorvadorlar madaniyatlari doirasining kengayib borishi

O'zbekistonda bronza davri madaniyati yodgorliklari ko'p yillar tadqiqotlar natijasida turli viloyatlarda kashf etildi va muhim arxeologik ma'lumotlar fanga tatbiq qilindi (Ya.G'. G'ulomov, S.P. Tolstov, M.A. Itina, A.A. Asqarov, Y.A. Zadneprovskiy, N.A. Avanesova, T.Sh. Shirinov, B. Matboboyev, U.V. Rahmonov, Sh.B. Shaydullayev va boshq.).

O'rta Osiyo aholisi bronza davri bosqichiga o'tgach, mahalliy ishlab chiqarish taraqqiyotida yangi davr boshlanadi. Bu davr mil. avv. III mingyillikning o'rtalari – II mingyillikka mansub bo'lib, bronza – mis bilan qo'rg'oshin va qalay qotishmasidir. U o'z xususiyatlari bilan misdan ustun turadi, ya'ni bronza misga qaraganda qattiq va pishiqdir.

Bronza metallsozligining ilk vatani Kichik Osiyo va Ikkidaryo oralig'i bo'lgan. Qadimgi Misr, Mesopotamiya (Ikkidaryo oralig'i), Kichik Osiyo va Eronning janubi-g'arbiy qismida bronza davrida davlatchilik jamiyati keng ravnaq topgan. O'rta Osiyo hududida ham ishlab chiqaruvchi kuchlar ancha taraqqiy topib, janubiy viloyatlarda ishlab chiqaruvchi xo'jaliklarning shakllari yangi asosda rivojlangan.

Mil. avv. III–II mingyilliklarda dehqonchilik va chorvachilik, O'rta Osiyoning dastlabki o'choqlaridan Sharq yo'nalishida hozirgi O'zbekiston va Tojikiston hududlariga keng tarqala boshlaydi. Bronza davridagi dehqonchilik aholisining tarixini o'rganish uchun O'zbekistonning turli viloyatlarida bir necha qadimgi yodgorliklar topib tekshirilgan.

Mazkur davrning xo'jalik sohasida erishgan eng katta yutuqlaridan biri – bu qadimgi dehqonchilikning keng yoyilishidan tashqari, mil. avv. II mingyillikning o'rtalariga kelib dasht hududlarida chorvachilikning maxsus xo'jalik sifatida rivoj topishidir. Mazkur davrda ishlab chiqarish munosabatlari tez rivojlanib, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarga ijobiy ta'sir qildi. Ishlab chiqarishning o'sishi natijasida qadimgi qabilalarning iqtisodiy, ijtimoiy tarixi va moddiy madaniyati ham yangi asosda taraqqiy etgan.

Mil. avv. II mingyillikda dehqonchilik va chorvachilik O'rta Osiyo aholisi xo'jaligining asosiy sohalari bo'lgan. Bronzadan ishlangan qurollar iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotni tezlashtirgani tufayli, O'rta Osiyo dashtlarida yashagan qabilalar asosan chorvachilik bilan mashg'ul bo'lgan. Qadimgi Sharqda shahar-davlatlar vujudga kelishi bilan hunarmandchilik dehqonchilikdan ajralib chiqqan. O'rta Osiyo janubiy hududlarida mil. avv. III mingyillikning o'rtalari – II mingyillik boshlarida ixtisoslashgan hunarmandchilik sohalari rivoj topadi.

Bronzaning kashf etilishi bilan mehnat qurollarining turlari ham ko'paydi. Bronzadan xanjar, pichoq, nayza, o'roq, jez oyna, bigiz, munchoq, tamg'a, idish va boshqa buyumlar yasalgan. Ammo tosh butun bronza davri davomida ham metall bilan muvaffaqiyatli ravishda raqobat qilib, qurollar ishlash manbai sifatida o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Toshdan pichoqlar, o'roqlar, o'q va nayza uchlari ham yasalgan. Yorg'uchoqlar avvalgidek qumtoshlardan ishlangan, terini qayta ishlashda chaqmoqtoshdan keng foydalanishgan.

Bronza davrida maxsus kulolchilik ishlab chiqarish vujudga kelgan. O'rta Osiyoning turli viloyatlarida (Kopetdog' oldi, Quyi



Murg'ob vohasi, Janubiy O'zbekiston) mutaxassis kulollar paydo bo'lgan. Mil. avv. II mingyillikda charx kulolchilik hunari keng joriy etiladi. Charxning ixtiro qilinishi kulollar ishini tezlashtirish va sopol idishlarning sifatini yaxshilash zaruratidan kelib chiqqan. Kulolchilik charxining ixtiro qilinishi natijasida sopol idishlarning shakllari ko'paygan.

Bronza davrida sopol idishlar tayyorlash takomillashdi. Katta hajmdagi xum va xumchasimon idishlarda don va suyuq mahsulotlar saqlangan. Ko'za, tuvak, kosa, tovoqsimon idishlardan uy-ro'zg'orda keng foydalanilgan. Idishlar sifatli bo'lishi uchun loy tayyorlashga toza sof tuproq tanlangan. Sopollarning sirtiga qizil, sariq, jigarrang bo'yoq – angob berilgan. Idishlardan suv tashish, ovqat va don saqlash uchun keng foydalanilgan. Ovqat pishirish uchun ishlatilgan qozonlar qo'lda yasalgan.

Bu davr tarixiy-madaniy jarayonlari asosan moddiy topilmalar yordamida o'rganiladi. Qadimshunoslar tomonidan keyingi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlari mintaqada yashagan qabilalarning madaniy-iqtisodiy munosabatlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Turkmaniston, O'zbekiston va Tojikiston hududlarida rivojlangan ishlab chiqaruvchi xo'jaliklar asosida muhim madaniy yutuqlar vujudga kelgan. O'rta Osiyo janubiy viloyatlarida bronzadan buyumlar yasash, kulolchilik, zargarlik, to'quvchilik, ip yigirish va to'qimachilik maxsus kasb-hunarlariga aylangan. O'sha davrda kanal qazib, daryolardan suv chiqarish, kanal va ariqlarni doimo tozalab turish, ya'ni sun'iy sug'orish ishlari keng yo'lga qo'yilgan. Dehqonchilikda don (arpa, bug'doy, javdar) ekish, chorva uchun xashak bo'ladigan o'simliklar o'stirish, sabzavot va mevalilik rivojlantirilgan.

O'zbekiston tuprog'ida bronza davriga oid madaniyatlar bir xilda taraqqiy topgan emas. Bu bosqichda Surxondaryo, Zarafshon va Xorazm vohalaridan iborat uch o'lkaning madaniy taraqqiyotida o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lgan. Bu madaniyatlar dehqonchilik, uy chorvachiligi va chorvachilik-dehqonchilik bilan shug'ullangan qabilalarga mansubdir. Ular bir-biridan ajralgan holda

taraqqiy etgan emas, qabilalar o'rtasida keng madaniy aloqalar rivoj topgan.


Janubiy O'zbekiston (Surxondaryo) o'troq ziroatchi aholisining dastlabki markazlaridan biri hisoblanadi. Ushbu viloyatdagi bronza davriga oid Sopollitepada to'rtburchakli me'morchilik shakldagi istehkom qazib ochildi. Uning ichida uy-joylar, ro'zg'or va xo'jalik xonalari, hunarmandchilik ustaxonalarining qoldiqlari topildi. Sopollitepada 8 ta guzarga tegishli uy-joylar tekshirilgan.

Moddiy manbalar Sopollitepada kulolchilik va metallsozlik yuksak darajada rivojlanganidan dalolat beradi. Kundalik hayotda xilmaxil kulolchilik buyumlaridan foydalanilgan. Tuvak, xumcha va xumlar chorvachilik va dehqonchilik mahsulotlarini saqlash uchun ishlatilgan. Bronzadan xanjarlar, o'q uchlari, nayza paykonlari, pichoqlar, jez ignalar, to'g'nag'ichlar va idishlar ishlangan.

Amudaryoning so'l sohil hududlari (Shimoliy Afg'oniston) va Boysun-Ko'hitang tog'oldi vohalarida aniqlangan bronza davri yodgorliklari Dashtli – Sopolli madaniyati deb ataladi. Uning vujudga kelishi mil. avv. III mingyillikning oxirlari – II mingyillikning boshlarida ziroatchi aholisining tashqi migratsiyalari bilan bog'lanadi. Shuningdek, bu madaniyat kelib chiqishi jihatdan Quyi Murg'obdagi (Janubiy Turkmaniston) Gonur–Tug'aloq madaniyati bilan bog'langan bo'lib, fanda bronza davri Baqtriya–Marg'iyona sivilizatsiyasi deb e'tirof etilgan. Gonurning markazida mudofaa devorlar va to'rtburchak burjlar bilan mustahkamlangan yirik saroy joylashgan. U taxt zali va 120 dan ziyod katta-kichik xonalardan iborat bo'lgan. Saroy atrofida otashparastlik, hosildorlik, qurbonlikka bag'ishlangan ibodatxonalar hamda alohida halqa shaklda katta otashkadalar (diametri 7–11 metr) bunyod etilgan. Bu qism ham mudofaa devorlar bilan o'ralgan. Uchinchi mudofaa devor saroy va ibodatxonalar xizmatchilari yashagan qismini himoya qilgan.

Amudaryoning o'ng qirg'og'i yerlarida shakllangan Sopollitepa – bronza davridagi daryo kechuvidan boshlangan aloqa yo'lini himoya qiluvchi mustahkam istehkom sifatida paydo bo'lgan. O'troq dehqon






Sopollitepa yodgorligining me'morchilik rejasi

qonchilik jamoalari chegaralarining kengayishi munosabati bilan Sopollitepa o'zining ilgarigi ahamiyatini yo'qota boshlaydi. Asosiy markaz vazifasi esa, tog' darasidan chiquvchi yo'l ustidagi yirik markaz hozirgi Sherobod yaqinida joylashgan Jarqo'tonga o'tadi.

Jarqo'ton bronza davri shahar ko'rinishiga ega bo'lib, qal'a va aholi turarjoyi qismidan iborat bo'lgan. Jarqo'tonda jamoa sardorining saroyi va olovga sig'inish e'tiqodi bilan bog'liq ibodatxona qoldiqlari topilgan. Sherobod vohasi tog'oldida bronza davriga oid G'ozqal'a o'rganilgan. Yodgorlik tuz konlari atrofida joylashgan va uning aholisi qadimda tuz savdosi bilan shug'ullangani ehtimoldan xoli emas. G'ozqal'ada ilk bor O'rta Osiyo bronza davriga oid tosh me'morchiligi aniqlandi. Sherobod vohasida yana bir yodgorlik –



Jarqo'ton ibodatxonasi

Burguttepa doira shaklida bo'lib, toshdan qurilgan mudofaa devorlariga ega.

Arxeologik ma'lumotlar bronza davri e'tiqodlari va diniy qarashlarining yangi asoslarda o'rganish uchun imkon yaratdi. Qadimgi Baqtriyada aholi hayotida olov, suv, quyosh, yer va hosildorlik qadrlangan.

O'zbekiston hududida bronza davrida chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullangan qabilalarning moddiy madaniyat yodgorliklari Xorazm va Quyi Zarafshon vohasida o'rganilgan. Bu hududlarda Sopolli va Jarqo'tonda bo'lgani kabi xom g'ishtdan bunyod etilgan inshootlar (ibodatxonalar, uy-joylar, mudofaa devorlari, hunarmandchilik ustaxonalari) topilmagan. Qadimgi Xorazm vohasi hududla-



rida Tozabog'yob madaniyatiga oid yarim yerto'la uy-joylardan sopol idishlar, toshdan va bronzadan ishlangan qurollar aniqlangan. Tozabog'yob sopol idishlari qo'lda ishlangan. Ular qozon, tuvaklar va kosasimon idishlardan iborat bo'lib, xilma-xil geometrik chiziqlar bilan naqshlangan. Asosiy belgilarga ko'ra, Tozabog'yob madaniyati chorvachilik – dehqonchilik xo'jalik – madaniy xilini o'zida aks etgan, dehqonchilik chorvachilik xo'jaligiga qo'shimcha mashg'ulot bo'lgan. Tozabog'yob madaniyati manzilgohlarida ziroatchilik mehnat qurollari kam miqdorda topilgan, don qoldiqlari esa (arpa, bug'doy, suli) aniqlanmagan.

Quyi Zarafshon yerlari bronza davrida kamsuv bo'lib, ular asosan chorvachilik uchun qulay bo'lgan edi. Dehqonchilik ko'proq Zarafshon toshqin suvlari irmoqlari hosil qilgan zax yerlarda rivojlangan.

Zamonbobo makonida yarim yerto'la kulba – uy qoldiqlari ochilgan. Turar-joyning uzunligi 23,5 m, eni 9 m. Makon maydonidan o'choq o'rinlari, hayvon suyaklari, mehnat qurollari va uy-ro'zg'or buyumlarining siniqlari topildi.

Mil. avv. II mingyillikning ikkinchi yarmida Farg'ona vodiysida Chust madaniyati rivojlanadi. U vodiya dehqonchilikning vujudga kelishi jarayonini aks ettirdi. Chust madaniyatiga oid 80 dan ortiq yodgorliklar aniqlangan. Yirik manzilgohlar (Chust, Ashkaltepa, Dalvarzin) voha-tuman markazlari vazifasini bajargan. Dastlab qadimgi Farg'ona ziroatchilari yarim yerto'la kulbalarda istiqomat qilishgan. Mil. avv. I mingyillikning boshlariga kelib guvala va xom g'ishtdan qurilgan uy-joylar paydo bo'lgan.

### 3.2. Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar

Bronza davrida O'rta Osiyo Qadimgi Sharqning muhim madaniy markazlaridan biriga aylandi. Daryolar vohalarining qulay geografik sharoitida rivoj topgan dehqonchilik sun'iy sug'orishga asoslandi. Qadimgi manzilgohlarning atroflarida sug'orish yerlari keng maydonlarga ega bo'lgan. Daryolardan kanal chiqarish usullari ancha ri-

vojlaniy, bronza davri sug'orilish xo'jaligi dastlabki dehqonchilikdan ancha farq qilib, yerni haydab dehqonchilikka asoslangan.

Ziroatchilik bilan birga odamlar hayotida voha o'tloqlarida hamda tog'oldi va dasht yaylovlarida chorvani boqish muhim ahamiyatga ega edi. Manzilgohlardan qo'y, echki va sigir suyaklari topilgan. Misol tariqasida, Sopollitepada 16 mingtacha hayvon suyaklari topib, tekshirildi. Ularning asosiy qismi qo'y va echki suyaklari, boshqalari esa tuya va sigir suyaklaridir. Shu bilan birga, odamlar hayotida yovvoyi qushlar va hayvonlarni ovlash o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Sopollitepadan topilgan bug'u, jayron, qulon, yovvoyi cho'chqa, quyon, o'rdak, kaplar va boshqa ko'pgina hayvon va parranda suyaklari qoldiqlari bu fikrni tasdiqlaydi. Ovchilik odamlarning qo'shimcha mashg'uloti bo'lgan. Ular asosan yovvoyi cho'chqa, bug'u va qulonni ovlashgan.

Arxeologik topilmalar bronza davri hayvonot dunyosi hozirgi faunaga nisbatan ancha boy bo'lganligini ko'rsatadi. Daryo vohalari, tog'lar va dashtlar xilma-xil hayvonlar va qushlar tarqalishi uchun qulay tabiiy muhit yaratgan.

Tog'oldi va dashtlarda yashovchi aholining asosiy tirikchilik manbai chorvachilik edi. Ayniqsa, Orol dengizi sohillariga yaqin dashtlarda va Quyi Zarafshon hududlarida yashovchi aholining iqtisodiy hayotida chorvachilik muhim ahamiyat kasb etgan. Bu qabilalar asosan mayda chorva, qoramol va otlarni ham boqishgan.

Metallurgiya rivojlanishi uchun xomashyo konlari zarur bo'lgan. Qizilqumda bronza davriga mansub qadimgi mis konlari va ma'dan eritish xumdonlari topib o'rganilgan.

Bronza asrida metallchilikning keng yoyilishi va mehnat qurollarini ishlab chiqarish usullari ancha o'zgarishi bilan odamlar yangi mis konlarini qidirishga majbur bo'lishgan (ayniqsa, misni qalay va qo'rg'oshin bilan birga eritib qotirish uslubini o'rganib olgandan so'ng). Lekin ilk metall davrida mis qimmatli ashyo bo'lib, sof mis faqat ayrim joylarda uchragan. Qabilalarning uzoq viloyatlarga yoyilishi, yangi yerlarni o'zlashtirishdan tashqari, mis, qalay va qo'rg'oshin konlarini kashf etish bilan bog'liqdir.



Bronza davrida manzilgohlar yangi yerlarda vujudga kelgan. Xorazm vohasi, Farg'ona vodiysi va Surxondaryo vohasidagi ma'lum yodgorliklarning asosiy qismi daryo irmoqlari yaqinida joylashgan. Tog'oldi va dasht chegaralaridagi unumdor yerlar hosildor dehqonchilik tumanlariga aylangan.

Bronza davriga oid buyumlar ixtisoslashgan hunar kasbi qatorida xonaki hunarmandchiligi ham yuksak darajada rivojlanganidan dalolat beradi. Odamlar loydan, suyakdan, toshdan, yog'ochdan va charmdan xilma-xil buyumlar yasashgan. Ushbu davrda kiyim jun va zig'ir tolasidan to'qilgan. Manzilgohlardan to'qimachilik sohasida ishlatilgan sopol va toshdan yasalgan urchuqlar topilgan.

Ishlab chiqaruvchi xo'jaliklar va hunarmandchilikning rivojlanishi asosida aholining ijtimoiy hayotida katta o'zgarishlar sodir bo'lgan. Dehqonchilik va chorvachilik ortiqcha mahsulot va mol ayirboshlashni tartibga solishda asosiy vazifani bajargan edi.

Patriarxal urug'ning rivojlanishi, ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi bilan katta jamoa oilalarning oziq-ovqat mahsulotlari va hunarmandchilik buyumlarini ishlab chiqarish uchun zamin yaratilgan.

Sopollitepa va Jarqo'tondan topilgan bronza muhr-tamg'alar burgut, ilon, tuya va boshqa tasvirlar bilan naqshlangan. Ular ayrim katta patriarxal oilalar va urug'larning ramzlari bo'lgan.

Zamonbobo qadimgi qabristonida erkaklar qabrlaridan topilgan buyumlar orasida ko'proq sopol idishlar, chaqmoqtoshdan ishlangan o'q uchlari va nayza paykonlari hamda pichoqsimon parrakchalar uchraydi. Ayollar qabrlaridan qimmatbaho toshlardan (lojuvard, feruza, sardolik) yasalgan turli shakldagi munchoqlar, marjonlar va mis ko'zgular topilgan.

Bronza davri manzilgohlarida o'rganilgan jamoa uy-joylari, oltindan ishlangan zeb-ziynatlar, boy qablardan topilgan bronza idishlar va yarog'lar, qimmat toshlardan yasalgan marjon va urug' boshliqlarining shaxsiy tamg'alari ijtimoiy munosabatlardagi o'zgarishlar haqida ma'lumotlar beradi. Katta patriarxal oilalarning mulki uy-joylar, hunarmandchilik buyumlari, qishloq xo'jalik mahsulotlari va chorva

mollaridan iborat bo'lgan. Kulolchilik va bronza buyumlari savdo-sotiq mahsulotiga aylangan.

Biroq xususiy mulkchilik va mol ayirboshlash qaysi darajada rivojlanganligi haqida tarix fani aniq ma'lumotlarga ega emas. Qabilalar hayotida qadimgi urug'chilik xususiyatlari, shu jumladan, katta oila a'zolari tomonidan xo'jalikni birgalikda olib borish, yerga birgalikda ishlov berish, umumiy turarjoyda (katta jamoa uylarida) yashash un'analari saqlanib qolgan. Bu uy-joylarda yakka kichik oilalarga 2-3 xonali turarjoylar tegishli bo'lsa-da, lekin ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti – «umumiy tom ostida», oila, urug' boshlig'i rahbarligida o'tganligi bilan izohlanadi. Yerga egalik qilish jamoatchilik xususiyatiga ega bo'lgan. Sun'iy sug'orish inshootlarini qurish, kanal va ariqlarni tozalab turish kabi muhim ishlar jamoalar tomonidan birgalikda amalga oshirilgan. Shuningdek, bu davrda Marg'iyona va Baqtriya hududlarida saroy va ibodatxonalar xo'jaliklarining ajralib chiqqanligini taxmin qilish mumkin.

Bronza davri ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari mavzusiga tegishli turli qarashlar va yondashuvlar mavjud. Mazkur masalaga oid yozma manbalar ma'lum bo'lmaganligi sababli, bronza davridagi mintaqada hududlarida yerga egalik qilish, yaylovlar, suv manbalari va sug'orish inshootlaridan foydalanish xususiy mulkchilikka nisbatan jamoatchilik mazmuniga ega bo'lishi ko'proq haqiqatga to'g'ri keladi. Bu davrda yer qonuniy jihatdan xususiy mulk sifatida rasmiylashtirilgan, deb talqin qilish shubhalidir.

Tarixda yerga xususiy mulkchilik soliq tizimi rivojlanishiga zamin yaratgan. O'rta Osiyoda soliq tizimi mavjudligi haqida ilk bor qadimgi fors bitiklari, Persepol saroyidagi bo'rtma rasmlar, Gerodot hamda antik davr Parfiya va Xorazm yozuvlari xabar beradi. Bular dan qadimiyroq bo'lgan «Avesto»da pul va soliq tizimi haqida hech qanday ma'lumotlar yo'q.

Shuningdek, bronza davrida turli mahsulot ishlab chiqaruvchi hunarmandlar o'zlari ayirboshlash va savdo-sotiq bilan shug'ullanishgan. Savdo-sotiq maxsus kasb-hunar sifatida birdan hunarmandchilikdan



ajralib chiqmagan. «Avesto»da ham xususiy mulkdorlar – savdogarlar tilga olinmaydi.

Mil. avv. IV mingyillikning oxirlariga kelib, Qadimgi Sharqda (Old Osiyo, Misr, Ikkidaryo oralig'i) ilk davlatlar shakllandi. Mazkur jarayon bu hududlarda juda erta ishlab chiqaruvchi xo'jaliklar, binokorlik va me'morchilik, hunarmandchilik va ayirboshlashning jadal rivojlanishi hamda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning murakkablashuvi bilan belgilandi.

Eneolit va ilk bronza davrida O'rta Osiyo janubiy viloyatlarida ham urug'chilik tuzumida tub o'zgarishlar sodir bo'ldi. Metall eritish, mis va bronzadan qurollar ishlab chiqarish, omoch bilan yer haydab ziroatchilik qilish, sug'orma dehqonchilik, chorvachilik, binokorlik va hunarmandchilikning turli sohalari rivojlanishi natijasida, jamiyatda erkaklar yetakchilik qilib, ijtimoiy-iqtisodiy tizimda ularning mavqei oshib bordi (oilalar, urug'ni etarli mahsulotlar bilan ta'minlash erkak qo'liga o'tdi, uy xo'jaligi yumushlari ayollar zimmasida qoldi). Shu tariqa, urug'chilik oilasida erkak muhim ijtimoiy o'ringa ega bo'lib, patriarxat davri boshlandi (yunoncha, *pater* – ota va *arche* – hokimiyat). Qarindoshlik erkak nomi bilan belgilanadigan bo'ldi.

Katta patriarxal oilasi ota tomonidan yaqin qarindoshlarni birlashtirib, ular umumiy uy-joy, ishlab chiqarish vositalari, ro'zg'or buyumlari, taqsimlangan dala yerlarga ishlov berib va chorvaga egalik qilib, yetishtirilgan umumiy oziq-ovqat mahsulotlarini birgalikda iste'mol qilishgan. Patriarxal oilalarning o'sib borishi natijasida yangi oilalar paydo bo'lgan.

Yuqorida ta'riflangan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bronza davrida Marg'iyona-Baqtriya jamoalariga ham xos bo'lgan. Mazkur tarixiy-madaniy viloyatlar jamiyatida turli ijtimoiy guruhlar ajralib chiqqan va ilk davlatchilik tizimiga doir jarayonlar rivoj topgan. Marg'iyona-Baqtriya sivilizatsiyasi fanda «Oks–Amudaryo sivilizatsiyasi» deb e'tirof etilgan. Tadqiqotchilar uning kelib chiqishini Akkad–Elam hududlaridan Sharqiy Eron va O'rta Osiyo janubiga (Kopetdog' oldi, Marg'iyona, Baqtriya) aholi migratsiyalari bilan

bog'lashadi. Boshqa hududlarda (Toshkent vohasi, Farg'ona vodiysi, Quyi Zarafshon va Xorazm vohalari) ishlab chiqaruvchi kuchlarning must taraqqiyoti va ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan notekis rivojlanishi tublayli, urug'-qabila tuzumi munosabatlarning an'analari ilk temir davriga qadar o'z ahamiyatini saqlab kelgan.

### 3.3. Madaniy aloqalar, aholi va etnik jarayonlar

O'rta Osiyo tuprog'idagi qabilalar bir xilda taraqqiy topgan emas. Turli viloyatlarning madaniy taraqqiyotida o'ziga xos xususiyatlar aniqlangan. Bu madaniyatlar dehqonchilik, uy chorvachiligi va yarim ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullangan qabilalarga mansubdir. Ular bir-biridan ajralgan holda rivojlanmagan va turli qabilalar o'rtasida iqtisodiy va madaniy aloqalar izchil keng taraqqiy topgan.

Zamonbobo topilmalarida dasht chorvador qabilalari madaniyatiga va janubiy o'troq dehqonchilik madaniyatlariga oid ayrim xususiyatlar saqlanib, ular bir-biridan farq qiladi. Shuning uchun ham bu ikkala madaniy an'analar Quyi Zarafshonda, birinchidan, iqtisodiy va madaniy aloqalar asosida, ikkinchidan, O'rta Osiyoning janubiy o'troq va shimoli-sharqiy chorvador qabilalarining yoyilishi bilan ham bog'liq bo'lgan.

Bronza davrida aholi sonining o'sishi natijasida o'zlashtirilgan yerlar tobora kengayib borgan. Metallurgiya, dehqonchilik va chorvachilikning yuksak darajada rivojlanishi bilan birga tabiiy boyliklar, mis, qalay va qo'rg'oshin xomashyo konlari, bo'z yerlar, suv manbalari va yaylovlarga qadimgi qabilalar muhtoj bo'lib turgan. Mil. avv. II mingyillikning o'rtalarida yaylovlarda boqiladigan chorvachilik maxsus xo'jalik turiga aylangan. Bronza davrida Sirdaryo, Amudaryo, Zarafshon, Murg'ob, Vaxsh va Panj daryolari bo'ylab yangi yerlarga ko'chish yo'llari paydo bo'ldi. Bu yo'llar yoqasida mavsumiy makonlar, mozor-qo'rg'onlar va qabrlar topib o'rganilgan.

Dashtli-Sopolli madaniyati vakillarining bir qismi Janubiy Tojikiston, Afg'onistonning shimoli-sharqiy hududlarini o'zlashtirib,



Hind vodiysigacha yoyiladi, boshqa guruhlari esa Zarafshon vohasi va Sharqiy Farg'ona yerlarida tarqaladi. Mazkur hududlarda ular mahalliy aholi bilan qarishib ketadi.

Marg'iyonada Gonur-Tug'aloq va Baqtriyadagi Dashtli-Sopolli madaniyati bilan bir davrda, Janubiy Uralda Arkaim-Sintashta madaniyati paydo bo'ladi. Mazkur madaniyatni yaratgan aholi mudofaa devorlar bilan o'ralgan ko'p sonli istehkomlarni bunyod etib, asosan, chorvachilik, shu jumladan, yilqichilik bilan shug'ullanishgan. Ularning ijtimoiy tizimida mol boqqan cho'ponlar, bronza metallsozlar – hunarmandlar va jangchi suvoriylarning mavqeyi baland bo'lgan. Biroz keyin Arkaim-Sintashta madaniyati dasht hududlarida keng yoyilgan Andronovo madaniyati qabilalarining madaniyati rivojlanishiga katta ta'sir qilgan.

Farg'ona vodiysida mil. avv. II mingyillik boshlariga oid bronzaadan ishlangan idish, bolta va to'g'nog'ichlardan iborat arxeologik ashyolar topilgan. Ushbu buyumlarga o'xshagan topilmalar Eron, Janubiy Turkmaniston, Shimoliy Afg'oniston va Janubiy O'zbekiston yodgorliklarida keng tarqalgan. Ular Farg'ona vodiysida savdo-ayirboshlash va migratsiyalar asosida paydo bo'lgan. Zamonbobo qabristonida topilgan ba'zi munchoqlar Badaxshon lojuvardidan yasalgan. Shuningdek, Zamonbobo manzilgohida O'rta Osiyo janubiy ziroatchilari madaniyatiga xos mis to'g'nag'ichlar, xoch shakldagi marjonlar va sopol haykalchalar topilgan.

Janubiy Tojikiston bronza davri yodgorliklaridan olingan sopol idishlar ichida Surxon vohasi, Shimoliy Afg'oniston va Janubiy Turkmanistonda ishlangan idishlarga o'xshash sopol idishlar uchraydi. O'rta Osiyo qabilalarini Qadimgi Sharq davlatlari bilan madaniy aloqalar va savdo yo'llari birlashtirgan. Bronza davrida uzoq masofadagi savdo-sotiq rivojlangan. Badaxshon tog'laridan boshlangan savdo yo'llari Eron va Mesopotamiyaga olib borgan. Badaxshonda qazib chiqarilgan qimmatli tosh – lojuvarddan yasalgan buyumlar Misr, Mesopotamiya va Eron yodgorliklarida aniqlangan. Shuningdek, o'lkamizning ba'zi viloyatlarida Afg'oniston,

Pokiston va Hindiston hududlaridan keltirilgan sopol idishlar, dengiz chig'anoqlari, fil suyagi va metallardan ishlangan buyumlar, fil va ajdar tasvirlariga ega muhrlar ham uchraydi. Panj daryosining so'l sohilida (Afg'onistonning shimoli-sharqi) Hind sivilizatsiyasi, ya'ni Xarappa-Moxenjodaro madaniyatiga oid Sho'rto'qay savdo faktoriyasining kashf etilishi ancha tasodif bo'ldi. U Hind sivilizatsiyasi markazi Moxenjodarodan 1100 km masofada noyob minerallar va metallarga boy Sharqiy Baqtriyaning tog'-konchilik tumanlarining yaqinida joylashgan.

O'rta Osiyo bronza davri tadqiqotchilari ixtiyorida yozuvsiz manbalar mavjud bo'lib, mazkur zamonning aholisi, ularning qiyofasi antropologik manbalar asosida o'rganiladi.

Bronza davrida O'rta Osiyo janubida O'rta Yer dengizi irqining vakillari yoyilgan. Mintaqaning shimoliy dasht qismlarida janub aholisidan antropologik jihatdan farq qiladigan qabilalar yashashgan.

Mil. avv. II mingyillikning o'rtalari va ikkinchi yarmida Surxon–Sherobod vohasiga va Janubiy Tojikistonning hududlariga shimoldan chorvachilik bilan mashg'ul bo'lgan qabilalar bosqichma-bosqich kelib o'rnashgan. Dasht chorvador qabilalarining moddiy madaniyati haqida Jarqo'ton yodgorligi va Vaxsh makonidan topilgan sopol buyumlar, bronza qurollari hamda qadimgi qabrlar o'rganilishi natijasida aniqlangan dafn marosimlari dalolat beradi. Sopol idishlar qo'lda ishlangan va ularning sirti murakkab geometrik



Dasht chorvador qabilalarining sopol idishlari




o'yma naqshlar bilan qoplangan. Bu idishlar mil. avv. II mingyillikda G'arbiy Sibir, Janubiy Ural va Qozog'istonning dashtlarida yoyilgan Andronovo madaniyatiga doir idishlarga o'xshab ketadi.

Janubiy Tojikistonning bronza davri aholisi tarkibida yangi etnik guruhlar paydo bo'lganligi arxeologik manbalar asosida isbotlandi. Teguzak va Kongurtut makonlaridan topib tekshirilgan uy-joy qoldiqlari, sopol idishlar, mehnat qurollari va zeb-ziynat buyumlari O'rta Osiyoning janubiy o'troq ziroatchi va dasht chorvador qabilalarining yoyilishi bilan izohlanadi. Bu qabilalar Kofirnihon, Vaxsh va Panj daryolari vohalariga, tog' yonbag'irlariga yoyilib ketgan. Chorvador qabilalarga oid bronza davri yodgorliklari Janubiy Xorazm, Kopetdog' oldi, Murg'ob vohasi hududlarida hamda Samarqand yaqinidagi Mo'minobod qishlog'i atrofida aniqlangan. Mil. avv. II mingyillikning ikkinchi yarmida O'rta Osiyo dasht va tog'oldilariga chorvador qabilalar keng miqyosda kelib o'rnasha boshladi. Ularning moddiy madaniyati Uraloldi. Sibir va Qozog'istonning dashtlarida yoyilgan Andronovo madaniyatiga mansubdir. Kelgindi dasht qabilalari joylashganidan, ayniqsa sopol idishlar, metall buyumlar va chorvador qabilalarga oid qadimgi qabrlar hamda chorvadorlarga xos bo'lgan dafn marosimlari dalolat beradi.

Andronovo madaniyati qabilalari Janubiy Xorazm vohasidan o'tib, Quyi Zarafshon, Quyi Murg'ob, Kopetdog' oldi va Shimoliy Afg'onistonda paydo bo'lishadi. Ularning boshqa bir katta to'lqini Toshkent vohasi, O'rta Zarafshon, Surxon vohasi va Janubiy Tojikiston hududlarida yoyiladi. Baqtriya hududlaridan chorvador qabilalari Hind vodiysiga yo'l olishadi.

Chorvadorlarning ba'zi bir guruhlari dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholining chegaralarida joylashib, o'troq bo'la boshlagan. Qadimgi qabilalar daryo sohillari bo'ylab, tog' yonbag'irlarida va vohalarida tarqalgan. Bu holat aholi chorva boqish hamda dehqonchilik bilan shug'ullanish maqsadida qulay geografik yerlarni o'zlashtirganligini ko'rsatadi.

### Ibtidoiy jamiyatning asosiy belgilari




Zarafshon, Hisor, Bobotog' va Pomir tog'lari yonbag'irlaridagi yaylovlarda qabilalar asosan mayda chorva boqishgan. Ular vohalarda yashovchi ziroatchi aholi bilan keng ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda bo'lgan.

Mavzuga oid xulosalar quyidagilardan iborat:

– bronza davrida ziroatchilik mintaqaning yangi hududlarida vujudga keldi (Surxondaryo vohasi, Quyi Zarafshon, Xorazm vohasi, Farg'ona vodiysi);

– shuningdek, dasht hududlarda chorvachilik bilan shug'ullanish dehqonchilikka nisbatan yetakchi mashg'ulotga aylanadi, turli arxe-





ologik belgilarga ko'ra, dashtlardagi mahalliy aholi, muayyan tabiiy sharoitga mos ko'p asrlar avval neolit davrida vujudga kelgan moddiy madaniyat an'analarini saqlab turdi (kulbasimon uy-joylar, sopol idishlarni qo'lda yasash);

– bronza davri tarixi qabilalarining keng hududiy ko'chishlar – migratsiyalar bilan izohlanadi. Shu bois Marg'iyona-Baqtriya hududlaridagi bo'z yerlar tashqi migratsiyalar natijasida aholi tomonidan o'zlashtiriladi hamda bu aholi guruhlarining migratsiyalari mintaqaning sharqiy va shimoli-sharqiy yo'nalishda davom etdi;

– O'rta Osiyodan shimolda joylashgan dasht va o'rmon-dasht hududlarda (Janubiy Ural, Shimoliy va Markaziy Qozog'iston, G'arbiy Sibir) mis, qalay, qo'rg'oshin xomashyolariga boy viloyatlar konchilik ishlari va bronza metallurgiyasi markazlariga aylandi;

– bronza metallurgiyasi, dasht qabilalari uchun, bronzadan turli xil mehnat qurollari, ro'zg'or buyumlari va yarog'-aslahalarni ishlab chiqarishga imkoniyat yaratadi. Natijada, xomashyo va tayyor mahsulot bilan ayirboshlash zaruriyati vujudga keldi;

– dasht chorvador qabilalari tomonidan otni xonakilashtirish va yilqichilikni rivojlantirish hamda aravani ixtiro qilish tufayli, ularning turmush tarzida uzoq hududlarga ko'chish ko'nikmalari paydo bo'ldi;

– ziroatchilar orasida aholi sonining ko'payib borishi va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy sabablarga ko'ra, yangi hosildor yerlar va suv manbalarini o'zlashtirish ehtiyojlari singari chorvadorlar orasida ham o'z podalarini keng yaylovlarda boqish zarurati doimiy ravishda hayotiy muhim omil bo'lgan;

– mil. avv. II mingyillikning o'rtalariga kelib, shimoliy dashtlarda qurg'oqchilik boshlanishi natijasida, chorvadorlarning janub tomon, ya'ni ayirboshlash va o'zaro iqtisodiy aloqalar tufayli ilgari ma'lum bo'lgan O'rta Osiyo janubiy hududlariga ommaviy ko'chish jarayoni boshlangan;

– mazkur migratsiyalar kelgindi chorvadorlar va tub joyli o'troq aholi guruhlarining etnik va madaniy jihatdan qo'shilish, kirishib ketishiga zamin yaratadi va oqibatda mintaqada yangi etnomadaniy jarayonlar rivojlanadi. Ular, ayniqsa, ilk temir asriga o'tish davrida (mil. avv. XVIII asrlarda) yaqqol namoyon bo'ldi.

#### *Tayanch so'zlar*

Bronza davri, ziroatchilik, chorvadorlar madaniyatlari, ishlab chiqarish munosabatlari, Dashtli-Sopolli madaniyati, Gonur-To'g'aloq madaniyati, Baqtriya-Marg'iyona sivilizatsiyasi, Jarqo'ton, Tozabog'yob. Zamonbobo, Chust madaniyati, metallurgiya rivoji, madaniy aloqalar, etnik munosabatlar, Andronovo madaniyati, hunarmandchilik sohalari, binokorlik usullari, me'morchilik, ibodatxonalar, migratsiyalar, qadimiy e'tiqodlar, patriarxat, katta patriarxal oila, ijtimoiy guruhlar, ilk davlatchilik tizimi, sivilizatsiya.



### Savol va topshiriqlar

1. Bronza davriga oid umumiy ma'lumot bering.
2. Bronza davri madaniyatlari doirasining kengayib borishi jarayoni sabablarini ochib bering.
3. Bronza davri hunarmandchiligini ta'riflab bering.
4. Sopollitepa haqida qanday ma'lumotlarga egasiz?
5. Jarqo'ton to'g'risida nimalarni bilasiz?
6. Tozabog'yob madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
7. Bronza davrida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar qanday bo'lgan edi?
8. Zamonbobo yodgorligi haqida gapirib bering.
9. Bronza davrida madaniy aloqalar qay darajada rivoj topgan?
10. Bronza davridagi etnik jarayonlar haqida gapirib bering.
11. O'rta Osiyoda ilk sivilizatsiya qaysi hududlarda shakllangan?

### 3-mavzu bo'yicha foydalanilgan adabiyotlar

1. *Annayev T., Shaydullayev Sh.* Surxondaryo tarixidan lavhalar. – Toshkent: «O'zbekiston», 1997.
2. *Аскарлов А.* Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. – Ташкент: «Фан», 1977.
3. *Аскарлов А.А., Ширинов Т.Ш.* Ранняя городская культура эпохи бронзы юга Средней Азии. – Самарканд, 1993.
4. *Воqiyev A., Shaydullayev A., Yo'ldosheva Z.* Oks sivilizatsiyasi. – Toshkent: «Yangi nashr», 2015.
5. *Виноградов А.* Древние охотники и рыболовы Среднеазиатского Междуречья. – М., 1981.
6. *G'ulomov Ya.G.* Xorazmning sug'orilish tarixi. – Toshkent, 1959.
7. *Гулямлов Я.Г., Исламов У., Аскарлов А.* Первобытная культура и возникновение орошаемого земледелия в низовьях Заравшана. – Ташкент: «Фан», 1966.
8. *Итина М.А.* История степных племен Южного Приаралья. // Тр. Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. Т. 10. – М., 1977.
9. *Итина М.А.* Взаимодействие земледельческих цивилизаций Средней Азии с их «варварской» периферией в эпоху бронзы // Древние цивилизации Востока. – Ташкент, 1986.

10. *Kabirov J., Sagdullayev A.* O'rta Osiyo arxeologiyasi. – Toshkent: «O'qituvchi», 1990.

11. *Массон В.М.* Экономика и социальный строй древних обществ. – Л.: «Наука», 1976.

12. *Мелларт Дж.* Древнейшие цивилизации Ближнего Востока. / Пер. с англ. Е.В. Антоновой. – М.: «Наука», 1982.

13. *Sagdullayev A.S.* Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. – Toshkent: Universitet, 2004.

14. *Сагдуллаев А.С.* Средняя Азия и Индия: формирование и развитие ранних путей историко-культурных связей // Индия и Центральная Азия. – Ташкент, 2000.

15. *Сарианиди В.* Гонур Депе. Город царей и богов. – Ашгабад, 2005.

16. *Сарианиди В.* Задолго до Заратуштры. – М.: Старый сад, 2010.

17. *Tolstov S.P.* Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab. – Toshkent, 1964.

18. *Eshov B.J., Odilov A.A.* O'zbekiston tarixi. III jild. Eng qadimgi davrdan XIX asr o'rtalarigacha. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2014.

19. *Lamberg-Korlovsky.* The Bronze Age khanates of Central Asia. Antiquity 68, 1994.

20. The Bronze Age Civilization of Central Asia. – New York, 2016.



---

## 4-MAVZU

### O‘ZBEKISTON DAVLATCHILIGINING SHAKLLANISH ASOSLARI

#### Reja:

- 4.1. Ilk davlatlar rivojlanishining davrlashtirilishi.
- 4.2. Boshqaruv tizimi va ilk davlatlar paydo bo‘lishining ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy asoslari.
- 4.3. Davlatchilik kelib chiqishiga doir nazariyalar. Davlat shakllari va boshqaruv tizimi.

#### 4.1. Ilk davlatlar rivojlanishining davrlashtirilishi

O‘rta Osiyo o‘ziga xos tarixiy-geografik va tarixiy-madaniy hudud hisoblanib, ikkita yirik daryo – Amudaryo va Sirdaryo tufayli bu hududlarda ko‘p asrlar davomida sivilizatsiya taraqqiy etib borgan. Mazkur hududda paydo bo‘lgan davlatlar qadimgi davrlarda va o‘rta asrlarda ham o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turgan. Qadimgi davrlarda Xorazm, Sug‘d, Baqtriya viloyatlaridagi etnik, moddiy madaniyat, til va yozuv bir-biriga yaqin bo‘lgan. Bu holat har bir viloyatning tarixiy-madaniy shakllari hamda madaniy taraqqiyot darajasi bilan izohlanadi.

So‘nggi yillar tarixshunosligida O‘zbekiston tarixidagi qadimgi davlatlar rivojlanishining davrlashtirilishi ishlab chiqildi (E.V. Rtvladze). Ushbu davrlashtirish tarixiy hamda arxeologik tadqiqotlar natijalariga asoslangan bo‘lib, mil. avv. II mingyillikning ikkinchi yarmidan milodiy III–IV asrlargacha bo‘lgan quyidagi 6 ta davrga ajratiladi:

**Birinchi davr – mil. avv. II mingyillikning ikkinchi yarmi.** Bu davrda shimoliy Baqtriya (Surxon vohasi)da davlatchilikning ilk

ko‘rinishi shakllanib, uning tepasida oqsoqollar kengashi va saylanadigan hukmdor turgan bo‘lishi mumkin. Bunday ko‘rinishdagi ilk davlatlar bu davrda Baqtriya hududlarida shakllangan nisbatan yirik uyushmalar tarkibiga kirgan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Nisbatan taraqqiy etgan iqtisod, jumladan, sug‘orma dehqonchilik, sopol va metall hunarmandchiligi, ichki va tashqi savdo munosabatlari bunday uyushmalarning davlatchilik xususiyatidan dalolat beradi. Ammo davlatchilikning muhim belgisi hisoblangan yozuvning bu hududlarda mavjudligi hozirga qadar to‘la isbotlanmagan.

**Ikkinchi davr – mil. avv. I mingyillik boshlari – mil. avv. 540-y.** Bu davrda Baqtriya, Sug‘d va Xorazm kabi tarixiy-madaniy viloyatlar shakllanadi. «Avesto» ma’lumotlariga tayanib, tadqiqotchilar ularni ijtimoiy toifalar tizimiga asoslangan siyosiy hokimiyat ko‘rinishidagi davlatlarning ilk shakli sifatida izohlashadi. Bu davrda nisbatan hududiy yirik mulklar – qadimgi Baqtriya va qadimgi Sug‘d davlatlari, shuningdek, shimolda sak-massagetlarning qabilalar konfederatsiyalari tashkil topgan.

**Uchinchi davr – mil. avv. 540–330-yillar.** Ahamoniylar bosqini tufayli O‘rta Osiyo viloyatlarining ular qadimgi Fors davlati tarkibida kirishi natijasida mahalliy davlatchilik taraqqiyotidagi uzilish davri. Ulkan Ahamoniylar saltanati satrapliklarga bo‘linib boshqarilgan hamda uchta O‘rta Osiyo satrapliklari – Baqtriya, Sug‘d, Xorazm to‘laligicha yoki qisman hozirgi O‘zbekiston hududlariga to‘g‘ri keladi.

Satrapliklar tarkibiga kirgan viloyatlarning hukmdorlari, xususan, Oksiart, Xoriyen, Sisimitr, Katan, Avstan singari Baqtriya va Sug‘d zodagonlari Nautaka, Ksenippa, Paretaka kabi o‘zlarining merosiy mulklarini ma’lum ma’noda mustaqil boshqarishgan. Sak qabilalarining ahamoniylarga qarshi uzoq kurashlari natijasida mil. avv. IV asrning boshlariga kelib, Xorazmda mustaqil davlat tashkil topadi.

**To‘rtinchi davr – mil. avv. IV asrning oxiri – II asr ikkinchi yarmining boshi.** Makedoniyalik Aleksandr yurishlaridan so‘ng Sallavkiylar davlati davri va Yunon-Baqriya davlatining inqirozigacha



bo'lgan, o'z xususiyati va shakliga ko'ra ikki xil – Shimoliy Baqtriya va qisman Sug'dda ellinistik, qolgan hududlarda esa, xususan Xorazmda mahalliy davlatchilik an'analari rivojlanadi, O'rta Sirdaryo havzasida Qang' va Farg'ona vodiysida Davan davlati vujudga keladi. Bu davrda paydo bo'lgan Salavkiylar va Yunon-Baqtriya davlatlarida davlatchilikning ellinistik siyosiy mezonlari o'rnatilgan tarzda, ayrim yirik shaharlarda polis boshqaruvi mavjud bo'lgan bo'lishi mumkin. O'rta Osiyo Ikkidaryo oralig'ining Shimoliy va Sharqiy qismida – Xorazm, Sug'd va Farg'onada mahalliy davlatchilik tizimining rivojlanishi bo'lib, tadqiqotchilar bu jarayon bosqichini shartli ravishda «Xorazm-Qang'», deb ataydilar.

Mil. avv. IV asrda Xorazm ahamoniylardan mustaqil bo'lgan bo'lsa, mil. avv. III–II asr bo'sag'asida Sug'dda Antiox I va Evtidem tangalariga taqlidan tangalar zarb etgan alohida mulklar shakllanadi. Shu davrda markaziy va shimoliy hududlarda Qang' davlati konfederatsiyasining ham shakllanish jarayoni bo'lib o'tadi.

**Beshinchi davr – mil. avv. II asrning ikkinchi yarmi – milodiy birinchi asr boshlari.** Ko'chmanchi qabilalar hujumi natijasida O'rta Osiyo Ikkidaryo oralig'ining barcha hududlarida davlatchilik mavjud bo'lib, ko'chmanchi davlatchilik an'analari mahalliy davlatchilik an'analari bilan aralashib ketadi. Bu hududlarga kirib kelgan yuechji-toxarlar Sug'd va Shimoliy Baqtriya hududlariga joylashib, beshta mulkdan iborat mustaqil davlat konfederatsiyasini tashkil etishadi.

Bu davrda Qang' davlati konfederatsiyasiga Sug'd va Choch mulklari ham kiradi. Bu mulklar avval yunon-baqtriya tangalariga taqlid qilib tanga zarb etgan bo'lishsa, keyinroq, mustaqil tangalar zarb etishadi.

Bu davrdagi barqaror davlatchilikning muhim belgilaridan biri – oromiy alifbosi asosidagi yozuvning keng yoyilishi hisoblanadi.

**Oltinchi davr – milodiy I asr boshi – III asr o'rtalari.** Bu davrdagi eng muhim voqealardan biri – qudratli Kushon davlatining paydo bo'lishi va rivojlanishi hisoblanadi. O'zbekistonning janubi Ku-

shon davlatining bir qismi edi. Aynan shu davrda Surxon vohasida shaharlarning gullab-yashnashi, aholi manzilgohlarining ko'payishi, madaniy hayot, iqtisod, savdo-sotiqning taraqqiyoti kuzatiladi.

Shuningdek, bu davrda Buxoro Sug'dning janubi-g'arbida («Girkod» sulolasi), Samarqand Sug'dida («Kan» sulolasi), Janubiy Sug'dda Kesh («Artat» sulolasi), Farg'ona va Chochda mustaqil ichki va tashqi siyosat olib boruvchi mulk-davlatlar rivojlanadi.

E.V. Rtveladzening fikricha, O'zbekiston hududlaridagi qadimgi davlatchilik davri quyidagi muhim jihatlari bilan ajralib turadi:

– tangalarda davlat ramzi bo'lgan sulolaviy belgilarning mavjudligi;

– yozuvning paydo bo'lishi va keng tarqalishi;

– mustaqil tanga zarb etishning paydo bo'lishi, tovar-pul munosabatlarining taraqqiy etishi;

– davlatchilikning barcha funksiyalariga ega bo'lgan alohida mulklarning shakllanishi;

– bu mulklar o'rtasida diplomatik munosabatlarning kengayishi;

– davlatlar va xalqlarning ma'naviy boyishi, xalqaro aloqalari, mahsulot ayirboshlashiga keng yo'l ochib bergan Buyuk ipak yo'lining shakllanishi.

So'nggi ilmiy tadqiqotlar natijasida, yuqorida ko'rib chiqilgan ilk davlatlar rivojlanishining davrlashtirilishiga ayrim qo'shimchalar kiritish mumkin. O'rta Osiyo janubida davlatchilik tizimiga o'tish davri mil. avv. III mingyillikning oxiri – mil. avv. II mingyillikning boshlari, ya'ni bronza davri bilan belgilanadi. Baqtriya va Sug'd misolida hududiy jihatdan o'rtamiyona davlat mil. avv. VII asrda vujudga keladi.

#### 4.2. Boshqaruv tizimi va ilk davlatlar paydo bo'lishining ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy asoslari

Yuzlab mingyilliklarni o'z ichiga olgan insoniyat tarixida dastlabki davlatlar va shaharlarning tashkil topishi, hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi, yozuvning kelib chiqishi – nisbatan keyinroq



yuzaga kelgan hodisalardir. Davlatchilik jahon tarixida miloddan avvalgi IV mingyillikning oxirlarida Sharqda vujudga kelgan bo'lib, insoniyat tamaddunining so'nggi 5 ming yili bilan bog'lanadi.

Urug'chilik jamoalarida boshqaruvning ilk shakli ijtimoiy boshqaruv sifatida so'nggi paleolit davrida vujudga kelgan. Jahon tarixi davrlashtirilishida bu bosqich inson hayotida qarindoshlarning alohida birlashuvi – urug'i jamoasiga aylana borishi bilan bog'lanib, ona urug'i davri – matriarxat deb ataladi. Mezolit va neolit davrida O'rta Osiyoning tog'lar, dashtlar, ko'l va dengiz bo'ylarida joylashgan, ovchilik va baliqchilik bilan shug'ullangan aholining ijtimoiy hayotida matriarxat, ya'ni yoshi katta ayollarning (katta ona) mavqeyi erkaklarnikiga nisbatan ancha baland edi. Bu davr urug'chilik jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojida qon-qarindoshlik tamoyilining muhimligi yuqorida ta'kidlandi.

Matriarxatning xususiyati shundan iborat ediki, qarindoshlik ona tomonidan belgilanib, birinchi galda urug', oila ichida namoyon bo'lgan (bolalarni tarbiyalash, oziq-ovqat mahsulotlarni taqsimlash, ovqat va kiyim-bosh tayyorlash, jamoadagi o'zaro aloqalarni tartibga solish, ichki munosabatlarni nazorat qilish). Ammo mehnat qurollarini yasash, ovchilik va baliqchilik mashg'ulotlarini tashkillashtirish va amalga oshirishda erkaklarning ahamiyati katta bo'lgan. Shu tariqa tashkiliy-boshqaruv faoliyat vujudga kelgan. Bu borada e'tiqod marosimlarini amalga oshirish zaruriyati ham e'tiborga molik.

Xo'jalik shakllarini rivojlantirish, bilim va ko'nikmalarni avloddan avlodga o'tkazish jarayoni o'z tajriba va amaliy bilimlari bilan jamoada ajralib turgan mohir qurolsoz, baliqchi va ovchilarni saralanishiga olib kelgan. Urug'chilik tizimida urf-odatlar va axloqiy xislatlar ustunlik qilib, huquqiy munosabatlar shakllanmagan.

Ibtidoiy jamiyat tarixida ijtimoiy boshqaruv tamoyillari va vazifalari turli ko'rinishlarda bo'lib, ular tashkil qilish, tartibga solish, nazorat, jamoatning ichki munosabatlarini boshqarib turish funksiyalari bilan bog'langan edi. Shu tarzda ijtimoiy-iqtisodiy talablari, obro'-e'tiboriga ega, o'zlarining shaxsiy axloqiy xislatlari, amaliy

bilimlari va tajribalari bilan boshqalardan ajralib turgan shaxslarning saralanishiga olib kelgan. Urug' oqsoqoli va qabilalar yo'l boshchilari jamoalar vakillari yig'inida («Xalq yig'ini») saylangan. Ibtidoiy jamiyat tarixida yo'l boshchi rahbar ijtimoiy foydali faoliyati bilan band bo'lib, urug'-qabila odatlariga asoslangan ijtimoiy hokimiyat dastlab siyosiy davlat maqomi darajasiga yetmagan ijtimoiy tashkilot shaklini o'zida ifoda etgan.

Qadimgi davlatlar o'z rivojlanish bosqichlarida, turli xususiyatlar va tarixiy qonuniyatlarga ega bo'lgan. Dastavval, ilk davlatlar xo'jalikning ishlab chiqaruvchi shakllari – dehqonchilik va chorvachilik qayerda oldin rivoj topgan bo'lsa, o'sha yerda vujudga keldi. O'zlashtiruvchi xo'jalikka (ovchilik, baliqchilik) asoslangan biron-bir jamiyatda davlatlar paydo bo'lmagan.


Ibtidoiy tarixda (ilk urug'chilik jamoasi davrida) aholining joylashuvi qon-qarindoshlik aloqalari bilan belgilangan. U yoki bu hududda faqat bitta qon-qarindosh urug' a'zolarigina yashagan. Xo'jalik ishlab chiqaruvchi shakllarining taraqqiyoti, aholi joylashuvi hududlarning kengayishiga, tashqi aloqalarning uzluksiz rivojlanishiga olib kelgan. Ishlab chiqarish zarurati va boshqa iqtisodiy omillar shuni inqozo etgan. Shu tariqa aholining aralash joylashuvi jarayoni boshlangan. Bunda bir hududda turli urug' namoyandalari yashaydigan bo'lgan. Ana shunday qilib, jamiyatning yangi hududiy tashkiloti vujudga kelgan, o'zini iqtisodiy jihatdan ta'minlay oladigan katta oilalar paydo bo'lgan.

Bu jamoalar vakillari alohida uy-joylar, ekinzorlar va sug'orish tarmoqlari bilan chegaralangan, ya'ni, to'la o'zlashtirilgan va muttasil xo'jalik hamda ishlab chiqarish maqsadlarida foydalanib kelingan voha-tumanlarda hayot kechirib, o'z ichki va tashqi munosabatlarida kelib chiqadigan muammolarni hal qilishda birlashishga harakat qilishgan.

O'zbek xalqi, O'rta Osiyo xalqlari va ularning ajdodlari tarixida ilk davlatchilikning vujudga kelishi masalasini o'rganish muhim ahamiyatga ega. O'rta Osiyoda ilk davlatchilik tuzumiga bronza




### O'zlashtiruvchi xo'jaliklarga asoslangan ibtidoiy (urug'chilik) jamiyat belgilari



davridagi sug'orma dehqonchilik rivojlanishi va ixtisoslashgan hunarmandchilik zamin yaratgan edi. Alohida ta'kidlash joizki, O'rta Osiyoda davlatchilik tizimiga o'tish jarayoni faqat ichki sabablarga bog'liq bo'lmay, Sharqdagi yuqori darajada rivojlangan an'anaviy tarixiy-madaniy aloqalar hamda migratsiyalar tashqi ta'sir jarayonlari bilan bog'liq edi. Marg'iyona-Baqtriya hududidan topilgan yuqori sifatli oltin, kumush va bronza buyumlari, o'ziga xos me'morchilik an'analari nafaqat tashqi savdo va o'zaro aloqalarning rivojlanganligidan, shuningdek migratsiyalar natijasida sivilizatsiyaning yangi o'choqlari vujudga kelishidan dalolat beradi. Qadimgi Sharq davlat markazlari bilan etnomadaniy va iqtisodiy munosabatlar muammosi dolzarb mavzu bo'lib, arxeologiya ma'lumotlari o'zaro aloqalardagi mavjud texnologiya va iqtisodiy innovatsiya – yangiliklarning yoyilish xususiyatlarini ochib beradi.

Ilk davlatlarning hududiy asosini bir-biriga yaqin joylashgan qo'shni dehqonchilik tumanlari tashkil etgan. Xo'jalik yuritish maqsadida o'zlashtirilgan hududlarda aholi zich joylashgan bo'lib, ular qadimgi dehqonchilik tuman-vohalari deb atalgan. Ularning har bi-

### Ishlab chiqaruvchi xo'jaliklarga asoslangan ibtidoiy jamiyatning belgilari



rida hosildor yerlar va sug'orish tizimidan tashqari, uy-qo'rg'onlar va manzilgo'lar, ekin ekilmagan yerlar va yaylovlar mavjud bo'lgan. Qadimgi dehqonchilik tumanlarining tuzilishi tabiiy-geografik, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy muhit bilan bog'liq edi. Bir necha tumanlar viloyatni tashkil etgan.

Yuqorida ko'rsatilgan omillar bilan bog'liq holda boshqaruvning hududiy funksiyalari ham vujudga kelgan. Ushbu funksiyalar ma'lum hududlarda joylashgan o'troq ziroatchilar jamoalari, dehqonchilik voha-tuman va viloyat (bir necha tuman) aholisining munosabatlarini nazorat qilish va boshqarib turish zaruriyatidan kelib chiqqan.

Shu tariqa ilk davlatchilikka o'tish jarayoni boshlangan. Ikkinchi bosqich jamoaning o'zini o'zi boshqaruv muassasalarining yo'l boshchi hokimiyatiga to'la bo'ysundirilishi bilan bog'liq bo'lib, ushbu jarayonda jamoa a'zolari o'rtasidagi ichki va tashqi aloqalarning huquqiy tartibi yanada takomillashib boradi. Bu holat esa davlat tizimidagi turli vazifalarning huquqiy tartibga solinishi va hokimiyatning huquqiy jihatdan rasmiylashtirilishiga olib keladi. Ilk davlatchilik tizimida boshqaruv iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va hududiy funksiyalar bilan bog'liq holda amalga oshirilgan.

Yuqoridagilardan xulosa tarzda ta'kidlash joizki, Qadimgi Sharqning ilk davlatlari («nomlar», shahar-davlatlar) tarixi dastlab jamiyat-



ning qullar va quldorlarga bo'linishidan boshlanmagan ekan. Jamiyatda qarama-qarshi sinflar paydo bo'lib, ilk davlatlarning vujudga kelishiga asosiy sabab bo'ldi, degan xulosa, ya'ni davlat kelib chiqishiga oid sinfiy nazariya ko'p jihatdan tahririga muhtoj. Ushbu jarayonning muhim omillaridan biri sinfiy qarama-qarshilikka aloqasi bo'lmagan jamiyatning ijtimoiy-amaliy vazifalar jihatidan bo'linishi, jamoalar uning umumiy manfaatlarini amalga oshirish maqsadida birlashuvi zaruriyatidir. Bu hol, eng avvalo, ijtimoiy-iqtisodiy, harbiy va diniy omillarga bog'liq bo'lgan. Davlatchilik asoslari, siyosiy institutlar shakllangandan so'ng jamiyatda chuqur mulkiy va ijtimoiy tabaqalanish jarayonining boshlanishi namoyon bo'lgan.

Ilk davlatlarning ishlab chiqarish faoliyatida dastlab ozod jamoa a'zolarining mehnati muhim o'rin tutadi. Aholi sonining o'sishi hamda yangi aholi joylasha oladigan hududlarga, bo'z yerlar va chorva uchun yaylov, ma'danlarga boy manbalarga ega bo'lish ehtiyoji katta yo kichik urushlarga sabab bo'lgan. Doimiy harbiy bosqinlar sharoitida ba'zi bir davlatlar tor-mor etilib, ba'zi birlari esa kuchayib borgan. Bosqinchilik urushlari natijasida asirlar va xonavayron jamoa a'zolari qullikka mahkum bo'lishgan. Qullarning o'sib borishi bilan ularning mehnatidan binokorlik, sun'iy sug'orish inshootlarini barpo etish va ishlab chiqarish maqsadlarida keng foydalanilgan. Shu tarzda tarixda quldorchilik tuzumi Qadimgi Misr, Shumer-Akkad va Ossuriyadek o'rtamiyona hududga ega davlatlarda (o'rta podsholiklar) vujudga kelgan. Ularning iqtisodiy asosini yirik saroy, ibodatxonalar va katta oila jamoalarning xo'jaliklari tashkil etgan. Jamiyatda boy-badavlat kishilar va ayrim to'q oilalarning obro'-e'tibori, ijtimoiy o'rni baland bo'lgan. Shuningdek, o'rtahol va qashshoq aholi guruhlari hamda qullar mavjud edi. Qadimgi davlatlar rivojining bosqichlarida, o'ziga xos xususiyatlar va tarixiy qonuniyatlar mansub bo'lgan. Shu boisdan davlatchilik tarixini davrlashtirish va qadimiy jamiyatlarga oid tarixiy voqealarni qiyosiy o'rganish dolzarb vazifadir. O'rta Osiyo hududlarida ham ilk davlatlar quldorlik davlatlar sifatida vujudga kelmagan. Davlatning kelib chiqishi to'g'risidagi

nazariyalarning turli xilligini tan olib, mazkur mavzuga oid sinfiy nazariyadan voz kechish maqsadga muvofiqdir.

Arxeologik manbalarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, ilk temir davri Baqtriya va Sug'd jamoalaridagi asosiy ishlab chiqaruvchi kuchlarni bir necha kichik oilalardan iborat xonadon jamoalari (katta oila vakillari) tashkil etgan. Uy-qo'rg'onlar joylashuvining tashqi belgilariyoq, uyjamoalari aftidan ancha yirik hududiy qo'shni jamoalarni tashkil qilganidan dalolat beradi. Boshqaruv tartibida uy egalari, shuningdek, ayrim voha-tumanlarini boshqaruvchilari katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Alohida xonadonlar o'rtasidagi qarindoshchilik munosabatlari kabi belgilar aftidan, ikkinchi darajali bo'lib borgan. Bu shunda ko'rinadiki, har bir katta oila mumkin bo'lgan qarindoshchilik aloqalariga qaramasdan, alohida xususiy mulkka, o'z uy-joyiga, ishlab chiqarish qurollariga, shuningdek, qishloq xo'jalik mahsulotlari va chorvalariga ega bo'lishgan, bir so'z bilan aytganda, ular o'zini iqtisodiy jihatdan ta'minlay oladigan xo'jalikni aks ettirishgan. Katta oilali jamoalar shakli jamoadagi ishlab chiqarish va xo'jalik xarakteriga bog'liq bo'lib, ular jamoatning iqtisodiy jihatdan mustahkamlanishiga olib keldi.

Uy-qo'rg'on egalariining huquqlari ancha yuqori bo'lib, ular oila va jamoadagi ish yurituvchilar sifatida an'anaviy qishloq xo'jalik shakllarini rivojlantirish, oziq-ovqat mahsulotlarini ko'paytirish maqsadida turli munosabatlarni boshqarib turgan. Bu ijtimoiy tuzumda ayrim guruhlar dehqonchilik xo'jaligi bilan mashg'ul bo'lgan. Shuningdek, tuzumda uy chorvachiligi, ixtisoslashgan hunarmandchilik, qurilish ishlari bilan shug'ullanuvchilar, umuman, ishlab chiqaruvchilar bor edi. Undan tashqari, ishlab chiqarish jarayonida band bo'lmagan ijtimoiy-iqtisodiy tizimda rejalashtirish, tashkillashtirish, tartibga solish va nazorat qilish vazifalarni amalga oshirgan shaxslar ham mavjud bo'lib, bu toifa kishilariga uy-qo'rg'on egalari, jamoa oqsoqollari, diniy arboblari, tuman va viloyat hokimlari kirgan. Ularning barchasi jamiyat hayoti va ishlab chiqarish tartibida tutgan o'rni bilan boshqalardan farq qilgan.



O'zbekiston hududlarida davlatchilik dehqonchilikdan ixtisoslashgan hunarmandchilikning ajralib chiqishi tufayli ilk shahar markazlari asosida rivojlangan. Shahar markazlarining ahamiyati, ayniqsa harbiy to'qnashuvlar paytida yanada oshib, ulardan tuman aholisi tomonidan boshpana va ijtimoiy mulkning asosini tashkil etuvchi chorva podalari uchun pana joy sifatida foydalanilgan.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, ilk temir davrida O'zbekiston janubidagi jamoalarda «uy egasi», «qishloq oqsoqoli», «oqsoqollar kengashi», «voha-tuman hokimi» kabi mansablar mavjud edi. Ijtimoiy tuzumning bu pog'onasi ilk davlatchilikning yuqori darajasi bo'lib, u jamoalarning ijtimoiy hayotida o'z obro'-e'tibori va ahamiyatini saqlab qoldi. Jamoa uchun tashkiliy boshqaruv keng ko'lamdagi qurilish, sug'orish va dehqonchilik ishlarini tashkil etish paytida zarur edi. Yo'l boshchi hokimlarning boshqalardan ajralib turishiga qadimgi shaharlarning ichki qal'asida ularning alohida joylashgan saroy qo'rg'onlari mavjudligi ham guvohlik beradi. Bu hokimiyat jamoaning ichki va tashqi munosabatlarini boshqarib turgan.

Yangi ma'lumotlarga ko'ra, O'rta Osiyo janubida (Marg'iyona-Baqtriya) ilk davlatchilik mil. avv. III mingyillikning oxirlari – II mingyillik boshlarida vujudga kelgan. Ularning markazlari saroy va ibodatxonalarga ega ilk shaharlar bo'lgan (Gonur, Dashtli). O'zbekiston hududida ilk davlatchilik tizimiga o'tish bronza davrida boshlanadi. Surxondaryodagi Ulombuloqsoy-Sherobod qadimiy zi-roatchilik vohasi yodgorliklarning o'rganilishi (Sopolli, Jarqo'ton) dehqonchilik, me'morchilik va hunarmandchilikning yuksak taraqqiy darajasini ochib berdi. Jarqo'tonda alohida joylashgan ibodatxona qadimgi Sharqdagi sajdagohlar singari, e'tiqodga oid vazifasidan tashqari, ibodat-xo'jalik majmuasi mohiyatiga ega bo'lgan. Bronza davrida ibodat marosimlarini tashkillashtiruvchi va ijro etuvchi maxsus ijtimoiy guruhlar – koinlar paydo bo'ladi.

Qadimgi Sharqdagi ilk davlatlarning paydo bo'lishi va rivojlani-shi ko'pgina umumiy jihatlarga ega ekanligini ta'kidlash joizdir. Aynan shu boisdan ham O'rta Osiyoda ilk davlatlarning shakllanishi

Jarayoni Qadimgi Sharq davlatchiligi tarixi bilan uzviy bog'liqdir. Misol tariqasida, Ikkidaryo oralig'i (Mesopotamiyada) saroy – ibodatxona – shahar tizimining rivojlanishi ma'lum. Mazkur tizim Gonur, Dashtli va Jarqo'ton me'morchilik rejasida ham o'z aksini topgan. Jarqo'tonda hukmdor saroyi ham bunyod etilgan.

Bronza davridayoq sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik va chorvachilik O'rta Osiyo xo'jaligining asosini tashkil etgan. Sug'orma dehqonchilikning yuqori unumdor shakllari jamiyatda hal qiluvchi o'zgarishlarga olib keldi. Xususan, dehqonchilik va chorvachilik rivoji natijasida qo'shimcha mahsulot va xususiy mulk ko'rinishlari paydo bo'ldi.

Mil. avv. IX–VIII asrlarda dasht chorvador qabilalari hayotida ko'chib yuradigan chorvachilik shakli muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Ko'chmanchilar qurol-yarog'ni rivojlantirish, o'q otish va suvoriy jang qilish sohasida katta yutuqlarga erishib, o'troq dehqonchilik aholi uchun juda xavfli kuchga aylanishadi. Bu davrda suvoriy-jangchi va harbiy yo'l boshchilarning mavqei oshadi. Shu tariqa «harbiy demokratiya» tamoyillariga asoslangan ko'chmanchi qabilalarning dastlabki uyushmalari vujudga keladi. Bunga o'xshash uyushmaning markazi quyi va o'rta Sirdaryo havzasi dashtlarida joylashgan. Mil. avv. VII–VI asrlarda Sharqiy Kaspiybo'yi, Janubiy va Sharqiy Orolbo'yi oralig'i hududlarida joylashgan sak-massaget qabilalarning harbiy uyushmasi paydo bo'ladi.

Mil. avv. VII–VI asrlar o'rtalarida dehqonchilik voha-tumarlari asosida davlatchilik Baqtriya, Sug'd, Xorazm va Farg'ona vodiysida rivojlanadi. Mil. avv. IX–VII asrlar tarixiga oid «Avesto»da yo'l boshchilar va hukmdorlarning unvonlari belgilab berilgan – «kavi» (hukmdor, podsho), «sastar» (harbiy yo'l boshchi), «zantupati» (qabila yo'l boshchisi). Baqtriya va Sug'd davlatchilik shakli «daxiyusasti» (barcha viloyatlar hududiy birlashuvi)ga ancha yaqin bo'lgan.

O'rta Osiyoda davlat uyushmalari sun'iy sug'orish birmuncha qulay bo'lgan Amudaryo havzasida (Surxon-Sherobod vohasida)



Murg'ob, Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida shakllanib rivojlanadi. Bunday holatni dunyo tarixidagi dastlabki davlatlar – Misr (Nil) va Mesopotamiya (Dajla va Frot) misolida ham kuzatishimiz mumkin.

Dastlabki shahar markazlarining paydo bo'lishi muammolari davlatchilik vujudga kelishi masalalari bilan uzviy bog'liq mavzu hisoblanadi. Ilk yozma manbalar O'rta Osiyo hududlarida davlatlar vujudga kelishi haqida nisbatan aniq ma'lumotlar bermaydi. Bu o'rinda arxeologik ma'lumotlarning ahamiyati beqiyosdir.


Jamiyat hayotida metallning keng yoyilishi – dastlabki shaharlar va davlatchilikning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kungacha kelib ko'plab bronza va ilk temir davri yodgorliklaridan ishlab chiqaruvchi xo'jalik bilan bevosita bog'liq bo'lgan metall qurollari topib o'rganilgan. Mehnat quollarining metallan ishlanishi mehnat unumdorligining yanada oshishiga keng imkoniyatlar yaratdi.

Bronza davrida hunarmandchilikning ixtisoslashuvi va alohida xo'jalik tarmog'i sifatida shakllanib rivojlanishi jamiyatdagi iqtisodiy taraqqiyot uchun muhim ahamiyat kasb etib, asosini ilk shaharlar tashkil etgan davlatchilikning shakllanishi uchun muhim omil bo'lgan. Dastlabki davlatlarning paydo bo'lishida ilk shaharlardagi o'zaro ayirboshlash, savdo-sotiq va madaniy-iqtisodiy aloqalarning ham ahamiyati nihoyatda katta bo'lgan. Shuningdek, davlatchilikning kelib chiqishida aholi madaniyati, e'tiqodlari va diniy qarashlarning umumiyliigi muhim birlashtiruvchi vazifasini bajargan.

So'nggi bronza davriga kelib shimoldagi ko'chmanchi chorvador qabilalar va janubdagi o'troq dehqonchilik aholisi o'rtasida o'zaro mol ayirboshlash va madaniy aloqalar yanada jadallashadi. Janubiy va shimoliy hududlaridan aniqlangan topilmalardagi ko'pgina o'xshashliklar bu hududlar o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy va madaniy aloqalardan, qadimgi yo'llarning taraqqiy etganligidan dalolat beradi.

O'zbekistonda eng qadimgi davlatlarning shakllanish jarayoni dehqonchilik va chorvachilik iqtisodiyoti, ixtisoslashgan hunarmandchilik va shahar markazlarining paydo bo'lishi bilan uzviy bog'liqdir.


### Ijtimoiy mansablar va boshqaruvning rivojlanishi asoslari



Ilk temir davriga kelib o'troq aholi sonining ko'payishi, hosildor bo'z yerlarning jadal o'zlashtirilishi va ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi natijasida aholi joylashish uchun hayotiy zarur hududlarini taqsimlanishiga olib keladi. Daryo vohalariga joylashib olgan ziroatchilar nafaqat ekin maydonlarini kengaytirib borishadi, shuningdek, ular o'z podalarini boqish maqsadida atrofdagi yaylovlardan ham keng foydalanishadi. Ko'chmanchi chorvadorlar dashtlar



### Mil. avv. VII–VI asrlar boshqaruv tartibi



hamda o'troq aholi hududlari chegaralarida (Sharqiy Kaspiybo'yi va Orol dengizi oralig'i, Sharqiy Orolbo'yi, Quyi Amudaryo so'l sohili yerlari, Quyi Sirdaryo, Pomir vohalari va boshq.) joylashishadi.

### 4.3. Davlatchilik kelib chiqishiga doir nazariyalar

#### 4.3.1. Davlat shakllari va boshqaruv tizimi

Antik va o'rta asrlar davridan boshlab davlatning kelib chiqishi to'g'risida dastlabki qarashlar paydo bo'lib, ular asosida turli nazariyalar ishlab chiqilgan. Ularning tarafdorlari o'zlarining mafkuralari, yondashuvlari va dunyoqarashlariga asoslanib ma'lum nazariyalarini isbotlashga harakat qilishgan. Ushbu nazariyalarda abstraksiya (mavhum tasavvur), umumiy falsafiy usullar ustunlik qilib, muammoning tarixiy-huquqiy jihatlariga kam e'tibor qaratilgan. Mazkur masalani ko'rib chiqqan olimlar (R.V. Rtveladze, A.X. Saidov, A.V. Abdulloyev) quyidagi nazariyalarga ta'rif berishadi:

**Teologiya nazariyasi** tarafdorlari: XIII asr, Foma Akvinskiy, XIX asr, Jozef Mestr, islom mafkurasida va katolik cherkovi.

Bu nazariya davlatlar kelib chiqishini ilohiylik bilan bog'laydi. Qadimgi davridayoq Isroilda paydo bo'lgan bu nazariya ilk davlatlarning diniy boshqaruv shakllarini (teokratik) qattiq turib himoya qiladi.

**Patriarxal nazariya** dastlab Arastu asarlarida acoslanib, XIII asrda R. Filmer tomonidan rivojlantirildi.

Uning tarafdorlari dastlabki davlat bevosita oiladan o'sib chiqqan deb hisoblaydi. Unga ko'ra, davlat hokimiyati otaning oila a'zolari ustidan hokimligini belgilab beradi.

**Patrimonial nazariya** XIX asrda yashagan fransuz olimi A. Galter tomonidan ishlab chiqilgan.

Nazariya tarafdorlari davlat yerga mulkchilik huquqidan kelib chiqqan (patrimomum) deb hisoblashadi, ya'ni, hokimiyat, yerga egalik qilish huquqidan bevosita u yerda yashovchi odamlarga yoyiladi.

**Shartnomaviy nazariya.** XVII–XVIII asrlarda keng yoyilgan bu nazariya tarafdorlari A. Gorsiy, J. Lokk, T. Gobs, J. Russo, D. Didro, Sh. Monteske kabilar edi.

Bu nazariyaga ko'ra davlat – odamlar o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida odamlarning ongli ravishda birlashishidir. Odamlar shartnomaning kuchi bilan o'z erkinligi, o'z hokimiyatining bir qismini davlatga beradilar.

**Zo'ravonlik (kuch ishlatish) nazariyasi.** Uning tarafdorlari: E. Dyuring, L. Gumplovich, K. Kautskiy huquqsiz va himoyasiz qabilalarning kuchli va uyushgan qabilalar tomonidan bosib olinishi tufayli zo'ravonlik yoki kuch ishlatish yo'li bilan paydo bo'lgan, deb hisoblashadi.

**Irrigatsiya nazariyasi.** Nemis olimi K. Vittfogel tomonidan ishlab chiqilgan. Bu nazariyaga ko'ra, davlatlarning paydo bo'lishi, ularning birlamchi despotik shakllari sharqiy agrar viloyatlarda ulkan inshootlar qurilishi bilan bog'lanadi.

**Psixologiya nazariyasi** tarafdorlari: L. Petrajetskiy, Z. Freyd, G. Tard davlatning paydo bo'lishini inson psixologiyasi, shaxsning




jamoada yashashga ehtiyoji, obro'li kishilarni izlash, buyruq berish va itoat istagi bilan izohlashadi.

**Sinfy nazariya.** Tarafdorlari: K. Marks, F. Engels, V. Lenin, G. Plezanov. Bu nazariyaga ko'ra, sinflar paydo bo'lishi va ular o'rtasida sinfiy kurash keskinlashuvining yakunidir. Davlat bir sinfning boshqa sinf ustidan hukmronlik qurolidir.

Davlatchilik kelib chiqishi masalalariga oid markscha nazariyasi jamiyatda ijtimoiy o'rni baland bo'lgan boy-badavlat kishilar va aksincha qashshoq sinflarning paydo bo'lishi g'oyasi bilan bog'langan.

Ibtidoiy jamiyatning yemirilishi va ilk davlatchilikning vujudga kelishi masalasini o'rganishda sovet davri tadqiqotlarida sinfiy naza-

### XX asr nazariyalariga oid O'rta Osiyoda davlatchilikning kelib chiqishi sabablari va omillari



riya uslubiy poydevor bo'lgan. Shu sababli ham davlat xalqdan ajralgan holda sinfiy ezuvchi kuch sifatida ta'riflangan. Ekspluatatsiya-ning ilk shakllarini quyidagi uch asosiy shakllarga ajratib o'rganilgan: 1. Qulchilik. 2. Jamoadagi ichki ekspluatatsiya. 3. O'lpon yig'ib olish va ijtimoiy-iqtisodiy qaramlik.

Sovet davrida ustunlik qilgan nazariyaga ko'ra davlatchilikning kelib chiqishi omillari quyidagicha tasvirlangan:

### 4.3.2. Davlat turlari va shakllari, boshqaruv tizimi

O'zbekiston qadimgi siyosiy tarixining dolzarb masalalaridan biri ilk davlatchilikning shakllari va boshqaruv masalalari hisoblanadi. Bizga qadar yetib kelgan yozma manbalar ushbu muammolarga mumkin darajada aniqlik kiritisa-da, to'liq ochib bera olmaydi. Arxeologik manbalar ham ushbu masalalar yuzasidan to'laligicha tasavvurga ega emas. Aynan shuning uchun ham davlatchilik tarixi yo'nalishi bo'yicha tadqiqotlar olib borgan va olib borayotgan olimlar yozma va arxeologik manbalarni o'zaro qiyosiy tahlil qilib, dunyo tarixidagi davlatchilik jarayonlari tarixi bilan solishtirgan holda, davlatning shakllari va boshqaruv masalalari bo'yicha ilmiy xulosalar berishga harakat qilishadi.

Bugungi kunga qadar olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalaridan ma'lumki, O'zbekistonning qadimgi davri tarixi mobaynida davlat uyushmalarining turli shakllari mavjud bo'lgan. Mahalliy shart-sharoitlar va asoslarda shakllanib, asta-sekin taraqqiy etgan davlatlarga Xorazm, Qang', Davan davlatlari kiritilsa, harbiy-siyosiy ta'sir va bosqinchilik tufayli paydo bo'lgan davlatlarga Ahamoniylar, Salavkiylar, Yunon-Baqtriya kabilar kiritiladi.

E.V. Rtveladze qadimgi O'zbekiston hududlaridagi ilk o'rta asrlarga qadar bo'lgan davlatlarning turlari va shakllarini quyidagilarga ajratadi:

**Davlatning birinchi turi – podsholik, boshqaruv shakli – mutlaq monarxiya.** O'zbekistonning qadimgi tarixida davlatlar-



ning bunday turi va shakli ustuvor bo'lgan bir necha davrini kuza-tish mumkin. Avvalambor, mil. avv. 539–330-yillarga qadar qadimgi O'zbekistonning Farg'ona va Chochdan tashqari, deyarli barcha hu-dudlari Ahamoniylar davlati tarkibida bo'lgan. Xorazm, Sug'd, Baqt-riya va saklar o'lkasi ahamoniylar podsholari tomonidan tayinlanib qo'yilgan satraplar tomonidan boshqarilib, ularga ma'lum miqdorda boj to'lab turishgan.

Noiblar boshqaruvi tizimida ma'lum mustaqilikka ega bo'lgan mutlaq monarxiya Salavkiylar va Yunon-Baqtriya davlatlarida ham mavjud bo'lgan. Mil. avv. IV asr oxirlaridan – III asr o'rtalariga qa-dar Shimoliy Baqtriya va Sug'd ellinistik podsholik hisoblangan Sa-lavkiylar davlati tarkibida edi. Mil. avv. III asrning o'rtalaridan II asrning ikkinchi yarmiga qadar Shimoliy Baqtriya va ma'lum davr-da Sug'd Yunon-Baqtriya podsholigi tarkibiga kirgan. Bu davlatdagi podsholar hokimiyati doimo ham avloddan avlodga o'tmagan.

Milodiy I–III asr o'rtalarida mavjud bo'lgan Kushon podsholigi ham aniq ko'zga tashlanuvchi teokratik<sup>1</sup> mutlaq monarxiya davla-ti edi. Davlatning birinchi podshosi Kujula Kadfiz davridan so'ng yurtimizning janubiy hududlari bu davlat tarkibiga kirgan. Bu davlat ham satrapliklarga bo'lingan bo'lib, ularning boshqaruvi to'laligicha Kushon podsholari qo'lida edi. Undan tashqari, Kushon podsholigi-da maxsus chegara viloyatlari bo'lib, ularni harbiy boshliqlar bosh-qarishgan. O'zbekistonning janubidagi Surxon vohasi ana shunday viloyatlardan biri bo'lgan bo'lishi mumkin.

Tadqiqotchilar Ahamoniylar inqiroziga qadar, ya'ni, mil. avv. IV asrning boshlarida paydo bo'lgan Xorazm podsholigi ham mutlaq monarxiya davlati bo'lganligini taxmin qilishadi. Milodiy I asrdan boshlab Xorazm podsholigida o'z tangalarini zarb etishni yo'lga qo'ygan yangi sulola hokimiyatni qo'lga oladi.

**Davlatning ikkinchi turi – konfederativ podsholik, boshqaruv shakli–cheklangan monarxiya.** Davlatning bunday turiga Qang' va Yuechji (Katta yuechji) davlatlari kiritiladi. Bu konfederativ podsholiklar

<sup>1</sup> *Teokratik* – diniy yo'l boshchi, ruhoniy qo'lida bo'lgan siyosiy hokimiyat hamda shu usulda idora qilingan davlat.

bir nechta mustaqil mulklardan iborat bo'lib, o'z tangalarini zarb etgan qabila yo'l boshchilari yoki urug' boshliqlari tomonidan boshqarilgan.

Qang' davlati hududlariga Buxoro va uning atroflari mulki, Buxo-ro Sug'dining janubi-sharqi va Samarqand Sug'dining shimoli-g'arbi mulklari, Janubiy Sug'd mulki kirgan. Katta Yuechji podsholigi ham Xyumi, Shaunmi, Guyshuan, Dumi, Xitun kabi beshta mulkdan bo'lib, ularni turli Yuechji urug'lari vakillari boshqargan.

**Davlatlarning uchinchi turi – mulk, boshqaruv shakli – qa-bila yo'l boshchilari va urug' boshliqlarining merosiy hokimiya-ti.** Davlat uyushmalarining qadimgi turi bo'lgan mulklar tarixiy-madaniy viloyatlar asosida shakllanadi. Bu turdagi viloyat-mulklar «Avesto»da, yunon-rim ma'lumotlarida (Gerodot, Arrian va boshq.), qadimgi Xitoy yozma manbalarida eslatib o'tiladi.

Tadqiqotlarga ko'ra, Yunon-Baqtriya podsholigi inqirozidan ke-yin mil. avv. 128 yoki 126-yilda Baqtriyaga kelgan Xitoy sayyohi Chjan Szyan, Baqtriya ko'plab kichik mustaqil mulklaridan iborat-ligini ta'kidlab, «Bu yerdagi deyarli har bir shahar o'z hukmdori-ga ega»ligi haqida ma'lumot beradi. Shuningdek, Xitoy manba-lari G'arbiy o'ika (O'rta Osiyo va Sharqiy Turkiston) hududlarida o'zining ma'lum mustaqilligiga ega bo'lib, tashqi siyosat olib borgan 55 ta mulk haqida ma'lumotlar beradi.

Davlat uyushmasining bu an'anaviy turi aftidan mil. avv. II ming-yillik oxiri – I mingyillik boshlarida shakllana boshlaydi. Bu tur say-lanadigan yo'l boshchilar va oqsoqollar kengashi boshqargan shunga o'xshash mulklar rivojida, Ahamoniylar davrida ham saqlanib qol-gan. Antik davri yozma manbalardagi Sisimitr, Xorien va Oksiart kabilarning mulklari shunga urg'u beradi. Qadimgi davlatchilikning «o'tish» davrlarida (mil. avv. II–I, milodiy III–IV asrlar) «davlat»ning bu turi alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, tarixiy-madaniy vilo-yatlar asosida yirik mulklar (Buxoro, Kesh, Choch) ajralib turadi.

Ilk o'rta asrlar davrida mulk-davlatlar nisbatan taraqqiyotning yuqori darajasiga ko'tarilib, bu an'analar o'rta asrlarda ham davom etadi.



### *Tayanch soʻzlar*

Oʻrta Osiyo Ikkidaryo oraligʻi, madaniy taraqqiyot darajasi, qadimgi davlatlar rivojlanishining davrlashtirilishi, boshqaruvning ilk shakli, boshqaruv tizimi, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy asoslar, hududiy belgilar, urugʻchilik jamiyati, umumiy mulk, yoʻlboshchi, hokim, metallning keng yoyilishi, ijtimoiy mansablar va boshqaruv, oqsoqollar, harbiy yoʻlboshchilar, diniy arboblal, oqsoqollar kengashi, nazariyalar, davlat shakllari, podsholik, konfederativ davlat.

### *Savol va topshiriqlar*

1. Ilk davlatlar rivojlanishining davrlashtirilishi haqida nimalarni bilasiz?
2. Qadimgi davlatchilik taraqqiyotining muhim jihatlarini ochib bering.
3. Davlatchilikning paydo boʻlishida ilk shaharlarning ahamiyati toʻgʻrisida soʻzlab bering.
4. Davlatchilikning kelib chiqishi masalasiga oid qanday nazariyalar mavjud?
5. Davlatning qaysi shakllarini bilasiz?
6. Oʻrta Osiyoda davlatchilik kelib chiqishining omillari haqida nimalarni bilasiz?
7. Ijtimoiy boshqaruvning xususiyatlari nimadan iborat?
8. Oʻzlashtiruvchi xoʻjaliklarga asoslangan ibtidoiy (urugʻchilik) jamiyat belgilarini taʼriflab bering.
9. Ishlab chiqaruvchi xoʻjaliklarga asoslangan ibtidoiy jamiyat haqida soʻzlab bering.
10. Ijtimoiy mansabalar va boshqaruvning asoslari mavzusiga oid esse yozing.

### *4-mavzu boʻyicha foydalanilgan adabiyotlar*

1. *Abdullayev Oʻ.* Oʻrta Osiyoda qadimgi boshqaruv va ilk davlatchilik tarixshunosligi. – Toshkent: «Akademiya», 2009.
2. *Аскарлов А.А., Ширинлов Т.* Ранняя городская культура эпохи бронзы юга Средней Азии. – Самарканд, 1993.

3. *Исамиддинов М.Х.* Истоки городской культуры Самаркандского Согда. – Ташкент, 2002.

4. *Массон В.М.* Первые цивилизации. – Л., 1989.

5. *Ртвеладзе Э.* Цивилизации, государства, культуры Центральной Азии. – Ташкент, 2005.

6. *Ртвеладзе Э.В.* Периодизация развития и типология ранних государств // История государственности Узбекистана. Т.1. Отв. ред. Ртвеладзе Э.В., Алимова Д.А. – Ташкент: «Узбекистан», 2009.

7. *Rtveladze E.V., Saidov A.X., Abdullayev Ye.V.* Qadimgi Oʻzbekiston davlatchilik va huquq tarixidan lavhalar. – Toshkent: «Adolat», 2001.

8. *Савдудлаев А.С.* Становление раннебактрийской и раннесогдийской государственности // История государственности Узбекистана. Т. II. – Ташкент: «Узбекистан», 2009.

9. *Sagdullayev A., Mavlonov Oʻ.* Oʻzbekistonda davlat boshqaruvi tarixi. – Toshkent: «Akademiya», 2006.

10. *Sagdullayev A.S., Aminov B. va boshq.* Oʻzbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. – Toshkent: «Akademiya», 2000.

11. *Сулейманов Р.Х.* Древний Нахшаб. Проблемы цивилизации Узбекистана ВИИ в до н.э. – ВИИ в н.э. – Ташкент: «Фан», 2000.

12. Oʻzbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. – T.: «Sharq», 2001.

13. Oʻzbekiston tarixi. Mualliflar jamoasi. – Toshkent. «Yangi asr avlodi», 2003.

14. *Eshov B.J.* Sugʻdiyona tarixidan lavhalar. – Toshkent, 2002.

15. *Eshov B.J.* Oʻzbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2012.

16. *Eshov B.J.* Oʻrta Osiyoning qadimgi shaharlari tarixi. – Toshkent: «Fan va texnologiya», 2008.

17. Qadimgi davlatchilik va urbanizatsiya (tarixiy lavhalar) / Masʼul muharrir R.X. Sulaymonov. – Toshkent: «Mumtoz soʻz», 2010.

18. *Qudratov S.S.* Markaziy Osiyo hududlarida ilk davlatlarning paydo boʻlishi. – «Guliston», 1998.

19. *Huff D., Pidayev Sh., Shaydullayev Sh.* Uzbek – German archaeological researches in the Surkan Darya Region // La Bactriane au carrefour des routes et des civilisations de l'Asie centrale. – Paris, 2001.

20. History of civilizations of Central Asia. UNESCO publishing. – Paris. 1996.



## 5-MAVZU «AVESTO» VA ZARDUSHTIYLIK

### Reja:

- 5.1. «Avesto» – tarixiy manba sifatida.
- 5.2. Geografik–hududiy nomlar. Ijtimoiy-iqtisodiy ma'lumotlar va siyosiy tarix.
- 5.3. Diniy falsafa va dafn etish marosimlari.
- 5.4. Axloqiy va huquqiy qoidalar. Jinoyat va jazo turlari.

### 5.1. «Avesto» – tarixiy manba sifatida

«Avesto» qadimgi tariximiz to'g'risida ancha keng va boy ma'lumot beradigan manba bo'lib, u dunyoda biz bilgan eng qadimgi kitoblardan biridir.

**«Avesto» tili.** «Avesto» – zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo'lib, shu dindagi xalqlarning qonunlari majmuidir. Bizgacha yetib kelgan «Avesto» qismlari sosoniylar davrida, ya'ni milodning III–VII asrlarida tahrir qilingan. «Avesto» boblari «pahlaviy» – o'rta fors alifbosi asosida 48 ta belgili yozuvdan iboratdir. «Avesto» o'rta fors tilidan «Apastak», ya'ni «Asos» ma'nosini beradi.

«Avesto» tili sharqiy eroniy tillarning eng qadimgi shevalaridan biri bo'lib, olimlar fikriga ko'ra, qadimgi fors tiliga nisbatan ancha oldingi bosqichda, taxminan mil. avv. II mingyillikning oxirlari – I mingyillikning boshlarida paydo bo'lgan. Bu til faqat «Avesto»dan ma'lum bo'lganligi sababli, u «Avesto» tili deb ataladi.

«Avesto» keng hududda joylashgan jamiyatni tasvirlab, yozuvsiz zamonlarga oid tasavvurlarni ham o'zida aks etgan. Ular qadimgi qabilalarning og'zaki ijodidir (qo'shiqlar, afsonalar, dostonlar). «Avesto» madhiyalari ilohlarga, tabiiy kuchlarga, Quyosh va afsona-

viy qahramonlarga bag'ishlangan. Asrlar davomida bu qo'shiqlar – madhiyalar og'zaki ijod namunasi bo'lib, diniy marosimlarda va bayramlarda ijro etilgan.

«Avesto» birinchi bo'lib XVIII asrda fransuz olimi Anketil Dyuperron tomonidan tarjima qilingan. U o'rganib chiqqan «Avesto» qo'lyozmalari XIII asrga oid bo'lgan. K. Geldner, X. Bartolome, V.V. Struve, X. Xumbax, E.E. Bertels, V.I. Abayev, S.N. Sokolov, V.A. Livshits, I.M. Oranskiy, I.S. Braginskiy, I.M. Steblin-Kamenskiy va boshqa bir qator olimlar «Avesto» tilini o'rganish bilan shug'ullanishgan. Olimlarning rus tiliga o'girilgan «Avesto» matnlari asosida mazkur manbaning o'zbek tiliga izohli tarjimalari vujudga keldi (A. Mahkam, M. Is'hoqov).

**«Avesto» va Zaratushtra.** 1755–1761-yillarda fransuz olimi Anketil Dyuperron Hindistonning Gujarat viloyatida Eron zardushtiyalarining avlodlari – parsurning urf-odatlarini va diniy marosimlari bilan tanishib chiqqan. Eng muhimi shundan iboratki, Dyuperron parsurning diniy yozuvlarini o'qishga muyassar bo'lgan.

A. Dyuperron yurtiga qaytgandan so'ng, 1771-yilda «Avesto»ni tarjima qilgan. XIX va XX asrning boshlarida esa «Avesto»ning yangi tarjimalari vujudga kelgan.

Dastlabki «Avesto» 21 ta kitobdan iborat bo'lgan. Lekin bizgacha uning ayrim qismlari yetib kelgan: *Yasna* – «qurbonlik keltirish», *Visprat* – «barcha hukmronlar», *Yasht* – «qadrlash», «ulug'lash», *Videvdad* – «devlarga qarshi qonun». Bularning hammasi sosoniylar davrida tahrir qilingan.

*Yasna* kitobi 72 bobni o'z ichiga olib, ulardan 17 tasi «Gotalar», ya'ni zardushtiyalar payg'ambari Zaratushtraning «Muqaddas qo'shiqlari», uning diniy nasihatlaridan iborat.

Gotalarni Zaratushtra sosoniylar davri (III–VII asrlar)dan bir necha asrlar avval yaratgan. Ajablanarli tomoni shundaki, ilk o'rta asrlarda «Avesto» tushunarsiz mavhum tilga aylanganligiga qaramay, Zaratushtraning noma'lum so'zlari va nasihatlari *Yasna* kitobiga so'zma-so'z kiritilgan. Albatta, «Avesto» tahrirchilari Zaratushtra



nasihatlarining ma'nosini ayrim joylarda buzib, noto'g'ri ko'rsatib berishgan. Shuning uchun ham tadqiqotchilar Gotalar matnini aniq o'rganish juda ham murakkab jarayon, deb hisoblashadi.

Visprat 24 bobdan iborat bo'lib, zardushtiylarning ayrim xudolariga bag'ishlangan madhiyalardir. Ular diniy marosimlarda ijro etilgan.

Yashtning 21 bobida yozuvsiz zamonlarga oid qadimiy qabilalarning tasavvurlari o'z aksini topgan. Yasht kitobida afsonaviy qahramonlarga va ulug' xudolarga bag'ishlangan madhiyalar to'plangan. Yasht boblari qadimgi qabilalar og'zaki ijodi asosida paydo bo'lgan.

Videvdat to'liq saqlangan kitobdir, uning tarixiy sanasi Yasna yoki Yasht qismlariga nisbatan birmuncha yosh hisoblanadi. Videvdat 22 ta bobdan iborat.

«Avesto» ma'lumotlarini o'rganishga oid turli ilmiy adabiyotlar mavjud. Mazkur manba Zaratushtra faoliyati va zardushtiylik dini ning vujudga kelishi muammosi bilan uzviy bog'liqdir. Bu muammo ko'p yillardan beri olimlar orasida ilmiy bahslarga sabab bo'lib kelmoqda.

Zaratushtra (yunoncha – Zoroastr, o'rta fors tilida – Zardusht) qadimgi dunyo mualliflari ma'lumotlariga ko'ra, afsonaviy shaxs hisoblangan. Ammo «Avesto»ning Gotalari va Yasht boblarida Zaratushtra tarixiy shaxs sifatida yoritilgan.

Zaratushtraning ismi qadimiy «Zaraushtra» so'zidan kelib chiqqan, «Zar» – bu oltin, «ushtra» – tuya yoki uch xil ma'noda: «Oltin tuyali», «Oltin tuya egasi», «Tuyalar yetaklagan odam» deb tarjima qilinadi. (Qiyoslash uchun yunon manbalaridan ma'lum bo'lgan Zariasp, ya'ni Baqtra shahri «Oltin ot» ma'nosini anglatadi.)

Zaratushtraning tug'ilgan joyi va vatani haqida «Avesto»da hech qanday ma'lumotlar yo'q. Manbada Zaratushtra urug'ining nomi, ota va onasining ismlari, oilasi va farzandlari haqida ma'lumotlar mavjud. Zaratushtra chorvadorlar jamiyatida tavallud topib, uning e'tiqodlari va urf-odatlarini doirasida voyaga yetgan. U Spitama avlodidan kelib chiqqan. Zaratushtra otasi va onasining ismlari –

Pourushasp va Dugdova edi. Zaratushtra uylangan bo'lib, ikki qiz farzand ko'rgan.

Zaratushtra tavallud topgan yurtda qabilalar o'z ajdodlarining qadimiy ma'budlari – «dayva»larga sig'inishgan. Tarixiy rivoyatlarga ko'ra, Zaratushtra 30 yoshida xudo Axuramazdadan kelgan vahiy-larni olganidan so'ng, Axuramazdani ulug' va donishmand oliy xudo deb, dayvalarga ta'zim qilish odatlarini inkor etadi. Zaratushtraning diniy nasihatlari o'z vatanida tarafdorlarini topmagan va mahalliy kohinlar uning ta'limotiga qarshi chiqqan. Shu sababli yangi dinning asoschisi o'z yurtini tashlab chiqib ketishga majbur bo'lgan.

Gotalarda Zaratushtra bunday xabar qiladi: «Qay tomonga, qaysi yurtga qochib qutulsam, meni jangchilardan va kohinlardan ajratib qo'yishdi, jamoa meni quvnatmaydi, mamlakatlarning yovuz sardorlari meni qabul qilishmaydi». Beruniy asarida o'z aksini topgan tarixiy rivoyatlarga ko'ra Zaratushtrani Balx podshosi, ya'ni Baqtriya hukmdori Vishtasp o'z yurtida qabul qilgan. Vishtasp, uning xotini malika Xutaosa va podsho oilasining boshqa vakillari – uzoq va yaqin qarindoshlari Zaratushtra ta'limotiga qiziqib, uning e'tiqodini qabul qilgan birinchi tarafdorlari deb hisoblanishadi. «Avesto»da Vishtasp «kavi» – podsho deb ataladi.

Zaratushtraning tug'ilgan yili haqida birinchi bo'lib Beruniy e'lon qilgan. Uning ma'lumotlariga ko'ra, Zaratushtra Makedoniyalik Aleksandrning Sharq hududlariga yurishidan (boshlanish sanasi – mil. avv. 334-yil) 258 yil avval tavallud topgan. Bundan Zaratushtraning tug'ilgan yili mil. avv. 592-yil bo'lib chiqadi. Ma'lumki, Zaratushtra 77 yoshda vafot etgan va uning hayot sanasi mil. avv. 592–515-yillarga to'g'ri keladi, deb faraz qilinadi.

Ba'zi olimlar Zaratushtra ahamoniylar podsholari Kir II (mil. avv. 558–530-y.), Kambiz (mil. avv. 530–522-y.) va Doro I (mil. avv. 522–486-y.) davrlariga zamondosh bo'lgan, deb hisoblashadi. Mazkur fikrni tasdiqlash maqsadida Doro I otasining ismi ham Vishtasp (Zaratushtraning birinchi homiysi va tarafdorining ismi bo'lganligi tufayli) ham keltiriladi.



Biroq ahamoniylar davri yozuvlarida Zaratushtra ismi tilga olinmagan. Shuningdek, «Avesto»ning Yashtlari yoki Gotalarida ahamoniylarning podsholari, ularning harbiy yurishlari hamda davlati va shaharlari haqida hech qanday ma'lumotlar yoritilmagan. «Avesto»da G'arbiy Eron viloyatlarining nomlari, Ikkidaryo oralig'i, Misr va Kichik Osiyo hududi ham tilga olinmagan.

«Avesto» ma'lumotlariga asoslanib, olimlar Zaratushtra yashab o'tgan davrni keng tarixiy sanalar bilan bog'lashadi, jumladan, mil. avv. II mingyillikning o'rtalari va oxirlari (1500–1200, 1100–1000-yillar), mil. avv. I mingyillikning boshlari va birinchi yarmi (1000–900, 800–700–600-yillar) va boshqa sanalar keltiriladi.

Olimlar orasidagi mavjud ilmiy bahslar mazkur masala murakkab muammoga aylanganligidan dalolat beradi. «Avesto»da Zaratushtra-dan avvalgi davrlarda keng hududda joylashgan, qadimgi zamonlarga oid jamiyatni tasvirlash holatni hisobga olish lozim. Shu sababli Zaratushtra mil. avv. II mingyillikda yashagan deb faraz qilish biroq qiyin. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan kelib chiqib, Zaratushtra yashab o'tgan davr – bu mil. avv. VII–VI asrlar degan fikrni ilgari surish mumkin. Zaratushtra taxminan mil. avv. 553–541-yillar atrofida vafot etgan, degan fikrlar ham mavjud.

Ahamoniylarning O'rta Osiyo xalqlariga qarshi dastlabki harbiy yurishlari mil. avv. 545/540–520-yillarda boshlangan. Demak, Zaratushtra ahamoniylar bosqini davridan oldin (77 yosh hayoti hisobidan) 630–553-yillar yoki 618–541-yillar davomida yashagan bo'lishi mumkin.

«Avesto» madhiyalari vujudga kelgan yurtning geografik joylashuvini aniqlash ham muhim muammodir. «Avesto» tili, «Avesto» viloyatlarining tarixiy geografiyasi mazkur manbaning vatani G'arbiy Eron yoki Old Osiyo bo'lmaganligidan dalolat beradi. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, «Avesto» Xorazm, Marg'iyona, Baqtriya, Sug'd tuprog'ida paydo bo'lgan (V.V. Struve, I.M. Dyakonov, V.I. Abayev, I. Aliyev va boshq.). Shuningdek, «Avesto»ning qismlari turli davr-

larda vujudga kelganligiga e'tibor berish lozim, ya'ni ular Zaratushtraga qadar bo'lgan olis zamonlarda hamda u yashagan davrda vujudga kelgan. Shuningdek, Zardushtdan so'ng, keyingi tarixiy bosqichlarda, Sosoniylar hukmronlik qilgan davrda zardushtiy ko-hinlar tomonidan «Avesto» matnlari qo'shimcha ma'lumotlar bilan to'ldirilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, zardushtiylik dini Zaratushtraga qadar e'tiqodlar an'analari, xususan, Zaratushtra ta'limoti va Zardushtdan so'ng uning ta'limotiga oid qarashlarni o'z ichiga olgan.

«Avesto» va Zaratushtra masalasiga oid ilmiy bahslar hozirda ham davom etmoqda. Shu bois, mavzuni o'rganish paytida talabalar turli fikr-mulohazalarga e'tibor berishlari kerak.

«Avesto»da mavjud geografik ma'lumotlarga tayangan holda, bir qator olimlar zardushtiylik vatanini O'rta Osiyo viloyatlari, shu jumladan Orolbo'yi, Xorazm vohasi, ya'ni Quyi Amudaryo hududlari bilan bog'lashgan (I. Markvart, E. Benvenist, S.P. Tolstov, G. Videngren). Boshqa tadqiqotchilar «Avesto»ning Gotalarida chorvador jamiyati hayotini tasvirlash an'alarini inobatga olib, Zaratushtra ajdodlari yashagan yurtni Volga daryosidan Sharqiy yo'nalishda joylashgan Janubiy Ural, Shimoliy Qozog'iston, G'arbiy Sibir dashtlaridagi bronza davrida Andronovo madaniyatini yaratgan eroniy tilli qabilalari tarqalgan hududlar bilan solishtirishadi (M. Boys, E.E. Kuzmina va boshq.). Shuningdek, adabiyotlarda mavjud fikrlarga ko'ra, bu qabilalar turkiy tilli bo'lgan (S.S. Chernikov, A.S. Omonjolov) yoki ular «prototurkiy tilli», «prototurk etnosga tegishli» oriylar qabilalari – «hozirgi zamon turkiy xalqlarning prototurk ajdodlari» edi, degan fikr ilgari surildi (A.A. Asqarov). Biroq mazkur muammo ilmiy jihatdan juda murakkab bo'lib, bu borada yakuniy xulosalar chiqarishga hali erta.

1987-yilda Ural tog' tizmalarining Sharqiy yonbag'irlarida bronza davri Arkaim-Sintashta madaniyatiga oid (mil. avv. III mingyillikning oxirlari – II mingyillikning boshlari) bir qator manzilgohtar kashf etildi. Ular shimoldan janubga va g'arbdan sharq tomonga qarab, ikkala yo'nalishda ham taxminan 350 km uzunlikdagi masofada



joylashib, mazkur hudud tarixiy adabiyotlarda, shartli ravishda «shaharlar mamlakati» degan nom oldi.

Kashf etilgan yodgorliklar aylanasimon, to'g'riburchak va to'rtburchak shaklidagi manzilgohlar bo'lib, qadimshunoslarning yozi-shicha, yog'och va qisman tosh bilan qoplangan va katta guvalaklardan bunyod etilgan mudofaa devorlari hamda devoroldi xandaq bilan o'ralgan. Istehkomlar ichida markaziy maydon mavjud bo'lib, u bo'ylab katta uy-joylar (uzunligi 20 m, eni 6–8 m) yog'och va guvalakdan qurilgan, shuningdek, yarim yerto'la uy-joylar mavjud bo'lgan.

Arkaim-Sintashta madaniyati xo'jaligining asosini chorvachilik tashkil qilgan va qisman ziroatchilik ham rivojlangan. Aholi qoramol, mayda chorva va otlarni boqqan. Ural tog'lari mis va qalay rudasiga boy tog'lardir. Bronza mehnat qurollari qishloq xo'jaligini rivojlantirishga asos bo'lib, arkaimliklar harbiy sohasida ham katta muvaffaqiyatlarga erishishgan. Ular bronza yarog'-aslahalar bilan qurollangan – suvoriylar ikki g'ildirakli jang aravalardan foydalanishgan. Transport vositasi – ot va arava uzoq masofaga yurish hamda yangi yerlarga ko'chib, ularni o'zlashtirish yoki yaqin va uzoqdagi hududlarni zabt etishga imkoniyat yaratdi. Bunday paytlarda cho'pon-jangchilar o'zga qabilalarga qarshi yurishlar qilar, ularni talar va jamoalarning asosiy boyligi chorvani zo'ravonlik bilan olib ketishardi. Ehtimol, shunga o'xshash fojeali voqealarning aks-sadosi Zaratushtraning «Muqaddas qo'shiqlari» – Gotalarda quyidagicha o'z aksini topgan: «Shundan beri devlarga sajda qilganlar tinchsevar chorvadorlarning eng yovuz dushmanlariga aylandi... ular yaylovlarni xarob qilib, insonlarga qarshi qurol ko'tardilar».

Ayrim tadqiqotchilarning yozishicha, bronza davrida dasht cho'ponlari olov va suvga sig'inishgan, ko'llar va daryolarni qadrlab, ularni ilohiylashtirishgan, o'z xudolariga chorvani qurbon qilishgan, sut va o'simliklar poyasi hamda ninabargli «efedra» sharbatini aralashtirib, maxsus ichimlik – xaomani tayyorlashgan. Jangchi-yo'lboshchilar jasadi yarog'-aslahalar, jangovar aravalar va otlar bilan birga qabrga dafn etilgan.

Shuni ta'kidlash joizki, Janubiy Uraldagi arkaimliklarga zamondosh Marg'iyona-Baqtriya (Gonur, Dashtli) madaniyatiga oid me'moriy rejasi doirasimon va to'g'ri burchakli saroylar hamda olov, suv, yer va muqaddas xaomaga bag'ishlangan ibodatxonalar o'rganilgan. Qadimgi qabrlarda qurbonlik marosimi bilan bog'langan holda, qo'y-echkilar, buzoqlar, ayg'irlar va katta bir podsho qabri yonida to'rt g'ildirakli arava, ikkita tuya va 10 ta xizmatkorlar dafn etilgan.

Arkaim-Sintashta va Marg'iyona-Baqtriyaning moddiy madaniyati (bronza buyumlari, yarog'-aslahalari), me'morchilik rejaları, diniy e'tiqodlari va marosimlaridagi bunday o'xshashliklar, mazkur madaniyatlarning bir-biriga tasodifiy mos kelishi bo'lmasdan, ehtimol, ular bir vaqtga to'g'ri kelgan, shimoliy va janubiy tabiiy-geografik sharoitiga moslashib rivoj topgan qarindosh etnos-qabilalarning taraqqiyoti natijasidir. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, arxeologik belgilar va madaniyat xususiyatlariga ko'ra, Marg'iyona-Baqtriya ham, Janubiy Uralda ham bu qabilalar Old Osiyo, Elam va Eronning shimoli-sharqidan kelib chiqqan aholi guruhlariga o'xshab ketadi. Bu taxminni ilmiy faraz sifatida qabul qilish mumkin.

Mil. avv. III mingyillikning oxirlaridan boshlab, Janubiy Ural tog'-kon, metallurgiya ishlab chiqarish muhim markaziga aylanadi. Bundan mis, qalay, qo'rg'oshin tog' jinlarini eritish hamda bronza qurollari va buyumlarini ishlab chiqarish bilan bog'langan ko'p sonli ustaxonalarning qoldiqlari dalolat beradi. Bronzadan ishlangan mehnat qurollari, yarog'-aslahalar va uy-ro'zg'or buyumlari ichki hamda tashqi ayirboshlash va savdo-sotiq jarayonlarida (shu jumladan, O'rta Osiyo aholisi bilan) muhim ahamiyat kasb etgan.

Keyinchalik, mil. avv. II mingyillikning o'rtalariga kelib, Ural, Markaziy Qozog'iston va G'arbiy Sibir dashtlaridan Andronovo madaniyati qabilalarining O'rta Osiyo janubi va Hind vodiysiga migratsiyalari boshlanadi. Mazkur jarayonlar nafaqat turli qabilalarning qorishib ketishiga, shuningdek, O'rta Osiyoda mahalliy e'tiqodlarning yangicha negizlari asosida rivojlanishiga olib keladi.



Bronza davri Yevroosiyo keng dasht olamining janubiy chegaralarida joylashgan Orolbo'yidagi Quyi Sirdaryo va Quyi Amudaryo (Xorazm vohasi) hududlari etnik migratsiyalar jarayonlarida muhim o'rin tutgan. Xorazm vohasi bronza davri madaniyatlarining (Tozabog'yob, Amirobod) asosiy belgilari (uy-joylarning kulbasimon yarim yerto'lalar shaklida qurilishi, qo'lda ishlangan sopol idishlar, bronza buyumlari, dafn etish odatlari) dasht chorvadorlar madaniyatlarida muvofiqlik topadi.

Zaratushtra yaratgan «Muqaddas qo'shiqlar» – Gotalarda chorvadorlar jamiyatini tasvirlash, chorvani ulug'lash va cho'pon mehnatini qadrlash an'analarga ko'ra, Xorazm vohasi va uni o'rab olgan keng dashtlar O'rta Osiyo o'zga viloyatlari – Sug'd, Baqtriya, Marg'iyonaga nisbatan Zaratushtra tavallud topgan yurtga ko'proq mos keladi, negaki, mil. avv. VII asrda Quyi Amudaryo – Janubiy Orolbo'yi, Quyi Sirdaryo – Sharqiy Orolbo'yi hududlarida yashagan qabilalarning hayotida chorvachilik ustunlik qilgan. O'z yurtini tashlab ketgan Zaratushtraning ta'limoti dastlab Baqtriya, Marg'iyona, so'ngra Sug'd va Xorazmda yoyilgan.

Shuningdek, «Avesto» bo'yicha tarixiy geografiya masalalarini hamda «Avesto» va Zaratushtra mavzusini o'rganishda yuqorida keltirilgan ma'lumotlarni inobatga olib, «Avesto» matnlari olis zamonlarga oid tasavvurlarni, Zaratushtra davridan avval mavjud bo'lgan e'tiqodlar izlarini ham mumkin qadar aks etishiga yana bir bor e'tibor berish lozim.

«Avesto» quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi: qadimgi geografik tushunchalar – daryolar, tog'lar, ko'llar nomlari, hududiy-etnik, qabilalar va viloyatlar nomlari, qadimgi mamlakatlarning ro'yxati, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy va siyosiy tuzum – qadimiy qabilalar o'rtasidagi to'qnashuvlar va harbiy bosqinlar, qadimgi jangchilarning qahramonligi va faoliyati hamda qadimiy podsholarning ro'yxati, diniy nasihatlar, zardushtiylarning falsafasi, dunyo tarixining rivojlanishi haqida ma'lumotlar va boshqalar.

«Avesto» tushunchalari va ma'lumotlarining aksariyatini zamonaviy geografik alohida joy nomlari yoki shaxsiy ismlar bilan bog'lab

bo'lmaydi. Misol tariqasida «Avesto»da tilga olingan daryolar, tog'lar, dengiz va ko'llarning nomlari yoki qahramon va jangchilarning ismlari (Vara, Kara, Visturash, Naru va boshqalar) hamda xotin-qizlarning shaxsiy ismlari (Xutaosa, Arnavak, Saxnavak) hozirda uchramaydi.

«Avesto»ning ayrim ismlaridan (Neremon, Servar, Xumaya) hozirgi Narimon, Sarvar, Xumayyo ismlarining kelib chiqishini ko'rish mumkin. «Avesto»da keltirilgan shaxsiy ismlar ko'p hollarda «ot», «tuya» so'zlari bilan bog'lanadi.

## 5.2. Geografik-hududiy nomlar. Ijtimoiy-iqtisodiy ma'lumotlar va siyosiy tarix

«Avesto»da tarixiy viloyatlarning nomlari Yasht kitobining uchinchi va Videvdatning birinchi bobida sanab o'tilgan. Yasht ro'yxatidagi birinchi mamlakat qadimiy dasht qabilalari – oriylarning vatani – Aryonam Vayjo (Arianam Vaychax) yoki «oriylarning sayxon yerlaridir». U yurtda ko'p yaylovlarga ega baland tog'lar, keng daryolar va chuqur ko'llar mavjud bo'lgan: keyingi mamlakatlar – Porutu, Iskata, Mouru, Gava Sug'da, Baxdi, Xvarizam.

Yasht quyidagicha xabar beradi: «U mamlakatning jasur sardorlari ko'p sonli harbiy yurishlar qiladi, uning keng yaylovlarga ega, suvga serob tog'larida chorva tinch o'tlov va yemish bilan ta'minlangan, bu yerdagi sersuv chuqur ko'llar to'lqinlanib turadi, kema qatnaydigan keng daryolarning oqimi Porutadagi Iskata, Xarayvadagi Mouru, Sug'ddagi Gava va Xvarizam tomoniga toshib intiladi».

Videvdat kitobiga ko'ra, ulug' va donishmand xudo Axuramazda zardushtiylar payg'ambari Zaratushtraga bunday xabar qiladi: «O Spitama Zaratushtra, yashaydigan joylarga, bu yerlarda baxtlik qancha kam bo'lsa-da, tinchlik tortiq qildim. Birinchidan, odamlar yashashi uchun eng yaxshi mamlakatni, Vaxvi Datiya daryosidagi Aryonam Vayjoga asos soldim.

Ikkinchidan, men, Axuramazda, eng yaxshi mamlakatlar va o'lkalardan bo'lgan Gava Sug'da makoniga asos soldim.



Uchinchidan men, Axuramazda, eng yaxshi mamlakatlar va o'lkalardan bo'lgan qudratli Mouruga asos soldim.

To'rtinchidan, men, Axuramazda, eng yaxshi mamlakatlar va o'lkalardan bo'lgan, baland bayroqli go'zal Bahdiga asos soldim».

Videvdatning birinchi bobida sanab o'tilgan mamlakatlar Yasht viloyatlari ro'yxatidan ancha farqlanadi: Aryonom Vayjo, Gava, Moruru, Bahdi, Nisaya, Ariya, Vayekereta, Urva, Xnanta, Raga, Chaxra, Varna, nomsiz yetti Hind viloyatlari va Ranxa daryosi boshlaridagi mamlakat.

«Avesto»da tilga olingan qadimgi mamlakatlar – O'rta Osiyo va Afg'oniston, Eronning shimoli-sharqiy hududlari bilan bog'lanadi. Aryonom Vayjo mamlakatini bu keng hududda joylashgan o'lka, deb tushunish mumkin. U yerdagi bepoyon dashtlar, vohalari ko'p yaylovlarga ega baland tog'lar – Pomir, Hindikush, Hisor, Tangritog', chuqur ko'llar – Kaspiy, Orol, keng daryolar – Amudaryo va Sirdaryo deb faraz qilinadi.

Videvdatning maxsus bobida Aryonom Vayjo Vaxvi Datiya daryosi havzasida joylashgan, deb e'lon qilingan. «Qish u yerda o'n oy davom etadi, yoz – ikki oy. Qish oylarining suvlari sovuq, yerlari sovuq, qishning oxirida u yerda katta toshqin suv paydo bo'ladi».

Aryonom Vayjoning geografik chegaralari to'g'risida «Avesto»da aniq ma'lumotlar yo'q. Aryonom Vayjo iqlimi shimoliy dasht, dasht-o'rmon hududlari hamda tog'li viloyatlar tabiatiga yaqin bo'lib ko'rinadi. Bu borada, Ural va Oltoy tog'lari, G'arbiy Sibir iqlimi hamda Ob, Ural va Volga sersuv daryolari haqidagi dasht chorvador qabilalarining xotiralari «Avesto»da aks etishi ham ehtimoldan xoli emas. Vaxvi Datyo (Datiya) daryosi bizga noma'lum bo'lib, u haqida – bu yirik sersuv daryo, deb faraz qilish mumkin (ba'zi olimlar fikriga ko'ra Amudaryo, boshqalarning taxminicha – Volga).

«Avesto»da tilga olingan yana bir keng sersuv daryo – Ranxa, olimlarning ta'kidlashicha, Sirdaryo bo'lishi mumkin. Qadimgi yunon tarixchilari ma'lumotlariga qaraganda, Ra daryosi skif tilida bu Volga daryosidir.

«Avesto»da tilga olingan boshqa daryolar – Zarnumat, Vitaxuxut va Frazdan bizga noma'lum bo'lib qolmoqda. Zarnumat daryosi «oltinli» deb tarjima qilinadi. Bu tushuncha Zarafshon nomida ham saqlangan. Yozma manbada tilga olingan ko'llarning (Chaychast, Vorukash, Kansava, Pishin) hududiy joylashuvi haqida aniq xabar berish biroz qiyin. Chaychast nomi – Choch, Vorukash – Balxash, Kansava – Erondagi Xamun ko'li bo'lishi mumkin, deb faraz qilinadi.

«Avesto» tog'lar haqida shunday xabar qiladi: «Dunyoda, O Spitamata Zaratushtra, ikki ming ikki yuz qirq to'rt tog' bor». Shular jumlasidan Xara (Xarati), Zardaz, Ushida, Ushidarna, Erzif, Erezur, Raodita, Mazishva, Antar Daxiyo, Erzish, Vatikaysa, Adarana, Xamonkun, Vashan, Vidvan va boshqalar Yashtning o'n to'qqizinchi bobida tilga olingan.

Eng baland, oriylarning muqaddas tog'i – Xara hisoblangan. Uning cho'qqilarida va yana bir guruh boshqa tog'larda (Adarana, Bayona, Iskata) qor va muz deyarli erimagan. Bunday tog'lar Tyan-shan, Pomir va Hindikush tizmalari tog'lariga o'xshab ketadi.

«Avesto»dagi mamlakatlar nomlari qadimgi fors tilida yoritilgan ahamoniy davri mixxatlarida va qadimgi yunon tarixchilari asarlarida takror etilgan.

**Ijtimoiy-iqtisodiy ma'lumotlar va siyosiy tarix.** «Avesto»da jamiyat to'rt asosiy qismga bo'linadi. Uy, oila jamoasi – «nmana», «dmanan», urug' jamoasi – «vis», qabila – «zantu», qabilalar ittifoqi – «daxyu» deb atalgan.

Yashtning uchinchi bobida bunday xabar qilinadi: «Xudo Mitrani biz ulug'laymiz. Unga hech kim yolg'on gapirolmaydi: uyda – oila boshlig'i, urug' oqsoqoli, qabila yo'l boshchisi va mamlakat sardori. Agar uy egasi, urug' oqsoqoli, qabila boshlig'i va mamlakat sardori yolg'onchi bo'lsa, g'azablangan Mitra butunlay oilani, urug'ni, qabilani, mamlakatni va ularning boshliqlarini ham tamoman yo'q qiladi».

Oila, urug' va qabila boshlig'ini anglatish uchun «pati» so'zi ishlatilgan – «nmanapati», «vispati», «daxyupati». «Daxyu» tushunchasi «viloyat» ma'nosini ham anglatgan. Mamlakatni idora qilgan



shaxs «kavi» yoki «sastar» deb atalgan. «Sastar» soʻzi orqali qabilalarning harbiy yoʻlboshchisi ham tushunilgan.

Oqsoqollar kengashi – «varzanapati», «xanjamana», xalq yigʻilishi (majlisi) – «vʻyaxa» deb atalgan. «Avesto» shahar hayoti va tuzumi haqida maʼlumotlar bermaydi. Manbada «shahar» soʻzi yoki «shahar jamoasi» tushunchasi yoʻq.

«Avesto» qadimgi jamiyatning toʻrt toifasini ajratib beradi – koinlar, jangchilar, chorvadorlar va hunarmandlar (Yasna, 19-bob). «Avesto»da tilga olingan «baland uylar», «ustunlar» maxsus binokorlar mavjud boʻlganligidan dalolat beradi. Jangchilarning yarogʻ-aslahalari nayza, oʻq-yoy, xanjar va jangovar boltalardan iborat boʻlgan.

«Avesto»ning eng qadimgi qabilalari chorvachilik bilan hayot kechirishgan. Manbada chorvachilik hayotiga oid maʼlumotlar talaygina: «Axuramazdaga murojaat qilib, paygʻambar ayturki: «Sen oʻsha, kim bizga hayot manbai boʻlgan chorvani dunyoga keltirib, yaratgansan».

«Axuramazda yaratgan hamma narsaning ichida birinchi oʻrinda chorva turadi. Biz chorvaga «tinch oʻtlov va yemish taʼminlashga chaqiramiz».

«Chorvaga yaxshi ega kerak. Ushbu yerdagi chorva egallariga men erkin yurishni va erkin hayotni taʼmin qilaman» (Yasna, 24. Gotalar).

Yasht va Yasna boblarida dehqonchilik haqida maʼlumotlar yoʻq. Videvdat kitobida dehqonchilik savob ish deb hisoblangan: «Kim yerga ishlov bersa, O Spitama Zaratushtra, chap va oʻng qoʻli bilan, oʻng va chap qoʻli bilan, u yerga manfaat keltiradi» (Videvdat, 3-bob).

«Avesto»da yoritilgan maʼlumotlar Oʻrta Osiyoda qabilalarning siyosiy birlashmasi tashkil topgan davrlarga (mil. avv. IX–VIII asr) mansub boʻlishi ehtimoldan xoli emas. Bu birlashma – Aryoshayyona (Ariashayana) katta harbiy ahamiyatga ega boʻlgan. Shu davr aholisining bir qismini chorvachilik va dehqonchilik bilan shugʻullangan, boshqa bir guruhi esa koʻchib yuradigan chorvachilik shakliga oʻtgan. Chorvachilik va dehqonchilik bilan mashgʻul boʻlgan viloyatlar aho-

lisi («Shohnoma»da – Eron) va koʻchmanchi chorvadorlar («Shohnoma»da – Turon) oʻrtasida siyosiy qarama-qarshiliklar paydo boʻlgan.

«Avesto»da «xalq», «elat» maʼnosiga oid tushunchalar uchramaydi. Manbada «oriylar», «oriylar yurti, oʻlkasi», shuningdek, zardushtiylik eʼtiqodini qabul qilgan boshqa qabilalar – «sayrima», «saina», «daxa» hamda xudo Axuramazdani va zardushtiylikni eʼtirof qilmagan qabilalarning nomlari tilga olingan.

«Avesto»ga koʻra, qadimgi podsholarning roʻyxati quyidagicha: «Xaoshyonx – birinchi afsonaviy podsho («Shohnoma»da – Xushang), undan keyin Yima (Jamshid) – podsho-podachi, Syovarshon (Siyovush), Kavi Xaosrov (Kay-Xisrov), Kavi Vishtasp.

Kaviylar («Shohnoma»da – kayyoniyalar) – podsholar sulolasidir. Bu sulola vakillari – Kavi Kavati (Kay-Kubot), Kavi Usan (Kay-Qovus), Kavi Pishin (Kay-Pishin), Kavi Arshan (Kay-Aresh) Zaratushtra taʼlimotining tarafdorlari edi. Turonliklar orasida esa Zaratushtra taʼlimotini qabul qilmagan qabilalar mavjud boʻlgan, shu boisdan ham ular «Avesto»da «soxta», «yovuzlar» sifatida yoritilgan.

Kavi Xaosrov oriylar mamlakatlarini birlashtiruvchi podsho hisoblangan. Unga qarshi «tura» chorvador qabilalarning yoʻlboshchisi Frangrasyon («Shohnoma»da – Afrosiyob) kurash olib borgan. Frangrasyon – Afrosiyob, Kay Xisrovning otasi Syovarshon – Siyovushni oʻldirgan. Kay Xisrov Frangrasyon bilan jang qilib, uni Chaychast koʻli yonida magʻlubiyatga uchratib halok etgan. Shunday qilib, Kay Xisrov otasi Siyovush hamda Agraerat va Naravid ismli bahodirlar uchun qasos olgan.

«Avesto»da Kavi Vishtaspning asosiy dushmanlari sifatida turoniy «danu» va «xyaona» qabilalarning vakillari – Ashtarvant, Arjatasp, Vandarmanish va Darshin kabi ismlar keltirilgan. Taqdir va baxt xudosi Ashiga murojaat qilib, Kavi Vishtasp ayturki: «Baxt-saodatli Ashi, gʻalabali jangda, xyaona yovuzi, yetti yuz tuya egasi serjahl Ashtarvant, soxta Arjatasp, devlarni qadrlagan Darshin ustidan gʻolib chiqishga, xyaona jangchilarini yuzlab qirishga omad soʻrayman». («Yasht», 17-bob).



### 5.3. Diniy falsafa va dafa etish marosimlari

Zardushtiylarning diniy falsafasi qarama-qarshi kuchlarning kurashiga asoslangan. Bu kurash xudolar o'rtasida boshlanib (ezgulik xudosi Axuramazda bilan yovuzlik xudosi Anxro Manyo – Axriman o'rtasida), tabiatda va insoniyat hayotida ham davom etadi. Tura, danu, xyaona qabilalari «dayva» – devlarni ulug'lashgan va Axuramazdani qadrlashmagan. Shuning uchun ham «Avesto»da ular Zaratushtra tarafdorlarining ashaddiy dushmanlari sifatida yoritilgan.

Biroq zardushtiylar xudolariga sig'ingan va aksincha, sig'inmagan qabilalar bir-biriga qarindosh aholining vakillari bo'lishgan.

Axuramazda yaxshilik, yorug'lik, baxt keltiruvchi, hayot va haqiqat tortiq qiluvchi xudo hisoblangan. Zaratushtra bunday xabar qiladi: «Biz Axuramazdani ulug'laymiz, u chorvani, suvni va o'simliklarni, yorug'likni va yerni yaratgan». Axuramazda hayotni va dastlabki olamni yaratuvchi xudo deb faraz qilingan. Anxro Manyo yovuzlik, kasallik, o'lim va zulmat keltiruvchi xudo hisoblangan.

Aholi joylashgan dunyoni zardushtiylar 7 ta tabiiy qism (qars-hvar)larga bo'lishgan. Bu dunyoning tarixi 12 ming yil davomida rivojlanadi, deb faraz qilingan. Zardushtiylar ta'limotiga ko'ra, dunyo rivojlanishi to'rt bosqichga bo'linib, har bir davr 3 ming yildan iborat bo'lgan.

Birinchi bosqich – bu ko'rinmas ma'naviy dunyo; ikkinchisi – hayot va dastlabki yagona Gavmard – buqa-odam paydo bo'lishi davri; uchinchisi – «oltin davr» yoki oriylar afsonaviy qahramonlarining ish-harakatlari davri; to'rtinchi bosqich – Zaratushtra vafotidan so'ng boshlangan.

Dunyo tarixining ikkinchi davrida Anxro Manyoning yovuzlik faoliyati boshlangan. U dastlab yagona Gavmardga o'lim keltirgan. Ammo uning odam tanasidan erkak va ayol paydo bo'ladi. Ular insoniyat urug'ini vujudga keltirishadi. «Avesto» ma'lumotlariga ko'ra, oriylar ham Gavmard farzandlaridan kelib chiqqan. Shuningdek, Gavmardning buqa tanasidan sigir va buqa qonidan esa – o'simliklar vujudga kelgan, deb faraz qilingan.

Uchinchi bosqichda – Yima (Jamshid) podsholik qilgan bu «oltin» davrda dunyoda baxtli hayotning rivojlanishi yuqori darajasiga yetgan. Dunyo aholisi bir necha marotaba ko'paygani va keng hududlarni o'zlashtirib, yoyilgani tufayli inson, qushlar va hayvonlar yashashi uchun sayxon yerlar kamayib borgan. Shu sababli, Axuramazda maslahatiga binoan, Yima har 300, 600 va 900 yil davomida yer chegaralarini va insonlar joylashuvi hududini kengaytirib borgan. Yer yuzida qish, sovuq havo va toshqin suvlar xavfi tahdidiga qarshi Yima «vara» – to'rtburchakli qal'a-makonga asos solgan. Bu qal'ada turli o'simliklarning o'sishi, har bir mayda chorva va katta shoxli mol, parranda, it va odamlarning yashashi uchun olov hamda oziq-ovqat zaxiralarini saqlash imkoniyatlari yaratilgan.

Zardushtiylar fikriga ko'ra, to'rtinchi bosqichning so'nggi yillarida «oxirgi zamon» boshlanishi lozim. Xuddi shu zamonda, dunyo va insoniyat taqdirini hal qiluvchi, dunyo hayotini qutqaruvchi Saoshyant nomli shaxs paydo bo'ladi. U yerni «yoritilgan temir oqimida» tozalab beradi. Yovuz kuchlar tarafdorlari, haqiqatga qarshi bo'lgan va gunohkor yovuz ishlarni amalga oshirgan odamlar butunlay yo'q qilinadi.

«Avesto»da turli xil ma'lumotlar mavjud: jangchi-qahramonlar haqida afsonalar, bahodirlar o'rtasidagi janglar, hayot va o'lim falsafasi, xalq og'zaki ijodidan kelib chiqqan ertaklar va boshqalar. Misol tariqasida, serjahl jodugar Axtyo va yosh turonlik Yoyshta haqidagi afsona juda ham qiziqarlidir.

Zardushtiylarning qurbonlik urf-odatlarini haqida Yasht madhiyalari xabar qiladi. Kitobning 5-bobida («Ardivisur – yasht») muqaddas Xara tog'i etagida oriylarning podshosi Xaoshyonx, Xukaryo tog'ida Yima, Pishin ko'li qirg'og'ida jangchi-qahramon Karasp, Erzif tog'ida podsho Kavi Usan, Chaychast ko'li qirg'og'ida Kavi Xaosrov va Frazdan daryosi sohilida Kavi Vishtasp iloha Ardivisura – Anaxitaga yuz otni, mingta qoramolni va sanoqsiz qo'ylarni qurbon qilib, o'z dushmanlari ustidan, zulm va qora kuchlar tarafdorlari ustidan g'alaba qozonish ilohlaridan madad so'rashgan. Daryolar ilohasi



Ardivisura hamda taqdir va baxt xudosi Ashining yordami bilan ularning janglari, kurashlari g'alaba bilan yakunlangan.

Zardushtiylarning ta'limotlariga ko'ra, inson o'zining ishlari, fikrlari va so'zlari bilan Anxro Manyoga qarshi bo'lishi lozim edi. Kim bu dunyoda halol, kamtar va mehnatsevar yashab o'tsa, u narigi dunyoning jannatida baxtli hayotni kechirishga muyassar bo'ladi. Yovuz ishlari bilan mashhur bo'lgan odamlarni do'zaxdagi zulmat va azob kutib oladi, deb faraz qilingan.

O'lim – bu yovuzlik ifodasi, kasallik va o'limni keltiruvchi serjahl xudo – Anxro Manyodir. Vafot etgan odamni maxsus xonada o'ttiz qadam olovdan, o'ttiz qadam suvdan va muqaddas o'simliklardan uzoqlashtirish hamda yaqin qarindoshlardan chetlashtirish lozim edi. Dafn etish marosimi bilan «nasassa» deb ataluvchi maxsus kishilar shug'ullanishgan («nasu» – bu o'lim ifodasi, o'limni shimoldan uchib kelgan pashsha olib keladi, deb faraz qilingan).

Uch kun va uch tun davomida kohinlar hamda vafot etgan odamning qarindoshlari zardushtiylarning maxsus nasihatlarini o'qib turishgan. Marosimlar davomida ovqatlanish man etilgan. To'rtinchi kun boshlanishi bilan, marhumning ruhi narigi dunyoga yetib bor-gandan so'ng, jasadni uydan olib chiqish mumkin bo'lgan. Zardushtiylarning dafn qonunlariga ko'ra, jasadni yerga ko'mish, suvga tashlash, gulxanda kuydirish man qilingan. Shuning uchun ham marhumni zardushtiylar uydan, shahardan, muqaddas olovdan va suvdan chetlashtirib, uni toshli va qumli tepaliklarga yoki boshqa maxsus joylarga olib borib qoldirgan.

Uy-joydan, olovdan va suvdan uzoqlashgan joylarda tashlab qoldirilgan jasadlarni yirtqich hayvonlar va qushlar yo'q qilishgan. Yil davomida qor va yomg'ir suvlari jasad suyaklarini yuvib, ularni quyoshning muqaddas nuri quritib, yana tozalangandan so'ng, «nasassa»lar zardushtiylarning osmon ostidagi ochiq qabristonlariga kelib, tozalangan suyaklarni yig'ib olishgan. Faqat shundagina, murakkab dafn marosimidan so'ng, suyaklarni sopol idishlarda yerga ko'mish yoki maxsus inshootlardagi tobutchalarda saqlash mumkin edi.

Mil. avv. IX–V asrlarga oid Surxondaryo va Qashqadaryo (Shimoliy Baqtriya va Janubiy Sug'diyona) vohalaridagi o'troq aholiga mansub qadimgi qabrlar topilmagan. Bu davrda O'zbekistonning janubiy viloyatlarida zardushtiylar urf-odatlariga yaqin dafn etish marosimi tarqalgan. Qashqadaryodagi Sangirtepa, Surxondaryodagi Qiziltepa va Bandixontepa atroflarida qadimgi odamlarning suyagi qoldiqlari topilgan. Shuningdek, bronza davriga oid Sherobod vohasidagi Jarqo'ton va Bo'ston yodgorliklarida odam skelet parchalarining sopol idishlarda va yon tomonlari tosh, sopol siniqlari bilan o'rab olingan o'ralarda dafn etilishi aniqlangan. Bundan ko'rinib turibdiki, arxeologik ma'lumotlar ham yuqorida yoritilgan dafn marosimi haqida dalolat beradi. Hozirga qadar arxeologik jihatdan zardushtiylarning ilk dafn marosimlarining izlari Baqtriya va Sug'd hududlarida aniqlangan, xolos. Shuningdek, Baqtriya hududida olov, suv, yer va hosildorlikka sig'inish odatlari bronza davrida shakllangan. Shu sababli, ba'zi olimlar Zaratushtra o'z yurtidan Baqtriyaga kelganidan so'ng mahalliy e'tiqodlar va dafn marosimlari ta'sirida o'z diniy qarashlarini isloh qilgan, deb yozishadi. Mazkur e'tiqodlar uning ta'limotiga zid kelmagan.

Zardushtiylar e'tiqodiga ko'ra, marhumdan ajralgan jon – ruhi Chinvot ko'prigiga yetib boradi. Chinvot ko'prigi Xara tog'ining baland cho'qqisidan boshlanib osmonga qaratilgan. Bu ko'prikning yonida ruhni xudo Mitra va uning yordamchilari Sraosha bilan Rashnu kutib olishadi. Xudo Mitraning qo'lida adolat bilan sudlash tarzisi bo'ladi. Tarozi jonning ezgu va yovuz ishlari tortiladi. Ezgulik jonlar uchun Chinvot ko'prigi kengayib borib, osmonga yo'lni ochib beradi (jannatga ularni go'zal pari qiz kuzatib boradi). Agar tarozining yovuz ishlar tomoni og'ir bo'lsa, Chinvot yo'li torayib qoladi, o'tkir qilich damiga aylanadi. Yovuz ruhni jirkanch ajina-kampir yer tagiga olib ketadi. Bu joyda u Anxro Manyo zulmatida uzoq azobli umrni kechiradi.

Zaratushtra ta'limotiga ko'ra, «oxirgi zamondan» so'ng o'lim va «marhumlar podsholigi» butunlay yo'q bo'ladi. Olov xudosi Atar



tog'laridagi temirlarni eritib, olovsimon suyuqlikni yoki alangali daryoni yer yuziga qaratadi. «Katta Budaxshin» nomli kitobdagi ma'lumotlarga ko'ra, har bir inson bu daryodan kechib o'tishi lozim bo'ladi. Haqiqatgo'ylar uchun olov yangi sog'ilgan sut daryosiga o'xshab qoladi, gunohkorlarning ichi eritilgan temir bilan to'ldirilib, yong'inga aylanadi. Gunohkorlar yer yuzidan tamoman g'oyib bo'lishadi. Alangali suyuq temir daryosi yer tagiga oqib, do'zaxni, xudo Anxro Manyoni va zulmatni yo'q qiladi. Bundan keyin yerda baxt-u saodat, adolat va yaxshilik ustunlik qilib, insoniyat kasallikni, qarilikni va o'limni umuman bilmaydi. Jannat va yerda yashovchilar birlashadilar, yer jannatga aylanadi. Odamlarning munosabatlari, so'zlari va ishlari tinchlik va baxtlik maqsadi bilan bog'lanadi.

Zaratushtra nasihatlarida doimiy farog'atli hayot inson uchun uzoq notanish xayoliy jannatda emas, balki inson uchun yaqin, unga tanish jonli dunyoda mavjud bo'lishi lozim, degan qarashlar muhim ahamiyat kasb etgan. Bu marraga yetish uchun odamlar juda ko'p murakkab va jiddiy sinovlardan o'tishlari kerak.

Zaratushtra birinchi bo'lib adolatli sud qilish, jannat va do'zax haqida, insoniyat uchun umumiy oxirgi sinov haqida hamda haqiqat, bunyodkorlik va ezgulikka intilgan insonlar uchun doimiy farog'atli hayot olami to'g'risidagi rasmiy ta'limotga asos solgan.

Asrlar davomida turli xalqlar dunyoda to'kinchilik, baxt-saodat, farovonlik ustunlik qilgan davr boshlanadi, deb umid qilishgan. Bu abadiy mavzu o'z ahamiyatini hozirda ham yo'qotmadi. Biroq kelajakdagi o'lmas dunyo, baxtli hayot, doimiy adolatlik haqida qadimgi manbalar ichida «Avesto» birinchi bor e'lon qiladi.

#### **5.4. Axloqiy va huquqiy qoidalar. Jinoyat va jazo turlari**

Rivoyatga ko'ra, Zaratushtra 30 yoshga to'lganda haqiqiy din ta'limoti uning qalbidan o'rin olgan. Shu davr murakkab, notinch bir davr edi. Bosqinlar va urushlar inson zotiga cheksiz judoliklar, o'lim keltirdi. Qabilalar bir-biri bilan yovlashardi. Yo'l boshchilar va jang-

chilar harbiy yurishlarga chiqib, kuchsiz va himoyaga muhtojlarni talar va qulga aylantirishardi.

Zaratushtra bir necha bor bedodlik va zo'ravonliklar guvohi bo'lganligi uchun, uning dastlabki targ'ibotlari yovuzlik, zo'ravonlik va o'limga qarshi qaratilgan. Shu tufayli tartibga chaqirish, adolatga intilish, xulq, odob tantanasi, tinch hayot va ezgulikka da'vat Zaratushtra targ'ibotining asosini tashkil etgan. «Kuch va imkonim boricha men odamlarni haqiqat «asha»ga chorlayman», – deya Zaratushtra ulug' va donishmand tangri Axuramazdaga qasamyod etadi.

«Asha» – tartib, imon va adolat timsoli. Unga yaxshi niyat, yaxshi so'z va savobli ishlar bilangina erishish mumkin. Biroq o'z muroqabalarining barida Zaratushtraga ezgulik va adolatga qarshi bo'lgan, oliy tangri Axuramazda dushmani Anxra Manyo boshliq, qora kuchlar mavjudligi ayon bo'ladi.

Zaratushtra ta'limoti insonparvarlik g'oyalari bilan uzviy bog'langan bo'lib, unda inson uchun alohida muhim o'rin ajratilgan. Yaxshilik va yovuzlikning kurashida unga xohlagan tomonini yoqlash imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, har bir inson yovuzlikni yo'qotish va ezgulikni o'rnatish ishida ishtirok etishi mumkin. Bu ishda hamma teng huquqlidir. Qabilalar o'rtasidagi kurash va tinimsiz bosqinlar («ular xonadonlarga, uy-joy, viloyat va mamlakatga qashshoqlik va vayronalik keltirishadi») sharoitida Zaratushtra markazlashgan qudratli hukmdori bo'lgan siyosiy uyushma yaratishga chaqiradi. «Marhamatli hukmdor shodlik kezman joylar uchun tinchlik o'rnatadi», – deydi Zaratushtra.

Zardushtiylik falsafasiga ko'ra, odamlarning yovuzlik kuchlariga qarshi kurashiga faqat din emas, ibodat, samimiy fikr, yaxshi so'z va tadbirkorlik, shuningdek, axloqiy va huquqiy qoidalarga og'ishmay amal qilishlari ham asos bo'la oladi.

Odamlarning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari ma'lum qonun-qoidalarga asoslangani haqida Yasht va Videvdat boblari ma'lumot beradi. Oila va jamoadagi berilgan so'zdan yoki qasamdan voz kechish, odamlar o'rtasida tuzilgan ahdomani buzish katta gunoh hi-



soblangan: «O, Spitama, shartnomani buzuvchi kishi butun mamlakatga zavol keltiradi, shu bilan birga Artaga tegishli barcha mulk-u mollarga putur yetkazadi. O, Spitama, ahdingni buzma...»

«Avesto»ning guvohlik berishicha, er-uxotin o'rtasidagi shartnoma ellik barobar, ota va o'g'il o'rtasidagi shartnoma yuz barobar, kuyov bilan qaynota o'rtasidagi shartnoma sakson barobar, aka-ukalar o'rtasidagi shartnoma esa to'qson barobar hisoblangan. Yoshi ulug' kishilar so'zini qaytarish tanbehga loyiq, deb topilgan. Qolgan holatlarda, masalan, farzand otaga qo'l ko'tarsa, bu og'ir jinoyat hisoblanib, tan jazosi berilgan.

«Avesto» quyidagi jinoyat turlari haqida ma'lumot beradi: dingga va shaxsga qarshi, mulkiy, axloqiy, oilaga qarshi, tabiatga qarshi, muqaddas hayvonlarga va itga qarshi.

Zardushtiylarning qonunlariga ko'ra, jasadni yerga ko'mish, suvga tashlash, gulxanda kuydirish man qilinganligi bizga ma'lum. Shuning uchun ham gunohlar ichida eng og'iri odam va itlar jasadini «tuproqqa topshirish», «dunyoda hech bir jazo, hech bir tovon bunday gunohni poklay olmaydi, – deya «Avesto» ta'kidlaydi.

Shaxsga qarshi harakatlar ichida qurolni qo'lga olib tahdid solish, birovni kaltaklab, uni hushidan ketkazish, unga jarohat yetkazish, suygini sindirish va boshini yorish kabi harakatlar qattiq jazolangan.


«Avesto» mulkiy jinoyatlardan o'g'rilik, firibgarlik, talon-toroj, bosqin, qarzdorlikni gunoh deb hisoblaydi. «Kimda-kim qarzni o'z egasiga qaytarmasa, uning bu amali o'sha omonatni o'g'irlagan bilan barobar bo'ladi». Olingan qarzni o'zlashtirish ham jinoyat hisoblangan.

«Avesto» oilani va farzandlarni hamda uy-joyini asrab-avaylashga chaqiradi: «Kimning uyi bo'lsa, u uysiz bexonumon odamdan yaxshiroqdir». Odamlar bir-birlariga madadkor bo'lishi kerak, masalan, boy kambag'alga. Zardushtiylar jamoa a'zolarining kundalik hayotidagi xulqi uchun javobgarligini his qilishgan. Ularni maqsadli, umumiy hayotiy muammolar va vazifalar og'ir daqiqalarda birlashtirgan, ertangi kunning farovon bo'lishiga umid bag'ishlagan.

### «Avesto»dagi qadimgi jamiyat va boshqaruv tartibi

«Avesto» tushunchalari	Boshqaruv tartibi
«dmana», «nmana» – uy, oila	Uy egasi, oila boshlig'i
«vis» – urug'	Urug' oqsoqoli
«varzana» – qo'shni jamoalar	Oqsoqollar yig'ini
«zantu» – qabila	Qabila yo'lboshchisi
«daxyu» – viloyat, qabila ittifoqi	Viloyat hokimi
«daxyusasti» – мамлакат	Mamlakat hukmdori
«xanjamana»	Oqsoqollar kengashi
«vyaxa»	Xalq (aholi yig'ini)

### «Avesto»dagi siyosiy ma'lumotlat





Oila va jamiyatdagi axloqiy va huquqiy munosabatlar, jumladan xonadon egasi va oila a'zolari, yer va xotin, ota va o'g'il, kuyov va qaynota, qo'shnilar o'rtasida keng qamrovli bo'lib, ular yolg'on, zo'ravonlik va nohaqlikka qarshi qaratilgan.

Inson olov, suv va zaminning pokligini ta'minlashi, tabiatni asrab-avaylashi lozim edi. Suv va olov qoshida qasamni buzgan odam og'ir gunohkor hisoblanib, kimda-kim qasamni buzsa, u ma'lum miqdorda qamchi bilan savalangan. «Avesto» sanog'i oltita ahdnoma (qasam, kafolat)ga rioya qilishga chaqiradi (so'z, qo'l, qo'y, sigir, odam, viloyat qasami).

«Avesto»da mehnatga yuksak ehtirom bilan munosabat bildiriladi. Inson mehnat qilishi, biror hunar, qurilish, ziroat va chorvachilik bilan shug'ullanishi lozim deyiladi: «Kim don sochib, g'alla yetish-tirsa, u taqvodorlik, haqiqiylik o'rnatgan bo'ladi».

Nohaqlik va jinoyatga to'siq qo'yish, ularning oldini olish maqsadida «Avesto» qonunlari inson va jamoaning har kungi hayotini, ichki va tashqi munosabatlarini huquqiy nazorat qilishga qaratilgan. «Avesto» yuksak axloq, pokiza vijdon, marhamatlilik, insonga va ona zaminga nisbatan doimiy g'amxo'rlikni targ'ib etadi. Bugungi kunda ham «Avesto» falsafasi dolzarbdir. U insoniyatning yorug' ke-lajagiga, ezgulikning yovuzlik ustidan g'alabasiga va adolat tantanasiga ishonch va umid bag'ishlaydi.

#### *Tayanch so'zlar*

«Avesto», zardushtiylik, «Avesto» tili, Dyupperon, Zaratushtra, Yasna, Yasht, Visprat, Videvdat, Pourushasp, Dugdova, Kavi Vish-tasp, Mouru, Gava Sug'da, Xvarizam, Xarayva, Bahdi, Aryonam Vayjo, Vanxvi Dat'yo, Ranxa, Xara, Ushida, nmana, vis, zantu, daxyu, Axuramazda, Mitra, kaviylar, Kavi Kavat, Kavi Usan, Kavi Xaosrov, Axriman, karsharvar, Yima, ezgulik, yovuzlik, nmanopati, vispati, daxyupati, sastar, xanjamana, dafn marosimi, zardushtiylik ta'limoti, Chinvot, Mitra, Sraosha, Rashnu, adolatli sudlash, «mar-

humlar podsholigi», Atar, «asha», samimiy fikr, yaxshi so'z, axloq, huquqiy qoidalar, ahdnoma, «Avesto» falsafasi.

#### *Savol va topshiriqlar*

1. «Avesto» haqida umumiy ma'lumot bering.
2. A. Dyupperon kim va uning xizmati nimadan iborat?
3. «Avesto» va Zaratushtra deganda nima nazarda tutiladi?
4. «Avesto» qismlari haqida nimalarni bilasiz?
5. «Avesto» qanday ma'lumotlarni o'z ichiga oladi?
6. «Avesto»da geografik, hududiy nomlar, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tarixga oid qanday ma'lumotlar mavjud?
7. Zardushtiyar ta'limoti haqida nimalarni bilasiz?
8. «Avesto»ning manba va madaniy meros sifatida ahamiyatini ta'riflab bering.

#### *5-mavzu bo'yicha foydalanilgan adabiyotlar*

1. *Абаев В.И.* Миф и история в Гатах Зороастра. Историко-филологические исследования. – М.: «Наука», 1974.
2. *Abdullayev O'M.* O'rta Osiyoda qadimgi boshqaruv va ilk davlat-chilik tarixshunosligi. – Toshkent: «Akademiya», 2009.
3. *Авеста.* Избранные гимны / Пер. с авестийского И.М. Стеблин-Каменского. – Душанбе: «Адиб», 1990.
4. *Avesto.* Yasht kitobi / Rus tili tarjimasidan M. Is'hoqov izohli tarjimasini. – Toshkent: «Sharq», 2001.
5. Аркаим: По страницам древней истории Южного Урала / Науч. ред. Г.Б. Зданович. – Челябинск: «Крокус», 2004.
6. *Asqarov A.* O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi. – Toshkent: «O'zbekiston», 2015.
7. *Бойс М.* Зороастрийцы. Верования и обычаи. / Пер. с английского И.М. Стеблин-Каменского. – Душанбе: «Адиб», 1979.
8. *Дорошенко О.А.* Зороастрийцы в Иране. – М.: «Наука», 1982.
9. *Зданович Г.Б., Зданович Д.Г. и др.* Аркаим и «Страна городов». – Челябинск: «Крокус», 2003.
10. *Ртвеладзе Э.* Историческое прошлое Узбекистана. – Ташкент: «Сан'ат», 2009.



11. *Rtveladze E.V., Saidov A.X., Abdullayev Ye.V.* Qadimgi O'zbekiston sivilizatsiyasi: davlatchilik va huquq tarixidan lavhalar. – Toshkent: «Adolat», 2001.

12. *Sagdullayev A.* Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda. – Toshkent: «O'zbekiston», 1996.

13. *Sagdullayev A.S.* Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. – Toshkent: «Universitet», 2004.

14. *Сарианиди В.* Задолго до Заратуштры. – М.: Старый сад, 2010.

15. Хрестоматия по истории Древнего Востока. Часть вторая. – М.: Высшая школа, 1980 / Гаты. Ясна. Яшгы. Перевод сделан по изданию: Гелднер К.Ф. Авеста. – Стутгарт, 1886–1895. Пер. В.И. Абаева, С.П. Виноградовой.

16. *Шуринов Т.Ш.* Средняя Азия во III тысячелетии до нашей эры и протозороастризм // История материальной культуры Узбекистана. Вып. 31. – Самарканд, 2000.

17. *Boyce M.* Zoroastrians: Their Religious Beliefs and Practices. London, 2001.

18. *Herzfeld E.* Zoroaster and his world. Vol. I. – 410 p.; Vol. II. – 411 p. – Princeton, 1947.

19. *Gershevitch I.* The Avestan Hymn to Mithra. – Cambridge, 1959.

## 6-MAVZU

### QADIMGI DAVLATLAR TARIXI

#### Reja:

- 6.1. Qadimgi fors bitiklari va ilk yunon manbalari.
- 6.2. Tarixiy-madaniy viloyatlar va qadimgi davlatlar.
  - 6.2.1. Qadimgi Baqtriya.
  - 6.2.2. So'g'd (Sug'diyona).
  - 6.2.3. Qadimgi Xorazm.
  - 6.2.4. Sak-massagetlar.
  - 6.2.5. Choch va Farg'ona.

#### 6.1. Qadimgi fors bitiklari va ilk yunon manbalari

**Qadimgi fors bitiklari.** Mil. avv. 545–540-yillarda ahamoniylar O'rta Osiyoning Parfiya, Marg'iyona, Baqtriya va Sug'd viloyatlarini bo'ysundirgan. Massagetlarga qarshi Kir II ning yurishlari mil. avv. 530-yilda muvaffaqiyatsiz yakunlangan. Saklar yurtini Doro I mil. avv. 518-yilda istilo qilgan.

Doro I davrida (mil. avv. 522–486-yillar) ahamoniylar sulolasi Hind vodiysidan O'rta Yer dengiziga qadar bo'lgan keng hududda o'z hukmronligini o'rnatgan. Ahamoniylar davlati jahon tarixida birinchi yirik dunyo davlati deb hisoblanadi. Bu davlat ilk bor ko'p sonli viloyatlar, shaharlar va xalqlarni birlashtirgan. O'rta Osiyoda ahamoniylar ikki yuz yildan ziyod hukmronlik qilishgan (mil. avv. 330-yilgacha).

Ahamoniylar davri mixxat yozuvlarida O'rta Osiyo xalqlari va viloyatlari to'g'risida turli xil ma'lumotlar bor. Bu yozuvlar mil. avv. VI–IV asrlarga oid bo'lib, Behistun va Naqshi Rostam qoyatoshlarida, Suza, Persepol va Hamadon shaharlarida topib tekshirilgan. Ular



qadimgi fors tilida turli ijtimoiy, siyosiy va diniy masalalarga doir podsho buyruqlaridan va nutqlaridan iborat.


Shular jumlasidan eng muhimi Behistun yozuvlari bo'lib, Doro I davrida Karmanshoh va Hamadon shahri o'rtasidagi yo'lda baland qoyatoshda yozilgan (Midiya o'lkasi). Behistun yozuvlari qadimgi fors, elam va bobil tillarida bitilgan. Doro I bunday xabar qiladi: «Men – Doro, ulug' podsho, shahanshoh, mamlakatlar podshosi, Vishtasp o'g'li, Arshan nevarasi, Ahamoniy shoh Doro ayturki: «Ahuramazda irodasi bilan quyidagi davlatlarni qo'limga kiritib, ularning podshosi bo'ldim: Fors, Elam, Bobil, Ossuriya, Arabiston, Misr, Lidiya, Ioniya, Midiya, Armaniston, Kappadokiya, Parfiya, Drang'iyona, Ar'yo, Xorazm, Baqtriya, Sug'd, Gandxara, Saka, Sattagadiya, Araxoziya, Maka: hammasi bo'lib 23 davlat».

Shoh Doro ayturki: «Mana huzurimda bo'lgan podsholik: Sug'd ortidagi saklar yurtidan Efiopiyagacha. Hindistondan Midiyagacha – bu podsholikni menga Ahuramazda – xudolar o'rtasidagi ulug' xudo tortiq qilgan».

Behistun yozuvlarida Doro I birinchi bo'lib Ahamoniylar davlatining g'arbiy viloyatlarini ko'rsatib bergan bo'lsa, Naqshi Rostam yozuvlarida mamlakatlar ro'yxati Midiya va Elamdan so'ng Sharqiy viloyatlardan boshlanadi: «Men – Doro, ulug' shoh ko'p sonli qabila mamlakatlarining podshosi, keng sayxon yerlarning podshosi, Vishtasp o'g'li, Ahamoniy fors, forsning o'g'li, oriylar urug'idan kelib chiqqan oriy».

Shoh Doro ayturki: «Fors viloyatidan tashqari quyidagi mamlakatlarni men bo'ysundirganman, menga o'lpon to'lovchi bo'lgan, mening so'zimni ijro etgan, mening qonunimga asoslanib rivojlanayotgan: Midiya, Elam, Parfiya Ar'yo, Baqtriya, Sug'd, Xorazm... Saka Xaumavarka, Saka Tigraxauda... dengizdan narigi yerdagi saklar».

Erondagi qadimgi Persepol shahridan baqtriyaliklar, xorazmliklar, sug'dlar va saklarning o'yib ishlangan rasmlari topilgan (saroy devorlaridagi bo'rtma rasmlarda Doro I va Kserks huzuriga turli



Behistun qoyasidagi yozuv va tasvirlar

xalqlarning o'lpon keltirish manzarasi tasvirlangan). Persepol saroyidagi rasmlar O'rta Osiyo xalqlarining eng qadimgi tasvirlaridir (ularning qiyofasi, kiyim-boshlari, qurollari ma'nosida).

Turli xalqlar qatorida sug'diylar 8-guruhda ko'rsatilgan. Ular yetti kishidan iborat bo'lib, shohga idishlar, gazmollar, noma'lum hayvon terisi va ikki qo'yni yetaklab kelayotgani tasvirlangan.

O'n birinchi guruhda uzun cho'qqili qalpoqdagi saklar ko'rsatilgan. Ular kiyim-kechaklarni ko'tarib va otni yetaklab borishmoqda.

O'n beshinchi guruhda baqtriyaliklarning besh vakili idishlarni va tuyani olib kelayotganligi tasvirlangan.

O'n yettinchi guruh xorazmliklar bo'lib, ularning dudama xanjar, harbiy bolta, bilaguzuk va otni olib kelayotgani ko'rsatilgan.

Bu tasvirlarda Sug'd, Baqtriya, Xorazm va saklar yurti soliq to'lovchilarining ahamoniylarga turli xil buyumlar (kulolchilik, to'qimachilik, zargarlik, harbiy qurollar) hamda Qadimgi Sharqda mashhur bo'lgan otlar va tuyalarni olib kelayotgan manzarasi o'z aksini topgan. Shuningdek, Suza yozuvlariga ko'ra, O'rta Osiyo vi-



loyatlaridan Eronga oltin hamda lojuvard, firuza, serdolik kabi qimmatbaho toshlar olib kelingan.

Ahamoniylar davri yozuvlarida yurtimiz xalqlarining o'tmish tarixiga tegishli quyidagi ma'lumotlar bor: viloyatlar va elatlarning nomlari, siyosiy jarayonlar, saklar yurtiga yurishlar, iqtisodiy tuzum va moddiy madaniyat to'g'risida ma'lumotlar.

Ko'plab tadqiqotchilarning qadimgi fors yozuvlariga bag'ishlangan asarlari mavjud (I. Markvart, E. Xersfeld, R. Kent, A.A. Freyman, A.V. Struve, V.I. Abayev, M.A. Dandamayev va boshq.).

**Ilk yunon manbalari.** Yunon-fors urushlari boshlanishi bilan ushbu siyosiy voqealarda ishtirok etgan O'rta Osiyo xalqlarining tarixi qadimgi yunon tarixchilarining asarlarida yoritilgan.

Bu borada O'rta Osiyo xalqlari to'g'risida qisqa bo'lsa-da, aniq ma'lumotlar beruvchi Gerodotning «Tarix» kitobi ayniqsa qimmatlidir. Qadimgi davrlardan boshlab bu kitob dunyoda eng mashhur tarixiy asarlardan biri bo'lib hisoblangan. Uning muallifi Gerodot qadimda «tarixning otasi» deb nom olgan.

Gerodotni Old Osiyo, Misr, Babil, Eron va «dunyo chegaralarida» joylashgan xalqlar va davlatlar tarixi ham ancha qiziqtirgan. Qadimgi Yunonistonda mavjud tasavvurlarga ko'ra, O'rta Osiyo va Hindiston o'lkalari inson yashagan dunyo – oykumenaning Sharqiy chegaralarida joylashgan. Gerodot O'rta Osiyoda hech qachon bo'lmagan va bu hudud haqida o'zi eshitgan hikoyalarni surishtirib bilganlari asosida yozgan.

Gerodot «Tarix» kitobini mil. avv. 455–445-yillar davomida yaratgani bizga ma'lum. Bu muhim asarida Gerodot Baqtriya, Baqtra, baqtriyaliklarni 13 marta, sug'dlarni 2 marta, xorazmiylarni (xorazmiylar shaklda) 3 marta, saklarni 11 marta, massagetlarni 19 marta tilga olib, ularning moddiy madaniyati, urf-odatlarini, dini va tarixi haqida hikoya qilgan.

Gerodotning O'rta Osiyo to'g'risidagi asosiy xabarlarini – bu forslarning sak-massagetlarga qarshi yurishlari, Kir II va To'maris o'rtasidagi harbiy-siyosiy munosabatlar, ahamoniylar harbiy qo'shin-

lari safida yurtimiz xalqlari jangchilarining ishtiroki, ularning yarog'-aslahalari, yo'lboshchilari, fors-yunon urushlarida ko'rsatgan jasorati, mintaqa xalqlarining ahamoniylar davlatiga bo'ysunishi va maxsus yillik soliq to'lashi, sak-massagetlarning urf-odatlarini, turmush tarzi va diniy e'tiqodi, O'rta Osiyodagi Akes daryosining suvlaridan foydalanishi haqida va boshqa ayrim ma'lumotlardan iborat.

Gerodot O'rta Osiyoda aholi joylashuvining umumiy hududiy chegaralaridan bexabar bo'lgan.

Gerodot ma'lumotlaridagi «Baqtriya xalqi» tushunchasi ma'lum bir etnik birlikni birlashtirgan bo'lishi mumkin. «Xalq» ma'nosini beruvchi «etnos» so'zi Gerodot asarida juda ko'p uchraydi (tadqiqotchilar hisobiga ko'ra, tarixchi bu atamani 145 marta tilga olgan) va ikki joydagina bu etnonim Baqtriyaga nisbatan ishlatilgan.

Quyidagi keltirilgan ma'lumotlar G.A. Stratanovskiy tomonidan rus tiliga o'girilgan Gerodotning «Tarix» asaridan olingan.

Gerodotning aytishicha, Doro I Ahamoniylar davlatini 20 ta o'lkaga bo'lgan. Tarixchi O'rta Osiyo xalqlari haqida bunday xabar qiladi:

Tarix, III kitob, 92. «Baqtriyaliklardan egashlargacha bo'lgan xalqlar 300 talant soliq to'lashgan. Bu – o'n ikkinchi o'lka».

III, 93. «Saklar va kaspilyar 200 talant to'lashgan. Bu – o'n beshinchi o'lka. Parfiyaliklar, xorazmiylar, sug'diylar va ariylar 300 talant to'lashgan. Bu – o'n oltinchi o'lka» (Bir talant 25,92 kg. kumushdir).

Gerodot muntazam ravishda ahamoniylar harbiy qo'shinlaridagi mintaqa xalqlarining jangchi vakillari haqida yoritadi:

Tarix, VII, 64. «Baqtriyaliklarning ust-boshi midiyaliklarning ust-boshiga o'xshagan, ular o'q-yoy va kalta nayzalar bilan qurollanishgan. Saklar esa (skif qabilasi) uzun cho'qqili kigiz qalpoqlar hamda ishton kiyib, kamon va xanjarlar bilan qurollanishgan, yana ularda ikki qirrali jangovar boltalar – sagarislar bo'lgan. Ushbu qabila (aynan skif qabilasi) amiriy saklar deb nomlangan. Forslar skiflarning hammasini saklar deb atashgan. Baqtriyaliklar va saklarning sardori Gistasp – Doro va Kirning qizi Atossaning o'g'li bo'lgan».



VII, 66. «Parfiyaliklar, xorasmiylar, sugʻdlar, gandariylar va dadiklar baqtriyaliklarning quollariga oʻxshagan yarogʻ-aslahalari bilan harbiy yurishni boshlaganlar. Ularning yoʻlboshchilari: parfiyaliklar va xorasmiylarning – Farnak oʻgʻli Artaboz; sugʻdlarniki – Artey oʻgʻli Azan boʻlgan».

VII, 86. «Baqtriya chavandozlarining quollari piyoda askarlari quollariga oʻxshagan».

Tarix. 1. 201. «Shu xalqlarga ega boʻlgandan soʻng, Kir oʻz oldiga massagetlarni istilo qilish maqsadini qoʻygan. Bu massagetlar jasur va behisob qabiladir. Ular Sharqda, quyosh chiqishi yoʻnalishida. Araks daryosining narigi yogʻida issedonlarga roʻpara boʻlib joylashgan. Baʼzilar ularni skif qabilasi deb hisoblashgan».

I, 202. «Hikoyachilarning xabarlariga koʻra, Araks Istr daryosidan yirikroqdir, aksincha, boshqa birlari esa uni kichikroq daryo deb hisoblashadi. Araks daryosida orollar koʻp... Araksning bir oʻzani keng ochiq joyda oqib, Kaspiy dengiziga quyiladi: Kaspiy dengizi – bu boshqa dengizlar bilan bogʻlanmagan dengizdir».

I, 215. «Massagetlarning kiyim-kechaklari va turmush tarzi skiflarnikidan uncha farq qilmaydi. Ularning otliq va piyoda qoʻshinlari boʻlib, odatda ular kamon, nayza va harbiy choʻqmorlar bilan jang qiladilar. Ularning hamma narsalari oltin va misdan ishlangan. Choʻqmor, oʻq va nayzalar uchlari misdan ishlangan, ularning ust-boshlari oltin bilan naqshlangan. Ular otlarining egar-jabduqlarini ham ust-boshlari kabi oltin bilan bezatadilar. Temir va kumushdan yasalgan buyumlar ularning roʻzgʻorida ishlatilmaydi, chunki bu metallar massagetlarning yerlarida umuman uchramaydi, biroq oltin va mis ularda juda koʻp».

I, 216. «Bugʻdoyni massagetlar ekmaydilar, chorvachilik va baliqchilik (Araks daryosida baliq serob) bilan shugʻullanishadi hamda sut ichishadi. Massagetlar ichida ulugʻlangan yagona xudo – bu Quyoshdir, Quyoshga ular otlarni qurbon qiladilar, chunki xudoga dunyodagi eng chaqqon, tez chopar jonliqni qurbon qilish lozim, deb oʻylaydilar».

Mil. avv. 530-yil avgust oylarida Kir II massagetlarga qarshi yurish boshlagan. Bu voqealar «Tarix»ning birinchi kitobida tasvirlangan: Toʻmarisning yurtiga podsho tomonidan sovchilarning yetib kelishi; Kir podshoga turmushga chiqish Kir taklifining Toʻmaris tomonidan rad qilinishi; forslarning Araks daryosidan kechib oʻtishi va massagetlar yerlarining ichkarisiga kirib borishi; Toʻmaris boshchiligidagi massagetlarning harakatlari natijasida forslarning butunlay qirib tashlanishi.

Bu xabarlarining oxirida Gerodot bunday xulosa chiqaradi: «Kirning oʻlimi haqidagi koʻpdan-koʻp hikoyalar orasida, menimcha, bu hikoya eng ishonchlidir». Gerodotning Akes daryosi suvlaridan foydalanish haqidagi maʼlumotlariga asoslanib, bir guruh olimlar (B. Altxaym, V.B. Xenning, I. Gershevich) Ahamoniylar davridan oldin Oʻrta Osiyoda markazi Marv va Hirot boʻlgan «Katta Xorazm» davlati rivojlangan degan muammoni ilgari surishdi.

Tarix, III, 117. «Osiyoda bir vodiy bor. Uning hamma tomoni togʻ bilan oʻralgan, togʻni esa beshta dara kesib oʻtadi. Bir vaqtlar bu vodiy xorasmiylarga qarashli boʻlib, xorasmiylar, parfiyaliklar, saranglar va tamaneylarning chegaradosh yerlarida joylashgan. Forslarning hukmronligi boshlangach, vodiy fors podshosi hukmronligiga oʻtgan. Vodiy oʻrab olgan togʻdan Akes nomli yirik daryo boshlanadi. Besh-ta oʻzanlarga boʻlingan bu daryo sanab oʻtilgan xalqlarning yerlarini daralar orqali suv bilan taʼminlagan. Ammo forslarning hukmronligi davrida ushbu xalqlar quyidagi holatni boshdan kechirdilar: Podsho daralarni toʻsib, suv yoʻllarida toʻgʻon darvozalari qurishga buyruq bergan. Daralardan chiqayotgan suv oqimining yoʻli berkitilgani uchun togʻ bilan oʻralgan vodiy oʻrnida koʻl paydo boʻlgan. Ilgari shu suvdan foydalanib kelgan qabilalar bu imkoniyatdan mahrum boʻlib, dahshatli holatga tushganlar... podsho toʻgʻon darvozarini ochish uchun katta pul (soliqlardan tashqari) talab qilgan».

Muhim savdo yoʻllarida joylashgan Oʻrta Osiyo viloyatlari Ahamoniylar davlatida katta iqtisodiy va harbiy ahamiyatga ega edi. Baqtriyani idora qilgan satraplar – hokimlar ahamoniylarning oilasi



vakillari (to'rt marta Baqtriya satraplari, ulug' podsho o'g'illari yoki aka-ukalari) bo'lgan.

Baqtriya satraplari ahamoniylar taxtini qo'llariga kiritishni doimo o'z oldilariga muhim maqsad qilib qo'yishgan. Baqtriya satrapi Masist ahamoniylar podshosi Kserksga qarshi (Masistning akasi) Baqtriya viloyatida qo'zg'olon ko'tarishga harakat qilgan.

Tarix, IX, 113. «U o'g'illari bilan maslahatlashib, ular va o'zining tarafdorlari bilan birga Baqtraga yo'l oladi. Podshoni taxtdan ag'darish uchun u Baqtriya viloyatida qo'zg'olon ko'tarmoqchi bo'lgan. Agar u baqtriyaliklar va saklar oldiga o'z vaqtida yetib borganida, o'z oldiga qo'ygan maqsadni aniq amalga oshirishi mumkin edi. Haqiqatdan ham bu xalqlar Masistni hurmat qilardi, u Baqtriya satrapi edi. Biroq Kserks Masistning niyatidan xabardor bo'lib, uning ketidan harbiylarni yuboradi, yo'lda quvib tutilgan Masist, o'z o'g'illari va tarafdorlari bilan birgalikda o'ldiriladi».

Gerodotning «Tarix» asarida O'rta Osiyo hududi bilan bog'langan geografik tushunchalar kam uchraydi. Shular jumlasidan, daryolar – Araks, Akes va Kaspiy dengizidir. Gerodot Baqtriya markazi Baqtra shahrini va shu viloyatdagi Barka nomli manzilgohni ikki marta tilga olgan (Gerodot, IV, 204; VI, 9; IX, 113). Boshqa daryolar, tog'lar, ko'llar yoki shaharlar va joylar haqida xabar bermagan. Ba'zi xalqlarning hududiy joylashuvi (saranglar, tamaneylar) bizga noma'lum bo'lib qolgan.

Gerodotning asarida O'rta Osiyo jangchilari Kserks qo'shinlari safida qadimgi dunyo tarixida mashhur yunon-fors urushlaridagi Marafon va Salamin janglarida qatnashganlari haqida ma'lumotlar bor. Marafon jangida saklarning otliq qo'shinlari nihoyatda katta jasurlik ko'rsatishgan (Tarix, IX.71.).

Manbada saklar va Baqtriya suvoriylari ahamoniylar qo'shinlaridagi eng jasur qismlardan biri sifatida yoritilgan. Gerodot xabariga ko'ra, Kserksning otliq qo'shinlarida faqat ayrim xalqlargina maxsus xizmat qilishgan – forslar, midiyaliklar, saklar, baqtriyaliklar, hindlar, liviyaliklar, kaspiylar, parikaniylar va arablar (Tarix, VII, 88).

Gerodotning tarixiy an'alarini davom ettirgan boshqa bir yunon tarixchisi Ktesiy Kichik Osiyodagi Knid shahridan kelib chiqqan. U mil. avv. 404-yildan boshlab ahamoniylar podshosi Artakserks II (mil. avv. 404–359-yy.) saroyida tabib vazifasini bajargan. Podsho saroyida u Sharq chegaralarida joylashgan uzoq shaharlar, mamlakatlar va xalqlar haqida ko'pdan ko'p hikoyalar eshitgan. Qadimgi yunon afsonalari ta'sirida tarbiyalangan Ktesiy qadimgi Sharq dostonlari va tarixiga ham juda qiziqib, Fors podsholigi hududida istiqomat qilgan ayrim xalqlarning tarixi va madaniyatiga oid ancha ma'lumotlar yig'ib olgan.

Ayniqsa, tarixchini Hindiston va Baqtriya qiziqtirgan. Uning Hindistonga nisbatan katta e'tiborini tushunish mumkin, chunki qadimgi yunonlarning tasavvurlarida, bu o'lka quyosh chiqishida birinchi va dunyoning Sharqiy chegaralarida oxirgi mamlakat bo'lib hisoblangan. Hindistonga chegaradosh Baqtriyaning oltini, qimmatbaho yariqiroq toshlari, kamon va nayzalar bilan qurollangan chavandozlari Eronda mashhur edi. Shu bois Ktesiy «Persika» asarining katta bir qismini baqtriyaliklar tarixiga bag'ishlagan.

Erondan yurtiga qaytganidan so'ng Ktesiy qadimgi forslar tarixini yoritishni rejalashtirgan. Biroq to'plangan ma'lumotlar aynan forslar tarixi mundarijasi doirasidan chiqib, baqtriyaliklar tarixini yoritishga ham xizmat qilgan. «Persika» – «Fors tarixi» deb nomlangan asar mil. avv. 398-yildan so'ng yozilgan.

Ktesiy Ossuriya hukmdori Nin va Baqtriya podshosi Oksiart (boshqa manbalarda Zoroastr – Zardusht) urushlari haqida hamda Kir II ning baqtriyaliklar bilan urushi to'g'risida hikoya qiladi. Odatda bir guruh olimlar Ktesiyning Gerodotga nisbatan ishonchsizroq muallif deb hisoblashadi. Ularning fikricha, Ossuriya podsholari hech qachon Sharqning uzoq chegaralariga yurishlar qilishmagan, bundan tashqari, Baqtriyaning qo'shinlari uncha qudratli bo'lmagan va Ossuriyaga qarshi chiqolmagan, deb faraz qilinadi.

Ktesiy Baqtriyaning ko'p sonli istehkomlari va shaharlari hamda mustahkamlangan poytaxti haqida, bu shaharni qamal qilgan Ossuriya



podshosi Nin to'g'risida shunday yozadi: «...Nin baqtriyaliklarga qarshi yurishni boshlagan. U Baqtriyaning qal'alari, aholisining ko'pligi va jasurligi haqida xabardor bo'lib, o'ziga bo'ysundirgan xalqlardan ko'p sonli qo'shinlarni yig'ib olgan. Shu qo'shinlarga sardor bo'lib, Nin Baqtriya yurtiga bostirib kirgan, ammo viloyatdagi xilma-xil tog' daralari uning qo'shinlarini alohida qismlarga bo'lishga majbur qilgan.

Baqtriyadagi ko'pdan ko'p yirik shaharlar orasida bir mashhur Baqtra nomli shahar bo'lgan. U mamlakatning markazi bo'lib, ko'p shaharlar ichida, baland va mustahkam mudofaa devorlari bilan ajralib turgan, unda podsho qal'asi alohida joylashgan».

Hatto XX asrning o'rtalariga qadar qadimshunoslar Ktesiyning Baqtriyada qudratli qal'alar va shaharlari haqidagi hikoyalarga nisbatan ishonchsizlik bilan qarashgan. Biroq keyingi arxeologik kashfiyotlari natijasida Baqtriya hududida ko'p sonli istehkomlar, mudofaa devorlar va burjlar bilan mustahkamlangan mil. avv. VII–VI asrlarga oid ko'hna shaharlar aniqlandi.

Gekatey va Gerodot asarlaridan kelib chiqqan «Katta Xorazm» davlati masalasi, shuningdek, Ktesiyning Baqtriya podsholigi haqidagi ma'lumotlari O'rta Osiyoda ilk davlatlarning paydo bo'lishi ilmiy muammosiga asos bo'lib xizmat qildi.

Qadimgi yunon tarixchilaridan yana boshqa biri – Gekatey haqida qisqa bo'lsa ham aytib o'tish lozim. Gekatey Milet shahridan bo'lib (mil. avv. VI–V asrlar) qadim tarixchilar orasida birinchi bo'lib ahamoniylar satrapliklarining ro'yxatini keltirgan va Qadimgi Sharq xalqlari tarixiga oid ma'lumot bergan (jumladan, parfiyaliklar, xorasmiylar, baqtriyaliklar va ariyaliklar haqida ham yozgan). Uning ma'lumotlaridan Gerodot va Ktesiylar foydalanishgan (Ktesiy o'z asarida ahamoniylarning podsho saroyi hujjatlaridan foydalanganligi haqida e'lon qiladi). Gerodotdan oldin Hindiston haqida Skilak xabar qilgan. U podsho Doro I ning buyrug'ini bajarib, Hind daryosi orqali kemalarda suzib, Arabiston dengiziga chiqqan va Qizil dengiz bo'ylab Misr qirg'oqlariga eson-omon yetib borgan.

Boshqa bir yunon muallifi Ksenofont «Kiropediya» nomli asarida, Ktesiy xabarlariga o'xshash, Baqtra shahrining ossuriyaliklar tomonidan qamal qilinishi to'g'risida ma'lumot beradi. Shuningdek, Ksenofont Kir II va Baqtriya urushlari haqida ham yozadi.

## 6.2. Tarixiy-madaniy viloyatlar va qadimgi davlatlar

Mil. avv. II mingyillikning birinchi yarmida O'zbekiston hududlarida Farg'ona, Choch, Sug'd (Sug'diyona), Xorazm va Baqtriya (shimoliy qismi) kabi tarixiy viloyatlar mavjud bo'lgan. Ularning taraqqiyoti O'zbekiston davlatchiligi tarixi bilan bevosita bog'langan.

### 6.2.1. Qadimgi Baqtriya

Turli ilk yozma manbalardagi Baxdi, Baqtrish, Baqtriyona, Baqtriya, Baxlika (hind manbalarida) yirik o'lka va davlatning nomidir. Baqtriya – bu Bahdi, Baqtra daryosi (hozirgi Balxob) nomi bilan bog'liq bo'lgan tushunchadir. Rim tarixchisi Kursiy Ruf shunday xabar qiladi: «Baqtra daryosi nomidan shahar va viloyatning nomi kelib chiqqan».

Dastlabki bosqichda bu so'z yagona vohaning nomi bo'lib, keyingi davrlarda keng hududga tegishli Baqtriya viloyati, Baqtriya davlati (bir necha daryo vohalari va viloyatlari) ma'nosida ishlatilgan. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, qadimgi viloyatlar va mamlakatlarning nomlari odatda daryo, qabila, xalq va markaziy shaharlar nomlaridan kelib chiqqan. O'rta Osiyo xalqlarining tarixida daryolar muhim hayot manbai vazifasini bajargan. Hozir ham O'zbekistonning viloyatlari, asosan, daryo va shaharlar nomlari bilan belgilangan. Demak, Baqtra va Baqtriya atamaları – bu geografik tushunchalardir.

«Baqtriyaliklar», «Baqtriya xalqi» atamaları qadimgi manbalarda tilga olinib, yagona xalqni yoki bir necha qarindosh qabilalarni birlashtirgan tushunchani anglatadi. Odatda baqtriyaliklar yunon yozma manbalarida bosqinchilarga (Ossuriya podshosi Nin, Kir II, Make-doniyalik Aleksandrga) qarshi turgan xalq sifatida nazarda tutilgan.



Baqtriya yerlari Afg'onistonning shimoli-sharqiy qismini, Janubiy Tojikiston, Surxondaryo vohasini o'z ichiga olgan. Baqtriya hududida eng qadimgi odamlar tosh davridan boshlab yoyilgan.

Bronza davrida Baqtriya hududida davlatchilik tizimi vujudga kelgan. Mazkur davrga oid saroy, ibodatxonalar kabi katta me'morchilik inshootlari topilgan hamda yuksak binokorlik, hunarmandchilik va zirotchilik madaniyati izlari aniqlanganligi bizga ma'lum.

Mil. avv. IX–VIII asrlarga kelib, Baqtriya tuprog'ida harbiy ahamiyatga ega siyosiy birlashma tashkil topgan. Bu O'rta Osiyo aholisining bir qismi ko'chmanchi chorvachilik bilan mashg'ul bo'lgan davrga to'g'ri keladi. Siyosiy qarama-qarshiliklar avj olib turgan bu jarayonlarda qurollangan suvoriylar, jangchilarning mavqeyi baland bo'lgan. Bu bosqichning tarixi va harbiy yo'l boshchilarning siyosiy kurashlari «Avesto»da tasvirlangan.

Mil. avv. 700–540-yillar qadimgi Baqtriya davlatining rivojlangan davri bo'lib, uning hududiy chegaralari: Hindukush tizmasi, Badaxshon va Hisor tizmasiga borib taqalgan (daryo vohalari – Balxob, Qunduz, Panj, Vaxsh, Kofirnihon, Surxon).

Baqtriya davlati O'rta Osiyoda rivojlangan dastlabki davlatlar ichida eng yirigi bo'lgan. Yozma manbalarning dalolat berishicha, Marg'iyona qadimgi Baqtriya davlatining tarkibiga kirgan. Bundan yozma manbalar dalolat beradi. Podsho Doro I ning Marg'iyonadagi qo'zg'olonni tor-mor qilishi haqida Behistun yozuvlaridagi quyidagi xulosa mavjud: «Mana nimalarni men Baqtriyada qildim». Doro III davrida Baqtriya va Sug'diyona birlashtirilgan ma'muriy-hududiy o'lka bo'lib, unda Bess ismli satrap hokimlik qilgan. Marg'iyona va Baqtriya aholisining urf-odatlari hamda madaniyati umumiy ildizlar va an'analarga ega bo'lib, rivoj topgan.

Videvdat kitobida Baqtriya «eng yaxshi mamlakatlar va o'lkalardan biri baland bayroqli, «go'zal o'lka» sifatida yoritilgan. Yunon manbalarida Baqtriya – «ming shaharlar davlati» deb atalgan. Bu tarixiy an'analarga nima sabab bo'lgan? Ahamoniylar davlatida Baqtriya eng qudratli o'lkalardan biri hisoblanganligi sababmi yoki uning

tabiiy boyliklarimi, jasur jangovar otliq va piyoda qo'shinlari, yirik shaharlari va qadimgi zamonlarga oid tarixidir. Balki shu sabablarning birgalikda hammasi va shubhasiz, juda qadimgi zamonlarga oid Baqtriya xalqining tarixiy an'analari.

Gerodotdan avval «Baqtriya xalqi» tushunchasini Esxil «Forslar» degan fojiasida ishlatgan (sahnada mil. avv. 472-yilda ijro etilgan). «Forslar» fojiasida yosh baqtriyalik jangchilardan Tenagon va Aritom kabi ismlar tilga olingan. Ular Salamin jangida halok bo'lib (mil. avv. 480-yil), shu orolda dafn qilingan. «Baqtriya xalqi halok bo'ldi», deb Esxil o'z asarida xulosa qilgan. Qadimgi fors yozuvlarida Baqtriya va baqtriyaliklar mil. avv. 522-yildan so'ng tilga olinadi. Baqtriya haqida turli xabarlar O'rta Sharqda keng ma'lum edi. Gerodotning aytishicha, Misr va Bobil bilan bir qatorda Baqtriya Kir II ning harbiy yurishlariga to'siq bo'lib turgan.

Shubhasiz, bu Baqtriyaning muhim harbiy va iqtisodiy ahamiyatidan dalolat beradi (aholi, qudratli shaharlar va qal'alarining ko'p sonliligi, xomashyoga boyligi, muhim markaziy savdo yo'llarining chorrahasi, hunarmandchilikning rivojlanishi, piyoda va otliq qo'shinlarning yurti va boshqalar). Bundan tashqari, Baqtriya Ahamoniylar davlatining uzoq Sharqiy chegaralarida joylashgan podsho taxtini egallash maqsadini o'z oldiga qo'ygan ahamoniylar sulolasi vakillari uchun norasmiy surgun joyi ham bo'lgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas (ahamoniylar saroyidan chetlashtirish va podsho taxtidan uzoqlashtirish jarayonida). Ma'lumki, Smerdis-Bardiya qadimgi fors podshosi Kambizning buyrug'iga binoan o'ldirilgan, Masist o'z akasi podsho Kserks bilan taxt uchun kurashib halok bo'lgan. Baqtriya qudratiga tayanib, Artabon fors shohi Artakserksga qarshi chiqqan, mil. avv. 330-yilda Baqtriya satrapi Bess Doro III ni o'ldirib, o'zini «Osiyoning ulug' podshosi» Artakserks IV deb e'lon qilgan. Bess makedoniyalik Aleksandrqa qarshi kurashni muvaffaqiyatli davom ettirish maqsadida Baqtriya va Sug'diyonaning harbiy qudratiga tayangan.

Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, qadimgi Baqtriyaning bir qismi bo'lgan Afg'onistonning shimoli-sharqida (Qunduz, Ko'kcha daryola-



rining vohalari) Aryonam Vayjo mamlakati joylashgan bo'lishi mumkin edi. U «Avesto»da Aryoshayyona (Aryoshayona) nomi bilan ham mashhurdir. Tadqiqotchilarning yozishicha, Aryoshayyona Kavi Vishtasp podsholigi bo'lib, Drangiana, Sattagadiya, Ariya, Marg'iyona va Amudaryo o'rta oqimidagi viloyatlarni birlashtirgan. Olimlar Kavi Vishtasp podsholigini Marv va Hirot atrofida joylashgan «Katta Xorazm» davlati deb hisoblashgan (V.B. Xenning va I.Gershevich).

Boshqa tadqiqotchilar Zaratushtra ta'limotining birinchi tarafdori – Kavi Vishtasp davlatini Baqtriya hududiga joylashtirib, Baqtriya tuprog'ida davlatning vujudga kelishi jarayoni juda qadimgi davrlarga oid, degan fikrni ilgari surishadi.

Arxeologik manbalar qadimgi Baqtriyada dastlabki shaharlarning vujudga kelishi va rivojlanish jarayonini aniqlash imkonini beradi. Ular bronza davrida (Dashtli, Jarqo`ton) paydo bo'lgan. Baqtriyaning shahar markazlari (ular asosan ayrim viloyatlarda harbiy-ma'muriy hunarmandchilik va savdo-sotiq ahamiyatga ega bo'lgan) asrlar davomida xarobalarga aylanib, yer ostida qolib ketgan. Ahamoniylar davridan avval vujudga kelgan. Shunday markazlardan Bolo Hisor (Baqtra), Oltindilyor, Qiziltepa va Boytudasht yodgorliklarida arxeologik tadqiqotlar o'tkazilgan.


Bu shaharlar keng maydonlarda joylashib, mustahkam mudofaa devorlari bilan o'ralgan. Yodgorliklarda xom g'isht va paxsadan qurilgan uy-joylar qazib ochilgan. Qurilish va hunarmandchilik ancha rivoj topgan. Shaharlarning bir qismida hukmdorlar qarorgohlari qal'a-qo'rg'onlar joylashgan.

Baqtriya Amudaryo havzasida ayrim daryo vohalarida joylashgan beshta viloyatni birlashtirgan. Surxon, Balxob, Kofirixon-Vaxsh, Panj, Ko'kcha-Qunduz vohalari shular jumlasidandir. Surxon vohasining markazi Qiziltepa bo'lgan, Shimoliy Afg'onistondagi Bolo Hisor o'rnida qadimgi Baqtra joylashgan. Bu shahar Gerodot va Ktesiyning ta'kidlashicha, Baqtriyaning markazi edi.

Ktesiyning «Persika» asarida Baqtriyaning juda ko'p harbiy istehkomlari va qal'alari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Hozirgi

kunda Baqtriya tuprog'idan mil. avv. I mingyillikning birinchi yarmiga oid 240 dan ortiq uy-qo'rg'onlar, qal'alar va shaharlar xarobalari topib tekshirilgan. Jumladan, Surxon vohasida joylashgan Kuchuktepa, Talashqon, Jondavlat, Bandixon va Qizilcha yodgorliklarini aytib o'tish lozim. Ular devorlar va mudofaa burjlar bilan mustahkamlangan qal'alar yoki to'rtburchak shaklida qurilgan uy-qo'rg'onlardir. Qadimgi aholi sug'orma dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan. Yodgorliklarda sopol idishlar, bronzadan va temirdan yasalgan pichoqlar, o'roqlar, bronza idish parchalari hamda o'q uchlari, jez igna va bigizlar, sopol urchuqlar, toshdan ishlangan qurollar topilgan.

Qurilish, hunarmandchilik – temirchilik, kulolchilik, to'qimachilik, zargarlik, chirmgarlik va sug'orma dehqonchilikning rivojlanishi Baqtriyada qadimiy madaniyatning yuksak darajadagi taraqqiyotini ko'rsatadi.



Talashqon qal'asi Qiziltepa.



Mudofaa burji

### 6.2.2. So'g'd (Sug'diyona)

Turli manbalardagi Sug'da, Sug'uda, Sug'diyona nomlarining kelib chiqishi va ularning ma'nosi hozircha noma'lum. «Avesto»ning Yasht kitobida tilga olingan «Sug'd makoni Gava» – Sug'diyonaning eng qadimgi viloyati bo'lishi mumkin. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra,



Gava (*Gau* – «buqa», «poda»), Qashqadaryo vohasi bilan bogʻlanadi. Bu atama mazkur viloyatning juda koʻp geografik nomlarida takrorlanib saqlangan (Gavdara, Gavxona, togʻlar Gau, choʻqqi Gau va boshqalar). Ehtimol, «Gava Sugʻda» atamasida «qudratli Sugʻd» tushunchasi oʻz aksini topgan.

Qashqadaryoda qadimgi aholi dehqonchilik va chorvachilik bilan shugʻullangan manzilgohlar va uy-qoʻrgʻonlarning qoldiqlari mil. avv. X–VIII asrlar bilan belgilanadi. Shular jumlasidan Sangirtepa, Yangitepa, Chiroqchitepa, Yerqoʻrgʻondir. Mazkur davrga oid Yasht maʼlumotlari Gava Sugʻda haqida eʼlon qiladi.

Ilk yunon tarixchilari Sugʻdiyoni Baqtriya yoki sak-massagetlarga nisbatan kamroq tilga olishan. Makedoniyalik Aleksandr yurishlaridan soʻng Sugʻdiyona haqida tarixiy-geografik maʼlumotlar ancha toʻliq boʻlib, kengayib boradi.

Sugʻdiyona – Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida joylashib, janubi-sharqda Baqtriya va shimoli-gʻarbda Xorazm bilan chegaradosh boʻlgan. Qadimgi zamonlarda Sugʻdiyona muhim savdo yoʻllarining chorrahasida joylashgan. Sugʻdiyona haqida «Avesto», Gerodot va ahamoniylar davri yozuvlari xabar qiladi.

Sugʻdiyoning markazi yunon tili shaklida Maroqanda shahri (VII–VIII asrlarga oid sugʻd tili yozuvlarida Smarokansa – «uchrashuv, anjumanlar joyi» deb tarjima qilinadi). Maroqanda – bu hozirgi Afrosiyob koʻhna shahar xarobalaridir. Ahamoniylar davrida uning maydoni 219 gektardan iborat boʻlib, shahar mudofaa devorlari bilan oʻralgan edi. Yunon tarixchilarining maʼlumotlariga koʻra, Maroqandaning mudofaa devori va ichki qalʼasi boʻlgan.

Sugʻdiyoning boshqa shahar markazlari – Qarshi vohasida Yerqoʻrgʻon, Qashqadaryoning sharqiy qismidagi Uzunqir (maydoni 70 ga) va Samarqanddan 30 km shimolda joylashgan Koʻktepa (maydoni 100 ga) yodgorliklaridir. Bu yodgorliklarda oʻtkazilgan arxeologiya tadqiqotlar qadimgi Sugʻdiyona aholisining xoʻjaligi va madaniyatini chuqurroq oʻrganish imkonini berdi.

Topilgan arxeologik manbalar Sugʻdiyona va Baqtriyaning binokorligi, moddiy madaniyatining bir-biriga ancha oʻxshash va yaqin ekanligidan dalolat beradi. Soʻnggi ahamoniylar davrida Baqtriya va Sugʻd bir maʼmuriy oʻlka – satraplik tarkibida birlashgan. Ahamoniylar yozuvlari Sugʻdiyonadan Persepol saroyiga lojuvard olib borilganligidan xabar beradi, ammo lojuvard konlari faqat Baqtriyaning Badaxshon togʻlarida mavjudligi maʼlum.

Sugʻdiyona hududiga odamlar qadimgi tosh asridayoq kirib kelib, undan keyingi davrlarda togʻ, daryo vohalari boʻylab keng tarqala boshlashgan. Qulay tabiiy-geografik sharoitda ibtidoiy xoʻjaliklar va moddiy madaniyat rivojlangan. Tosh davrga oid Omonqoʻton, Qoʻtirbuloq, Zirabuloq va Samarqand makonlari topib tekshirilgan.

Mil. avv. V–IV mingyilliklarga kelib Zarafshon quyi oqimida Kaltaminor madaniyati shaklidagi tosh qurollar va sopol idishlar tarqaladi. Bronza davrida Quyi Zarafshon irmoqlari hosil qilgan zax yerlarda dehqonchilik rivojlangan.

Eneolit va bronza davrida yashash hududlari tobora kengayib borishi, tabiiy boyliklar, yangi konlar va yerlar qadimgi qabilalar tomonidan oʻzlashtirib turganidan Zarafshonning yuqori oqimida joylashgan Sarazm yodgorligi dalolat beradi.

Chorvador qabilalarga mansub Samarqand yaqinidagi Moʻminobod, Zarafshon togʻlari yonbagʻridagi Jom yodgorliklari topib tekshirildi.

Mil. avv. VII asrga kelib, Sugʻd ziroatchi aholi Sharqiy Qashqadaryo, Quyi Qashqadaryo, Oʻrta va Quyi Zarafshon vohalarida joylashgan. Sugʻdiyona hududi Nurota va Hisor tizmalari hamda gʻarbda dashtlar bilan chegaralangan. Oʻtroq viloyatlar markazlari Uzunqir, Yerqoʻrgʻon va Koʻktepa oʻrnida joylashgan. Mil. avv. VII–VI asrlarda Sugʻd hududida davlatchilik tizimi rivojlangan.

Videvdat kitobida Gava Sugʻda «eng yaxshi mamlakatlar va oʻlkalardan boʻlgan» ikkinchi yurt sifatida koʻrsatilgan. Yasht roʻyxatida Baqtriya tilga olinmagan, ammo Sugʻd Xorazmdan oldin va Margʻiyonadan keyin aytib oʻtilgan.



### 5.2.3. Qadimgi Xorazm

Xvarizam («Avesto» tilida), Xuarazmish (qadimgi fors tilida), Xorasmie (qadimgi yunon tilida) tushunchalari Quyi Amudaryo hududlaridagi Xorazm vohasiga tegishli bo'lgan.

Qadimgi Xorazm tarixi va yodgorliklari S.P. Tolstov rahbarligidagi arxeologik ekspeditsiyaning tadqiqotlari natijasida keng yoritilgan. Xorazmning sug'orish inshootlari va sug'orilishi tarixini o'rganishda taniqli arxeolog olim Ya.G'. G'ulomov katta hissa qo'shgan. Xorazm tuprog'ida turli xil ko'hna manzilgohlar va shahar xarobalari qazib ochildi. Hozir ham Qadimgi Xorazm tarixini o'rganish va uning arxeologik yodgorliklarini tadqiq qilish ishlariga katta e'tibor berilmoqda.

«Avesto»ning dastlabki ma'lumotlariga (Yasht madhiyalari) zamonadosh Xorazm yodgorliklari mil. avv. IX–VIII asrlarga oid Amir-obod madaniyati nomi bilan atalgan. Bu davr yodgorliklari mahalliy bronza davri madaniyati xususiyatlarini saqlab, yarim yerto'la turarjoy, kichik sug'orish inshootlari va qo'lda yasalgan sopol idishlari bilan ajralib turgan. Bronza buyumlaridan o'roqlar, jez ignalar hamda o'q uchlar qo'yilgan tosh qoliplar topilgan.

Xorazmdagi shu davr aholisining asosiy tirikchilik manbai chorvachilik va dehqonchilik bo'lgan. Tabiiy sharoit Amudaryoning eski o'zani Oqchadaryo irmoqlaridan ariq qazib, suv chiqarishga imkon bergan tumanlarda sug'orma dehqonchilik rivojlangan.

Gekateyning parfiyaliklardan sharqda joylashgan xorasmiylar elati haqida ma'lumotlar va Gerodotning Akas daryosi suvlaridan foydalanuvchi xalqlarning yerlari haqidagi xabarlariga tayangan holda, xorasmiylarning siyosiy yetakchiligidagi «Katta Xorazm» birlashmasi to'g'risidagi ilmiy nazariya paydo bo'lgan. Bu davlatga Gerodot sanab o'tgan xalqlar – xorasmiylar, girkanlar, parfiyaliklar, saranglar va tamaneylar yerlari ham kirgan deb taxmin qilindi. Ba'zi tadqiqotchilarning ta'kidlashicha (V. Tarn, F. Altxaym), ahamoniy davridan avval xorasmiylar Parfiya chegaralaridan Sharqiy

yo'nalishda Kopetdog' yonbag'irlarida joylashgan. «Katta Xorazm» davlatining markazi Marv va Hirot atrofida bo'lib, bu davlatni qadimgi fors podshosi Kir II bo'ysundirgan, so'ng xorasmiylar Quyi Amudaryo – Xorazm vohasiga ko'chib borishgan, deb faraz qilindi (V.B. Xenning, I. Gershevich, I.V. Pyankov). E.V. Rtveldzening nazariyasiga ko'ra, Baqtriyaning shimoli-g'arbida joylashgan xorasmiylar qadimgi forslarning bosqini tahdidi tufayli Quyi Amudaryo yerlariga janubdan ko'chib kelishgan edi.

Boshqa olimlar mazkur nazariyalarga qarshi bo'lib, xorazmliklar O'rta Osiyo janubidan ko'chib kelishmagan va Xorazm davlati Quyi Amudaryoda qadimgi zamonlardayoq vujudga kelgan, degan fikrni ilgari surishgan (S.P. Tolstov, M.G. Vorobyova). Bu davlatning chegaralari hozirgi Xorazm vohasi hududidan ancha keng bo'lib, O'rta Amudaryo vohasidan boshlab Orol dengizigacha bo'lgan yerlarni o'z ichiga olgan.

Bu hududda mil. avv. VI–V asrlarga oid 310 ta uy-qo'rg'onlar, shahar xarobalari ma'lumdir. Shular jumlasidan eng yirigi Ko'zaliqir mustahkam mudofaa devorlari bilan o'ralgan. Ko'zaliqir mudofaa devorlarining tuzilishi bilan Baqtriyadagi Qiziltepa, Bandixon 2, Talashkan-tepa kabi istehkomlar devorlarining tuzilishida ancha o'xshashliklar aniqlandi. Baqtriya va Xorazm shahar markazlari mudofaa devorlarining o'rtasida jangchilar yurishi uchun maxsus yo'lak bo'lgan hamda o'q otish uchun mudofaa burji qurilgan. Devorlarda har 2 metrda shinaklar qoldirilgan. Shuningdek, Ko'zaliqirda saroy ko'rinishidagi yirik inshoot hamda olovga sig'inish bilan bog'liq otashkada topilgan.

Ko'zaliqir madaniyatidan avval Xorazm vohasida mil. avv. IX–VIII asrlarga oid paxsa yoki xom g'ishtdan qurilgan uy-joylar, mudofaa devorlari va turli me'morchilik inshootlar aniqlanmagan. Turarjoylar kulba va chaylalarga o'xshash yarim yerto'lalardan iborat, sopol idishlar esa qo'lda yasalgan va kulolchilik charxi bu davr mahalliy hunarmandchiligida noma'lum bo'lgan.

Xorazm moddiy madaniyati hamda binokorligidagi tub o'zgarishlar va vohada oldingi davrlarda noma'lum madaniy an'analarning paydo bo'lishi mil. avv. VII–VI asrlar chegarasi bilan belgilanadi.



Mazkur davrga oid Xorazmda xom g'isht va paxsadan qurilgan uy-joylarning qoldiqlari qazib ochilgan. Qurilish va hunarmandchilik ancha rivoj topgan (Ko'zaliqir, Xumbuztepa, Hazorasp). Voha kulolchiligida charxdan foydalanish boshlanadi, temirdan mehnat hamda harbiy qurollari ishlab chiqariladi, saroy shaklidagi inshootlar, sajdagohlar va otashkadalar paydo bo'ladi.

Bu davr Xorazm vohasi sopol idishlari Marg'iyona, Baqtriya va Sug'diyona kulolchilik buyumlariga o'xshab, ulardan deyarli farq qilmaydi. Sopol idishlar va boshqa moddiy manbalar asosiy xususiyati bilan umumiy madaniyatga mansubdir. Bundan binokorlik usullari, uy-joylarning tuzilishi va mudofaa tizimi ham dalolat beradi. Ilk temir davrda O'rta Osiyo janubiy viloyatlarida juda qadimgi zamonlardayoq rivojlangan madaniy an'analar Xorazm vohasi aholisining moddiy madaniyatiga ham tatbiq qilinadi.

O'rta Osiyo janubiy viloyatlarini madaniy umumiylik, ziroatchi aholining qo'shni-qarindoshligi, yaqin urf-odatlar, tili, diniy qarashlari va madaniy aloqalari birlashtirgan. Shuningdek, Marg'iyona-Baqtriya aholi guruhlarning (binokorlar, hunarmandlar, ziroatchilar) Xorazm chegaralarida va aynan voha hududiga yoyilishi, ehtimoldan xoli emas. Ziroatchi aholisining migratsiyalari fors podshosi Kir II ning yurishlaridan ancha oldingi davrlarda boshlangan. Migratsiyalar tufayli janubiy viloyatlar jamoalarining vakillari va Xorazm mahalliy aholisi qo'shilib qorishishi sababli yangi madaniy va etnik jarayonlarga zamin yaratilgan.

Boshqa nazariyaga ko'ra, (Y.A. Rapoport, O.A. Vishnevskaya) mil. avv. VII asrda xorazmlik saklarning janubiy viloyatlarga (Marg'iyona, Parfiya) yurishlari paytida, ular janubdagi shaharlarining mudofaa tizimi, sun'iy sug'orish inshootlari va moddiy madaniyati bilan tanishib chiqishi natijasida, bu sohalarda o'zlashtirilgan bilimlar va ko'nikmalar Quyi Amudaryo hududlaridagi hunarmandchilik va binokorlik sohasiga tatbiq etilgan. Shuningdek, mil. avv. VI asrdan boshlab, xususan shu saklar «xorasmiylar» degan shaxsiy etnonimga ega bo'lishgan, degan fikr ilgari surilgan.

Biroq o'zga yurtlarning madaniy yutuqlarini faqat tanishib chiqish va kuzatish usullari orqali murakkab me'morchilik va mudofaa inshootlarini Xorazmda yaratish uchun yetarlicha bo'lmagan. Bunday binokorlik ishlarni hamda hunarmandchilik sohasini rivojlantirish maqsadi muayyan bilimlar hamda amaliy tajribani talab etardi.

Xorazm vohasida Quyi Osiyo madaniyatiga oid mahalliy chorvadorlar hamda Sakarchaga mo'ror qo'rg'onlaridan arxeologik topilmalarga ko'ra, Quyi Sirdaryodan ko'chib kelgan ilk saklar istiqomat qilishgan (mil. avv. VII asr). Bu davrda vohada chorvachilik xo'jaligi ustuvor bo'lgan. Xususan, «xorazmliklar» – saklar va kelgindi baqtriyaliklar etnomadaniy an'analarning qorishishi natijasida Xorazm vohasida Ko'zaliqir madaniyati hamda xorasmiylar elati vujudga kelishi ehtimoldan xoli emas. Shunday qilib, Ko'zaliqir madaniyati Marg'iyona-Baqtriyada avval yuqori darajada rivoj topgan va janubdan migratsiyalar natijasida Xorazmda yoyilgan sivilizatsiya ta'sirining mahsulidir.

Misol tariqasida, mil. avv. X–VIII asrlarda Janubiy Sug'd – Qashqadaryo vohasida kulolchilik charxda ishlangan sopol idishlarining paydo bo'lishi, qurilishda xom g'isht va paxsaning ishlatilishi, uy-qo'rg'onlar va ayrim qal'alarning bino qilinishi Baqtriyaning Sug'diyonaga madaniy ta'sirini va baqtriyaliklar tomonidan ba'zi mahalliy vohalarning o'zlashtirishini tasdiqlaydi.

Bugungi kunga kelib, «Katta Xorazm» birlashmasi haqidagi nazariya olimlar tomonidan rad etildi. Xorazm vohasida ilk davlatchilik alohida voha-tumanlarda mil. avv. VII–VI asr chegarasida vujudga kelgan, degan fikr ilgari surildi.

Alohida voha-tumanlardan iborat, markazlari Ko'zaliqir va Hazorasp kabi qal'alar bo'lgan qadimgi Xorazmda ilk davlatchilik mil. avv. VI asrning boshlariga kelib Amudaryoning so'l sohili yerlarida vujudga kelgan, degan xulosa arxeologiya ma'lumotlari asosida tasdiqlandi. «Katta Xorazm» davlatining markazi Hirot va Marv atrofida joylashmagan, chunki yozma manbalarga ko'ra, Marg'iyona qadimgi Baqtriya davlatining tarkibiy qismi bo'lib, uning yirik viloyatini



tashkil etgan. Hirot vohasi esa qadimdan Ariya (Areya) viloyati va ariyaliklar elati markazi edi. Shu bois «Katta Xorazm» nazariyasidan voz kechish maqsadga muvofiqdir.

Baqtriya va Xorazmning hududiy chegaralari O'rta Amudaryo oqimidagi yerlar orqali o'tgan. Shu zaminda bir-biriga yaqin holatda ikkita qadimgi istehkom – Odoytepa va Qushqala qurilgan. Xorazmliklar egalik qilgan yerlar Sug'diyona, Marg'iyona va Baqtriyaga tegishli o'lkalarga borib taqalgan. Balki shuning uchun ham Gekatey xorasmiylar – xorazmliklar viloyatini parfiyaliklardan sharqiy tomonda joylashtirgan. Gerodot esa o'z asarida parfiyaliklar va xorasmiylarning yerlari chegaradosh bo'lgan, deb yoritgan.

Qadimgi Xorazmda davlatchilik tizimining vujudga kelishi etnik migratsiyalari va ijtimoiy-iqtisodiy voqealar bilan bog'liq bo'lib, «xorasmiylar» elatining paydo bo'lishi ahamoniylar davridan oldingi davrlarda boshlangan. Bunda mintaqadagi sivilizatsiyaning birlamchi markazlarining madaniy ta'siri va aholi migratsiyalari katta ahamiyatga ega bo'lgan.

#### 6.2.4. Sak-massagetlar

Saklar O'rta Osiyo va Qozog'istonning tog'lari va dashtlarida yashagan ko'chmanchi chorvador qabilalardir. Mil. avv. VII–VI asrlarda ularga qarindosh chorvador qabilalar Qora dengizning shimoliy sohillaridan Xitoy chegaralarigacha bo'lgan Yevroosiyoning keng hududlarida joylashgan.

Qadimgi fors yozuvlari ko'chmanchilarni «shak» deb yoritadi, yunon mualliflari esa ularni «skiflar», «sarmatlar», «saklar», «massagetlar», «daxlar» deb atashgan. Saklarning nomlari Erondagi Sakaston, Seiston viloyati tushunchasida saqlangan.

Ahamoniylar yozuvlarida saklar quyidagi guruhlariga bo'linishgan: saka tigraxauda («*tigra*» – «o'tkir», «*xauda*» – «bosh kiyim»), saka xaumavarka – «xaomani ulug'lagan saklar» (xaoma – «muqaddas ichimlik»), «sug'dlarning narigi yog'idagi (ortidagi) saklar» – saka-

tiay-para sug'dam va saka-tiay-darayyo – «daryo, dengiz ortidagi saklar». Suza shahrida topilgan Doro I ning haykalidagi yozuvlarda «balchiq va tuproq o'lkasi saklari» tilga olingan. Gerodot «amirgiy» saklar haqida xabar beradi.

Olimlar fikriga ko'ra, «sak» so'zi – bu «qudratli, idrokli, epchil bo'lish», yoki «kuchli, azamat, mard» deb tarjima qilinadi. Behistun yozuvlarida ko'chmanchilarning yurti umumiy yagona bir so'z bilan «shak» deb ko'rsatilgan.

Saklarning yashagan hududlari va joylashuvi chegaralari haqida juda ko'p ilmiy adabiyotlar mavjud (V.V. Struve, S.P. Tolstov, A.N. Bernshtam, B.A. Litvinskiy va boshq.). Saklarning yodgorliklari – qadimgi qabristonlar va mozor-qo'rg'onlar juda keng hududda topib tekshirilgan (Kaspiybo'yi, Orol dengizi atrofidan Balxash ko'ligacha, Pomir va Tangritog' o'lkalarida, Quyi Zarafshon, Quyi Amudaryo va Sirdaryo yerlarida). Saklar xo'jaligida chorvachilik katta ahamiyatga ega bo'lgan. Bu qabilalar qoramol, mayda chorva hamda otni ko'plab urchitgan. Saklarning yodgorliklarida bronza va temirdan ishlangan harbiy qurollar, zeb-ziynat buyumlari, mehnat qurollari va sopol idishlar uchraydi.

Gerodot saklar-massagetlarning yarog'-aslaha va ot-anjomlari haqida aniq ma'lumotlarni keltirgan. Ko'chmanchilarning mozor-qo'rg'onlarida shu qurollar jumlasidan jangovar boltalar, xanjarlar va bronza o'qlari juda ko'p uchraydi. Saklarning o'qlari bargsimon, ikki yoki uch qirrali bo'lgan, xanjar dastasining boshi yoysimon qayirib qo'yilgan.

Sak-massagetlarni, Gerodotning aytishicha, «ba'zilar skif qabilasi deb hisoblashadi». Saklarning ot-anjomlari, o'qlari va xanjarlari skif yarog'-aslahalariga o'xshaydi. Bronzadan ishlangan san'at buyumlarida ham yaqin xususiyatlar va katta o'xshashliklar mavjud. Ko'chmanchilarni madaniy, iqtisodiy va siyosiy aloqalar bir-birlari bilan bog'lab turgan.

Gerodotning fikriga ko'ra, massagetlar va skiflarning turmush tarzi ham bir-biriga o'xshaydi yoki «ular otliq va piyoda jang qilisha-



di». Ko'chmanchilarning madaniy an'analari va urf-odatlarini ularning xo'jaligi va yashash sharoitidan kelib chiqib, bir-biridan farq qilmagan.

Faqat bir joyda «tarixning otasi» Gerodot xatoga yo'l qo'ygan. Bu uning «Temir va kumushdan yasalgan buyumlar ularning ro'zg'orida ishlatilmaydi, chunki bu metall massagetlarning yerlarida umuman uchramaydi...» – degan so'zlaridir. Ko'chmanchilarning mozor-qo'rg'onlarida (Pomir, Quyi Sirdaryo, Quyi Amudaryo, Zarafshon vohasi) temirdan ishlangan xanjarlar va o'qlar topilgan.

Massagetlar bu aynan sak qabilalarining yirik harbiy-siyosiy uyushmasidir. Massaget so'zini ikki xil – «ulug' getlar» yoki «yirik sak o'rdasi» deb tarjima qilinadi. Oxirgi tushuncha «massaget» so'zi ma'nosiga ko'proq to'g'ri keladi.

Ma'lumki, «Avesto»da O'rta Osiyoning eng qadimgi chorvador va ko'chmanchi qabilalari «tura», «danu», «xyaona» nomlari bilan tilga olingan. Ular ko'chmanchilar orasida harbiy-siyosiy qabila uyushmalari vujudga kelgan davrlarda yashashgan. Dastlabki ko'chmanchilarning tarixini o'rganishda Quyi Sirdaryodagi mil. avv. IX–VII asrlarga oid Shimoliy Tagisken maqbaralariga e'tibor berish lozim. Ular xom g'ishtdan bino qilingan, to'rtburchak va halqasimon maqbaralardir. Tagisken qabrlarida ko'chmanchilarning sardorlari va jamoa oqsoqollari dafn etilgan. Ayrim maqbaralarda juda ko'p qimmatli buyumlar bo'lgan.

Shu davr «Avesto»da tilga olingan bahodirlar va podsholarning sa'y-harakatlari, harbiy yurishlari davriga to'g'ri keladi (Kavi Xisrav va Frangrasyon – Afrosiyob o'rtasidagi Chaychast ko'li yonida jang, Kavi Vishtaspning g'olibona jangida «xyaona yovuzi, serjahl» Ash-tarvant, «soxta» Arjatasp, «devlarni qadrlagan» Darshin ustidan g'olib chiqishi, bahodirlar Visturash, Kersasp va boshqalarning o'z dushmanlariga qarshi kurashlari).

Demak, bronza davridan boshlab Yevroosiyoning keng hududlarida chorvador qabilalar tarqaladi. Ilk temir davrida ular O'rta Osiyoning o'troq xo'jaliklariga ega viloyatlari (Farg'ona, Sug'd,

Xorazm, Baqtriya, Marg'iyona va Parfiya) chegaralarida ham joylashishadi. Saklarning mozor-qo'rg'onlari Baqtriya yerlariga yaqin bo'lgan Pomir tog'larida, Sug'diyona chegaralarida – Quyi Amudaryo so'l sohillarida, Quyi Sirdaryo va boshqa joylarda topib tekshirilgan.

Keyingi davrlarda sak-massagetlarning yurtlariga boshqa ko'chmanchilar kelib o'rtnashishgan. Mil. avv. II mingyillikdan boshlab o'rta asrlarga qadar chorvador ko'chmanchi qabilalar dehqonchilik vohalari chegaralarida va qishloq-shahar atroflarida joylashib, yangi etnik, madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlarga asos solishgan. Chorvador qabilalarning va dehqonchilik bilan shug'ullangan aholining tarixi uzviy bog'langan holda, O'rta Osiyo xalqlarining tarixi va madaniyati yangi asoslarda rivojlanib borgan.

#### 6.2.5. Choch va Farg'ona

Farg'ona va Choch ahamoniylar yozuvlarida hamda dastlabki yunon tarixchilarining asarlarida tilga olinmagan. O'rta Osiyodagi Ahamoniylar davlatining Sharqiy chegaralari hozirgi O'ratepa shahri atrofida o'tgan, deb faraz qilinadi. Makedoniyalik Aleksandr davrida ham Choch va Farg'ona vodiysining aholisi mustaqil qolgan.

Olimlar fikriga ko'ra, O'ratepa shahri atrofida joylashgan Nurtepa shahar xarobasi o'rnida mil. avv. VI–IV asrlarda Kurushkata nomli (yunoncha *Kiropolis*), ya'ni «Kir shahri» joylashgan. Bu shahar mudofaa devorlari bilan o'ralgan, ammo uning uy-joylari yerto'lalardan iboratdir. Sug'd hunarmandchiligi ta'sirida Nurtepada kulolchilik shaxida yasalgan sopol idishlar ham tarqalgan. Bu shahar qadimgi sug'dlar tomonidan bunyod etilganligi ehtimoldan xoli emas.

Toshkent viloyatida (Choch) ilk temir davrida Burg'ulik (Burganli) madaniyati rivojlangan. Qadimgi qabilalar asosan chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullangan. Mudofaa devorlari bilan o'ralgan yirik shaharlar aniqlanmagan, turarjoylar yarim yerto'lalardan iboratdir. Qadimgi manzilgohlardan qo'lda ishlangan sopol idishlar, bron-



za o'roqlar va tosh qurollar topilgan. Choch viloyati aholisining bir qismini ahamoniylar yozuvlarida tilga olingan «Sug'diyona ortidagi saklar» bilan qiyoslash mumkin.

Mil. avv. II mingyillikning o'rtalari – I mingyillikning boshlarida Farg'ona vodiysida Chust madaniyati rivojlanadi. Bu madaniyatni yaratgan aholi yerto'la, paxsa yoki xom g'ishtdan qurilgan uylarda yashashgan. Ba'zi maskanlar mudofaa devorlar bilan o'ralgan (Chust, Dalvarzin). Dalvarzinda qazib ochilgan devorning qalinligi 4,6 m keladi.

Chust moddiy madaniyati yuksak darajada rivojlangan. Qadimgi yodgorliklarda topilgan tosh va bronza o'roqlar, pichoqlar hamda arpa, bug'doy, tariq donlari va ular uchun kovlangan o'ralar chustliklarning asosan dehqonchilik bilan mashg'ul bo'lganliklaridan darak beradi.

Qadimgi aholining turmushida hunarmandchilik katta ahamiyat kasb etgan. Chustliklar yasagan bronza o'roq, kamon o'qlarining poykonlari, tosh o'roq, pichoq va rangli sopol idishlar Marg'iyona va Baqtriya buyumlariga ancha o'xshaydi. Dalvarzinda mil. avv. VIII–VII asrlarga oid temir qurollar ham topilgan. Bu ma'lumotlar Farg'onada temirdan ishlangan buyumlar tarqalganligidan dalolat beradi.

Arxeologik manbalar asosida Farg'onada mil. avv. VII–VI asrlarda mulkiy tabaqalanish jarayoni, hunarmandchilik, ayirboshlash va savdo aloqalarining keng tarqalishi natijasida urug'chilik jamoasi o'rnida dastlabki davlatchilik vujudga keladi, deb taxmin qilinadi.

Shu davrdagi Farg'ona aholisi hayotida katta ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar sodir bo'lgan. Biroq qadimgi yozma ma'lumotlar mavjud bo'lmaganligi tufayli vodiya dastlabki davlatlarga o'tish jarayoni bizga ancha noma'lum bo'lib kelmoqda.

Xulosa qilib, shuni ta'kidlash joizki, O'rta Osiyoda davlatchilik tarixi hududlar bo'ylab turli davrlarda boshlangan. Mazkur jarayonning asosiy sababi mintaqa miqyosda neolit davrda vujudga kelgan va eneolit bosqichida davom etgan qabilalar orasida madaniyatning

notekis rivojlanishi bo'lib, ayrim viloyatlar jamoalarning xo'jaligiga, binokorlik va hunarmandchilik sohalariga innovatsiya yangiliklarini hamda texnologik ixtirolarni sust sur'atda tatbiq qilinishi bilan belgilangan. Qadimgi Sharqning o'zga mintaqalari singari O'rta Osiyoda ham ilk shaharsozlik va davlatchilikning paydo bo'lishi xronologik jihatdan iqtisodning ilg'or shakli – ishlab chiqaruvchi xo'jaliklarning shakllanishi va taraqqiy etishi bilan bog'liq bo'lgan.

Shu boisdan, davlatchilik tizimi dastlab O'rta Osiyoning janubiy viloyatlarida vujudga kelgan va ilk temir davrida Xorazm vodiysi hamda Farg'ona vodiysida rivoj topgan. O'troq ziroatchilar va ko'chmanchi chorvadorlar jamiyatida davlatchilik turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda paydo bo'lgan. Ko'chmanchilar orasida ilk davlatchilik va boshqaruv tizimi «harbiy demokratiya» tamoyillariga asoslangan. Bu tizimda harbiy yo'l boshchilar, urug' va qabila boshliqlari hamda jangchilar katta obro'ga ega bo'lishgan.

O'rta Osiyoda yirik sun'iy sug'orish inshootlarning qurish ishlarida ko'p sonli qullar mehnatidan foydalanish, bunday ishlarni tashkillashtirish, nazorat qilish va amalga oshirish zaruriyati natijasida (Xorazm misolida) davlatchilik vujudga keladi, degan «irrigatsiya nazariyasi» yangi arxeologik ma'lumotlari asosida tasdiqlanmadi. Qadimgi Misr va Shumerda katta sug'orish inshootlari singari O'rta Osiyoda bronza davriga oid yirik kanallarning izlari topilmagan. Ilk temir davrida ham Baqtriya va Janubiy Sug'd hududlarida sug'orish ishlari uncha katta bo'lmagan kanallar va ariqlar yordamida amalga oshirilgan. Shuningdek, bu davrda yuqori mahsuldor chorvachilik, ya'ni qoramol boqish muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Sigir, mayda chorva, ot va tuyalar jamoalarning asosiy boyligiga aylangan. Tashqi bosqinlar xavfi vujudga kelgan paytlarda chorva alohida qal'alar ichida va mudofaa devorlar bilan o'ralgan markazlardagi Talashkan, Qiziltepa, Uzunqir maxsus panajoylarida saqlangan.

Shuningdek, asosiysi: O'rta Osiyoda ilk davlatchilikning shakllanish va rivojlanish jarayonini ijtimoiy tabaqalanish, qarama-qarshi sinflar va ekspluatatsiya (ezish) munosabatlar kabi sabablar bi-



lan bogʻlangan holda hal qiluvchi bosh omillar sifatida talqin qilish (sinfiy nazariya) maqsadga muvofiq emas, yaʼni davlat – bu oʻzaro nizolar va kurashlarga asoslangan sinfiy jamiyat mahsuli degan XX asrning tarix fanida ustuvor boʻlgan nazariya tarixiy haqiqatga javob bermaydi.

Davlat hududiy, madaniy, diniy qarashlar birligi, umumiy manfaatlarni amalga oshirish zaruriyati, muhim ijtimoiy-iqtisodiy sabablarga asoslangan holda vujudga kelgan. Shu tariqa Oʻrta Osiyo ilk davlatchilik tarixini yoritishda «sinfiy jamiyat», «quldorlik tuzumi» kabi atamalar qoʻllanilishidan voz kechish toʻgʻri boʻladi.

#### *Tayanch soʻzlar*

Fors bitiklari, Ahamoniylar sulolasi, Behistun, Naqshi Rostam, Persepol shahri, Gerodot, «Tarix» kitobi, Gekatey, Ktesiy, Ksenofont, «Kiropediya», Fargʻona, Choch, Sugʻdiyona, Xorazm, Baqtriya, Kurushkata, «ming shaharlar davlati», Misr, Bobil, baqtriyaliklar, Gava Sugʻda, Maroqanda, tarixiy-madaniy viloyatlar, davlatchilik tizimi, Xorazm madaniyati, «Katta Xorazm», madaniy birlik, saklar, massagetlar, koʻchmanchi chorvachilik, mozor-qoʻrgʻonlar, Tagisken maqbaralari, harbiy uyushma.

#### *Savol va topshiriqlar*

1. Qadimgi fors bitiklari qayerda topilgan?
2. Ahamoniylar davri bitiklariga taʼrif bering.
3. Behistun yozuvlarida nima haqida xabar qilinadi?
4. Persepol shahridagi boʻrtma rasmlarida qanday tasvirlar mavjud? Ularga tavsif bering.
5. Nima uchun yunon tarixchisi Gerodot «tarixning otasi» deb nom olgan?
6. Gerodotning «Tarix» kitobi haqida nimalarni bilasiz? Shu kitobdan Oʻrta Osiyo tarixiga tegishli hikoyalarni soʻzlab bering.
7. Oʻrta Osiyo tarixiy-madaniy viloyatlari va qadimgi davlatlari tarixiga oid referat yozing.

8. Mavzuga doir maʼlumotlarni oʻrganib qanday tarixiy bilimlarga ega boʻldingiz?
9. Tarixiy geografik joy nomlari boʻyicha qisqa glossariy tuzing.

#### *6-mavzu boʻyicha foydalangan adabiyotlar*

1. *Abdullayev Oʻ.M.* Oʻrta Osiyoda qadimgi boshqaruv va ilk davlatchilik tarixshunosligi. – Toshkent: «Akademiya», 2009.
2. *Vainberg B.I.* Этногеография Турана в древности. – М., 1999.
3. *Вишневская О.А., Рапопорт Ю.А.* Городище Кюзелигир. К вопросу о раннем этапе истории Хорезма // Вестник древней истории. – М., 1997. № 2.
4. *Воробьева М.Г.* Проблема «Большого Хорезма» и археология // Этногеография и археология Средней Азии. – М.: «Наука», 1979.
5. *Геродот.* История. В девяти книгах / Пер. Г.А. Стратановского. – М. – Л.: «Наука», 1972.
6. *Дандамаев М.А., Луконин В.Г.* Культура и экономика древнего Ирана. – М.: «Наука», 1980.
7. *Дьяконов И.М.* Восточный Иран до Кира // История иранского государства и культуры. – М.: «Наука», 1971.
8. *Исамидинов М.Х.* Истоки городской культуры Самаркандского Согда. – Ташкент, 2002.
9. *Пьянков И.В.* Средняя Азия в античной географической традиции. – М., 1997.
10. *Пьянков И.В.* Хорасмии Гекатея Милетского // Вестник древней истории. – М., 1972. № 2.
11. *Rtveladze E.V., Saidov A.X., Abdullayev Ye.V.* Qadimgi Oʻzbekistonivilizatsiyasi: davlatchilik va huquq tarixidan lavhalar. – Toshkent: «Adolat», 2001.
12. *Rtveladze Э.В.* Государственное объединение «Большой Хорезм» – миф, созданный учеными или историческая реальность // Хорезм в истории государственности Узбекистана. – Ташкент, 2013.
13. *Сагдуллаев А.С.* Маргиана и Бактрия. Исторические традиции и культурные связи в доантичную эпоху // Древний Мерв – Ашхабад, 1987.
14. *Sagdullayev A., Aminov B. va boshq.* Oʻzbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. – Toshkent: «Akademiya», 2000.



15. Samarqand. 2750 / Mas'ul muharrirlar: T. Shirinov, Sh. Pidayev, M. Qarshiboyev. – Toshkent: «O'zbekiston», 2007.

16. Хрестоматия по истории Древнего Востока. Ч. 2. – М.: Высшая школа, 1980 / Перевод древнеперсидских надписей по изданию: Кент Р. Олд Персиан. – Нью Хавен, 1950. Пер. В.И. Абаева.

17. Шайдуллаев Ш.Б. Северная Бактрия в эпоху раннего железного века. – Ташкент, 2000.

18. *Shahrisabz*. Mingyilliklar meros / Ilmiy muharrirlar: E. Rtveladze, A. Sagdullayev. – Toshkent: «Sharq», 2002.

19. Ягодин В.Н. Генезис и формирование раннехорезмийской государственности // История государственности Узбекистана. Т. 1 / Отв. ред. Э.В. Ртвеладзе, Д.А. Алимова. – Ташкент: «Узбекистан», 2009.

20. Havlik J. Newly excavated Early Iron Age kurgans in the Eastern Kugitang piedmonts // International scientific conference «Formation of historical-cultural areas in central asia and problems of ethnic geography». – Tashkent. 2018.

## 7-MAVZU

### MIL. AVV. VI ASR O'RTALARI – IV ASR TARIXI. O'RTA OSIYO AHAMONIYLAR DAVLATI TARKIBIDA

#### Reja:

7.1. Siyosiy tarix.

7.2. Iqtisod va ijtimoiy tuzum.

7.3. Din.

#### 7.1. Siyosiy tarix

Mil. avv. VI asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyo Parfiya, Marg'liyona, Baqtriya, Sug'd va Xorazm viloyatlari hamda saklar yurti Ahamoniylar davlati hukmronligi ostiga tushib qolgan.

Mil. avv. VI asrda hozirgi Eron janubida Ahamoniy sulolasiga mansub shohlar «Parsua» (Fors) viloyatida qadimgi fors podsholigiga asos solishadi. Mil. avv. 558-yilda podsho Kir II (forscha *Kurush* – «podachi» deb tarjima qilinadi) Midiya davlati podshosi Astiagga qarshi urush boshlagan. Bu kurashda Astiag yengilgan.

Kir II Qadimgi Sharqdagi barcha mamlakatlar ustidan hokimiyatini o'rnatishni rejalashtirgan. Tarixan qisqa muddat ichida, mil. avv. 547–546-yillar davomida Kir II Kichik Osiyo davlatlarini istilo qildi. Gerodotning xabarlariga ko'ra, Kir II ning harbiy yurishlariga «Bobil, Baqtriya xalqi, saklar va misrliklar to'siq bo'lib turishgan».

Kichik va Old Osiyoda o'z hokimiyatini o'rnatish uchun iqtisodiy boyliklar va harbiy kuchlar zarur bo'lgan. Qurol kuchi bilan yangi mamlakatlarni va turli xalqlarni bo'ysundirish Kirning asosiy maqsadiga aylangan.

Kir II O'rta Osiyoni qay tarzda bosib olganligi haqida yozma manbalarda aniq ma'lumotlar saqlanmagan. Ayrim qisqa ma'lumotlar



Ktesiyning «Persika» asarida mavjud. Qadimgi yunon tarixchisining aytishicha: «Kir va baqtriyaliklar urushida hech qaysilari g'alaba qozonmagan». Biroq baqtriyaliklar Ahamoniylar davlatining harbiy qudrati Sharqda ustunlik qilganidan xabardor bo'lib, Kir II ga ixtiyoriy bo'ysunadi. Kir II va Baqtriya urushlari haqida Ksenofont ham o'zining «Kiropediya» asarida qisqacha ma'lumot bergan.

Gerodot, Kir II ning istilochilik rejalarini tilga olganda, podshoning Baqtriyani istilo qilish maqsadi Bobildan keyin ikkinchi o'rinda turganligi haqida xabar beradi. Kir II Bobilni mil. avv. 539-yilda o'ziga bo'ysundirgan. Demak, 539-yildan keyin Kir II Baqtriyaga hujum qilishi kerak edi. Ammo Kir II O'rta Osiyo viloyatlarining iqtisodiy boyliklari va harbiy kuchlariga aniq darajada baho berib, mil. avv. 545–540-yillar davomida O'rta Osiyoning janubiy qismiga diqqatini qaratgan. Shuning uchun Gerodotning ma'lumotlari tarixiy jihatdan birmuncha noto'g'ri deb hisoblanadi.

Bobil podsholigi va Misr o'sha zamonning qudratli davlatlari bo'lib, ularni istilo qilish uchun maxsus harbiy tayyorgarlik ko'rish kerak edi. Misrga qarshi yurishdan Kir II voz kechgan va bu davlatni uning o'g'li (Kambiz) istilo qilgan.

Eronning shimoli-sharqiy va O'rta Osiyodagi siyosiy ahvolining o'zgarishi tufayli Kir II Bobilni zabt etish imkoniyatidan ham mahrum bo'lgan. O'rta Osiyo ko'chmanchi qabilalari tomonidan Ahamoniylar davlatiga qarshi hujum uyushtirish xavfi paydo bo'lib, saklarga qarshi qadimgi fors davlati chegaralaridagi mustahkam qal'alaridan o'z vaqtida Fors qo'shinlari tomonidan foydalanish rejalashtirilgan. Shuning uchun ham Bobildan oldin Kir II Parfiya, Ariya, Marg'iyona, Baqtriya va Sug'dni o'ziga bo'ysundirgan. Sirdaryoga yaqin, hozirgi O'ratepa atrofida Kir II yangi mustahkam qal'aga asos solgan, deb faraz qilindi. Bu Kurushkat (Kir shahri) nomli qudratli qal'a ko'chmanchilarga qarshi istehkom sifatida qurilgan. Kurushkatni (yunoncha *Kiropolis*) makedoniyalik Aleksandr mil. avv. 329-yilda vayron qilgan.

Mil. avv. 530-yilga kelib, ahamoniylar Hind vodiysidan O'rta Yer dengizigacha bo'lgan hududda o'z hukmronligini o'rnatgan bo'lsa-

da, O'rta Osiyodagi ko'chmanchi qabilalar mustaqil bo'lib yashagan. Mil. avv. 530-yilning avgust oyida Kir II massagetlarga qarshi yurish qilgan. Bu harbiy yurish haqida qadimgi davr mualliflari – Gerodot va Trog-Yustin ma'lumotlari saqlangan bo'lib, ular bu tarixiy voqealarni turlicha tasvirlashgan.

Geografik jihatdan Kir II ning massagetlarga qarshi yurishi yo'nalishini o'rganish muammosi juda ham murakkabdir. O'rta Osiyo ko'chmanchilari Kaspiy dengizi bilan Sirdaryo o'rtasidagi keng o'lkada joylashishgan. Kir II ning qo'shinlari Parfiya chegaralaridan o'tib, Amudaryo-O'zboy bo'ylarida yashovchi massaget qabilalarining yurtiga yo'l olishgan.

Kir II Araks (Amudaryo) o'zanidan kechib o'tib, massagetlar yerlarining ichkarisiga kirib borgan. Yurishlarining bir kunlik yo'lidan so'ng, fors podshosi ortga qaytgan. Biroq shu joyda, Gerodotning xabariga ko'ra, Kir II o'z qo'shinlarining zaif bir qismini hamda ular bilan birga oziq-ovqatlar zaxiralarini va ichimliklarni maxsus qoldirgan. Massagetlarning bir guruhi forslarga hujum qilib, ularni qirib tashlashgan. G'alabadan so'ng massagetlar sharob ichib uxlab qolishgan. Bundan so'ng sobiq jang maydoniga forslarning asosiy qo'shinlari qaytib kelib, massagetlarning bir qismini joyida o'ldirishgan, boshqa birlarini asirlikka olishgan. Ularning orasida To'marisning o'g'li Sparganis (Sparangiz) ham bo'lgan.

Gerodotning xabarlariga ko'ra, To'maris boshchiligidagi massagetlar fors qo'shinlarini butunlay mag'lubiyatga uchratib, barchasini yo'q qilishgan. Gerodot asarida aytilishicha, massagetlar yo'l boshchisi To'maris urush maydonidan Kirning jasadini topib kelishni buyurgan va uning boshini kesib, qon bilan to'lg'azilgan meshga solgan.

Bu hikoyada vatanparvarlik, chet el bosqinchilariga qarshi mustaqillik uchun kurash, ona yer mudofaasi va xalqning jasurligi mavzusi yoritilgan. O'rta Osiyo xalqlari tarixida yuqorida keltirilgan ma'lumotlar nihoyatda katta ahamiyatga egadir.

Kir II vafotidan so'ng taxtga uning o'g'li Kambiz o'tirdi. Uning hukmronlik davri, ya'ni mil. avv. 530–522-yillar O'rta Osiyo xalq-



larining siyosiy tarixi haqida yozma manbalarda hech qanday ma'lumotlar yo'q. Kambiz Misrni istilo qilgan qadimgi fors podshosidir. Kambiz vafotidan so'ng mamlakatda katta qo'zg'olonlar boshlangan. Bu haqida Doro I (mil. avv. 522–486-yillar) Behistun yozuvida shunday xabar qiladi: «Elam, Midiya, Ossuriya, Misr, Parfiya, Marg'iyona, Satgagadiya, Saklar mendan ajralib chiqib ketdilar». Ahamoniylarga qarshi, ayniqsa xalqning katta qo'zg'oloni Marg'iyonada alanga olgan.

Behistun yozuvlarida Doro I xabar qiladi: «Marg'iyona davlati mendan ajralib chiqib ketdi. Marg'iyonalik Frada ismli bir kishi viloyatning hokimi deb e'lon qilindi. Keyin men Baqtriya satrapi va menga bo'ysunuvchi odamim fors Dadarshishni huzurimga chaqirib, unga gapirdim: «Menga bo'ysunmaganlarni tor-mor qilish kerak». Axuramazda irodasi bilan mening qo'shinlarim qo'zg'olonchilarni butunlay mag'lubiyatga uchratdi. Bu jang asiyadiy oyining 23-kunida sodir bo'ldi. Shundan so'ng davlat meni qo'limga kirdi. Mana men Baqtriyada nimalarni qildim».

Mil. avv. 522-yilning 10-dekabrda (qadimgi fors asiyadiy oyining 23-kuni) Dadarshish marg'iyonaliklarni tor-mor qilgan. Qo'zg'olonni bostirish paytida 55 ming odam o'ldirilgan va 7 ming kishi asirlikka olingan. Asosiy voqealar Quyi Murg'ob vohasida bo'lib o'tgan, bu yerda Marg'iyonaning Ko'hna Marv shahri xarobalari saqlangan. Ular jumlasidan Yerqal'a mil. avv. VII–VI asrlarda vujudga kelgan. Yerqal'a – bu Marg'iyonaning poytaxti va shuningdek, ahamoniylarga qarshi qo'zg'olonning markazi deb hisoblanadi.

Behistun yozuvlaridagi oxirgi so'zlar «Mana men Baqtriyada nimalarni qildim» biroz tushunarli emas, chunki qo'zg'olon Marg'iyonada ko'tarilgan. Bundan quyidagi xulosani chiqarish mumkin: Marg'iyona ahamoniylar davridan oldin qadimgi Baqtriya podsholigining tarkibiy qismi bo'lgan yoki qo'zg'olondan so'ng Doro I Marg'iyonani Baqtriya satrapligiga qo'shib olgan.

Doro I birlashgan davlatni qaytadan tiklaydi. Kir II davridan boshlab dunyoning barcha mamlakatlari ustidan hukmronlik o'rnatishga

intilgan ahamoniylar yillar mobaynida juda yirik davlatga asos solishgan. Doro I o'zidan oldin o'tgan podsholar siyosatini davom ettirgan. Doro I qabriga qo'yilgan qabrtoshdagi bitiklarda: «Sen Eron jangchisining nayzasi uzoq-uzoq mamlakatlargacha borib yetganini bilib olasan», deb yozilgan.

Qadimgi forslarning O'rta Osiyo shimoliga yurishlari shafqatsiz yakunlanganligi va Kirning massagetlar qabilalari bilan qattiq jang paytida halok bo'lganligi, Doro I ning tashqi siyosatida inobatga olinib, mil. avv. 519 (518)-yilda Doro I saklar (*saka* – tigraxauda)ga qarshi maxsus yurish qilgan.

Doro I shunday xabar qiladi: «Saklarga qarshi men Sak yurtiga bostirib bordim, ularning o'zlari cho'qqi qalpoq kiyib yurishadi. Men daryoga yetib keldim, daryo kemalaridan ko'prik qilib, saklar yurtiga hujum qildim. Ularning sardori – Skunxa ismli odamni tutib, mening huzurimga keltirishdi. Men o'z xohishim bilan saklar yurtiga yangi boshliq tayin qildim. Shundan so'ng mamlakat mening qo'l ostimga o'tdi».


Doro I sak qabilalari ustidan g'alabaga erishgan bo'lsa ham, O'rta Osiyo xalqlari ahamoniylarga qarshi ozodlik kurashlarini davom ettirishgan. Qadimgi dunyo tarixi muallifi Poliyen, o'zigacha yetib kelgan hikoyalarga asoslanib, jasur Shiroq tarixi orqali saklarning ahamoniylarga qarshi qahramonona kurashini hikoya qiladi. Shiroq o'z jonidan kechib, qadimgi fors qo'shinlarini suvsiz cho'l va sahroning ichkarisiga olib kirib, saklarning makonlarini dushman hujumidan saqlab qoldi, bundan o'zi ham halok bo'ldi.

O'rta Osiyoning bo'ysundirilgan hududlari va umuman, zabt etilgan Qadimgi Sharq viloyatlari Doro I davrida alohida ma'muriy o'lkalarga birlashtirilgan. Bu ma'muriy-harbiy o'lkalarni idora qilgan hokimlarni qadimgi forslar «xshatrapavan», yunonlar esa «satrap» deb atashgan (qadimgi fors tilidagi «*xshatra*» – «viloyat» atamasidan «satraplik», «satrapliklar» tushunchasi kelib chiqqan).

Behistun yozuvlari, Gerodot va Ktesiy ma'lumotlari asosida, olimlar Baqtriya satraplari ro'yxatini aniqlashgan. Mil. avv. 530–522-yil-



## O'rtasiyo viloyatlari Ahamoniylar davlati tarkibida



larda Baqtriya satrapi vazifasini Kir II ning o'g'li Smerdis (Bardiya) bajargan (podsho Kambizning ukasi), mil. avv. 522–486-yy. Dadarshish, mil. avv. 486–480 va 480–465-yy. Ariamen bilan Masist – Doru I o'g'illari, mil. avv. 465–423-yy. Artabon Gistasp, mil. avv. 335-yilgacha ma'lumotlar yo'q, mil. avv. 335–329-yillarda Bess – Baqtriyaning oxirgi satrapi bo'lgan.

Mazkur ro'yxatdagi Baqtriya viloyatini idora qilgan satraplar turli yillarda podsho o'g'illari yoki uning aka-ukalari bo'lgan. Muhim savdo yo'llari chorrahasida joylashgan Baqtriya Ahamoniylar davlatida katta iqtisodiy va harbiy ahamiyatga kasb etgan. Shu sababli ham uning satraplari Ahamoniylar sulolasi vakillari edi.

Gerodotning aytishicha, Doru I o'z davlatini 20 ta satrapliklarga taqsimlagan. Behistun, Naqshi Rostam va Suza bitiklarida fors podshohligi 24 satraplikka ajratilib ko'rsatilgan. Behistun yozuvlari ro'yxatida Baqtriya – 16, Sug'diyona – 17-o'rinda ko'rsatilgan. Gerodotning ma'lumotlariga ko'ra, Baqtriya – 12, saklar – 15, Parfiya, Sug'd va Xorazm – 16 ma'muriy o'lka bo'lgan. Gerodotning «Tarix» asarida

satrapliklarning podshoga to'laydigan soliqlar miqdori keltirilgan. Choch va Farg'ona vodiysi Ahamoniylar davlati tarkibiga kirmagan.

Doru I ning vafotidan so'ng uning o'g'li Kserks taxtga o'tirgan (mil. avv. 486-yil). Kserksning tashqi harbiy siyosatida Eronni qurol kuchi bilan eng qudratli davlatga aylantirish jarayoni davom etadi. Kserks Qadimgi Yunoniston va Yevropa mamlakatlari ustidan hukmronlik o'rnatishni o'z oldiga asosiy maqsad qilib qo'ygan. O'rtasiyo xalqlari – baqtriyaliklar, xorazmliklar, sug'diylar va saklar Kserks qo'shinlari tarkibida yunon-fors urushlarida ishtirok etishgan.

Marafon jangida saklarning otliq qo'shinlari nihoyatda katta jasurlik ko'rsatib, yunonlarning jangovar markaziy qismini chekinishga majbur qilishgan. Baqtriya va saklarning chavandozlari ahamoniylar qo'shinlaridagi eng jasur qismlaridan biri hisoblangan. Yunon-fors urushlari davrida O'rtasiyo xalqlarining harbiy qudrati katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Kir II dan so'ng Kambiz ham, Doru I va Kserks ham davlatni qaytadan tiklash va birlashtirishga ko'pdan ko'p harakat qilishgan. Mil. avv. IV asrda so'nggi ahamoniylar podsholari Artakserks II, Artakserks III va Doru III to'xtovsiz urushlarni davom ettirishlari natijasida, davlat zaiflashib qolgan.


Mil. avv. 334-yilda makedoniyalik Aleksandr Qadimgi Sharqdagi iqtisodiy va siyosiy inqirozlardan foydalanib, Ahamoniylar davlatiga qarshi urush boshlaydi. Mil. avv. 334–330-yillar davomida makedoniyalik Aleksandr Fors davlati podshosi Doru III ni tor-mor qilib, O'rtasiyo chegaralariga yetib keladi. Shu tariqa ahamoniylarning O'rtasiyodagi ikki yuz yillik hukmronligi tarixi tugaydi.

## 7.2. Iqtisod va ijtimoiy tuzum

O'rtasiyoning qadimiy viloyatlari jamiyati to'g'risida yozma manbalardan tashqari arxeologik manbalar dalolat beradi. O'rtasiyo mil. avv. VI–IV asrlarga oid moddiy-madaniy yodgorliklarga bo'ydir. Marg'iyonadagi Yoztepa, Yerqal'a, Shimoliy Baqtriyadagi Kuchuk-



tepa, Qiziltepa, Qalaimir, Boytudasht, Xorazm, Sug'd va Farg'ona vohalaridagi Ko'zaliqir, Dingilja, Yerqo'rg'on. Uzunqir, Daratepa, Afrosiyob, Yeylatontepa xarobalari shu davrga mansub yodgorliklardir. Xom g'ishtdan va paxsadan qurilgan binolar hamda metall qurollar, hunarmandchilik buyumlari o'troq dehqonchilik viloyatlarida qadimiy madaniyat yuksak darajada rivojlanganidan dalolat beradi.



Qizilcha uy-qo'rg'oni (tiklangan).  
Mil. avv. V–IV asrlarga oid ko'rinishi

Xorazmda mil. avv. V–IV asrlarga mansub sug'orish inshootlarining izlari topib tekshirilgan. Marg'iyona, Sug'diyona va Baqtriya tuprog'ida ham qadimgi sug'orish kanallari aniqlangan. Ushbu ma'lumotlar qadimgi jamoatchilik tomonidan g'oyat katta yer ishlari bajarilganligidan guvohlik beradi. Ahamoniylar noiblari soliq miqdorini ko'paytirish uchun joylarda qishloq xo'jaligi va savdo-sotiqni maqsadli rivojlantirishgan.

Xorazmdagi sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullangan aholi alohida joylashgan ayrim oilalarga tegishli uy-qo'rg'onlarda yashashgan. Shular jumlasidan bo'lgan Dingilja uy-qo'rg'oni turarjoy va xo'jalik xonalaridan iboratdir. Ziroatchilarning uy-qo'rg'onlari Surxon vohasida ham o'rganilgan (Qizilcha, Kuchuktepa). Baqtriya va Sug'd hududlarida ular Ahamoniylar davridan avval vujudga kelgan. Mil. avv. VI–IV asrda oila jamoasi jamiyatning iqtisodiy asosi bo'lib, u xo'jalik ishlarini birgalikda amalga oshirgan. Uy jamo-

asining a'zolari katta patriarxal oila bo'lib, ular umumiy turarjoyda yashaashgan va mol-mulkka birgalikda egalik qilishgan.

Mil. avv. VI–IV asrlarga oid moddiy manbalar binokorlik va hunarmandchilik, (temirchilik, kulolchilik, zargarlik, to'qimachilik) tarixini o'rganishda katta ahamiyatga egadir. Xorazm, Baqtriya, Sug'd va Marg'iyonada kulolchilik va temirchilik ustaxonalarning qoldiqlari topib tekshirilgan. Bu yodgorliklardan sopol idishlar, bronza va temirdan ishlangan buyumlar topildi. Ahamoniylar davrida O'rta Osiyo xalqlarining shaharsozlik madaniyati – qurilish uslublari, binokorlik va me'morchilik hamda hunarmandchilik sohalari o'ziga xos xususiyatlardan iborat, mahalliy ildizlarga ega boy an'analarga asoslanib rivojlangan.

Mil. avv. VI–IV asrlarda binokorlik g'oyatda taraqqiy qilgan. Xorazm, Marg'iyona, Baqtriya va Sug'd hududlaridagi shaharlar mudofaa devorlari bilan o'ralgan. Markaziy shaharlarda viloyat hokimlarining yirik saroylari bunyod etilgan. Ularning baland poydevori bo'lib, inshootlar qalin devorlar bilan mustahkamlangan. Shaharlar keng joylarni egallagan. Jamoa uy-joylari 6–8 xonalardan iborat bo'lib, paxsa va xom g'ishtdan qurilgan. Xonalarning devori ichiga va xonalarning markaziy qismida o'rnatilgan sandal shakldagi o'choqlar mavjud.

Qurilishda ganch, yog'och va loy keng darajada ishlatilgan. Uylarda supa va ayvonlar mavjud bo'lgan. Mudofaa devorlari qurilishida yirik, xom g'ishtlar ishlatilgan. Uy-joy sathlari loy bilan suvalgan, oziq-ovqat mahsulotlari saqlash uchun mo'ljallangan xo'jalik omborxonalarining sathlari toshlar va sopol siniqlaridan terilgan.

Persepol saroyining tosh devorlaridagi sug'dlar, baqtriyaliklar, xorazmliklar va saklarning bo'rtma tasvirlari bu xalqlarning etnik qiyofasi, qurollari va kiyim-boshlari qanday bo'lganligini tasvirlab turadi. O'rta Osiyo xalqlarining qurollari va qurol yasash uslublari Qadimgi Sharqda mashhur bo'lgan. Baqtriya o'q-yoylari, Xorazm dudama xanjarlari, saklarning harbiy boltalari bronzadan yasalgan.



Ahamoniylar davrida Oʻrta Osiyoda dehqonchilik turli shakllarda taraqqiy topgan. Togʻ yonbagʻirlarida qadimgi dehqonlar dalalarni sugʻorish maqsadida soylarning suvlaridan foydalanishgan. Mahaliy sugʻorish tajribasida soylardan kanal va ariq chiqarish katta ahamiyatga ega boʻlgan.

Qadimgi zamonlardan boshlab ziroatchilik bilan shugʻullanish, don ekish Oʻrta Osiyo xalqlari uchun savobli ish boʻlib, «Avesto»da arpa va bugʻdoy muqaddas boshoqli ekin hisoblangan. Boshoqli ekinlardan bugʻdoy, tariq va ayniqsa, arpa keng yetishtirilgan. Bogʻlarda turli mevali daraxtlar oʻstirilgan, chorva uchun xashak boʻladigan oʻsimliklarni ekish rivojlantirilgan. Oʻrta Osiyo togʻlari va dashtlarida anʻanaviy chorvachilik xoʻjaligi ustunlik qilgan. Koʻchmanchi qabilalar asosan mayda chorva, qoramol hamda otni koʻplab urchitgan. Shuningdek, oʻtroq aholi hayotida mahsuldor chorvachilikni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega boʻlgan.

Persepol saroyi devoridagi boʻrtma rasmlarda Xorazm, Baqtriya, Sugʻd va saklar yurtidan shohga ot, tuya hamda qoʻy olib kelayotganlari manzarasi tasvirlangan. Ayniqsa, qadimgi Sharqda Baqtriya tuyalari, Xorazm va sak yurti yilqilari mashhur boʻlgan.

Oʻrta Osiyo tabiiy qazilma boyliklari qadimdan maʼlum edi. Gerodotning aytishicha, saklar yerlarida «oltin va mis juda ham koʻp» boʻlgan. Tarixchining maʼlumotlari haqiqiy ekanligini hozirgi davrda Qizilqumda qazib chiqarilayotgan oltin konlari isbotlab berishi mumkin.

Oʻrta Osiyoning tabiiy boyliklari Ahamoniylar davlatida keng ishlatilgan. Suza shahrida topilgan yozuvlarda Doro I shunday eʼlon qiladi: «Suzadagi saroyini men bunyod qilganimda, uning bezaklari uzoq yurtlardan olib kelingan. Uaka yogʻochi – Gandxaradan, oltin – Sard va Baqtriyadan, yaltiroq toshlar va lojuvard – Sugʻdiyodan, fruz – Xorazmdan yetkazib berilgan».

Oʻrta Osiyo xalqlari ahamoniylarga katta miqdorda soliqlar toʻlashgan. Moliya-soliq ishlari satrap qoʻlida boʻlgan. Viloyatlarining iqtisodiy va ijtimoiy hayotini satraplar kuzatib borgan. Ular

boʻysundirilgan oʻlkalardagi butun idora ishlarini ham nazorat qilishgan.

Satrap oʻz oʻlkasida viloyat, tuman hokimlari va qishloq oqsoqollariga tayangan holda boshqaruvni amalga oshirgan. Uning vazifalari satraplikning xavfsizligini taʼminlash, harbiy yurishlar paytida oʻlkadan markazga qoʻshinlar yuborish, yillik soliqlarni belgilangan miqdorda yigʻib, markaziy davlat gʻaznasiga yetkazib berishdan iborat boʻlgan.

Satrapliklarning boshqaruv tashkilotida turli mansab va lavozimlar mavjud edi. Devonxona boshligʻi, xazinabon, soliq yigʻuvchi, sud ishlarini yurituvchi, xattot-kotib va xoʻjalik ishlari boshligʻi shular jumlasidandir. Oʻrta Osiyo satrapliklari muayyan miqdorda belgilangan kumush soliqlardan tashqari qishloq xoʻjalik, chorva va hunarmandchilik mahsulotlari shaklida ham soliq toʻlashga majbur edilar.

Soliq yigʻilishi vazifasi qishloq oqsoqollari, tuman va viloyat hokimlari zimmasiga tushgan. Soliqlar satraplar saroyidagi gʻazna omborxonalarida Baqtra va Maroqanda kabi markaziy shaharlarda toʻplangan. Satrap oʻlka miqyosidagi soliqlarning yigʻib olinishi jarayonini nazorat qilgan. Saroy xazinachisi va hisobchilari tuman va viloyatlardan yetkazib berilgan soliqlar turlari va miqdori asosida iqtisodiy-moliyaviy hisobotlar tayyorlashgan. Ushbu maʼlumotlar markaziy davlat soliq tashkiloti tomonidan rejalashtirilgan muddatda, maxsus aloqa tizimi xizmatchilari – choparlar orqali fors podshosi qarorgohiga joʻnatilgan.

Satrapliklar qishloq xoʻjalik omborxonalaridan maʼlum miqdorda aynan satrapning xonadonlari mansabdorlar va harbiylar maosh sifatida oziq-ovqat mahsulotlari bilan taʼminlangan (un, chorva, yogʻ, sabzavot, vino, pivo va boshqalar).

Mil. avv. 353–324-yillarga oid Baqtriya hujjatlarida amaldorlar, xizmatkorlar hamda Asparasta aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan taʼminlanish haqidagi roʻyxatda tariq, arpa, «oddiy» va «oq» un, vino, qatiq va uksus tilga olingan. Amaldorlar arpa bilan, xizmatkor-



lar – tariq, aholi oddiy un bilan ta'minlangan. «Oq» un esa qurbonlik marosimlarida ishlatilgan.

Zabt etilgan hududlarni idora qilish maqsadida, podsho buyruqlarini joylarga o'z vaqtida yetkazish va satraplardan turli ma'lumotlarni tezkor olish uchun, Ahamoniylar davlatida maxsus aloqa xizmati tashkil qilingan edi.

O'rta Yer dengizi bo'yidagi Kichik Osiyoda Efes shahridan boshlangan «Shoh yo'li» qadimgi Fors davlati poytaxtlaridan biri – Suza bilan bog'langan (masofasi 2470 km). Ushbu yo'lning Sharqiy tarmoqlari Baqtriya orqali Sug'diyona va Hindistongacha davom etgan.

«Shoh yo'lida» xavfsizlikni ta'minlash uchun harbiy istehkomlar va maxsus maskanlar qoshida oziq-ovqat omborxonalari barpo etilgan edi. Har bir 30 km masofada choparlar uchun dam olish va otlarni almashtirishga imkon yaratilgan. Xizmat safarida davlat ishlarini amalga oshiruvchi mansabdorlar (hisobchilar, harbiylar, tekshirish va nazorat xizmati vakillari) ushbu yo'lda joylashgan omborxonalardan ozuqa bilan ta'minlangan.

Qadimgi yunon tarixchisi Ktesiyning xabariga ko'ra, Baqtra shahridan davlat poytaxti Suzaga otlangan amaldor o'z xizmat safari davomida har kuni 1–1,5 kg un, 1 litr vino yoki pivo hamda ma'lum miqdorda go'sht bilan ta'minlangan.

Davlat miqyosida iqtisodiy, siyosiy va ma'muriy ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish maqsadida oromiy alifbosiga asoslangan yozuvdan foydalanilgan. Joylarda turli hujjatlar mahalliy tillarda tarjima qilingan. Xorazm vohasidagi Katta Oybo'irgal'ada mil. avv. V– IV asrlarga oid xum sirtida tig' bilan bitilgan oromiy alifbosiga asoslangan xorazm yozuvi namunasi topilgan. U hajm o'lchovi birligi – «mari» deb o'qilgan (1 mari 16,5–17 litrga to'g'ri kelgan). Bu yozuv Xorazm yozuvining eng qadimgi nusxasi hisoblanadi. Oromiy yozuvini mahalliy xorazm tiliga (shuningdek, baqtriya va sug'd tillariga) moslashtirish ahamoniylar davriga to'g'ri keladi.

Yirik ma'muriy o'lkalarning satraplari Ahamoniylar sulolasidan bo'lib, fors podshosi nomidan o'z satrapliklarini idora qilishgan.

Baqtriya va Xorazm satraplari huzurida maxsus qal'alar va yirik saroylar bo'lgan. Baqtriya o'lkasining iqtisodiy boyliklari va harbiy kuchlari, satraplarning haddan ziyod mustaqilligi ahamoniylar podshosiga qarshi qo'zg'olonlar ko'tarishga olib kelgan.

Amudaryo xazinasi tarkibida Eronda va Yunonistonda (Afina shahrida) zarb etilgan tanga pullar mavjud. Dastlabki tanga pullar esa mil. avv. VII asrda Kichik Osiyo va Afnada paydo bo'lgan. O'rta Osiyo orqali qadimgi aloqa va savdo yo'llari turli viloyatlarini birlashtirgan. Badaxshonda boshlangan «lojuvard yo'li», G'arbiy Sibir (Oltoy)dan – «oltin yo'l» O'rta Osiyo hududidan o'tib, O'rta Yer dengizigacha davom etgan. Qadimgi yo'llar savdoni rivojlantirish va aloqa xizmatini keng darajada yo'lga qo'yish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Tog' daralari yonida, daryolardan kechib o'tilgan joylarda istehkomlar mavjud bo'lgan. Amudaryoning o'rta oqinida Odoytepa, Sherobod vohasida Talashqontepa, Zarafshon tizmasi yonbag'ridagi Uzunqir va boshqalar shular jumlasidandir. Ular harbiy ahamiyatga ega bo'lgan.

O'rta Osiyoda qulchilik munosabatlari qadimgi Sharq mamlakatlari va Yunonistonga nisbatan ancha farq qilib, sust rivojlangan. O'rta Osiyoda qadimgi qulchilik shakllaridan biri «uy, xonadon qulchiligi» bo'lgan. Elam va qadimgi fors yozuvlaridagi «kurtash» bilan «garda» atamallari «uy quli» tushunchasini bildiradi. Ular turli iqtisodiy vazifalarni bajargan (misol uchun, «garda-hunarmand», «garda-a-binokor»lar).

«Uy, xonadon quli» «Avesto»da «vaysa» deb ataladi. «Vaysa» va «garda»lar katta oila jamoasi erkin a'zolari bilan unumiy uyda yashashgan. «Uy qullarining» mehnat faoliyati, hunar-kasbi, dehqonchilik, uy chorvachiligi va boshqa ishlab chiqarish vazifalari bilan bog'langan. Ularning soni jamoaning erkin a'zolariga nisbatan ancha kam bo'lgan. Qishloq xo'jalik jamoalarning iqtisodiy hayotida jamiyat erkin vakillarining mehnati – ishlab chiqarish jarayonida asosiy kuch edi.

«Uy qullari» kambag'allashib qolgan, xonavayron, ish qidirib yurgan xizmatkorlar va qarzdor jamoa a'zolari bo'lishlari mumkin



edi. Bu kishilarning barchasi jamoaning erkin aholisidan kelib chiqqan va ularning paydo bo'lishi iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarning o'zgarishi bilan uzviy bog'langan.

Yozma manbalarning xabariga ko'ra, Kichik va Old Osiyo shaharlarida Sug'd va Baqtriyadan olib kelingan «kurtash» – «uy qullari»dan binokorlik, toshtaroshlik va qurolsozlik ishlarida keng foydalanilgan.

Qullar ahvoliga tushib qolgan odamlar podsho va satraplar ustaxonalarida, saroylarida va yerlarida ham mehnat qilishgan. Eron va Old Osiyoda «kurtash» va «garda»lar xususiy mulkka ega bo'lishmagan. O'rta Osiyoning ijtimoiy vaziyatiga ko'ra, ular erkin aholining «mulki» bo'lganligi haqida ham yozma manbalarda aniq ma'lumotlar yo'q.

### 7.3. Din

Ahamoniylar davrida O'rta Osiyo xalqlarining urf-odatlarini, e'tiqodlari va diniy qarashlari mahalliy ildizlarga ega an'analarga asoslanib rivojlangan. Mazkur davrga oid olov ibodatxonalarini Baqtriyada (Tillatepa, Qutlug'tepa), Janubiy Sug'dda (Sangirtepa) va Xorazmda (Xumbuztepa) o'rganilgan. Bu yodgorliklarda zardushtiylikka xos sig'inish odatlarining izlari aniqlangan. Misol tariqasida, Sangirtepa ibodatxonasi devorlari bo'ylab joylashgan kichik o'ralarda toza tuproq bilan aralashtirilgan kul saqlangan. Zardushtiylar olov qoldiqlariga ham hurmat bilan qarashgan. Ilk zardushtiylik ta'limotiga oid ibodatxonalarda ma'budalar haykallarini o'rnatish odati bo'lmagan hamda devoriy rangtasvirlar aniqlanmagan. Biroz so'ng, ahamoniylar davrining oxirgi bosqichlarida Xorazm vohasida ma'budalar tasvirlariga sig'inish vujudga keladi. Mil. avv. IV asrning boshlariga oid Elxaras ibodatxonasida loydan ishlangan va sirtiga ganch berilgan haykallar parchalari topilgan.

O'rta Osiyoning ko'chmanchi qabilalari quyoshni xudo deb bilishgan va olovni qadrlashgan. Olovni izzat-hurmat qilish odati qa-

dingi zamonlardan saqlanib kelgan. Ko'chmanchilar olovga ochiq joylarda qurbonlik qilishgan.

Ziroatchilarning uylarida maxsus olovxonalar bo'lgan. Xonadonlarning o'choqlarida olovni doimo yonib turishiga harakat qilishgan. Olovni oshxonalariga, o'choqlarga, tandirlarga va sandallarga doimo ko'chirish zarur bo'lgan. Olov – hayot manbasi, uning xudosi Atar – marhamatli xudo deb hisoblangan.

Otashkadalar Xorazm, Surxondaryo va Qashqadaryo vohalarida topib tekshirilgan. Daratepada (Qashqadaryo) olovga va hosildorlikka sig'inish an'anasi bilan bog'liq bo'lgan katta vazasimon guldon idish va sopol chirog'don topilgan. Ular mil. avv. VII–IV asrlar bilan belgilanadi.

Muqaddas suvga ham ochiq joylarda qurbonlik qilingan. Gero-dot o'zining «Tarix» kitobida bu haqda qayta-qayta takrorlaydi. Qurbonlik marosimi paytida odam uchun yuzini shimol tomonga qaratish man etilgan. Shimol – bu devlar makoni, kasallik, o'lim va yovuzlik yurti, deb faraz qilingan. Mazkur davrda Baqtriya, Sug'd va Xorazmda otashparastlik va zardushtiylik ta'limoti keng yoyilgan.

Ahamoniylar davrida Axuramazda yirik davlatning turli xalqlari uchun oliy yagona xudo deb e'lon qilingan. Axuramazdaning ibodatxonasi butun osmon va dunyo sayxon yerlari deb hisoblangan. Shuning uchun ham Axuramazdani «maxsus ibodatxonalarining devorlari bilan o'rab yoki qamab olish» – bu g'oyat katta gunoh deb faraz qilingan. Podsho Kserks qadimgi yunonlar ibodatxonalarini – bu xudolar uchun zulm qamog'i deb, shunday fikrga kelgan: «Devlarni izzat-hurmat qilish gunohdir. Devlar qadrlangan joylarda, men Axuramazdaga va haqqoniylikka ta'zim qildim».

Eron katta davlatga aylanishi bilan siyosiy jihatdan turli xalqlarni birlashtirish maqsadida davlat dini va oliy Axuramazda xudoning yagona e'tiqodini qabul qilish talab qilingan. O'rta Osiyo va boshqa qadimgi Sharq viloyatlarida bu siyosat qadimgi diniy qarashlarni saqlashga xalaqit bermagan. Marg'iyonada, Baqtriya, Sug'd va Xorazmda zardushtiylik odatlariga oid dafn marosimlari yoyilgan.



Gerodotning xabarlariga ko'ra, Ahamoniylar davlati tarkibida 80 ta elatlar va qabilalar birlashtirilgan. Ularning dini turlicha bo'lgan. Gerodotning aytishicha, yunon-fors urushlari davrida, qadimgi fors lashkarboshisi Mardoniy Plateya jangi (mil. avv. 479) dan oldin, yunon xudolaridan yordam so'rab, ularga qurbonlik qilgan. Olimlar fikriga ko'ra, Kserks tomonidan zabt etilgan hududlarda ba'zi bir ibodatxonalarining vayron qilinishi sabablari, podshoga qarshi qo'zg'olon ko'targan yoki harbiy qarshilik ko'rsatganlarini mahalliy xudolarning yordamidan ajratish maqsadidan kelib chiqqan.

Uzoq o'tmishda xalqlar o'rtasidagi madaniy munosabatlarning rivoj topishida, ularning dini, tili va urf-odatlarini o'zaro aloqalariga to'sqinlik qilmagan. Turli xalqlar bir-birining g'oyalari, dini va dunyoqarashlariga hurmat bilan qarashgan. Misol tariqasida, yer va suv, olov va boshqa tabiat kuchlari bilan bog'langan xudolarining nomlari turli yurtlarda xilma-xil bo'lsa-da, ularga hududiy va siyosiy chegaralarga qaramasdan, baravar sajda qilingan.

Gerodot qadimgi Sharq xudolari va ibodatxonalarini haqida hurmat bilan hikoya qiladi. Tarixchi o'ziga xalqlarning madaniyati, e'tiqodi, urf-odatlarini to'g'risida yozib qoldirar ekan, ularning madaniy-ma'naviy qadriyatlariga zarracha nopisand, behurmatlik bilan qaramaydi yoki ajnabiylarga nisbatan qadimgi buyuk yunon madaniyatini ustun qilib qo'ymaydi. Gerodotning aytishicha, qadimgi xalqlarning katta bayramlaridan biri – bu insonning tug'ilgan kuni hisoblangan. O'rta Osiyo xalqlarining hayotida tiriluvchi tabiat bayrami muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu bayram aholining an'anaviy xo'jaligi va o'troq qabilalarning dunyoqarashlariga asoslangan.

Ahamoniylar davlatida har yil 12 oy va 365 kundan hisoblangan bo'lib, ularning nomlari Axuramazda, Mitra, Anaxita, quyosh va boshqalar bilan bog'langan. Dastlab bu yilnoma O'rta Osiyoda paydo bo'lib, keyin Eronda joriy etilgan. Doro I davrida O'rta Osiyoda keng yoyilgan zardushtiylik g'oyalariidan ahamoniylar davlatini mustahkamlash va birlashtirish maqsadida keng foydalana boshlanishi jarayoni ushbu fikrni tasdiqlashi mumkin. Shoh Doro I Axuramazdani

oliy xudo deb e'lon qilgan. Shu tariqa Ahuramazda tasvirlari Behistun qoyasida va Persepol tosh devorlarida o'yib ishlangan.

Mil. avv. VI–IV asrlarda Navro'z bayramini o'troq dehqonchilik aholi tomonidan nishonlash keng darajada amalga oshirilgan. Qadimgi zamonlarda ham Navro'z mart oyining oxiriga haftasiga to'g'ri kelardi.

Navro'zning kelib chiqishi insonlarning dunyoqarashlari bilan ancha bog'liq bo'lgan. O'rta Osiyoda tabiat tirilishiga bag'ishlangan marosimlar dehqonchilik xo'jaligi keng yoyilishi natijasida vujudga kelgan. Shu boisdan Navro'zning ildizlari olis zamonlarga borib taqaladi. Ahamoniylar davridan avval Marg'iyona, Baqtriya, Sug'diyona va boshqa viloyatlarda Navro'z katta jamoatchilik marosimi, tabiatga va inson hayotiga baxt-saodat, hosildorlik, sog'-salomatlik va ko'pdan ko'p yaxshiliklar keltiruvchi bayram bo'lib hisoblangan.

Tabiatning kuchlari jonlanishi kunlarda ko'cha va xonadonlarda ozodalik o'rnatilgan. Uy-joylar tomonlarining to'rt burchagida olov yoqilgan, toza va tiniq suv to'ldirilgan sopol idishlarga dastlabki yashil barglar tashlangan. Odamlar «Avesto»dan madhiyalar kuylab, qadimgi duolardan o'qishgan. Ular ezgulik va yorug'lik tangrisiga barcha yovuzliklarni yo'qotishga, olov, suv, dala va bog'larga kuch-quvvat, yangi hayot bag'ishlashga da'vat qilishgan.

Bugungacha turli xil arxeologik manbalar saqlanib keldi. Ajdodlarimizning moddiy va ma'naviy merosi xalqimizning ma'naviy boyligi bo'lib, uzoq o'tmish tarixini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### *Tayanch so'zlar*

Siyosiy tarix, Kurush, Kir II, Kurushkat, tashqi bosqinlar, harbiy yurish, Fors podsholigi, Araks, To'maris, qo'zg'olonlar, Frada, Dadarshish, Doro I, sak yurti, Skunxa, Shiroq, ma'muriy-harbiy shaharlar, uy-qo'rg'onlar, mudofaa devorlar, me'morchilik, moddiy manbalar, hunarmandchilik, ziroatchilik, «Amudaryo xazinasi», «uy



qullari), «vaysa», «garda», «kurtash», madaniyat, din, Persepol saroyi, hosildorlik, olovga sig'inish, ibodatxonalar, Navro'z, marosimlar, oromiy alifbosi, yozuv.

### *Savol va topshiriqlar*

1. Siyosiy tarix deganda nimani tushunasiz?
2. Kir II ning O'rta Osiyoga yurishlari qachon boshlangan?
3. Forslar va To'maris boshchiligidagi massagetlar jangi haqida gapirib bering.
4. Doro I ning Marg'iyonada Frada qo'zg'olonini tor-mor etishi va saklarga qarshi yurishini so'zlab bering.
5. Ahamoniylar davridagi satraplik nima?
6. Mil. avv. VI–IV asrlarga oid O'rta Osiyoning iqtisodi va ijtimoiy tuzumi masalasiga doir qisqa referat tuzing.
7. Ahamoniylar davri madaniyati va dini to'g'risida nimalarni bilasiz?
8. Mavzu bo'yicha testlar tuzing.

### *7-mavzu bo'yicha foydalanilgan adabiyotlar*

1. *Вайнберг Б.И.* Этногеография Турана в древности. – М.: Вост. тит. РАН, 1999.
2. *Воробьева М.Г.* Дингилдже. Усадба И тысячелетия до н. э. в Древнем Хорезме // Материалы Хорезмской экспедиции. Вып. 9. – М., 1973.
3. Выдающиеся памятники археологии Узбекистана / Науч. ред. Э.В. Ртвеладзе. – Ташкент, 2013.
4. *Дандамаев М.А.* Политическая история ахеменидской державы. – М.: «Наука», 1985.
5. *Дандамаев М.А., Луконин В.Г.* Культура и экономика древнего Ирана. – М.: «Наука», 1980.
6. *Исамиддинов М.Х.* Истоки городской культуры Самаркандского Согда. – Ташкент, 2002.
7. *Сагдуллаев А.С.* Среднеазиатское Двуречье в системе государства Ахеменидов // История государственности Узбекистана. Том II. – Ташкент: «Узбекистан», 2009.

8. *Мавлонов О., Махкамова Д.* Madaniy aloqalar va savdo yo'llari. – Toshkent: «Akademiya», 2004.

9. *Массон В.М.* Культурогенез Древней Центральной Азии. – СПб., 2006.

10. *Ртвеладзе Э.* Цивилизации, государства, культуры Центральной Азии. – Ташкент: 2005.

11. *Сагдуллаев А.* Усадбы древней Бактрии. – Ташкент: «Фан», 1987.

12. *Сулейманов Р.Х.* Древний Нахшаб. – Ташкент: «Фан», 2010.

13. *Толстов С.П.* По древним дельтам Окса и Яксарта. – М., 1962.

14. *Уилбер Д.* Персепол / Пер. с англ. Е.Л. Власовой. – М.: «Наука», 1977.

15. *Фрай Р.* Наследие Ирана. – М.: Востлит, 1972.

16. *Ходжанийазов Г'.* Qadimgi Xorazm mudofaa inshootlari. – Toshkent: «O'zbekiston», 2007.

17. *Шайдуллаев Ш.Б.* Северная Бактрия в эпоху раннего железного века. – Ташкент, 2000.

18. *Shahrisabz. Mingyilliklar meros / Ilmiy muharrirlar: E.Rtveladze, A.Sagdullayev.* – Toshkent: «Sharq», 2002.

19. *Ягодин В.Н.* Хорезм – сатраплик государства Ахеменидов // Хорезм в истории государственности Узбекистана. – Ташкент, 2013.

20. *Boyce M.* A Persian Stronghold of Zoroastrianism. London: Oxford Universiti Press; Repr. 2001.



---

**8-MAVZU**  
**MAKEDONIYALIK ALEKSANDRNING BAQTRIYA VA**  
**SUG'DIYONAGA YURISHLARI**

**Reja:**

- 8.1. Yozma manbalar ma'lumotlari.
- 8.2. Siyosiy voqealar. Aleksandr va Spitaman. Yunon-makedonlarga qarshi kurash.
- 8.3. Tarixiy geografiya.

**8.1. Yozma manbalar ma'lumotlari**

**Arrian, Kursiy Ruf hikoyalari. Strabon «Geografiyasi».** Mil. avv. 329-yilda Makedoniyalik Aleksandrning Baqtriya va Sug'diyona yerlariga harbiy yurishlari boshlangan. Bu yurishlar O'rta Osiyo tarixida eng yaxshi o'rganilgan mavzulardan biridir. Aleksandrning qo'shinida jangchilar bilan birga bo'lajak tarixchilar Ptolemey, Aristobul, Onesikrit, Kallisfen va Xareslar xizmat qilib, o'z kundaliklarida turli xil siyosiy va madaniy voqealarni yozib borishgan. Ularning ma'lumotlari bizgacha yetib kelmagan, lekin dastlabki manbalardan so'nggi yunon tarixchilari va geograflari foydalanishgan.

Jumladan, Diodor (mil. avv. 90–21-yillar) «Tarixiy kutubxona», Strabon (mil. avv. 61 – mil. 24-yillar) «Geografiya», Pompey Trog (mil. avv. I – mil. I asr) «Filipp tarixi» asarlarini, Plutarx (mil. 46–127-yillar), Klavdiy Ptolemeylar (II asr) o'z hikoyalarini hamda Pliniy (II asr) «Tabiiy tarix» nomli kitobini yaratishdi. Ammo Aleksandr yurishlari haqida keng va to'liq ma'lumotlar rimlik Kvint Kursiy Ruf va yunon Arrian asarlarida saqlangan.

Arrian (mil. 90/95–175-yillar) «Aleksandr anabasisi» degan asarning muallifidir. Anabasis – bu «davlat ichkarisiga dengizdan uzoq-

lashgan harbiy yurish» yoki «Aleksandr yurishlari» deb tarjima qilinadi. Kursiy Ruf (mil. avv. I asrning oxiri – mil. I asrning o'rtalari) «Makedoniyalik Aleksandr tarixi» nomli kitobni yaratgan. Biroq Arrianga nisbatan uning hikoyalarida badiiy to'qimalar ko'p uchraydi.

Quyida Arrian va Kursiy Ruf asarlaridan olingan ayrim ma'lumotlarning tarjimasi keltiriladi (ular rus tiliga M.E. Sergeyenko va V.S. Sokolovlar tomonidan tarjima qilingan). Mazkur ma'lumotlarni xrestomatiya materiallari sifatida taqdim qilish, ulardan talabalarga nafaqat tegishli mavzuni o'rganish, shuningdek, referat, kurs va bitiruv ishlarini yozishda foydalanish imkoniyati yaratiladi.

**Arrian, III kitob, 27-bob, 9.** «Aleksandr yaqinlashib kelishi haqida eshitib, Bess Oks daryosidan kechib o'tadi va kemalarini yondirib, Nautaka – sug'diylar yeriga yo'l oladi». **10.** «Spitaman va Oksiart bilan birga sug'diylar suvoriylari hamda Tanais daylari unga ergashishadi. Baqtriya chavandozlari Bessning qochishidan xabar topib, har tomonlarga qarab o'z uylariga yo'l oladilar.

Aleksandr Drapsakga yetib keladi, qo'shinlariga dam berib, ularni Baqtriyadagi eng yirik shaharlar – Aorn va Baqtra tomonga yurgizadi. Bu shaharlarni hujum qilib zabt etadi va Aorn qal'asida Androkolning o'g'li Arxelay boshchiligidagi qo'riqchi qo'shin qoldiradi. Himoyasiz taslim bo'lgan boshqa baqtriylarga hokim bo'lib fors Artaboz tayinlanadi».

2. «U o'zi Oks daryosiga qarab yo'l oladi. Oks Kavkaz tog'laridan boshlab oqadi; hind daryolaridan tashqari, Aleksandr Osiyoda qurgan daryolar ichida bu eng yirik daryodir: umuman eng yirik daryolar Hindistonda joylashgan. Oks Girkaniyadagi katta bir dengizga quyiladi».

**III, 30,6.** «Aleksandr chavandoz qo'shinlarini mahalliy otlar bilan ta'minlab, Sug'diyona poytaxti Maroqandaga yo'l oladi». **7.** «Shu joydan Tanais daryosiga qarab yuradi. Tanais ham Kavkaz tog'laridan boshlanadi, Aristovul so'zlariga ko'ra, varvarlar<sup>1</sup> uni Orksant daryosi deydi: bu daryo ham Girkan dengiziga quyiladi».

<sup>1</sup> Yunon tilida so'zlashmagan ajnabiylar.

10. «Shu yerda oziq-ovqatlar g'amlashga chiqqan makedonlar mahalliy aholi tomonidan qirib tashlanadi, keyin ularning o'zlari tik va chiqib bo'lmaydigan qoyaga qochib bekinadilar. Ular 30 mingga yaqin bo'lgan».

11. «Makedonlar qoyaga chiqish uchun bir necha marta harakat qiladilar; dastlab ular varvarlar o'qlari ostida ortga chekinadilar; ko'p askarlar yarador bo'ladi; Aleksandrning soniga o'q tegib, suyagining bir qismini ushatib qo'yadi. Shunga qaramasdan tog' hujum bilan olinadi. Makedonlar varvarlarning bir qismini joyida qirib tashlashadi, ularning ko'plari o'zlarini qoyalardan tashlab halok bo'lishadi, shuning uchun ham 30000 dan 8000 kishi tirik qoladi».

IV, 5, 2. «Spitaman o'z jangchilari bilan Maroqanda qal'asini qo'riqlayotgan makedonlarga hujum qiladi. Aleksandr Maroqandaga yordamchi qo'shin yuborganidan xabar topib, Spitaman qal'a qamali to'xtatib, Sug'diyonadagi basileya – podsho shahriga o'tlanadi. Farnux va uning lashkarboshlari Spitamanni davlatdan butunlay siqib chiqarishga harakat qilishadi va Sug'diyona chegaralariga yetib kelib, ko'chmanchi skiflarga hujum qilishadi». 4. «Spitaman yana 600 ta skif otliqlarini o'z qo'shiniga qo'shib oladi va skif ittifoqdoshligidan ko'ngli ko'tarilib, hujum qilayotgan makedonlarga qarshi jang qilishga qaror qiladi. Skif dashtlarining tekisligida turib u dushmaning hujumini ham kutmadi, dushmanga hujum ham qilmadi; faqat uning chavandozlari piyoda makedonlarning atrofida ot qo'yib chopib yurdilar va ularga o'q otdilar». 5. «Farnuxning askarlaridan ular osonlik bilan qutuldilar, chunki ularning otlari chaqqonroq bo'lib, o'sha paytda hali charchamagan edi, Andromax qo'shinlaridagi otlar esa olis yo'llarda charchab, yemish kamligidan zaiflashgandi. Skiflar jang maydonida turgan va chekinayotgan makedonlarga g'ayrat bilan hujum qiladilar». 6. Ko'pdan ko'p makedonlar yaralanadi va halok bo'ladi; xullas jangchilar to'rtburchak bir qator saflanib, Politimet' daryosi tomonga chekinadilar; bu yerda o'rmon bo'lib, o'rmondagi

<sup>1</sup> Zarafshon.

changalzorlar varvarlarning o'qlariga to'siq bo'ladi va piyoda askarlarning harakatlariga ko'proq foyda keltiradi».

7. «Karan – gipparx<sup>1</sup> Andromaxga xabar qilmasdan otliqlarni bekitirish uchun daryodan kechib o'ta boshlaydi; piyoda qo'shin ham suvoriylar ortidan buyruqsiz yo'l oladi; umuman tartibsiz va qo'rquv holatida bo'lgan jangchilar daryoga jarlik qirg'oqlaridan tushadilar».

8. «Makedonlarning xatolarini sezib qolgan otliq varvarlar har ikkala qirg'oqdan otlari bilan daryoga tashlanadilar... Ularning ba'zilari daryodan kechib o'tishgan va uzoqlashganlarning ortidan quvadilar, boshqa birlari daryoni kechib o'tayotganlarga ro'para bo'lib, ularni ortga, suvga uloqtiradilar yoki o'q otadilar hamda daryoga yaqinlashib kelayotganlarning ortidan hujum qiladilar. Og'ir ahvolga uchragan makedonlar daryo o'rtasidagi kichik orolga tashlanishadi. Spitaman jangchilari ularni o'rab olib, hammasini qirib tashlashadi; boshqa bir kichik qismini asirlikka olib, barchasini o'ldirishadi».

IV, 6, 1. «Aristovulning aytishicha, ko'pdan-ko'p jangchilar changalzorda yashirilib turgan skiflarning pistirmasiga qamalib halok bo'lgan, ular o'z panagohlaridan jang qizigan paytida makedonlarga hujum qilishgan. Varvarlar hovliqish va tartibsizlik vaziyatidan foydalanib, ularning hammasini qirib tashlashgan. 40 ta otliq va 300 ta piyodalardan tashqari hech kim qutulib qolmagan».

6, 3. «Shu mag'lubiyat haqida Aleksandrda xabar yetib kelganda u askarlarning achchiq taqdirlaridan qayg'uga tushadi va Spitamanga qarshi shiddatli hujum qilishga qaror qiladi. U o'zi otliqlar qo'shinining yarmiga, qalqonchilarning hammasiga, o'qchilarga, agrianlarga va tezyurar piyoda askarlarga yo'l boshchi bo'lib Maroqandaga yo'l oladi, uning bilishicha, Spitaman shaharga qaytib qal'ani yana qamal qilgan». 4. «Uch kun davomida Aleksandr 1500 stadiy masofadan o'tib, to'rtinchi kunning tongida shaharga yetib keladi. Spitaman Aleksandr shaharga yaqinlashib kelishi haqida eshitib, uni kutmasdan qochib ketadi. 5. Aleksandr uning izidan quvadi. Jang maydoniga yetib, u halok

<sup>1</sup> Otliq qo'shinning yo'l boshchisi.



bo'lgan askarlarni dafn qiladi va chekinganlar ortidan sahrogacha quvib boradi. Shu yerdan ortga qaytish yo'lida u mamlakatni xarob qiladi va unga xabar berishlaricha, makedonlarga hujum qilishda ishtirok etib, so'ng qal'alariga yashiringan varvarlarni qirib tashlaydi. U Politimet daryosi suvlaridan foydalanuvchi butun mamlakat yerlaridan o'tdi».

**IV, 7, 1.** «Bu yerdagi ishlarni tugatib, Aleksandr Zariaspga yetib keladi. Bu joyda u qishni o'tkazishga qoladi...».

**15, 4.** «Shu paytda Aleksandrning oldiga bir yarim ming chavandozlarga yo'lboshchi bo'lib xorasmiylarning podshosi Farasman yetib keladi. U kolxlar va amazonka qabilalariga qo'shni bo'lib yashaganligi haqida hikoya qilib, Aleksandrning amazonkalar, kolxlar va Eviksin dengizidagi qabilalarni istilo qilish istagi bo'lsa, yo'l ko'rsatuvchi bo'lishga va qo'shinlarining yurishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berishga xayrixoh ekanligini bildiradi».

**15, 5.** «Aleksandr Farasmanga minnatdorlik bildiradi va do'stlik ittifoqchiligi haqida shartnoma tuzib, Pont dengizi tomonga yurishga hozir vaqt yo'q, deb javob beradi. U Farasmani Baqtriya satrapi fors Artaboz huzuriga yuborib, vataniga jo'natadi».

**15, 7.** «U o'zi Oks daryosiga yo'l oladi. Juda ko'p sug'diylar ishtekomlarida to'planishib, ularga tayinlangan hokimga qarshi chiqadilar, bundan xabardor bo'lgan Aleksandr Sug'diyona tomonga yurishni maqsad qiladi».

**1.** «Aleksandr askarlarining ma'lum bir qismi bilan Sug'diyonaga yetib keladi, Poliperxont, Attal, Gorgiy va Meleagrlar Baqtriyada qoladi, ularga shu davlatni nazorat qilish bilan birga varvarlarning g'alayonlar ko'tarishiga yo'l qo'ymaslik va boshlagan qo'zg'olonlarni bostirish haqida buyruq beriladi». **2.** «O'z qo'shinlarini u beshta ayrim qismga bo'lib oladi. Birinchisi – Gefestion boshchiligida, ikkinchisi – Ptolemey Lag boshchiligida, uchinchisi – Perdikka boshchiligida, to'rtinchisi – Ken va Artaboz boshchiligida, beshinchi qism bilan u o'zi Maroqandaga o'tlanadi».

**4.** «Aleksandr shu ishlar bilan band bo'lgan paytda, Spitaman skif- massaget yerlaridan 600 ta o'tliq massagetlar bilan bir qal'aga

yetib keladi. Qal'a qo'riqchilarining boshlig'i va uning jangchilari ham dushman tomonidan hujum xavfni kutishmagan, askarlar qiriladi, yo'lboshchi asirlikka olinadi. Shu qal'ani qo'lga kiritishgandan ko'ngillari ko'tarilib, ular bir necha kundan so'ng Zariaspga yetib kelishadi, ammo shaharga hujum qilishmaydi va katta o'ljani qo'lga olib ortga qaytishga qaror qiladilar».

**6.** «Zariaspda kasal bo'lib qolgan bir necha o'tliq – «do'stlar» skiflarning hujumi haqida eshitib, ular Zariaspni qo'riqlash uchun yollangan 80 ta chavandozga va ba'zi bir «podsho yigitlari»ga boshliq bo'lib massagetlar ortidan quvadilar. Hech narsani kutmagan skiflarga hujum qilib, birinchi jangda ulardan o'ljasi tortib olib, juda ko'p qaroqchilarni qirib tashlaydilar. Tartibsiz holda ortga qaytadigan paytda ular Spitaman va skiflarning qo'lga tushib, 7 ta «do'stlar» va 60 ta yollangan chavandozlardan ajraladilar».

**17, 1.** «Krater bu haqda xabar olib, massagetlarga qarshi shiddatli yurish boshladi. Ular bundan xabardor bo'lib, cho'lga qochadilar. Krater Spitamanning izidan quvib, unga sahro chegaralarida yetib oladi, uning boshchiligida yana mingta o'tliq massagetlar bor edi. **2.** Makedonlar va skiflar o'rtasidagi kuchli jangda makedonlar g'alaba qozonadilar. Skiflarning bir yuz ellikta chavandozlari halok bo'ladi. Boshqalari osonlik bilan cho'lga bekinadilar; ularning ketidan quvish makedonlar uchun og'ir bo'ladi». **3.** «Spitaman va uning tarafdorlari makedonlarning qo'riqchilari barcha joylarni to'sib olganliklarini ko'rib aniq bir joyga qochishga yo'l topmadilar, Ken qo'shinlariga hujum qilish va aynan shu jangda g'alaba qozonishga qaror qiladilar. Ular Baga<sup>1</sup> nomli sug'diylar va skif-massagetlar chegaralaridagi joyga yetib kelishadi va 3000 ta ko'chmanchi chavandozlarni Sug'diyona tomonga yurishga rozi qiladilar». **4.** Bu skiflar juda ham qashshoq ahvolda yashashgan; ularning shaharlari va o'troq manzilgohlari yo'q edi; boy mulklaridan ajrab qolishdan qo'rquv sezgilari ham bo'lmagan edi va shunga ko'ra, ularni har qanday

<sup>1</sup> Taxminan Buxoro vohasi.

urushlarga rozi qilish hech narsa emasdi. Ken Spitaman yaqinlashib kelishini sezib unga qarshi chiqadi». **5.** Shiddatli jang boshlanib, u makedonlar uchun g'alabali yakunlanadi; bu jangda dushmanlarning 800 ta otliqlari, Ken qo'shinidan esa 25 ta chavandoz va 12 ta piyoda askar halok bo'ladi. Ko'pchilik baqtriyaliklar Spitamandan qochib, uni yakka qoldirishadi va Ken oldiga yetib kelib, asirga tushadilar. **6.** Mag'lubiyatga uchragan skiflar va massagetlar yaqinda ular bilan birga jang qilgan baqtriylar va sug'diylarning ot-aravalaridagi yuklarini talab, Spitaman bilan dasht ichiga qochadilar. Aleksandr o'zi sahroga hujum qilishga tayyorgarlik ko'rayotganini eshitib va shu maqsadda uni qaytarish uchun ular Spitamanning boshini kesib, Aleksandrqa yuboradilar».

**Kursiy Ruf. VII kitob, IV bob, 26:** «Baqtriyaning tabiati boy va turli-tumandir. Ba'zi joylarda ko'pdan ko'p daraxtzorlar va tok novdasi, shirin meva serob hosil qiladi; unumdor yerlarni ko'p sanoqli buloq – daryolar sug'oradi; hosildor tuprog'ida bug'doy ekiladi; boshqa yyerlar o'tloqlar uchun qoldiriladi». **27.** «Davlatning katta bir qismini hosilsiz dashtlar egallaydi; suvsizlik tufayli tashlab qo'yilgan yerlarda na odamlar, na mevalar bor. Pontdan<sup>1</sup> esayotgan shamollar tekisliklarga qumlarni surib keltiradi; olis masofadan qum uyumlari katta tepaliklarga o'xshab ketadi; shu yerda burungi yo'llarning izlari yo'qolib qoladi». **28.** «Shu boisdan ham bu tekisliklardan o'tib yurganlar, xuddi dengizchilarga o'xshab, o'z yo'llarini tundagi yulduzlar orqali topadilar».

**V.** «Aleksandr baqtriylar viloyatini Artaboz idorasiga topshirib, bu joydagi qo'riqchilar qo'shini bilan birga ot-arava yuklarini qoldiradi. O'zi esa harakatdagi qo'shinlarga yo'l boshchi bo'lib, Sug'diyona sahrosiga yo'l oladi...».

**V. 13.** «Xullas, kechki payt u Oks daryosiga yetib keladi. Ammo uning izidan kelayotgan ko'pdan ko'p jangchilar unga etisholmaydi va orqada qolishadi, shu sababli u baland tog' ustida o't yondirishga

<sup>1</sup> Qora dengiz.

buyruq beradi, ortda qolganlar uchun alanga nuri lagerga yaqinlashib kelishlarini bildiradi».

**V. 16, 17, 18.** «Ushbu tunni Aleksandr katta ruhiy hayajon bilan uyqusiz o'tkazdi. Keyingi kun ham oson bo'lmadi; kemalar yo'q edi va daryoning ochiq qirg'oqlarida ko'prik qurish uchun daraxtzorlar ham bo'lmagan. Shu vaziyatdan u yagona xulosa chiqaradi. U askarlarga somon bilan to'ldirilgan meshlarni tarqatishga qaror qiladi; ular meshlar ustida daryodan suzib o'tishni boshlashadi: daryodan birinchi bo'lib kechib o'tganlari qo'riqchilar xizmatini bajarib, boshqalarni kutib olishadi. Shu tarzda qo'shinlar oltinchi kuni daryoning narigi qirg'og'iga o'tib olishga muvaffaq bo'ladilar».

**VII. 6, 17.** «Aleksandr Maroqandaga yetib keladi. Uning mudofaa devorlarining uzunligi 70 stadiy; shahar qo'rg'oni ikkinchi devor bilan ham o'ralgan».

**VII. 1, 2.** «Tanais ortidagi skif davlatining podshosi makedonlar tomonidan daryo bo'yida asos solingan shahar qullik bo'yinturug'i bo'lishini sezib, uni vayron qilish va makedonlarni daryo qirg'og'idan uzoq masofaga quvib chiqarish uchun katta bir otliq qo'shin bilan birga o'z akasi Karatazis nomli yo'l boshchini yuboradi. Tanais baqtriylarni yevropalik skiflardan ajratadi». **4.** «Ular Istr daryosining narigi yog'idagi boshqa bir viloyatni egallab, Osiyoning chegara yerlarida joylashgan Baqtriyaga ham qo'shni bo'ladilar. Ular joylashgan shimol yerlaridan nariroqda qalin o'rmonzorlar va odam yashamaydigan jimjit sayxonlik yerlar boshlanadi; Tanais va Baqtriya bo'yab joylashgan yerlar, umumiy madaniy izlarga ega». **5.** «Aleksandr tayyorgarlik ko'rmasdan birinchi bo'lib jang qilishga erishadi, uning ko'z o'ngida dushman chavandozlari otda chopadilar, u esa yaradorlikdan butunlay tuzalmagan... Xullas, u do'stlarini maslahatga chaqiradi». **6.** «U dushmandan emas, noqulay vaziyatdan qo'rqqan edi. Baqtriylar isyon ko'taradilar, skiflar bezovta qilardilar; uning o'zi zo'rg'a oyoqda turib, otga minishga ham, yo'l boshchi bo'lib askarlarni ruhlantirishga ham imkon topmadi...».

**30.** «Yetib kelayotgan xabarlar uning to'xtovsiz g'alabalari sha'niga mos kelmas edi».



31. «Yuqoridagi hikoyaga ko'ra, u baqtriylar qo'zg'oloniga aybdor Spitamanga qarshi Menedemni yuboradi. U makedonlar yaqinlashib kelishi haqida eshitib va shahar atrofida qamalib qolishdan saqlanish uchun panagohga bekinadi. Shu yerdan o'tishi mumkin bo'lgan dushmanga hujum qilishga qaror qildi».

32. «Yo'l pistirma uchun qulay joyni kesib o'tadi, shu yerda u daxlarni yashintiradi. Har bir otga ikkita qurollangan chavandoz minadi, kutilmaganda ular navbat bilan yerga tushib otliqlar jangidagi dushmanlarga to'sqinlik qiladilar». 33. «Jangchilarning epchilligi otlarning chaqqonligiga o'xshab ketadi. Spitaman changalzorni o'rab olishga buyruq berib; dushmanlarga qarshi birdaniga ortdan, ro'para va yon tomonlardan hujum qiladi».

34. «Menedem barcha tomondan o'rab olinadi, u notanish joyda pistirmaga tushgan va boshqa hech iloji yo'qligini ko'rib, o'z jangchilariga son jihatdan ustun bo'lgan dushmanlarni qirib tashlashga va mag'rur halok bo'lishga chaqiradi». 35. «Uning ostida kuchli ot bo'lgan; ko'p hollarda varvarlar safiga tashlanib, ularga dahshatli zarar keltiradi. 36. «Dushmanlar unga ko'pdan ko'p o'q otadilar. Sanoqsiz yaralardan zaiflanib... u jonidan judo bo'ladi va ot ustidan yerga tushib qoladi».

39. «Bu jangda 2000 ta piyoda askarlar va 300 ta chavandozlar halok bo'ladi. Jang maydonidan kelgan askarlarni o'lim jazosi bilan qo'rqitib, Aleksandr mag'lubiyat haqidagi xabarni ehtiyotlik bilan sir saqladi».

IX. 20. «Krater bilan qo'shinlarining katta bir qismiga ortidan yurishga buyruq berib, Aleksandr Maroqandaga yetib keladi, uning kelishidan Spitaman xabar topib, bu yerdan Baqtra tomonga qochishga majbur bo'ladi».

X. I. «Sug'diyona – keng hududiy masofadagi dashtli mamlakatdan iborat, cho'llarning kengligi 80 stadiyga yaqinlashadi. To'g'ri yo'nalishda – bu yirik davlatdir, mahalliy aholi tomonidan Politimet degan daryo mamlakat bo'ylab shiddatli oqadi. Qirg'oqlar suv yo'li o'zanini toraytirgandan so'ng daryo g'or ichiga oqadi va yerga singib

ketadi». 4. «Sug'diylar asirlaridan podshoga 30 ta kuchli yerlarni olib keladilar, ular podsho buyrug'iga binoan o'lim jazosiga berilishlarini eshitib, mag'rur holatda g'oyat xursand bo'lib kuylaydilar...». 5. «Podsho ularning mardligidan ajablanib, ortga qaytarishga buyruq beradi va o'lim oldidan ularning shodlanish sabablarini surishtiradi. Ular aytadilarki, agar o'zlariga boshqa birov o'lim jazosini berganda, qayg'ulanib o'lishardi, ammo o'z ajdodlarining yoniga ularga hamma qabilalar ustidan g'olib chiqqan ulug' podsho yuborganligidan xursand bo'lib, o'z jonajon qo'shiqlarini aytadilar va butun jasurlar orzusi bo'lgan faxrli o'limni bayram qiladilar».

VIII. 10. «Podsho Bazaira nomli viloyatga yo'l oladi. 11. Bu viloyatning eng katta boyligi – keng daraxtzorlarda va qo'riqxonalarda saqlanib yashayotgan hamda maxsus urchitilgan turli hayvon zotlari bo'lganligidir. Bunga ko'p buloqlarga ega o'rmonzorlar ataylab ajratilgan; shu daraxtzorlar istehkomlar bilan o'ralgan va ovchilar uchun burjlar va makonlar qurilgan». 13. «Ma'lum bo'lishicha qo'riqxonalaridan birida to'rt avlodlar hayoti davomida hech kim ov qilmagan. Aleksandr o'z askarlari bilan qo'riqxonaning ichiga kirib hayvonlarni ov qilishga buyuradi».

14. «Kamdan kam uchraydigan kattalikdagi sher Aleksandrning ro'parasiga yugurib chiqadi, uning yonida tasodifan turgan va keyinchalik podsho bo'ladigan Lisimax hayvonni shoxdor tayoq bilan kutib olishga tayyor bo'ladi. Ammo podsho o'zi chetlashtirib va ovga xalaqit bermaslikka buyurib yagona o'zim ham Lisimaxga o'xshab sherni o'ldirishim mumkin deb gapiradi». 15. «Axir bir paytlar Suriyada ov qilib Lisimax yagona o'zi kamyob kattalikdagi hayvonni o'ldirgan. Biroq hayvon Lisimaxning chap yelkasini suyagigacha talab uni o'lim holatiga keltirgan. Shu haqida Lisimaxga malomat bilan eslatib, podsho o'z jasoratini so'zlarida emas, amalda isbotladi: u sherni yaqinlashtirib bir zarba bilan o'ldiradi...».

19. «Shu joydan u Maroqandaga qaytadi. U Artabozni faxrli yoshiga ko'ra hokimligidan ozod qilib, viloyatni Klit idorasiga o'tkazadi. Xuddi shu Klit Granik daryosi yonida Aleksandrni o'z qal-

qoni bilan bekitib, podsho boshi ustida Rezak tomonidan ko'tarilgan qilichli qo'lni kesib tashlaydi».

**Strabon, «Geografiya». XI kitob, XI bob, 3:** «Oldingi zamonlarda baqtriylar, sug'diylarning turmush tarzi va urf-odatlari ko'chmanchilarning turmushi tarzidan ko'p farq qilmagan, ammo baqtriylarning an'analari ancha yuqori madaniyatga ega bo'lgan; lekin ular haqidagi Onesikritning fikri maqtovg'a sazovor bo'lmaydi. Uning so'zlariga ko'ra, qarilik va kasallikdan qattiq toliqqan odamlarni ular maxsus boqilgan va o'zlarining mahalliy tillarida «go'rkovlar» degan itlarga tashlaganlar, Baqtriylar poytaxti devorlaridan tashqari, joylar toza bo'lgan, lekin davlat ichkarisidagi hududning katta bir qismi odamlar suyaklari bilan to'ldirilgan. Aleksandr bu urf-odatni yo'q qildi. Shunga o'xshagan hikoyalarni kaspiylar haqida ham aytib beradilar: ular 70 yoshdan oshgan o'z ota-onalarini qamab qo'yadilar va och qoldiradilar».

**XI. 4.** «Aytishlaricha, Aleksandr Baqtriya va Sug'diyonada 8 ta shaharga asos solgan va ko'plarini vayron qilgan. Vayron qilinganlari jumlasidan Baqtriyadagi Kariata (bu yerda Kallisfen qo'lga tushib qamoqqa olingan), Sug'diyonadagi Maroqanda va Kira – Yaksart daryosidagi Kir tomonidan qurilgan oxirgi shahar; bu fors, davlatining chekkasi bo'lgan. Aleksandr Kirni hurmat-izzat qilgan bo'lsa ham, bu shahar aholisining ko'pdan ko'p qo'zg'olonlari sabablariga ko'ra, uni vayron qilishga buyruq bergan...».

**XI. 5.** «Sug'diyona ichidan oqayotgan daryoni, Aristovulning aytishicha, makedonlar Politimet deb atashgan (xuddi shunday ular boshqa ko'p nomlarni almashtirishgan va qisman o'zgartirishgan). Ariylar yeridan oqayotgan Ariy daryosiga o'xshab, bu daryo davlat yerlarini sug'orib, dasht va sahro viloyatiga intiladi va qumlar ichida yo'qolib ketadi».

## **8.2. Siyosiy voqealar. Aleksandr va Spitaman. Yunon-makedonlarga qarshi kurash**

Mil. avv. 329-yilda Aleksandr 15 kun davomida muz – qorli Hindu-kush tog'idan o'tib, Baqtriyaning markazi Baqtra hamda Drapsak va Aorn

shaharlarini jangsiz istilo qiladi. Baqtriya va Sug'diyonaning satrapi Bess oxirgi ahamoniy podsho Doro III ni fitnachilar tomonidan o'ldirishda qatnashib, o'zini Artakserks nomida «ulug' podsho» deb e'lon qiladi va Sug'diyonaning Nautaka viloyatiga qochishga majbur bo'ladi.

Baqtradan Maroqanda shahrigacha yetib borish vaqti to'g'ri yo'nalishda 12 kunga teng bo'lgan. Ahamoniylar davridan boshlab bir kunlik yo'l o'lchovi, Gerodotning aytishicha, 50 stadiy yoki 5 farsax (28 km) tashkil etgan. Sug'diyonaga yurish Baqtra shahridan boshlangan. Aleksandr oziq-ovqat mahsulotlarini yetarli g'amlab olib, Oks – Amudaryoga yo'l oladi.

Rim tarixchisi Kursiy Rufning ma'lumotlariga ko'ra, Baqtradan Oks daryosigacha bo'lgan masofa 400 stadiy (75 km)ni tashkil etgan. Bu masofani Aleksandr askarlari ikki yarim kun davomida bosib o'tib, Amudaryoni Termiz va Kalif o'rtasida kechib o'tishadi. Amudaryodan kechib o'tishning eng qadimgi joyi Termizdan g'arbdagi Sho'rob va Cho'chqa Guzar bo'lgan. Sho'rob o'rnida mil. avv. VI–IV asrlarga oid manzilgoh xarobalari topilgan.

Bu vaqtda Bess – Artakserks Sug'diyona ichkarisiga qarab ketadi, ammo yangi podshoni sug'diylar Spitaman, Arimaz, Avstan (Gavstan) va Datafernlarni asirga olib Aleksandrga topshirishga tayyor bo'ladilar. Aleksandr bundan xabardor bo'lib, shoshilinch ravishda lashkarboshi Ptolemey Lagni Nautakaga yuboradi. Arrianning aytishicha, Oksdan Nautakagacha o'n kunlik yo'l bo'lgan, ammo bu masofani Ptolemey qo'shinlari to'rt kun ichida bosib o'tishgan. Soqchilar o'zlari qo'riqlab turgan Bessni maxsus joyda qoldirib, Spitaman tarafdorlari bilan birga makedoniyaliklar uchun noma'lum bo'lgan tomonga qarab ketadilar.

Yo'l boshchilar va jangchilarsiz qoldirilgan Nautaka hamda Maroqanda shaharlarini Aleksandr osonlik bilan qo'lga kiritadi. Faqat Maroqanda atrofida joylashgan bosqinchilarga qarshilik ko'rsatgan sug'diylar uy-ko'rg'onlari podsho buyrug'iga binoan vayron qilinadi.

Aleksandr Maroqanda shahrida o'z harbiylarning bir qismini qoldirib, Sirdaryo – Yaksart tomonga yo'l oladi. Maroqanda va



hozirgi Xo'jand o'rtasidagi Ustrushona tog'larida makedoniyalik qo'shinlarga mahalliy aholi – mamakenlar hujum qiladilar. Aleksandr yaralanadi. Shiddatli kechgan jang Aleksandrning g'alabasi bilan yakunlanib, unda 22 ming ustrushonaliklar halok bo'ladi.

Sirdaryo etagidan uzoq bo'lmagan Kiropolis shahri qamal qilindi. Shu vaziyatda Yaksartning shimoliy qirg'og'ida saklar to'planib makedonlarga hujum uyushtirishga hozirlanadilar. Aleksandr hozirgi Bekobod va Xo'jand oralig'ida Sirdaryodan kechib o'tadi va qattiq jangdan so'ng saklar chekinadilar.

Aleksandr ortga qaytib Yaksart bo'yida Aleksandriya Esxata (uzoq, chekka Aleksandriya) shahriga asos soladi. Shu davrda kutilmaganda Sug'diyonadan xavotirli xabar keladi – Spitaman boshchiligida yunon-makedonlarga qarshi qo'zg'olon boshlanadi va Maroqandadagi Aleksandrning harbiy qismlari qamal qilinadi.

Qo'zg'olonchilarni tor-mor qilish uchun Aleksandr Farnux va Karan boshchiligidagi piyoda hamda otliq askarlarni Maroqandaga shoshilinch jo'natadi. Politimet – Zarafshon bo'yidagi jangda Spitaman yunonlar ustidan g'alaba qozonadi, ikki mingdan ortiq yunon-makedonlar halok bo'ladilar. Biron marta jangda mag'lubiyatga uchramagan Aleksandr uchun bu nihoyatda katta mag'lubiyat bo'lib, Spitamanga qarshi jiddiy harbiy tayyorgarlik qo'rqishni talab qiladi.

Aleksandr asosiy kuchlari bilan Maroqandaga yetib keladi, biroq Spitaman Maroqandadan shimolga, «basileya» – «podsho shahri»ga (taxminan Samarqanddan 30 km shimolda joylashgan hozirgi Ko'ktepa shahar xarobalari) va keyinchalik, Buxoro vohasiga chekinadi. G'azablangan Aleksandr (u hali biror marta yengilmagan edi) Maroqanda va Quyi Zarafshon dashtlari oralig'idagi tinch aholini qirib tashlaydi.

Mil. avv 328-yilda Spitaman Baqtriyada va Quyi Zarafshonda yunon-makedonlarga qarshi hujum uyushtiradi. Ammo bu janglar qo'zg'olonchilar uchun muvaffaqiyatsiz yakunlanadi va Spitaman saklar bilan cho'lga qochishga majbur bo'ladi. Saklar Aleksandrning ko'chmanchilar yerlariga hujumga tayyorgarlik ko'rayotganidan xabardor bo'lib, Spitamanni o'ldiradilar.

Sug'diyona xarobaga aylanib qoladi, juda ko'p sug'diylar tog'larga qochib yashirinadilar. Mil. avv. 327-yilda Aleksandr Hisor tizmasida joylashgan, sug'd zodagoni Oksiart egallab turgan «Sug'd qal'asi»ni qo'lga kiritib, uning go'zal qizi Ravshana – Ruxshanak (Roksana)ga uylanadi.

Yana bir qudratli qal'a (Xoriyen yoki Sizimitr qal'asi) Sug'diyona va Baqtriya chegaralaridagi tog'larda joylashgan. Bu yerda Xoriyenning oila a'zolari hamda yaqin qarindoshlari, tarafdorlari va xizmatkorlari yashiringan edi. Xoriyen o'z ixtiyori bilan Aleksandrga bo'ysunishga rozi bo'lgan. Albatta, Oksiart va Xoriyenga o'xshagan shaxslar o'z hayotini, tinchligini va mol-mulklarini himoya qilishgan. Jasur Spitaman ham o'zini asrab saqlashi mumkin edi, ammo u chet el bosqinchilariga qarshi ona zamin – vatanning mustaqilligi uchun kurashdi. Spitaman uchun Vatanni himoya qilish muqaddas burch bo'lgan.

Rus olimi V.V. Grigoryev vatanparvar sug'diylarga va ularning boshlig'i Spitamanga hurmat-izzat bilan juda yuksak baho bergan: «Agar Doro Aleksandrden o'z podsholigini himoya qilolmagan bo'lsa, Bess razil nomard chiqqan bo'lsa ham, ammo bu yerda, Turonda, shunday yuraklar topildiki, ular chet elliklarga bo'ysunish sezgisiga itoat etmadilar, shunday qo'llar topildiki, ular chaqirilmagan begonalarga qarshi xalq qasosini namoyon yetdilar». Shuni ta'kidlash joizki, Spitaman Zardusht singari qadimiy Spitama urug'idan kelib chiqqan. Shu boisdan uning ismini «Spitaman» deb atash tarixiy haqiqatga javob beradi. Adabiyotlarda bu ism an'naviy «Spitamen» (yunon tilida) shaklida noto'g'ri yoritiladi.

Aleksandr Baqtriya, Sug'diyona va Ustrushonaning bir qismini istilo qilib, mil. avv. 327-yilda Hindistonga hujum boshlaydi. O'rta Osiyoda Xorazm, Choch, Farg'ona va saklar yurti mustaqil bo'lib qoladi. Sug'diyona, Baqtriya, Marg'iyona va Parfiya yangi davlatga qo'shilib, keyinchalik ular Salavkiylar davlati tarkibiga kiradi.

Aleksandrning yurishlari tarixi jahon adabiyotlarida juda ham mashhurdir. Uning hayoti faoliyati va yurishlari haqida yunonlar, rumiylar, forslar va arablar qadimgi zamonlarda hamda o'rta asrlarda



ko'p asarlar yozishgan. Bu asarlarning mualliflari Aleksandrni tarixiy shaxs sifatida turlicha baholaganlar (jahon xalqlarini va davlatlarni birlashtiruvchi podsho, adolatli dunyo davlatiga asos solishni maqsad qilgan shaxs yoki aksincha bosqinchi, xalqlarni zabt etuvchi, o'lim va zulm keltiruvchi podsho kabi fikr-xulosalardir). Plutarxning aytishicha, «Aleksandr Osiyoga qaroqchi bo'lib o'tmadi, uning orzusi kutilmagan omad bergan o'lja-boyliklarni qo'lga kiritish maqsadidan tashqari, bu dunyoda hammani bir qonunga tobe qilish va bir davlatga to'plab, insonlarni bir xalqqa birlashtirish edi».

Sharqdagi o'rta asrlarga oid adabiyotlarda Makedoniyalik Aleksandr jasur podsho va bahodir jangchi sifatida ham yoritilib, uning bosqinchilik urushlari, mahalliy aholini qirib tashlashi va shaharlarining vayron qilishiga e'tibor berilmagan. Aleksandr Sharq xalqlarini ahamoniyar zulmidan ozod qilib, ularning ustiga yunon-makedonlar zulmini o'rnatdi. Hokimiyat almashib, siyosat o'zgardi, ammo xalqlar mustaqil bo'lmadi. Bu zulmdan qutulish uchun O'rta Osiyo xalqlariga ko'p vaqt kerak bo'ldi.

Makedoniyalik Aleksandr o'z davrining farzandi edi. Shu zamonning siyosiy jarayonlari shunday sarkarda, podsho shaxsni talab etdi va keyingi davrlarda ham bosqinchilik urushlarining o'choqlari ikki tomonlama – G'arbda va Sharqda paydo bo'lib, ko'pdan ko'p mamlakatlarga, shaharlarga, xalqlarga azob va o'lim keltirdi. Bu voqealarga vaqt o'zi to'g'ri baho bergan.

Aleksandrning harbiy yurishlari Sharq va G'arb o'rtasidagi keng savdo-sotiq hamda madaniy aloqalarning rivojlanishiga olib keldi. Aleksandr va uning yaqin lashkarboshilarining vafotidan so'ng mahalliy hamda yunon madaniyatining qo'shilish jarayoni boshlandi. Bu jarayonning ta'sirini moddiy madaniyatning rivojlanishida, qurilish va me'morchilikda, kulolchilik va tasviriy san'atda, yangi alifbo va yozuvlarning tarqalishida, tangashunoslikda hamda diniy e'tiqodlarda ko'rish mumkin. Yunonlar Qadimgi Sharqning juda ko'p madaniy yutuqlarini qabul qilishadi va o'zlarining madaniy ta'sirlarini ham mahalliy aholining madaniyatiga joriy etishadi.


Makedoniyalik Aleksandrning yurishlari yozma manbalarda Qadimgi Sharq va O'rta Osiyo tarixiy geografiyasiga oid ma'lumotlarning ko'payishiga asos soldi. O'z harbiy yurishlaridan oldin Aleksandr Qadimgi Sharq aholisining joylashuvi va mamlakatlarning hududiy chegaralari bilan tanishib olishda Skilak, Gekatey, Gerodot va Ktesiylarning xabarlariga asoslanishi mumkin edi. O'rta Osiyo va Hindistonga yetib kelgandan so'ng yunon-makedonlarning geografik bilimlari ancha kengayib, ularga dunyo chegaralari («oykumena») Yaksart va Hind daryolaridan o'tmaganligi ma'lum bo'ladi. Yaksartning ortidagi bepoyon cho'llar, Hind daryosining narigi yog'ida yana bir sersuv daryo Gang, shuningdek, dahshatli o'rmonzorlar va baland cho'qqili tog'lar Aleksandrni ajablantirib, dunyo chegaralarining bu yerda boshlanmaganligi podshoni achchiq afsuslantiradi. Butun dunyo xalqlarini umumiy davlatga birlashtirish, Aleksandr uchun hech qachon yechilmaydigan muammo va xayoliy orzu bo'lib qoladi.

Aleksandrning Hindistonga yurishlari paytida Sug'diyona, Eron, Old Osiyodan to Afina shahrigacha bo'lgan hududlarda podshoning halok bo'lganligi haqidagi qayg'uli xabar tarqaladi. Davlat taxtini qo'lga olib, podsho bo'lish maqsadni o'z oldiga qo'ygan shuhratparast hokimlar uchun bu xushxabar edi. Ular Aleksandrga nisbatan qo'rquvni yo'qotib juda xursand bo'lishadi, aksincha ko'pdan ko'p oddiy yunonlar va makedonlar esa qayg'ulanishadi. Afina shahrida motamga tayyorgarlik boshlangan paytda bir so'zlovchi paydo bo'lib, bunday deydi: «Afinaliklar, Aleksandr halok bo'lmadi, bo'lmasa uning jasadini butun dunyo birdaniga his qilar edi». Aleksandrning ulug'vorligi va shon-sharafligi e'tirof qilindi.

Shu davrda uzoq Hindistonda yunon-makedoniyalik askarlar harbiy yurishlarni davom ettirishga rozi bo'lishmaydi. To'xtovsiz janglar va shaharlarni qamal qilish, notanish xavfli yurtlar va jiddiy sinovlar, yangi va yangi tog'lar bilan bepoyon ketma-ket cho'llar hamda keng chuqur daryolar ularning joniga tegib, endi boshqa qiziqtirmasdi. Begona o'lkalarning yo'llarida makedoniyaliklarni har bir qadamda bexosdan o'lim yoki yaradorlik kutib olardi. Nayza va xanjarlarni




## Makedoniyalik Aleksandr davlatining qulashi va O'rta Osiyoda yangi davlatlarning tashkil topishi



zang bosib. ularni yaroqsiz holga keltirib qo'ydi. Bosqinchilarning chidamligida ham aniq bir chegara bor. Yunon-makedonlar Sharqda gi urushlardan va qon to'kilishidan charchashgan edi.

Hindistonda Aleksandr oykumena chegaralarida joylashgan aholini zabt etish maqsadiga erishmaydi va o'z orzulari bilan yakka bo'lib qoladi. Uzoq Hind daryosi chegaralarida Aleksandr harbiylariga ulug' podsho, vatan tuyg'usi va urushlar xudosi bo'lgan bo'lsa ham uning jangovar askarlari oldinga bir qadam ham yurishni orzu

## Osiyoda Aleksandrning boshqaruv faoliyati asoslari



qilishmadi. Ular Aleksandrga murojaat etib, yurishlarni to'xtatishni iltimos qilishadi. Agar podsho bunga rozi bo'lmasa, u barcha sodda jangchilarni qirib tashlab, Gang daryosiga Sharqiy otasi - misrlik xudo Amon bilan birgalikda o'zi yurishi mumkin deb o'ylagan makedonlar.

Aleksandr Sharqiy yurishlar to'xtatilishini e'lon qilib, yana bir yuksak g'alabani qo'lga kiritadi - jangchilar behad xursandchilikka sazovor bo'lishadi. Mil. avv. 325-yilda yunon-makedonlar kemalardan foydalanib, Hind daryosi orqali okeanga yetib borishadi. Shundan so'ng Nearx boshchiligida harbiylarning bir qismi kemalarda Fors qo'ltig'iga qarab suzadi. Aleksandr va jangchilarning boshqa bir qismi Gedrosiyo sahrolar ichkarisiga kirib, Eronga yo'l olishadi. Mil. avv. 324-yilda ularning hammasi dengiz va sahro yo'llarida juda qattiq azob tortib, Erondagi Suza shahrida uchrashadi.

Makedoniya, Kichik Osiyo, Misrdan, Sirdaryo va Hindistonga cha cho'zilgan sayxon yerlarda yirik davlatga asos solinadi. Bu davlatning poytaxti qilib Aleksandr Bobil shahrini e'lon qiladi. Ammo



uning asoschisi vafotidan so'ng (mil. avv. 323-yil) taxt uchun kurash boshlanib, bu davlat ayrim qismlarga bo'linib, parchalanadi. Jahon tarixida yangi jarayonlar boshlanadi.

### 8.3. Tarixiy geografiya

Mil. avv. II mingyillikning oxiri va I mingyillikning boshlarida O'rta Osiyoda yashab o'tgan qabilalar yangi etnomadaniy jarayonlarga asos solib, shu hududda yozma manbalardan bizga ma'lum sug'dlar, baqtriyaliklar, xorazmliklar va sak-massagetlar paydo bo'ladi. Ushbu elatlarning tarixi o'zaro keng madaniy ta'sirlar va aloqalar asosida rivojlanib, bir-biriga yaqin bo'lgan.

«Avesto»ning eng qadimgi qismlari Sug'diyonaga ta'rif berib, mamlakatni ikkita nomda ajratib ko'rsatadi – Sug'da va Gava Sug'da. Bu dalil Sug'da «mamlakati» yana Gava singari alohida viloyatlarga bo'linishidan dalolat bermasmikan yoki Gava, Sug'daning eng qadimgi nomi bo'lganmi?

«Avesto»ning mamlakatlar ro'yxatida birinchi navbatda tilga olinayotgan Aryoshayyona va Aryonam Vayjoni – bu keng hududda joylashgan o'lka deb tushunish mumkin.

Vanxvi Daiti daryosi «Avesto» ta'rifida yirik sersuv daryoga o'xshaydi. Aryonam Vayjo iqlimi sovuq viloyatlar tabiatiga yaqin bo'lib ko'rinadi. Biroq, mazkur geografik belgilar Aryonam Vayjoning hududiy joylashuvini aniqlash uchun yetarli emas.

Xuddi shunday o'xshash holat O'rta Osiyo ko'chmanchi qabilalarning tarixiy geografiyasiga oiddir. Gerodot massagetlarning hududiy joylashuvi haqida bunday yozadi: «Bu massagetlar jasur va behisob qabiladir. Ular Sharqda, quyosh chiqishi yo'nalishida, Araks daryosining narigi yog'ida joylashganlar... Araks daryosi Matiyona tog'laridan boshlab oqadi». Bu ta'rifda Gerodot Kavkaz tog'laridan boshlangan va Kaspiy dengiziga quyilgan Araks daryosi haqida ham yozgani ehtimoldan xoli emas. U paytlarda Amudaryo qadimiy O'zboy o'zani orqali Kaspiy dengiziga quyilgan. Massagetlar Shar-

qiy Kaspiybo'yi va Janubiy Orolbo'yi oralig'idagi O'zboy havzasida joylashganlar hamda Yoyiq (Ural) va Emba daryolarigacha yoyilgan hududlarda mavsumiy ko'chib yurishgan.

Ahamoniylar yozuvlari saklarning yashash joylarini dengiz va daryolar bilan bog'laydi. Katta sersuv daryo yonida (Amudaryo) «cho'qqi qalpoq kiyib yurgan» ko'chmanchilar, «dengiz ortidagi saklar» haqida ham manbalarda ma'lumot bor.

Qadimgi yunon va rim mualliflari O'rta Osiyo viloyatlari (Baqtriya, Sug'diyona) hududiy chegaralari haqida so'z yuritganda, antik davr tarixchilari mahalliy elatlarning aralash joylashuvi holatini hisobga olmaganlari kabi, turli viloyatlarning o'ziga xos geografik xususiyatlarini hamda qadimiy xalqlarning hududiy joylashish chegaralarini aniq belgilab berisholmagan. Gerodotning asarida «Baqtriya xalqi» tushunchasi tilga olinib, Baqtriyaning hududiy chegaralari haqida ma'lumotlar yo'q.

O'rta Osiyoda eng qadimgi xalqlarning alohida shakllanishi va etnik hududlarning ajrala boshlashi masalasi juda murakkab ilmiy muammo hisoblanadi. Buning sababi, yozma manbalarda qadimgi elatlarning hududiy ajrala borishi va ma'lum chegaralarga ega yerlarda joylashish jarayoni aniq ko'rsatilmagan.

Baqtriya, baqtriyaliklar (yoki Sug'diyona, sug'diylar hamda saklar) makrotoponim va etnonimlari yunon yozma manbalarda bosqinchilarga qarshi turgan elatlar yoki davlatning bir qismi bo'lib nazarda tutilgan.

O'rta Osiyoda aholi joylashgan viloyatlarning toponimlari turli davrlarga oid yozma manbalarda saqlanib qolgan. Biz ko'rib chiqayotgan hududlar yunon-rim mualliflari asarlarida Marg'iyona, Baqtriyona, Xorasmie va Sug'diyona bo'lsa, shunga mos ravishda qadimgi fors yozuvlarida Marg'ush, Baqtrish, Xuarazmi va Sug'uda, «Avesto»ning eng qadimgi qismlarida esa Mouru, Bahdi, Xvarizam va Sug'da tilga olingan.

Qadimgi fors yozuvlarini o'rganish asosida O'rta Osiyoning siyosiy tarixi to'laroq tadqiq qilindi. Qadimgi fors yozuvlarida O'rta Osiyo o'lkalari – satrapliklarning sanab o'tilishi, ularni ahamoniy-



lar tomonidan bosib olinishi aniq ko'rsatib berilgan bo'lsa ham, lekin ushbu o'lkalarning chegaralari va tarixiy geografiyasi to'g'risida yetarli darajada ma'lumotlar yo'q.

Yozma manbalarda O'rta Osiyo viloyatlarining nomlarini keltirishi ma'lum izchillikka ega bo'lsa-da, ularning tartib sanalari turlichadir:

Mamlakatlar	Yasht	Videvdat	Ahamoniylar yozuvlari		
			Behistun	Suza	Naqshi Rustam
Marg'iyona	3	3	yo'q	yo'q	yo'q
Baqtriya	yo'q	4	16	6	5
Sug'd	5	2	17	7	6
Xorazm	6	yo'q	15	11	7

Ahamoniylar yozuvlarida hamda Gerodotning «Tarix» asarida Marg'iyona mustaqil viloyat sifatida ajratilmagan. Sug'd esa mazkur manbalarda chekka viloyat sifatida ko'rsatiladi. «Avesto»ning Videvdat kitobidagi ro'yxatda Baqtriyaning Sug'ddan keyin tilga olinishi, qadimgi fors yozuvlarida Sug'dning Baqtriya bilan so'ng sanab o'tilishi, ular orasida hududiy chegara mavjudligini ko'rsatadi. Gekatey, Gerodot va Ktesiyning asarlarida O'rta Osiyo aholisining hududiy joylashuvi, alohida daryolar, tog'lar, voha va dashtlar bilan bog'langan holda yoritilgan.

Makedoniyalik Aleksandrning yurishlari natijasida manbalarda o'z aksini topgan ma'lumotlar tarixiy geografyaning dolzarb muammolarini hal qilishda asos bo'ldi. Manbalar shu nuqtayi nazardan hozirgi tarixiy adabiyotlarda yetarli darajada yoritilgan.

Yunon davri yozma manbalarida, Maroqandaga yurish qilayotgan Aleksandr qo'shinlari yo'lida Amudaryo Baqtriya va Sug'd o'rtasidagi chegara sifatida ta'riflangan. Oks – Amudaryodan shimolda sug'diylar yerlarining joylashganligi to'g'risida dalillar uchramaydi. Strabon: «Oks daryosi Baqtriya yerlarini Sug'diyonadan ajratadi», deb hisoblagan. Uning fikriga ko'ra, Baqtriya Areya chegarasi

bo'ylab, shimol yo'nalishda Marg'iyona va Sug'diyona oralig'ida bo'lib, Oks – Amudaryodan janub tomonda joylashgan.

Yunon-rim mualliflari asarlarida Baqtriya, Sug'd bilan Areya yoki Sug'd va Parfiya oralig'ida joylashgan, deb ta'kidlanadi. Biroq mazkur manbalarda O'rta Osiyo viloyatlarining hududiy chegaralari haqida aniq ma'lumotlar yo'q.

Yunon tarixchisi Arianning yozishiga ko'ra, Oks daryosi ortida Sug'diyona yerlari boshlangan. Strabon ma'lumotlarida Sug'diyona chegaralari ancha keng bo'lib, muallif Sug'diyonani «Baqtriya yuqorida, Sharqiy yo'nalishda» – Oks va Yaksart oralig'ida joylashtiradi. U holda Sug'd tarkibiga Amudaryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan, manbalarda tilga olinmagan va nomsiz qolayotgan Vaxsh, Kofirnihon va Surxon vohalarini kiritish mumkin. Ammo ushbu daryolar vohalari tarixiy va geografik jihatdan Baqtriyaning tarkibida bo'lib, uning shimoliy qismida joylashgan.

Qadimgi mualliflarning O'rta Osiyo janubidagi aholining joylashuvi hamda tarixiy viloyatlarning hududiy chegaralari to'g'risidagi tasavvurlari birmuncha umumiy bo'lgan. Rimlik tarixchi Kursiy Rufning bir gapi bunga misol bo'ladi: «Tanais (Sirdaryo) baqtriyaliklarni skiflardan ajratib turadi», yoki tarixchi yana shu narsani ta'kidlaydiki, baqtriyaliklar «urushqoq skif qabilalardan uzoq bo'lmagan joylarda yashaydi».

So'nggi yillar ilmiy adabiyotlarida O'rta Osiyo qadimgi viloyatlarining hududiy chegaralari to'g'risidagi bahs-munozaralar yana jonlanib ketdi. Ayniqsa, Baqtriya va Sug'diyona chegaralari to'g'risidagi mavzu dolzarb masala bo'lib, bu muammoni hal qilish uchun olimlar maxsus tadqiqotlar olib borishgan (I.V. Pyankov, B.Ya. Staviskiy, J.R. Garden, E.V. Rtveladze).

Yunon-rim tarixchilari hududiy chegaralarni O'rta Osiyodagi yirik daryolar bo'yicha ko'rsatib berishlari an'anasiga aniq fikr bildirish mumkin. Bunday an'ana mahalliy aholining yashash yerlari va viloyatlarning chegaralari to'g'risida qadimgi tarixchilar aniq va to'la tasavvurga ega bo'lmaganlaridan dalolat beradi. Shu sababli

yunon-rim tarixchilari hududiy chegaralarni daryolar bo'yicha ajratishgan.

Oks yoki Amudaryoni chegara sifatida, «daryo madaniy chegara» va «daryo ma'muriy yoki siyosiy chegara», deb ta'riflash mumkin. Ba'zi bir olimlar, Amudaryo ko'p hollarda hududiy-siyosiy chegara vazifasini bajargan bo'lsa-da, viloyatlar o'rtasida hech qachon madaniy chegara bo'lmagan, deb yozishadi. Bu fikrga to'la qo'shilib bo'lmaydi, chunki turli davrlarda, ahamoniylar davri yoki antik davrda Amudaryo tarixiy-madaniy viloyatlar va davlatlar o'rtasidagi chegara vazifasini bajarmagan.

Qadimgi davrlarda o'rta Amudaryo bo'yidagi zamonaviy Karki shahri atrofida boshlab inson yashamaydigan yoki juda kam sonli aholi yashaydigan «hech kimga qarashli» bo'lmagan bepoyon dashtlar boshlangan. Bunday hududlar keng masofalarni tashkil etib, Sug'diyonadagi hozirgi Buxoro va Qarshi vohalariga borib taqalgan. Shu sababli ham aholi kam sonli bu dashtlar yozma manbalarda bevosita sug'diylarga qarashli deb ko'rsatilgan.

Sug'diyona hududi ahamoniylar davrida va undan qadimroq zamonlarda Amudaryodan kechib o'tish bilan boshlanmagan, chunki Qashqadaryo vohasida topib tekshirilgan o'troq sug'diy aholining shahar va uy-qo'rg'onlar xarobalari Amudaryodan ancha olis masofada joylashgan. Shuning uchun ham Sug'diyona bilan Baqtriya o'rtasidagi hududiy chegaralar Amudaryodan (hozirgi Termizdan Karkigacha bo'lgan yerlarda) o'tmagan bo'lishi kerak.

O'troq aholi yashovchi viloyatlar o'rtasida chegara vazifasini tabiiy geografik omil sifatida cho'llar va tog'lar bajargan. Ko'p hollarda cho'l va tog'lar etnik chegaralarda aralash joylashuv yerlarga aylanib qolganligi tasodif bo'lmasa kerak. Hisor, Boysun va Ko'hitog' tizmalari Baqtriya va Sug'd o'rtasidagi tabiiy chegara bo'lgan.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, qadimgi Xorazm hududi o'rta Amudaryo oqimidan boshlab Orol dengizigacha bo'lgan yerlarni o'z ichiga olgan, Baqtriya yerlari – bu Afg'onistonning shimoli-sharqi (Bal-

xob, Qunduz, Panj, Badaxshon vohalari), Janubiy Tojikiston (Kofar-nihon, Vaxsh, Panj vohalari) va Surxondaryo vohasi.

Baqtriyaning hududiy chegaralari: janubda – Hindukush tizmasi, shimolda – Hisor tog'lari, Sharqda – Pomir, g'arbda – Amudaryoning o'rta oqimi hisoblanadi. «Baqtriya» toponimi Baqtra daryosidan olingan (hozirgi Balxob).

Sug'diyona – Qashqadaryo va Zarafshon vohalaridir. Uning geografik chegaralari: g'arbda Buxoro vohasidan Sharqda Hisor tog'lari bo'ylab, janubda Qashqadaryo va Ko'hitog' oralig'ida, shimolda esa Nurota tizmalariga borib taqalgan.

Marg'iyona – Turkmaniston janubidagi Murg'ob vohasi, Parfiya – Turkmanistonning janubi-g'arbi va Eronning shimoli-sharqidir.

O'rta Osiyo o'troq viloyatlarining qo'shni yerlarida ko'chmanchi turk-massagetlar qabilalari yashagan (Pomir, Tangritog', Janubiy Qozog'iston, Toshkent, Sirdaryo viloyati, Quyi Zarafshon, Quyi Amudaryo va Sirdaryo, Sharqiy Kaspiybo'yi, Orolbo'yi).

So'nggi yunon mualliflari asarlarida biz ko'rib chiqayotgan o'lka to'g'risidagi tarixiy va etnografik axborot Gerodot yoki Ktesiyarning ma'lumotlariga nisbatan ancha to'laroq va kengroqdir. Mazkur manbalar O'zbekistonning tarixiy geografiyasi dolzarb muammolarini hal qilishda asos bo'ladi.

Yozma manbalarni arxeologik ma'lumotlar bilan solishtirib, zamonaviy geografik xaritalarda xalqlarning hududiy joylashish chegaralarini, qadimgi shaharlarni, daryolardan kechib o'tish joylarini, qadimgi yo'llarni, tarixiy viloyatlarni va tumanlarni topish mumkin.

Aleksandr davrida Yaksart – Sirdaryo (bu Tanais) Don daryosining boshlanishi deb faraz qilingan, xuddi shunday Nil – bu Hind daryosining quyi oqimi deb xulosa chiqarilgan.

Yozma manbalarda Baqtriyaning janubiy chegaralari Parnas, Paropamis – Hindukush tog'lari bilan belgilangan. Qadimgi dunyo mualliflari baqtriylar joylashgan hududni juda tor qilib ko'rsatishgan. Ba'zilarining aytishicha, Hind daryosi boshlangan Paropamis tog'lariga Baqtriya ro'para bo'lib turgan (Pliniy). Strabon ham Era-



tosfenning ma'lumotlariga asoslanib, «baqtriylarning asosiy qismi Paropamis yonbag'rida joylashib, uning bir kichik yeri Hindistonga ro'para bo'lgan» – degan.

Strabon va Pliniylar Hindukush tizmasini Baqtriyaning janubiy chegarasi sifatida to'g'ri ko'rsatib berishgan. Araks, Oks – Amudaryo Strabonning xabariga ko'ra, «baqtriylar yerini Sug'diyonadan ajratadi». Boshqa yozma manbalarda ham Nautaka va Maroqandaga yurish qilayotgan Aleksandrning qo'shinlari yo'lida Oks daryosi Baqtriya va Sug'diyona o'rtasidagi chegara sifatida yoritilgan.

Strabon Araks haqida bunday xabar qiladi: «U matiyanlar viloyatidan boshlanadi va qirq daryoga bo'linib, skiflar bilan baqtriyaliklarni ajratadi». Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, Strabon buni tarixchi Kallisfen ma'lumotlariga asoslanib yoritgan. Araks – Amudaryo; Baqtriya yerlarini Pomir tog'larida yoki daryoning o'rta oqimi atrofida yashovchi saklardan ajratib olishi mumkin edi. Yunon-makedonlar harbiy yurishlarda qatnashgan Kallisfen bu vaziyatni aniq kuzatib tavsiflagan.

Qadimgi tarixchilar xalqlarning joylashish chegaralarini daryolar bo'yicha ajratishgan. Bunday an'ana O'rta Osiyo xalqlarining joylashgan yerlari, chegaralari to'g'risida aniq va to'la tasavvurga ega bo'lmagan mualliflarning ma'lumotlaridan kelib chiqqan (ularning tasavvurlari birmuncha umumiy bo'lgan).

Kvint Kursiy Rufning bir gapi bunga misol bo'ladi: «Tanais baqtriyaliklarni skiflardan ajratib turadi... Osiyo va Yevropa o'rtasidagi chegara bo'lgan». Bu tarixiy an'ana Tanais (Don) va Yaksart (Sirdaryo) – bir umumiy daryo haqidagi qadimiy tasavvurlarga asoslangan.

Skiflardan (saklardan) ajratuvchi chegara – bu Aleksandr Sirdaryodan kechib o'tgan joy bo'lishi ehtimoldan xoli emas, chunki makedoniyaliklar Sirdaryoni boshqa joylarda ko'rishmagan. O'sha joyda Ustrushona yoki hech bo'lmasa Sug'dning shimoliy chegaralari bo'lib o'tgandir. So'nggi ahamoniylar davrida Baqtriya satrapligi Sug'diyonani o'z ichiga olgan. Shu vaziyatga ko'ra, Sirdaryo ham Baqtriya chegarasi sifatida talqin qilingan.

Strabon singari Ptolemey va Arrianlar Amudaryoni Baqtriya va Sug'diyona o'rtasidagi chegara sifatida qayd etib o'tishadi. Ba'zi bir xabarlarda aynan Sug'diyona faqat Politimet – Zarafshon vohasi yerlari bilan bog'lanadi. Kallisfen va Klitarxlarning ta'kidlashicha, «Sug'diyona to'g'ri yo'nalishda – bu Politimet daryosi uzunligi, uning eni 80 stadiy» (45 km.). Kallisfen shu daryo vohasidagi sug'dlarga jazo berish yurishlarida qatnashib, Politimet vohasi – bu Sug'diyonaning asosiy hududi deb faraz qilgan.

Qadimgi mualliflarning hikoyalari asosan yurishlar va janglar haqida bo'lib, yo'llardagi tog'lar, daryolar hamda shaharlar va qal'alar qamal qilingan joylar bilan bog'lanadi. Shu jumladan tog'lar – Parnas, Paropamis, «nomsiz tog' o'lkasi», daryolar – Araks, Oks, Politimet, Tanais – Yaksart; shaharlar – Baqtra (Zariaspa), Aorn, Drapsak, Maroqanda, Kiropolis, Branxiylar shaharchasi, Basileya – «podsho shahri», viloyatlar – Nautaka, Mamakena, Ksenippa, Gabaza (Gazaba), Paritaka, Bubakena; qal'alar – Bagi, «Sug'd qal'asi», Xoriyen – Sizimitr qal'asi; o'lkalar – Baqtriya, Sug'diyona, Skifiya (sakmassagetlar yurti), Xorazm.

Arrian va Kursiy Rufning aytishicha, mil. avv. 329-yilda Aleksandrning Sug'diyonaga harbiy yurishi quyidagi yo'nalishda amalga oshirilgan: Baqtra – Oks – Branxiylar shaharchasi – Nautaka – Maroqanda – Kiropolis – Yaksart. Shuningdek, Sug'diyonaga yurish haqidagi o'z hikoyalari boshida Arrian tilga olgan Drapsak va Aorn shaharlari hozirgi Shimoliy Afg'onistonda joylashgan edi. Drapsak atamasi Sharqiy eroniy tillarida (jumladan, baqtriyaliklar tilida) «drapsa», «drafsho», ya'ni «bayroq» tushunchasini anglatadi. Shu bois shahar nomini «bayroqli» atash mumkin. «Avesto»da esa Baqtriya «baland bayroqli go'zal Baxdi» shaklida tasvirlanganligini bilamiz.

Hozirgi kunga kelib, yunon-rim manbalarida tilga olingan qadimiy viloyatlar, shaharlar va qal'alarning hududiy joylashuvi qadimshunoslar tomonidan aniqlangan. Nautaka – Sug'diyona viloyatlaridan biri bo'lib, Sharqiy Qashqadaryoda joylashgan, markazi – Uzunqir.

Ksenippa (shuningdek, boshqa manbalarda – Nixshapayya) – Qarshi vohasi, markazi – Yerqo‘rg‘on. Bagi (Baga) – Buxoro vohasi, Basileya – Sug‘diyoning ikkinchi poytaxti (Ko‘ktepa).

Gabaza (Gazaba) – bu Nautaka viloyatiga qo‘shni tog‘ o‘lkasi bo‘lib, u hozirgi Dehqonobod, Oqrabot yer oralig‘i manbalarda mashhur bo‘lgan «Temir darvoza» deb nomlangan tor dara – tog‘ yo‘li atrofidagi yerlarni o‘z ichiga olgan. Yaqinda ham Dehqonobod va Oqrabot oralig‘i yerlari «Gabzan» deb atalgan, Ko‘hitangdagi «Gazak» toponimi «Gazaba» tushunchasining aks-sadosi bo‘lishi ehtimoldan xoli emas.

Yunon tilidagi «Pareytakena» viloyati (ehtimol, uning nomi mahalliy «Paritaka» atamasidan kelib chiqqan) Surxon vohasi bilan bog‘lanadi. Qiyoslash uchun Nautaka, Navtaka – «yangi qurilish», «yangi viloyat», «yangi qal‘a», shuningdek, atamaning oxirgi «tak» so‘zi ko‘chma ma‘noda «kuch-quvvat», «qudrat» mazmuniga ega. «Sug‘d qal‘asi» va «Xoriyen qoyasi»ning joylari hanuzgacha aniqlanmagan.

«Nixshapayya» atamasining kelib chiqish masalasiga biroz tavsif berish lozim. Mazkur atama Janubiy Baqtriyada topilgan hujjatlarda tilga olingan. Ular mil. avv. 353–324-yillarga, ya‘ni ahamoniylar podsholari Artakserks III va Doro III hamda Makedoniyalik Aleksandr hukmronligi davriga oid bo‘lib, siyoh bilan charmga va yog‘ochga bitilgan. Topilgan hujjatlardan birida Nixshapayya shahrida mudofaa devor va xandaq qurish zaruriyati haqida so‘z yuritiladi, shuningdek Kish (Kesh) tilga olingan.

Antik davri tarixchilari (Kallisfen, Aristovul, Klitarx) «Nixshapayya» so‘zini yunon tiliga moslashtirib, «Ksenippa» deb atashgan. Aslida bu shaharning nomi sug‘diy tushunchasi «Nixshapa» yoki «Nikshapa»dan kelib chiqishi ehtimoldan xoli emas. Bu nom tarkibida «ap» («ob») so‘zi mavjud. U sug‘d tilida – «suv», «daryo» tushunchalarini anglatadi («Avesto» tilida ham «ap» – daryodir). Nixshapa ma‘nosi «daryo bo‘yidagi shahar» bo‘lishi mumkin. Ilk o‘rta asrlarda Nixshapa «Naxshap» shakliga aylangan va vaqt o‘tib, o‘rta asrlarda shahar Naxshab – Nasaf deb atalgan.

### *Tayanch so‘zlar*

Makedoniyalik Aleksandr, Baqtriya, Sug‘diyona, Arrian, Kursiy Ruf, Strabon, «Geografiya» asari, «Aleksandr anabasisi», Oks, kuchuv, qo‘riqchi Maroqanda, sug‘diylar, Spitaman, yunon-makedonlar, xorasmiylar, Farasmon, Gefestion, Ptolemey Lag, baqtriylar, Artaboz, Bazaira, Nautaka, Kiropolis, Yaksart, Aleksandriya Esxata, tarixiy geografiya, qadimgi xalqlar, etnik hududlar, etnik chegaralar, hududiy joylashish, Araks, Oks, yozma manbalar, etnografik ma‘lumotlar, Nixshapa, Gabaza, Paritaka.

### *Savol va topshiriqlar*

1. Qaysi yunon-rim mualliflarining asarlarida Makedoniyalik Aleksandrning yurishlari o‘z aksini topgan?
2. «Aleksandr anabasisi» nimani anglatadi?
3. Antik davri tarixchilarning asarlaridan foydalanib, Aleksandrning Baqtriya va Sug‘diyona yurishlari haqida hikoya tuzing.
4. Politimet – Zarafshon bo‘yidagi Spitaman boshchiligidagi sug‘diylar va yunon-makedonlar jangi to‘g‘risida gapirib bering.
5. Spitaman jasoratini ta‘riflang.
6. Vatanparvarlik va ona yer mudofaasi – muqaddas burch, deganda...
7. Qaysi tarixiy – madaniy viloyatlar yunon-makedonlar istilosidan mustaqil bo‘lib qoldi?
8. O‘rta Osiyo antik davri tarixiy geografiyasi haqida gapirib bering.

### *8-mavzu bo‘yicha foydalanilgan adabiyotlar*

1. *Арриан. Поход Александра* / Пер. М.Е. Сергеевко. – М. – Л., 1962.
2. *Квинт Курций Руф. История Александра Македонского* / Пер. и примеч. под ред. В.С. Соколова. – М.: МГУ, 1963.
3. *Кошелев Г.А. Новые письменные документы по истории центральноазиатского региона в древности // Роль города Самарканда в истории мирового культурного развития.* – Ташкент – Самарканд, 2007.



4. Пичикян И.Р. Культура Бактрии. – М., 1991.
5. Пянков И.В. Бактрия в античной традиции (общие данные о стране: названия и территория). – Душанбе: «Дониш», 1982.
6. Пянков И.В. Средняя Азия в античной географической традиции. – М., 1997.
7. Ртвеладзе Э.В. Александр Македонский в Бактрии и Согдиане. – Ташкент, 2002.
8. Ртвеладзе Э.В. Историческое прошлое Узбекистана. – Ташкент, 2009.
9. Sagdullayev A. Qadimgi O‘zbekiston ilk yozma manbalarda. – Toshkent: «O‘qituvchi», 1996.
10. Сагдуллаев А. Поход Александра Македонского в Согдиану. – Ташкент: «Узбекистан», 2009.
11. Samarqand. 2750 / Mas‘ul muharrirlar: T. Shirinov, Sh. Pidayev, M. Qarshiboyev. – Toshkent: «O‘zbekiston», 2007.
12. Страбон. География. В 17 книгах / Пер. Г.А. Стратановского. – М. – Л.: «Наука», 1964.
13. Сулейманов Р.Х. Древний Нахшаб. – Ташкент: «Фан», 2000.
14. Termiz buyuk yo‘llar chorrahasidagi ko‘hna va yangi shahar. / Ilmiy muharrir E.V. Rtveldze. – Toshkent: «Sharq», 2001.
15. Фор П. Повседневная жизнь армии Александра Македонского. – М., 2008.
16. Шахермайр Ф. Александр Македонский. – М.: «Наука», 1986.
17. Qadimgi Kesh – Shahrisabz tarixidan lavhalar / Mas‘ul muharrir A.S. Sagdullayev. – Toshkent: «Sharq», 1998.
18. Augustinova A. Settlement changes in the oases – non – destructive survey in the Eastern Kugitang piedmont (Uzbekistan) // The problems of history, archaeology and ethnology of Central Asia. – Tashkent. 2018.

## 9-MAVZU

### O‘ZBEKISTONNING ANTIK DAVR DAVLATCHILIGI. SALAVKIYLAR VA YUNON-BAQTRIYA DAVLATLARI

#### Reja:

- 9.1. Salavkiylar davlati.
- 9.2. Yunon-Baqtriya davlati.
- 9.3. Antik davr shaharsozlik va me‘morchilik an‘analari

#### 9.1. Salavkiylar davlati

O‘tgan asrning 50-yillari tarixshunosligida O‘rta Osiyo tarixiga doir «antik», «antik davr» tushunchalari muomalaga kirgan edi. Qadimgi davr bilan shug‘ullanuvchi tadqiqotchi olimlar – arxeologlar va tarixchilarning ko‘pchiligi «antik», «qadimgi» atamani O‘rta Osiyo tarixiga nisbatan ham ishlatish mumkin, degan nuqtayi nazar tarafdori bo‘lishdi.

«Antik» atamasi «antiquite», «antigutiy, antique» qabilida ishlatilib, «uzoq o‘tmish», «o‘tmish qadimiyat», «qadimgi» deb tarjima qilinadi.

Mil. avv. 323-yilda Aleksandr Bobilda to‘satdan vafot etganidan so‘ng u barpo etgan davlatdagi markaziy hokimiyatiga qarshi kuchlarning harakatlari faollashuvi oqibatida yunon-makedonlar yurishlari natijasida vujudga kelgan davlat parchalanib, uning o‘rniga nisbatan barqarorroq bo‘lgan yunon-ellinistik davlat uyushmalari paydo bo‘ladi. Aleksandr davlatining parchalanishi va uning xarobalarida yangi davlatlar tizimining paydo bo‘lishi tinchlik yo‘li bilan emas, balki Makedoniyalik Aleksandrning yaqin sarkardalari – diadoxlar o‘rtasidagi tinimsiz urushlar tufayli bo‘lib o‘tdi. Ularning o‘rtasida jang-ujadallar natijasida Aleksandr mulklari bo‘lib olinadi.

Bu paytda yunonlar va makedonlar O'rta Osiyoda hokimiyatni boshqaruvchi qatlamlarini tashkil etishardi. Aleksandr vafotidan kevin Baqtriya va Sug'diyona Kipr orolidan bo'lgan yunon Stasanor qo'l ostiga o'tadi. Bu paytda ikki diadox – Yevmen va Antigon Aleksandr davlatining asosiy yerlarini qo'lga kiritish uchun o'zaro kurashayotgandi. Antigon Aleksandr davlatining katta qismiga hukmronlik o'rnatishga muvaffaq bo'ldi. Ammo uning bu hukmronligi uzoqqa cho'zilmadi.

Makedoniyalik Aleksandr mulklariga egalik qilish shu bilan yakunlandiki, mil. avv. 312-yilda sarkardalar Salavk – Bobilni, Ptolomey Lag esa – Misrni zabt etishadi. Mil. avv. 306-yilda ular o'zlarini podsho deb e'lon qilishadi hamda bu bilan Aleksandr davlati xarobalarida o'z davlatlarini barpo etadilar. Shu tariqa tarix sahnasida G'arb va Sharq an'alarini uyg'unlashtirgan ellinistik davlatlar paydo bo'ldi. Ana shunday yirik davlatlardan biri – Salavkiylar davlati edi.

O'zining eng gullab-yashnagan davrida bu davlat ilgari Aleksandr davlatiga kirgan katta hududlarni egallab, g'arbda Egey dengizidan Sharqda Hind vodiysigacha cho'zilgan hamda Kichik Osiyoning janubiy qismini, Suriya, Mesopotamiya, Eron, O'rta Osiyoning janubiy viloyatlari va Afg'onistonning katta qismini o'z ichiga olgan edi. Bu ulkan davlatning asoschisi – Aleksandrning yirik sarkardasi Salavka edi. Salavkiylar hokimiyati Sharqdagi harbiy istehkomlarda joylashgan yunon-makedonlar va ularning yarog'-aslahalari bilan qurollangan mahalliy xalqlarning vakillari harbiy kuchlarga tayangan.

Antik davri tarixchisi Pompey Trogning yozishicha, «Salavk ba'zi bir o'lkalarni muzokaralar yo'li bilan egalladi, ammo Baqtriya, Parfiya, Sug'd yerlarida u qattiq qarshilikka uchradi va og'ir janglar olib borishiga to'g'ri keldi». Bu ma'lumotni yunon tarixchisi Arrian ham tasdiqlab, u shunday xabar beradi: «Salavk baqtriyaliklar, sug'diyalar, parfiyaliklar va girkaniyaliklar bilan ko'p urushlar olib borgach, ular yerlariga hukmronlik qila boshladi». O'rta Osiyo yerlarining Salavk tomonidan bosib olinishi mil. avv. 306–301-yillarga to'g'ri keladi.

Biroq Hindistondagi harbiy-siyosiy vaziyat tufayli bu hududlardagi yurishlar Salavkiylar foydasiga hal bo'lmadi. Mil. avv. IV asrning oxirlarida bu yerdagi Chandragupta asos solgan kuchli Mauriya davlati Salavkga qattiq qarshilik ko'rsatganligi sababli Salavk sulh tuzishga majbur bo'ldi.

Uning Hindistondagi mag'lubiyati salavkiylarning O'rta Osiyodagi noiblari ahvoliga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bu holat ushbu yerda salavkiylarga qarshi kurash kuchayishiga sabab bo'ldi. Mahalliy o'troq va ko'chmanchi aholining ko'p sonli qo'zg'olonlari bu kurashlardan dalolat berdi. Ular salavkiylarning tayanch nuqtalari bo'lgan Marg'iyonadagi Aleksandriya (Ko'hna Marv) va Aleksandr Esxata (Uzoqdagi Aleksandriya, Xo'jand atroflari)ni vayron etishadi. Bu kurashlar natijasida yirik etnik ko'chishlar bo'lib o'tgan bo'lishi mumkin. Xullas, salavkiylar hokimiyatni egallagan paytdayoq ularning O'rta Osiyodagi ahvoli tahlikali edi. Aynan shu sababli, O'rta Osiyo viloyatlari yerlaridan mahrum bo'lishidan qo'rqib ketgan Salavk I o'z vorisi Antiox I boshchiligidagi Sharqiy noiblik (satraplik) larni ta'sis etgan edi.

Mil. avv. 293-yilda Salavk o'g'li Antioxni Sharqiy satrapliklarga, ya'ni O'rta Osiyo viloyatlariga o'zining noibi etib tayinlaydi. Antiox vayron etilgan qal'alarni tikladi, quyi Murg'ob vohasini o'rab olgan yirik va qalin mudofaa devor (Marg'iyona devori) bunyod etdi, qo'zg'olonlarni bostirdi. U salavkiylar qudratini namoyish etish maqsadida atrof o'troq va ko'chmanchi aholi ustiga harbiy yurishlar uyushtirdi. Antiox tomonidan o'tkazilgan bir qancha harbiy-siyosiy va diplomatik tadbirlar tufayli O'rta Osiyodagi salavkiylarga qarshi harakatlar bostirildi.

O'rta Osiyo viloyatlari Salavkiylar davlati siyosiy tarixida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. O'zining uzoq yillik hukmronligi davrida (mil. avv. 293–260-yy.) Antiox g'arbiga qilgan ko'pgina yurishlari bilan shuhrat qozondi. U o'z davlatining Sharqiga, jumladan O'rta Osiyo yerlariga kam e'tibor qaratdi. Bu paytda O'rta Osiyoda iqtisodiy o'zgarishlar yuz berdi. Tinch hayot boshlanib,



qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik va savdo-sotiq anchagina rivojlanadi. Salavkiylar davlati markazidan chetda bo'lishiga qaramay, O'rta Osiyo viloyatlari ular davlatining eng muhim qismi edi. O'rta Osiyo harbiy-strategik va iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lib, salavkiylar bu hudud bo'ylab o'tgan savdo yo'llari bo'yida shaharlar va tayanch harbiy istehkomlar qurdirib, ularda hunarmandchilik, o'zaro almashinuv va savdo-sotiqni rivojlantirganlari bejiz emas edi.

Salavk (mil. avv. 312–280-yillar) va Antiox (mil. avv. 280–261-yillar) mustaqil hukmronligi davrida Salavkiylar davlati siyosatining asosiy yo'nalishlari shakllanadi. Salavkiylar uchta mintaqada – Janubiy Suriya, Kichik Osiyo va Sharqda faol tashqi siyosat olib borishga majbur bo'lishgandi. Janubiy Suriya va Kichik Osiyo uchun Ptolemeylar (Ptolomey Lag asos solgan Misr va O'rta Yer dengizining Sharqidagi davlat sulolasi) bilan tinimsiz urushlar bo'lib turgan. Chunki bu hududlarda muhim savdo yo'llari tugab, gullab-yashnagan port-shaharlar mavjud edi. Kichik Osiyoning yunon shaharlari ham muhim ahamiyatga ega edi.

Sharqiy viloyatlarda, xususan, O'rta Osiyodagi ahvol birmuncha murakkabroq vaziyatda bo'lib, bu hudud boshqaruv markazlaridan ancha uzoqda joylashgan edi. Ikkinchidan, Salavkiylar davlatining chegaralarida joylashgan ko'chmanchilarning doimiy xavfi mavjud edi. Mil. avv. III asrdan boshlab ko'chmanchilarning ko'chishlari boshlanishi natijasida chegaralardagi bu xavf yanada kuchayadi.

Salavkiylar davlatida ichki siyosiy boshqaruv masalalari ham ancha murakkab edi. Katta hududlarni qamrab olgan bu davlatda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va jamiyat siyosiy tashkiloti turlicha bo'lgan. Ko'plab viloyatlarni yagona davlatga birlashtirish ancha murakkab vazifa edi. Salavkiylar davlatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri u faqat harbiy yurishlar natijasida, kuch ishlatish yo'li bilan paydo bo'lgan edi. Shuning uchun ham davlatning asosiy vazifalaridan biri qaram etilgan xalqlarni zo'ravonlik bilan ushlab turish yoki birlashtirish edi. Sharq xalqlari, mahalliy zodagonlaridan bir qismi yoki ayrimlari boshqaruv tizimiga jalb etilgan

bo'lsa-da, asosiy boshqaruvchilar makedonlar va yunonlardan iborat bo'lgan.

Salavkiylar sulolasida davlat boshlig'i podsho bo'lib, uning hokimiyati mutlaq edi. Podsho bir vaqtning o'zida fuqarolar ma'muriyati oliy boshlig'i, qo'shinlarning bosh qo'mondoni, oliy sudya va hatto, bosh qonun chiqaruvchi vazifalarini bajargan. Manbalarning ma'lumot berishicha, sulola asoschisi Salavk «Podsho tomonidan buyurilgan barcha narsalar doimo adolatlidir», degan tamoyilga qat'iy amal qilgan. Salavkiylar sulolasi podsholari quyidagi ikkita huquqiy asosga ega edilar: 1. Bosib olish huquqi. 2. Hokimiyatni otadan o'g'liga meros qoldirish huquqi. Ko'p hollarda salavkiylar podsholari ilohiylashtirilgan. Masalan, tangashunoslik ma'lumotlari Soter-qutqaruvchi, Dikayos-adolatparvar, Everget-ezgulik homiysi kabi podsholar bo'lganligini tasdiqlaydi.

Davlatning nihoyatda katta hududlarni qamrab olganligi ayrim hollarda ma'muriy nazoratning susayib ketishiga olib kelgan. Manbalarning guvohlik berishicha, bir nechta mahalliy siyosiy uyushmalar (alohida qabilalar, yunon polislari, ibodatxona jamoalari, mahalliy sulolalar) ichki ishlarda mustaqil siyosat olib borishga harakat qilishgan.

O'z davrida salavkiylar hukmdorlari shaharsozlik bilan faol shug'ullanishgan va keyinchalik «Salavkiya» deb atalgan shahar markazlariga asos solishgan. Markaz sulola vakillaridan birining nomi bilan atalgan hollarda unga polis huquqi (to'liq mustaqil bo'lmagan) berilgan. Bunday shaharlar ma'muriy nazorat ostiga olingan. Shuningdek, bu shaharlarda yunon aholisi jamlanishi lozim edi. Salavkiylarning shaharsozlik faoliyati haqida Pliniy, Strabon, Ammian Marsellin kabi antik davr mualliflari ma'lumot berishadi. Bu ma'lumotlarga ko'ra, Marg'iyona Antioxiyasi, Skifiyadagi Antioxiya, Tarmat Antioxiyasi (Termiz bo'lishi mumkin), Oyxonim kabilar polis huquqiga ega bo'lgan. Salavkiylar davlatida shaharlarga tobe qishloqlar o'zining jamoa tuzilishini saqlab qolgan bo'lib, ularning tobeligi jamoaviy xususiyatga ega bo'lgan va ular polis – shahar hududiga kiritilmagan.



Manbalarning ma'lumot berishicha, Salavk II Ptolomeylar bilan hokimiyat talashib, Sharqiy hududlar va Kichik Osiyo uchun kurash olib borish jarayonidayoq o'z hokimiyatida boshqaruv tartibini joriy eta boshlagan edi. U Aleksandr an'analariga sodiq qolganligini ko'rsatish maqsadida satrapliklarni yirik viloyat uyushmalari sifatida saqlab qoldi. Tangashunoslik ma'lumotlariga qaraganda, Salavk II davlati Ahamoniylar va Aleksandr davlatiga nisbatan ancha kichik bo'lib, hokimiyat 27–28 ta satraplikga bo'lingan.

Har qaysi satraplikni podsho tomonidan tayinlanib qo'yilgan satrap yoki strateg – sarkarda mansabidagi shaxs boshqargan. Fors satraplaridan farq qilgan holda ular ham ma'muriy, ham harbiy boshqaruvni qo'lga olishgan. Satrap-strateg ma'muriy boshqaruvda eng yaqin odamlaridan o'ziga yordamchi tanlagan. Bu yordamchi soliq yig'uvchilar faoliyati, ichki va tashqi savdo, xo'jalik hayotini nazorat qilib borgan.

Tarixiy manbalarda salavkiylar satrap-strateglari yunoncha nomda (Stratonik, Aleksandr, Giyeraks, Antiox va boshqalar) tilga olinadi. Demak, salavkiylar hukmdorlari asosan yunonlardan va ayrim hollarda ellinlashgan mahalliy zodagonlardan tayinlangan. O'rta Osiyoda yunon hokimlari va ular atrofida to'plangan yunon zodagonlari bilan birga mahalliy zodagonlar ham hokimlik qilishardi. Salavkiylar hokimiyati O'rta Osiyodagi harbiy punktlarda (katoykiyalar) joylashgan harbiy kuchlarga tayangan edi.

Salavkiylar davri Baqtriya, Marg'iyona, Sug'diyona va Parfiya hududlarida ko'p aholili shaharlar ancha edi. Maroqanda, Baqtra, Niso kabi ko'plab qadimgi shahar xarobalarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan manbalar bu hududlarda hunarmandchilik, savdo-sotiq va xo'jalik ishlari rivojlanganligidan dalolat beradi.

Salavkiylar davlati ma'lum bir xalq yoki elatlardan iborat bo'lmay, ko'pdan ko'p etnik guruhlarni harbiy yo'l bilan birlashtirishdan tashkil topgan uyushma edi. Davlat boshqaruvining barcha siyosiy, huquqiy va ijtimoiy yo'nalishlari podsho saroyi bilan bog'liq

bo'lib, bu holat davlat boshqaruvida katta ahamiyatga ega bo'lgan. Ahamoniylar davlati singari salavkiylar davlatida ham ko'pgina davlat ishlarini olib boruvchi devonxona mavjud bo'lgan. Ayrim manbalar salavkiylar saroyidagi xat-hujjat ishlarining boshlig'i lavozimi haqida ma'lumotlar beradi.

Salavkiylar davrida anchagina murakkab soliq tartibi joriy qilingan bo'lib, salavkiylar hukmdorlari o'zlarigacha mavjud bo'lgan soliq tartibini o'zlashtirgan holda unga o'zgartirishlar kiritib, mukammallashtirgan. Dehqonlardan yer solig'ini yig'ib olish satrap-strateglarning vazifasi bo'lgan. Bunday soliqlarning miqdori aniq belgilangan bo'lib, viloyatlardan keladigan soliqlarning umumiy miqdori qishloq jamoalaridan tushadigan soliqlarga bog'liq bo'lgan.


O'rta Osiyodagi yunonlar bilan aloqalar mahalliy xalqlar madaniyatining ba'zi tomonlarini g'arbga tarqatuvchi muhim omillardan biriga aylandi. Ellin madaniyatida sof yunon madaniy ijodi emas, balki yunon va Sharq mamlakatlarining o'ziga xos qo'shilishi o'z aksini topgan. Ellin madaniyatining rivojlanishida O'rta Osiyo xalqlari ham muhim rol o'ynadi. O'rta Osiyoning katta qismi Salavkiylar davlatiga harbiy yo'l bilan qo'shib olinishi ma'lum darajada G'arb va Sharq o'rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalarning rivojlanishiga turtki berdi. Shu bilan birga mahalliy madaniyat, savdo-sotiq, shahar hayoti, hunarmandchilik va sug'orish ishlari izchil rivojlanib bordi.

Shunday qilib, O'rta Osiyoning Salavkiylar davlati tarkibiga kirgan davri yunon-makedon istilosi tufayli vayron etilgan iqtisodiy hayotni tiklash, baqtriyaliklar, sug'diylar, parfiyaliklar va boshqa O'rta Osiyo xalqlarining salavkiylarga qarshi kurashda birlashuv davri bo'ldi.

Mil. avv. III asrning 60–50-yillariga kelib Kichik Osiyo va Bolqon yarim orolida salavkiy hukmdorlari o'rtasida hokimiyat uchun kurashlar avj oldi. Natijada Salavkiylar davlatining Sharqiy viloyatlarida siyosiy vaziyat o'zgarib, markazdan qochuvchi kuchlarning harakatlari faollashadi. Mil. avv. 250-yilda kelib dastlab Parfiya, keyin esa Yunon-Baqtriya davlatlari Salavkiylar davlatidan ajralib chiqib, o'zlarini mustaqil deb e'lon qiladilar.



## Salavkiylar davlat boshqaruvi



### 9.2. Yunon-Baqtriya davlati

Yunon-Baqtriya davlatining salavkiylardan ajralib chiqishi yunon zodagonlarining qo'zg'oloni xususiyatiga ega bo'lib, unga Baqtriya aholisi tomonidan qo'llab-quvvatlangan Diodot boshchilik qiladi. Tadqiqotchilar Yunon-Baqtriya davlati paydo bo'lgan turli sanalarni belgilashadi (mil. avv. 250–248-yy.). Bu davlatning asosi Baqtriya bo'lib, ba'zi hukmdorlar davrida (Evtidem, Demetriy, Evkratik) Hindistonning shimoli-g'arbiy qismi, Amudaryo va Sirdaryo o'rtasidagi katta yerlar qo'shib olinadi.

Baqtriyaning Salavkiylar davlatidan ajralib chiqishi xususida rimlik tarixchilar Pompey Trog va Yustinda uzuq-yuluq ma'lumotlar saqlangan bo'lsa-da, bu haqda batafsil ma'lumotlar uchramaydi. Shunga qaramasdan mavjud tangashunoslik, ayrim xo'jalik hujjatlari, san'at yodgorliklari, sug'orish inshootlari va imoratlar qoldiqlari bergan ma'lumotlar asosida bu davlatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot haqida ma'lum tasavvurlarga ega bo'lish mumkin. Ammo, Yunon-Baqtriya davlatining siyosiy tarixi ko'p hollarda qiyosiy solishtirish va taxminlarga asoslanadi.

Yunon-Baqtriyada davlat podsho tomonidan boshqarilgan bo'lib, tangashunoslik ma'lumotlari Diodot I, II, III, Evtidem I, II, Demetriy, Geliokl, Platon kabi podsholari haqida xabar beradi. Salavkiylar kabi Yunon-Baqtriya podsholari ham davlatni satrapliklarga bo'lib idora etishgan.

Yunon-Baqtriya mulklarining chegaralari doimiy mustahkam bo'lmasdan, harbiy-siyosiy vaziyatdan kelib chiqib o'zgarib turgan. Mil. avv. III asrning oxirlari O'rta Osiyo janubidagi harbiy-siyosiy vaziyat haqida Polibiy ma'lumotlar beradi. Uning yozishicha, salavkiylar tomonidan Baqtrada qamal qilingan Evtidem ularning hukmdori Antiox III ga «chegarada ko'chmanchi qabilalar turganligi va ular chegaradan o'tadigan bo'lsa har ikkala tomonning ham ahvoli og'ir bo'lishi mumkinligini» bildiradi. Polibiy ma'lumot bergan ushbu ko'chmanchilar mil. avv. III asrning oxirlarida Zarafshon daryosiga qadar deyarli butun Sug'dni egallagan bo'lib, bu hududlar Yunon-Baqtriya davlatining vaqtinchalik shimoliy chegarasi bo'lib qoladi. Shuningdek, Hisor tog'lari ham shimoliy chegaralar bo'lgan bo'lishi mumkin.

Yunon-Baqtriya davlatining gullab-yashnagan davri mil. avv. III asrning ikkinchi yarmi va II asrning birinchi yarmiga to'g'ri keladi. Janubiy hududlardagi bu davrga oid Jondavlattepa, Oyxonim, Qorabog'tepa kabi yodgorliklardan hokimlar saroylari, ibodatxonalar, turarjoylar, mehnat va jangovar qurollar, turli hunarmandchilik buyumlari hamda ko'plab tanga pullarning topilishi bu hududlardagi



ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotdagi rivojlanish jarayonlaridan dalolat beradi.

Yunon-Baqtriya markazlashgan davlat bo'lib, hokimiyatni podsho boshqarar edi. Davlat bir nechta viloyat (satraplik)larga bo'lingan bo'lib, bu viloyatlar boshqaruvchilari yoki hokimlari podshoga bo'ysunishardi. Ammo, bu davrda davlatda nechta satrapliklar bo'lganligi va ular qanday nomlanganligi ma'lum emas. Strabon ma'lumotlariga ko'ra, satrapliklarga noib satraplarni tayinlashda qarindoshchilik an'alariga amal qilingan bo'lishi mumkin.

Yunon-Baqtriya podsholigi davlat tuzilishining muhim tomoni – qo'shin va uni tashkil etish edi. Avvalo, ta'kidlash lozimki, Yunon-Baqtriya qo'shinlarining katta qismini baqtriyaliklar va boshqa mahalliy aholi tashkil etgan. Qo'shinning asosiy harakatlantiruvchi kuchlari otliq-suvoriylardan iborat edi. Qo'shinlar tarkibida harbiy fillar ham bo'lgan.

O'z vaqtida V.V. Grigorev Baqtriyadagi yunon hokimiyati yagona monarxiya tomonidan amalga oshirilmay, davlatlar uyushmasi (itifoqi) tomonidan amalga oshirilgani, dastavval, nisbatan kuchlilar, ular orasidan «baqtriyaliklar», keyin esa «ularga tobe bo'lganlar» haqidagi konsesiyani ilgari surgan edi. Hozirgi vaqtda ko'pchilik tadqiqotchilar Yunon-Baqtriya podsholarining boshqargan hududlari shimoliy Afg'oniston, janubiy O'zbekiston va Hindukushdan janubdagi ayrim viloyatlar bo'lganligini e'tirof etishadi. Bu hududlardagi markazlashgan davlatda Diodot I, keyin esa Evtidem I (ya'ni, mil. avv. III asrning ikkinchi yarmi) davrlarida kuchli podsho hokimiyati mavjud edi. Mil. avv. II asrning ikkinchi choragidan boshlab Yunon-Baqtriya podsholigining inqiroziga qadar davlatda mutlaq birlik va barqarorlik bo'lmagan.

So'nggi yillarda olib borilgan qazishmalar natijasida topilgan juda ko'plab arxeologik topilmalar Amudaryo o'rta oqimining o'ng va chap qirg'og'i aholisining mil. avv. III–II asrlardagi o'zaro aloqalaridan darak beribgina qolmay, bu yerlarni Yunon-Baqtriya davlati tarkibiga kirganligidan dalolat beradi. Mil. avv. 250–140/130-yillar

davomida Yunon-Baqtriya davlati mustaqil davlat sifatida mavjud bo'lib, bu davrda Diodot, Evtidem, Evkratid, Geliokl kabi podsholar hokimiyatni boshqarishgan. Mil. avv. II asrning ikkinchi yarmiga kelib ko'chmanchilar zarbalari va o'zaro taxt uchun kurashlar natijasida Yunon-Baqtriya davlati inqirozga uchradi.

### 9.3. Antik davr shaharsozlik va me'morchilik an'analari

Yaqin va O'rta Sharqning turli davlatlari, jumladan O'rta Osiyo hududlarida katta xronologik davr yunon-makedon sulolalari siyosiy hukmronligi davri sifatida izohlanib, fanda bu davr – ellinizm davri deb ataladi. Ellinizm – (Bolqon yarim orolidagi Ellada – Yunoniston nomi bilan bog'liq) bu aniq tarixiy mavjudlik bo'lib, iqtisodiy hayotda, ijtimoiy va siyosiy tuzumda, mafkura va madaniyatda ellin (yunon) hamda Sharq an'alarining o'zaro uyg'unlashuvi ifodasidir.

Qadimgi (antik) davrda ellin dunyosi Yunonistondan Hind daryosi vodiysigacha bo'lgan ulkan hududni qamrab olgan edi. Tadqiqotchilar, ellinlashuv darajasiga qarab bu hududni uchta mintaqaga bo'ladilar: 1. Ellada; 2. Kichik Osiyo, Suriya va Misr; 3. Frot daryosining Sharqidagi viloyatlar. Bu hududlar tarixiy adabiyotlarda «ellinlashgan Sharq» tushunchasida aks etgan bo'lib, uning tarkibiga Mesopotamiya, Eron, O'rta Osiyoning janubiy viloyatlari, Afg'oniston, Pokiston va Hindistonning Aleksandr bosib olgan hududlari kirgan.

Makedoniyalik Aleksandr yurishlari natijasida keng miqyosda boshlangan ellinizm – yunonlar madaniyatining kirib kelishi Baqtriya, Parfiya va Sug'diyona shaharlari, hunarmandchiligi va badiiy-amaliy san'atiga katta ta'sir ko'rsatdi. Yozma manbalar Aleksandr nomi bilan bog'liq uchta shahar: Aleksandriya Oksiana (Oks bo'yidagi Aleksandriya), Aleksandriya Marg'iyona (Marg'iyona Aleksandriyasi), Aleksandriya Esxata (Chekkadagi Aleksandriya) haqida ma'lumotlar beradi. Ulardan tashqari «katoykiyalar» deb nomlangan yunon harbiy istehkomlari manzilgozlari ham mavjud edi.



Olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida O'rta Osiyoning janubiy hududlaridan ellinizm madaniyati bilan bog'liq bo'lgan turar-joylar, moddiy-ma'naviy madaniyat buyumlari, tanga pullarning topilishi bu hududlardagi mahalliy madaniyatga ellin an'analari (shaharsozlik, haykaltaroshlik, badiiy-amaliy san'at, alifbo va boshq.) ta'sir etganidan dalolat beradi. Shu bilan birgalikda, bu topilmalar mahalliy madaniyatdagi rivojlanish qadimgi (antik) davr Sharq va G'arb madaniyatining o'zaro uyg'unlashuvi natijasida o'ziga xos madaniyat darajasiga ko'tarilishining ham guvohidir.

**Makedoniyalik Aleksandr davrida asos solingan shaharlar.** Strabonning ma'lumotlariga ko'ra, Aleksandr Baqtriya va Sug'diyonada 8 ta shaharga, Yustinning yozishicha, 12 ta shaharga asos solgan. Ammo mazkur ma'lumotlar arxeologik tadqiqotlar ma'lumotlari bilan tasdiqlanmagan va ko'pgina ilmiy munozaralarga sabab bo'lganki, bu alohida mavzu hisoblanadi.

Biz O'rta Osiyo hududlarida Makedoniyalik Aleksandr uchta: Oks Aleksandriyasi, Aleksandriya Esxata (Uzoqdagi Aleksandriya) va Marg'iyonadagi Aleksandriya shaharlariga asos solganligi haqida ma'lum ma'lumotlarga egamiz.

Oks Aleksandriyasi geografik joylashishi haqida ilmiy adabiyotlarda turli fikrlar mavjud. Ularga ko'ra bu shahar Termiz o'rnida (V. Tarn) yoki Afg'onistonning shimoli-sharqida Oyxonim shahar xarobalari joyida (P. Bernar) va Termizdan 30 km shimoli-g'arbida Kampirtepa o'rnida bunyod etilgan (E.V. Rtveladze).

Kampirtepadagi tadqiqotlar natijalariga ko'ra, Oks (Amudaryo) bo'yidagi Aleksandriya harbiy-strategik sharoitni hisobga olib bunyod etilgan. Ushbu shahar Amudaryodan muhim kechuvda Baqtra shahriga olib boruvchi tranzit yo'lda joylashgan. Shahar bir tomondan, zabt etilgan hududlardagi yunon-makedonlar hokimiyatining tayanch nuqtasi bo'lib, ikkinchidan, Darband darasidagi Uzundara, Boysundan janubda joylashgan Qo'rg'onzol, Sherobod vohasidagi Jondavlat kabi istehkomlaridek tog'li vohalar orqali shimoli-sharqdan kirib keluvchi ko'chmanchilar bosqinidan himoya qiluvchi qal'a sifatida barpo etilgan.

Boshqa taxminlarga ko'ra, Oyxonim o'rnida shaharga asos solinishi uchun ikkita daryoning qo'shilish (Amudaryo va Ko'kcha) qulay joy tanlangan. Bu joyda baland tabiiy tepalikning mavjudligi ham muhim bo'lib, uning ustiga shahar qal'asi – akropolini qurish imkoniyati bor edi. Shuningdek, shaharning qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan ta'minlab turuvchi juda katta serhosil tekislikka tutashib ketganligi ham iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlar edi.

Umuman olganda, ko'hna shahar tuzilishi va saroy me'morchiligi yunon uslublarini eslatsa-da, aslida uning tuzilishida Qadimgi Sharq an'analari ustunlik qiladi.

Qadimgi Farg'ona va Ustrushona chegaralarida, Sirdaryo bo'yida, hozirgi Xo'jand hududlarida mil. avv. VI–V asrlarda manzilgoh paydo bo'ladi. Bu yerdan himoya devorlari va shahar qurilishining qoldiqlari ochib o'rganilgan. Keyinchalik bu shahar Aleksandr tomonidan bosib olinadi va uning o'rniga Uzoqdagi Aleksandriya bunyod etiladi.

Shaharning qal'asi antik davr an'analari asosida paxsadan qad ko'targan va alohida devor bilan o'rab olingan. Shaharning pastki qatlamlarida qurilish izlari yaxshi saqlanmagan. Mil. avv. IV–III asrlar qatlamlarida turarjoylar, xo'jalik xonalari, harbiylar boshpanalari ochib o'rganilgan. Bu shahar Aleksandrning Sirdaryo bo'ylaridagi harbiy tayanch nuqtasi bo'lgan bo'lishi mumkin. Biroq qurilish materiallari va uslublari hamda me'morchilikda mahalliy binokorlik an'analari aks etgan.

Arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, Ahamoniylar davridayoq Marg'iyona shahri mavjud edi. Bu davrda Marv vohasidagi Erkqal'a kabi maydoni 20 gektardan iborat shahar bo'lgan. Uning tevaragida Govurqal'a hududlari shu davrda o'zlashtiriladi.

O'rta Osiyo janubida urbanizatsiya jarayonlarining rivojlanishi boy o'tmish va shaharsozlik an'analarga ega bo'lganligini biz bilamiz. Shu bois Aleksandr yurishlariga qadar ham bu hududlarda yuksak shaharsozlik madaniyati rivojlanganligini ta'kidlash maqsadga muvofiqdir.

**Salavkiylar davri shaharsozligi.** O'z davrida Salavkiy hukmdorlari keng istilochilik siyosatini amalga oshirish maqsadida shaharsozlik bilan ham faol shug'ullanishgan. Ular keyinchalik «Salavkiya» deb nomlangan shahar markazlariga asos solishgan. Bunyod etilgan manzilgoh sulola vakillaridan birining nomi bilan nomlangan hollarda unga polis – shahar huquqi berilgan.

Pliniy Marg'iyonaning markaziy shahri haqida shunday ma'lumot beradi: «Unda Aleksandr Aleksandriyaga asos soldi, ammo varvarlar bu shaharni vayron qildilar. Salavkning o'g'li Antiox bu shaharni xuddi shu joyda qayta tikladi. ... U shaharga o'z nomini berishni lozim topdi». Bunday xabar Strabon asarida ham uchraydi. Yozma manbalar ma'lumotlarini arxeologik tadqiqotlar ham tasdiqlaydi.

Salavkiylar davrida O'rta Osiyo shaharlarining holati va ichki tuzilishi haqida ma'lumotlar yetarli emas.

Aftidan, Sharqda yunon harbiy istehkomlari – katoykiyalar ham qurilgan. Ko'chirib keltirilgan yunonlar Salavkiylar hokimiyatining asosiy harbiy tayanchini tashkil etgan. Tadqiqotchilarning fikricha, Salavkiylar o'z shaharsozlik faoliyatini Sharqda ham, G'arbda ham amalga oshirishgan, degan qarashlar ham mavjud. Biroq Sug'd va Shimoliy Baqtriyada yangi shaharlar barpo etilganligi to'g'risida yozma manbalarda ma'lumotlar mavjud emas. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, Salavkiylardan avval vujudga kelgan eski shaharlar – Baqtra, Maroqanda, Naxshapa (Qarshi) yirik iqtisodiy-madaniy markazlariga aylangan.

**Yunon-Baqtriya shaharlari.** Qadimgi mualliflar Baqtriyaning poytaxti Baqtra – Zariaspi bir necha marta tilga olishgan. Baqtra Mozori Sharif shahridan 21 km g'arbda, Baqtra daryosi bo'yidagi vohada joylashgan. Fransuz arxeologlari bu yerdagi Bolo Hisor tepaliklaridan devorlar bilan o'ralgan, burjlar ko'tarilgan, xandaqlar qazilib, suv bilan to'ldirilgan aylanasimon qal'ani topishdi. Shaharning bir qismi mudofaa devorlaridan tashqarida, Bolo Hisorning Janubi-sharqida, Tepai Zargaronda joylashgan. Umumiy maydoni 120–150 gektar bo'lgan bu shaharning qadimgi davr madaniy qat-

lamlaridagi yer osti suvlari Ahamoniylar va Salavkiylar davri hayotning me'morchilik va madaniy darajasini to'liq o'rganish imkonini bermadi.

Shahar markazidan atrofga tarqalgan ko'chalar devor tashqarisida magistral yo'llarga: shimoli-g'arbda – Kalif – Karki, shimolda – Kampirtepa, Termiz, janubda – Hoji Piyad yo'llariga tutashgan. O'z davrining madaniy va iqtisodiy markazi sifatida, savdo yo'llari chorrahasida joylashganligi sababli antik davr mualliflari Baqtrani «eng katta shahar» deb atashgan.

Bu davrdagi yirik shaharlardan yana biri Maroqanda (Samarqand) bo'lib, uning mustahkam qal'asiga Ahamoniylar davridan (Afrosiyob) avval asos solinganligi bizga ma'lum. Afrosiyob mustahkam himoya devorlari bilan o'rab olingan edi. Shaharning mudofaa tizimi Aleksandr qamaliga ham dosh bergan. Arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, Afrosiyobning umumiy maydoni 219 gektar bo'lib, Kursiy Ruf Maroqandaning mudofaa devorlari uzunligini 70 stadiy (taxm. 12 km.) deb ma'lumot beradi. Mustahkam qal'aga ega va mudofaa devorlari bilan o'ralgan shahar hududlaridagi mil. avv. IV–III asrlarga oid madaniy qatlamlardan ko'plab topilmalar, jumladan, ellin sopol idishlari topib o'rganilgan.

Tadqiqotchilarning yozishicha, Yunon-Baqtriya davrida, harbiy ahamiyatga ega tranzit yo'llari yoqasida, Oks – Amudaryo kechuvlarida joylashgan qal'alarning mudofaa tizimini tiklash bo'yicha katta ishlar amalga oshirilgan.

Antik davrda O'rta Osiyo ko'hna shaharlarida binokorlik usullari o'zgarib, me'morchilik yangi asoslarda rivoj topadi. Shuningdek, badiiy madaniyatning turli jabhalarida ellinizmning ta'sirini kuzatish mumkin. Misol tariqasida, Baqtriyada koroplastika hunarmandchiligi paydo bo'ladi hamda loy-ganch haykaltaroshligi rivojlanadi. Bu san'at namunalari doirasi yunon olamiga nisbatan kengroq bo'lib, hunarmandlar ellin mifologiyasi bilan bog'liq bo'lgan terrakotalardan tashqari, mahalliy an'analar bilan bog'liq bo'lgan san'at namularini ham yaratishadi.



Antik davr O'rta Osiyo ko'hna shaharlarining madaniyati va san'ati turli omillar ta'sirida taraqqiy qiladi. Bu jarayonga o'lkadagi siyosiy hayot, diniy e'tiqodlar, iqtisodiy ahvol, xalqaro savdning rivoji, turli xalqlar madaniyatining o'lka xalqlari madaniyati bilan uyg'unlashuvi, boy qadimiy an'analar, mahalliy o'ziga xoslik va boshqa ko'plab omillar uzluksiz ta'sir qilib turgan. Ana shu omillar ta'sirida O'rta Osiyo antik davr madaniyati va san'atining rivojini shaharsozlikda, haykaltaroshlikda, badiiy tasvirda, musiqa san'atida, zargarlik san'ati – zeb-ziynat buyumlarida, aholining xo'jaligi bilan bog'liq ashyolarda va boshqalarda kuzatishimiz mumkin.

Antik davr O'rta Osiyo shahar madaniyati rivojlanishining eng yorqin xususiyatlari – tasviriy san'at bilan pul zarb etilishi natijasida madaniyat va moliya-iqtisod ishlarining taraqqiy etishidir. Ta'kidlash joizki, o'lkamiz hududlarida tovar-pul munosabatlarining muayyan ko'rinishi Salavkiylar davridayoq paydo bo'ladi. Termiz, Kampirtepa, Samarqand atroflaridan Antiox I davriga oid tangalar topilgan. Nisbatan ko'proq topilma tangalar Yunon-Baqtriya davriga oid bo'lib, ular Shimoliy Baqtriya va Sug'd hududlaridan topilgan.

Ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarda antik davr shaharlarining ahamiyati ulkan bo'ldi. Shahar ma'lum vazifalarni (ma'muriy, siyosiy va diniy markaz, savdogarlar va hunarmandlar faoliyat ko'rsatadigan joy, madaniy va harbiy markaz kabi funksiyalarni) bajarigan.

Ta'kidlash joizki, kuchli podsho hokimiyatiga ega katta davlatlarda bunday shaharlar hukm surishi uchun o'ziga xos xususiyatlar hamda shart-sharoitlar mavjud edi. Bu o'rinda xitoylik sayyoh Chjan Syanning Yunon-Baqtriya shaharlarining ma'lum darajada mustaqilligi haqidagi xabarni keltirib o'tish maqsadga muvofiqdir. U Dahya-Baqtriya haqida shunday ma'lumot beradi: «Ular (ya'ni, Baqtriya shaharlari) oliy podsho yoki hokimga ega emas, ammo o'zlarining devor bilan o'ralgan barcha shaharlari va manzilgohlarida kichik hokimlarni tayinlaydilar».

### *Tayanch so'zlar*

Salavkiylar, Yunon-Baqtriya davlati, shaharsozlik, me'morchilik an'analari, moddiy madaniyat, Marg'iyona devori, satrap, podsho, Antiox, oliy sud, ish boshqaruvchi, podsho devonxonasi, moliya boshqaruvchisi, soliqlar yig'imini boshqaruvchisi, xat-hujjatlar ishlarining boshqaruvi, bosh qonun boshqaruvi, qo'shinlar bosh qo'mondoni, yeparxlar, geparxlar, strateglar, polislar, katoykiyalar.

### *Savol va topshiriqlar*

1. Antik davri tarixiga bag'ishlangan maxsus adabiyot bo'yicha esse yozing.
2. Salavkiylarning hokimiyat tepasiga kelishi to'g'risida nimalarni bilasiz?
3. Salavkiylarda davlat boshqaruvi qanday kechgan?
4. Yunon-Baqtriya davlati qanday paydo bo'ldi?
5. Yunon-Baqtriya davlatining boshqaruvi haqida gapirib bering.
6. Makedoniyalik Aleksandr asos solgan qaysi shaharlarni bilasiz?
7. Salavkiylar davri shaharsozligi to'g'risida gapirib bering.
8. Yunon-Baqtriya shaharlari va madaniyati haqida nima bilasiz?
9. Mavzuga oid xorijiy ilmiy tadqiqotlar bo'yicha qisqa ma'lumot tayyorlang.

### *9-mavzu bo'yicha foydalanilgan adabiyotlar*

1. Бикерман Э. Государство Селевкидов. – М., 1985.
2. Древнейшие государства Кавказа и Средней Азии / Отв. ред. Г.А. Кошеленко. – М., 1985.
3. История государственности Узбекистана / Отв. ред. Ртвеладзе Э.В., Алимova Д.А. Т.1. – Ташкент: «Узбекистан», 2009.
4. История Древнего Востока / Под. ред. В.И. Кузищина. – М., 1988.
5. Культура Бактрии. – М., 1991.
6. Попов А.А. Греко-бактрийское царство. – СПб., 2008.
7. Пугаченкова Г.А., Ртвеладзе Э.В. Северная Бактрия – Тохаристан. Древность и средневековье. – Ташкент: «Фан», 1990.

8. Ртвеладзе Э. Цивилизации, государства, культуры Центральной Азии. – Ташкент, 2005.

9. Rtveldze E.V., Saidov A.X., Abdullayev Ye.V. Qadimgi O‘zbekiston sivilizatsiyasi: davlatchilik va huquq tarixidan lavhalar. – Toshkent: «Adolat», 2001.

10. Sagdullayev A., Mavlonov O. O‘zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi. – Toshkent: «Akademiya», 2006.

11. Samarqand. 2750. – Toshkent: «O‘zbekiston», 2007.

12. Сулейманов Р.Х. Древний Нахшаб. Проблемы цивилизации Узбекистана ВИИ в до н.э. – ВИИ в н.э. – Ташкент, «Фан», 2000.

13. Eshov B.J. O‘zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2012.

14. Eshov B.J., Odilov A.A. O‘zbekiston tarixi. I jild. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2014.

15. History of civilizations of Central Asia. Volume II. UNESCO publishing. Paris. 1994.

## 10-MAVZU

### XORAZM, QANG‘, DAVAN, YUECHJI-KUSHON VA KUSHON DAVLATLARI

#### Reja:

10.1. Xorazm davlati.

10.2. Qang‘ davlati.

10.3. Davan davlati.

10.4. Yuechji-Kushon va Kushon davlati.

#### 10.1. Xorazm davlati

Xorazm vohasini o‘rab olgan dashtlarda ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi chorvador qabilalari istiqomat qilishgan. Ular Sharqiy Kaspiybo‘yi va Orolbo‘yi oralig‘idagi Quyi Amudaryoning Kaspiy dengiziga quyilgan O‘zboy o‘zani sohillarida va Quyi Sirdaryoning eski o‘zanlari (Inkardaryo, Quvandaryo) atroflarida joylashgan.

Chorvadorlar bu hududlarda juda erta paydo bo‘lishgan. Adabiyotlarda mil. avv. IX–VIII asrlarga oid chorvador sardorlari va oqsoqollari dafn etilgan Tagisken maqbaralari «Avesto»da tilga olingan «tura» – turlar madaniyati bilan qiyoslanib, Inkardaryo havzasida Qang‘xa viloyatining markazi joylashgan, degan fikr ilgari surildi. Mil. avv. VIII–VII asrlar chegarasida Quyi Sirdaryo hududidan kelib chiqqan ilk saklar quyi Amudaryoning so‘l sohil yerlariga joylashadi, shuningdek, ularga qo‘shni dashtlarda massagetlar yoyilgan. Keyingi davrlarda Sharqiy Orolbo‘yi hududlarida turli sak qabilalari: apasiak, sakavarka, augasiy va toxarlar yashashgan. Ular va Xorazm vohasi aholi o‘rtasida iqtisodiy-madaniy aloqalar rivojlangan.

Ushbu mavzuning tarixiy jihatlarini o‘rganish jarayonida talabalar quyidagi holatlarga e‘tibor berishlari lozim:



– Xorazm mil. avv. V–IV asrlar chegarasi yoki mil. avv. IV asr boshlarida Ahamoniylar davlati tarkibidan chiqib, mustaqil davlat sifatida rivoj topdi;

– Xorazm Salavkiylar va Yunon-Baqtriya davlatlari hamda Kushon podsholigi tarkibiga kirmadi;

– Xorazm Qangʻ davlatining tarkibiy qismi va uning markazi boʻlmagan;

– Xorazm tarixida Qangʻ, Kanguy madaniyati davri hukm surgan degan qarashlar eskirib, ilmiy adabiyotlarda rad etildi.

Antik davri Xorazm davlatining boshqaruv shakli podsho hokimiyatidan iborat edi. Arrianning asarida Aleksandr huzuriga yetib kelgan Farasman «xorazmliklarning podshosi» deb atalgan. Farasman kelib chiqqan sulolaning nomi fanda maʼlum emas. Mil. avv. IV–III asrlarga oid Xorazm tangalari topilmagan. Bu davrda Xorazm davlatining hududiy chegaralari va taʼsir doirasi Janubiy Orolboʻyi, Oʻrta Amudaryo va Sharqiy Kaspiyboʻyi yerlari bilan belgilangan. Ehtimol, bu davrda Oʻzboy orqali Kaspiy dengiziga boradigan suv yoʻli xorazmliklar nazoratida boʻlgan.

Mil. avv. II asr oxirlaridan Xorazm podsholari Yunon-Baqtriya podshosi Evkratidning tangalariga oʻxshatib, oʻz kumush tangalarini zarb eta boshlashgan. Bu tangalarda podsho-chavandoz tasvirlangan. Tadqiqotchilarning yozishicha, u koʻchmanchi qabilalarning ramzi boʻlib, mil. avv. II asrda Xorazmga kirib kelgan Yuechji – toxar sardorlarining hukmronligini aks ettiradi. Ammo mazkur hukmdorlarning ismlari nomaʼlum.

Milodiy I asrda davlatda yangi sulolaning hukmronligi boshlandi. I–III asr boshlariga oid mis tangalardagi yozuvlarda bu sulolaning ikki vakili – Artav va Artamush ismlari aniqlangan.

Afrigʻiylar sulolasi taxtni qoʻlga kiritishi haqida Beruniy maʼlumot keltirgan. Mazkur voqea 304–305-yillarga toʻgʻri keladi, deb hisoblanib kelingan. Biroq bu yil sanasiga nisbatan numizmatika (tangashunoslik) materiallari asosida yangi yondashuv vujudga keldi (E.V. Rtveladze). Unga koʻra, sulolaning birinchi podshosi Vazamar

(Afrig) edi. Vazamar – bu podsho ismi, Afrigʻ esa – oila, urugʻning nomidir. Shu boisdan, sulolani Vazamariylar (Afrigʻiylar) deb atash taklif qilindi. Podsho Vazamarning hukmronligi boshlangʻich yil sanasi inobatga olingan holda, Vazamariylar (Afrigʻiylar) xorazmshoh Maʼmunga qadar Xorazmda 600 yildan ziyod hukmronlik qilganligi aniqlanadi.

Xorazm vohasi antik davri tarixini oʻrganishda Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi xodimlari ulkan hissa qoʻshishgan (S.P. Tolstov, A.V. Andrianov, M.G. Vorobyova, Y.A. Rapoport, B.I. Vaynberg). Ularning izlanishlari va kashfiyotlari tufayli, Xorazm sivilizatsiyasi, qadimiy shaharlari, moddiy va maʼnaviy madaniyat obidalari butun jahonga mashhur boʻldi. XX asrning 90-yillari va XXI asr boshlarida oʻzbekistonlik qadimshunoslarning Xorazmdagi yangi arxeologik tadqiqotlarini qayd etib oʻtish lozim (M. Mambetullayev, V.N. Yagodin, Gʻ. Xodjaniazov, Q. Sobirov, S. Baratov, A. Abdirimov).

**Shaharsozlik va meʼmorchilik.** Antik davrda Xorazm Oʻrta Osiyoda shaharsozlik va meʼmorchilik keng rivojlangan muhim markazga aylandi. Ahamoniylar (Fors) podsholigi tarkibidan chiqib, davlat mustaqilligiga erishgan qadimiy Xorazmda dehqonchilik voha tumanlarining tashqi sarhadlari harbiy istehkomlar bilan mustahkamlandi. Davlat chegaralarida hamda savdo karvonlari oʻtadigan maskanlarda qalʼalar qurildi. Ular qudratli mudofaa inshootlari boʻlib, alohida burjlar va devorlar ichidagi oʻqchilar uchun moʻljallangan ikki qavatli maxsus yoʻlaklardan iborat boʻlgan.

Bunday qalʼalar Quyi Amudaryoning oʻng sohil yerlarida (Boʻriqalʼa, Ayozqalʼa I, Qoʻrgʻoshinqalʼa) va soʻl sohil tashqi sarhadlarida (Oqchagelin, Govurqalʼa, Qangaqirqalʼa) taxminan baravar masofada joylashgan.

Mil. avv. IV–III asrlarda Xorazm davlati hukmdorlari tomonidan mudofaa inshootlarining barpo etilishi sabablari tashqi bosqinlardan himoyalaniş zaruriyati bilan bogʻlangan. Xorazm vohasining gʻarbiy va shimoli-gʻarbiy chegaralarida koʻp sonli chorvador qabilalar Orol dengizi va Kaspiy dengizi oraligʻidagi dashtlarda isti-

qomat qilishgan. Shuningdek, Sharqiy Orolbo'yidagi Quyi Sirdaryo havzasida joylashgan chorvadorlar iqtisodiy yutuqlarga erishib, qudratli harbiy kuchga aylanishgan. Xususan, o'sha chorvador qabilalar Makedoniyalik Aleksandrning Buxoro vohasidan foydali qazilmalar, xomashyoga boy Qizilqum ichkarisiga yo'l olishiga to'siq bo'lib turishgan. Ular zirotchilik bilan ham shug'ullanib, shaharlar va qal'alar bunyod etish ko'nikmalarga ega edi. Quyi Sirdaryoda qadimshunoslar tomonidan o'rganilgan Chirikrabot, Babishmo'lla, Balandi, Baroqtom kabi yodgorliklar shular jumlasidandir.

Mil. avv. III asrda Sirdaryoning qadimiy quyi o'zanlarida suv ta'minotining to'xtab qolishi va daryoning zamonaviy o'zani paydo bo'lishi natijasida, tub joyli aholi avval o'zlashtirgan yerlarni tark etishga majbur bo'ldi. Ehtimol, aynan shu chorvadorlar Quyi Sirdaryodan O'rta Sirdaryo hududlariga ko'chib, Qang' davlatiga asos solishgan.

Mil. avv. IV asrda qadimgi Xorazmning bir qator shaharlarida (Xiva, Hazorasp, Qazaqliyotgan – Oqshaxonqal'a, Katta Oybo'yir-qal'a) yirik binokorlik ishlar amalga oshirildi. Bir vaqtning o'zida keng tarmoqli sug'orish tizimi yaratildi. Shaharlar alohida dehqonchilik voha-tumanlari markazlariga aylandi.

Me'morchilik loyiha bo'yicha shaharlarda binokorlik ishlarini amalga oshirish, mudofaa tizimi va eski binolarni ta'mirlash, yangilarni bunyod etish, qurilish texnologiyalarni takomillashtirishni taqozo etgan. Qudratli mudofaa inshootlari, yirik ibodatxona va saroylarni bino qilish uchun millionlab xom g'isht kerak bo'lgan. Davlatning barcha voha-tumanlari alohisi xom g'isht tayyorlash bilan mashg'ul bo'lib, ularni zarur yangi qurilish joylariga yetkazib bergan. Keng miqyosda bunday ishlarni tashkillashtirish va amalga oshirish, antik davr Xorazmda ommaviy ravishda yirik sug'orish inshootlar – kanallarni barpo etish jarayoni bilan qiyoslash mumkin.

Xorazmning yirik shaharlari qatoriga milodiy II–III asrlarda qurilgan Tuproqqal'a (maydoni 17 ga), mil. avv. IV–III asrlarda bunyod etilgan Bozorqal'a (32 ga) va maydoni 42 gektardan iborat Qazaqli-

yotgan (Oqshaxonqal'a) ko'hna shahri kiradi. Tuproqqal'a Xorazm hukmdorlarining sulolaviy markazi hisoblanadi.

Ko'hna shahar to'g'ri burchakli bo'lib, xom g'ishtdan tiklangan va qalin mudofaa devor bilan o'ralgan. Devorlarda shinaklar hamda burjlar mavjud. Tuproqqal'aning markaziy ko'chasi shaharni ikkiga bo'lib, uning shimoliy qismidan janubga – shahar darvozasiga yo'nalgan. Kichik ko'chalar guzarlarning turarjoylarini bir-biridan ajratgan.

Tuproqqal'a shahrining asosiy inshooti – ulkan ichki qal'asi bo'lib, u Xorazm hukmdorlarining qarorgohi edi. Saroyda turli maqsadlarda foydalanilgan yuzdan ziyod xonalar va haykallar bilan bezatilgan «shohlar koshonasi» ham ochilgan. Saroyning bir qismi ikki qavat edi.

Qadimshunoslarning yozishicha, shaharda taxminan 2,5 ming katta yoshli kishilar yashashgan. Ularning asosiy qismi Xorazm hukmdorlari qarorgohini muhofaza qilish va shohlarga xizmat ko'rsatish bilan band bo'lgan. Ko'p jihatlariga ko'ra, Tuproqqal'a Qadimgi Sharq tarixida ma'lum «man qilingan» shaharga o'xshab ketadi, chunki «shohlar shahriga» yaqinlashib kirishga ko'pchilikning imkoniyati bo'lmagan.

Beruniyning ma'lumot berishicha, shoh Afrig' Kat shahri yonidagi al-Fir joyida yangi qarorgoh barpo etadi. Milodiy IV asr boshlarida Tuproqqal'a saroyi huvillab qoladi.

O'rta asrlar geograflarining yozishicha, Xorazmning qadim poytaxti Darjash deb atalgan, u Kat shahridan avval bunyod etilgan. Hozirgi kunda Darjash shahri Amudaryoning o'ng sohilida, Xorazm vohasida joylashgan Oqshaxonqal'a bilan bog'lanmoqda. Shahar to'rtburchak shaklda bo'lib, qalin mudofaa devorlari bilan o'ralgan. Devorlarning tashqi tomonida va burchaklarida burjlar joylashgan, devorlarning balandligi taxminan 12–13 metrdan iborat bo'lgan.

Shahar hududining shimoliy qismi yana bir qal'a devori bilan o'ralgan. Oqshaxonqal'aning o'ta mustahkamlangan bu qismi, maxsus muhofaza qilinadigan «muqaddas shahar» hisoblangan, uning



shimoliy burchagida yirik ibodatxona joylashgan. Ibodatxona atrofidagi galereya – yo‘lak devorlari rangli suratlar bilan bezatilgan. Mil. avv. IV–II asrlarda Xorazm vohasining turli joylarida ibodatxonalar bino qilindi. Janubiy Xorazmda Elxaras, shimoli-g‘arbda Katta Oybo‘yirqal’a markazidagi ibodatxona, Quyi Amudaryoning so‘l va o‘ng sohil yerlarida Qal’aliqir 2, Govur va Qo‘yqirilganqal’a shular jumlasiga kiradi. Ular mamlakat miqyosida bosh ibodatxonalar vazifasini bajarishgan. Oybo‘yirqal’a ibodatxonasidan tashqari ular me‘morchilik jihatdan doira shakliga ega bo‘lib, mudofaa devorlar bilan o‘ralgan.

Darslikning oldingi mavzularidan ma‘lumki, ilk temir davriga qadar Xorazm vohasida ko‘p asrlar mobaynida uy-joylar sifatida aholi yerto‘lalar, kulbalarda yashashgan. Mil. avv. VI–V asrlarda ular voha binokorligida paxsa va xom g‘ishtdan foydalanishgan. Antik davrda odamlar o‘rnashgan joylar paxsa devorlar bilan o‘ralgan hovli, uchto‘rt xonali uylar hamda yirik uy-qo‘rg‘onlardan iborat bo‘lgan. Misol tariqasida, Angqaqal’a uy-qo‘rg‘onining tomonlari 75 metrga teng bo‘lib, u baland mudofaa devor, to‘g‘ri burchakli burjlar va devor ichidagi o‘q otish uchun mo‘ljallangan yo‘lak bilan mustahkamlangan.

**Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar.** Xorazmliklarning asosiy tirikchilik manbai dehqonchilik va chorvachilik bo‘lgan. Vohaning qulay geografik sharoitida rivojlangan ziroatchilik sun‘iy sug‘orishga asoslangan. Qadimiy uy-qo‘rg‘onlarning atroflaridagi bog‘lar, tokzorlar va dala-sug‘orish yerlari keng maydonlarga ega bo‘lgan.

Xususan, mil. avv. IV–II asrlarda Xorazmda ulkan sug‘orish tizimi barpo etiladi. Antik davrdan avval xorazmliklarda bunday tizim yaratish imkoniyatlari bo‘lmagan. Amudaryodan kanal chiqarish usullari ancha takomillashib, antik davri sug‘orilishi dastlabki sug‘orma ziroatchilikdan sezilarli farqlanib, uzunligi 40–50 km kannallar vujudga kelgan. Keng tarmoqli sug‘orish tizimini barpo etish markazlashgan davlat hokimiyati tomonidan tashkillashtirilgan.

Zarur suv miqdori bilan yil mobaynida serhosillikni ta‘minlash, kanal o‘zanlari sersuv oqib turishi uchun bahor mavsumidagi sug‘o-

rish inshootlarining tozalash ishlari jamoalarning hayotiy muhim vazifasiga aylangan. U qadimgi davrdan boshlab davlat va jamoatchilikning burchi hisoblangan.

Xorazmliklar bug‘doy, arpa va tariq ekib, bog‘dorchilik bilan ham shug‘ullanishgan. Manzilgohlar atrofida ekin maydonlari 200–250 gektar yerlarni tashkil etib, tokzorlar ham keng dalalarni egallagan. Antik davrda Xorazm vohasida Parfiya, Marg‘iyona va Baqtriya singari vino (sharob) ishlab chiqarishga katta ahamiyat berilgan. Ayrim qishloq xo‘jalik omborxonalaridagi katta xumlarda ko‘p miqdorda vino saqlangan. Uning asosiy qismi tashqi savdoga mo‘ljallangan.

Shuningdek, alohida qal’alar qishloq xo‘jalik mahsulotlarni saqlovchi omborxonalar vazifasini bajargan. Bunday joylarda ko‘pdan ko‘p xo‘jalik o‘ralar va xumlar aniqlangan.

Xorazm hunarmandchiligi (kulolchilik, to‘qimachilik, metallga ishlov berish, taqachilik, yarog‘-aslahalar ishlab chiqarish, zargarlik va boshq.) ichki va tashqi savdo-sotiq ehtiyojlarini qoniqtirgan. Shaharlarda mahsulot ayirboshlashning hunarmandchilik va qishloq xo‘jaligi o‘rtasida, ziroatchilar va chorvadorlar o‘rtasida hamda viloyatlararo mahsulot ayirboshlash rivojlangan. Iqtisodiy voha-tumarlardan olib kelingan tovar mahsulotlari savdo markazlarida to‘planib, ulardan karvon yo‘llariga olib chiqilgan.

Xorazm vohasida o‘troq aholi va chorvador-ko‘chmanchilar o‘rtasidagi o‘zaro savdo muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Dashtlardan ziroatchilar vohalariga chorva, go‘sht, teri va jun mahsulotlari olib kelingan. Ko‘chmanchilar bilan savdo aloqalari ta‘sirida ayrim joylarda, odatda voha va dasht hududlari chegaralarida mavsumiy bozorlar tashkillashtirilgan.

Xorazm aholisi katta patriarxal oilalardan iborat bo‘lib, yer, chorva va mulkka birgalikda egalik qilgan. Boy-badavlat Xorazmshohlarning xo‘jaligida ko‘pdan ko‘p cho‘rilar, qullar va xizmatkorlar mavjud edi. Shunday qilib, hukmdorlar xo‘jaligi keng tarmoqli iqtisodiy tizim bo‘lib, maxsus ma‘muriy va moliyaviy boshqaruvga asoslangan. Tuproqqal’adagi saroyning xorazm tilida bitilgan hujjatlarida aholi-



dan olingan soliq tushumlari ro'yxati ifodalangan. Soliq g'alla, un, yog', chorva, hunarmandchilik buyumlari va vino bilan to'langan.

Xorazmning antik davri tarixida ibodatxonalar mavqei baland edi. Yangi ma'lumotlarga ko'ra, ibodatxona jamoasi kohinlar va xizmatchilardan iborat bo'lib, o'z yer mulklari, chorva mollari va hunarmandchilik ustaxonalariga egalik qilishgan. Yozma manbalardan ma'lumki, kohinlar o'qimishli bo'lib, ularsiz birona katta mas'uliyatli ish boshlash mushkul edi. Kohinlar dehqonchilik ishlari boshlash, hosilni yig'ishtirib olish muddatini aniq bilishgan. Diniy marosimlar jarayonlarini kohinlarsiz tasavvur qilish qiyin, shuningdek, ular davlat boshqaruvida faol ishtirok etishgan.

Xorazm aholisining asosiy qismini ziroatchilar, hunarmandlar, binokorlar, savdogarlar va turli ishlar bilan band bo'lgan xizmatchilar tashkil etgan. Qadimgi Xorazmda patriarxal uy qulchiligi rivojlangan. Tuproqqal'ada topilgan hujjatlarda (ular fanda «Xonadonlar ro'yxati» deb tatbiq qilingan) xonadonda yashovchi oila a'zolari tilga olinib, ularga tegishli qullarning ismlari ham keltirilgan. Uy egasi, uning xotini, onasi, o'g'li va kuyovining shaxsiy qullari sanab o'tilgan.

Umuman, 19 ta xonadon ro'yxati topilgan. Hujjatlarning ma'lumotlariga ko'ra, ba'zi xonadonlarda ozodlar bilan birga 20 dan ziyod qullar yashagan. Mazkur hujjatlarni aholining ro'yxatga olinishi jarayoni bilan bog'lash mumkin, ikkinchidan, jang qilishga qobil erkaklarni aniqlash vazifasi ham ehtimoldan xoli emas.

«Xonadonlar ro'yxati» qadimgi Xorazmda xonadon qulchiligi keng rivojlanganidan dalolat beradi. Agar yuqorida keltirilgan oddiy xonadonda mavjud qullarning miqdori hisobga olinib, unga ko'ra mamlakat miqyosida, jumladan jamiyatning ijtimoiy tarkibidagi yuqori pog'onasida turgan zodagonlar oilalarida va shohlar saroyida hamda ibodatxonalar xo'jaligida qullarning umumiy soni ozod oila a'zolariga nisbatan ayrim holatlarda bir necha baravar ko'p bo'lgan.

**Tasviriy san'at, yozuv va din.** Xorazm sivilizatsiyasi o'ziga xos xususiyatlarga ega badiiy madaniyat obidalari bilan ajralib turadi.

Mil. avv. V–IV asrlar chegarasiga oid Elxaras ibodatxonasi devorlarida o'simlik va geometrik tasvirli naqshlar aniqlangan. Shuningdek, yodgorlikda loydan ishlangan haykallarning parchalari topilgan.

Oqshaxonqal'a ibodatxonasining yo'lak devorlari rang-barang suratlar bilan bezatilgan, jumladan, alohida kishilarning portretlari diqqatga sazovordir. Ularning ayrimlarini boshida toj tasviri tushirilgan. Shu bois, mazkur portretlar «Xorazm noma'lum hukmdorlarining suratlari» deb atalgan.

Tuproqqal'a saroyida «Shohlar zali», «Jangchilar zali», «G'alabalar zali», «Bug'ular zali» deb nomlangan alohida yirik xonalarida loy haykallar va devorlardagi kishilar, hayvonlar va qushlarning rangli suratlari o'rganilgan. Tasviriy san'at namunalarida diniy va dunyoviy manzaralar ifodalaniib, ular jonli, yuksak badiiy madaniyat uslubida bajarilgan.

Tasviriy san'at obidalari ichida ko'p miqdorda uchraydigan antik davrga oid terrakota – sopol haykalchalar, odam yuzi tasvirini aks etgan sopol niqoblar va sopol idishlar sirtidagi turli bo'rtma tasvirilar e'tiborga molik. Shuningdek, faqat Xorazm madaniyatiga oid tik turgan ayol haykali sifatida ishlangan katta sopol idish – ossuariy, sopol qutilarga o'xshash ossuariylarning qopqog'ida o'tirgan holatda tasvirlangan ayol va erkaklarning haykallari hamda otni yoki tuyani minib o'tirgan chavandoz haykali shaklida yasalgan ossuariylar be-takror badiiy madaniyat namunalari hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik, sug'orish tizimi hamda me'morchilikning keng miqyosda rivojlanishi amaliy bilimlar, yangi texnologiyalarni hayotga tatbiq qilishni talab etardi. Shu bois, Xorazmda astronomiya, geometriya, matematika kabi aniq fanlar asoslari taraqqiy topgan. Ikki qavatli baland Qo'yqirilgan qal'a ibodatxonasidan koinot jismlarining harakatlari kuzatilgan. Bu muhim astronomiya vazifalariga oid kuzatuv natijalari ziroatchilar uchun katta ahamiyat kasb etgan. Ma'lumki, dehqonchilik ishlari, ekin ekish, ko'chat o'tkazish va hosil yig'ish mavsumlar, yil fasllari almashuvi bilan uzviy bog'langan. Xorazmlik kohin-astronomlari, misr kohin-



lari Nil toshqini vaqtini bilishgani singari, Amudaryo suv sathining ko'tarilishi vaqtini belgilab berishgan.

Samoviy hodisalarni tabiat hodisalari bilan bog'lash va qiyoslash natijasida O'rta Osiyoda dastlab zardushtiylik taqvimini vujudga keltirgan. Uning asosida Sug'd va Xorazm taqvimi tuzilgan. Taqvim yili 365 kun va 12 ta oydan iborat bo'lgan.

Mil. avv. V–IV asrlarda oromiy alifbosi harflari tizimiga asoslangan Xorazm yozuv madaniyati shakllanadi. Qadimgi xorazm yozuvi antik davrda keng yoyiladi. Bu yozuv 20 ta harfdan iborat bo'lib, sopol sirtiga, charmga va yog'och taxtachalariga bitilgan. Xorazm yozuvi orqali muhim ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni, moddiy va ma'naviy madaniyatga oid tarixiy muammolarni o'rganish mumkin.

Hujjatlarda davlat xazinasiga soliq majburiyati sifatida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini topshirgan aholi vakillarining ro'yxati, ibodatxonalar xo'jaligidan chorva, un, hunarmandchilik buyumlari alohida shaxslarga berilganligi haqidagi ma'lumotlar, xonadonlar ro'yxati va shaxslar ismlari qayd etilgan hamda «Avesto»dan ma'lum xudolar nomlari, Amudaryoning homiysi, ilohi «Vaxshu» va boshqa ma'lumotlar keltirilgan. Xorazmda saroy va ibodatxonalar qoshida boshlang'ich maktablar mavjud bo'lishini taxmin qilish mumkin. Bu maktablarda bolalarni yozish va hisobga o'rgatishgan. Ikkinchi bosqichda o'spirinlardan xo'jalik va ma'muriy ish yurituvchi xattotlar tayyorlanganligi ehtimoldan xoli emas.

Antik davri Xorazm vohasida zardushtiylik ta'limoti keng yoyiladi. Turli ma'lumotlar shundan dalolat beradi. Bular ichida zardushtiylikning dafn marosimlari bilan bog'liq ossuariylar – suyakdonlar alohida ahamiyatga ega. O'rta Osiyoda eng qadimgi ossuariylar xususan Xorazmda topilgan. Xorazmliklar yer, suv, havo va olovga sajda qilib, mazkur muqaddas unsurlarni qadrlashgan. Vohada hosildorlik va otashparastlik marosimlariga oid yirik ibodatxonalar va otashgohlar topilgan. Ular shaharlar va alohida voha-tumanlar hududlarida joylashib, diniy marosimlarni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Xorazm ko'hna shaharlarida ko'pdan ko'p sopol haykalchalar topilgan. Ular ichida ayol haykalchalari diqqatga molik. Mazkur haykalchalar buyuk «Ona iloha» yoki suv, hosildorlik, ma'budasi Ardivisura – Anaxita (xorazm tilida *Naxitak*) ramzini o'zida aks etadi. Xorazm sopol idishlarning sirtidagi mifologik-asotirli mavzular bilan bog'liq bo'rtma rasmlar o'rganilgan. Ular qadimiy e'tiqodlar mazmun-mohiyatini ochib beradi. Shuningdek, Kushon davlati orqali Hindistondan Xorazmga olib kelingan Buddha hamda fil, maymun sopol haykalchalari va xalsedondan ishlangan marjonlar topilgan.

## 10.2. Qang' davlati

Antik davr O'zbekiston hududlarida taraqqiy etgan davlatlardan biri – Qang' davlatidir. Qadimgi Xitoy manbalarida Qang' davlati mavjud bo'lganligi haqidagi ma'lumotlar mil. avv. II asrga to'g'ri keladi. Qang' davlati mil. avv. III asrning boshlarida paydo bo'ladi. Yunon-Baqtriya davlati va qo'shni ko'chmanchi qabilalar bilan bo'lgan kurashlar natijasida Qang' davlati yanada mustahkamlanadi hamda manbalarda O'rta Osiyodagi yirik davlatlardan biri sifatida tilga olinadi. Davlatning nomi «qang'», «qang'ar», «qang'uy» deb nomlanuvchi qabilaning nomidan olingan bo'lib, etimologiyasi muhozaarali hisoblanadi.


Qang' davlati asosini tashkil etgan qabilalar Sirdaryoning o'rta va quyi oqimlarida istiqomat qilishgan. Davlat tashkil topgan dastlabki davrda uning hududiy asosini Toshkent vohasi tashkil etgan. Tashqi harbiy hujumlar tufayli Qang' davlati nafaqat mustahkamlanib oladi, balki o'z chegaralarini ham kengaytirib boradi. Ya'ni, mil. avv. II va milodiy I asrda Qang' davlatining hududi ancha kengayib, Toshkent vohasi, O'rta Sirdaryo yerlari, Talas vodiysi va Chu daryosining quyi oqimidagi yerlarni o'z ichiga olar edi.

Qang' davlati haqida bizgacha yetib kelgan manbalarda bu davlat hokimiyati qanday idora qilingani, boshqaruv tartibi va shakllari haqida aniq ma'lumotlar saqlanib qolmagan. Katta Xan sulolasi tarixida



(mil. avv. 202 – mil. 25-yy.) Qang' podshosi o'z oqsoqollari bilan maslahatlashib ish tutganligi haqida ma'lumot beriladi. Bundan xulosa chiqargan tadqiqotchilar o'sha davrda tashkil topgan Qang' davlatida kengash muhim rol o'ynaganligini, davlat kengashida qabila boshliqlari, harbiy sarkardalar faol qatnashganliklarini hamda ularning fikri hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lganligini ta'kidlashadi. Demak, o'sha davrlarda podsho saroyi qoshida kengash mavjud bo'lib, podshoning ichki hamda tashqi siyosati va boshqa barcha davlat ishlari va boshqaruvi bilan bog'liq masalalar ana shu kengash yig'ilishida hal qilingan.

Qang' davlatiga qarashli yerlar bir nechta viloyatlarga (yoki mulklarga) bo'lingan bo'lib, ularning har birini jobg'u yoki yobg'u (qad. Xitoy manbalarida – *chjaovu*) deb nomlangan hokimlar boshqargan. Jobg'ular mamlakat boshqaruvida Qang' podsholarining asosiy tayanchi hisoblangan. Jobg'ular podsholarga yaqin kishilardan, ularning qarindoshlaridan, yirik urug'-qabila boshliqlaridan tayinlangan.



Jang tasviri. Mil. avv. II–I asrlar

Siyosiy tuzilma sifatida Qang', ehtimol, mil. avv. II asrgacha shakllangan yarim ko'chmanchi va yarim o'troq qabilalarning Qang' yo'l boshchilari qo'l ostida birlashtirilgan turli-tuman ittifoqlaridan iborat bo'lgan. Dastlab u uncha katta bo'lmagan qabilalar ittifoqidan iborat bo'lib, janubda yuechjilar hokimiyatiga bo'ysunsa, Sharqda xunlarga qaram edi. Mil. avv. II – mil. II asrda asta-sekinlik bilan u qudratli davlatga aylanadi. Bu davrda Qang' davlati manbalarda 120 ming deb ko'rsatiluvchi kuchli qo'shinga ega bo'lgan va qo'shni Xitoyga nisbatan g'oyatda mustaqil siyosat olib borgan.

Arxeologik manbalarning guvohlik berishicha, Qang' qo'shinlaridagi otliq suvoriylar yuechji suvoriylari kabi yupka shaklidagi burmali sovut, ko'krakka taqiladigan qalqon kiyishgan. Baland po'lat yoqalar ularning bo'ynini himoya qilsa, dubulg'alar boshni omon saqlagan. Qurollardan qilichlar, nayzalar, jangovar boltalar, kamon va o'qlar keng tarqalgan edi. Har bir bo'linma o'zining maxsus ajdar shaklidagi tug'iga ega bo'lgan. Demak, Qang' davlati qo'shinlarida qurollanish va harbiy san'atga alohida e'tibor berilgan.

Katta Xan sulolasi tarixida «qang'lilar mamlakati podshosining turarjoyi Loyuenidagi Bityan shahrida» deb ma'lumot beriladi. Boshqa tarixiy manbalarda Loyueni nomi uchramaydi. Binobarin, uning qayerda joylashganligi aniqlanmagan. Olimlar Bityan shahrini Toshkent vohasida joylashgan deb hisoblashadi. Chunki tarixiy manbalarda aytilishicha, Yaksart – Sirdaryo bo'yida qadimgi Kanha – Qanqa shahri xarobalari joylashgan. Uzoq yillik arxeologik tadqiqotlar olib borish natijasida Kanha shahri mil. avv. III–II asrlarda paydo bo'lganligi aniqlandi. Demak, manbalarda eslatilgan Bityanning tashkil topgan vaqti Qanqa shahri paydo bo'lgan davrga mos keladi. Bu nomlar bitta shaharning ikki xil nomlanishidir. Ushbu shahar Sirdaryoning o'ng irmoqlaridan biri Ohangaronning quyi oqimida (hozirgi Toshkent vil. Oqqo'rg'on tumani hududida) joylashgan.

Qanqa haqida dastlabki ma'lumotlar «Avesto»ning eng eski qismlari bo'lgan Yashtlarda Turon qabilalarining turarjoylari sifatida eslatiladi. Sosoniylar davri (224–651-yy.) manbalarida bu shahar «Qan-



desh» yoki «Qandiz» shaklida tilga olinadi. Shuningdek, Firdavsiyning «Shohnoma» asarida ham Qanqa shahri bir necha marta tilga olinadi. Undan tashqari, oʻrta asrlar geograflari asarlarida bu koʻhna shahar «Kenkrak», «Xarashkent», «Tarband» nomlari bilan eslatib oʻtiladi.

Yuqorida eslatilgan Katta Xan sulolasi tarixida «Qangʻ podsho-sining yozgi qarorgohi Loyuenidan yetti kun yoʻl yurib boriladigan yerda joylashgan», degan maʼlumot beriladi. Shi – gu solnomalarida taʼkidlanishicha, «Qangʻ hokimi qishda (sovuqda), yozda (issiq paytlarda) bir yerda yashamas edi». Bu bilan bu fasllarda ularning turar-joylari boshqa-boshqa yerda boʻlishi uqtirib oʻtiladi. Keltirilgan axborotdan Qangʻ davlati oʻsha davrlarda asosan yarim oʻtroq va yarim koʻchmanchi qabilalar davlati ekanligini tushunib olish qiyin emas. Oʻtroq aholidan tashqari Qangʻ davlatining chegarasida bir qancha qabilalar mavjud boʻlib, ular dehqonchilik bilan bir qatorda chorvachilik bilan ham shugʻullanib kelishgan. Bahor va yoz oylarida oʻz chorvalari bilan koʻchib, yozgi yaylovlarda yashashgan. Qishda esa anʼanaviy qishlov joylariga koʻchishgan.

Antik davrda Qangʻ podsholarining yozgi qarorgohlari anʼanaviy qishlov joylaridan shimolda oʻrta asrlardagi Oʻror shahri oʻrnida hozirgi Qozogʻistonning Aris va Turkiston shaharlari oʻrtasida joylashgan. Keyinroq ham, yaʼni, ilk oʻrta asrlar davriga kelib yarim mustaqil Choch hukmdorlari Oʻtrorni oʻz qoʻllarida saqlab qolishgan. Bu shahar ularning yozgi qarorgohi hisoblangan.

Mil. avv. II–I asrlarga kelib Qangʻ davlati kuchayishi natijasida bir qancha viloyatlar unga tobe etiladi. Xitoy solnomalarida qangʻlilarga tegishli quyidagi beshta viloyatlar haqida maʼlumotlar mavjud: Suse (Suse), Fumu, Yuni, Gi, Yuegyan. Ushbu viloyatlarning qaysi hududlarda joylashganligi haqida tadqiqotchilar orasida yagona fikr yoʻq. Ayrim tadqiqotchilar (V.V. Bartold, M.E. Masson, S.P. Tolstov) Suseni – Kesh (Shahrisabz), Fumuni – Zarafshondagi Kushoniya, Yunini – Toshkent, Gini – Buxoro, Yuegyanni – Urganch va uning atroflari bilan aynan bir deb hisoblashadi. Ammo, Qangʻga tobe viloyatlarning bunday joylash-tirish toʻla holda ilmiy asoslanmagan munozarali hisoblanadi.

Qangʻ davlatining etnik tarkibi xilma-xil boʻlib, uning anchagina katta hududlarida Sugʻdiyona, Ustrushona va Toshkent vohasida yashovchi dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shugʻullanib kelgan oʻtroq aholi bilan birgalikda koʻchmanchi va yarim koʻchmanchi chorvador qabilalar (saklar, massagetlar, toxarlar, alanlar va boshqalar) istiqomat qilishgan. Sirdaryoning oʻrta oqimida yashagan qangʻlilar Qangʻ davlati tashkil topishida asosiy oʻrinni egallagan boʻlib, Qangʻ podsholari asosan qangʻlilardan iborat edi.

Mil. avv. II – mil. II asrlarda Qangʻ davlati oʻz rivojlanishining yuqori choʻqqisiga koʻtariladi. Qangʻ podsholariga boʻysunuvchi yarim mustaqil viloyatlarni birlashtirgan bu davlat oʻz vaqtida anchagina kuchli boʻlib, oʻzbek davlatchiligi tarixida oʻz oʻrniga egadir. Agarda antik davrda Oʻrta Osiyoning janubida shakllangan Kushon va Parfiya davlatlari Ahamoniylar, Aleksandr, Salavkiylar asos solgan davlatlar anʼanalarini oʻzlashtirib taraqqiy etgan boʻlsa, Qangʻ davlati taraqqiyotida koʻchmanchilar davlatchiligi belgilari borligi bilan ajralib turadi.



Ov manzarasi. Mil. avv. II–I asrlar



Bizga qadar yetib kelgan yozma manbalar va bugunga qadar olingan arxeologik ma'lumotlarga asoslangan tadqiqotchilar Qang' davlati, uning tarkibi, siyosiy, madaniy va iqtisodiy tarixini yoritishga, mazkur siyosiy birlashmada davlatchilik boshqaruvining shakllanishi va rivojlanishi xususida o'z munosabatlarini bildirishadi.

Manbalar Qang' podsholarining nomlari haqida ma'lumotlar bermaydi. Faqat shu narsa ma'lumki, ular o'z nomlari bilan birgalikda urug' nomini ham qo'llashgan va «Qang' xonadoni hukmdori» deb atalishgan. Qang'da saylangan hukmdorning hokimiyati oqsoqollar kengashiga tayangani va ayni paytda kengash tomonidan cheklab qo'yilganini kuzatish mumkin. Qang' hukmdorlarining qanday unvon bilan atalganligi ma'lum. Ammo, kengashdagi zodagonlar vakillari qanday atalganligi turli bahslarga sabab bo'lgan. Antik davrdagi usunlar, yuechjilar va qang'larning hukmdorlari yabg'u unvoni bilan atalgan.

Qang' davlati olib borgan tashqi siyosat qo'shni davlatlar bilan savdo-sotiq aloqalarini o'rnatish, keskinlashgan vaziyatning oldini olish va o'z chegarasida osoyishtalik o'rnatishga qaratilgan edi. Shu bilan birgalikda, payti kelganda atrofdagi kuchsizlanib qolgan qabilalarga, vohalarga, viloyatlar ustiga hujum qilib, ularni o'ziga qaram qilish ayrim hollarda tashqi siyosatni belgilab berardi.

Tadqiqotchilarning fikricha, qang'lilarning eng ashaddiy dushmanlaridan biri – usunlar edi. Qang' davlati hokimiyat boshliqlari usunlarning bosqinchilik siyosatini cheklash maqsadida xunlar bilan yaqinlashib, ular bilan do'stona munosabatlar o'rnatishadi. Mil. avv. II–I va mil. I asrda usunlar Xitoy hukmdorlari bilan yaqin munosabatlar o'rnatib, xunlar va qang'lilarga qarshi kurash olib borishadi. O'z navbatida Xitoy imperatorlari ko'chmanchilarning o'zaro kurashlaridan foydalanib, o'z yerlarini kengaytirish maqsadida Koshg'ar, Yorkent va Davan yerlariga hujumlar uyushtirishadi. Qang'lilar xitoyliklarning harbiy va siyosiy maqsadlarini tushunib, ularni o'z chegaralariga yaqinlashtirmaslikka harakat qilishadi. Chunonchi, Xitoy qo'shinlari mil. avv. 104, 102, 65-yillar va milodiy I

asrda Davan, Yorkent va Koshg'ar viloyatlariga bosqinchilik yurishlari uyushtirgan vaqtlarda qang'lilar yordamga kelib, xitoyliklarning bosqinchilik yurishlarini bartaraf etishda faol ishtirok etadilar.

Qang' davlatining janubdagi qo'shnisi – antik davrdagi ulkan va qudratli saltanatlardan biri Kushon davlati edi. Qang'lilar bu davlat bilan do'stona munosabat o'rnatishga harakat qilishlariga qaramasdan mil. I asrda kushonlar qang'lilarning mulklari hisoblangan ayrim viloyatlarni o'z chegaralariga qo'shib olishadi.

Qang' davlatining asosiy aholisi o'troq va yarim o'troq turmush kechirishgan va ularning atrofida ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullanuvchi aholi yashagan. O'troq aholi asosan vodiya, daryo vohalarida yashab, dehqonchilik, bog'dorchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanishgan. Qang'lilar dehqonchiligida arpa, bug'doy, tariq, no'xot, sholi va boshqa donli mahsulotlar yetishtirish asosiy o'rinda turgan.

Vohalarda yashovchi o'troq aholi dehqonchilik bilan bir qatorda chorvachilik bilan ham shug'ullanishgan. Yozma manbalarda bu aholining sut-qatiqlari va zotdor otlari borligi haqida ma'lumotlar beriladi. Chorva mollarining ko'pchilik qismi ko'chmanchi va yarim o'troq aholi ixtiyorida bo'lgan. Ko'p sonli chorva mollarini esa mavsumga qarab, bir joydan ikkinchi joyga haydab boqishgan. Qang' podsholari va ularga yaqin bo'lgan kishilar nihoyatda boy chorvadorlar bo'lishgan. Ular bahor kelishi bilan yaqinlari, qarindosh-urug'lari bilan birgalikda yozgi qarorgohda, ya'ni O'troga borib yozni o'tkazishgan. Kuzda esa qishlovni o'tkazish uchun Qang'ga qaytib ketishgan.

Arxeologik tadqiqotlar natijalariga qaraganda O'tror, Oqtepa, Qorovultepa, Qovunchi, Choshtepa, Mingo'rik xarobalari o'rnida qang'arlarning qo'rg'onlari va ko'hna shaharlari bo'lgan. Shahar va qishloqlarda yashovchi o'troq xalqlar ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholiga nisbatan yuqori turishgan. Toshkent vohasida yashovchilar asosan dehqonchilik va bog'dorchilik bilan shug'ullanishgan. Ular arpa, bug'doy, tariq, no'xot, sholi va boshqa



donli ekinlar yetishtirishgan. Mevali daraxtzor va uzumzorlari ko'p bo'lgan. Sirdaryoning o'rta oqimida yashovchi qang'lar asosan, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanishgan.

Qoramozor, Qurama va Chotqol tog'larida temirchilik, misgarlik hunarining rivojlanishi uchun kerakli ma'danlar bo'lgan. Bu joylardan juda ko'plab mis, temir, kumush va boshqa metallar olingan. Ustalar turli metallarni bir-biriga qo'shib, mustahkam qurollar yasashni ham o'zlashtirishgan. Shuningdek, kundalik ehtiyoj buyumlari ishlab chiqarilib, ichki va tashqi savdo uchun turli mahsulotlar tayyorlangan.


Qang' shaharlari qalin va baland devorlar bilan o'ralgan. Devorlarning tashqarisida qal'a atrofi gir aylantirilib chuqur va keng qilib xandaq qazilgan. Shaharlarning bir necha darvozalari bo'lgan. Yirik shaharlardan tashqari, Toshkent vohasida yuzga yaqin aholi yashaydigan katta va kichik uy-qo'rg'onlari ham mavjud bo'lgan.

Mustahkam himoya inshootlari va qal'alarga ega bo'lgan shaharlarda qabila boshliqlari, urug' yoki jamoa oqsoqollari, boy-badavlat oilalar va qisman hunarmandlar yashashgan. Turarjoylar asosan paxsa va xom g'ishtdan qad ko'targan. Qang' davlati aholisining ko'pchilik qismi, ayniqsa dasht chegaralarida joylashgan manzilgohlarda yerto'lalarda, kapa uylarda va o'tovlarda yashab, yarim o'troq va yarim ko'chmanchi turmush tarzi yuritishgan.

Qang' davlatida hunarmandchilikning ko'plab sohalari – kulolchilik, temirchilik, teriga ishlov berish, zargarlik, tosh-taroshlik, to'qimachilik kabi turlari rivojlangan edi. Arxeologik ma'lumotlarning guvohlik berishicha, yirik shaharlarda hunarmandchilikning ma'lum sohasiga ixtisoslashgan ustalarning mahallalari mavjud bo'lgan. Tadqiqotlar natijasida topilgan rangdor sopol idishlar, turli matolar qoldiqlari, charm buyumlar, ot-ulov anjomlari hamda turli zeb-ziynatlar topilgan. Shuningdek, Qanqa xarobalaridan, Jo'nariq atroflaridagi tepaliklardan, Qovunchitepa, Choshtepa va Toshkent vohasining hududlaridan mil. avv. III – milodiy III asrga oid arxeologik topilmalar ham Qang' madaniyati rivojining namunasidir.

Yaksart – Sirdaryoning o'rta oqimida yashovchi qang'lilarning Sug'diyona, Farg'ona aholisi hamda daryoning quyi oqimida yashovchi qabilalar bilan o'zaro madaniy va iqtisodiy aloqalari Qang' davlati madaniyati taraqqiyotiga asos bo'lgan edi. Shuningdek, Qang' davlati hududlaridan Buyuk ipak yo'li tarmoqlarining o'tganligi ham davlatning iqtisodiy va madaniy rivojiga, qo'shni davlatlar bilan siyosiy va diplomatik aloqalarning taraqqiy etishi uchun omil bo'lib xizmat qilgan edi. Milodiy III asrda Qang' davlati mayda mulklarga parchalanib ketadi.

### Qang' davlatining idora-tartib usuli



### 10.3. Davan davlati

O'rta Osiyoning sharqida, Sirdaryoning yuqori havzasida joylashgan qadimgi Farg'ona antik davr tarixida muhim ahamiyatga ega bo'lgan edi. Farg'ona to'g'risida yunon-rim mualliflari ma'lumotlar berishmaydi. Bu davlat haqidagi yozma ma'lumotlar asosan Xitoy



manbalarida – Chjan Syan ma'lumotlarida, Sima Syanning «Tarixiy xotiralar», Ban Guning «Birinchi Xan sulolasi tarixi» asarlarida beriladi. Bu manbalarda ushbu davlat «Dayuan» yoki «Davan» nomi ostida eslatiladi. Farg'ona so'zi Sug'd manbalarida «Fragonik» shaklida yozilib, «tog'lar orasidagi vodiy, atrofi berk soylik» ma'nosini beradi. Xitoy manbalaridagi Dayyuan ham «tog'lar orasidagi vodiy» ma'nosini anglatadi.

Davan davlati tarixi bo'yicha uzoq yillardan buyon tadqiqot ishlari olib borilib, so'nggi yillarda o'zbek olimlaridan A. Asqarov, A. Xo'jayev, B. Matboboyev, A. Anorboyev, S. Qudratov, B. Abulg'oziyeva, B. Abdullayev, Abduxoliq Abdurasul o'g'li kabilar arxeologik ma'lumotlarni yozma manbalar bilan qiyosiy o'rganish asosida samarali ishlar olib borayotgan bo'lishlariga qaramay, bu yo'nalishda hali ko'pgina masalalar o'z yechimini topmagan. Davan davlati shaharlarining aniq joylashuvi, davlat tizimi va boshqaruvi, davlatning chegaralari, qo'shni davlatlar bilan munosabatlar, mahalliy madaniyatning qo'shni madaniyatlar bilan munosabatlari masalalari shular jumlasidandir.

Qadimgi Farg'ona aholisi bronza davridayoq buloq suvlari birlashuvidan paydo bo'lgan Qoradaryo tarmoqlari havzalarida o'ziga xos sug'orma dehqonchilik madaniyatini yaratishadi. Ilk temir va antik davrga kelib Farg'onada mahalliy madaniyatlar an'analari asosida taraqqiy etayotgan qadimgi dehqonchilik madaniyatlari butun vodiyni qamrab oladi va aholining o'troq hayot tarzi jamiyat iqtisodiy asosini tashkil etadi. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, mil. avv. III asrdan boshlab butun Farg'ona vodiysida shaharsozlik madaniyati keng yoyiladi. Aynan mana shu davrda Farg'ona vodiysi orqali o'tgan Buyuk ipak yo'li tarmoqlari bo'ylab Axsikent, Marhamat, Qubo, Marg'ilon, Bob (Pop) kabi ko'hna shaharlar paydo bo'ladi. Shuning uchun ham mil. avv. II asrga oid Xitoy manbalari Farg'onada 70 ta katta-kichik shaharlar borligi haqida ma'lumot beradi.

Sima Syanning «Tarixiy xotiralar» asarida Davanning ikkita poytaxti – Ershi va Yuchen bo'lganligi haqida xabar beriladi. Bu shahar-

larning joylashuvi masalasida olimlar orasida yagona fikr yo'q. Ular O'zgan, Mingtepa (Marhamat), Qo'qon, Koson va Axsikent o'rnida joylashtiriladi.

A. Anorboyevning fikriga ko'ra, mil. avv. III–II asrlarda Dayyuan – Farg'ona davlatining poytaxti Eski Aysi (Axsikent) shahar xarobalari o'rnida joylashgan. A. Xo'jayevning yozishicha, xitoy manbalarida tilga olingan «Yuan-cheng» (Yuchen) atamasi uyg'urcha tarjimalarida «Parg'ona shahri» (Parkana) Axsikent xarobasi bo'lishi mumkin. Tadqiqotchilarning aytishicha, «Parkana» tushunchasi «tog'lar yoki balandliklar o'rtasidagi tekislik» ma'nosini anglatadi, «Yuan-cheng» toponimi ikki so'zdan iboratdir – «Yuan» Parkananing xitoycha tarjimasini, «cheng» esa «atrofi devorlar bilan o'ralgan shahar» ma'nosini anglatadi.

Eng qadimgi yozma manbalar O'rta Osiyodagi ayrim ilk davlat uyushmalari haqida ma'lumotlar bersada, Farg'ona haqida bunday ma'lumotlar uchramaydi. Shunga qaramasdan Y.A. Zadneprovskiy Qadimgi Farg'ona (Davan) podsholigining mavjud bo'lganligini taxmin qiladi. A. Asqarovning fikricha, mil. avv. I mingyillikning o'rtalaridan oldingi davrdagi Farg'ona haqida so'z yuritilganda odatda faqat «chifdom» (voha) shaklidagi qadimgi davlat asoslarining paydo bo'lishi anglashiladi. Olimning fikricha, mana shu holatni hisobga olib Farg'onada davlatchilik, aftidan, mil. avv. V–IV asrlarda paydo bo'lgan bo'lishi mumkin.

A. Asqarovning bu xulosasi ikkita tarixiy dalilga asoslangan. Birinchisi, aynan mana shu davrga oid arxeologik topilmalar (Sho'rabashot madaniyati) ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanganligi (mahsulot ishlab chiqarish va savdo-sotiqning o'sishi) haqidagi taxminlarni ilgari surish imkonini beradi. Ikkinchisi, mil. avv. II asrdayoq Farg'onada ko'p sonli shaharlar mavjudligi haqida ma'lumotlar bor.

Mil. avv. II asrdan boshlab Koshg'ardan Davanga shimoliy yo'ldan karvon yo'li harakati boshlanadi. Bu yo'ldan ipak va boshqa mahsulotlarning xalqaro tranzit savdosi amalga oshirila boshla-



nadi. Bu paytga kelib Davan aholisi ko'paya boshlaydi va ko'plab mustahkamlangan aholi manzilgohlari paydo bo'ladi. Savdo yo'lida Davan muhim ahamiyatga ega bo'lib boradi. Yassa va Qoradaryo vohalarida ko'pgina qal'alar savdo yo'lini qo'riqlash maqsadida barpo etilgan.

Mil. avv. 125-yilda Davanga kelgan Xitoy elchisi Chjan Syan bu yerda qishloq va shaharlari obod, sug'orma dehqonchilik va hunarmandchilik xo'jaliklari yuksak rivojlangan, kuchli harbiy kuchlarga ega davlatni ko'radi. Chjan Syan Davanning qishloq xo'jaligi haqida ma'lumot berib, shunday yozadi: «O'troq aholi yer haydaydi, g'alla va sholi ekadi, ularda musallas navli uzum, juda ko'plab yaxshi otlar bor. Davanning barcha joylarida uzum vinosi tayyorlanadi. Boy xonadonlar uni katta miqdorda tayyorlaydi, bu ichimlik xumlarda bir necha o'n yillarda ham buzilmay saqlanadi». Shuningdek, bu elchi, bu davlat aholisi juda xushmuomala, mehmondo'st, ko'ngli ochiq odamlar ekanligi haqida ma'lumot beradi.

Xitoy manbalari qadimgi Farg'onada dehqonchilik madaniyati yuqori darajada rivojlanganligini isbotlaydi. Xitoyliklarni ayniqsa, o'zlari uchun notanish bo'lgan beda va uzum hayratga solgan. Manbalarda yana shunday ma'lumot bor: «Xitoy elchisi urug' keltirdi, shunda osmon farzandi (Xitoy imperatori) unumdor yerga beda va uzum ekdi». Davanliklarning bog'larida uzumdan tashqari anor, o'rik va boshqa mevali daraxtlar ko'p bo'lgan. Xitoy tarixchilari bu mevalarning Xitoyda paydo bo'lishini Davan bilan bog'lashadi.

Xitoy manbalari, shuningdek, qadimgi Farg'ona chorvachiligining o'ziga xos tomoni bo'lgan yilqichilikning yuqori darajada rivojlanganligi haqida ham ma'lumotlar beradi. Davan davlati antik davrda mashhur zotdor otlari bilan shuhrat qozongan edi. Manbalardan ma'lum bo'lishicha, ularni yetishtirish bilan o'troq aholi shug'ullangan. «Davanda yaxshi otlar bo'lib, ular Ershi shahridadir, otlarni yashiradilar va Xan elchisiga berishga rozi bo'lmaydilar». Davanning mashhur «samoviy otlari» tasvirlari tushirilgan qoyatosh suratlari bizning kunlarimizgacha saqlanib qolgan.

Xususan, O'shdan 8 km uzoqlikdagi Ayrimchatovning qoya adirlarida 30 ta chiroyli zotdor otlarning tasvirlari bor. Xuddi shunga o'xshash tasvirlar Marhamat yaqinidagi Aravon qoyasidan, Navqat vohasi va Obishirsoydan ham topilgan. Bu tasvirlar Davan o'zining samoviy otlari bilan qadimdan mashhur bo'lganligini tasdiqlabgina qolmay, farg'onaliklarning yuksak san'at sohiblari bo'lganliklaridan ham dalolat beradi. Manbalarning guvohlik berishicha, qo'shni davlatlar, xususan, Xitoy imperatorlari Davan otlarini nihoyatda qadrlashgan.

Davan davlati ma'lum bir siyosiy uyushmani tashkil etgan bo'lib, davlatni boshqaruvchi hukmdor manbalarda «Van» (podsho) unvoni bilan ish yuritgani eslatiladi. Manbalarda «Van» unvoniga ega bo'lgan Motsay, Chan Fin, Mug'ua, Yan'lyu kabi hukmdorlarning nomlari saqlanib qolgan. Yagona hukmdor bo'lgan podsho, ya'ni, «Van» davlat ahamiyatiga molik bo'lgan ishlarni oqsoqollar kengashiga suyan-gan holda olib borgan. Manbalarning ma'lumot berishicha, podshoga yaqin kishilar (odatda uning qarindoshlari) orasidan yordamchilar – bitta katta yordamchi (Fu-van) va bitta kichik yordamchi (Fu-go-van) tayinlangan. Davlat hukmdori yoki podsho mamlakatning siyosiy va diniy hayotida katta ahamiyatga ega bo'lgan. Bu jarayonda oqsoqollar kengashining ham ahamiyati kam bo'lmagan. Oqsoqollar urush va sulh tuzish masalalarini hal etishda ishtirok etishgan, ba'zan ular hukmdorning taqdirini ham hal qilishgan. Misol uchun, manbalarda qayd etilishicha, urushda mag'lubiyatga uchraganligi uchun hukmdor Van Motsay oqsoqoilar kengashidagi umumiy ovoz berishda aybdor deb topilgan va qatl qilingan.

Davan davlati hududlari shaharlar va vohalarga bo'lingan holda idora etilgan bo'lishi mumkin. Chunki manbalarning ma'lumot berishicha, Yuchen shahrining hokimi Xitoy qo'shiniga oziq-ovqat yetkazib berishdan bosh tortgan. Tadqiqotchi N. Gorbunova har bir shaharning, ehtimol, vohaning o'z hokimi bo'lganligi haqidagi taxminni ilgari suradi. Olimaning fikricha, aynan mana shu hokimlar oqsoqollar kengashi tarkibiga kirgan va unda hal qiluvchi mavqe-

ga ega bo'lgan. A. Asqarovning fikricha, oqsoqollar kengashi oldida podsho-hukmdorning huquqlari cheklangan edi. Ayniqsa, urush va tinchlik, diplomatik masalalarda hal etuvchi kuch va huquq oqsoqollar kengashi qo'lida edi.

So'nggi yillarda Davan davlati tarixi bo'yicha samarali ish olib borayotgan B.X. Matboboyevning yozishicha, ichki tartibni saqlash va mamlakatni tashqi dushmandan himoya qilish uchun Davan davlatida asosan piyoda askarlar va otliq suvoriylardan iborat bo'lgan 60 ming kishilik qo'shin mavjud edi. Manbalarning ma'lumot berishicha, davanliklar «otda ketayotib o'q otishda mohir bo'lishgan». Jangchilarning qurollari o'q-yoy va nayzadan iborat bo'lgan. Davan qo'shinlari ochiq jangga kirishga ham, uzoq muddatli mudofaa urushlari olib borishga ham qodir edi.

Davanning «samoviy otlari» va davlatning serunum yerlari uchun mil. avv. II asrning oxirlarida Xitoy va Davan o'rtasida harbiy to'qnashuvlar bo'lib o'tadi. Chjan Syan va Sima Syanlarning bergan ma'lumotlariga ko'ra, Xitoy imperatorlari Davanga ikki marta yurish qilishgan. Birinchi yurish mil. avv. 104-yilda uyushtirilib, xitoyliklar Davanning markazi Ershiga yetib kela olmay Lobnorda qattiq qarshilikka uchrashadi. Undan tashqari, O'zgannda katta talofat ko'rgan Xitoy qo'shinlari, qang'lilardan yordam kelayotganini eshitgach, imperator qo'shinlari davanliklardan 3 mingta «samoviy tulpor»ni olib, Xitoyga qaytishga majbur bo'lishadi. Shunday qilib, Davan davlati xitoyliklardan o'z mustaqilligini saqlab qolishga muvaffaq bo'lgan.

O'zining butun tarixi davomida Davan davlati yirik imperatorlar va kuchli davlatlar ta'siriga tushmasdan o'z siyosiy erkinligini saqlab qolgan. Arxeologik topilmalar ham qadimgi Davanning o'ziga xos rivojlanish yo'liga ega bo'lganligidan dalolat beradi. Misol uchun, Farg'ona vodiysi mil. avv. VI–IV asrlarda Eron Ahamoniylari va Makedoniyalik Aleksandr bosqinlaridan chetda qolgan. Aleksandr faqat Xo'jand shahrigacha kelganligi taxmin qilinadi. Salavkiylarning ham Farg'ona vodiysiga kirib borganliklari haqida ma'lumotlar yo'q.

Milodning I–II asrlariga kelib qadimgi Farg'ona aholisining o'troq dehqonchilik madaniyati yuqori darajaga ko'tariladi. Olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida Farg'ona vodiysida bu davrga oid ko'p sonli aholi manzilgohlari, qal'alar, qo'rg'onlar, ko'hna shaharlar xarobalari aniqlangan. Aholi manzilgohlarini vodiyniing turli hududlarida keng yoyilishi sug'orma dehqonchilik va irrigatsiya ishlarining yuqori darajada rivojlanishi natijasi edi. Davlatning siyosiy va madaniy rivojlanishida hunarmandchilikning markazi bo'lgan qadimgi shaharlar ayniqsa katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Bu davrga oid arxeologik topilmalar dehqonchilikdan ixtisoslashgan hunarmandchilikning ajralib chiqqanligidan dalolat beradi. Bu jarayon, o'z navbatida, hunarmandchilik va tog'-kon sanoatining (turli ma'danlar qazib olish) yanada rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Bu o'rinda ta'kidlash lozimki, Xitoy manbalarida Davanda qo'rg'oshin, oltin, temir rudalari qazib olinganligi haqida ma'lumotlar bor. Qo'rg'oshin Haydarkondan, temir, kumush va zumrad esa Farg'onaning janubidan, shimolidan va shimoli-g'arbidan qazib olingan. Ushbu hududlardan ko'plab aniqlangan qadimgi konlar qoldiqlari ham yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi.

Hunarmandchilikning rivojlanishi va qadimgi yo'llarning mavjudligi tufayli Farg'ona vodiysida Sharqiy Turkiston bilan olib borilgan tashqi savdo bilan bir qatorda, atrofdagi tog' vodiylarda yashovchi chorvador-ko'chmanchi aholi bilan ham o'zaro almashinuv rivojlanadi. Antik davr Farg'ona yodgorliklarining ayrimlarida Xitoy tangalari (u – shi) uchrasa ham mahalliy tangalar uchramaydi. Bu hol natural xo'jalik (mahsulot ayirboshlash) ustunlik qilganligidan dalolat beradi.

Davan davlati mil. avv. III asr – milodiy III asrlarda mavjud bo'lgan bo'lib, boshqaruv tizimiga ko'ra podsholik hisoblangan. Aholining ko'pchiligi shaharlarda istiqomat qilgan. Buyuk ipak yo'lining paydo bo'lishi ham ushbu davlatning gullab-yashnagan davriga to'g'ri keladi. Xitoydan O'rta Yer dengizigacha cho'zilgan bu yo'ldagi qit'alararo savdoda Sharqiy Sug'diyona chegaralaridan to Tan davridagi Xitoy imperiyasigacha bo'lgan yo'lning xavfsizligi-



ni ta'minlashda, oziq-ovqat, yo'l ko'rsatuvchilar va tarjimonlar yetkazib berishda Davan davlati asosiy rol o'ynagan.

Demak, podsholik boshqaruv tizimi va oqsoqollar kengashiga asoslangan Davan davlati -- o'ziga xos xususiyatlardan iborat davlatchilik taraqqiyoti an'analarini davom ettirib, O'zbekiston tarixida alohida ahamiyat kasb etadi. Keyingi olib borilajak tadqiqotlar Davan davlati tarixi muammolari bilan bog'liq ko'pgina masalalarga aniqlik kiritishi shubhasizdir.

Davan davlati tarixini o'rganishda quyidagi holatlarga e'tibor berish kerak:

– mil. avv. III asrga oid Farg'ona davlati Davan va uning poytaxti haqida Xitoy manbalarida hech qanday ma'lumotlar yo'q, mazkur manbalarda Davan ilk bor mil. avv. II asrning ikkinchi yarmida va oxirgi marta milodiy III asrning oxirida tilga olingan;

– «Yuan» xitoy atamasining «Parg'ona» yoki Parkona shaklida uyg'ur tilida o'qilishi xususida, bu mavzuga tegishli avvalgi yillarda ham tadqiqotchilar yozma manbalarda «Parkan» atamasi mavjudligini inobatga olib, bu atama «Farg'ona» tushunchasi asosini tashkil etishi mumkin, Parkan – Farg'ona aholisi parikanlar (bu nom Gerodotning «Tarix» kitobida tilga olingan) ahamoniylar podsholariga soliq to'laganlar deb taxmin qilib, Parkan va Farg'ona toponimlarining o'xshash jihatlarini ko'rsatib o'tishgandi:

– Gerodotning xabarlariga ko'ra, parikanlar Osiyo efioplari bilan birgalikda Qadimgi fors davlatining 17-satrapligini tashkil etib, shoh Doro I ga 400 talant soliq to'lashgan. Biroq Farg'ona Ahamoniylar davlati tarkibiga kirmagan, bu davrdagi farg'onaliklar «Sug'd ortidagi saklar» kabi Fors podsholidan mustaqil bo'lganliklari ehtimoldan xoli emas, ammo, xususan, shu mavzuga doir manbalarda ma'lumotlar yo'q.

#### 10.4. Yuechji-Kushon va Kushon davlati

Mazkur mavzuni o'rganish jarayoniga bir qator tarixchi-qadimshunoslar katta hissa qo'shganlar (B.A. Litvinskiy, E.A. Davidovich,

G.A. Pugachenkova, B.Ya. Staviskiy, L.I. Albaum, E.V. Rtveladze, E.V. Zeymal, B.A. Turg'unov, Sh.R. Pidayev va boshq.).

Tarixiy manbalar Yunon-Baqtriya davlati ko'chmanchi qabilalar tomonidan tor-mor etilganligi haqida ma'lumot beradi. Strabon ma'lumotlariga ko'ra, Baqtriyani assiylar, passianlar, toxarlar, saklar qabilalari bosib olishadi. Pompey Trog xabar berishicha, – «Baqtriya va Sug'diyonaning skif qabilalari saraukalar va assianlar bosib olishadi». Aslida esa har ikkala tarixchi ham bitta qabila haqida ma'lumot bergan.

Qadimgi Xitoy manbalarida Baqtriyani yuechji qabilalari bosib olganligi haqida ma'lumot beriladi. Mil. avv. II asrning ikkinchi choragida (tadqiqotchilar bu sanani mil. avv. 172–161-yillar oralig'ida deb belgilashadi) yuechjilar xunnlardan mag'lubiyatga uchraganidan so'ng O'rta Osiyoning shimoliy hududlarida ko'chib yurishadi. Bu qabilalar Xitoy manbalarida «Da-yuechji» – «Buyuk» yoki «Katta yuechji» deb eslatiladi. Chjan Szyan ma'lumotlariga ko'ra, yuechjilar xunn qabilalaridan mag'lubiyatga uchragach, O'rta Osiyoning janubiga tomon harakat qilib, Dahya (Baqtriya)ni bosib olishadi va Guy-Shuy (Amudaryo)ning shimoliy tomonida joylashishadi. Katta Xan uyi tarixida ham yuechjilar Guy-Shuy daryosining shimoliy tomonida o'z poytaxtlariga asos solganliklari ta'kidlanadi.

Yuechjilar mil. avv. 140–130-yillar oralig'ida Baqtriyaga bostirib kirishgan. Oradan ko'p o'tmay Baqtriyada Katta yuechji davlati tashkil topadi. Kichik Xan uyi tarixi ma'lumotlariga ko'ra, Katta yuechji hukmdorlari qo'l ostida beshta hokimlik (Xi-xeu) bor bo'lib, ular Xyumi, Shaunmi, Guyshuan, Xise va Dumi degan mulklardan iborat edi. Xitoy manbalaridan xulosa chiqargan E.A. Davidovich Baqtriya tarixidagi butun yuechji davrini uch bosqichga bo'ladi:

1. Mil. avv. 139–125-yillar – Katta yuechji Dahya viloyatini bosib oladi, ammo ularning asosiy mulklari Amudaryodan shimol tomonda edi.

2. Mil. avv. 25-yilga qadar – Katta yuechji davlatining shakllanishi va keyingi rivojlanishi. Davlatning poytaxti Amudaryodan shi-

mol tomonda bo'lib, janubiy chegarasi Gibin atroflarida (Kashmir yoki Qandahor) edi. Yuechjilar bo'ysundirgan hududlar Xise, Shaumi, Guyshuan, Xyumi, Dumi mulklaridan iborat bo'lib, ular xi-xou (yabg'u) tomonidan birlashtirilgan.

Mil. avv. 25-yildan keyin Katta yuechji davlatining inqirozi va yuqorida eslatilgan mulklarning mustaqil bo'lishi. Kushon (Guyshuan) yabg'usi Kiotszyukyu (Kujula Kadfiz) qolgan to'rtta mulkni birlashtirib, Kushon davlatiga asos soldi.

Ta'kidlash lozimki, madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy tarixga nisbatan Kushon davlatining siyosiy tarixi kam o'rganilgan masala hisoblanadi. Kushonlarning hokimiyat tepasiga kelish sanasi, ushbu davlat tarixini davrlashtirish ayrim kushon yozuvlari, tangashunoslik ma'lumotlari, qisman Xitoy manbalari, buddaviy ma'lumotlar va ilk o'rta asrlar manbalariga asoslanadi. Tadqiqotchilar Yuechji-Kushon va Kushon davlati tarixini quyidagi uchta bosqichga ajratishadi:

1. Yunon-Baqtriya podsholari hukmronligining tugatilishi hamda Baqtriya hududlarida beshta mulklardan iborat uyushmaning tashkil topishi (mil. avv. II asrning oxiri – I asr).

2. Buyuk Kushon davlatining paydo bo'lishi va gullab-yashnashi (milodiy I – III asrlar).

3. Tinimsiz urushlar natijasida Kushon davlatining inqirozi va qulashi (III asr).

Kushon davlatining paydo bo'lishi haqida ko'proq Xitoy manbalari va tangashunoslik ma'lumotlari xabar beradi. Umuman, Kushonlar saltanatining vujudga kelishi va rivojlanishi uzoq vaqt tadqiqotchilar orasida bahslarga sabab bo'lgan bo'lsa-da, o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab bu masalaga ko'plab aniqliklar kiritish imkonini bergan tadqiqotlar olib borildi.

Mil. avv. I asrning oxiri – mil. I asrning boshlariga kelib, Guyshuan hokimi Kiotszyukyu barcha mulklarni birlashtirib, Kobuliston va Qandahorni zabt etadi. Natijada Kushon davlati o'z ahamiyatiga ko'ra antik davr Xitoydagi Xan davlati, Parfiya podsholigi, Rim saltanati bilan raqobatlasha oladigan qadimgi dunyoning eng qudratli va zabardast

davlatlaridan biri sifatida tashkil topdi. Xitoy manbalaridagi «Guyshuan hokimi Kiotszyukyu» ilk Kushon davriga oid topilma tangalar aks ettirilgan «Kushon podshosi Kujula Kadfiz»ga aynan mos tushadi.

Tangashunoslik ma'lumotlariga tayangan tadqiqotchilarning fikricha, Kujula Kadfiz yoki Kadfiz I 80 yildan ziyodroq umr ko'rib, 50–60 yil davlatni boshqarib, taxminan milodiy 35-yilda vafot etadi. O'zining hukmronligi davrida Kadfiz I Baqtriyadagi uncha katta bo'lmagan yuechji mulklari hukmdoridan Baqtriyadan tashqari, g'arbiy va janubiy Afg'oniston va shimoliy Hindistonni o'z tarkibiga olgan qudratli davlatning podshosi darajasiga ko'tariladi. Ammo manbalarning guvohlik berishicha, Kadfiz I davrida Kushon davlati to'la shakllanib bo'lmagan edi. Har holda, bu davrda Kushonlar o'z tangalariga ega bo'lmay, Kadfiz I Rim imperatorlariga (Avgust va Tiberiyga) taqlid qilib tanga zarb ettirgan.

Manbalarning dalolat berishicha, Kujuladan keyin taxtga uning o'g'li Vima (Gima) Kadfiz (Kadfiz II) o'tiradi. Xitoy mualliflari Kadfiz II taxtga o'tirganidan so'ng «Tyanchju (Hindiston)ni zabt etdi va u yerga o'z sarkardalaridan birini boshqarish uchun qoldirdi. Shu davrdan boshlab Yuechji kuchli va boy davlatga aylandi», deb xabar berishadi. Bu xabarni tangashunoslik ma'lumotlari ham tasdiqlaydi. Kadfiz II zarb ettirgan tangalarning o'ng qirg'oq Baqtriyadan, Tojikiston va O'zbekistonning janubiy tumanlaridan topilishi bu hududlarning Kushon davlati tarkibiga kirganligidan dalolat beradi. Tangashunoslarning so'nggi yillardagi tadqiqotlariga ko'ra, Kadfiz II zarb ettirgan «Shohlar shohi – buyuk xaloskor» degan yozuv bor tangalar Hindiston, Afg'oniston va O'rta Osiyoda keng tarqalgan. Bunday tangalar Ashxobod, Xorazm, Toshkent vohasi, Surxondaryo, Qashqadaryo, Panjikent hududlaridan ham topilgan. Kadfiz II ning Rim saltanati bilan aloqalar o'rnatganligi haqida ma'lumotlar bor.

Kushon podsholari ichida eng mashhuri Kanishka hisoblanadi. Uning hukmronligi davrida (II asrning birinchi yarmi) Kushonlar saltanati gullab-yashnashining yuqori cho'qqisiga ko'tariladi. Kanishka davrida Panjob, Kashmir viloyatlari mamlakatga qo'shib olinadi.



Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, davlatning poytaxti Baqtriyadan Peshovar (hozirgi Pokiston)ga ko'chiriladi. Bu davrda mamlakatning hududi Shimoliy Hindiston, Afg'oniston, O'rta Osiyoning katta qismi, Sharqiy Turkistondan iborat edi. Syuan Szyanning yozishicha, «Kanishka podsholik qilgan davrda uning shon-shuhrati qo'shni mamlakatlarga yoyildi. Mamlakatning harbiy qudrati ko'pchilik tomonidan tan olindi. Xitoyning g'arb tomonidagilar ham Kanishkaning hokimiyatini tan olib, unga o'zi garovga qo'ygan odamlarini yuborishardi».

Kushonlar sulolasi yozma manbalar asosida va tangashunoslik tadqiqotlari orqali o'rganilgan. Kushonlar davrida chiqarilgan ilk tangalarning bir tomonida Yunon-Baqtriyaning so'nggi podshosi Germey tasviri, ikkinchi tomonida esa «Kushonlar yabg'usi Kujula Kadfiz» degan so'zlar bor. Demak, dastlab Kushon hokimlari o'z nomlarini «podsho», «shoh» tushunchalari bilan bog'lashmagan. Ammo Kushon davlati hududining kengayishi va siyosiy-harbiy ahamiyatining ortib borishi bilan birga tanga pullarda «shoh», «shohlar shohi» atamasi ko'plab uchraydi. Bunday o'zgarishlar Xitoy muallifi bergan ma'lumotlarni, ya'ni davlatning harbiy qudrati ko'pchilik mamlakatlar tomonidan tan olinganligini isbotlaydi.

Podsho Kanishka I o'zidan oldingi davlat boshqaruvi an'alarini saqlab qoldi va davom ettirdi. Ma'lum viloyatlar va shaharlar davlat tepasida turuvchi oliy hukmdor noiblari tomonidan boshqarilar edi. Bunday noiblar podsho tomonidan tayinlanib, uning eng yaqin va ishonchli vakillari hisoblangan. Ular oliy hukmdorga, ya'ni podshoga so'zsiz itoat etib, doimiy ravishda davlat xazinasiga o'lponlar to'lab turishgan. Kushonlar davrida mahalliy aholidan yig'iladigan soliq tartibi haqida ma'lumotlar bizgacha saqlanmagan bo'lsa-da, bunday tartib mavjud bo'lganligi aniq.

Kushon podsholigi ruhoniylar qo'lidagi davlat bo'lib, bu davlatda podsho hokimiyatni boshqarish bilan birga bosh kohin ham hisoblangan. Podsholik satrapliklarga bo'lingan bo'lib, ularning noiblari podsho tomonidan tayinlangan. Kushon podsholigi markazlashgan

davlat hisoblanib, davlatda qishloq jamoalarining ahamiyati nihoyatda katta bo'lgan.

So'nggi yillarda olib borilgan ko'plab arxeologik tadqiqotlar Kushon davri O'zbekiston tarixi va moddiy madaniyatini o'rganish bo'yicha keng imkoniyatlar yaratdi. Ushbu tadqiqotlar natijalariga ko'ra, O'zbekistonning janubiy hududlarida xo'jalik va madaniy hayotning yuksak darajada rivoj topgan davri bo'ldi.

Dehqonchilikning rivoji tufayli keng hududlar o'troq aholi tomonidan jadallik bilan o'zlashtiriladi. Misol tariqasida, faqatgina Shimoliy Baqtriyada (Surxon vohasi) 120 dan ziyod Kushon davriga oid aholi shahar va uy-qo'rg'onlari aniqlangan. Bu davrda dehqonchilik nafaqat vohalarda, balki tog'li hududlarga yoyiladi. Surxon va Sherobodaryoning yuqori oqimidagi tog'li hududlardan dehqonchilik manzilgohlari va qal'alari topib o'rganilgan. Bu davrda Surxon vohasida ilgarigi davrdagiga nisbatan anchagina murakkablashgan sug'orish inshootlari barpo etiladi. Dehqonchilik qurollarida ham o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Bu davrda shaharlar ham yuqori darajada rivoj topadi. Kushon davri ko'pgina viloyatlar va vohalarda o'tgan davrlarga nisbatan yirik shahar markazlari va hududiy jihatdan o'rtamiyona shaharlar sonining ancha ko'payganligi kuzatiladi. Kushon davri shaharlari viloyatlar, ayrim vohalar va tumanlarning ma'muriy-siyosiy markazlari hisoblanib, ularning saqlanib qolgan xarobalarida qal'alar alohida ajalib turadi. Bunday qal'alar Eski Termizda, Dalvarzintepa, Budrach va boshqalarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Shuningdek, Kushon davri shaharlari diniy-mafkuraviy markazlar vazifasini ham bajarib, ularda yirik-yirik topinish joylari va diniy marosimlar o'tkaziladigan inshootlar joylashgan. Dalvarzin va Termizdagi budda ibodatxonalar shular jumlasidandir.

Kushon davri shaharlari hunarmandchilik va savdo-sotiqning ham markazi edi. Mazkur shaharlardan ko'p sonli hunarmandchilik buyumlari, kulolchilik xumdonlari, metallni qayta ishlash ustaxonalari, zargarlik buyumlari, harbiy va xo'jalik qurol-yarog'lari topib o'rganilgan.



Kushon davlatida tashqi va ichki savdo jadal taraqqiy etadi. Kushonlar Buyuk ipak yo'lining Sharqiy qismi nazoratini o'z qo'llariga olishgandi. Chetdan keltirilgan ipak, mo'yna, bronza ko'zgular, muhrlar, shisha idishlar, haykalchalar tashqi savdo taraqqiyotidan dalolat bersa, ko'plab hunarmandchilik buyumlari hamda kumush va bronza tangalar ichki savdo rivojlanganligini isbotlaydi.

O'z gullab-yashnagan davrida Kushon davlati ko'plab xalqlar va elatlar yashab turgan hududlarni egallagan edi. Ushbu xalqlar va elatlar turli tillarda gaplashishgan, yozuvning turli tartibidan foydalanishgan hamda turli diniy e'tiqodlarda bo'lishgan. Moddiy madaniyat buyumlarida ham ayrim farqlar kuzatiladi. Shunga qaramasdan, Kushonlar davri madaniyatida ko'pgina umumiylik seziladi. Ammo butun Kushon davlatida yagona madaniyat hukm surganligi haqida fikr aytib bo'lmaydi. Bu katta davlatning har bir viloyati qaysidir tomonlari bilan o'ziga xos bo'lgan madaniyatga ega bo'lgan.

Avvalambor, Shimoliy Baqtriya (Surxon vohasi) haqida so'z yuritadigan bo'lsak, bu viloyat Kushon davlatining eng yirik viloyatlaridan biri bo'lib, madaniyati yuksak darajada rivojlangan edi. Ta'kidlash lozimki, O'rta Osiyoda buddizmning yoyilishi milodning birinchi asridan boshlab aynan Baqtriya-Toxariston hududlaridan boshlangan. Hozirgi kunda bu hududlardan o'ndan ziyod budda ibodatxonalari, yuzdan ortiq budda haykallari aniqlanib o'rganilgan. Ulardan eng mashhurlari Termiz yaqinidagi Qoratepa ibodatxonalari, Zartepa va Ayritom topilmalari, Dalvarzintepa ibodatxonalari hisoblanadi. Shimoliy Baqtriyaning o'ziga xos madaniyati me'morchilik san'atida (binolar ustunlari va peshtoqlarining bezatilishi), shaharsozlik madaniyatida, kulolchilik va zargarlik buyumlarida ham o'z aksini topadi.

Kanishka davrida Hindistondan tarqalgan budda dini davlat dini-ga aylandi. Oromiy va yunon yozuvlari asosida kushon yozuvi mavjud bo'lgan. Shuningdek, bu davrda sug'd va xorazm yozuvlari ham bor edi. Ushbu yozuv yodgorliklarida o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotni aks ettiruvchi ayrim ma'lumotlar saqlanib qol-

gan. Bundan tashqari, Kushonlar davrida O'rta Osiyo xalqlari madaniy hayotining quruvchilik, haykaltaroshlik, rassomlik, naqqoshlik kabi sohalarida ham katta yutuqlarga erishilgan.

Kushonlar davrida binokorlik va me'morchilik ham shaklan, ham mazmunan rivoj topganligi kuzatiladi. Chunki, bu davrdagi ma'muriy, diniy, ishlab chiqarish, turarjoy, mudofaa inshootlari, Sharq me'morchiligi bilan ayrim o'xshashliklar topsa-da, o'ziga xos tomonlari ustunlik qiladi. Me'morchilikning o'ziga xos namunalari Dalvarzin, Xolchayon, Eski Termiz, Kampirtepa, Fayoztepa, Qoratepa kabilardan o'rganilgan bo'lib, ular jahon miqyosida mashhur bo'lgan obidalaridir.

Kushon davlatining inqirozga uchrashi Yunon-Baqtriya va Rim saltanati tarixiy taqdiriga ancha o'xshab ketadi. Bu davlatlarning barchasi qulash arafasida tinimsiz yurishlar olib borishga majbur bo'lishgan. Tashqi harbiy bosqinlardan himoyalaniish uchun ichki va tashqi sabablarga ko'ra, zaiflashgan yirik davlatlarda yetarli harbiy imkoniyat topilmadi. Milodiy III asrda Kushon podsholigi o'zining asosiy hududlaridan mahrum bo'ldi. Bu podsholikning ayrim mulklari Shimoliy Hindistonda saqlanib qoldi.

**Kushon davri Shimoliy Baqtriya shaharlari.** Kushon davrida tipologik jihatdan turlicha bo'lgan, turli vazifalarni bajargan shaharlar paydo bo'ladi. Baqtriyaning ko'pgina shaharlari muhim karvon yo'llari bo'ylarida, daryodan o'tish joylarida, savdo yo'llari chorrahalarida paydo bo'ladi. Ta'kidlash joizki, ularning shakllanishi turli yo'llar bilan bo'lib o'tgan. Shimoliy Baqtriyaning Kushon davri shaharlari ikki xil yo'l bilan paydo bo'lgan. Ularning ayrimlari aholining ko'payishi va yangi yerlarni o'zlashtirilishi natijasida bunyod etilgan bo'lsa, boshqalari esa eski yoki tiklangan shaharlar bo'lgan.

Kushon davri Shimoliy Baqtriya shaharlarining shakllanish jarayoni, ularning tarhi va tuzilishi ko'p hollarda uning asosiga, ilgari aholi yashagan manzilgohga bog'liq bo'lgan. Bu holatni arxeologik ma'lumotlar asosida o'rgangan E.V. Rtveladze o'z asoslari bilan farqlanuvchi shaharlarning quyidagi uchta guruhini ajratadi:



1. Ahamoniylar va antik davrida qadimgi asosga ega bo'lgan ko'p qatlamli shaharlar (Jondavlattepa, Qal'aimir, Hayitobodtepa va balki Termiz);

2. Yunon-Baqtriya yoki Salavkiylar davriga borib taqaladigan shaharlar (Dalvarzintepa, Kayqubodshoh, Saksonoxur, Termiz, Shahrinav, Xolchayon);

3. Yuechji yoki Kushon davrida paydo bo'lgan shaharlar (kichkina shaharlarning asosiy qismi va Budrach, Zartepa, G'arov-qal'a (Yavan), Kallaminor (Denov yonida), Shohtepa va boshq.).

Kushon davri shaharlarining kelib chiqishi va shakllanish jarayonini Dalvarzintepa nisbatan yaxshi aks ettiradi. Uning dastlabki asosi mil. avv. III asrda ko'hna shaharning janubi-sharqiy qismida, ikki tomondan qadimgi irmoq o'tib turgan baland tepalikda paydo bo'ladi. Bu irmoqlardan xandaq sifatida foydalanilgan. Keyinroq, Yunon-Baqtriya davrida bu bo'lak 2 metr dan ziyod qalinlikdagi paxsa devor bilan o'rab olinadi va maydoni 3 gektardan ziyod qal'aga aylanadi. Uning shimolida esa tarqoq rejaga ega mustahkamlanmagan qishloq bunyod etiladi.

Aftidan, mil. avv. I asrning ikkinchi yarmi yoki milodiy I asr boshlarida dastlabki markaz o'rnida qalinligi 7 metrlilik devor va xandaq bilan o'rab olingan mustahkam qal'a shakllanadi. Mustahkamlanmagan manzilgoh shaharga aylanadi. Bu shahar aniq to'g'ri burchakli rejasi va shu reja asosidagi devorlari bilan ajralib turadi. Uning ichida jadallik bilan qurilishlar olib boriladi. Shu davrdan boshlab Dalvarzintepa tarixida yangi davr – shahar davri boshlanadi. Dalvarzinning keyingi rivojlanishi Kushon davriga to'g'ri keladi. Ya'ni, hashamatli turarjoy inshootlari, ibodatxonalar, ishlab chiqarish mahallalari barpo etilib, devorlar mustahkamlanadi. Shuningdek, bir tomonida diniy va dafn marosimlariga oid inshootlar, ikkinchi tomoniga qishloq xo'jaligi bilan bog'liq mulklar markazlashgan kattagina shahar oldi qismi shakllanadi. Bu yerdan ibodatxonalar, shahar aholisining uylari, ishlab chiqarish ustaxonalari, shahar maydonlari va hovuzlar, suv tarmoqlari tizimi, ko'cha tarmoqlari qazib ochilgan va o'rganilgan.

Qiyosiy tahlil uchun solishtirib ko'radigan bo'lsak, S.P. Tolstovning yozishicha, O'rta Osiyo shaharlari o'sib chiqadigan boshlang'ich asos bir tomondan – *refugium* (lotincha, mustahkamlanmagan, xavf tug'ilgan paytda aholi panagohi) va ikkinchi tomondan – bozor hisoblanadi. E.E. Nerazikning ta'kidlashicha, qal'a atrofida shaharlarning shakllanishi Xorazm uchun rivojlanishning eng tarqalgan usullaridan biri edi. Parfiya va Marg'iyonaning ham ko'pgina shaharlari asosini mustahkam qism – qal'a tashkil etgan.

Janubiy Sug'diyonaning antik davrga oid qator ko'hna shaharlari – Qal'ai Zahhoki Maron, Shulluktepa, Ko'hna Fazli, Kindiklitepa kabilarining ham dastlabki asosini mustahkamlangan qal'a va minoralar tashkil etgan.

Demak, O'rta Osiyoning boshqa hududlarida bo'lgani kabi, Shimoliy Baqtriyada ham shaharlarning shakllanishi asosan qal'adan boshlangan. Shuning uchun ham Kushon davri barcha shaharlarda ilgari mustahkamlangan manzilgoh asosi bo'lgan qal'alar mavjudligi tasodifiy hol emas, deb xulosa chiqarish maqsadga muvofiqdir. Bu holat qurilish uslublaridagi mahalliy an'analar antik davrda ham davom etganligidan dalolat beradi.

Antik davrda Shimoliy Baqtriyada tarhiy tuzilishi aniq to'g'ri burchakli va to'rt qismli (qal'a, shaharning o'zi, shaharoldi va atrof) shahar va shaharchalar ko'p tarqalgan. Tashqi rejaviy tuzilishi notekis bo'lgan shaharlar kam uchraydi. To'g'ri burchakli shaharlar negizini yagona shaharsozlik an'analari hamda qaysidir ma'noda, Kushon davri ijtimoiy va madaniy me'yorlari tashkil etgan bo'lsa, noto'g'ri reja asosidagi shaharlar mustahkam qal'alar yonida, o'z-o'zidan, aholi o'sishi natijasida paydo bo'lib, ularning sohiblari mavjud chegaralarga moslashishgan.

Ko'plab Kushon qal'alari oldingi davr bilan genetik bog'liq bo'lgan. Ular mustahkamlangan qo'rg'on-markaz o'rnida shakllanib, ulardan tashqi ko'rinishini ham meros qilib olgan (Dalvarzintepa, Termiz, Kampirtepa). Ularning ayrimlari (Jondavlattepa, Zartepa, Xayrobodtepa) avvalboshdayoq qal'a sifatida shakllangan bo'lishi



ham mumkin. Bu qal'alar bir-birlaridan o'lchamlari va shahar qurilishi tartibida joylashuvi bilan farqlanadi. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, qal'alarning ahamiyati shaharlarning vazifalari va o'lchamlari bilan belgilanib, bir qator omillar, xususan, tabiiy sharoitlar ham hisobga olingan. Ko'pchilik qal'alar shaharning bir burchagiga joylashib, to'liq shahar qurilishi tizimiga kirgan. Ayrim hollarda qal'a ko'hna shaharning bir burchagida joylashib, shahar devorlari chegarasidan chiqib turgan (Dalvarzin, Arpapoyatepa). Ba'zi qal'alar ko'hna shaharning markazida (Yalangto'shtepa, G'arovqal'a, Dilbarjin), ayrimlari esa shaharning asosiy qismidan alohida yoki daryo bo'yida joylashgan (Termiz, Kampirtepa).

Ko'hna shaharlarning qal'alari o'lchamlari va rejaviy tuzilishi jihatdan ham bir-biridan farqlangan. Misol uchun, to'g'ri burchakli (Kampirtepa, Termiz), to'rt burchakli (Zartepa, Oqmozortepa, Xayrobodtepa), ko'pburchakli (Dalvarzintepa). Shaharlarning ma'muriy-hududiy joylashuviga qarab ulardagi qo'rg'onlar turli vazifalarni bajarishgan. Ta'kidlash joizki, ko'pgina qal'alar harbiy-mudofaa xususiyatiga ega bo'lgan.

O'rta Osiyoning boshqa ko'hna shaharlarini qal'alar bilan qiyosiy tahlil qilsak, ular Kushon davrida boshqacharoq tuzilishga ega bo'lgan. Misol uchun, Tuproqqal'aning so'nggi antik davr qal'asida saroy, otashkada va harbiylar bilan bog'liq bir necha inshootlar bo'lgan. Qadimiy Marvning qal'asi Erkqal'ada esa, shoh saroyi, xizmatchilar xonalari va ma'muriy inshootlar joylashgan. G.A. Pugachenkovaning taxminlariga ko'ra, O'rta Osiyo antik davr shaharlarining qal'alari, ma'muriy binolar markazlashgan joy bo'lib, bu yerda hukmdor huzuridagi xizmatkorlar, omborxonalar va garnizon inshootlari joylashgan.

Ko'hna shaharlar ko'p hollarda aniq reja asosida, bir necha qismdan iborat tarzda bunyod etilgan bo'lib, har bir qismning muayyan vazifasi bor edi. Ushbu qismlar shaharlar hududlarida joylashib, ular joylashuvida tabiiy-geografik va harbiy-siyosiy vaziyatlar hamda shart-sharoitlar hisobga olingan.

Antik davr Shimoliy Baqtriya shaharlari ma'muriy, harbiy-siyosiy va mafkuraviy markaz bo'libgina qolmasdan, savdo-sotiq va hunarmandchilik markazlashgan hudud ham hisoblangan. Chjan Szyanning mil. avv. II asrning o'rtalariga oid ma'lumotlariga ko'ra, Dahya (Baqtriya) aholisi savdo-sotiqda nihoyatda mohir, mamlakatning poytaxtida esa har xil mahsulotlarga boy bo'lgan bozor mavjud edi.

O'rta Yer dengizi mamlakatlarini Uzoq Sharq bilan bog'lovchi Buyuk ipak yo'lining ushbu hududlardan o'tishi shaharsozlik madaniyati va xalqaro savdoning rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratgan edi. Ptolomey tasvirlagan bu yo'lning bir tarmog'i Baqt-radan shimolga. Amudaryo orqali Tarmitadan o'tib shimoli-sharqqa qayrilgan va Surxon vohasi bo'ylab borib, Qoratog' orqali Qorategin tomonga ketgan. Bu yo'lning boshqa bir tarmog'i Tarmitadan so'ng Sheroboddaryo vodiysidan o'tgan va Temir darvoza orqali Sug'dga olib chiqqan. Bu yo'l O'rta Osiyo va Shimoliy Baqtriyaning markaziy va shimoliy viloyatlarini Hindiston bilan bog'lab turgan.

Antik davrda Shimoliy Baqtriyaning ko'hna shaharlarida kulolchilikka ixtisoslashgan mahallalar mavjud bo'lib, ularda bir vaqtning o'zida bir nechta xumdonlar ishlab turgan. Ulardagi idishlarni pishirish ustaxonalarida bir pishirishda yuzdan ortiq idishlar sig'dirilgan. Ko'hna shaharlarda temirni qayta ishlaydigan hunarmandchilik ustaxonalari ham bo'lgan. Ular temirdan har xil buyumlar tayyorlashgan. Termizdan temirchilar mahallasi aniqlangan. Temir va misni qayta ishlash hunarmandchiligi ustaxonalarning qoldiqlari Sho'rtepadan ham topilgan.

Shimoliy Baqtriya shaharlarida qurilish ishlari va me'morchilikning yuqori darajasi bu hududlarda o'z kasbining ustasi bo'lgan quruvchilar va me'morlar bo'lganligidan dalolat beradi. Qurilishda xom g'isht va paxsa bilan bir qatorda, Kushon davrida pishiq g'isht ham ishlatilgan. G'isht pishiradigan xumdonlar Dalvarzintepada aniqlangan. Ayrim g'ishtlardan shaxsiy muhrlar izlari qayd etilgan. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, g'isht pishiruvchi ustaxonalar buyurtma bo'yicha ishlagan.



Shimoliy Baqtriyaning shaharlarida to'qimachilik hunarmandchiligi ham keng tarqalgan. Qazishmalar paytida juda ko'plab urchuq uchlari topilganki, ular gilam, sholcha va mato tayyorlashda ishlatilgan. To'qimachilikning keng rivojlanishi shundan dalolat beradiki, ixtisoslikning bu turi faqat mayda, uy hunarmandchiligi bo'lib qolmasdan, ko'hna shaharlarda yirik to'qimachilik ustaxonalari bo'lib, ular xalqaro va ichki bozor uchun mahsulot chiqarishgan. To'qimachi ustalar bo'lganligini Dalvarzintepa va Kampirtepadan topilgan shaxsiy muhrlar yana bir marta isbotlaydi. Ko'hna shaharlarda hunarmandchilikning boshqa ko'rinishlari – zargarlik, toshga ishlov berish, tegirmonchilik (un tortish) ishlari ham rivojlangan. Ko'pgina shaharlardan tanga pullarning topilishi pul zarb etish yaxshi yo'lga qo'yilganidan dalolat beradi.

Xullas, antik davr Shimoliy Baqtriya shaharlari o'z taraqqiyotining yuqori bosqichiga ko'tarilgan edi. Yozma manbalarda Baqtriya haqida «ming shaharlar o'lkasi», deb eslatib o'tilishi hamda ko'p sonli arxeologik ma'lumotlar ushbu fikrimizning dalilidir. Antik davrda bu hududlardagi shaharlar taraqqiyoti uchun ko'pgina imkoniyatlar (ijtimoiy-iqtisodiy, harbiy-siyosiy, geografik va boshq.) mavjud edi. Shaharlar ko'p hollarda ilgari belgilab qo'yilgan qat'iy me'morchilik rejasi asosda qurilib, bir necha qismdan iborat bo'lgan. Har bir qismning muayyan bajaradigan vazifasi mavjud edi. Shaharlarning o'zi esa ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy markaz hisoblanib, siyosiy hayotda ham muhim ahamiyat kasb etgan. Taraqqiyot qonuniyatlariga ko'ra, avvalgi davrlarda bo'lgani kabi, antik davr shaharlari davlatchilik taraqqiyotining asosiy omili bo'lib qolaverdi.

**Badiiy madaniyat, yozuv, tasviriy san'at va din. Shimoliy Baqtriya.** Jamiyatning madaniy taraqqiyotida, e'tiqodlarda, madaniy aloqalar rivojida badiiy madaniyat, xususan, san'atning ahamiyati nihoyatda kattadir. O'rta Osiyoning qadimgi xalqlari minglab yillar davomida yuksak darajadagi amaliy va badiiy san'at namunalarini yaratib, badiiy madaniyatni bosqichma-bosqich rivojlantirib borishgan. Bu jarayon antik davrda ham davom etdi.

Avvalambor Shimoliy Baqtriya haqida so'z yuritadigan bo'lsak, antik davrda bu hududlarning badiiy madaniyati boy va rang-barang edi. O'tgan asrning 30-yillaridan boshlab olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida Shimoliy Baqtriyadan antik davrga oid ko'plab badiiy madaniyat namunalari topib o'rganilgan. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, bu davrda aholining ma'naviy hayotida haykaltaroshlik, mahobatli inshootlar, musiqa, teatrlashtirilgan manzaralar, tasviriy san'at katta ahamiyat kasb etgan. Bu hududlardagi Ayritom, Xolchayon, Dalvarzin, Fayoztepa, Kampirtepa, Termiz, Qoratepa, Oqqo'rg'on, Barottepa kabi yodgorlikdan ko'plab topilgan badiiy san'at topilmalari yuqorida qayd etilgan mulohazalarning amaliy tasdig'i bo'lib xizmat qiladi.

Dastavval musiqa san'ati haqida gapiradigan bo'lsak, musiqachilar siymolari Ayritom, Dalvarzin, Xolchayon kabilardan topilgan. Misol uchun Ayritom naqshli hoshiya (friz)larida arfa, gitara ko'rinishidagi ud, qo'sh baraban, naysimon musiqa asbobi (fleyta) tasvirlari bilan birga musiqachi ayollar haykalchalarini ham uchratish mumkin. Tadqiqotchilarning fikricha, Ayritom hoshiyasida go'zal musiqachi ayollar tasvirlangan bo'lsa, haykalchalar musiqa bilan odamlar qalbini hayajonga soluvchi timsoldir. Xolchayon saroyi hoshiyasidagi musiqachi ayollar tasviri esa Baqtriya zodagonlarining bazmini ifoda etadi.

Tasvirlarda asosan ayol musiqachilar bo'lib, ular ko'p hollarda ud chalib turgan holatda ifodalangan. Antik davr musiqa san'atida ud keng tarqalgan bo'lib, Sharq musiqashunos tadqiqotchilarining fikricha, ushbu musiqa asbobi dastavval O'rta Osiyoda paydo bo'lib, keyinchalik boshqa hududlarga tarqalgan.

Antik davrda Baqtriyada koroplastika san'ati paydo bo'ladi. Tadqiqotlar natijasida Baqtriya ustalarining mahalliy e'tiqodlar bilan bog'liq ko'plab haykalchalari topilgan. Shimoliy Baqtriyadagi antik davr deyarli barcha yodgorliklaridan topilgan haykalchalar asosan xudolar, ayollar va qisman hayvonlar tasvirlarini ifodalaydi.

Yuehji-Kushon va Buyuk kushonlar davriga kelib Shimoliy Baqtriya badiiy madaniyatining turli jabhalarida yuksalish jarayon-



lari kuzatiladi. Bu yuksalish arxeologik tadqiqotlar natijasida yuzaga chiqqan devoriy manzaralar, saroylar va ibodatxonalarni bezab turgan haykallar, ayrim boy xonadonlardagi tasvirlar orqali o'z isbotini topadi. Manzaralar asosan mineral bo'yoqlarga o'simlik moyini aralashtirish orqali qalin suvoq ustiga tushirilgan.

Manzaralar va tasvirlar mavzulari xilma-xil. Masalan, Xolchayon saroyidagi devorlarda naqshli manzaralardan tashqari (uzum mevasi va barglari, gullar), ellin ko'rinishidagi ikkita erkak boshi hamda sochlari o'ziga xos tarzda qirtishlangan mongoloid irqiga o'xshab ketuvchi bolaning bosh qismi tasvirlangan. Dalvarzindagi Baqtriya ilohasi saroyida esa qo'llarida bola ko'tarib ilohaga talpinayotgan ayol va erkak kohinlar, yonida erkak kishi turgan ot, ularga qarab turgan ayollar tasvirlari ifodalangan.

Dalvarzintepadan ko'plab ayol haykalchalarining boshlari topilgan. Bunday haykalchalar Eski Termiz, Oqqo'rg'on, Zartepa va Xolchayonda ham ko'plab uchraydi. Ularning yuz ko'rinishlarini qiyosiy tahlil etgan G.A. Pugachenkova ulardagi ikkita – «baqtriya» hamda «sak-yuechji» etnik guruhlarini ajratadi. Bunday haykalchalar orasida erkaklar va bolalarga nisbatan ayollar tasvirlari ko'pchilikni tashkil etadi.

Rassomlik san'ati buddaviylik inshootlarining asosiy bezagiy tarkibi hisoblangan. Bu o'rinda Dalvarzindagi Buddha o'ziga xos bo'lsa, Qoratepadagi g'orlardan birida o'tirgan holatdagi Buddaning yirik tasviri aniqlangan. Fayoztepadagi ibodatxona tasvirlari ham mahalliy aholining diniy e'tiqodlarini ifodalaydi.

Antik davr Shimoliy Baqtriyaning klassik san'atida haykaltaroshlik yuqori o'rinda turadi. Ilk Kushonlar davridan boshlab deyarli barcha yodgorliklarda haykaltaroshlik namunalari uchratish mumkin. Haykaltaroshlikning asosiy xomashyosi qayishqoq (plastichnaya) loy hisoblanib, tayyorlash texnikasi yaxshi ishlab chiqilgan. Haykallar asosan qo'lda tayyorlangan bo'lsa-da, ayrim hollarda quyma qoliplardan ham foydalanilgan.

Bu davrdagi haykaltaroshlik manzaralari yoki alohida haykallar mavzusi xilma-xil bo'lib, tadqiqotchilar tomonidan quyidagi guruh-

larga ajratiladi: hukmdor xonadonini ulug'lovchi sulolaviy mavzu; budda dini va mahalliy e'tiqodlarni targ'ib etuvchi diniy-mifologik mavzu; urf-odatlar va bayramlar bilan bog'lanadigan teatrlashtirilgan yoki topinish harakatlari mavzusi.

Xolchayon saroyining haykallari ayvon va bosh zalni bezab turgan bo'lib, ularda tasvirlangan siymolar asosan Kushon xonadoni vakillarini ifodalaydi. Ammo, haykallar orasida qalin soqolli baqtriyalik va parfiyalik zodagonlar siymolari ham uchraydi. Xolchayon haykaltaroshlik san'ati antik davr aslzodalarining yoshi, e'tiqodi, kiyim-kechaklari, bezaklari haqidagi tasavvurlarimiz kengayshida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shimoliy Baqtriyadagi antik davr yodgorliklari – Dalvarzin, Xolchayon, Ayritom, Fayoztepa, Qoratepa, Kampirtepa, Oqqo'rg'on kabi ko'plab yodgorliklaridan turli-tuman mavzularda, turli kattalikdagi haykallar namunalari topilgan. Ular ilmiy jihatdan tadqiq etilib, natijalari fanga joriy etilgan. Ushbu natijalardan shunday xulosa chiqarish mumkin, antik davr shahar madaniyati, hunarmandchilik va savdo-sotiqning taraqqiy etishi badiiy madaniyat, jumladan, haykaltaroshlikning rivojiga ham katta ta'sir o'tkazdi. Turli e'tiqodlar hamda madaniyatlarning aralashuviga uyg'unlashuvi tufayli haykaltaroshlikda mahalliy ustalarning o'z san'atini antik dunyoda namoyish etgan maktabi shakllandi.

Bu o'rinda dunyoga mashhur bo'lgan Dalvarzin xazinasida to'xtalishni lozim topdik. Turli madaniyatlar aralashuvi (sintezni) ni o'zida aks ettiruvchi bu tilla buyumlar xazinasida 1972-yilda Dalvarzintepadagi baqtriyalik zodagon xonadoni qazishmalaridan topilgan. Milodiy I asrga oid ushbu tilla buyumlar xazinasida did bilan ishlangan uzuklar, bilaguzuklar, sirg'alar, bo'yin taqinchoqlari, tilla yombi (quymalar)lar bor. Ushbu zargarlik san'ati namunalari Kushon davridagi uchta: ellin, hind va baqtriya madaniyatlari o'zaro umumlashuvini ifodalaydi.

**Din.** Antik davr Shimoliy Baqtriyaning diniy hayoti ancha murakkab edi. Ilgarigi davrlarda mahalliy aholi zardushtiylik diniga



e'tiqod qilgan bo'lib, bu e'tiqodlar antik davrda ham saqlanib qoldi. Xususan, tadqiqotlarga ko'ra, ulkan davlat hukmdorlarining diniy qarashlarini ifoda etuvchi kushon tangalarida hosildorlik xudosi Mitra, oy xudosi Max, shamol xudosi Vado, olov xudosi Atsho kabilar tasvirlangan. Shuningdek, Shimoliy Baqtriyadan topilgan mis tangalarda to'kin-sochinlik va farovonlik ilohasi Ardoxsho hamda suv xudosi Vaxshu (uning nomi Vaxsh daryosi nomida saqlangan) siymolari tasvirlanganligi kuzatilgan.

Makedoniyalik Aleksandr yurishlaridan so'ng Shimoliy Baqtriyada ellinistik olam xudolari ommalasha boshlaydi. Mil. avv. III asrning o'rtalaridan boshlab, ya'ni Yunon-Baqtriya davlati davrida mahalliy diniy an'analarda Sharq ellinizmning kuchli ta'siri kuzatiladi. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, Yunon-Baqtriya ibodatxonalarida yunon xudolari Germes va Geraklga bag'ishlangan bitiklar. Zevs va Poseydonning haykallari topilgan. Yunon-Baqtriya hukmdorlari tangalarida Gemos, Nika, Gerakl kabi xudolarning, ilohiy egizaklarning tasvirlari uchraydi.

Ellin xudolarining ko'pchiligi yuechjilar kirib kelgach va Kushon davrlarida o'zining ilgarigi ahamiyatini yo'qotsa-da, tangalarda va haykaltaroshlikda ularning ayrimlari mahalliy xudolar bilan, masalan, Ellin Gelios mahalliy Mixr bilan, Nika Vaninda bilan, Gerakl Oxsho bilan qo'shib ketadi. E. Rtveladzening fikricha, sak-yuechji qabilalari bilan Baqtriyaga urug'chilik e'tiqodlari kirib kelib, mahalliy asoslarga ega bo'lgan sulolaviy e'tiqodlar bilan aralashib ketadi. Bu holat shohona qiyofadagi o'tliq tasvirlangan Geray va Soter Megas tangalarida, shuningdek, o'tliq butchalar terrakota haykalchalarda o'z aksini topadi.

Ko'plab diniy e'tiqodlarga sig'ingan xalqlarni birlashtirgan Kushon davlatining hukmdorlari Kanishka va Xuvishka tangalar zarb etganlarida ko'p sonli diniy e'tiqodlarga nisbatan o'zlarining diniy bag'rikengliklarini ifoda etishgan. Ularning tangalarida ko'plab zardushtiy va mahalliy xudolar (Atesh, Oxsho, Mixr, Max, Nana, Ardoxsho)ning tasvirlari hamda ayrim hind xudolarining siymolari tushirilgan.

Qayd etish lozimki, Kushon davlati hududlarining Hind vohasigacha kengayishi natijasida davlat hududlariga Budda dini kirib keladi. Kushon podsholari Vima Kadfiz va Vasudeva I tangalarida faqat buddaviylarning jangari xudosi Shiva tasvirlari uchraydi. Shunga qaramasdan, buddaviylik Shimoliy Baqtriyada nafaqat oddiy aholi va zodagonlar, balki Kushon hukmdorlari orasida ham ko'plab tarafdorlarini topdiki, bu hududlardagi ko'p sonli buddaviylik ibodatxonalari va saroylari yuqoridagi fikrning dalili bo'la oladi.

Boshqa O'rta Osiyo viloyatlarida bo'lgani kabi antik davr Baqtriyada aholi orasida ham Buyuk ilohaga topinish keng ommalashgan. Bu ilohaning juda ko'p sonli terrakota haykalchalarining Shimoliy Baqtriyadagi deyarli barcha yodgorliklardan topilishi shundan dalolat beradi. Buyuk ilohaning qanday nomlanganligini aniq aytish qiyin. Ayrim olimlarning uni «Avesto»dagi Anaxita bilan qiyoslashlari ilmiy jihatdan o'z tasdig'ini topmagan.

**Yozuv.** Antik davr Shimoliy Baqtriya yozuvlari turli-tuman bo'lib, ular qisqa satlarda sopol idishlarda, tangalarda va qadimgi inshootlar devorlarida bitilgan. Mil. avv. I asrda Geray va keyinroq Kadfiz II tangalarida baqtriya-yunon yozuvi namunalari ko'p uchrashini bu yozuvning keng tarqalganligidan dalolat beradi. Shimoliy Baqtriyadagi Ayritom qazishmalari vaqtida baqtriya-yunon yozuvidagi bitiklar topilgan bo'lib, unda Xuvishka davrida mahalliy diniy inshootdagi ta'mirlash ishlari haqida xabar beriladi. Bu hududlardagi Zartepa, Fayoztepa, Kampirtepa, Qoratepa kabi yodgorliklardagi sopol idishlardagi kursiv yozuvlar qisqa matnlarda ifodalanadi. Misol uchun, Qoratepadagi idishlardan birida «Buddashir (Sovg'asi), dxar-ma sig'inuvchisi» yozuvi bitilgan. Bu ibodatxonaga sovg'a keltirgan kishining nomi ham bo'lishi mumkin. Qoratepada hind tilidagi kxaroshtiy va braxma yozuvlari ham uchraydi.

Shuningdek, Qoratepadan topilgan bir idishda nasihat-yozuv quyidagicha o'qilgan: «Kimda kim odamlar o'rtasidagi farqni ajratib, uni yo'qotsa, u yo'lning eng oldida bo'ladi».

Hind alifbosidagi kxaroshtiy yozuvi Dalvarzintepa xazinasidagi oltin yombilardan birida uchraydi. Unda yombining aniq og'irligi va

uni xazinadan bergan xazinabonining nomi (Mira – baqtriycha nom) bitilgan. Bu yozuv milodiy I asr bilan sanalangan.

Shimoliy Baqtriyadagi yunon alifbosiga asoslangan baqtriya yozuvlari asosan Surxondaryo viloyati hududlaridan topilgan. Bu yozuvlarning bir qismi lo'nda va qisqa uslubda, harflar yozilishi ajratilgan, aylana va burchaksimon belgilar shakllari qo'shilib ketgan holatda bitilgan. Yozuvlarning asosiy qismi bosma (kursiv) harflarda, aylana shakldagi harflarning ko'pligi bilan ajralib turadi.

Surxondaryo viloyatidagi Qoratepa, Kampirtepa, Mirzako'ltepa, Fayoztepadan topilgan baqtriya yozuvlari milodiy I asr oxiri – II asrning birinchi yarmiga oid bo'lsa, Qoratepa graffitlari, Eski Termiz va Dalvarzindagi kursiv yozuvlar III–IV asrlarga oiddir. E. Rtveladze Shimoliy Baqtriyadagi baqtriya yozuvlarini quyidagi yettita guruhga ajratadi:

1. Qora bo'yoq bilan bitilgan sopol idishlar parchalaridagi yozuvlar (Qoratepa, Fayoztepa, Eski Termiz, Zartepa).

2. Avval butun bo'lib, keyin sinib qolgan idishlardagi yozuvlar (Eski Termiz, Kampirtepa).

3. Sopol idishlar pishirilgunga qadar tirnab bitilgan yozuvlar (Dalvarzintepa, Dushanbe, Mirzako'ltepa, Tepayi Shoh, Yalangto'shtepa).

4. Graffit yozuvlar (Qoratepa va Qorakamar).

5. Haykallarning tagkursisida (blokida) qisqa va lo'nda uslubda bitilgan yozuvlar (Ayrطوم).

6. Papirusga bitilgan qo'lyozma matnlar parchalari (Kampirtepa).

7. Kushon va kushon-sosoniy tangalaridagi rivoyatlar.

Bugungi kunga qadar Shimoliy Baqtriyadan topilgan yozuv namunalari baqtriya, yunon, hind (prakrit va sanskrit), o'rta fors hama sak-yuechji guruhi tillarida bitilgan. Tadqiqotlarga ko'ra ularning tarqalishi ko'lam va davri bir xil bo'lmagan. Ularning ayrimlaridan faqat shaharlarda foydalanilgan bo'lsa, ayrimlaridan shahar va qishloqlarda foydalanishgan. Bu hududlarda baqtriya tili mahalliy aholining

tili hisoblangan bo'lsa, qolganlari ma'lum tarixiy-madaniy sabablar – migratsiya, harbiy harakatlar, dinlarning tarqalishi va madaniy aloqalar tufayli kirib kelgan. Bu jihatdan ko'chmanchi va o'troq aholi o'rtasidagi turli munosabatlar ham muhim ahamiyat kasb etgan.

**Sug'diyona. Badiiy madaniyat.** Antik davr Sug'diyonada badiiy madaniyat va san'at qo'shni Baqtriyaga nisbatan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ayrim hollarda uning ta'siri ostida rivojlandi. Shunga qaramasdan uzoq yillik tadqiqotlar natijasida olingan ma'lumotlar Sug'diyonaning bu davr badiiy madaniyati haqidagi tasavvurlarimizni ancha boyitadi.

Avvalambor qayd etish kerakki, bu davrda Sug'dda nisbatan keng tarqalgan san'at turi koroplastika edi. O'rta Osiyoning boshqa viloyatlarida bo'lgani kabi, Sug'dda ham terrakota haykalchalari tayyorlash mil. avv. IV–III asrlarda qaytadan rivojlana boshlaydi. Ayrim tadqiqotlarda san'atning bu turi rivojlanishining quyidagi ikkita – so'nggi ahamioniy va ellinistik davlatlar davri (mil. avv. IV–II asrlar) koroplastikasi; Kushon davri (mil. II–IV asrlar) koroplastikasi davriga ajratiladi. Birinchi davr uchun ikkita asosiy uslubiy yo'nalish belgilanadi: Old Osiyo va ellinistik tipdagi tasvirlar.

Old Osiyo haykalchalarida ayollar va erkaklar siymolari ko'proq uchraydi. Sug'ddagi ilohiy ayollar haykalchalari ilmiy adabiyotlarda «buyuk iloha – ona» sifatida talqin etilsa-da, ularda ilohalar emas, balki uy o'chog'ining ruhi aks etgan, degan fikrlar ham bor (V.A. Livshits). Bu tipdagi haykalchalarda qo'lini ko'kragiga qo'yib turgan iloha tasviri nisbatan kengroq tarqalgan. Shuningdek, ulardagi taqinchoqlarning ko'pligi ham diqqatga molikdir. Bu shakl haykalchalardagi erkaklar siymosi alohida ajralib turadi.

Sug'diyonaning haykalchalarida Dionis, Afina, jangchi-ellin va ilohalar siymolari ko'proq uchraydi. Ayrim haykalchalarda mahalliy va ellin an'analarining uyg'unlashib ketganligini kuzatish mumkin.

Sug'dning Kushon davri terrakota haykalchalari san'atini ayrim olimlar (V. Meshkeris) uchta badiiy yo'nalishga ajratishadi. Bular: qo'pol arxaik haykalchalar, juda puxta tasviriy san'atni aks ettiruvchi haykalchalar, ma'lum uslubga solingan haykalchalar. R.H. Sulaymonov-



ning fikricha, birinchi va ikkinchi yo'nalishdagi haykalchalar mil. avv. II – milodiy III asrlarda bir vaqtda mavjud bo'lgan bo'lsa, ma'lum uslubga solingan haykalchalar faqat III asrning o'rtalarida paydo bo'ladi.

Qo'pol arxaik haykalchalarda tik turgan ayollar (kam holatlarda erkaklar) tasvirlangan. Ularning kiyim-boshlari bir xilda. Puxta va pishiq tayyorlangan haykalchalarda esa ayol, xudolar, erkaklar, musiqachilar tasvirlari aks etgan.

Sug'dning antik davrdagi toshga ishlov berish, naqsh berish san'ati haqida ham eslatib o'tish joizdir. Tadqiqotchilar Afrosiyob qazishmalaridan manzarasi va ishlanish uslubiga ko'ra ellinistik xususiyatga ega naqshlangan toshlarni topishgan. Ularning birida jang paytida o'z quroldoshini qalqon bilan himoya qilayotgan ikkita jangchi tasvirlangan bo'lsa, ikkinchisida boshlarida dubulg'a kiygan, jang qilayotgan ikkita qanotli afsonaviy mavjudot aks ettirilgan. Yana bir tosh parchasida iloha oldida bahaybat maxluqqa minib turgan chavandoz tasvirlangan bo'lib, bu tasvir Kushon davriga oiddir.

Bu davrdagi Sug'dning tasviriy san'at yodgorliklari uncha ko'p emas. Shunga qaramasdan, Yerqo'rg'ondan topilgan devoriy suratlar va haykallar namunalari Sug'dning tasviriy san'ati haqida ma'lum tasavvurlar beradi. Sug'd haykallari loy va toshdan ishlangan bo'lib, ular ishlanish texnikasi jihatdan qo'shni Baqtriya haykallariga o'xshab ketadi. Yerqo'rg'on ibodatxonasidagi devoriy suratlar naqshli va tasviriy manzaralarda ifodalanadi. Naqshlar orasida to'rtburchak, romb, panjarasimon, aylana va o'simliklar naqshlari uchraydi.

Antik davr Sug'ddagi taqinchoqlar ishlash san'ati haqida ham ma'lumotlar yetarli emas. Ammo topilmalarga qarab xulosa chiqariladigan bo'lsa, an'anaviy shakldagi (sharsimon), aqiq va yarim qimmatbaho toshdan ishlangan marjonlar keng tarqalgan. Sug'd topilma taqinchoqlari orasida mis to'g'nog'ichlar, bronza uzuk va bilaguzuklar, oltin va kumush shokilalar ham ko'pchilikni tashkil etadi.

Ta'kidlash lozimki, antik davr Sug'd badiiy madaniyatida sezilarli o'zgarishlar bo'lib o'tadi. Tadqiqotlarga ko'ra, agar bu davrda Sug'dning janubdagi Baqtriya bilan madaniy aloqalari kuzatilsa, antik davrning oxirlariga kelib (ayniqsa, milodiy III–IV asrlarda) Sir-

daryo (Yaksart) bo'yidagi vohalar bilan aloqalar kuchayadi. Bu holat quyidagi ikkita omil bilan ifodalanadi: birinchidan, Qovunchi madaniyati ayrim guruhlarining Sug'dga kirib kelishi bo'lsa, ikkinchidan, Qang'ning Sug'dga siyosiy nazorati kuchayadi.

### *Tayanch so'zlar*

Xorazm, sak qabilalari, apasiak, massagetlar, Orolbo'yi, Farasman, Afrig'iylar, Quyi Sirdaryo, Kat, Tuproqqal'a, Qang', qang'lar, yobg'u, ko'chmanchi chorvadorlar, usunlar, Davan, Sima Syan, Ershi, Yuchen, Sho'rabashot madaniyati, Xitoy bilan munosabatlar, Aravon, samoviy otlar, Yuechji-Kushon, Strabon, Pompey Trog, Katta yuechji, Guyshuan, Kanishka, Kujula Kadfiz, Dalvarzin, Xolchayon, shaharlar, yozuv, badiiy madaniyat, din.

### *Savol va topshiriqlar*

1. Xorazm davlatining tarixiy jihatlarini o'rganishda nimalarga e'tibor berish lozim?
2. Afrig'iylar sulolasi haqida nimalarni bilasiz?
3. Xorazm shaharsozligi va me'morchiligi to'g'risida gapirib bering.
4. Qang' davlati haqida umumiy ma'lumot bering.
5. Qang' davlatining hududi, boshqaruvi va etnik munosabatlari qanday edi?
6. Davanda davlatchilik paydo bo'lishi haqida nimalarni bilasiz?
7. Davandagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayot qanday kechgan?
8. Katta yuechji haqida nima bilasiz?
9. Kushon davlati tarixi nechta bosqichga ajratiladi?
10. Kushon davri shaharlari va madaniyati mavzusida taqdimot tayyorlang.

### *10-mavzu bo'yicha foydalanilgan adabiyotlar*

1. Alimova D.A., Filanovich M.I. Toshkent tarixi (qadimgi davrdan bugungi kungacha). – Toshkent, «Art Flex», 2007.

2. Анарбаев А.А. Еще раз о локализации столичных городов Ферганы (Даван – Даюан) и некоторые спорные вопросы, связанные с ними // Археология Узбекистана. – Ташкент, 2010. №1.

3. Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. – Ташкент: «Фан», 1982.

4. Вайнберг Б.И. Этногеография Турана в древности. – М.: Вост. лит. РАН, 1999.

5. История Древнего Востока / Под. ред. В.И. Кузищина. – М., 1988.

6. Лившиц В.А. Документы // Топрак-кала. Дворец. – М., 1984.

7. Матбобоев В.Х. О'zbek davlatchiligining ilk bosqichlarida Farg'ona // O'zbek davlatchiligi tarixida qadimgi Farg'ona. Ma'ruza matnlari. – Namangan, 2001. – 23–40 bb.

8. Мкртычев Т.К. Буддийское искусство Средней Азии. – М., 2002.

9. Пидаев Ш.Р. Поселения кушанского времени Северной Бактрии. – Ташкент: «Фан», 1978.

10. Пугаченкова Г.А., Ртвеладзе Э.В. Северная Бактрия – Тохаристан. Древность и средневековье. – Ташкент: «Фан», 1990

11. Рапопорт Ю.А. Из истории религии древнего Хорезма. – М., 1971.

12. Ртвеладзе Э.В. Юечжийско-Кушанское государство // История государственности Узбекистана. Т. II. – Ташкент, 2009.

13. Ртвеладзе Э.В., Лившиц В. Памятники древней письменности. – Ташкент: «Узбекистан», 1985.

14. Sobirov Q. Xorazmning qishloq va shaharlari mudofaa inshootlari. – Toshkent: «Fan», 2009.

15. Филанович М.И. Государство Кангюй // История государственности Узбекистана. Т. II. – Ташкент, 2009.

16. Ходжаниязов Г'. Qadimgi Xorazm mudofaa inshootlari. – Toshkent: «O'zbekiston», 2007.

17. Хорезм в истории государственности Узбекистана / Ответ. ред. Ртвеладзе Э.В., Алимова Д.А. – Ташкент, 2013.

18. Хо'jayev A. Qadimgi Farg'ona davlatining ilk poytaxti haqida // Vodiynoma. – Toshkent, 2016. №2.

19. Shoniyo'zov K.Sh. Qang' davlati va qang'lilar. – Toshkent: «Fan», 1990.

20. Sims-Williams N. Bactrian Documents from Northern Afghanistan, I: Legal and economic documents, Oxford, 2000.

## 11-MAVZU ILK O'RTA ASRLAR TARIXI

### Reja:

- 11.1. Kidariylar, xioniylar va eftaliylar.
- 11.2. Turk xoqonligi davrida O'rta Osiyo.
- 11.3. Arab xalifaligi davrida Movarounnahr.
- 11.4. Arablar bosqiniga qarshi kurash. Movarounnahrda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar.

### 11.1. Kidariylar, xioniylar va eftaliylar

Milodning IV–V asrlari O'rta Osiyo tarixining muhim bosqichlaridan hisoblanadi. Ulkan Kushonlar davlati ichki va tashqi kurashlar natijasida bir qancha mustaqil davlatlarga bo'linib ketadi. O'rta Osiyoning janubida uning tarkibidan Toxariston va Marv ajralib chiqadi. Ulardan shimolda esa Sug'd alohida bo'lsa, uning Sharqiy tomonida Ustrushona joylashadi. Ustrushonaga tutash hududlarda Farg'ona, O'rta Osiyoning shimoliy hududlarida Choch va Xorazm mulklari mustaqil edi.

O'rta Osiyoning chorvador turkiy xalqlari tarixini yoritishda bir qancha muammolar mavjud. Xususan, bir tomondan, bu xalqlar haqidagi asosiy ma'lumotlarning boshqa xalqlar tomonidan, boshqa tillarda yozilgani bo'lsa, ikkinchi tomondan, bu manbalar har doim ham xolis ma'lumot bergan, deb hisoblanmaydi. Shu sababli O'rta Osiyoning bu davri tarixini yoritishda yozma manbalarga tanqidiy tahlil asosida yondashuv talab etiladi.

Kidariylar va xioniylar to'g'risidagi asosiy ma'lumotlar Xitoyning «Beyshi» solnomasida, g'arb tarixchilaridan Ammian Marsellin, Prokopiy Kesaraskiy, Prisk Paniyskiy ma'lumotlarida uchraydi. O'rta asr arman



tarixchisi Egishe Vardapetning ma'lumotlari ham e'tiborga sazovordir. Shuningdek, XX asr xorij olimlaridan I. Markvart, M. Martin, A. Girshman, K. Enoki, A. Bivar va boshqalarning tadqiqotlaridan ma'lum.

Kidariylarning dastlabki vatani Sharqiy Turkiston edi. Beyshi solnomasida berilishicha, yuechjilar hukmdori Sidolo jujanlar hujumi tufayli o'z qarorgohini Bolo (Balxga)ga ko'chirgan. Yana shu manba xabar berishicha, Kidar Shimoliy Hindistonga yurish qilib, Gandhardan shimoldagi 5 ta davlatni o'ziga bo'ysundirgan. Ayrim tadqiqotchilar, kidariylar Sharqiy Turkistondan ko'chishni boshlagandan so'ng ular ikki qismga bo'linib, katta qismi shimoli-g'arbiy Hindistonga, kichik qismi esa O'rta Osiyoga joylashadi, degan fikrni ilgari surishadi. Kidariylarning O'rta Osiyoga joylashuvi masalalari bilan shug'ullangan tadqiqotchilarning fikricha, ularning markazi Balx emas, balki Qarshi atroflaridagi Yerqo'rg'on ko'hna shahri bo'lgan. Ammo, bu fikrni ko'pchilik olimlar e'tirof etishmaydi va balki Qarshi atroflarida kidariylarning qandaydir kichik guruhlarini joylashgan bo'lishi mumkin, degan fikrni bildirishadi.

Yaponiyalik tadqiqotchi K. Yenoki braxmiy yozuvida zarb etilgan, «Kidara Kushon sha» degan yozuv bitilgan tangalarni o'rganib, ular taxminan 390–430-yillarga mansub, degan xulosaga keladi. Hind olimi A. Bivarning xulosalariga ko'ra, bunday tangalar ikkita hokim tomonidan bir vaqtning o'zida zarb etilgan bo'lishi mumkin. Enokining fikricha, kidariylar Toxariston va Gandharni 412–437-yillar oralig'ida o'z qo'l ostilariga birlashtirgan.

Ayrim tadqiqotchilar kidariylarni Sharqiy Turkistondan kirib kelgan kushonlar qoldig'i bo'lishi mumkin, degan fikrni ilgari surishadi. Shuningdek, kidariylarning O'rta Osiyoning janubidagi xioniylar bilan ittifoqchiligi hamda ularning Eronga qarshi birgalikdagi harakatlari to'g'risidagi taxminlar ham bor.

Tadqiqotchilar Kidar hukmronlik qilgan davrni IV asrning ikkinchi yarmi va V asrning birinchi choragi bilan belgilashadi. Kidar (yoki Kidara) avvalboshda Eron shohi Shopur II ga bo'ysungan. Oq xunlar bostirib kelishi bilan o'z o'g'li Pironi Peshovarda qoldirib,

Shimolga yo'l olgan. Oq xunlar bilan kurash manbalarda 400-yillarga to'g'ri kelishi ta'kidlangan. Kidar Shopur II (309 – 379-yy.) ning zamondoshi bo'lib, avvalambor Kushonlar hokimiyatining davomchisi sifatida ularga bo'ysunib kelgan hamda xioniylar yordamida Baqtriyada Kushonlar hokimiyatiga chek qo'ygan.

Kidariylar tez orada Amudaryo o'ng va chap qirg'oq havzasi hamda Sug'dning katta qismini egallashadi. Manbalarning guvohlik berishicha, kidariylar Eron sosoniylari bilan ko'p martalab urushlar olib borishadi. Bu urushlar ayniqsa sosoniy podsholari Varaxran V (420–438-yy.) va Yazdigird II (438–457-yy.) davrlarida ayniqsa avjiga chiqadi. 456-yilda bo'lib o'tgan navbatdagi harbiy to'qnashuvlardan so'ng katta talofatga uchragan kidariylar qayta o'zlarini o'nglab olisholmaydi. Bu voqeadan keyin kidariylar haqida ma'lumotlar deyarli yo'q. Faqatgina ular Hindistonda Gupta davlatini egallab, bu yerda 75-yil hukmronlik qilgani, 477-yilda Gandhardan Xitoyga elchilar yuborgani ma'lum, xolos.

IV asr o'rtalarida O'rta Osiyo yerlariga shimoli Sharqdan xion qabilalari bostirib kirishadi. Tarixda xioniylar nomi bilan mashhur bo'lgan bu qabilalarning asli vatanini ayrim tadqiqotchilar Orolbo'yida deb hisoblashadi. Xioniylar xun qabilalariga qon-qarindosh bo'lganliklaridan bo'lsa kerak, g'arb tarixchilari ularni «oq xunlar» deb ataydi. IV asrning o'rtalarida ancha kuchaygan xioniylar janubga tomon harakat qilib sosoniylar bilan to'qnashadi. Bu to'qnashuvlar hamda xioniylar yo'l boshchisi Grumbat, ularning Suriyadagi Umda shahrini qamal qilganliklari haqida Ammian Marsellin ma'lumotlar beradi. Dastlabki harakatlarda xioniylar mag'lubiyatga uchrasalarda, keyinroq ular Sharqqa tomon yurishlar qilgan sosoniylar shohi Shopur II ga qattiq zarbalar berishadi. K. Treverning fikricha, xioniylar IV asrning 70-yillarida o'zining kuchaygan pallasiga kiradi. O'rta Osiyoda kidariylar va eftaliylar hukmronligi o'rnatilgach xioniylarning siyosiy ahvoli o'zgaradi va ular eftaliylarga tobe bo'lib qoladi. Afsuski, xioniylar va kidariylarning ijtimoiy-iqtisodiy tizimi haqidagi ma'lumotlar bizgacha yetib kelmagan.



Xioniylar va kidariylarga nisbatan eftaliylar haqidagi ma'lumotlar nisbatan ko'proq saqlangan. Eftaliylar tarixi yuzasidan ma'lumotlar rim, vizantiya, suriya, arman va arab tarixchilari Denovariy va at-Tabariylarning asarlarida, Xitoy solnomalarida, Eronning «yodgor Zareron», «Baxman yashta» asarlarida, Firdavsiyning «Shohnoma» dostoni va boshqalarda uchraydi. Shunga qaramasdan eftaliylarning kelib chiqishi haqidagi olimlarning fikrlari turlicha. Misol uchun, S.P. Tolstov, A.N. Bernshtam, K.V. Trever kabi olimlar eftaliylarning ilk vatani Sirdaryoning quyi oqimi deb hisoblasalar, A. Mandelstam, R. Grishman, K. Enoki kabi olimlar esa eftaliylar vatanini Badaxshon deb hisoblashadi. B. Litvinskiy va K. Inostransevlar eftaliylarning ilk vatani Farg'onaning tog'oldi hududlari bo'lganligi haqidagi fikrni ilgari surishadi. Ularning turkiy xalqlar bo'lganligi haqidagi masala uzil-kesil yechimini topmagan.

Eftaliylar turli manbalarda turlicha nomlanishadi. Misol uchun, xitoy manbalarida ular «ida, ieda, idan, idyan» deb, suriya va lotin manbalarida esa «eptalit, eftaliy, abdal» arab va fors mualliflarida «haytal, yaftal, eftal» degan nomlar bilan eslatiladi.

Xitoy manbalari eftaliylarni turklar (tukyue) bilan bog'liq ravishda ta'riflashadi. Vizantiyalik tarixchilar, masalan, Prokopiy (VI asr) eftaliylarni xunlardan deb ko'rsatar ekan, «ular (ya'ni, eftaliylar) xunlardandir, tanalari esa oq», deb eslatadi. Eftaliylarning kuchaygan davri V asrning o'rtalariga (456–457-yy.) ya'ni ular Xitoyga birinchi marta elchi yuborgan davrga to'g'ri keladi. Ma'lumotlarga ko'ra, shu davrdan to 531-yilga qadar eftaliylar Xitoyga 13 marta elchi jo'natishadi. Kuch-qudrat jihatdan mustahkamlanib olgan eftaliylar O'rta Osiyo va Shimoliy Hindistondagi katta yerlarni ishg'ol etishga kirishadilar.

Eftaliylarning janubdagi asosiy raqiblari Eron sosoniylari edi. Eftaliylar tobora janubga qarab siljiy boshlashadi va bu, o'z navbatida, ularning Eron bilan munosabatlari keskinlashib borishiga olib keldi. Sosoniylar bilan hal qiluvchi kurashlar davri shoh Peroz (Feruz) davriga (459–484-yy.) to'g'ri keladi. Ma'lumki, 459-yilda Eron taxtiga

Peroz chiqadi. Manbalarda Perozning hokimiyatga kelishi eftaliylar bilan bog'liq ravishda bayon qilinadi. Peroz eftaliylarning kuchayib borishini vaqtinchalik deb bilib, ular kuchidan Eron taxtiga kelish uchun foydalangan bo'lishi kerak. Ammo, eftaliylar qudrati oshib tez orinda ular sosoniylarga ham qarshi turishlarini anglagan Peroz eftaliylarga qarshi jangga kiradi. Eron podshosi Peroz eftaliylar davlatining hujumini oldini olish maqsadida ularga qarshi harbiy harakatlar boshlab yuborgan, biroq muvaffaqiyatga erisha olmagan. Jang ohog'ida sosoniylar hukmdori asirga tushib qoladi va Vizantiya imperatori Zenonga o'z jonini xalos qilinishi uchun yordam so'rab murojaat qiladi. Vizantiya hukmdori tovon to'lab, uni qutqarib qoladi. Asirlikdan qutulganidan so'ng Peroz eftaliylarga yana qarshi chiqib, ikkinchi marotaba mag'lubiyatga uchraydi. Sosoniylar ko'shinlari bu gal qopqon o'raga tushib qolishadi va askarlarning ko'pchiligi bu yerda halok bo'ladi. Mazkur mag'lubiyat natijasida Xuroson hududi to'liq ravishda eftaliylar qo'li ostiga tushib qolishadi. Endi Peroz oldingidan ham ko'proq tovon to'lash majburiyatini o'z bo'yniga oladi. Shu tariqa Peroz ketma-ket mag'lubiyatlarga uchrab, Eronni eftaliylar qo'li ostidagi davlatga aylantirgan edi.

Vizantiya yordamidagi uchinchi, 484-yili so'nggi yurishida Peroz o'z harbiy qismlari bilan ular uchun maxsus tayyorlangan o'ralariga tushib halok bo'lishadi. Perozning mag'lubiyatga uchrashi sosoniylar qudratiga eftaliylar tomonidan chek qo'yilishiga olib keldi.

Sodir bo'lgan mazkur voqea natijasida Eron xalqi yelkasiga katta miqdorda o'lpon to'lash majburiyati yuklatiladi. Eronning o'zida shu vaqtga kelib ichki siyosiy ahvol keskinlashib ketgan edi. Og'ir iqtisodiy ahvol, qulchilikning yemirilishi, soliqlarning o'sishi, quyi tabaqalarning qashshoqlanishi, urushdan keyingi xonavayronliklar natijasida bu hududlarda norozilik harakatlari boshlanib ketadi. Xalq g'alayonlari diniy tus olib keng tarqaladi.

Eftaliylarning Eron sosoniylari bilan munosabatlarida Eronda tarqalgan diniy ta'limotlar va ularning siyosiy lashuvi ham muhim o'rin tutgan. Ular ichida Mazdak Hamdadon (470–529) tomonidan yara-



tilgan ta'limot katta ahamiyatga ega. Mazdak zardo'shtiylikning asl g'oyalari hayotga tatbiq qilmoqchi bo'lib, o'z harakat mafkurasini yaratdi. Mazdak ta'limoticha, kishilar bu dunyoning ne'matlaridan barobar foydalanishlari lozim. Uning fikricha, ijtimoiy hayotga jamoa huquqlarini tiklash, yer-suv, mol-mulkka barobar egalik qilish hammaning o'zaro tengligiga erishish lozim edi. Mazdak ta'limoti asosida uch «z»lik – «zan», «zar», «zamin» tengligi g'oyasi yotar edi. Mazdak tarafdorlarining soni Eronda juda ko'payib ketdi.

Mazdakiylar harakati nihoyatda kuchayib ketgach Kubodshohning (488–531) o'zi u bilan hisoblashishga majbur bo'ldi. Kubod Mazdak tarafiga o'tib, uni Eronning bosh kohini yetib tayinladi. Mazdak hokimiyatni o'z qo'liga kiritib olgach, uning tarafdorlari oxir-oqibatda Kubodni 496-yilda taxtdan ag'darib tashlab zindonga tashlashadi. Uning o'rniga ukasi taxtga chiqadi. Kubod zindondan qochib, eftaliylar dargohidan panohtopadi. U yoshligidanoq eftaliylar huzurida o'sgan va eftaliylar hukmdorining singlisiga uylangan edi. Kubod eftaliylardan yetarlicha harbiy yordam olib 499-yili Eronga yurish qiladi. Chegaraga yetgan paytdayoq ukasi buni eshitib taxtni tashlab qochadi. Kubodshoh I yana taxtga o'tirganidan so'ng Kubodshoh eftaliylar bilan deyarli tinch-totuv yashaydi. U 502–506-yillarda eftaliylar bilan ittifoqchilikda Vizantiyaga qarshi yurishlarida ishtirok etadi. Kubod Yeftaliylar madadiga tayanib avval maxfiy, keyinchalik oshkora mazdakiylikka qarshi kurash olib boradi. 529-yilda Mazdak qatl ettirilib, uning tarafdorlariga qarshi ayovsiz kurash olib boriladi. Kubodning o'g'li Xusrav I Anushervon (531–579) davrida keng miqyosli islohotlar o'tkazilishi bilan birga mazdakiylar harakatiga butkul chek qo'yiladi.

Shu tariqa, yirik davlat tizimini vujudga keltirgan Yeftaliylar Eronning sosoniylar davlatiga, uning harbiy harakatlariga qarshi tura olishadi. Sosoniylarning Sharqqa yurishlari eftaliylar qarshiligi tufayli to'xtatildi. Ular Eron podshohlarining ichki siyosatiga ham aralashib turishadi, hatto shohlardan qaysi birini saylash va tayinlash masalasini hal qilish ham ularning qo'lida edi. Eron davlati har yili eftaliylarga o'lpon to'lab turgan.

Eftaliylar 467–473-yillarda Sug'dda mustahkam o'rnashib olgan bo'lsalar, 477–520-yillar mobaynida Gandharni ishg'ol etib, u yerdan kidariylarni siqib chiqarishadi. Keyinchalik shimoliy Hindistonning ba'zi hududlarini, Kobul va Panjob vodiylarini ham istilo qilishadi. Shimoliy Hindistonda avval To'ramon, so'ngra uning o'g'li Mehirakula eftalitlar davlatini tashkil etadi. 490-yilda eftaliylar Urumchini, 497–509-yillar orasida Koshg'arni bosib, deyarli butun Sharqiy Turkistonda o'z hukmronliklarini o'rnatishadi.

Shunday qilib, VI asrning boshlariga kelib, eftaliylar o'z qo'llari ostida Toxariston, Badaxshon, Sug'd, Sharqiy Turkiston va O'rta Osiyoning boshqa ba'zi yerlarini birlashtirishadi. Xitoy muallifi tili bilan aytganda, «Kongyust (Xorazm, Sug'd, Shosh), Xo'tan, Shale (Qashqar), Ansi (Parfiya) va o'ttizga yaqin boshqa (katta) – kichik viloyatlar eftalitlar hukmdoriga qaram bo'ldi».

Ko'pchilik manbalar eftaliylarning dastavval ko'chmanchi xalqlar bo'lib, keyinchalik o'troqlashganligi haqida ma'lumot beradi. Shuning uchun ham ayrim tadqiqotchilar ularni ko'chmanchilar deb hisoblasa, ayrimlari ularni shahar va qishloqlarda yashaganligini ta'kidlashadi. Eftaliylarning poytaxti Balx shahri edi. Ko'pchilik tadqiqotchilar eftaliylar davlati unchalik ham mustahkam emas edi va shuning uchun ham uzoq yashamadi, deb e'tirof etishadi.

Ta'kidlash joizki, eftaliylar o'zlariga tobe bo'lgan xalqlar hayotiga juda chuqur ta'sir etmasdan, o'lpon va soliqlar undirish bilan cheklanishgan. Eftaliylarning O'rta Osiyodagi hukmronligi asosan harbiy kuchlarga tayanar edi. Shuning uchun ham O'rta Osiyo xalqlari ularning turklar bilan bo'lgan kurashda qo'llab-quvvatlashmagan. Eftaliylar davlati yarim asrga yaqin yashagan bo'lsa-da, O'rta Osiyo xalqlari tarixida muhim rol o'ynadi.

Eftaliylarning etnik kelib chiqishi masalalari ancha murakkab hisoblanadi. Bu murakkablik shu bilan izohlanadiki, arab manbalari va tangashunoslik ma'lumotlarida eftaliylar podsholari faqat turklarga xos bo'lgan unvon – tegin, xoqon unvonlari bilan tilga olinadi. Shu bilan birgalikda tangalarda aks etgan podsholar aniq evropeoid irqini



beradi. Bu holatlar ayrim tadqiqotchilarning eftaliylarni turkiy xalqlar deb hisoblashlariga sabab bo'ldi.

Eftaliylar yagona podsho boshqaruviga ega bo'lishgan. Oilaviy munosabatlarini kuzatish ularda patriarxal tartibga xos jihatlar rivoj topganligini ko'rsatadi. Patriarxal boshqaruv tartibiga xos ayrim jihatlar quyidagi misollarda ko'zga tashlanadi: «Ular orasidan eng boy kishilar taxminan yigirma va undan ortiq kishini o'zlariga sherik qilib oladilar; do'stlar har doim u bilan birga tushlik qiladilar, unga tegishli ne'matlardan umumiy huquqiari borligi sababli bab-baravar foydalanadilar. Do'st va sherik orttirgan shaxs o'limidan keyin, qonunga ko'ra, tobutga uning do'stlari tiriklayin birga qo'yilishi shart bo'lgan» (Prokopiyy Kesariyskiy).

Prokopiyy Kesarskiy eftaliylar haqida yana shunday ma'lumot beradi: «eftaliylar xun xalqlari qabilasi bo'lib, barcha xunlar ichida ular yagona oq tanlidir. Turmush tarzi jihatidan ham ular boshqa xunlarga o'xshashmaydi va boshqa xunlarga o'xshab hayvonlardek yashashmaydi. Ular bitta podsho boshqaruvida turadilar. Bu podsho rimliklar yoki boshqalardan qolishmaydigan holda aholiga g'amxo'rlik ko'rsatadi, o'zaro va qo'shnilar bilan bo'lgan munosabatlarda adolat mezonlariga amal qiladi».

V asrda yashagan Lazar Parbskiy eftaliylarni yetti qabiladan iborat massagetlarning yetakchi urug'laridan biri ekanligi haqida ma'lumot beradi. Xitoy manbalarida eftaliylar yuechjilarning boshqa bir ko'rinishi yoki gaogyuy qabilasining tarmog'i yoki qang'lilarning avlodlari sifatida talqin qilinadi. Undan tashqari, o'zlarini alxonlar deb atagan eftaliylar Baqtriya-Toxariston yerlarida yashab o'tgan azaliy baqtr qabilalaridan chiqqan etnik guruh ekanligi haqidagi fikrlar ham bor. Umuman olganda, eftaliylarning turkiy xalqlar ekanligi hamda ularning haqiqiy vatani Baqtriya-Toxariston ekanligini e'tirof etuvchi olimlar ko'pchilikni tashkil etadi.

Xullas, o'z davrida eftaliylar yirik davlat tizimini vujudga keltirishdi. Ular O'rta Osiyo, Shimoliy Hindiston, Sharqiy Turkiston, Sharqiy Eronni birlashtirgan ulkan davlatga asos solib, Kushon dav-

lati o'rnida undan ham kattaroq hududlarni birlashtirishdi. Eftaliylar Eronning Sosoniylar davlatiga, uning harbiy harakatlariga qarshi tura oldilar hamda sosoniylarning O'rta Sharqdagi hukmronligiga chek qo'yishdi. Eftaliylar sosoniylarning ichki ishlariga ham aralashib turishdi, hatto shohlardan qaysi birini saylash va tayinlash masalasini hal qilish ularning qo'lida edi. Eron davlati har yili ularga katta miqdorda o'lpon to'lab turgan.

**Ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot.** Eftaliylar yuqorida eslatilgan ulkan hududda boshqaruvni qo'lga kiritgach, obod dehqonchilik vohalariga, rivojlangan shahar va qishloqlarga, savdo yo'llariga ega bo'lishadi. Vaqt o'tishi bilan esa mahalliy aholi bilan aralashib ketishadi. Natijada bevosita mahalliy aholining vorisiga aylanishadi. Shu boisdan 568–569-yillarda Vizantiya imperatori Yustin II huzurida bo'lgan turk elchisi imperatorning «eftaliylar shaharlarda yashaydirlarmi yoki qishloqlardami?» degan savolga «ular shaharlik sulolalar, oliy hazratlari», deb javob bergan.

Darhaqiqat, olib borilgan arxeologik tadqiqotlar ilk o'rta asrlar O'rta Osiyoda shahar madaniyati taraqqiy etganligidan dalolat beradi. Jumladan, V asrda Panjikentda nisbatan qadimgiroq bo'lgan qishloq o'rniga yangi shahar barpo etiladi. Umumiy maydoni 18 gektar bo'lgan bu shahar VI asrning boshlariga kelib mustahkam himoya tartibiga, ibodatxona, saroy va ijtimoiy jihatdan ajralib turadigan turarjoylarga ega edi. Sug'd shaharlaridan yana biri Poykandda ham qizg'in tadqiqot ishlari olib borilgan, yanada qadimgiroq davrda (antik) asos solingan ushbu ko'hna shahar ilk o'rta asrlar davriga kelib kengayib boradi va V–VI asrning boshlariga kelganda uch qismli yirik markazga aylanadi hamda umumiy maydoni 18 gektarga yetadi. Poykand qazishmalarida ilk o'rta asrlarga oid ko'plab moddiy madaniyat buyumlari topilgan bo'lib, ular haqiqatdan ham Poykand bu davrda arab manbalarida ta'riflanganidek, «Madina-at-tujjor» – «Savdogarlar shahri» bo'lganligidan dalolat beradi.

Ilk o'rta asrlar davri ijtimoiy-iqtisodiy hayotda muhim ahamiyatga ega bo'lgan yirik markazlardan (ehtimol, poytaxt shaharlardan) biri



Buxoro edi. To'g'ri to'rtburchak shakldagi ushbu shaharning asosi 21 gektar bo'lib, bu yerda mustahkam himoya inshootlari, hukmdor saroyi, mafkuraviy inshootlar, turarjoy qoldiqlari ochib o'rganilgan. Topilgan moddiy madaniyat buyumlari Buxoro ilk o'rta asrlardan boshlab O'rta Osiyoning yirik madaniy va iqtisodiy markazlaridan biri bo'lganligidan dalolat beradi. Shuningdek, bu davrda shaharning yettita darvozasi bo'lib, bu holat uning muhim savdo-tranzit yo'li ustida joylashganligini ko'rsatadi. Bu davrda Termiz va uning atroflarida ham shaharsozlik madaniyatining jadallik bilan rivojlanganligini kuzatishimiz mumkin. Termiz atrofidagi Zartepa shahri ana shunday shaharlardan biridir. Antik davrda kichik manzilgoh paydo bo'lgan Zartepa ilk o'rta asrlarga kelib maydoni 17 gektar bo'lgan yirik shaharga aylanadi.

Bu davrda sug'orish inshootlari takomillashib yangi-yangi yerlar o'zlashtiriladi. O'zlashtirilgan yerlarda, yirik sug'orish inshootlari boshida, markaziy shaharlarning atroflarida, dehqonchilik vohalarining chegaralarida qo'rg'onlar, qasrlar va istehkomlar qad ko'taradi. Istehkomlarning to'rt burchagi baland mutahkamlanib, devourmo'rilari bir necha qator kamondan o'q o'zginch nishon tuynuklari va istehkomlar bilan ta'minlangan. Qalin mudofali zodagonlar qo'rg'onlari ilk o'rta asrlarning murakkab ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayot taqozosi bilan bunyod etilgan bo'lib, asosan tashqi dushman hujumiga qarshi mudofaa inshooti, harbiy garnizon to'planadigan joy, ma'muriy markaz hamda oziq-ovqat va qurol-yarog' saqlanadigan ombor vazifasini o'tagan. Umuman, qal'a, qo'rg'on va istehkomlar ilk o'rta asrlar davrining o'ziga xos me'morchilik namunalaridan bo'lib, Naxshab vohasidagi Zahhoki Maron, Buxorodagi Shahri Vayron, Xorazmdagi Fir qal'asi shular jumlasidandir.

Vohalarni tashqi dushmandan himoya qilish maqsadida bir necha chaqirimlab qalin devorlar barpo etilgan. Samarqand vohasidagi 12 ta darvozaga ega Devori qiyomat, Buxoro vohasidagi 336 kilometrli Kampirak, Toshkent vohasidagi Kampirdevor istehkom devorlari shular jumlasiga kiradi. Bu davr me'morchiligida qasrlar qurili-

shi ayniqsa ahamiyatli bo'lgan. Qasrlar odatda 2 qavatli, shipi tekis, gumbazsimon va ravoqsimon yopilgan bir necha xonalardan iborat bo'lgan. V asrdan boshlab saroy, qasrlar qurilishida xom g'isht bilan bir qatorda pishiq g'ishtlar ham ishlatila boshlangan.

Eftaliylar davrida hunarmandchilik ham rivojlangan. Ayniqsa, kulolchilik, shishasozlik, chilangarlik, bo'zchilik, zargarlik, qurolsozlik kasb-hunarlari ravnaq topgan. Chochda yasalgan o'q va yoy «kamoni chochiy» nomi bilan mashhur bo'lgan. Katta-kichik shaharlar soni ko'paygan. Birgina Zarafshon vohasida Rivdad, Kushoniya, Xariman, Arqud, Romitan, Varaxsha, Poykand kabi savdo-hunarmandchilik shaharlari mavjud edi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, Poykand shahri eftaliylarning poytaxti bo'lgan.

Eftaliylar davrida dehqonchilik asosan sug'orma dehqonchilikka asoslangan edi. Qadimgi ziroatkorlar katta va kichik daryolar, jilg'alar suvlaridan foydalanishgan. Bunday sharoitda kanallar qazish va ularni mavsumiy tozalab turish muhim ahamiyat kasb etgan. Vaxsh vohasidan, Ustrushonadan, Sug'ddan, Xorazmdan va Toshkent vohalaridan shunday kanallarning izlari topib o'rganilgan.

V-VI asrlarda dehqonchilik vohalarida eftaliylarning o'troqlashuvi kuchayadi va buning natijasida sug'orma yerlarga bo'lgan ehtiyoj ortadi. Kichik-kichik sug'orish kanallari qazib chiqarilib, minglab gektar yangi yer maydonlari o'zlashtiriladi. Sug'orish uslubi takomillashadi, shohariqlar chuqurlashib, sersuv sug'orish tarmoqlariga aylanadi. Hozirgi vaqtda ham mavjud bo'lgan Zaxariq, Bo'zsvu, Darg'om kanallari V asrda barpo etilgan eng yirik sug'orish tarmoqlaridan bo'lgan. Shuningdek, tog' oldilariga suv chiqarish uchun suv chiqarish asboblaridan keng foydalanilgan. Yangi o'zlashtirilgan yerlarda zodagon dehqonlarning qalin xom g'ishtdan urib chiqilgan hamda baland poydevor ustiga qurilgan ulkan qo'rg'onlari, istehkomlar yuzaga kela boshlagan.

Tohariston va Sug'dda dehqonchilik bilan birgalikda bog'dorchilik ham rivojlangan. Qashqadaryo va Zarafshon vodiylarida g'alladan tashqari sholi ham yetishtirilgan. Xitoy manbalarining

ma'lumot berishicha, V–VI asrlarda Sharqiy Turkiston va O'rta Osiyo ikkidaryo oralig'i yerlarida ko'plab paxta yetishtirilar edi. O'rta Osiyoning paxta tolasi Xitoyda ham mashhur bo'lgan. Bu davrga kelib yer egaligi munosabatlarining takomillashuvi natijasida sug'oriladigan yer maydonlarining ma'lum bir qismi mulkdor zodagon tabaqa vakillari – «dehqonlar» qo'lida to'plana boshlangan edi. Buning natijasida qishloq jamoasining erkin dehqonlari ma'lum darajada zodagon dehqonlar asoratiga tushib, ularga qaram bo'lgan «kadivar»larga aylanib boradi.

IV–V asrlar O'rta Osiyoning pul muomalasida sezilarli o'zgarishlar bo'lib o'tadi. Bu o'zgarishlar tangalar zarb etishning markazlashuvi hamda mintaqaning turli hududlarida zarbxonalarning paydo bo'lishi bilan bog'liq edi. Bu davrning boshlarida E.Rtveladzening tadqiqotlariga ko'ra, shimoliy Toxaristonda kushon tangalari va ularga taqlid qilib zarb etilgan tangalar muomalada bo'lgan. Butun V asr davomida Termizda mahalliy hukmdor tasviri tushirilgan mis tangalar zarb etilgan. Chag'oniyonda shahanshoh Pero'z (459–484-yy.) davridan boshlab juda ko'plab sosoniylarning kumush tangalari kirib keladi.

Buxoro Sug'dida o'ng tomonida soqoldor hukmdorlar tasviri tushirilgan kumush va mis tangalar zarb etilgan bo'lsa, Samarqand Sug'dida V–VI asrlarda ters tomonida tik turgan kamonchi tasviri tushirilgan kumush tangalar zarb qilingan. Qarshi vohasida o'ng tomonida podsho boshini tasviri tushirilgan mahalliy kumush va mis tangalar muomalada bo'lgan. Xorazmda esa o'ng tomonida hukmdor boshi, ters tomonida otliq chavandoz tasviri tushirilgan kumush va mis tangalar zarb etilgan.

Yevrosiyo mintaqasidagi umumiy vaziyat va Kushon davlatining inqirozi xalqaro savdoga birmuncha salbiy ta'sir ko'rsatgan edi. Sosoniylar Eroni bilan munosabatlar ko'p hollarda urushlarga aylanib ketishi tufayli o'zaro savdo aloqalariga putur yetgan edi. Buddaviylikning inqirozi tufayli O'rta Osiyoning Hindiston bilan munosabatlari ham yomonlashgan edi. Ammo, Xitoy bilan savdo munosa-

batlari avvalgidek yaxshi edi. Ilgari bo'lganidek, V–VI asrlarda ham Xitoyga rangdor shishalar, qimmatbaho toshlar olib ketilgan bo'lsa, Xitoydan asosan ipak va atir-upa keltirilgan. Bu davrda Vizantiya bilan ham savdo aloqalari taraqqiy etadi. Xalqaro savdoda ayniqsa sug'diylarning ahamiyati katta edi. Manbalarning ma'lumot berishicha, Sharqiy Turkistonda sug'diylarning qishloqlari ham bo'lgan. Yurtlaridan uzoqda yashagan sug'diylar o'z vatanlari bilan doimiy aloqa qilib turishgan.

Arxeologik tadqiqotlar (tangashunoslik ma'lumotlari, hunarmandchilik buyumlari) bu davrda O'rta Osiyoda xalqaro savdo bilan bir qatorda ichki savdo ham taraqqiy etganligidan dalolat beradi. Bu davrda O'rta Osiyo shahar va qishloqlarida oltin, kumush, Badaxshon la'lisi, hunarmandchilik buyumlari, harbiy qurol-yarog'lar, turli taqinchoqlar, rangli shisha va shisha buyumlar, turli xil mevalar, ipgazlama, qorako'l, zotdor otlar bilan savdo qilinardi. Termiz, Naxshab, Kesh, Samarqand, Poykand, Buxoro, Choch, Varaxsha kabilar o'sha davrdagi yirik savdo-sotiq markazlari edi.

**Madaniy hayot.** Ilk o'rta asrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar O'rta Osiyo madaniyatiga ham tasir etmasdan qolmadi. Bu davrdagi madaniy hayot dastavval antik davr madaniy an'analari asosida rivojlangan bo'lsa-da, Kushon davlati xarobalarida bir nechta mustaqil davlatlar va mulklarning paydo bo'lishi o'ziga xos mahalliy madaniyatlarning paydo bo'lishiga imkon yaratgan edi. Ilk o'rta asrlar madaniyatining shakllanishiga shuningdek, qo'shni davlatlar avvalo, Hindiston, Eron, Afg'oniston, Xitoy bilan hamda ko'chmanchi chorvadorlar bilan bo'lgan aloqalar ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan edi.

Bu davr me'morchiligi O'rta Osiyo xalqlari ijtimoiy hayotidagi o'zgarishlarni o'zida aks ettiradi. Shakllanayotgan mulkdorlar toifasi O'rta Osiyoning turli hududlarida yirik qal'alar qurib, ular atrofini himoya inshootlari bilan o'rab olishadi. Bunday qal'alar vohalarda ko'pincha tabiiy tepaliklar ustiga bunyod etilgan. Ular Xorazm, Toxariston, Sug'd, Ustrushona, Marv hududlaridan topib o'rganilgan.



Me'morchilikda asosan tosh, paxsa, xom g'isht va yog'och qurilish materiali sifatida ishlatiladi.

IV–VI asrlar O'rta Osiyo xalqlarining diniy qarashlari zardushtiylik, buddaviylik, xristianlik va moniylik diniy e'tiqodlari bilan bog'liq edi. IV–V asrlarga oid zardushtiylik an'analari bilan bog'liq bo'lgan otashkadalar Qashqadaryodagi Erqo'rg'ondan, Panjikent atroflaridan, Buxoro vohasidan topib o'rganilgan. Ularning barchasida zardushtiylik bilan bog'liq bo'lgan ossuariy (ostadon)lar uchraydi. Bu davrda zardushtiylik diniga O'rta Osiyoning markaziy va shimoliy hududlarida sig'inishgan bo'lsa, mintaqaning janubiy hududlarida buddaviylik dini tarqalgan edi. Buddaviylik dinining ibodatxonalari Qoratepa, Fayoztepa (Termiz), Ushturmullo (Qobadiyon), Ajinatepa, G'ishttepa, Qal'aikofirnihon (Toxariston), Marv kabilardan topib tadqiq etilgan.

O'rta Osiyodagi xristianlikning markazi Marv shahri edi. Beruniy ma'lumotlariga ko'ra, Iso payg'ambar tug'ilganidan 200 yil o'tgach xristianlar Marvda paydo bo'lishgandi. 334-yildayoq Marvda yepiskoplik, keyinroq esa mitropoliya mavjud edi. Govurqal'adan xristianlik ibodatxonasi qoldiqlari va xristianlar dafn etilgan qabriston ochib o'rganilgan. Sug'dning ayrim hududlarida (Samarqand va Panjikent) ham xristianlik tarqalganligi haqida ma'lumotlar bor.

III asrning ikkinchi yarmidan boshlab O'rta Osiyoda moniylik dini tarqala boshlaydi. Moniylik diniga asosan Sharqiy Turkiston va qisman Chag'oniyon hamda Sug'd aholisi e'tiqod qilgan.


V–VI asrlarda diniy e'tiqod va tasavvur bilan uzviy bog'liq bo'lgan tasviriy san'at – koroplastika – ma'budalarning sopol haykalchalarini yasash va ularga topinish keng yoyiladi. Sopol haykalchalar hududlarga ko'ra turlicha bo'lib, kiyim-kechaklari, yuz siymolari, taqinchoqlari jihatidan ham bir-biridan farqlangan.

Ulkan hududdagi Eftaliylar davlati juda ko'p xalqlarni o'zida birlashtirganligi sababli undagi diniy e'tiqodlar ham turlicha bo'lgan. Sug'dda zardushtiylik keng tarqalgan bo'lsa, Toxariston va Sharqiy Turkistonda buddizmga e'tiqod qiluvchilar ko'pchilikni tashkil et-

gan. Shaharlarda xristian va yahudiy jamoalari ham mavjud edi. Moniylik va Mazdak ta'limoti tarafdorlari ham paydo bo'layotgan edi. Zardushtiylar Anaxita, Mitra, Siyovush kabi mahalliy ma'budalarga ham sig'inishgan. Navro'z kuni Buxoro otashparstlarlari Siyovush qabri ustida xo'roz so'yib qurbonlik qilishardi. Janubda buddizmning ta'siri ko'proq bo'lgan edi.

Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyo xalqlari san'ati devoriy suratlar, haykaltaroshlik, turli taqinchoq buyumlari orqali izohlanadi. Devoriy suratlar Dilbarjin (Afg'oniston), Varaxsha, Afrosiyob, Panjikentdan topib o'rganilgan bo'lsa, Kuyovqo'rg'on, Vaxsh vohasi, Afg'onistondagi Chaqaloqtepa, Yerqo'rg'ondan turli hajmdagi haykallar, zargarlik buyumlari topib o'rganilgan. Umuman olganda, boy bezaklar, sopol, metall idishlar, devoriy suratlar, hatto kiyimlardagi tasvirlar bu davrda O'rta Osiyodagi tasviriy san'atning rivojidan dalolat beradi.

Eftaliylar davrida chorvador aholi turkiycha so'zlashganligi sababli, turkiy til tobora ko'proq yoyila boshlaydi. Bu davrda o'troq



Varaxsha. Saroyning tashqi ko'rinishi. Tiklangan holati



aholining katta qismi sugʻdiy tilda soʻzlashishardi. Sugʻd tili va yozuvi Yettisuv, Fargʻonadan oʻtib, Sharqiy Turkistonga qadar yetib boradi. Uning «Samarqand usuli» keng yoyilgan edi. Bundan tashqari, xorazm, kxaroshtiy, buxoro yozuvlari ham mavjud boʻlgan. Eftaliylar yozuvi baqtriya yozuvi asosida paydo boʻlgan. Syuan Szyanning maʼlumot berishicha, u 25 ta harfdan iborat boʻlib, xat chapdan oʻngga qarab koʻndalangiga yozilgan. Bunday yozuv yodgorliklari Zangtepa, Qoratepa va Afrosiyob xarobalaridan topib oʻrganilgan.

### 11.2. Turk xoqonligi davrida Oʻrta Osiyo

VI asrning ikkinchi yarmidan boshlab Janubiy Sibir va Shimoliy Mongoliya, yaʼni Oltoy hududlarida turkiy qabilalar ittifoqi shakllana boshlaydi. Tarixda muhim ahamiyatga ega boʻlgan Turk xoqonligi xususida talaygina manbalar bizning kunlarimizgacha saqlanib qolgan boʻlsa-da, ularning ayrimlari bir-birini inkor etadi. Ushbu manbalar VI asrning oxirlarida yashagan vizantiyalik tarixchilar Menandr Protektor, Feofan Vizantiyskiy, suriyalik tarixchi Ionna Efessiylarning tarixiy asarlari, epigrafik yodgorliklar – Urxun-Yenisey, runiy yozuvlari, Xitoyning «Tan xonadoni tarixi» kabilardir. Undan tashqari, oʻrta asrlar mualliflari at-Tabariy, Denovariy, Beruniy, Narshaxiyalar asarlarida ham Turk xoqonligi toʻgʻrisida maʼlumotlar uchraydi.

«Alpomish», «Goʻroʻgʻli», «Manas», «Dada Qoʻrqut» kabi umumturkiy xalq dostonlari, oʻrta asrlardagi Mahmud Koshgʻariy, Ahmad Yugnakiy, Yusuf Xos Hojib va boshqalar asarlarida turkiy madaniyat, adabiyot, tarix toʻgʻrisida turli qimmatli maʼlumotlar keltiriladi. 1999-yili Alpomishning 1000 yilligi Respublikamizda keng nishonlanib, Termizda qahramon Alpomishga mahobatli haykal ham oʻrnatildi.

Taʼkidlash joizki, turk atamasining ilk marotaba tilga olinishi 542-yilga toʻgʻri keladi. Turli manbalarda turklar «turk el», «turk», «turkash», «tukdus», «tu-kyu», «tuk-yut» kabi nomlar bilan tilga olinadi. «Kuchli, baquvvat, botir» kabi maʼnolarni anglatuvchi «turk»

atamasi dastavval etnik xususiyatga ega boʻlmay ijtimoiy maʼnoga ega boʻlgan. Turklarning kelib chiqishi xususida koʻplab afsonalar mavjuddir. Ayrim afsonalarda turklarning kelib chiqishi Nuh paygʻambarga borib taqalsa, ayrimlarida ular oʻn yashar bola va ona boʻridan tarqalganligi taʼkidlanadi. Yana boshqa bir afsonaga koʻra, turk qabilasining ajdodlari Oltoyning shimoliy yon bagʻirlarida joylashgan So viloyatidan kelib chiqqan boʻlib, bu yerdagi qabila boshligʻi Abanbu ularning ilk yoʻlboshchisi boʻlgan.

Tarixiy manbalar maʼlumotlariga koʻra, Turk xoqonligining paydo boʻlishi 551–552-yillarga toʻgʻri keladi. Dastavval, turklarning Ashin urugʻidan boʻlgan Asan (Asyan, Asyan – shod) va Tuu turkiy qabilalar ittifoqiga asos solishadi. Tuuning oʻgʻli Bumin (xitoycha Tumin) qoʻshni tele qabilasini oʻziga boʻysundirib, ancha kuchayishga muvaffaq boʻladi. Bu paytga kelib anchagina mustahkamlangan Bumin boshchiligidagi qabilalar ittifoqi Oltoydagi oʻzlari qaram boʻlib turgan jujan (juan – juan)lar qabilalariga qarshi kurash boshlab 551-yilda (ayrim adabiyotlarda 552-yilda) ularni tor-mor etishadi. Mana shu davrdan boshlab turkiy hukmdorlar oʻzlarini jujanlar egalab turgan yerlarning haqiqiy egalari hamda jujanlarning mavqeyi va kuch-qudratining vorislari sifatida Anaguy xoqon (kagʻan) unvonini qabul qilishadi. Jujanlar hukmdori Anaguy joniga qasd qilib oʻzini oʻldiradi.

551-yilda Bumin Turk elining xoqoni sifatida oq kigizga oʻtkazilib koʻtariladi. Ammo 552-yilda Bumin toʻsatdan vafot etib, uning oʻrniga ukasi Istami taxtga oʻtiradi. Istami xoqon Oʻrta Osiyo, Volga va Shimoliy Kavkaz yerlari uchun kurash olib borgan boʻlsa, uning oʻgʻillari Mugʻan xoqon va Taspar xoqonlar Markaziy Osiyo va Janubiy Sibirda oʻz hukmronliklarini oʻrnatishadi. Bu paytga kelib turklarning ashaddiy dushmani boʻlgan jujanlarning kichik bir qismi Koreya va Shimoliy Xitoyga joylashadi, yana bir qismi esa gʻarbga joylashib avarlar nomini oladi.

Shunday qilib, manbalarning maʼlumot berishicha, Bumin xoqonning vorisi boʻlgan Mugʻan xoqon janubi-gʻarbiy Manchjuriyadagi



mo'g'ul qabilalaridan bo'lgan kidanlarni va Yenisey qirg'izlarini bo'ysundirib, Markaziy Osiyo va Janubiy Sibirda Turk eli hukmronligini o'rnatadi. Turklarning g'arbiy yurishlari ayniqsa muvaffaqiyatli edi. VI asrning 60-yillari oxirlariga kelib, Turk xoqonligi o'sha davrdagi yirik davlatlar bo'lgan Vizantiya, Sosoniylar Eroni, Xitoy kabilarning siyosiy va iqtisodiy munosabatlar tartibiga qo'shilib, Uzoq Sharqni O'rta Yer dengizi mamlakatlari bilan bog'lovchi savdo yo'li nazorati uchun kurash olib bordi.

VIII asr turk mualliflari o'zlarining ajdodlari bo'lgan ilk xoqonlarning harbiy yurishlari haqida shunday yozishgandi: «Ular Sharqda Qodirkon adirlarigacha, g'arbda Temir darvozagacha o'z xalqlarini joylashtirdilar». Qodirkon adirlari bu – Katta Xingan tog'lari, Temir darvoza esa Boysuntog'dagi Bo'zg'alaxona dovonida joylashgan.

576-yilga kelib Turk xoqonligi Manchjuriyadan Kimmeriy Bosporigacha, Yenisey yuqori oqimlaridan Amudaryo yuqori oqimlarigacha cho'zilgan edi. Shu tariqa turk xoqonlari siyosiy va madaniy merosi O'rta Osiyo va Janubi-Sharqiy Yevropa tarixiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan dastlabki Yevroosiyo imperiyasiga asos solishgandi.

VI asr 50-yillarining oxirlarida Istami xoqonga eftaliylarga qarshi harbiy harakatlar olib borish uchun qulay imkoniyat paydo bo'ladi. Eron shohi Xusrav I Anushervon (531–579-yy.) eftaliylarga o'lpon to'lashni to'xtatib qo'yadi va ularga qarshi urushga tayyorgarlik ko'ra boshlaydi hamda Vizantiya bilan aloqalarni yo'lga qo'yadi. Xusrav I siyosiy jihatdan biroz o'nglanib olgach, Turk xoqonligiga eftaliylarga qarshi ittifoq taklif etadi. Ayni vaqtda Vizantiyadan foydalangan Eron eftaliylardan Toxariston, Chag'oniyon, Kobul atrofidagi yerlarini tortib oladi.

563-yilda eftaliylarga qarshi shimoldan turklar Choch vodiysiga bostirib kirishadi. Tez orada ular tomonidan Samarqand, Kesh, Naxshab egallanadi. «Shohnoma»da ma'lumot berilishicha, hal qiluvchi jang Buxoro atroflarida bo'lib o'tadi va eftaliylarning Gatifar boshchiligidagi qo'shinlari tor-mor etiladi. Shundan so'ng turklar tezlik bilan harakat qilib, iloji boricha eftaliylarning ko'proq yerlarini o'z

qo'llariga olishga harakat qiladilar. Amudaryoning janubiy sohili-gacha bo'lgan yerlar, Eron, uning shimolidan Kaspiy sohillarigacha bo'lgan yerlar turklar qo'lga o'tadi. Eftaliylarning mag'lubiyatidan so'ng bevosita ittifoqchilar o'rtasida kelishmovchiliklar paydo bo'la boshlaydiki, bu holat savdo yo'li nazorati bilan bog'liq edi.

Turklar O'rta Osiyo yerlarini bosib olgach, Buyuk ipak yo'li katta qismining nazoratini o'z qo'llariga olishadi. Bu yo'lning O'rta Osiyo hududlaridan o'tuvchi qismida asosan Sug'diylar ipak bilan savdo qilishni nazorat qilishardi. Ipak matolarning asosiy xaridori Vizantiya bo'lib, ipak savdosi Sug'd savdogarlari va turk xoqonlariga katta daromad keltirardi. IV asrning oxirlaridan boshlab Sug'dda, VI asrda Eron va Vizantiyada o'z ipakchilik ishlab chiqarishining paydo bo'lishi bu mahsulot sotilishini yanada kiyinlashtiradi.

Xoqonlikning bevosita g'arbiy qismini boshqarib turgan Istami va bosh xoqon Muqan xoqon ipak savdosi mojarosini tinchlik bilan hal qilishga harakat qila boshlashadi. Istami xoqon o'z qo'l ostidagi Sug'd ixshidiga bu masalani hal etish vazifasini topshiradi. Eronga Turk xoqoni nomidan mashhur Sug'd savdogari va diplomati Maniakh boshchiligida elchilar guruhi jo'natiladi. Xusravshoh o'z atrofidagi amaldorlarning maslahatiga kirib, sug'diylar olib kelgan ipak matolarni sotib olib, uni elchilar ko'z o'ngida yoqib tashlaydi. Shundan so'ng Maniakh boshqa xaridor – Vizantiya bilan kelishishga harakat kiladi. 567-yilda u Turk xoqonligining Konstantinopolga yuborgan elchiligiga boshchilik qiladi. Vizantiya ham Eron kabi Sug'd ipak matolariga unchalik ehtiyoj sezmas edi. Ammo eroniylarga qarshi turklar bilan ittifoqchilik tarafdori edi. Shu tufayli Turk xoqonligi elchilari imperator saroyida izzat-hurmat bilan kutib olinadi.

Ushbu elchilik davomida Turk xoqonligi bilan Vizantiya o'rtasida Eronga qarshi ittifoq tuziladi. Maniakh orqaga qaytishda u bilan birga Vizantiya imperatorining elchisi, kilikiyalik Zemarx Turk xoqoni qarorgohiga keladi. Xoqon Zemarxni Tyan-Shandagi «Oltin tog'» yaqinidagi qarorgohida qabul qiladi va turk qo'shinlarining Eronga yurishida yo'l boshlovchilik qilishni taklif etadi. Eron shohining turk-



lar hujumini diplomatik yo'l bilan to'xtatishga urinishi hech qanday natija bermadi. Shiddatli hujumlar bilan turklar Gurgonni va bir necha boy shaharlarni egallab, 569-yilda Sug'dga qaytishadi.

Turklarning Eronga ikkinchi marotaba yurishlari 588–589-yillarga to'g'ri keladi. Turklarning Chur Bag'a xoqon (ayrim adabiyotlarda Savg' yoki Shaba deyiladi) boshchiligidagi qo'shini Xurosonga bostirib kiradi. Hirot yonida turk qo'shinlari eroniylarning mashhur Bahrom Chubin boshchiligidagi qo'shinlari bilan to'qnashadi. Bu jangda Bahrom Chubin turk qo'shinlarini tor-mor etib, turklar yo'l boshchisini kamon o'qi bilan halok etadi. Qayta qarshilik ko'rsatish foydasiz ekanligini anglagan turklar eroniylar bilan sulh tuzishga majbur bo'lishadi.

Arablar O'rta Osiyoni bosib olgunlariga qadar turklarning O'rta Osiyodagi mulklari bilan Eron o'rtasidagi chegaralar o'zgarmadi. Arab bosqiniga qadar ipak va boshqa mahsulotlar ortgan karvonlar u yoki bu darajadagi barqarorlik bilan Eron, Xorazm va Volgabo'yi orqali g'arbga qatnab turdi.

576-yilda Muqan xoqon vafotidan so'ng xoqonlik taxtiga uning ukasi Arslon To'ba o'tiradi. U mamlakatning kuch-qudratini mustahkamlash maqsadida Xitoyning Si saltanati bilan shartnoma tuzadi. Bundan tashqari, u mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish choralarini ham ko'radi. Ammo 581-yilda Arslon To'ba vafotidan so'ng Turk xoqonlari o'rtasida o'zaro ichki kurashlar avj olib, natijada mamlakat ichida ahvol keskinlashib, iqtisodiy tanazzul boshlanib ketdi.

Aynan mana shunday keskin vaziyat sharoitida turkiy shahzoda Abruy boshchiligidagi 585–586-yillarda xalq harakati bo'lib o'tdi. Muhammad Narshaxiyning ma'lumot berishicha, Abruyning qarorgohi Poykand atrofida bo'lib, u boy zodagonlar va savdogarlar ustidan qattiq nazorat o'rnatganligi bois bu toifa aholisi Buxoro viloyatidan ko'chib, Turkiston va Tarozi atrofiga borib o'rtnashishadi. Qochib borganlar Turk xoqonidan yordam so'rashgan. Natijada turk sarkardasi Sheri Kishvar boshchiligidagi qo'shinlar qo'zg'olonni bostirishadi va Abruyini o'ldirishadi.

**G'arbiy Turk xoqonligi.** Turk xoqonlari o'rtasidagi o'zaro kurashlar 20 yildan ziyodroq, davom etib 603-yilda davlatning 2 ta: G'arbiy va Sharqiy qismlariga bo'linib ketishi bilan yakunlandi. Sharqiy Turk xoqonligi Mo'g'uliston hududlarini, G'arbiy Turk xoqonligi esa, Yettisuv, Chu vodiysi, Volga, Kubanning quyi qismi, Irtish, Ishim daryosi bo'yidagi yerlar, O'rta Osiyo va Sharqiy Turkistonning bir qismini o'z ichiga olgan. Xoqonlar Sheguy va To'n yabg'u davrlarida G'arbiy Turk xoqonligi vaqtinchalik rivojlanish jarayonlarini boshdan kechirdi. Bu davrda xoqonlikning hududlari kengaydi, davlat boyidi va harbiy qabila zodagonlarining mavqeyi kuchayib, ular xoqonlar hokimiyatidagi harbiy muvaffaqiyatlarni ta'minlab turdilar. Shaguy G'arbiy xoqonlikning Sharqiy chegaralarini Oltoy qilib belgiladi va o'z hokimiyatini Tarim havzasi va Sharqiy Pomir oldigacha cho'zishga muvaffaq bo'ldi. To'n yabg'u (To'n Bahodir) xoqonlikning g'arbiy hududlarida faol siyosat olib borib xoqonlikning kishki qarorgohini Chu daryosi vohasidagi yirik savdo hunarmandchilik markazi bo'lgan Suyobga (hozirgi To'qmoq yaqinidagi Oqbeshim ko'hna shahri), yozgi qarorgohini esa Isfijob yaqinidagi Mingbuloqqa (hozirgi Turkiston shahri yaqinida) ko'chiradi. To'n yabg'uning yangi yurishlari tufayli xoqonlik chegarasi Amudaryoning yuqori oqimlaridan Hindikushgacha cho'ziladi.

To'n yabg'u hukmronligi davrida amalda mustaqil bo'lgan O'rta Osiyo davlatlari ustidan nisbatan qattiq siyosiy nazorat o'rnatiladi. Chunki bu davlatlarning vassalligi faqat o'lpon to'lash bilan chegaralanar edi. Isfijobdan Toshkent vohasigacha, shimolda Janubiy Afg'oniston va shimoli-g'arbiy Pokistongacha bo'lgan hududlarga xoqon To'n yabg'uning ishonchli vakillari – tudunlar yuborilib, ular soliqlar yig'ish va xoqon qarorgohiga yuboriladigan o'lponlarni qattiq nazoratga oldilar. Mahalliy hokimlarga ularni xoqonlik ma'muriy boshqaruviga qo'shilganlik ramzi sifatida turk unvonlari berildi. Shu bilan birgalikda To'n yabg'u nisbatan kuchli bo'lgan mahalliy hukmdorlar bilan shaxsiy munosabatlarini mustahkamlashga harakat qildi. Manbalarda To'n yabg'uning Samarqand hokimiga o'z qizini xotin-



likka berganligi haqida ma'lumot bor. Xitoy manbasi To'n yabg'u haqida ma'lumot berar ekan, shunday xabar beradi: «G'arb varvarlari hali hech qachon bunchalik qudratli bo'lgan emas».

O'ta yakkahokimlik xususiyatiga ega bo'lgan To'n yabg'u boshqaruvi – talon-torojchilik urushlari natijasida boyib ketgan qabila zodagonlari orasida norozilik harakatlarini kuchaytirib yubordi. Boshlanib ketgan o'zaro kurashlarni bartaraf etishga harakat qilgan To'n yabg'uning tog'asi Qo'l Bahodir jiyani o'ldirib, o'zini Qo'l Elbilga xoqon deb e'lon qiladi. Ammo, qabila boshliqlarining ayrimlari boshqa da'vogarni qo'llab-quvvatlaganlari tufayli yana qabilalararo kurashlar boshlanib ketadi. 630–634-yillarga kelib xoqonlik o'zining Sirdaryoning g'arbidagi O'rta Osiyo mulklaridan mahrum bo'ldi. G'arbiy turk xoqonligining asosi bo'lgan dulu va nushibi qabilalari o'rtasida o'zaro kurashlar avj olib ketdi.

634-yilda nushibi qabilasi tomonidan qo'llab-quvvatlangan Ishbara Elterish Sher xoqon hokimiyat tepasiga keldi. U harbiy-ma'muriy tartib bo'lgan «o'n o'q eli» boshqaruvini qayta tiklashga harakat qilib, qabila boshliqlarini o'ziga shaxsan tobe qilish maqsadida islohotlar o'tkazdi. Undan tashqari, amaldagi nazoratni amalga oshirish maqsadida Ishbara har bir mulkka xoqon urug'i a'zosi – shodni jo'natadi. Shodlar qabila zodagonlari bilan hech qanday aloqada bo'lmay, ularning markaziy hokimiyatga intilishini kuzatib borgan. Bu mahalliy hokimlarning siyosiy tashabbuslarini nihoyatda chegaralab qo'yar edi. Ammo Ishbara Elterish Sher boshchiligidagi xoqonlik hokimiyatining harbiy-siyosiy layoqati qaram mulklar va qabilalarni ushlab turishga qodir emas edi. 638-yilda dulu qabilasi o'zlariga jo'natilgan shodni xoqon deb e'lon qilishdi. Shundan so'ng dulu va nushibi qabilalari o'rtasida og'ir va qonli urushlar bo'lib o'tib, g'arbiy xoqonlik ikki qismga bo'linib ketdi. Shunday bo'lsa-da, xoqonlikdagi qabilalararo va sulolalararo urushlar 17 yil (640–657-yy.) davom etdi.

Shunday qilib, VII asrning o'rtalarida G'arbiy turk xoqonligi zaiflashib bir necha qismlarga bo'linib ketdi. Vaziyatdan foydalangan Xitoyning Tan imperiyasi qo'shinlari 657–659-yillarda Yettisuvga

bostirib kirishdi. Xitoy bosqinchilariga qarshi kurashlar uzoq yillar davom etdi. Faqatgina VII asrning oxirlariga kelib xoqonlik o'z mustaqilligini tiklashga muvaffaq bo'ldi va xitoyliklar vakili Xusrav Bo'rishod mamlakatdan haydab yuborildi.

**Davlat boshqaruvi.** Turk xoqonligida davlatning oliy hukmdori «xoqon» unvoniga ega bo'lgan. Xitoy manbalari ma'lumotlariga ko'ra, turkiylar xonni taxtga o'tqazishda maxsus marosim o'tkazishgan. Ya'ni, amaldorlar bo'lajak xonni kigizga o'tqazib, quyosh yurishi bo'ylab 9 marotaba aylantirgan, ishtirokchilar esa uni qutlab va ulug'lab turishgan. So'ngra xonni otga o'tqazib, bo'yniga ipak mato bog'lashgan va undan: «Siz necha yil xon bo'lmoqchisiz?» – deb so'rashgan. U necha yil xon bo'lishini aytgan va shu muddat tugagach taxtdan ketgan.

Qadimgi turkiy afsonalarda berilishicha, turklarning tasavvuriga ko'ra, davlatchilikning markazi, davlatni o'z qo'lida birlashtiruvchi shaxs xoqon hisoblangan. Boshqaruvda xoqonlarning hukmron sulolasi asosiy bo'lib, u uchta kuch – osmon (tangri), yer-suvning kuch va irodasi hamda turk xalqining yaratuvchanlik faoliyati tufayli yuzaga keltiriladi.

Xoqondan keyingi shaxs, birinchi amaldor «yabg'u» (Bahodir) bo'lib, u bosh sarkarda hisoblangan. Ammo yabg'u taxtga merosxo'rlik qila olmas edi. Turkiy xoqonligi taxtiga vorislik tartibi turk davlatchiligi tuzilishi uchun xos bo'lgan uluslarga bo'linish tizimiga asoslanib belgilanar edi. Ushbu tizimga ko'ra taxt aksariyat hollarda otadan o'g'ilga emas, akadan ukaga, amakidan jiyanga meros qolar edi. Taxt merosxo'ri tegin (shahzoda) deb yuritilgan.

Shahzodalar to taxtga o'tirgunlariga qadar o'zlariga berilgan uluslarni boshqarib turishgan. O'rta Osiyodagi mahalliy hokimlarning faoliyatini nazorat qiluvchi amaldor, xoqonning nazoratchisi – «tudun» deb atalgan. Turkiy xoqonligi konfederativ davlat bo'lgan. Turkiylar o'z yurti va davlatini «el» deb atashgan. Birinchi turk xoqoni Buminxon elxon unvoniga ega bo'lganligi bejiz emas.

Xoqonlik tarkibidagi ko'plab qabila va elatlarni birlashtirish va boshqarib turish, ulardan ma'lum miqdordagi soliqlar va o'lponlarni




o'z vaqtida yig'ib olish maqsadida xoqonlikda maxsus ma'muriy va harbiy-siyosiy boshqaruv tizimi joriy etilgan edi. Davlatni boshqarishda oliy hukmdorga uning yaqin qarindoshlari, avvalo, hukmron sulola a'zolari hamda ular tomonidan barpo etilgan boshqaruv tizimi yordam berar edi. Manbalarning ma'lumot berishicha, u to'rtga bo'lingan.

Ya'ni, qarindoshlar, xoqonga ittifoqdosh bo'lgan qabila va xalqlar; xoqonning o'ng tomonida o'tiruvchi amaldorlar va ma'muriy xodimlar; xoqonning chap tomonida o'tiruvchi amaldorlar va xodimlardan iborat bo'lgan. Xoqonning qarindoshlari – o'g'illari, amakisi, jiyanlari va aka-ukalariga «tegin» unvoni berilgan. Xitoy manbalarida ma'lumot berilishicha, xoqonlikda beshta oliy mansab – exu (yabg'u), she (shod), dele (tegin), silifa (eltabar) va tutunfa (tudun) qabilar mavjud bo'lib, ularning barchasi meros qilib qoldirilgan.

Turkiy xoqonligi davlatining asosini yer bilan birga xalq tashkil etar edi. O'z davrida O'rta Osiyoda davlatchilikning mustaqil va an'anaviy shakllarini rivojlantirgan turkiylar davlati mavjud jamiyatning muayyan ijtimoiy tuzilmalariga va qadimgi turklarning davlat tomonidan tashkil etilgan hamda nazorat qilinadigan xo'jalik faoliyatiga tayanar edi. Tarixiy adabiyotlarda berilishicha, bu faoliyatning asosini ko'chmanchi chorvachilik tashkil etgan. Chorvador turklarda urug'-qabilachilik an'analari nihoyatda kuchli bo'lib, qabila va urug' jamoalarining asosi katta oilalardan iborat bo'lgan. Ko'chmanchi chorvadorlar xalq ommasini turklar «budun» yoki «qora budun» deb atashgan.

Xoqonlikda keng miqyosda dehqonchilik ham qilinardi. Xitoy manbalari, «garchi turklar doimiy yashash joylariga ega bo'lmasa ham, lekin ularning har birining ajratib berilgan eri bor»ligi haqida ma'lumot beradi. Aynan mana shunday «ajratib berilgan yer»larda dehqonlar mavjud suv manbalari hamda lalmikor yerlar imkoniyatdan foydalanib, asosan donli ekinlar yetishtirishgan. Mevali daraxtlardan bog'-rog'lar yetishtirishga alohida ahamiyat berishgan. Manba tili bilan aytganda, «(mevali) daraxtlar savlat to'kib turgan».

### Turk xoqonligidagi davlat boshqaruvi va mansablar



Turklardagi qabila va urug' jamoalarining katta oilalarida uy qullari ham mavjud bo'lar edi. Qullarning ko'payishi bilan sinfiy munosabatlar tarkib topa boshlagan. Lekin qulchilik ijtimoiy hayotga keng kirib kelmagan. Shu bois bo'lsa kerakki, manbalar xoqonlikda qullar mehnatidan keng foydalanish haqida amalda hech qanday ma'lumot bermaydi. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, ko'proq ayollar mehnatidan foydalanilgan va qullar asosan uy ishlari bilan shug'ullanishgan. Ko'pincha jamoada ayollar qul qilib olib ketilar edi. Lekin qul ayollardan ham og'ir ishlarda foydalanilmay, balki uy-ro'zg'or ishlarida ishlatilgan. Qul erkakmi, ayolmi, baribir qochib ketavergan.

Qochgan qul ta'qib qilinmagan va uning uchun hech kim tovon to'lamagan. Turkiy xoqonligining markaziy boshqaruv tizimi asosan yirik siyosiy davlat tadbirlari (davlat osoyishtaligini saqlash, davlat



sarhadlarini kengaytirish, soliq tizimi, ichki va tashqi savdo, diplomatik munosabatlar va boshq.) bilan mashg'ul bo'lib, o'zlari zabt etgan hududlardagi boshqaruv tizimiga ma'lum darajada erkinlik berilgan. Shuning uchun ham Farg'ona, Sug'd, Shosh, Toxariston, Xorazm va boshqa mulklardagi boshqaruv tartibi asosan mahalliy sulolalar qo'lida bo'lgan. Misol uchun, Sug'd va Farg'onada oliy hukmdor – «ixshid» Toxaristonda – «malikshoh», Xorazmda – «xorazmshoh», Keshda – «ixrid», Buxoroda – «xudot», Ustrushonada – «afshin», Choch va Ilokda – «budun» deb atalgan.

Turkiy xoqonlik davrida Sug'd hududlariga hozirgi Panjikentdan Karmanagacha bo'lgan yerlar kirgan. Buxoro esa, VII asrdan boshlab mustaqil mulklar ittifoqidan iborat bo'lgan. Sug'dning mahalliy hokimlari ayrim vaqtlarda Choch va Xorazmning mustaqil hukmdorlari bilan birlashardi. Bunday yirik siyosiy birlashmalar ma'lum muddatlarda yirik shaharlarda o'z qurultoylarini o'tkazib turishgan.

Farg'ona Sug'd siyosiy ittifoqiga kirmagan bo'lib, u alohida mustaqil davlat edi. Uni afshin boshqargan bo'lib, farg'onaliklar Tyan-shan xalqlari bilan o'zaro aloqada bo'lishgan. Xorazm boshqa mulklarga nisbatan ancha mustaqil edi. Mamlakatni Afrig'iylar sulolasiga mansub podshohlar boshqarib turgan.

Ta'kidlash lozimki, Turk xoqonligi ma'lum darajada to'liq ishlab chiqilgan jinoy qonunchilikka ega bo'lgan. Sodir etilgan jinoyat uchun jazoning asosiy turlari – qatl etish, odam a'zolarini kesib tashlash, zararni to'lash, mol-mulk tarzida tovon to'lashdan iborat edi. Misol uchun, manbalarning ma'lumot berishicha, o'lim jazosi davlatga qarshi jinoyatlar uchun (isyon ko'tarish, sotqinlik) hamda nohaq yoki qasddan odam o'ldirganlik uchun berilgan. O'g'irlik qilgan yoki buzuqlik qilgan shaxsning qo'li yoki oyog'i kesilgan. Shaxsga qarshi qaratilgan boshqa jinoyatlar yetkazilgan zararni o'n barobar qilib to'lash, jarohat yetkazgani yoxud mayib qilgani uchun mol-mulk tarzida tovon to'lash, qizi, xotinini qullikka berish, suyagini sindirganlik uchun esa ot berish yo'li bilan jazolanardi.

**Madaniy hayot. Hunarmandchilik va savdo-sotiq.** O'z davrida Turkiy xoqonligidagi madaniy jarayonlar Buyuk ipak yo'lidagi keng ko'lamdagi, xalqaro aloqalar tufayli jamiyatdagi siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy voqealar bilan o'zaro bog'liqlikda rivojlanib bordi. O'troq dehqonchilik vohalari aholisi va dasht qabilalari o'rtasidagi madaniy aloqalar ayniqsa kuchaydi. Bu davrdagi madaniy hayot moddiy madaniyat buyumlari, me'morchilik va san'at, din va yozuv kabilarda o'z ifodasini topdi.


Ta'kidlash joizki, O'rta Osiyoning turkiy xoqonligi tarkibiga kirgan davridagi moddiy madaniyati o'zida mahalliy o'troq xalqlar va ko'chmanchi turklarning mushtarakligini aks ettiradi. Ularning umumiyliги qurol-aslaha, zeb-ziynat buyumlarining o'xshashligida, qimmatbaho metallardan ishlangan buyumlar ko'rinishida o'z aksini topgan. Tadqiqotchilarning fikricha, moddiy madaniyatdagi umumiylik, avvalo, O'rta Osiyo shahar va qishloqlari hamda turk xoqonlari manfaatlarining umumiyliги bilan bog'liq edi.

Turk xoqonligi davrida O'rta Osiyo xalqlari zardushtiylik, buddaviylik, nasroniylik, moniylik, shomonlik kabi dinlarga e'tiqod qilgan bo'lsalar-da, diniy qarashlarda zardushtiylik yetakchi o'rinda turgan. Zardushtiylikning ulug' xudosi Axuramazda (Ormo'z, Xurmo'z) «samo va yerning asoschisi» bo'lib, uning sharafiga qurbonliklar keltirishgan. Bu din ayniqsa, Xorazm, Sug'd va Choch viloyatlarida keng tarqalgan edi. Bu davrda Toxariston, Farg'ona, Yettisuv va Sharqiy Turkiston shahar aholisi o'rtasida buddaviylik dini keng tarqalgan edi. Balxdan, Termizdan, Kobadiyondan, Quvadan ilk o'rta asrlarga oid budda ibodatxonalari qoldiqlari ochib o'rganilgan. Shuningdek, sug'diylarning Yettisuvdagi ayrim yerlarga borib o'rnamashishlari oqibatida zardushtiylik dini bilan Yettisuvga xos shomoniylilik dinlarining bir-biri bilan qo'shilishi yuz beradi.

Turkiylarning dini haqida «Bey-shi» va «Suy-shi» Xitoy yilnomalarida qayd etiladi. Ularda turkiylarning diniy odatlari haqida quyidagi ma'lumotlar bor: 1) xoqon qarorgohiga Sharq tomondan kirilgan va bu bilan kun chiqish tarafga hurmat ma'nosi ifodalangan



hamda ayni paytda quyoshga sig'inishni ham bildirgan; 2) har yili xoqon o'z amaldorlari bilan g'orga borib, ota-bobolari ruhiga qurbonlik keltirgan; 3) har yilda 5 marta xoqon oy chiqishida yaqinlarini yig'ib, daryo bo'yiga borgan va osmon ruhi (Tangri)ga qurbonlik keltirgan. Qabilalar uchun yagona asosiy xudo bo'lib, unga doimiy ravishda qurbonlik keltirib turishgan. Ular ruh abadiyligi, narigi dunyo borligiga ishonishgan.



Xorazm. Teshikqal'a. Tiklangan holati

Turk xoqonligi davri O'rta Osiyoda ko'plab yirik shaharlar mavjud edi. Katta va kichik shaharlarda hunarmandchilik, me'morchilik, rassomlik, haykaltaroshlik qabilar rivojlanadi. Ularning ayrim namunalari o'sha davrda bunyod etilgan qasr va saroylarni bezagan devoriy suratlar va ganchkor naqshlar, haykallar va haykalchalar, tangalarda zarb etilgan ramzlar sifatida bizning kunlarimizgacha saqlanib kelgan. Ularda o'sha davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotdagi o'zgarishlar o'z aksini topgan. Surxon vohasidagi Bolaliktepa, Zarafshon vodiysidagi Panjikent, Varaxsha va Afrosiyob, Farg'onadagi Quva xarobalaridan topilgan devoriy suratlar manzaralari shular jumlasidandir.

Bu davrda ulkan hududlarda yashagan turli xalqlarning til va yozuvlari bir-birlariga ta'sir o'tkazgan edi. Arab yozuviga qadar turkruniy, uyg'ur, moniy, sug'd, braxma, kxaroshtiy, xorazmiy va suryoni yozuvlari mavjud edi. Sug'd, Xorazm va Toxariston aholisining alohida-alohida yozuvlari bor edi. Sug'd va Xorazm yozuvlari oromiy yozuvi asosida paydo bo'lgan bo'lsa, bu yozuvlar asosida Toxariston yozuvi paydo bo'ladi. Sug'd yozuvlari keng hududlarga tarqalgan bo'lib, bu jarayon sug'diylarning yangi yerlarni o'zlashtirish faoliyati va savdogarlarning ipak yo'lidagi sa'y-harakatlari bilan bog'liq edi. Shu bois bo'lsa kerakki, Sug'd tilidagi yozma yodgorliklar O'rta Osiyo, Qozog'iston, Sharqiy Turkiston, Pokiston va Mo'g'uliston hududlaridan topib tekshirilgan. Sug'd yozuvi ish yuritishda, savdo va madaniy aloqalarda katta ahamiyatga ega bo'lib, qadimgi uyg'ur, mo'g'ul va manjurlar yozuvlari paydo bo'lishiga asos bo'ldi.

Bu davrda Xorazmda mahalliy yozuv keng tarqalgan va amalda bo'lgan. Tuproqqal'adan shoh arxivlarining topilishi bunga misol bo'la oladi. Boybezaklar, sopol, metall idishlar, devoriy suratlar, kiyimlardagi tasvirlar bu yerda tasviriy san'atning rivojidan dalolat beradi.

Xoqonlikdagi shahar aholisi asosan hunarmandchilik va savdosotiq bilan shug'ullanishgan. Dehqonchilikdagi taraqqiyot ko'lami va sifati o'zidan keyingi uch tarmoq – hunarmandchilik, qurilish, savdosotiq ravnaqi uchun katta turtki bo'lgan edi. Aynan shuning uchun ham bu vaqtda temirchilik, zargarlik, kulolchilik, duradgorlik, qurolsozlik, to'qimachilik, shishasozlik, charmgarlik kabi hunarmandchilik tarmoqlari tobora rivoj topadi. Turklar sarrojlilik, ruda qazib olish va undan qurol-yarog' yasashda ayniqsa mohir edilar. Turklar yasa-gan qurol-yarog' va zeb-ziyat buyumlari o'zining xilma-xilligi va pishiqligi bilan ajralib turgan.

Bu davrda konchilik ishlari ham ancha rivojlangan. Oltin, temir, kumush, mis, tuzning bir necha xili, qimmatbaho toshlar, turli ma'danlar – Sug'd, Shosh, Farg'ona, Kashg'ar, Toxariston kabi viloyatlardan qazib olinganligi manbalarda aniq ko'rsatilgan.



Xoqonlik davrida savdo-sotiq ishlariga alohida e'tibor berilganligi bois, Buyuk ipak yo'li samarali ishlashda davom etdi. O'rta Osiyo xalqlarining bu davrdagi asosiy hamkorlari Eron, Xitoy, Hindiston, Vizantiya edi. Bu mamlakatlarga to'qimachilik, ipakchilik mahsulotlari, qimmatbaho toshlar, ulardan ishlangan buyumlar, taqinchoqlar, dorivorlar, nasldor arg'umoqlar, bir necha xil tuz, bog'dorchilik mahsulotlari, qazilma boyliklar va hokazolar olib borilgan. Savdo-sotiqda ayniqsa, sug'diy savdogarlarning mavqeyi kuchli bo'lgan. Shu o'rinda xitoylik muallifning quyidagi ma'lumoti diqqatga sazovordir: «(Sug'diy) erkaklar yigirma yoshga to'lishlari bilan qo'shni mamlakatlarga oshiqishadi va (savdo-sotiqda) qayerda (qulaylik) va manfaat bo'lsa (al'batta) u yerga qadam ranjida etishadi».

Xullas, O'rta Osiyoning Turkiy xoqonligi tarkibida bo'lishi o'sha davr davlatchilik tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot uchun muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Avvalo, Turk xoqonligi juda katta hududlardagi turkiy qabilalarning birlashuvi va jipslashuviga keng imkoniyatlar yaratib, O'rta Osiyodagi ayrim turkiy xalqlar shakllanishiga asos soldi. Yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, avval Turkiy xoqonligi, keyin esa G'arbiy turkiy xoqonligining qudratli va ko'chmanchilarga xos shiddatli harbiy tashkiloti, sug'diyarning bevosita aralashuvi tufayli olib borgan diplomatik siyosati Xitoy, Vizantiya va Eronning O'rta Osiyo ilk o'rta asrlar davri xalqlari va elatlariga nisbatan olib borayotgan tajovuzkorlik siyosati yo'liga mustahkam to'siq qo'ydi.

Bepoyon dasht va cho'l hududlarida, serhosil va sersuv vohalarda tashkil topgan uikan davlat birlashmalari kattagina hududlardagi shaharlar, hunarmandchilik, madaniyat, savdo-sotiq va o'zaro aloqalarining rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar ochib berdi. Masalaning yana bir eng muhim tomoni shundaki, Turkiy xoqonligi mavjudligi davri – ko'chmanchilar madaniyati insoniyat sivilizatsiyasining o'z yo'nalishi va jihatlariga ega bo'lgan o'ziga xos va betakror tarmog'i bo'lib, o'troq aholi madaniyati bilan aralashib, uyg'unlashgan madaniyat paydo bo'lishi davri bo'ldi.

### 11.3. Arab xalifaligi davrida Movarounnahr

Jahon tarixida ulkan iz qoldirgan davlatlardan biri – bu Arab xalifaligidir. Arab xalifaligi davri O'rta Osiyo, Eron, Afg'oniston, Yaqin va O'rta Sharq, shimoliy Hindiston, Pireney yarim oroli va shimoliy Afrika xalqlarining ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy taraqqiyotida o'ziga xos yuksalish davrini belgilab berdi. Arab istilochilari xususida, shubhasiz, eng asosiy ma'lumotlarni arab, musulmon mualliflari berib o'tishgan. Shu xususda, jumladan, al-Balazuriyning «Futuh al buldon» (Mamlakatlarning fath etilishi), at-Tabariyning «Tarixi rasuli va muluk» (Payg'ambarlar va podshohlar tarixi) asarlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Islom dinining vatani Arabiston yarim orolidir. Arablar semit qabilalari guruhiga mansub bo'lib, asosan ko'chmanchi chorvachilik bilan hayot kechirishgan. Ko'chmanchilar badaviylar deb yuritilgan. Vohalardagi aholi dehqonchilik bilan shug'ullangan. Dengiz bo'ylari, vohalarda shaharlar qad rostlagan bo'lib, ularda asosan savdo-sotiq va hunarmandchilik bilan kun ko'radigan aholi yashar edi.

VI asrning ikkinchi yarmi, VII asrning birinchi yarmidagi arab ijtimoiy hayoti juda murakkab va rang-barang edi. Unda urug'-aymoqchilik munosabatlari endigina kurtak ochib kelayotgan feodal munosabatlar bilan chatishib ketgan edi. Asosiy savdo yo'llarining bu hududdan o'tishidan arab zodagon – savdo ahli juda manfaatdor edi. Lekin mamlakatda bu paytda siyosiy parokandalik hukm surardi. O'zaro qabilaviy urushlar natijasida dehqonchilik va savdo-sotiq ishlariga katta zarar yetkazilar, xonavayronlik avj olgan edi. Bu holat arab aslzoda guruhlarini, zodagonlari manfaatiga zid bo'lib, mamlakat iqtisodiy yo'nalishida yuqoridagi salbiy holatlar katta zarar yetkazardi. Yuqoridagi vaziyat ham turli tabaqa, toifa kishilarining o'zaro hamjihatlikka yagona, kuchli davlat atrofiga birlashishga chaqirar edi. Aholi ichida ko'p xudolik – butparastlik urf edi (xususan, Ka'bada 360 ta but bo'lib, ularning eng yiriklari Hubal va Lut bo'lgan).



Shunday vaziyatda islom to'g'ri va haq yo'lni ko'rsatuvchi din sifatida yuzaga keldi. Islom – bu Alloh yagona deb e'tirof etib, unga bo'ysunmoqlik va butun qalbi bilan unga ixlos qilmoqlik hamda Alloh buyurgan diniy e'tiqodga iymon keltirmoqlik demakdir. Islom «itoat», «bo'ysunish» ma'nolarini bildiradi. Bu dinning asoschisi Muhammad payg'ambar (s.a.v.) (570–632) makkalik Abdullohning o'g'li bo'lgan. Uning bobosi Abumutallib quraysh qabilasining boshlig'i edi.

Muhammad payg'ambarning ta'limotiga ergashganlarni «muslim» («musulmon»), ya'ni «itoatkorlar» deb yuritishgan. O'z payg'ambarlik faoliyatini Muhammad Makkada boshlagan. Makka Arabiston yarim orolining g'arbiy qismidagi Hijoz viloyatida joylashgan shahar edi. U yerda Ka'ba joylashgandi. Diniy ta'limotga ko'ra Ka'bani Odam Ato barpo qilgan, uni Ibrohim payg'ambar o'z o'g'li Ismoil bilan birga qayta qurgan va birinchi haj safarini uyushtirgan. Ka'baning ichida muqaddas tosh «Hajar-ul-asvod» o'rnatilgan. Har yili bu muqaddas joyga millionlab musulmonlar ziyoratga kelishadi.

Muhammad payg'ambar (s.a.v.) muslim (musulmon)larning yagona Alloh oldida teng ekanliklarini, Yaratganning o'zi rizq-ro'z ulashishini, jamiyatdagi adolatsizlikka qarshi jazo muqarrar va har bir kishi bu dunyodagi ishlariga ko'ra taqdirlanishi, inson Yaratganga, yolg'iz Allohgagina e'tiqod qilishini targ'ib qiladi. Bu ta'limot aholining barcha qatlamlari manfaatlariga mos bo'lib, tez orada birinchi navbatda shahar ahli ichida tarqala boshlaydi. Lekin yangi din tarafdorlarining ahvoli ularning e'tiqodlariga ko'ra og'irlashib borgandan so'ng bir qism musulmon aholi Habashistonga, ba'zilar shimolga qarab ketishga majbur bo'lishadi. Muhammad ham o'ziga qarshi turgan quraysh qabilasi a'zolarining ta'qibi kuchayib ketgan 622-yil 16-iyulda (ba'zi adabiyotlarda 15-iyul deyiladi) o'zining eng yaqin do'sti va safdoshi Abu Bakr bilan Makkadan Madinaga ko'chishga majbur bo'ladi. Bu arab tilida «hijrat» deb atalib, shu kundan boshlab musulmon olamida qabul qilingan hijriy yil boshlanadi. (Hijriy yil hisobi 2 xil bo'ladi: hijriy-qamariy, ya'ni oy hisobi bo'yicha va hijriy-shamsiy, quyosh hisobi bo'yicha).

Madinada Muhammad payg'ambar (s.a.v.) o'z ta'limotini davom ettiradi. Madinada shuhrat qozongan makkaliklar butparastlik g'oyalari qarshi ham harbiy, ham siyosiy zarba bera boshlashadi. Muhammad (s.a.v.) payg'ambar vafot etgach (632-y.), ketma-ket «Xulofoiy rashoddin» (haq yo'ldan borgan sahif xalifalar) nomlarini olgan Abu Bakr, Umar, Usmon va Alilar (661-yilgacha) payg'ambar siyosatini davom ettirib, Arabiston yarim orolida markazlashgan – Arab xalifaligi davlatiga asos soladilar. O'zaro qabilalar birlashuvi, dini islomning yoyilishida ilohiy muqaddas kitob Qur'onning o'rni nihoyatda katta bo'ldi.

VII asrning ikkinchi yarmidan boshlab xalifalik kengaya borib, o'z chegaralarini G'arb va Sharq tomon kengaytirishga harakat qildi. Yaqin va O'rta Sharqning boy viloyatlari qo'lga olinib, nihoyatda uyushgan va jangovar arab qo'shini shiddat bilan harakatlarini boshlab yuborgan edi. Bir vaqtning o'zida arablar o'z yurishlarini Vizantiya va Eronga qarshi olib borishdi. Sosoniylarning so'nggi vakili Eron shohi Yozdigard III (632–651) arablarga qarshi turishga harakat qildi. Lekin Kadisiya (636-y.) va Nahavand (642-y.)dagi janglarda arablar qo'shini forslarga qaqshatqich zarba berib, Sosoniylar sulolasiga barham berishdi. Vizantiyaga qarshi qilingan harbiy harakatlar natijasida Falastin, Misr, Suriya, Iroq egallandi. Xalifa Umar ibn al-Hattob (634–644) davrida ilk bora arab istilochilari Xuroson chegaralarida paydo bo'lgan edilar.

Arab xalifaligi VII asrning boshlaridan boshlab o'z hududlarini G'arb va Sharq tomonga kengaytirish harakatini boshladi. Xususan, 642-yilda Nahavanddagi jangda Eron sosoniylari tor-mor etilgach O'rta Osiyo yerlariga hujum uchun imkoniyat yaratiladi.

Arablarining O'rta Osiyoga dastlabki yurishlari Ubaydulloh ibn Ziyod boshchiligida 651-yilda Marvni egallash bilan boshlandi. Arablar Amudaryo (Jayhun)dan shimolda joylashgan yerlarga «Movarounnahr», ya'ni, «daryoning ortidagi yerlar» deb nom berishadi. Narshaxiy va arab muallifi Yoqut bergan ma'lumotlarga ko'ra, Muhammad (s.a.v.) payg'ambarning o'zi Movarounnahrni bo'ysundirishni



muqaddas deb hisoblagan va islomga e'tiqod etuvchilarni bu muqaddas ishga da'vat etgan.

652-yilda arablar Balx shahrini egallashga muvaffaq bo'ladilar. O'sha yili Amudaryodan o'tib Movarounnahrda hujum qilish rejasini arablar uchun muvaffaqiyatsiz tugaydi. Ammo, Xuroson noibi Abdulloh ibn Amir 652-yilda Chag'oniyonni egallashga muvaffaq bo'ladi. Bu esa ilk bor Movarounnahr yerlarini egallash edi. 654-yilda Sug'ddagi Maymurg' qal'asiga arablarning birinchi hujumi bo'ladi. 667-yilda arablar Chag'oniyonga qayta yurish qilib eftaliylarga kuchli zarbalar berishadi. Arablar keng miqyosdagi hujumlarga tayyorgarlik ko'ra boshlagan edilar. Manbalarning ma'lumot berishicha, Movarounnahrda yurish qilishdagi harbiy-siyosiy tayyorgarlikdan biri, xalifalikning Basra va Kufa shaharlaridan 50 ming arab oilasi ko'chirib keltirilishi va Xurosonning turli shaharlariga garnizon sifatida joylashtirilishi bo'ldi.

673-yilning oxiri – 674-yilning boshlarida arablarning Xurosondagi noibi Ubaydulloh ibn Ziyod Movarounnahrda hujum qilib, Romitan va Poykandni egallaydi hamda Buxoro shahrini qamal qiladi. Ammo, buxoroliklar va turklarning ittifoqchi qo'shinlaridan qattiq qarshilikka uchragach, sulh tuzishga majbur bo'ladi.

676-yilda Xurosonning yangi noibi Said ibn Usmon Buxoroga yurish qilib, Buxoro malikasi Xutakxotun qo'shinlarini tor-mor etadi va Samarqandga hujum boshlaydi. Ammo bir oy davom etgan bu urushda sug'diylar arablarga qattiq qarshilik ko'rsatadi. Natijada, arablar sulh tuzib orqaga qaytadilar va yo'l-yo'lakay Termizni talon-toroj etadilar. 683-yilda xalifa Yazid vafot etganidan so'ng, xalifalikda toj-taxt uchun kurash boshlanib ketadi. Bunday vaziyatda arablar yana Movarounnahrda hujum qilishdan deyarli to'xtab, o'z ichki nizolari bilan band bo'lib qolishadi. Xalifa Abdulmalik ibn Marvon (685–705-yy.) davrida o'zaro ichki kurashlarga chek qo'yilib, arablar Movarounnahrda jiddiy harbiy harakatlarni boshlashadi.

Umuman olganda, arablarning yarim asr davomida Xuroson noiblari Abdulloh ibn Amir, Ubaydulloh ibn Ziyod, Sayd ibn Usmon,

Nalmo ibn Ziyod kabilar tomonidan uyushtirilgan hujumlari talon-toroj qilish, o'lkadagi harbiy-siyosiy vaziyatni o'rganish, boyliklarini olib ketish maqsadida uyushtirilgan edi. 704-yilda Qutayba ibn Muslim Xuroson noibi etib tayinlangach, Movarounnahrni butunlay bosib olish harakati boshlanadi. O'rta Osiyodagi siyosiy parokandalik va kichik davlatlarning bir-birlari bilan tez-tez nizolarga borib turishi Qutaybaga nihoyatda qo'l kelgan edi. 706-yilda u katta qo'shin bilan Movarounnahrda yurish boshladi va 707-yil Poykand shahri 15 kunlik qamaldan so'ng egallandi.

Arablarga qarshi turklar, sug'diylar umuman, mahalliy aholi o'zaro ittifoq tuzishga erishgan bo'lsa-da, Qutayba nayrang yo'li bilan bu ittifoqni buzishga muvaffaq bo'ldi va 708–709-yillarda Buxoro va uning atroflariga bir necha marta yurishlar qilib, Buxoroni zabt etdi. Qutayba 710-yilda Shuman, Nasaf va Keshni egalladi. 710–712-yillarda Samarqand ixshidi Tarxun va Xorazmshoh Xurzod Qutayba bilan tinchlik sulhi tuzib unga yirik miqdorda boj to'lashadi. Ammo Samarqand aholisining tovon to'lashga qarshilik ko'rsatishi, norozilik natijasida Tarxunning taxtdan ketishi va o'limi, Sug'd podshosi va Samarqand afshini sifatida G'urakning taxtga o'tirishi arablarning Samarqandga hujumlari uchun bahona bo'lgan edi. Shuningdek, Qutayba «Tarxunning o'limi uchun qasd olaman», deb e'lon qiladi va Samarqandga hujum uyushtirib, 712-yilda uni bosib oldi. Mug'tog'i hujjatlarining ma'lumot berishicha, 712–713-yillarda Sug'd, Choch, Farg'ona va Panjikent hokimlari arablarga qarshi ittifoq tuzib, vaqtincha g'alabalarga erishgan bo'lsa-da, Qutayba bu ittifoqqa raxna solib, ularni tor-mor etishga muvaffaq bo'ldi. 714-yilda Qutayba ibn Muslim turklardan kelayotgan yordam kuchini to'xtatib qo'yish maqsadida Choch vohasiga qayta bostirib kirdi va Isfjobni egalladi. 715-yilda Qutayba Farg'onaga ikkinchi marotaba yurish uyushtiradi. Shu yili Qutayba o'ziga dushman bo'lgan xalifa Sulaymonga qarshi isyon ko'taradi va mag'lubiyatga uchrab, o'ldiriladi. Shunday qilib, arablar qisqa muddat ichida Movarounnahr hududlarini bosib oldilarki, buning sabablari quyidagicha edi:



1. O'lkada hukm surayotgan siyosiy tarqoqlik va mahalliy hukmdorlarning o'zaro kurashlari arablarga juda qo'l kelgan edi. Chunki, parokanda va siyosiy jihatdan tarqoq hududlarni alohida-alohida zabt etish Qutayba uchun qulay edi.

2. O'zaro birlashish harakatida bo'lgan va ittifoqchilik uchun harakat qilgan mahalliy hokimlar orasiga Qutayba turli nayranglar bilan raxna solishga erishgan edi.

3. Arablar o'zaro kurashayotgan hokimlarning biriga ikkinchisini yengishi uchun yordam ko'rsatib, keyin ularning har ikkisini ham birin-ketin bo'ysundirishdi. Misol uchun, Sug'dni zabt etishda Qutayba arab qo'shini bilan bir qatorda Xorazm, Buxoro va Nasafning kuchlaridan foydalangan edi.

4. Arablar Movarounnahrda qadar juda katta hududlarni bosib olgan bo'lib, katta boylik va harbiy zaxiralarga ega edilar. Arablar qo'shiniga muntazam ravishda bosib olingan yerlar va ichki viloyatlardan yangi harbiy kuchlar safarbar qilinib turilardi.

#### **11.4. Arablar bosqiniga qarshi kurash. Movarounnahrda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar**

Movarounnahrda hijriyning 100-yilida (719-yil) arab hokimiyati tugaydi, degan gap-so'zlar tarqala boshlaydi. Arablar olib borayotgan bosqinchilik siyosatiga qarshi birinchi bo'lib, 720-yilda Sug'd aholisi bosh ko'taradi. Qo'zg'olonga Samarqand ixshidi G'urak va Panjikent hokimi Devashtichlar boshchilik qilishadi.

Sug'dlarga yordam berish uchun turkiy xoqon shahzoda Ko'rsul boshchiligidagi turkiy lashkarini Samarqandga yuboradi. Sug'ddagi qo'zg'olon umumxalq qo'zg'oloniga aylanib ketadi. Qo'zg'olonchilar arablarga zarba bera boshlashadi. Faqat ayrim shahar va qal'alar ichida qurshovda qolgan arab harbiy qismlarigina katta boj va e'tiborli vakillarni qo'zg'olonchilar ixtiyoriga garovga berish bilan jon saqlashadi. Xuroson noibi Sayid ibn Abdulaziz bu qo'zg'oloni bostirishga muvaffaq bo'lolmaydi.

721-yil Xalifa Yazid ibn Abdumalikning tavsiyasi bilan Xuroson noibi yetib Sayid ibn Amir al-Xaroshiy tayinlanadi. U Iroqdagi xalq qo'zg'olonini bostirishda o'z shafqatsizligi bilan nom chiqargan edi. Sayid al-Xaroshiy qo'zg'olonchilar bilan olib borgan muzokaralar natijasida G'urak boshliq zodagonlarning bir qismi arablar tomoniga o'tib ketadi. Qo'zg'olonchilardan bir qismi esa kurashni davom ettirishni lozim ko'rishadi. Arablar 400 ta boy savdogarlardan boshqa hamma Sug'd qo'zg'olonchilarini qirib tashlashadi. Qo'zg'olonchilarga yordam bergan Xo'jand ahli ham jazolanadi.

Movarounnahr aholisini tinchlantirish va arab hokimiyatini mustahkamlash maqsadida Xuroson noibi Ashras ibn Abdulloh (727–730-y.) islom dinini qabul qilganlardan xiroj va jizya solig'i olishni bekor qiladi. U islom dinini keng targ'ib qila boshlaydi. Chegaradagi yerlarda yangi istehkom qurilib, chegaralar mustahkamlana boradi. Lekin g'aznaga kam daromad tushayotganligi, zodagonlarning shikoyati tufayli xirojni qayta tiklaydi. O'z siyosatini targ'ib qilish maqsadida ikkita taniqli arab ruhoniysi As-Sayid Soliq va Robiya ibn Umranni Samarqand va Buxoroga jo'natadi. Xiroj solig'i zodagonlardan ham, kambag'allardan ham zo'rlab undirila boshlanadi.

Samarqandda Abu Sayid boshchiligidagi 700 ta sug'dliklar xiroj to'lashdan bosh tortishadi. Ular shahardan 7 farsax nariga o'tib, qarshilik harakatiga tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. Abu Sayidni hiyla ishlatib muzokara uchun Samarqandga chaqirtirishadi va o'sha erning o'zida uni va safdoshlarini zindonband etishadi.

O'zaro kurashlar, 733–734-yillardagi Zarafshon vohasidagi qurg'oqchilik, mustamlaka zulmining kuchayishi – bularning hammasi Movarounnahrda norozilikning yanada avj olishiga olib keladi. Norozilik arab harbiylari va qisman zodagonlar ichida ham kuchaya boradi. Shu paytga kelib xorijiylar harakati va mafkurasi yanada keng tarqala boshlaydi. Xorijiylar yuqorida qayd qilinganidek, shialar guruhidan VII asr oxirida ajralib chiqqan bo'lib, bu so'zning lug'aviy ma'nosi qo'zg'olonchilar degani edi. Avval boshda bu harakat oddiy arab va boshqa musulmon xalqlarning manfaatlarini himoya qilardi.



Keyinchalik bu guruhdan ibodiyalar, azrakiylar va boshqa jamoalar ajralib chiqqan. Xorijiyalar ta'limotiga ko'ra musulmonlar – zimmiylar (boshqa dindagilar) ustidan hukmron bo'lishlari kerak edi.

Movarounnahrda Xorijiyalar harakatiga shu paytda Xoris ibn Surayj boshchilik qiladi. Xoris Movarounnahrda tezda shuhrat qozonadi. U Samarqand va Dabusiyadagi Abu Sayid tarafdorlarini o'z qo'li ostida to'playdi. Abu Fotima uning yordamchisi va harbiy maslahatchisi etib tayinlanadi.

Xoris Ummaviy xalifalarni islomga rioya etmaslikda ayblab, butun Xuroson va Marv aholisini xiroj va jizyadan ozod qilishni talab etadi. Kesh xalq ommasiga tayanib, u Xurosonning shimoliga yurish qiladi. Uning qo'shini tarkibida Xuttalon shahzodasi Sabil, qarluq yabg'usi va Abu Fotima guruhi ham bor edi. Xalq harakatlardan norozi bo'lgan xalifa Xurosonga yangi noib Osim ibn Abdullohni tayinlaydi. Xoris qo'shinlari Xurosonning katta qismini egallab, Osimni chekinishga majbur etishadi. 735-yilga kelibgina xalifa yangi noib Asad ibn Abdullohni Xuroson valiyasi etib tayinlab, katta kuch bilan Xorisga qarshi kurash boshlaydi. 736–737-yillarda Asadning qo'shini Xurosondan Xorisni siqib chiqarishga muvaffaq bo'ladi. Qo'zg'olonchilarning ijtimoiy tarkibi ham, talablari ham turlicha edi. Qo'zg'olonlarda aholining deyarli hamma tabaqalari qatnashadi.

Albatta, hukmdorlar o'rtasida o'zaro nizolar, xiyonatkorona harakatlar, qurol-yarog'ning yetishmasligi, yaxshi uyushmaganlik va boshqalar o'zining ta'sirini ko'rsatadi. Shunday bo'lsa ham qo'zg'olonchilar izsiz qolmay, xalifalik siyosiy harakatida o'zining aksini topdi.

Ulkan xalifalikni 661-yildan boshlab Umaviylar sulolasi boshqarib kelar edi. Bu sulola davrida juda ko'p siyosiy o'zgarishlar, diniy mazhablar, guruhlarining kuchayishi, boshqarishdagi nomutanosiblik, mustamlakachilik siyosati, zo'ravonlik, adolatsizlikning avj olishi ro'y berdiki, bu narsa sulolaning keyingi davrida uning faoliyatini qiyin ahvolga solib qo'ydi. O'rta Osiyoda va boshqa xalifalik yerlarida xalifalikka qarshi norozilik kayfiyatlari kuchli edi. Ularning soliq siyosatidan, zo'ravonligidan quyi tabaqalar, o'z huquqlarining kam-

silganidan esa yuqori tabaqalar norozi edi. Umaviylarning hokimiyatini arab aholisi ham qo'llamasdi. Ularning hokimiyatga kelishini turli guruhlar, muxolifat kuchlari noqonuniy deb bilishar edi. Avvalo xorijiyalar ularga qarshi bo'lib, xalifalik taxtining merosiy bo'lishini noto'g'ri deb baholashardi.

718-yildan boshlab maxfiy tarzda payg'ambar (s.a.v.)ning amakilari Abbasning tarafdorlari o'z g'oyalarini targ'ib qila boshlashadi. Ular hoshimiylar urug'i (payg'ambar shu urug'dan) vakillari hokimiyatga da'vogardirlar, deb hisoblashardi. Keyinchalik ular o'z kurashlarida shialar bilan birga harakat qila boshlashadi.

Yerga egalik munosabatlarning rivojlanishi, ijtimoiy-siyosiy vaziyatning o'zgarishi ummaviylarning siyosiy sahnadan ketishlarini, ularning avvalgi mavqeyi tugaganligini ko'rsatib turardi. Umaviylar siyosatidan ommaviy norozilik, ayniqsa Marvon II (744–750-y.) hukmronlik davrida kuchayib ketdi. Marvon II ning xiroj solig'i miqdorini ko'paytirish va mahalliy xalqlar vakillarini og'ir qurilish ishlariga keng jalb qilishi norozilikning alanganishiga olib keldi. Movarounnahr va Xurosonda Abbosiylar vakillari katta yer egalari o'zlari tomonga jalb qilishga harakat qiladilar. Abbosiylar vakillari xalifa Xishom (724–743-yy.) davridayoq O'rta Osiyoda harakat qila boshlashgandi. Ularning targ'ibotchilari ta'qib ostiga olinar, ular qo'lga tushgudek bo'lsa, qo'l-oyoqlari kesilardi. Ayniqsa, Nasr ibn Sayyor abbosiylar va shialarning katta dushmani bo'lib, ularni doimo ta'qib etib kelardi. Abbosiylarning hokimiyat tepasiga kelishida Abu Muslim va uning harakati muhim ahamiyat kasb etdi. 746-yil Abu Muslim abbosiylar targ'ibotiga boshchilik qilish uchun Xurosonga yuboriladi. Abu Muslimga «Payg'ambar xonadonining ishonchli vakili» degan unvon beriladi.

O'z tashviqotini Abu Muslim Xuroson zodagonlariga murojaat etish bilan boshlaydi. U Marv shahridan uch farsax g'arbda Xarkon arig'i sohilidagi Safizanj qishlog'ini o'ziga qarorgoh qilib oladi. Abbosiylarning ramziy rangi va bayrog'i qora rangda edi. Shu sababli Abu Muslim va uning tarafdorlari qora kiyim kiyib yurishadi. Xuroson aho-



lisiga murojaatida u Qur'on va hadislarga amal qilishga, payg'ambar avlodlariga bo'ysunishga chaqiradi. Keyinchalik mahalliy zodagonlar ham uni qo'llab-quvvatlay boshlashadi. Abu Muslim tashviqoti Movarounnahr va Xuroson yerlarida tezlik bilan tarqala borib, uning tarafdorlari soni orta boshlaydi. To'planayotgan otliq va piyodalarga bosh bo'lib, Abu Muslim Moxuvon qal'asiga ko'chib o'tadi. Xuroson noibi Nasr ibn Sayyor Abu Muslimga qarshi arab zodagonlari vakillarini birlashtirishga harakat qiladi. Lekin uning barcha harakatlari zoye ketadi. U Abu Muslimga yurak yutib kurash boshlashga qurbi yetmay, 748-yilda Xuroson poytaxti Marvni tashlab chiqib, Nishopurga yo'l oladi. Nishopurda unga Abu Muslimning sarkardalaridan biri qaqshatqich zarba berib, uni mag'lubiyatga uchratadi.

749-yili Abu Muslim qo'shini xalifalikning markaziy viloyatlariga yurish qiladi. Iroq va Jazoirda Umaviylarga hal qiluvchi zarba beriladi. Qo'zg'olonchilar poytaxt Damashqni ham qo'lga kiritishadi. Xalifa Marvon II taxtdan ag'dariladi. Abbosiylardan bo'lgan Abulabbos Saffoh (749–754-yy.) xalifalik taxtiga o'tiradi. Joylarda Umaviylarning barcha vakillari qirib tashlanadi. Shunday qilib, arab xalifaligi hokimiyati Abbosiylar qo'lga o'tadi.

751-yili Buxoro shahrida Shorik ibn Shayhulmahriy boshchiligidagi qo'zg'olon ko'tariladi. Qo'zg'olonchilar shialik talablarini ilgari surib, Ali avlodidan xalifa tayinlash shiorini ko'tarib chiqishadi. Abu Muslim qo'zg'olonni bostirishda Ziyod ibn Solih boshchiligidagi 10.000 kishilik qo'shin yuboradi. Bu qo'zg'olon faqatgina Buxorxudot Qutayba ibn Tug'shodning yordami bilangina bostiriladi.

Abu Muslim O'rta Osiyoning shimoliga kirib kelgan Xitoy imperatorining qo'shiniga ham hal qiluvchi zarba beradi. 751-yil Talas vodiysidagi xitoyliklar bilan bo'lgan jangdan so'ng Xitoy qo'shini haydab chiqariladi. Shu bilan xalifalikning shimoliy chegarasi ham mustahkamlanib, qat'iy chegara o'rnatiladi. Xalifalikning ta'siri butun O'rta Osiyo hududida asosiy va qonuniy bo'lib qoladi. Garchi Abu Muslim sadoqat ila xizmat qilsa-da, arab hokimiyati unga ishonmas edi. Xalifa unga jangga yuborish haqida noma yo'llab, uni

markazga kelishga majbur qiladi. 755-yil haj safaridan qaytayotgan Abu Muslim xalifa tomonidan xiyonatkorona tarzda Bag'dodda o'ldiriladi. Uning o'limi xalq ommasining umumiy noroziligiga sabab bo'ladi. Uning murdasi Samarqandga olib kelinib, Xo'ja Temim Ansoriy maqbarasi yoniga katta hurmat bilan ko'miladi.

Abbosiy xalifalar davrida xalq ommasining ahvoli yanada og'irlashdi. Sug'orilmaydigan yerlardan hosilning yarmi, sug'oriladigan yerlarning 1/3 qismidan soliq olinadigan bo'ldi. Ko'p hollarda soliqlar bir marotaba o'rniga ikki marotaba ham olina boshladi. Ozod jamoalarning huquqlari cheklab qo'yildi. Yerlar zodagonlar tomonidan ijarador dehqon – kadivarlarga bo'lib beriladigan bo'ldi. Hamma hashar, qurilish ishlarida aholi tekin ishlab berishi lozim edi. Shahar hunarmandlarining ahvoli ham og'ir bo'lib, ular o'z mahsulotlaridan katta soliq to'lashardi. Shuningdek, og'ir soliqlar ko'chmanchi chorvadorlar bo'yniga ham qo'yilar edi.

Shunday bir ahvolda xalq harakatlari kuchayib ketadi. Abu Muslimning o'chini olish shiori ostida uning safdoshi Sumbod boshchiligidagi qo'zg'olon ko'tariladi. 755-yilda ko'tarilgan bu qo'zg'olon tez orada Xuroson va Tabaristonga ham yoyiladi. 70 kun davom etgan bu qo'zg'olon qattiqqo'llik bilan bostirilib, Sumbod Rayda qatl etiladi. Garchi u qatl etilsa-da, Abu Muslim tarafdorlari yashirin «muslimiya» guruhiga asos solishadi.

VIII asrning 70–80-yillarida Movarounnahrda juda ulkan xalq qo'zg'oloni ko'tariladi. Qo'zg'olonchilar oq rangdagi kiyim kiyganligi uchun tarixda u «oq kiyimlilar» qo'zg'oloni deb ham shuhrat qozonadi. Bu qo'zg'olonning rahbari Muqanna (boshi va yuziga yoping'ich tashlab yurgani uchun unga shunday laqab berilgan) edi.

«Muqanna Marv atrofi aholisidan, – deyiladi Narshaxiyning «Buxoro tarixi» nomli asarida, – Koza deb atalgan qishloqdan bo'lib, asl nomi Hoshim ibn Hakim edi. U ilgari kudungar (kigiz bosuvchi)lik qilardi, keyin ilm o'rganishga mashg'ul bo'ladi va har xil ilmlarni: ko'zbo'yamachilik, sehr va tilsim ilmlarini o'rganadi. Ko'zbo'yamachilikni yaxshi bilib olib, payg'ambarlik da'vosini ham



qiladi. Muqanna ko'zbo'yamachilikni o'rgangan va g'oyatda ziyrak bo'lib, qadimgi olimlar ilmlariga oid ko'p kitoblarni o'qigan va jodugarlikda ustoz bo'lgan edi. Uning otasini nomi Hakim, u Abu Ja'far davridagi Xuroson amiri lashkarboshilaridan bo'lib, asli Balxdan edi».

Qo'zg'olon 769-yili boshlanadi. Muqanna o'zining 36 ta muridi bilan Amudaryodan o'tib, Kesh viloyatiga yo'l oladi. Buxorxudot Tug'shod uni qo'llab-quvvatlay boshlaydi. Muqanna Kesh yaqinidagi Som (Sanam) qal'asini o'ziga qarorgoh qilib oladi. Butun Qashqadaryo vohasi qo'zg'olonchilar qo'liga o'tadi. Muqanna ta'limoti umumiy mulkiy tenglik va arablarni O'rta Osiyodan haydab chiqarish g'oyalarini targ'ib etardi.

Muqanna ta'limoti Sug'd, Iloq (Ohangaron), Shoshda ham yoyila boshladi. Qo'zg'olonlarda turli ijtimoiy guruhlar vakillari qatnashib, ularni bir fikr – istilochilarni mamlakatdan haydab chiqarish, mustaqil davlat barpo qilish g'oyasi birlashtirib turar edi.

Qo'zg'olonga zarba berish uchun xalifa Abu Ja'far 776-yilda Jabroil ibn Yahyo boshliq katta harbiy kuchni Movarounnahrda yuboradi. Biroq Jabroil qo'zg'olonchilardan yengiladi. U katta talofatlar berib, zo'rg'a Samarqandga yetib keladi. 10 000 askar bilan Jabroilga yordamga yuborilgan Uqba ibn Salim Kesh va Samarqand oralig'ida, G'ariga boshliq 14 000 kishilik qo'shin Termiz yaqinida qo'zg'olonchilar tomonidan tor-mor keltiriladi. Natijada Chag'oniyon qo'zg'olonchilar qo'liga o'tadi.

Qo'zg'olon markazi Narshaxda, Buxoro atrofida joylashadi. Shu yili Narshax yaqinida Buxoro hokimi Husayn ibn Muvoz va Samarqand noibi Jabroilning birlashgan qo'shini o'rtasida to'rt oy jang bo'ladi. «Oq kiyimlilar» bu jangda qo'llari avval ustun keladi, keyinchalik son jihatdan ko'p bo'lgan arablar Narshax qal'asi devor ostidan uzunligi 50 gazli chuqur qazib, uni qulatib qal'aga kiradilar. Narshax qal'asi arablar tomonidan egallanadi. Kesh va Samarqand endilikda qo'zg'olonning asosiy markazlariga aylanib qoladi.

Kurashning oxirgi bosqichi Kesh vohasi (Qashqadaryo)da juda avj oladi. Muqanna qarorgohi bo'lgan Som (Sanam) qal'asini qamal

qilish Xaroshiyga topshiriladi. Uzoq vaqt qamaldan so'ng muqannochilar taslim bo'lishadi (VIII asr 80-yillari boshlarida).

O'z davrining eng qudratli davlati bo'lgan xalifalikni larzaga solgan Muqanna boshchiligidagi qo'zg'olon shu tariqa tugaydi. Bu qo'zg'olonning yengilishiga bir necha sabablar bor edi. Avvalo, qo'zg'olonchilar uyushqoqlik bilan harakat qila olmadilar. Mahalliy zodagonlar alohida guruhni tashkil etib, keyinchalik umumiy xiyonat yo'lga kirib arablar tomoniga o'tib ketadilar. Muqannaning o'zi Som (Sanam) qal'asida bo'lib, bevosita qo'zg'olonga rahbarlik qila olmaydi. Uning o'zi umumiy tenglik g'oyasini ko'tarib chiqib, o'zi kichik davlat boshlig'iga aylana boradi.

O'zaro urushlar natijasida aholi juda charchaydi, ekinzorlar payxon qilinadi, iqtisodiy tanazzul boshlanadi. Muqannadan so'ng uning safdoshlari harakati ham bo'lib o'tadi. Bu qo'zg'olon xalifalik kuchini zaiflashtiradi va boshqa o'lkalarda ham ozodlik harakatlarini chiqishiga turtki bo'ladi.

Masalaning yana bir jihati shundaki, islom dinining ko'p tomonlama afzalligi, axloq va intizom nuqtayi nazaridan ommaviyligi xususiyati arablar bosib olgan mamlakatlar aholisi tomonidan uni tez orada qabul etilishiga sabab bo'ladi. Qutayba singari uni pul va qilich bilan joriy etish mumkin emas edi. Qachonki, islom mohiyatiga yetilgachgina unga rag'bat va e'tiqod kuchayib ketadi. O'liq-soliq, maishiy hayot bobida, zakot masalasida Qur'on va shariat ahkomlarining qoidalari mehnatkash aholi tomonidan tezda qabul qilindi. Alloh oldidagi tenglik esa dinning ahamiyatini kuchaytirar edi. Islomning xalqparvarlik ruhi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. Zero, islom dini ma'naviy bo'shliqni tugatdi. Diyorimizda ota-bobolarimiz dini – islom faqatgina mustaqillik sharofati bilan qayta tiklandi.

Mustaqillik yillarida Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom al-Moturidiy, Burhoniddin al-Marg'inoniy, Abdulxoliq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshband va boshqalarning tavallud yoshlarining keng miqyosda nishonlanishi, ularning oxirgi manzilgohlarini obod qilib, ziyoratgohlarga aylantirilishi, diniy bayramlarimiz, an'analarimiz,



qadriyatlarimizning tiklanishi, dindorlarga o'z e'tiqod huquqlarining qaytarib berilishi, qator masjid-madrasalarning, xalqaro islom tadqiqot markazi, Islom universiteti, Islom akademiyasining ochilishlari va boshqa xayrli, savobli tadbirlar musulmon olamining bir qismi bo'lgan O'zbekistonda haqiqatda muqaddas islom diniga qanchalik ehtirom bilan qaralayotganligining yorqin isbotidir.


**Ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Soliq siyosati.** Arablar O'rta Osiyoni bosib olgach, bu hududdagi hamma shahar va aholi joylarida o'z qo'shinlarini joylashtirishdi. Bu harbiy kuchlar o'z vaqtida mahalliy aholi ustidan nazorat qilib turardi. Arab xalifaligi tasarrufiga o'tgan Movarounnahr hududida ko'pgina yirik yer egalari – dehqonlarning mavqeyi avvalgi holaticha saqlanib qoldi. Ular siyosiy jihatdan xalifa va uning noibiga bo'ysunar edilar.

Butun VIII asr davomida arab zodagonlarining dehqonlar bilan til topishuv hollari kuchayadi va aynan mana shu davrda yirik dehqon urug'-aymoqlari qo'li ostidagi yer-mulklarning yuqori arab harbiy mulkdoriga o'tishi ro'y beradi. Arab qo'shini tarkibiga mahalliy aholi ichidan ko'plab erkaklar majburan safarbar qilindi. Harbiy harakatlarning natijasida aholining bir qismi halok bo'ldi, bir qismi asirga olindi. Barcha shahar va qishloqlarda o'z harbiy garnizonlarini joylashtirgan arablar, shu harbiy kuchlarga tayanib aholidan turli soliqlar undirishar, ularni turli jamoa ishlariga safarbar qilishar edi.

Yirik yer egalari o'rtasidagi ziddiyat va qarama-qarshilik arablarning aralashuviga sabab bo'lar yoki mulkning bir shaxsdan ikkinchisiga o'tishini ta'minlar edi. O'rta asr mualliflari ma'lumotlariga ko'ra, dehqonlar qo'li ostida qishloq jamoalari bo'lib, bu jamoadan yer olgan kishilar xiroj to'lashgan. Dehqonlar mustaqil qo'rg'onlarda hayot kechirib, ularning yaxshi qurollangan harbiy bo'linmalari bo'lgan. Bunday bo'linmalarning askarlari chokarlar deb atalgan. Dehqonlar xalifa noibining mahalliy aholi orasidan bo'lgan vakiliga bo'ysunadi. Mehnatkash aholi, asosan kadivarlar, kashovarlar hamda qullar dehqonlarda mavjud bo'lgan yer-mulklarning ma'lum ulushini ijaraga olib ishlashgan va buning evaziga soliq to'lashgan.

Dehqonlar orasida yer-mulk, shaxsiy uy-joy va qo'rg'onlar masalasida nizo va janjallar chiqib qolsa, muammoni xalifa hal qilgan. Har bir huquqiy muammo islom qonun-qoidalariga binoan ko'rib chiqilgan.

### Arab xalifaligi davlat boshqaruvi



VIII asr o'rtalariga kelib Movarounnahr hududida siyosiy boshqaruv arab xalifaligi siyosiy tizimiga moslashtirilgan edi. Viloyatlardagi hokimlar va boshqa hukmdorlarning qo'li ostidagi ma'muriy-idora usuli o'z shaklini saqlab qolgan bo'lishiga qaramay, hokimlarning xalifa noibiga itoat etishlari shart edi. Mahalliy davlat boshliqlarining ko'pchiligi o'z huquqlari va imtiyozlarini saqlab qolish maqsadida islom dinini qabul qilgan edilar. Islom dinini qabul qilmagan zodagonlar o'z mol-mulklaridan mahrum etilar yoki katta miqdorda tovon to'lashardi.

Arablar iqtisodiy hayotni o'z qo'llaridan chiqarmaslik maqsadida bosib olingan hududlarda sosoniylar tartibidagi soliq tizimini joriy qilishdi. Bular asosan quyidagilar edi:

1. Qavonin yoki mukati'a – mayda viloyatlar va tumanlardan xazinaga tushib turgan yig'in.
2. Maqosima – hosilning ma'lum ulushi miqdorida to'langan. Uning hajmi sug'orishga bog'liq holda belgilangan.



3. Misoxa – yer hajmiga qarab miqdori belgilanadigan soliq bo‘lib, unda ekin ekilishi yoki ekilmasligiga e‘tibor berilmagan.

Bu soliq tizimiga yer solig‘i – xiroj (hosilning o‘ndan bir yoki o‘ndan ikki qismi miqdorida), chorva, hunarmandchilik, savdo-sotiqdan zakot (qirqdan bir miqdorda) hamda islomni qabul qilmagan shaxslardan olinadigan – jizya solig‘i ham qo‘shilgan.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda ta‘kidlanishicha, arablarning O‘rta Osiyoni bosib olingan hududlarini boshqarish markazi Marv shahri bo‘lib, bu yerdan turib xalifaning noibi Movarounnahr hamda Xurosonni idora qilgan. Yuqorida ta‘kidlanganidek, VIII asrning o‘rtalari va oxirlariga kelib Movarounnahr va Xuroson hududlarida siyosiy boshqaruv arab xalifaligi siyosiy tizimiga moslashtirib bo‘lingan edi. Bu davrda Movarounnahrda Sug‘d, Shosh, Farg‘ona, Xorazm, Ustrushona, Toxariston kabilardagi mahalliy hokimlar zimmasiga aholidan belgilangan soliqlarni yig‘ish, ma‘muriy boshqaruvni amalga oshirish asosida islom dini g‘oyalari aholi o‘rtasida yoyish asosiy vazifa qilib belgilangan edi. Mahalliy hokimlar faoliyati xalifa tomonidan tayinlanadigan maxsus amirlar tomonidan katta nazorat ostiga olingan bo‘lib, bundan tashqari ular xalifaning Xurosondagi noibiga itoat etishi shart bo‘lgan.

Arablar istilosidan keyin Movarounnahrda musulmon qonunchilik tizimi ham joriy etildi. Islom huquqshunosligining asosini tashkil etuvchi shariat muqaddas kitob – Qur‘oni karim va Hadisi sharifga hamda fiqhshunos olimlarning turli savollarga javoblari va qarorlariga tayanar edi. Masalaning yana bir tomoni shundaki, Islom dinining ko‘p jihatdan afzalligi, axloq va intizom nuqtayi nazaridan omma-viyiligi xususiyati arablar bosib olgan mamlakatlar aholisi tomonidan uning tez orada qabul etilishiga sabab bo‘ladi.

#### *Tayanch so‘zlar*

Kidariylar, xioniylar, eftaliylar, ichki va tashqi kurashlar, Kidar, Piro, «oq xunlar», Prokopiy Kesarskiy, tegin, xoqon, Lazar Parbskiy,

massagetlarning yetakchi urug‘i, «Madinat-at-tujjor», qal‘ali istehkomlar. Devori qiyomat, Kampirak, Rivdad, Kushoniya, Arqud, «kamoni chochiy», ma‘muriy markaz, Zaxariq, Darg‘om, «kadivar»lar, shahanshoh Pero‘z, xalqaro savdo, buddaviylik, xristianlik, moniylik, yepiskoplik, metropoliya, turk el, turkash, tukyu, tuqduq, qabila boshlig‘i Abanbu, Asan, Asyan-shod, Tuu, Bumin, xoqonlar, Katta Xingan tog‘lari, siyosiy va madaniy meros, kishkiyalik Zemarx, Bahrom Chubin. Arslon To‘ba, G‘arbiy Turk xoqonligi, So‘yob, yabg‘ular, tudunlar, To‘n yabg‘u, «o‘n o‘q eli», «shod», ixshid, ixrid, afshin, budun, tegin, elxon, el, «qora budun», malikshoh, «daryoning ortidagi yerlar», Qutayba ibn Muslim, Tarxun, G‘urak, Divashtich, Sharik ibn Shayxulmayr, Ali avlodlari, Devon ad-dar, qavonin, maqosima, misoxa, xiroj, jizya.

#### *Savol va topshiriqlar*

1. Kidariylar, xioniylar va eftaliylarning siyosiy hamda etnik tarixi haqida so‘zlab bering.
2. Eftaliylarning ijtimoiy-iqtisodiy tarixi haqida nimalarni bilasiz?
3. Eftaliylar davri madaniy hayot haqida ma‘lumot bering.
4. Turk xoqonligining siyosiy tarixini so‘zlab bering.
5. G‘arbiy Turk xoqonligi haqida nimalarni bilasiz?
6. Turk xoqonligidagi davlat boshqaruvi haqida gapirib bering.
7. Xoqonlikdagi madaniy hayot, hunarmandchilik, savdo-sotiq qanday kechgan?
8. Arab xalifaligi siyosiy tarixini gapirib bering.
9. Qanday sabablarga ko‘ra arablar qisqa muddatda Movarounnahr yerlarini bosib olgan edilar?
10. Arablarning davlat boshqaruvi va soliq siyosati haqida nimalarni bilasiz?

#### *11-mavzu bo‘yicha foydalanilgan adabiyotlar*

1. *Abulg‘ozi*. Shajarai Turk. – Toshkent: «Cho‘lpon», 1990.
2. *Azamat Ziyo*. O‘zbek davlatchiligi tarixi. – Toshkent: «Sharq», 2000.



3. *Annayev T., Shaydullayev Sh.* Surxondaryo tarixidan lavhalar. – Toshkent: «O‘zbekiston», 1997.
4. *Беленицкий А.М., Бентович И.Б., Большаков О.Г.* Средневековый город Средней Азии. – Л.: «Наука», 1973.
5. *Gumilyov L.N.* Qadimgi turklar. – Toshkent: «Fan», 2007.
6. *Muhammadjonov A.R.* Qadimgi Buxoro. – Toshkent: «Fan», 1991.
7. *Muhammadjonov A.R.* Qadimgi Toshkent. – Toshkent: «Fan», 1988.
8. *Nasimxon Rahmon.* Turk xoqonligi. – Toshkent, 1993.
9. *Пугаченкова Г.А., Ртвеладзе Э.В.* Северная Бактрия – Тохаристан. – Ташкент: «Фан», 1990.
10. *Sagdullayev A., Aminov B. va boshq.* O‘zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. – Toshkent: «Akademiya», 2000.
11. *Sagdullayev A., Mavlonov O‘.* O‘zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi. O‘quv qo‘llanma. – T.: «Akademiya», 2006.
12. Хорезм в истории государственности Узбекистана. – Ташкент, 2013.
13. O‘zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. Mas’ul muharrirlar D.A. Alimova, E.V. Rtveladze. – Toshkent: «Sharq», 2001.
14. *Шишкин В.А.* Варахша. – Ташкент: «Фан», 1963.
15. *Eshov B.J., Odilov A.A.* O‘zbekiston tarixi. II jild. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2014.
16. History of civilizations of Central Asia. UNESCO publishing. – Paris. 1996.

## 12-MAVZU IX–XII ASRLAR TARIXI

### Reja:

- 12.1. Arab xalifaligining parchalana borishi. Tohiriylar davrida Movarounnahr va Xuroson.
- 12.2. Somoniylar hukmronligi davri.
  - 12.2.1. Ijtimoiy-iqtisodiy hayot.
- 12.3. Qoraxoniylar davlati.
- 12.4. Qoraxoniylar, G‘aznaviylar, Saljuqiylar va Xorazmning siyosiy munosabatlari.
- 12.5. Xorazmshohlar-Anushtaginiylar davlati.

### 12.1. Arab xalifaligining parchalana borishi. Tohiriylar davrida Movarounnahr va Xuroson

Tohiriylar sulolasi tarixi bo‘yicha manbalar orasida Ibn al-Asirning (1160–1234) «Al-komil fit-tarix» kitobi Tohiriylar hukmronligi voqeligini nisbatan batafsil bayoni bilan ajralib turadi. Mazkur manbada ayniqsa Tohiriylarning hukmronligi o‘rnatilishi masalasi bilan bog‘liq voqealar mufassal bayon etilgan. Ibn al-Asir o‘z asarida ko‘p holda at-Tabariyning «Tarixi ar-rusul va al-muluk» asariga tayangan edi. Chunki aynan at-Tabariyning (Abu Ja‘far Muhammad ibn Jarir at-Tabariy) asarida ko‘plab muhim tarixiy voqealar jarayonlari aks etgan. Shuningdek, noma‘lum muallifning «Tarixi Seyiston», Abu Said Gardiziyning «Zayn al-axbor» asarlarida ushbu davr tarixiga oid ma‘lumotlar mavjud.

XX asr tarixshunosligida Tohiriylar hukmronligining u yoki bu jihatlari V. Bartold, S. Len-Pul, R. Fasmer, K. Bosvort asarlarida o‘z aksini topgan. Eron tarixchisi S. Nafisiyning «Tarixi xonadoni Tohi-

riy» (Tehron, 1956) asari shu yoʻnalishdagi tadqiqotlar ichida chuqur koʻlami bilan ajralib turadi.

IX asrga kelib Oʻrta Osiyo, xususan Movarounnahrda arab xalifaligiga qarshi olib borilgan kurashlar natijasida mahalliy sulola vakillarining mustaqillikka boʻlgan intilishlari kuchayib ketdi. Chunonchi, xalifalikning ichki hududlarida ham ziddiyatlar keskinlashib borayotgan edi.

Xususan, Ispaniyadagi Umaviylar, Marokashdagi Idrisiylar, gʻarbiy Jazoirdagi Rustamiylar, Ifrikiya, Sharqiy Jazoirdagi Agʻlabiylar, keyinchalik Misr va Suriyadagi Toʻluniylar oʻzlarini xalifalikdan deyarli mustaqil tuta boshladilar.

Rofe ibn Lays qoʻzgʻolonini bostirish uchun yoʻl olgan xalifa Xorun ar-Rashid 809-yilning mart oyida Xurosonning Tus shahrida vafot etdi. Xalifaning hokimiyatga daʼvogar ikki oʻgʻli boʻlib, katta oʻgʻil Abdulloh 798-yili Xuroson va xalifalik Sharqiy yerlari hokimi etib tayinlangan edi. Abdulloh ona tomonidan kelib chiqishiga koʻra zodagonlarga borib taqalmagan. Shu bois ham xalifa uni kichik oʻgʻli Muhammaddan keyin voris boʻlishini eʼlon qilgan edi. Abdullohga «al-Maʼmun» (arabchasiga «omadli», «iqboli baland») faxrli taxallusi berilgan. Kichik oʻgʻil Muhammadga esa «al-Amin» (arabchasiga «ishonchli», «sadoqatli») taxallusi berilib, u Iroq, Suriya, Magʻrib yerlari bilan chegaradosh yerlarning hokimi etib tayinlangan edi.

Xorun ar-Rashid vafot etgan vaqtda al-Maʼmun Xurosonning markaziy shahri Marvga, sobiq xalifaning buyrugʻiga koʻra yetib kelgan edi. Al-Aminning xalifa sifatida taxtga oʻtirishini (809–813) avvalboshda Maʼmun oldindan berilgan vaʼdaga muvofiq xotirjamlik bilan qabul qildi. Lekin tez orada al-Amin oʻz valiahdi sifatida oʻgʻli Musoni tayinlashi aka-ukalar oʻrtasidagi munosabatlarning keskinlashuviga olib keldi. Tabiiyki, taxtga daʼvogar boʻlgan al-Maʼmun yangi xalifaning bu qarorini qabul qila olmas edi. Garchi al-Amin tarafdorlari ancha boʻlsa ham, uning saʼy-harakatlariga koʻpchilik harbiylar norozilik bildirishdi. Samarqandda qoʻzgʻolon koʻtargan Rofe ibn Lays al-Maʼmunning hokimiyat masalasida avvalboshida

tutgan vazminligini qadrlab, oʻz isyoniga chek qoʻydi hamda undan uzr soʻrab keldi. Al-Maʼmun uni gvardiya boshligʻi etib tayinlaydi. Musoning taxt merosxoʻri etib tayinlanishiga javoban al-Maʼmun al-Aminning nomini barcha rasmiy marosimlardan chiqarib tashlab, u bilan choparlar almashuviga chek qoʻydi. Koʻplab Xuroson va Eron-dagi aslzodalar ham Maʼmunni qoʻllab-quvvatlay boshladilar.

Mahalliy aslzodalar, xalq ommasi noroziligidan xavfsiragan xalifalik Sharqiy hududdagi yerlardagi aholi haq-huquqlarini kengaytirishga majbur boʻla boshladi. Xalifalikda ilk bora mahalliy zodagonlardan boʻlgan asli balxlik Barmakiylar markaziy hokimiyat boshqaruviga jalb etildi. Barmakiylardan boʻlgan Xuroson noibi Fadl ibn Yahyo (794–795-yy.) davrida Xurosonda mahalliy aholi ichidan bir necha yuz mingga yetadigan qoʻshin barpo etilgan. At-Tabariy ham buni oʻz asarida alohida taʼkidlab oʻtgan edi. Asli arab boʻlmagan mahalliy zodagonlarning hokimiyatda katta mavqega ega boʻlib borayotganligini koʻrgan xalifa Xorun ar-Rashid (786–809) bu holdan xavfsiragan holda 803-yil 29-yanvar kuni Barmakiylar xonadonining barcha vakillarini qirib tashlashga buyruq berdi. Lekin xalifalik qancha harakat qilmasin, qadimiy boy madaniyat, oʻtroq turmush tarziga ega boʻlgan Movarounnahr va Xuroson zaminida mahalliy aslzodalarning mavqeyi koʻtarila bordi.

Tarixiy manbalarga asoslangan materiallarning xabariga koʻra, Tohiriylar sulolasining birinchi vakili VII asr 80-yillarida Seyiston hokimi al-Huzayi dargohida xizmatda boʻlgan. Uning avlodlari Musaʼb, Husayn, Tohirlar Hirot viloyatidagi Boʻshang shahrini boshqarishgan.

Kelib chiqishi boʻyicha Hirot yonidagi Boʻshang shahri hokimi boʻlgan Tohir ibn al-Husayn (Tohir ibn al-Husayn ibn Musaʼb ibn Zurayk ibn Asad al-Huzayi) al-Maʼmunni qoʻllagan holda, unga xizmat qilishni boshladi. 811-yili Ray yaqinida Tohir ibn al-Husayn xalifa al-Aminning ishongan sarkardasi ibn Moxon (Ali ibn Iso ibn Moxon) boshchiligidagi qoʻshinni magʻlub etdi. Ibn Moxon zulmidan aziyat chekkan aholi al-Maʼmun qoʻshinlari faoliyatini qoʻllab-



quvvatlashdi. Tohir ibn al-Husayn janglarning birida o'z shijoat va mardligini ko'rsatib, ikki qo'lda qilich bilan jang namunasini namoyon qilgan. Shu bois Tohir «Zul yaminayn» (arabchasiga «ikki qo'llab kurashuvchi») faxriy taxallusiga sazovor bo'lgan. Tohir ibn al-Husayn al-Ma'munga sadoqat bilan xizmat qila borib, 813-yili Bag'dodni egallashga muvaffaq bo'ldi. Al-Amin qo'lga olinib, Tohir ibn al-Husayn o'ziga topshirilgan buyruq asnosida uni qatl etgan. Ibn al-Asirning yozishiga ko'ra, sobiq xalifaning boshi avval minora peshtoqiga ilib qo'yilib, keyinchalik yangi xalifa al-Ma'mun ixtiyoriga, barcha xalifalik rasmiy ashyolari bilan jo'natildi.

Yangi xalifa al-Ma'munni (813–833) barcha qonuniy hukmdor sifatida tan oldi. Al-Ma'mun o'zaro nizolarni bartaraf qilish maqsadida 819-yilga qadar Marvdan turib hukmronlik qildi, u faqatgina 819-yildagina Bag'dodga qaytib keldi. Al-Ma'mun Tohirning xizmatlarini inobatga olgan holda uni Bag'dod shahri hamda al-Jazira (Mesopotamiyaning janubiy qismi) viloyatining hokimi etib tayinladi. Ta'kidlash joizki, Tohir ibn al-Husayn butun xalifalik hayotida katta rol o'ynovchi shaxs bo'lib qoldi. Al-Ma'mun Bag'dodga qaytib kelgach, o'z hokimiyatidan xavfsirab, Tohirni poytaxtdan chetlatishga qaror qildi. Ibn al-Asirning yozishiga ko'ra, xalifa o'ziga sadoqat bilan xizmat qilgan Tohirni inisi al-Aminni bir paytlar o'ldirganligini bahona qilib (holbuki, buni al-Ma'munni o'zi buyurgan edi), qolaversa uni «makkor shaxs» deya atab, 821-yili Xurosonga hokim etib tayinladi. Shu davrda Movarounnahr hududi ham Xuroson tarkibiga kirar edi.

Xurosonga hokim bo'lib kelgan Tohir ibn al-Husayn xalifalik bilan munosabatlarini cheklay boshladi. Juma namozida xalifani oliy hukmdor sifatida tilga ham olmay qo'ydi. Bu holat xalifa hokimiyatini aniq tan olmasligidan dalolat berar edi. Shu tariqa Eron, Xuroson, Movarounnahr va unga tutash yerlarda yangi, Tohiriylar (821–873) sulosasi hukmronligi yuzaga keldi. Xalifalik siyosatidan norozi ko'plab mahalliy zodagonlar yangi sulolani qo'llab-quvvatlay boshladilar. Tohirning olib borayotgan ichki va tashqi siyosati xalifaga,

tabiiyki, maqbul bo'lmadi. 822-yili Tohir ibn al-Husayn o'z yotoqxonasidan o'lik holda topildi. Shubhasiz, uning o'limida xalifaning qo'li bor edi.

Tohirning o'limidan so'ng tez orada uning o'rniga o'g'li Talha ibn Tohir (822–830-yy.) noib etib tayinlandi. Buning sababi shunda ediki, xalifalik aynan mahalliy hukmdorlarning kuchidan arablarga qarshi qo'zg'olonlarni bostirishda foydalanar edi. Xuroson noibining muhim vazifalaridan biri esa, o'ziga qarashli hududlarda viloyat hokimlarini saylash bo'lgan. Xususan, Tohir dastlabki somoniylar vakillarini Samarqand, Ustrushona, Farg'ona va Shoshga hokim qilib tayinlagan.

Talha davrida islomlashtirish bayrog'i ostida ma'lum sa'y-harakatlar amalga oshirildi. Xususan, 822-yili arab sarkardasi Ahmad ibn Abdulhamid boshchiligidagi qo'shin Ustrushonaga yurish qilib, uni butkul bo'ysundirdi.

Talhadan keyin taxtga o'tirgan Abdulloh ibn Tohir (830–844) otasi Tohirning mustaqillik tomon siyosatini davom ettirdi. Bu davrda Xuroson noibligiga Movarounnahr, Xorazm, Seyiston, Ko'histon, Tabariston va Jurjon hududlari kirar edi. Abdulloh davrida turkiy o'g'uz qabilalarga tegishli ba'zi yerlar ham egallandi. Uning farmoyishi bilan ko'chmanchi qabilalar hukmini bartaraf etish, munosib mudofaa tizimini yaratish maqsadida Farova va Dehiston qo'rg'onlari barpo etildi. Har bir viloyat bir necha ma'muriy birliklarga bo'linib, bu birliklar katta va kichik tumanlardan iborat bo'lgan. Abdulloh o'z hokimiyatini mustahkamlash maqsadida ayrim harbiy islohotlar ham o'tkazgan. Tohiriylar yuritgan siyosatning xususiyatlaridan yana biri, ularning islomlashtirish siyosati edi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, Tohiriylar davrida O'rta Osiyoning barcha hududlarida islom dini keng tarqaladi.

Tohiriylar mustahkam hokimiyat yaratish va qishloq xo'jaligini tartibga solish borasida jiddiy chora-tadbirlarni amalga oshirishdi. Ular yangi kanallar bunyod etib, suvdan foydalanishni yaxshilash choralari ko'rdilar. Abdulloh ibn Tohirning (830–844) buyrug'i bi-

lan o'lkadagi yirik qonunshunoslar sug'orish uchun foydalaniladigan suv taqsimoti qonunlari to'plami – «Kitob al-kuniy»ni tuzishdi. Ushbu qonunlar yuz yillar mobaynida Movarounnahrda suvdan foydalanishdagi bahs-munozaralarni hal etishda asos bo'lib xizmat qilgan.

Tohiriylar ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining mohiyati asosan aholining hukmron tabaqalarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan edi. Misol uchun, Tohir ibn al-Husaynning bizga qadar saqlangan va o'g'li Abdullohga yozgan vasiyat xatida shunday deyiladi: «Shuni bilginki, boylik ko'payib xazina to'lib-toshganda ham u daromad keltirmaydi. U fuqaro zarurati, ular haq-huquqlarini ado etishga, ularni tashvish va qarzlardan ozod etish uchun sarflangan taqdirdagina ko'payadi, ortib boradi; bu bilan xalq ommasining e'tibori qozoniladi; shu bilan xalq farovonligi ta'minlansa, bu hokimlarga zeb beradi, davroning emin-erkinligi shu bo'ladi, shuhrat va qudrat bag'ishlaydi; Shu bilan birga, agar shunday ish yuritsang, yer solig'ini katta miqdorda undirish imkoniyatiga ega bo'lasan va boyliging oshadi. Bu bilan sen xalq ommasiga saxovat qo'lini ochsang, boyliging ortadi, kuch-qudrat egasi bo'lasan, qo'shin saqlaysan va hammani o'zingga maftun etasan». Tohir o'z o'g'lini mana shunday siyosat yurgizishga chaqiradi, Abdulloh ibn Tohir ko'p holda otasining maslahatlariga amal qilgan.

O'z davrida Abdulloh yirik yer egalari va davlat amaldorlari tomonidan ayrim yerlardagi ziroatkorlarga nisbatan bo'layotgan nohaqliklarni cheklashga harakat qildi. U ziroatkorlarning ahvolini bir-muncha tartibga soluvchi maxsus farmon e'lon qildi. Manbalarning guvohlik berishicha, bu farmonda jumladan shunday deyiladi: «Alloh bizni ularning qo'li bilan boqadi, bizni ularni og'zi bilan olqishlaydi va ularga ozor berishni taqiqlaydi». Albatta, bu bilan Abdulloh butunlay ziroatkor-dehqonlarning manfaatlarini himoya qiluvchi hukmdor bo'lgan, deb bo'lmaydi. U «dehqonlarga ozor bermaslikni» talab qilishiga sabab, tabiiyki, busiz davlat xazinasiga yetarli soliqlar kelib tushmas edi.

Ahvolni yaxshilash uchun ayrim harakatlar qilingan bo'lishiga qaramay, Tohiriylar davrida aholi ko'pgina qatlamlarining, ayniqsa,

ziroatkor-dehqonlarning ahvoli og'ir bo'lib qolaverdi. Misol uchun, 844-yilda Abdulloh ibn Tohir ziroatkor-dehqonlardan olingan xirojdandan katta miqdordagi mablag' to'plagan edi. Soliqlarning ko'pligi aholining qo'zg'olon ko'tarishiga olib kelgan.

Manbalarda Tohiriylarning islomlashtirish siyosatida qat'iyat bilan turganliklari qayd etiladi. Ular huquqiy munosabatlarni islom peshvolariga tayangan holda rivojlantirishgan. Shuning uchun ham Tohiriylar islom dinini xalq orasida keng yoyish siyosatini davom ettirib, islom ruhoniylarini asosiy tayanch deb bilishgan. Talha ibn Tohir davrida zardushtiylik dini saqlanib qolgan Ustrushonada ham islom dini qabul qildirilgan.

Mustahkam tartibot saqlanishini xohlagan Abdulloh ibn Tohir o'ziga qarshi har qanday harakat yoki qo'zg'olonning oldini olishning eng muhim usuli – soliq yig'uvchilarning suiiste'molliklariga yo'l qo'ymaslikda deb hisoblar edi. U turli soliqlarning miqdorini kamaytirmagan bo'lsa-da, soliqlar yig'ishda turli jinoiy ishga yo'l urganlarni jazolar edi. Amal va mansab egalarining o'zboshimchaligini oldini olish va davlat xazinasiga ziyon yetkazmaslik maqsadida Abdulloh o'z qo'l ostidagi o'ziga sodiq kishilar orasidan ayg'oqchilar tanlab, ularning xizmatidan foydalangan edi. Bunday maxfiy shaxslar joylarda hukmdorlarning yurish-turishi, har bir mansabdorning Abdulloh oldidagi majburiyatlarini qay darajada bajarishlari xususida noibga xabar yetkazib turishgan. Uning davrida poytaxt Marvdan Nishopurga ko'chirildi.

Tohiriylar davlati ko'p sonli bilimdon amaldorlarga muhtoj edi. Shu bois Abdulloh ibn Tohir aholining barcha qatlamlari ma'lumot olishini ta'minlashga harakat qildi. Manbalarning ma'lumot berishicha, Abdulloh otasi Tohir singari shoir ham bo'lgan. Abdullohning Marv, Amul va Xorazmni boshqarib turgan jiyani Mansur o'zining falsafiy asarlari bilan mashhur bo'lgan. Ta'kidlash joizki, Abdullohning o'g'li Tohir II (844–862) ham otasidan o'rnak olishga harakat qilgan.

Umuman, Abdulloh va Tohir II hukmronliklari davri mahalliy madaniyatning qayta tiklanish davri bo'ldi. Ammo bu murakkab va



qiyin jarayon edi. Gap shundaki, Tohiriylar sulolasi vakillarining o'zlari, xususan, Abdulloh ibn Tohir o'zining arab madaniyatiga xayrixohligini ta'kidlar edi. Shunga qaramasdan, bizga qadar yetib kelgan ayrim yozma manbalar va moddiy ashyolar mahalliy madaniyat rivojidan dalolat beradi.

### **Tohiriylar**

**(821–873-yy.)**

Tohir I ibn al-Husayn

(821–822-yy.)

Talha ibn Tohir

(822–828/830-yy.)

Abdulloh ibn Tohir

(828/830–844-yy.)

Tohir II ibn Abdulloh

(844–862-yy.)

Muhammad ibn Tohir

(862–873)

IX–X asrning boshlariga kelib ilgarigi davrlarda bo'lgani kabi, O'rta Osiyo dehqonchilik vohalaridagi davlat hokimiyatining asosiy vazifalaridan biri – ko'chmanchilar hujumlaridan himoyalaniş edi. Aynan mana shu maqsadda bu davrda qurolli ko'ngillilarning maxsus guruhlari, din uchun kurashuvchilar – g'oziyar guruhlari tuziladi. G'oziyar guruhlarining asosiy qismini kasodga uchragan dehqonlar va hunarmandlar tashkil etar edi.

Mahalliy hukmdorlar dehqonchilik vohalari chegaralarini dasht chegaralaridan himoya qilish uchun g'oziyar guruhlaridan foydalana boshlashadi. Arab mualliflarining ma'lumot berishlaricha, g'oziyar «mahalliy hukmdorlar uchun bir vaqtning o'zida ham tayanch, ham notinchlik sababi»ga aylana boshlaydi. Chunki, bir tomondan, ular ko'chmanchilarning hujumlariga qarshi turib, dehqonchilik vohalarini ularning hujumlaridan saqlab tursa, ikkinchi tomondan, ko'p

hollarda mahalliy zodagonlarga qarshi xalq harakatlarining faol ishtirokchilari edilar.

IX asrning 70-yillarida g'oziyar guruhlarining qurollangan guruhlari O'rta Osiyo va Eron chegaralaridagi xalq harakatining asosini tashkil etardi. Bu xalq harakatlaridan hunarmand misgar (saffor) aka-uka Yoqub va Amr ibn Layslar (Safforiylar) o'z niyatlarini amalga oshirish uchun foydalanishadi. Avvalboshda Safforiylar kichik bir qaroqchilar guruhini tuzishadi va keyinroq, Seyistondagi g'oziyar guruhlariga qo'shilishadi. Lashkarboshilik qobiliyatiga ega bo'lgan Yoqub ibn Lays tez orada g'oziyar guruhlarining boshlig'iga aylanadi. Yoqub boshchiligidagi g'oziyar guruhi Seyistondagi siyosiy hayotga faol aralasha boshlaydi va xalq harakatlaridan foydalanib, 861-yilda Seyistonning markazi Zaranj shahrini egallaydi.

Shu tariqa Yoqub Seyistonning hokimi bo'lib oldi hamda 10 yil davomida Tohiriylarning so'nggi hukmdori Muhammad ibn Tohir (862–873) egallab turgan xalifalikning Sharqiy viloyatlarini undan tortib ola boshlaydi. 873-yilda Yoqub Tohiriylar qo'shinlarini tormor etib, Xurosonning poytaxti Nishopur shahrini egallaydi. Shu bilan Movarounnahr va Xurosondagi Tohiriylar hukmronligiga barham berildi. Garchi 885-yili Muhammad ibn Tohir yana Xuroson noibi etib tayinlangan bo'lsa-da, lekin endilikda uning o'zi somoniylarga qaram bo'lib qoladi. U X asr boshlarida vafot etadi.

Bag'doddagi xalifalik hokimiyati Yoqubning muvaffaqiyatlaridan anchagina xavotirga tushib, unga qarshi bir qator choralar ko'rgan bo'lsa-da, bu harakatlar natijasiz tugadi. 874-yilda xalifa bo'lib o'tgan voqealarni tan olib, Yoqubni Xuroson va Movarounnahr noib etib tayinlashga majbur bo'ladi. Garchi Yoqubga Movarounnahr yerlari ham topshirilgan bo'lsa-da, amalda uning hukmronligi Amudaryodan shimolga o'tmadi. Yoqub ibn Laysning diniy ayirmachi g'oyalari ko'p holda xalifaga ma'qul kelmas edi. Qolaversa, Yoqub o'z yerlarini xalifalik hududi hisobiga ham kengaytirmoqchi bo'ladi. Bu esa o'zaro ixtilofni kuchaytirib yuboradi.

876-yilda Yoqub ibn Lays xalifa hokimiyatini egallash maqsadida Bag‘dodga qo‘shin tortadi. Bag‘doddan 100 km uzoqlikdagi Dar al-Akul degan joyda Yoqub va xalifa qo‘shinlari to‘qnashib, Yoqub mag‘lubiyatga uchraydi. Ushbu muvaffaqiyatsiz yurishdan so‘ng uch yil o‘tgach, Yoqub ibn Lays vafot etadi va uning o‘rnini ukasi Amr ibn Lays (879–900) egallaydi. Amr ibn Lays xalifaga o‘z vassalligini bildirganidan so‘ng, Movarounnahr va Xurosonni boshqarish huquqini beruvchi yorliq oladi. Ammo Tohiriylarda bo‘lgani kabi Safforiylar ham amalda xalifalikdan mustaqil siyosat olib borishgan.

Safforiylar asosan mayda va o‘rtahol yer egalariga suyangan holda davlatni idora qilishdi. Ular xalqdan olinadigan soliq miqdorini ancha kuchaytirib yuborishdi. Shuning uchun ham keng xalq omma-si ularni qo‘llab-quvvatlamadi. Safforiylar diniy-ma‘naviy hayotda aksariyat ayirmachilik yo‘lini olib borishdi. Safforiylarning diniy ayirmachi siyosati aholi orasida haqli norozilikka sabab bo‘lgan. IX asrning ikkinchi yarmidan boshlab esa Somoniylar sulolasi tarix sahnasida paydo bo‘ldi. 900-yilda Amr ibn Lays qo‘shinlari Somoniylardan mag‘lubiyatga uchradi hamda shu tariqa Safforiylar hukmronligiga chek qo‘yildi.

## 12.2. Somoniylar hukmronligi davri

Somoniylar sulolasi va davlati tarixiga oid manbalar orasida Abu Bakr Muhammad Narshaxiyning (959-y. vafoti) «Tarixi Buxoro», Abu Ja‘far Muhammad Jarir at-Tabariyning (839–923) «Tarix ar-rasul val muluk» («Payg‘ambarlar va podshohlar tarixi»), Ibn al-Asirning (1160–1234) «Al komil fit tarix» («Mufassal tarix») kabi asarlari yuqori darajada o‘rin tutadi. Shuningdek, IX–X asrlar tarixi bo‘yicha XI asr tarixchisi Abu Said Gardiziyning «Zayn ul axbor», Hamidulloh Qazviniyning (XIII–XIV asrlar) «Tarixi guzida» nomli asarlarida umumiy ma‘lumotlar uchraydi.

Masala mohiyati Abu Abdulloh Xorazmiyning «Mafotih al-ulum» nomli qomusiy asarida ham yaxshi yoritilgan. Arab geogra-

fi va sayyohlaridan Ibn Xo‘rdodbeh (X asr), Qudama (X asr), Ibn Ro‘sta (X asr), al-Yaqubiy (IX asr), Ibn al-Faqih (IX–X asr), al-Mas‘udiy (X asr), Abuzayd Balxiy (850–934), al-Istahriy (X asr), Ibn Xavqal (X asr). Al-Muqaddasiy (X asr), keyinchalik as-Sam‘oniy (1113–1197), Yoqut Hamaviy (1178–1229)larning asar va yozishmalarida ham mavzuga oid ko‘plab materiallarni uchratish mumkin. Buxoro, Samarqand, Varaxsha, Termiz, Balx, Marv (Mari), Niso va O‘rta Osiyoning boshqa qadimiy maskanlarida amalga oshirilgan arxeologik tadqiqotlar, IX–X asrlar numizmatikasi tarixiy voqealiklar bayoniga tegishli aniqliklarni kiritdi.

XX asr tarixshunosligida Somoniylar davlati tarixi to‘g‘risida V. Bartold, E.A. Davidovich, N. Negmatov, A.A. Semyonov, E. Sumbaur, S. Len-Pul, K. Bosvort asarlari alohida ahamiyat kasb etadi. O‘zbek tarixshunosligida A. Ziyov, Sh. Kamoliddinov va boshqalarning masala mohiyatiga oid ilmiy chiqishlari e‘tiborga sazovordir.

IX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Movarounnahr va Xurosonda Somoniylar sulolasi yuzaga keldi. Bu sulolaga Somon qishlog‘i (manbalarda – Balx yaqinida) oqsoqoli Somonxudotning avlodlari asos solishadi. Yirik yer egasi bo‘lgan Somonxudot al-Ma‘mun Xuroson noibi bo‘lgan davrda uning xizmatiga o‘tib, tez orada e‘tiborga tushadi. Somonxudotning o‘g‘li Asad hamda nevaralari ham Ma‘mun saroyida xizmat qilishgan. Shaxsan Ma‘munning buyrug‘i bilan Asadning o‘g‘illari 819-yilda turli viloyatlarga noib etib tayinlanadi. Xususan, Nuh Samarqandni, Ahmad Farg‘onani, Yahyo Shosh va Ustrushonani, Ilyos Hirotni boshqara boshlashadi.

Dastavval, Asadning katta o‘g‘li Nuh ukalari mulklarini birlashtirib, xalifalikdan mustaqil davlat barpo etish harakatini boshladi. Nuhning nomidan tangalar zarb etilishi yuqoridagi fikrning tasdig‘i bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga Nuh Movarounnahrni ko‘chmanchilardan himoya qilishga ham harakat qilgan. Chunonchi, 839/840-yillarda u Isfijobga yurish qilib, u yerda mustahkam mudofaa devorini barpo etgan. Nuh vafotidan so‘ng ukasi Ahmad uning ishlarini davom ettirib, asta-sekin Movarounnahrni Somoniylar sulolasi boshchiligidagi birlash-



tirishga kirishadi. Tohiriylar Ahmadning bu harakatlariga qarshilik ko'rsata olishmadi. 865-yilda Ahmad vafot etgach, sulola boshlig'i sifatida Ahmadning o'g'li Nasr tan olinadi<sup>1</sup>. Keyinchalik, Ahmadning o'g'li Nasr Samarqandni qo'lga oldi. Shosh va Ustrushona Ahmadning boshqa o'g'li Yaqub tasarrufiga o'tgan. Shu tariqa Movarounnahrning katta qismi Ahmadning o'g'illari qo'lida jamlandi. Ilyos vafotidan so'ng (866-y.) esa Hirot Somoniylar hukmidan chiqib ketgan.

873-yilda Buxoro shahri va uning atroflarini Tohiriylarning so'nggi vakili Muhammad ibn Tohir egallab olib, ushbu hududlarga soliqlar soldi. Bundan g'azablangan xalq ommasi Muhammadga qarshi qo'zg'olon ko'taradi. 874-yilda Muhammad ibn Tohir Xorazm shaharlarini talayotgan bir paytda Buxoro zodagonlari Nasrdan Buxoroga oila a'zolaridan birini noib etib yuborishni iltimos qilishadi. Nasr Buxoroga tadbirli va zehnlri inisi Ismoil ibn Ahmadni (849–907) hokim etib jo'natadi. Nasr tabiiyki, Ismoilni o'z noibi deb hisoblar edi. Avvalboshda Somoniylar Tohiriylarga tobe sulola bo'lib hisoblangan bo'lsa, IX asr 60–70-yillaridan Somoniylar Movarounnahrda markazlashgan mustaqil davlat barpo etishni maqsad qilib qo'yishdi. Og'ir soliqlar, ko'chmanchilar hujumi, xalifalik hukmronligidan charchagan aholining turli qatlamlari markazlashgan mustaqil davlat barpo etish g'oyasini qo'llab-quvvatlashardi. Buxoro Somoniylar sulolasi hukmi ostiga o'tishi bilan xonadon boshlig'i Nasr (865–892) xalifa Mu'tamiddan (870–892) 875-yili butun Movarounnahrni boshqarishga yorliq olishga muvaffaq bo'ldi. Ismoil ibn Ahmad Buxoroda o'z hokimiyatini mustahkamlab olgach, Samarqandga yuboriladigan soliqni yubormay qo'ydi hamda akasiga tobe bo'lishni istamadi. Natijada 886-yilda aka-ukalar o'rtasida birinchi to'qnashuv sodir bo'lib, unda Ismoil yengildi va vaqtincha Buxoro noibligidan tushirildi. 888-yildagi ikkinchi jangda Ismoil Nasr qo'shinlarini tor-mor etishga muvaffaq bo'ldi. Garchi bu kurashda Nasr yengilsa-da, uning sulola boshlig'i sifatidagi mavqeyi saqlab

<sup>1</sup> Ahmadning yetti nafar o'g'li bo'lib, katta o'g'li Nasr Samarqandni boshqarar edi. Ahmadning o'g'illari: Nasr, Yaqub, Yahyo, Asad, Ismoil, Is'hoq va Hamid.

qolindi. Nasr o'limiga qadar bu holat davom etdi. 892-yilda Nasr vafot etgach, Ismoil Movarounnahrning to'laqonli hukmdori bo'lib qoldi. Poytaxt tez orada Samarqanddan Buxoroga ko'chirildi. Ismoil Somoniy 893-yilda ko'chmanchilarga qarshi qo'shin tortib, dastlab Tarozni, keyin esa Ustrushonani egallashga muvaffaq bo'ldi. O'sha yili Ismoil Ustrushonani butkul o'z davlatiga qo'shib olib, uning hukmdori Sayr ibn Abdullohni mahv etdi.

Bag'dod xalifasi al-Mu'tazid (892–902-yy.) Ismoilning qudrati oshib ketayotganidan sarosimaga tushib, 898-yili Movarounnahr noibligidan Ismoilni tushirib, uning o'rniga safforiy Amr ibn Laysni hokim etib tayinlash haqida yorliq jo'natadi. Movarounnahr noibligi to'g'risidagi yorliqni olgach, Amr ibn Lays Ismoilga qarshi qo'shin tortadi.

Ismoil Somoniy va Amr ibn Laysning bosh sarkardasi Muhammad ibn Bashar o'rtasidagi birinchi jang 899-yil kuzida bo'lib o'tib, bunda Ismoil g'olib bo'lgan. U barcha asir tushganlarni hayron qoldirgan holda ularni o'z vatanlariga qaytib ketishlariga ruxsat beradi. Ismoilning bunday oliyhimmatligi safforiy harbiylarini lol qoldiradi hamda ularning tahsiniga sazovor bo'ladi. 900-yil bahorida Balx yonida Ismoil Safforiylar qo'shinlarini tor-mor etadi. Amr ibn Lays qo'shini butkul tor-mor keltiriladi, o'zi asirga olinib, Bag'dodga, xalifa huzuriga yuboriladi. Manbalardagi ma'lumotlarga ko'ra, Ismoilni nafaqat Buxorodan, balki Xorazm va Farg'onadan kelgan harbiy kuchlar ham qo'llab-quvvatlashgan edi. Narshaxiyning ma'lumot berishicha, Ismoil bu jangda Buxoro hunarmandlari va oddiy xalqning qo'lga qurol berib, ularni o'z ozodligini saqlab qolishga chaqirgan. Keng xalq ommasining qo'llab-quvvatlashi natijasida Ismoil Somoniy arab bosqinidan keyin birinchi bo'lib o'zaro janjallar domiga tortilgan, bosqinchilar tomonidan talangan o'lkani qudratli va mustaqil davlatga aylantirish yo'lini tutadi. Shu tariqa Ismoil Movarounnahr va Xuroson, Eronning qator sharqiy va shimoliy viloyatlarini o'z ichiga oluvchi yirik davlatga asos soladi va bu hududlarda Arab xalifaligi hukmronligiga chek qo'yiladi.

Farg'ona, Isfijob (Sayram), Shosh, Samarqand, Buxoro, Xorazm, Chag'oniyon, Xuttalon, Kesh, Xuroson, Seyiston, G'azna kabi qator viloyatlar Somoniylar davlati tarkibiga kiradi. Ismoil Somoniy uyushgan qo'shin va marazlashgan davlat barpo etib, ko'chmanchilar hujumlariga chek qo'yadi. Tarixchi Narshaxiy bu xususda Ismoilning: «Men hayot ekanman, Buxoroning istehkomi o'zim bo'laman», degan so'zlarini keltiradi. Ismoil Somoniy yirik yer egasi bo'lib, mahalliy zodagonlar va savdogarlarga tayangan holda davlatni idora qilgan. Ismoil va boshqa Somoniylar ham ichki ijtimoiy ziddiyatlarni yo'qota olishmadi. Natijada dehqonlarning yer egalari qarshi chiqishlari muntazam ravishda bo'lib turgan. Bundan tashqari, ayrim chekka viloyatlar hokimlari markazlashtirish siyosatiga qarshilik qilib turishgan.

907-yilda Ismoil Somoniy vafot etib, taxtni uning o'g'li Ahmad ibn Ismoil egallaydi. Ahmad uzoq vaqt hukmronlik qilmaydi (907–914). Uning davrida davlatni idora etishda arab tilining qayta tiklanishi, boshqaruvdagi ba'zi salbiy holatlar ko'pgina mahalliy zodagonlar va turk g'ulomlarining noroziligini uyg'otadi. Natijada, u 914-yilda turk g'ulomlari tomonidan o'ldirilib, taxtga uning 8 yoshli o'g'li Nasr ibn Ahmad o'tiradi. U balog'atga yetgunga qadar davlat ishlarini bosh vazir Abu Abdulloh Jayhoniylar (914–918) hamda al-Balamiy (918–938) kabi ma'rifatli vazirlar boshqarishadi<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Nasr Jayhoniylar (taxm. 870–942) buyuk geograf olim, ma'lum bir vaqt somoniylar saroyida bosh vazir lavozimini egalab turgan. Jayhoniylar o'z yuksak maqomi bois ilm-fan rivojiga katta hissa qo'shgan. U jo'g'rofiy bilimlarni rivojlantirgan, turli sayyohlik ekspeditsiyalariga homiylik qilgan. Xususan, u mashhur geograf va sayyoh Abu Zayd Balxiyni qo'llab-quvvatlagan, geograf va shoir, asli arab bo'lgan Abu Dulafni Xitoy va Hindistonga sayohatga jo'natgan, arab geografi va sayyohi Ibn Fadlonga qulay sharoit yaratgan va hokazo. Jayhoniylar o'zining 7 jildidan iborat «Kitob al-masolik val-mamolik» («Masofalar va mamlakatlar kitobi») asari bilan nom chiqarib, unga ko'plab olimlar, jumladan Beruniylar ham yuqori baho bergan edi. Jayhoniylar tadbirli va zehni davlat amaldori sifatida ham nom chiqargan. U Ismoil Somoniyning ukasining o'g'illari Mansurning Nishopurdagi hamda Ilyosning Farg'onadagi (922-y.) isyonlarini, Husayn Marvaziyning (918-y.), Ahmad ibn Sablning (919-y.) norozilik chiqishlarini bostirishga bevosita rahbarlik qilgan. Markazlashgan kuchli davlat tarafdori bo'lgan.

914-yil oxirida Samarqandda yana qo'zg'olon ko'tariladi. Davlatning janubiy hududlarida bo'lgan Husayn ibn Ali Marvaziylar rahbarligidagi isyon ayniqsa keskin tus oladi. Bu qo'zg'olon qarmatlar g'oyasi bayrog'i ostida bo'lib o'tadi. Qo'zg'olon 918-yilda bostirilib, Marvaziylar asir olinadi. Ko'p o'tmay Nasrning qarindoshi Ahmad ibn Nuh hokimiyatga qarshi bosh ko'taradi. 922-yilda esa Ilyos ibn Is'hoq qo'zg'olon ko'taradi. Tinmay davom etgan qo'zg'olon va isyonlar Somoniylar davlatining qudratiga ta'sir ko'rsatib, u asta-sekinlik bilan inqirozga yuz tuta boshlaydi.

Ta'kidlash lozimki, Nasr ibn Ahmad hukmronligi davrida Somoniylar davlati hududlarida qarmatlar diniy harakati ancha keskin tus oladi. Qarmatlar islomning yoyilishi, yer egaligi munosabatlarini kuchayishiga qarshi chiqishadi va ilgarigi an'analari qishloq jamoalarini qayta tiklash g'oyalarini yoqlab chiqishgandir<sup>1</sup>. Mazkur harakat mamlakatda ma'lum notinchliklarga sabab ham bo'ldi. Qarmatlar harakatiga amirning ba'zi yon berishlari, hukumatning bu boradagi qat'iy harakatlarni amalga oshirmaganligi musulmon ruhoniylarining noroziligiga ham sabab bo'lgan edi. Harbiy gvardiya ham ruhoniylar tomonga yuz tutdi. Natijada, Nasr II ga qarshi fitna yuzaga keldi. Garchi Nasr II fitnachilar boshlig'ini qatl etsa-da, lekin mamlakatda yuzaga kelgan norozilik va inqiroz holatini oldini ololmasligiga ko'zi yetdi. Shu bois o'g'li Nuh ibn Nasr foydasiga taxtdan voz kechdi. 943-yilda taxtga o'tirgan Nasrning o'g'li Nuh qarmatlarga qarshi shafqatsiz kurash olib bordi. Ularning mol-mulklarini musodara qilib, o'zlarini ta'qib etdi.

Nuh hukmronligi davrida (943–954) Somoniylar davlatining inqirozi yaqqol ko'zga tashlana boshladi. 942-moliyaviy tang bo'lgan yilda xiroj solig'i aholidan ikki marotaba yig'ib olindi. Qo'shinga vaqtida maosh to'lay olmaslik esa harbiylar orasida norozilik kayfiyatining kuchayishiga sabab bo'ldi. Bo'shab qolgan xazinani to'ldirish maqsadida Nuh soliqlar miqdorini ko'paytirdi. Bu esa, tabiiyki, xalq

<sup>1</sup> Masala mohiyati ismoiliylar bilan bevosita bog'liq bo'lganligi uchun ushbu mavzuning tegishli qismida qarmatilik harakati haqida alohida so'z boradi.



noroziligini yanada oshirdi. Xalq noroziligidan foydalangan Nuhning amakisi Ibrohim ibn Ahmad Xuroson noibi Abu Ali Chag'וניy yordamida 947-yili Buxoro taxtini egallab olishga muvaffaq bo'ldi. Abu Ali Chag'וניy Xurosonga qaytgach, Nuh yana Buxoro taxtiga qaytdi va isyonkor qarindoshlarini qattiq jazoladi. Somoniylar hukmdori Abu Ali Chag'וניy bilan esa kelishishga majbur bo'ldi. Uni avval Chag'וניyon, 952-yili Xuroson hokimi etib tayinladi.

Abdulmalik I hukmronligi davrida (954–961) ichki nizo va parokandalik kuchayib, turkiy gvardiya boshlig'i Alpteginning hokimiyat boshqaruvidagi o'rni o'sib ketdi. Alptegin vazir Abu Ali Balamiy bilan birga butun hokimiyatni qo'lida mujassam qilib oldi. Lekin keyinchalik Mansur I (Mansur ibn Nuh) (961–976) davrida uning hukmronlik darajasi cheklana boshlandi. Marv va Balx yonida bo'lgan to'qnashuvlardan so'ng Alptegin janubga qarab yo'l oldi. Tez orada G'azna va uning yon-atroflarini egallab, o'z davlatini barpo etmoqchi bo'ldi. Uning hukmronligi bor-yo'g'i ikki yilga bordi, xolos. G'aznada Sabuktegin hokim sifatida rasman Somoniylarga qaramlikni saqlab turdi. Soliqlarning yil sayin ko'payib borishi, zodagonlarning o'zaro janjallari, noiblarning markazga bo'ysunmay qo'yishi va saroyda bo'layotgan taxt uchun kurashlar Somoniylar davlatini juda zaiflashtirib yuboradi.

Bu kurashlar ayniqsa Amir Nuh II (976–997-yy.) hukmronligi davrida keskin tus oladi. Ichki nizolar oqibatida Nuh II Yettisuv va Koshg'arda vujudga kelgan Qoraxoniylar davlatining Movarounnahrqa qilgan yurishlariga keskin qarshilik qilolmadi. Somoniylar davlatidagi beqarorlikdan foydalangan qoraxoniylar Xorun Bug'roxon 990-yilda g'arb tomon qo'shin tortadi va ikki yil davomida Somoniylarga qarashli bir qancha viloyatlarni bosib oladi. Nuh II ning qoraxoniylarga qarshi harakatlari tegishli samara bermaydi. Uning mamlakatni himoya qilish xususidagi chaqiriqlari zoye ketadi.

Ta'kidlash jo'izki, o'zaro nizo va parokandalik, soliqlar yukidan charchagan aholining aksariyat qismi uni qo'llamaydi. Xuroson hokimi Abu Ali Simjuriy yashirin ravishda qoraxoniylar bilan til bi-

riktirgan bo'lib, hukmdorga harbiy yordam ko'rsatmaydi. Somoniylar sarkardasi Foyiq esa dushman qo'shini bilan jang qilish o'rniga, qoraxoniylar tomoniga o'tib ketadi. Qoraxoniylar tez orada poytaxt Buxoroni egallashga muvaffaq bo'lishadi, Nuh II esa Omul tomonga chekinishga majbur bo'ladi. Faqatgina Qoraxoniylar hukmdori Bug'roxonning to'satdan vafot etishi vaziyatni o'zgartiradi. Shundan so'ng Qoraxoniylar qo'shini mamlakatni tark etadi. Og'ir vaziyatga tushib qolgan Nuh II G'azna hokimi Sabukteginga yordam so'rab murojaat etadi. Uni yordamida isyonkor amaldor va harbiylarni jazolaydi. Shundan so'ng minnatdorchilik ramzi sifatida Xuroson hokimligi Sabukteginning o'g'li Mahmudga topshiriladi. Qayd etish lozimki, Somoniylar hukmdorlarining Qoraxoniylar bilan olib borgan kurashi mamlakatni holdan toydiradi. O'zaro jang-ujadallardan charchagan aholi orasida norozilik kayfiyati olib bordi.

Mansur II hukmronligi (997–999) davri ham yuqorida qayd qilingan tanazzul holatidan farqli holda kechmaydi. Sulton Mahmud G'aznaviyning janubdan rasman somoniylarga qarashli Xuroson o'lkasiga tahdidi, qoraxoniylarning doimiy ravishda chegaralarni buzib, ichkari tomon siljiy boshlashlari, Xorazmda deyarli mustaqil Ma'muniylar sulolasining sa'y-harakatlari, harbiy sarkarda, zodagonlarning hokimiyat uchun kurashi, chekka viloyatlardagi notinch vaziyat-bularning hammasi amaldagi davlat hukmronligiga chek qo'yuvchi omillar bo'ldi. Qayd etish lozimki, Mansur II davrida mamlakatda G'aznaviylarning ta'siri kuchayib ketadi. Nishopur hokimi Bektuzun va sarkarda Foyiq Mansur II ga qarshi fitna tayyorlab, uni hokimiyatdan chetlatishdi. Fitna natijasida Mansur II o'ldiriladi. Somoniylar hukmdori sifatida Mansur II ning ukasi Abdulmalik II (999) taxtga o'tkaziladi. Bu esa Mahmud G'aznaviyning butun Xuroson, jumladan Balx va Badaxshonni ham tezda qo'lga kiritishiga sabab bo'ladi. Somoniylar qo'lida amalda faqat Movarounnahr qoladi, xolos. Sal avval Sirdaryo bo'ylari, Farg'ona vodiysi Qoraxoniylar qo'lga o'tgan edi.

Abdulmalik II harbiylar va zodagonlar orasida tegishli obro'e'tiborga ega bo'lmagan shaxs edi. Shu bois ham bu hukmdor o'z at-

rofiga tarafdorlarini jam qila olmadi. Tez orada poytaxt Buxoro Nasr II tomonidan qoʻlga olindi. 999-yil 23-oktabrda Abdulmalik II oila aʼzolari bilan qoʻlga olinib, Oʻzgdagi zindonga joʻnatildi.

Somoniylar sulolasining soʻnggi vakili Abu Ibrohim Muntasirning hokimiyatni qaytarib olishdagi saʼy-harakatlari besamar tugab, uning oʻzi 1005-yili oʻldirildi. Shu tariqa Somoniylar sulolasi hukmronligi barham topdi.

### **Somoniylar (819–1005-yy.)**

Ahmad ibn Asad – Fargʻona hokimi (819–865-yy.)

Nasr ibn Ahmad – avval Samarqand hokimi, soʻngra Movarounnahr hokimi (865–892-yy.)

Ismoil ibn Ahmad (Ismoil Somoniy) (874–892-yy. – Buxoro, 892–900-yy. – Movarounnahr hokimi) 900–907-yy. – Movarounnahr va Xuroson hukmdori.

Ahmad ibn Ismoil (907–914-yy.)

Nasr ibn Ahmad (Nasr II) (914–943-yy.)

Nuh ibn Nasr (943–954-yy.)

Abdulmalik II (954–961-yy.)

Mansur I (Mansur ibn Nuh) (961–976-yy.)

Nuh II (Nuh ibn Mansur) (976–997-yy.)

Mansur II (997–999-yy.)

Abdulmalik II (999-yy.)

Abu Ibrohim Ismoil al-Muntasir (tanaffus bilan 1000–1005-yy.)

#### **12.2.1. Ijtimoiy-iqtisodiy hayot**

Somoniylar Movarounnahr va Xurosonda mustaqil davlat tuzish uchun avvalo kuchli markazlashgan hokimiyat tuzish kerakligini yaxshi tushunishgan. Bu ayniqsa, Ismoil Somoniy davrida dolzarb masalaga aylangan edi. Yirik yer egasi boʻlgan Ismoil birinchi nav-

batda mahalliy zodagonlar va savdogarlarning manfaatlarini koʻzlab olish tutdi. Davlatning iqtisodiy kuch-qudratini oshirish, qishloq xoʻjaligi, hunarmandchilikni va savdoni rivojlanishi uchun tegishli shart-sharoitlar tugʻdirib berish lozim edi. Shu maqsadda Ismoil katta va yaxshi qurollangan, saralangan qurolli kuchlarni tashkil qilishga kirishdi. U ayniqsa, turk gʻulomlaridan iborat qismlarni tuzishga katta eʼtibor berdi. Natijada Somoniylar davlati tez orada musulmon Sharqidagi markazlashgan kuchli davlatga aylandi. Mamlakatning kuch-qudratini mustahkamlash maqsadida Ismoil Somoniy bir qancha islohotlar oʻtkazdi. Mana shunday islohotlardan biri davlatni boshqarish maʼmuriyatini joriy qilish boʻldi. Bu maʼmuriyat dargoh – amir saroyi va devon – davlat idorasi, vazirliklardan iborat boʻlgan.

Davlatni boshqaruvchi oliy hukmdor amir unvoniga ega edi. Ismoil Somoniy oʻz davrida markazlashgan davlat boshqaruvi tizimini joriy etgan. Somoniylar davlati majmuini mustahkamlashda Nuh II Somoniyning maʼrifatli vazirlari Abdulloh Muhammad Jayhoniy va Abulfazl Muhammad Balamiylarning xizmatlari katta boʻlgan. Somoniylar hukmronligi davrida bosh vazir lavozimiga asosan shu ikki sulola vakillari tayinlangan. Davlat majmui dargoh (amir saroyi) va devonga (vazirliklar, davlat idorasi) boʻlingan edi.

Saroyda siyosiy hokimiyat sohibi xoras qoʻl ostida boʻlib, u oliy hukmdor farmonlari ijrosini nazorat qilgan. Dargoh hamda boshqa muhim davlat idoralarning xavfsizligini amalga oshirish xizmatini bosh hojib va uning xodimlari olib borgan. Saroyda sharbatdorlar, dasturxonchilar, tashtdorlar, otboqarlar, xoʻjalik bekalari kabi turli xizmatchilar boʻlishgan. Saroydagi barcha xoʻjalik ishlarini vakil boshqargan. Vakil saroydagi eng eʼtiborli kishilardan biri hisoblangan. Narshaxiyning maʼlumot berishicha, Nasr II davrida Buxoro registonida davlatdagi 10 ta devonga atab maxsus 10 ta bino qurilgan. Davlatda quyidagi devonlar faoliyat koʻrsatgan:

**1. Devoni vazir** (bosh vazir devoni). Bu devonga qolgan barcha devonlar boʻysungan. Bosh vazir devoni barcha maʼmuriy, siyosiy, xoʻjalik va harbiy mahkamalarni nazorat qilgan.



2. **Devoni mustafiy** (moliyaviy ishlar devoni). Bu devon davlatning barcha moliyaviy ishlarini bajargan va nazorat qilgan. Devon xazinador tomonidan boshqarilib, uning ixtiyorida hisobchilar, munshiy va kotiblar, daftardorlar bo'lgan.

3. **Devoni amid al-mulk**, yoki **al-rasail** (rasmiy hujjatlar devoni). Bu devon davlat ahamiyatiga molik bo'lgan barcha hujjatlarni tuzish va ishlab chiqish bilan shug'ullangan. Shuningdek, bu devon chet davlatlar bilan bo'lgan diplomatik munosabatlarni ham nazorat qilgan.

4. **Devoni sohib-ash-Shurot** (harbiy ishlar devoni). Bu devon davlatning butun harbiy ishlarini nazorat qilgan, jumladan, amirning shaxsiy qo'shinini (gvardiyasini) boshqargan. Ushbu devonboshining maxsus yordamchisi – ariz bo'lgan. U mahkama va uning boshlig'i amir qo'shini xazinasi bilan shug'ullangan. Qo'shinga bir yilda to'rt marta maosh to'langan. Bu devon harbiy intizomni ta'minlab turgan.

5. **Devoni sohib al-borid** (xat-xabarlar nazoratchisi devoni). Ushbu devon markazda qabul qilingan muhim qarorlar, hujjatlar, xabarnomalarni viloyat va shaharlarga yetkazish bilan shug'ullangan. Bu devonning viloyatlardagi boshlig'i faqat markazga bo'ysungan. Bu devon xodimlari viloyat va shaharlarda bo'lib turadigan, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan voqealarni markazga yetkazib turgan. Shuningdek, bu devon davlat elchilari, viloyat va shaharlar hokimlari ustidan maxfiy nazorat o'rnatgan.

6. **Devoni muhtasib** (bozorlar va ko'chalar, shariat qonun-qoidalariga rioya qilishni nazorat qiluvchi devon). Bu devon xizmatchilari qiladigan asosiy ish shahar va qishloqlarda, ko'cha va bozorlarda tartib-intizomni, tosh-tarozini nazorat qilish edi. Aholi tomonidan shariat qonun-qoidalariga rioya qilishning nazorati ham shu devon zimmasida bo'lgan. Ushbu devonboshi o'z mirg'azab (xodim)lari bilan barcha shaharlarda faoliyat ko'rsatgan.


7. **Devoni mamlakai xos** (davlat ish boshqaruvchisi devoni). Bu devon saroy ta'minoti bilan bog'liq sarf-xarajatlarni nazorat qilgan. Muhim davlat ishlarini va ayniqsa, xazina kirim-chiqimini nazorat qilish ham shu devon zimmasida bo'lgan.

8. **Devoni vaqf** (vaqf yerlari devoni). Masjidlar, madrasalar, umuman diniy muassasalar ixtiyorida bo'lgan yer-suv, mol-mulk kabilarni boshqargan.

9. **Devoni qozi az-ziyo** (qozilik ishlari devoni). Bu devonni davlatning bosh qozisi boshqargan. Devon barcha viloyatlar va shaharlardagi qozilar faoliyatini nazorat qilib turgan.

10. **Davlat mulklari devoni**. Bu devon hukmdor sulolaga tegishli mol-mulk boshqaruvi, nazorati, hisob-kitobi bilan shug'ullangan.

### Somoniylar davlat boshqaruvi





Yuqorida sanab o'tilgan devonlarning barchasi (Sohib al-borid devonidan boshqa) mahalliy hokimlar va oliy markaziy hokimiyatga bo'ysungan. Ta'kidlash lozimki, Somoniylar davrida mahalliy boshqaruv tizimi ham samarali faoliyat yuritgan. Viloyatlar boshqaruvchilari – hokim, shahar boshliqlari turli davr, ijtimoiy holatlariga ko'ra rais, dorug'a, shihna, qutvol, hojib va boshqa nomlar bilan atalgan. Viloyatlar hokimlari ko'p hollarda hukmron sulola vakillaridan va katta ta'sirga ega bo'lgan yirik zodagonlardan tayinlangan.

Somoniylar davrida viloyat va tumanlar amir tomonidan tayinlangan hokimlar tomonidan idora qilingan. Odatda bunday lavozimga mahalliy boy zodagonlar tavsiya etilgan. Somoniylar davlatida musulmon ruhoniylarining ta'siri nihoyatda kuchli bo'lgan. Ular markaziy hokimiyat ishlarida ham faol ishtirok etishgan. Somoniylar davlatining diniy hayotida hanafiylar mazhabiga mansub ruhoniylar barcha diniy lavozimlarni o'z qo'llariga olishgan. Ruhoniylarning boshlig'i «ustod», keyinchalik «Shayx ul-islom» deb atalgan. «Ustod»dan so'ng o'z lavozimi bo'yicha ruhoniylar orasida «xatib» turgan. U jome masjidlarida juma namozida xutba o'qish huquqiga ega bo'lgan. Bu davrda Buxoro Sharqdagi islom olamining eng nufuzli markazlaridan biriga aylandi. Movarounnahrda dastlabki madrasalarning bu yerda barpo etilishi ham bejiz emas edi.

Somoniylar davrida yer egaligining quyidagi shakllari mavjud bo'lgan:

Mulki sultoniy – shaxsan amirga tegishli yer-suv, tegirmon, do'konlar. Bu mulkni qishloq chorikorlari ijaraga olishgan. Yana yer egaligining to'ma (umrbod berilgan yer), iqto (merosiy) turlari bo'lgan.

Xususiy shaxslarga tegishli mulk: hukmdor tabaqa xonadoni, dehqon-zodagonlarga, sayyidlar, sipohsolor, badavlat savdogarlarga tegishli mulklar hisoblangan. Shartli yer egaligi ham bo'lgan.

Vaqf mulklari: diniy muassasalar va madrasalarga tegishli mulk. Bu mulkni muassasa mutavallisi boshqargan.

Jamoa mulki: yaylov, tog' yonbag'irlaridagi lalmi yerlar.

Xiroj hajmi shariat va davlat qonunlari asosida belgilangan. Somoniylarning birgina Buxoro va Karmana viloyatlari xirojidan tushgan daromadi 116866 dirhamni tashkil qilgan.

Somoniylar davrida yerlar qaytadan taqsim qilinadi. Yer egalari-ning yangi guruhi tashkil topadi. Ularning ko'pi sipohiylardan chiqqandi. Masalan, Alpteginning Xuroson va Movarounnahrda 500 ta qishlog'i bo'lib, biror shahar yo'q ediki, unda uning qasri yo bog'i, yoxud karvonsaroyi bo'lmasa. Uning tasarrufida minglab otlar va chorva mollari bo'lgan.

Somoniylar davrida qudratli markazlashgan davlatning vujudga kelishi natijasida Movarounnahr va Xurosonda ma'lum barqarorlik qaror topdi. Bu holat mamlakat iqtisodiy hayotiga katta ta'sir ko'rsatadi. Dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo tez sur'atlar bilan rivojlana boshladi. Movarounnahr va Xuroson bu vaqtda Sharqning iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan o'lkalaridan hisoblangan.

Xuroson va ayniqsa, Movarounnahr dehqonchilik o'lkalari qatoriga kirgan. Bu yerlarda dehqonchilik asosan sun'iy sug'orishga asoslangan. Ko'plab soy va daryolardan chiqarilgan katta-kichik kanallar mavjud bo'lgan. Buxoro vohasida Shopurkon, Shohrud, Karmana, Poykand, Samarqand vohasida Barj (Darg'om), Barmsoy, Buzmadisoy, Ishtixon kabi kanallar shahar va qishloqlarni suv bilan ta'minlagan. Bundan tashqari, bunday kanallar Xorazm, Qashqadaryo, Farg'ona va Shoshda ham bo'lgan. Manbalarga qaraganda Shosh aholisi xalifa Mo'tasimga (833–842) murojaat qilib, vohada suv yetishmasligi tufayli kanal qurilishiga yordam so'ragan. Sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilikdan tashqari lalmikor dehqonchilik ham yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Dalalarda bug'doyning turli navlari, arpa, sholi va boshqa boshqoqli ekinlar ekilgan. Qishloq xo'jaligida paxta yetishtirishga alohida ahamiyat berilgan. Paxta ayniqsa, Zarafshon, Qashqadaryo va Marv vohasida ko'p ekilgan. Bog'dorchilik ham yaxshi rivojlangan. Bog'larda olma, shaftoli, nok, behi, anor, anjir, yong'oq kabi turli mevalar yetishtirilgan. Uzum yetishtirish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Ay-



niqsa, Samarqand, Marv, Hirotida yetishtirilgan uzumlar juda qadrlangan. Umuman, Xuroson va Movarounnahrning mevalari o'zining turli navlari va yuqori sifatlilik bilan butun Sharqda dong taratgan. Quruq mevalar ko'p holda Yevropaning turli shaharlariga ham jo'natilgan.

Umuman, Somoniylar davrida Xuroson va Movarounnahr qishloq xo'jaligining turli tarmoqlari, xususan, dehqonchilik yaxshi rivojlangan. Somoniylar davrida dehqonchilik bilan bir qatorda hunarmandchilik ham keng sur'atlar bilan tarqalgan. Shahar aholisining ko'p qismi hunarmandchilikning turli sohalar bilan mashhur bo'lishgan. Manbalarda qayd qilinishicha, Movarounnahrda, ayniqsa to'qimachilik yaxshi taraqqiy qilgan. Bu yerlarda ipak va jundan tayyorlangan turli-tuman gazlamalar o'zining yuqori sifatlilik, bejirim va nafis naqshlari bilan ajralib turgan. Buxoroning Zandana, Samarqanddagi Vedar va Surxondaryodagi Darzangi to'qimachilarining mahsulotlari faqatgina Movarounnahr va Xurosondagina emas, balki Iroq, Eron va Hindistonda ham ma'lum bo'lgan. Xususan, Narshaxiyning yozishicha, Zandanada tayyorlangan gazlamalarga Sharq bozorida ehtiyoj juda katta bo'lgan. Ibn Xavqal va al-Muqaddasiyning qayd etishicha, Vedarda tayyorlangan yuqori sifatli gazlamalar aholining yuqori tabaqalari orasida juda qadrlangan. Bu gazlamalardan asosan amirlar, vazirlar, turli amaldorlar, qozilar o'zlariga liboslar tiktirishgan. Vedar gazlamasi, hatto «Xuroson parchasi» deb ham atalgan. Bundan tashqari, gazlamalarning turli navlari Kesh, Nasaf, Dabusiya va ko'pgina boshqa shaharlarda ham tayyorlangan.

Kulolchilik ham Somoniylar davrida o'z taraqqiyotining yuqori bosqichlariga ko'tarilgan. Kulolchilik charxini yanada mukammallanishi natijasida idishlarni bezashda sirlardan foydalanishni kashf etilishi bu borada katta yutuq bo'ldi. Natijada idishlarning turlari, shakllari ham ko'paydi. Ularning sifati keskin darajada oshdi. Idishlar turli rangdagi sirlar bilan bezatila boshlandi. Manbalarda qayd qilinishicha, ayniqsa, Samarqand, Binkent va Marv kulollari tayyorlagan idishlar o'zining bejirim shakli, yuqori sifati, ajoyib va nafis naqshlari bilan ajralib turgan. Epigrafik naqsh bilan bezatilgan turli-

tuman idishlar, ayniqsa, diqqatga molikdir. Shu davrga oid shaharlarda olib borilgan arxeologik izlanishlarga qaraganda, kulollar shaharlarda mahalla-mahalla bo'lib yashashgan. Mana shunday mahallalar Samarqand, Marv, Axsikat, Termizda ochib o'rganilgan.

Bu davrda shishasozlik ham keng rivojlangan. O'rta Osiyo shishasozlari turli shakldagi katta-kichik shisha idishlarni tayyorlashgan. Idishlar asosan ko'kimtir va shaffof rangdagi shishalardan tayyorlangan. Ularning ma'lum qismi naqshlar bilan bezatilgan. Shishasozlar ustaxonalarining qoldiqlari arxeologlar tomonidan Niso, Marv, Termiz, Poykand kabi shaharlarda o'rganilgan. O'rta Osiyo shishasozlarining mahsulotiga boshqa o'lkalarda ham ehtiyoj katta bo'lgan.

Yozma manbalar va olib borilgan arxeologik qazish ishlarga qaraganda, bu davrda tog'-kon sanoati taraqqiyotida katta o'zgarishlar ro'y bergan. Bu davrda Badaxshonda kumush, oltin, billur, lojuvard kabi qimmatbaho metall va toshlar qazib olish davom etgan. Ustrushonaning Mink tumanida katta miqdorda temir rudasi, Butanda oltin, kumush, mis va boshqa metallar, Tuzkon ko'lida tuz, Farg'onadagi Nokad degan joydan oltin, kumush, Isfara yaqinida toshko'mir qazib olingan. Farg'onada neft ham borligi yozma manbalarda qayd qilingan. Shu davrda qog'oz ishlab chiqarish ham yaxshi rivojlangan. Qog'oz ishlab chiqarish bo'yicha eng yirik markaz Samarqand bo'lib, undagi qog'ozlarning mahsuloti faqat O'rta Osiyo yoki Sharqda emas, balki Yevropada ham mashhur bo'lgan. Samarqand qog'ozining olti navi manbalarda qayd qilingan.

Yuqorida qayd qilingan hunarmandchilik turlaridan tashqari, Somoniylar davrida O'rta Osiyoda toshtaroshlik, zargarlik, duradgorlik kabi sohalar ancha rivoj topgan. Somoniylar davrida kuchli va mustaqil davlatning paydo bo'lishi dehqonchilik, hunarmandchilikning rivojlanishi, shaharlarning taraqqiyoti, o'z navbatida, ichki va tashqi savdoni yanada uzviylashuvi va taraqqiyotiga olib keldi. Bu davrda shahar va qishloqlar o'rtasidagi savdo kengaydi. Ikkinchi tomondan, shahar va qishloqlarni qo'shni ko'chmanchi xalqlar va boshqa davlatlar bilan aloqasi rivoj topdi.



Yozma manbalarda qayd qilinishicha, bozorlar katta-kichik shaharlarda va hatto qishloqlarda ham bo'lgan. Ayniqsa, karvon yo'llari bo'ylab joylashgan shaharlarda bir nechtadan bozorlar faoliyat yuritgan. Buxoro, Xo'jand, Nasaf, Kesh, Termiz, Hirot, Marv, Nishopur shaharlaridagi bozorlar katta va juda gavjum bo'lgan. Istahriyning yozishicha, Samarqandda Movarounnahrning bosh bozorlari joylashgan. Bu yerga hamma yerdan savdogarlar kelishgan. Movarounnahrda tayyorlangan mahsulotlarning katta qismi Samarqandga keltirilgan va undan keyin boshqa o'lkalarga tarqalgan. Ichki va tashqi savdoda ayrim kichik shaharlarning ham o'rni katta bo'lgan. Bu borada Poykand shahri muhim ahamiyat kasb etadi. Manbalarda yozilishicha, bu shaharda somoniylardan oldin ham savdogarlar Xorazm, Kaspiy bo'yidagi o'lkalar va Xitoy bilan oldi-sotti ishlari olib borishgan. Shahar hokimlari savdogarlar uchun hamma shart-sharoitlarni tug'dirib berishga harakat qilishgan. Shaharda o'nlab karvonsaroylar mavjud bo'lgan, ular bozorga yaqin joylarda joylashgan. Savdo rastalari karvonsaroyning o'zida ham bor edi. Karvonsaroylar yo'llarda ham qurilgan.

Bozorlarda sotiladigan mollar avvalo mahalliy aholining ehtiyojini qondirishga qaratilgan. Hunarmandlar o'z mollarini sotib oziq-ovqat mollari olishgan, o'z navbatida dehqonlar hunarmandchilik mollari xarid qilishgan. IX–X asrlarda O'rta Osiyoning iqtisodiy hayotida savdo-sotiq katta ahamiyatga ega edi. Bu borada ko'chmanchilar bilan chegaradosh bo'lgan shaharlarning ahamiyati katta bo'lgan. Ko'chmanchilar shaharlarga kelib, dehqonchilik va hunarmandchilik mahsulotlarini xarid qilishgan, teri va boshqa chorvachilik mahsulotlarini sotishgan.

O'rta Osiyolik savdogarlar o'z mollarini Arab xalifaligi tarkibiga kirgan davlatlarga, Kavkazga, Xazar va Bulg'oriyaga, Xitoy va Hindistonga olib borib sotishgan. O'rta Osiyodan Xitoy bilan O'rta Yer dengizini birlashtiruvchi va Janubi-Sharqiy Yevropaga olib boruvchi karvon yo'llari o'tgan. Ayniqsa, O'rta Yer dengizi bilan bog'lovchi karvon yo'li ancha gavjum bo'lgan. Bu yo'l Bag'dod, Hamadon, Nishopur, Marv, Amul, Buxoro, Nasaf, Kesh, Samarqand, Ustru-

shona, Choch, Balasog'un orqali Xitoyga olib borgan. Xitoyga O'rta Osiyodan otlar va shisha buyumlar olib borilgan. Xitoydan esa turli-tuman ipak gazlamalar keltirilgan. Xazar, Bulg'or va Rus yerlariga O'rta Osiyodan quruq mevalar, turli-tuman gazlamalar, guruch va kumush chiqarilgan. O'z navbatida, Janubi-Sharqiy Yevropadan O'rta Osiyoga mo'yna, mis, teri, qoramol, qullar keltirilgan. Janubi-Sharqiy Yevropa bilan bo'lgan savdo aloqalarida xorazmlik savdogarlarning o'rni katta bo'lgan. Mazkur iqtisodiy holat rivoji keyingi sulolalar davrida ham asosan davom etgan.

### 12.3. Qoraxoniylar davlati

Mamlakatimiz davlatchiligi tarixida o'ziga xos o'ringa ega Qoraxoniylar davlati tarixshunosligi u qadar boy emas. Tarixchi olimlar qoraxoniylar davlati tarixi hali to'liq o'rganilmaganligini ta'kidlashgan. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'atit turk», Mahmud O'shiyning «Fatovoyi qozixon», Abu Said Gardiziyning «Zayn ul-axbor», Ibn al-Asirning «Al-komil lit-tarix» asarlarida qoraxoniylar tarixi xususida tegishli ma'lumotlar mavjud. Mahmud Koshg'ariyning «Devon-u lug'atit turk» asari turkiy qavmlar tarixi xususida qimmatli ma'lumotlar beradi. Qoraxoniylar tarixini o'rganishda XVII asr muallifi, Usmoniylar saroyi bosh munajjimi Ahmad afandining (Munajjimbohi) arab tilidagi solnomasi ham katta ahamiyat kasb etadi. XX asr tarixshunosligida O. Pritsak, V. Kochnev, E.A. Davidovich numizmatik materiallar asosida mazkur davr tarixiga oid tadqiqotlarni amalga oshirishgan. Qirg'iz olimi O. Karayev ilk bora Qoraxoniylar davri tarixiga bag'ishlangan monografiyani yozgan. O'zbek tarixshunosligida A. Ziyov tadqiqot ishi alohida ahamiyatga ega bo'lib, B. Mahmudovning nomzodlik dissertatsiyasida esa Qoraxoniylar davlat boshqaruvi tahlil etilgan.

X asrning ikkinchi yarmiga kelib ichki ziddiyatlarning kuchayishi va keskinlashuvi natijasida Somoniylar davlati kuchsizlana boshlaydi. Somoniylarga tobe bo'lgan viloyatlar, ayniqsa, Xurosonda ular



hokimiyatiga qarshi ko'tarilgan isyonlar, toj-utaxt uchun uzluksiz olib borilgan kurashlar Somoniylar davlati inqirozini yaqinlashtirgan edi. Bunday vaziyatdan Yettisuv va Koshg'arda yashovchi turkiy qabilalar unumli foydalanishdi. Chunki, X asrning ikkinchi yarmiga kelib bu hududlardagi turkiy qabilalar – qarluqlar, chig'illar, yag'molar va boshqalar o'zlarining kuchli davlatlarini tuzishga muvaffaq bo'lgan edilar.

Qoraxoniylar chig'illar yoki qarluqlar qavmiga mansubligi haqidagi nuqtayi-nazar o'rta asrlar davri tarixining ko'pchilik tadqiqotchilari tomonidan e'tirof etiladi. 840-yili qarluqlar sardori Isfijob hokimi Bilgakul Qodirxon o'zini xoqon deb atab, oliy hukmronlikka da'vo bilan chiqqan edi. Lekin o'sha yildayoq Somoniylar Isfijobni zabt etishdi. Turkiy qabilalar, ayniqsa 893-yili Ismoil Somoniy Tarozni egallaganidan so'ng g'arbiy Koshg'ar yerlari tomonga chekinishga majbur bo'lishgan edi. Sotuq Bug'roxon Somoniylar tomonidan qo'llab-quvvatlangan holda turkiy qabilalar orasida o'z ta'sir doirasini kengaytirib bordi. U Taroz va Koshg'arni qo'lga olib, 927-yili Bolasog'unni egalladi hamda o'zini oliy hukmdor deya e'lon qildi. Uning vafoti (955/956)dan so'ng hokimiyat o'g'li Musoga o'tdi. Muso davrida tarixiy manbalar, numizmatik materiallar ma'lumotiga ko'ra 960-yili 200 ming chodirlik turkiy aholi islom dinini qabul qilgan. Muso o'ziga Koshg'arni qarorgoh qilib olgan. Bolasog'un esa birmuncha vaqt yana Somoniylar qo'lga o'tadi. Somoniylar hatto Markida (Tarozi va Bolasog'un oralig'i) ularning himoya qo'rg'onini ham barpo etishgan.


«Qoraxon» so'zi turlicha ma'noda talqin qilinadi. Xususan, «qora» so'zi «kuchli», «xalq», «xon» so'zi «hukmdor», «rahbar» ma'nolarida kelishini ko'pchilik olimlar e'tirof etishadi.

Qoraxoniylardan birinchi bo'lib islomni qabul qilgan va musulmoncha Abdulkarim degan nom olgan hukmdor Xorun Bug'roxon hisoblanadi. Ayrim yozma manbalarda u Bug'roxon at-Turkiy deb nomlanadi. Misol uchun, Ibn al-Asir o'zining «Kitob al-komil fitarix» asarida ma'lumot berishicha, Koshg'ar, Bolasog'undan to Chin (Xitoy) chegarasigacha bo'lgan yerlar Bug'roxon at-Turkiy hukmronligi ostida bo'lgan.

Qoraxoniylar hukmronligi davri o'zaro hokimiyat uchun kurashlar doimiy asnodda bo'lib turganligi bilan izohlanadi. Mazkur kurashlar asosan Ali Arslonxon va Xorun Bug'roxon avlodlari o'rtasida bo'lgan. Shu bois Alilar xonadoni va Xoruniylar xonadoni degan atama shu davrga nisbatan ishlatiladi.

Butun Tyan-Shan va Yettisuvni egallab bo'lgandan so'ng, Qoraxoniylar Somoniylar davlati tarkibida bo'lgan Movarounnahrda ham harbiy yurishlar uyushtira boshlashadi. Ular tez orada Farg'ona va Isfijob (Sayram)ni bosib olishga erishishadi. 990–992-yillarda qoraxoniylar Xorun (Hasan) Bug'roxon Somoniylarga tegishli bo'lgan O'rta Osiyodagi mulklarning kattagina qismini bosib oladi. 992–993-yillarda esa Xorun Bug'roxon Samarqand va Buxoroni ham egallaydi. Manbalarning ma'lumot berishicha, Somoniylar davlatida katta ta'sirga ega bo'lgan turkiy lashkarboshi, Xuroson hokimi Abu Ali Simjuriy va yana bir lashkarboshi Balx hokimi Foyiq ochiqdan ochiq qoraxoniylarga yon bosishadi. Simjuriy Xorun Bug'roxon bilan muzokaralar olib borgan bo'lsa, Foyiq Raboti Malik yaqinidagi Bug'raxonga qarshi jangda, har tomonlama ustunlikka ega bo'lishiga qaramay, unga taslim bo'ladi. Xorun Bug'roxon Samarqand va Buxoroni egallagach, kasalligi tufayli urushni davom ettira olmaydi. U 993-yili Koshg'arga qaytishdagi Qo'chqorboshi degan joyda vafot etadi.

### Qoraxoniylar davlat boshqaruv





Xorun Bug'roxon vafotidan so'ng ulug' xon (qoraxon) lavozimini uning jiyani Ali ibn Muso egallaydi. Ammo u uzoq vaqt taxtga o'tira olmaydi. Tez orada taxtni qoraxoniylar Nasr Ilekxon egallaydi. Somoniylar davlatidagi ichki nizolar, somoniy hukmdorlari va turk lashkarboshilari o'rtasidagi kelishmovchiliklarni diqqat bilan kuzatib turgan Qoraxoniylar 996-yilda Nasr Ilekxon boshchiligida Buxoroga yangi yurishlarni uyushtiradi. Somoniy hukmdori Nuh II G'azna hokimi Sabuqteginni yordamga chaqiradi. Balxdan katta qo'shin bilan yetib kelgan Sabuqtegin Kesh va Nasaf oralig'ida joylashib, o'z qo'shinlari bilan kelib qo'shilishini so'rab Nuh II ga elchi yuboradi. Lekin o'z «vassali»ga uncha ishonmagan Buxoro hukmdori vaziri O'zayrining fikriga qo'shilib, bu taklifni rad etadi va Sabuqteginning o'zini Buxoroga chaqiradi. Bundan ranjigan Sabuqtegin o'g'li Mahmudni 20 minglik qo'shin bilan Buxoroga jo'natadi. O'zi esa Nasr Ilekxon bilan muzokaralar olib borib, Qoraxoniylarga Somoniylarga tegishli bo'lgan ma'lum hududlarni taqdim etadi. 999-yilda Buxoro Nasr Ilekxon tomonidan egallanadi.

1005-yilga qadar Somoniylar va Qoraxoniylar o'rtasida ko'plab urushlar bo'lib o'tadi va o'sha yili so'nggi somoniy Abu Ibrohim Ismoil Muntasirning Buxoroni ozod etishdagi harakatlari muvaffaqiyatsiz yakunlanadi hamda Somoniylar siyosiy tarix sahnasidan tushib ketishadi. XII asr boshlarida Qoraxoniylar davlati Amudaryoning yuqori va o'rta oqimlaridan to Yettisuv, Sharqda esa Torim daryosigacha bo'lgan hududlarni o'z ichiga olgandi. Shu vaqtdan boshlab Qoraxoniylar Buxoro, Samarqand va umuman, Amudaryogacha bo'lgan hududlarni ham boshqara boshlashgan. Siyosiy jihatdan olib qaraganda, XI asr boshlarida Turkiston bir qancha siyosiy kuchlar tomonidan idora etilgan. Sharqiy Turkiston, Toshkent, Isfijob, Farg'ona, Samarqand, Buxoro, Chag'oniylar, Xuttalon viloyatlari Qoraxoniylar, Amudaryoning chap qirg'oq yerlari to G'aznagacha, Xuroson, Seyiston viloyatlari G'aznaviylar, Xorazm esa Xorazmshoh – Ma'muniylar, Orol dengizidan Sharq va shimoldagi yerlar o'g'uzlar ittifoqi tomonidan boshqarilardi.

Qoraxoniylarning Movarounnahrda hukmronligi 200 yilga yaqin davom etadi. Somoniylarga tegishli bo'lgan yerlarni egallash jarayonida turkiylar yirik Qoraxoniylar davlatini barpo etishadi. Bu davlat bir nechta viloyatlarga bo'lingan bo'lib, Movarounnahrda davlat Nasr Ilekxon hokimlik qilgan. Shijoatli va mohir sarkarda Nasr Ilekxon do'stona munosabatlar o'rnatish tarafdori ekanligini bildirib, qo'shnisi Mahmud G'aznaviy bilan elchilik munosabatlari o'rnatadi. Ammo bunday munosabatlar uzoq cho'zilmaydi. Mahmud G'aznaviyning shimoliy Hindistonda urush olib borayotganligidan foydalangan Nasr Ilekxon 1006-yilda katta qo'shin bilan Amudaryodan kechib o'tib Balx, Tus, Nishopur shaharlarini bosib oladi. Shunga qaramasdan G'aznaviylar Qoraxoniylarni Xurosondan haydab chiqarishga muvaffaq bo'lishadi. 1008-yilda Qoraxoniylar yana Xurosonga hujum qilishadi. Mahmud G'aznaviyning o'zi 500 ta jangga o'rnatilgan fillarga ega bo'lgan katta qo'shin bilan Qoraxoniylarga qarshi chiqadi va ularning qo'shinini butunlay yakson qiladi. Shundan keyin Qoraxoniylar Xurosonga harbiy yurish uyushtirishga boshqa jur'at etishmaydi. Termiz, Qabodiyon, Xuttalon kabi Amudaryodan shimoldagi yerlar G'aznaviylar hukmida saqlanib qoladi.

Qoraxoniylar udel tizimiga asoslangan davlat bo'lib, sharqiy va g'arbiy qismlarga ham shartli ravishda bo'linar edi. Movarounnahr davlatining g'arbiy qismini tashkil qilib, Samarqand uning markazi hisoblangan. XI asr boshlari sharqiy qismda To'g'onxon hukmronlik qilib, u Xorun Bug'roxon avlodidan edi. U Yusuf Qodirxon bilan hokimiyat borasida raqobatlashgan. 1005-yili esa u To'g'onxonning qo'lidan Koshg'arni ham tortib olishga muvaffaq bo'lgan. 1017–1018-yillarda Yettisuv va Sharqiy Turkistonga bosib kirgan ko'chmanchilar bilan jang natijasida To'g'ayxon halok bo'ladi. Yusuf Qodirxon esa butun Qoraxoniylar davlatidagi oliy hokimiyatni mujassam qilib olishga muvaffaq bo'ladi.

Nasr Ilekxonning o'limidan so'ng oradan biroz vaqt o'tgach, Movarounnahrda hokimiyat Qoraxoniylarning Hasaniylar (Xoruniylar) xonadoniga mansub Alitegin qo'lida o'tadi. Movarounnahr-



ni uzoq yillar boshqargan Alitegin bilan Qoraxoniylarning ulug' xoni (tamg'achxon) Yusuf Qodirxon o'rtasida yaxshi munosabat o'rnatilgan edi. Bu munosabatning yanada kuchayib ketishidan cho'chigan Mahmud G'aznaviy Yusuf Qodirxon bilan kelishib, Aliteginga qarshi ish tutishadi. Yusuf Qodirxon Movarounnahrni o'z o'g'li Yinalteginga olib bermoqchi edi. Ular 1025-yilda Movarounnahrda yurish qilishadi. Alitegin Zarafshonning o'ng oqimida yashayotgan ko'chmanchi turkman qabilalari va Saljuqning nevaralari Ismoil, To'g'ul va Dovudlardan yordam so'raydi. Bu jangda Qoraxoniylar mag'lubiyatga uchragan bo'lsalar-da, Alitegin Movarounnahrda o'z hokimiyatini saqlab qolishga muvaffaq bo'ladi. 1032-yilga kelib Yusuf Qodirxon hukmiga Yettisuvdan tashqari Sharqiy Turkiston, Isfijob, Taroz ham kirar edi. Bu qismning markazi Koshg'ar bo'lgan. Keyinchalik uning vorislari Sulaymon Bug'rotegin va Muhammad Yagonteginlar ham Movarounnahrni qo'lga olishga harakat qilib, bu borada Mas'ud G'aznaviy (1030–1041) bilan ham o'zaro munosabatlarni yanada mustahkamlashadi. Lekin Movarounnahrda amalga oshirilgan harbiy harakatlar muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Mazkur munosabatlar XI asr tarixchisi Abu Said Gardiziyning «Zayn ul-axbor» asarida atroflicha yoritilgan.

Movarounnahr yerlariga batamom o'rtnashib olgandan so'ng oradan ko'p o'tmay, ya'ni 1015–1016-yillar qoraxoniylar hukmdorlari va yirik amaldorlar o'rtasida toj-taxtni egallash, yirik yaylovlarni qo'lga kiritish, ayrim viloyatlarni bosib olish uchun kurashlar avj ola boshlaydi. Natijada 1041-yilga kelib Qoraxoniylar davlati ikkiga: Sharqiy va G'arbiy qismga bo'linib ketadi. G'arbiy qism Movarounnahrda to Farg'ona vodiysining g'arbiy tumanlarigacha bo'lgan hududlarni egallagan bo'lib, uning poytaxti dastavval Buxoro, bir muddat O'zgand, keyin esa Samarqand bo'lgan. Sharqiy qism Yettisuv, Koshg'ar, Taroz, Isfijob, Shosh va Sharqiy Farg'onani o'z ichiga olgan. Uning poytaxti avval Bolasog'un, keyin esa Koshg'ar edi.

XI asrning 40-yillarga kelib Xurosondagi G'aznaviylar davlati Saljuqiylar tomonidan yo'q qilinadi. Movarounnahrni esa Qoraxo-

niylar o'z qo'llarida saqlab qoladilar va bu yerda Ibrohim ibn Nasrning siyosiy faoliyati boshlanadi. U o'z qo'shinlari bilan avvalo, Amudaryo bo'yidagi Xuttalon, Vaxsh, Chag'oniyonni bosib oladi va tez orada butun Movarounnahr yerlarini zabt etadi. U yangi poytaxt qilib o'ziga Samarqandni tanladi va shu yerdan turib hokimiyatni boshqardi (1040–1068-yy.)

Abu Said Gardiziy (XI asr) o'zining «Zayn ul-axbor» asarida Ibrohim ibn Nasrning siyosiy maydoniga chiqishini 1036/1037-yillar bilan bog'laydi. Tarixchi Abulfazl Bayhaqiyning (XI asr) «Tarixi Mas'udiy» asarida Ibrohim ibn Nasr (Ibrohim Bo'ritegin) nomi ilk bora 1038-yili tilga olinadi.

O'sha yili u hibsdan Alitegin o'g'illari qo'ldan qochib, avval Farg'ona tomon yo'l oladi, keyinchalik esa G'aznaviylarga qarashli Amudaryo bo'yidagi mulklarga kelishga majbur bo'ladi. 1038-yil kuzida avval Xuttalon, so'ngra Chag'oniyonni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ladi. U Movarounnahr hokimi Yusuf ibn Ali bilan kurashib, tez orada Samarqand, Kesh, Buxoroni qo'lga oladi. Numizmatik materiallariga ko'ra 1040-yildayoq uning nomidan Kesh va Samarqandda tangalar zarb etilganligini ko'rish mumkin. Ibrohim, uni yana «Tamg'achxon» deb ham atashardi, Movarounnahrda uzoq hukmronlik qiladi. Uning hukmronlik davriga tarixiy manbalar ancha yuqori baho berib, Ibrohimning o'zini kuchli va adolatli hukmdor sifatida ta'riflashgan. U Sharqiy qoraxoniylarga tegishli bo'lgan Axsikat, Ko'zorda, Shubays, keyinchalik 1062-yili Bolasog'unni ham egalashga muvaffaq bo'ldi. U Qoraxoniylarning O'rta Osiyodagi asosiy yerlariga ega bo'lib, poytaxt esa to'laqonli ravishda Samarqand shahri, deya belgilanadi. Tarixiy manbalarning ma'lumotlariga ko'ra Ibrohim Tamg'achxon aholi osoyishtaligi, tinchligi haqida jon kuydirganligi, o'zaro kurashlarga chek qo'yishga harakati, qaroqchi to'dalarga qarshi kurashi bois uning nomi xalq orasida mashhur bo'lib ketgan. U ichki va tashqi savdo ustidan tegishli nazorat o'rnatadi, uning rivoji uchun ma'lum tadbirlarni amalga oshiradi, pul muomalasi tizimini takomillashtiradi. Ibrohim Tamg'achxon bunyodkorlik, qurilish ish-



lariga ham homiylik qilgan. Masalan, 1066-yili Samarqandda shifoxona, madrasa majmuini yuzaga kelishiga bevosita sababchi bo'lgan va hokazo. Ibrohim Movarounnahr hududida ayirmachi qarmatlar diniy harakatiga chek qo'yadi. Uning topshirig'i bilan 1045-yili oxirgi qarmatchilik harakati josusi qatl etiladi.

Ta'kidlash joizki, Ibrohim ibn Nasr bilan Saljuqiylar o'rtasidagi munosabat ancha yomon bo'lgan. U Saljuqiylarning bir necha hujumlarini qaytarishga erishgan. 1068-yilda Ibrohim ibn Nasr vafotidan so'ng uning o'g'illari o'rtasida taxt uchun kurash boshlanib, bu kurashda Shamsulmulk g'alaba qozonib, hokimiyatni egallaydi (1068–1080). 1072-yilda saljuqiy Sulton Alp Arslonning vafotidan foydalangan qoraxoniy Shamsulmulk saljuqiylarga tegishli bo'lgan Termiz va Balx viloyatlarini egallaydi. Ammo ko'p o'tmay Alp Arslonning vorisi bo'lgan Sulton Malikshoh boshchiligidagi Saljuqiylar qoraxoniylarni bu yerlardan siqib chiqarishadi.

1080-yilda Shamsulmulk vafot etib, taxtga qoraxoniy Ahmad o'tiradi. Ahmadxon davrida musulmon ulamolari va turkiy lashkarboshilar o'rtasidagi kurash avj olib ketadi. Bundan foydalangan saljuqiy Malikshoh Amudaryodan kechib o'tadi va qattiq janglardan so'ng 1089-yili Buxoro hamda Samarqandni egallaydi. Ahmadxon esa asir olinadi. Lekin Movarounnahrni o'z qo'lida saqlab qolishga ko'zi yetmagan Malikshoh Ahmadxon bilan sulh tuzib, katta o'ljalari olib orqaga qaytadi. Ahmadxonning saljuqiylarga itoatkorligi harbiy lashkarboshilar va ruhoniylarning noroziligiga sabab bo'lganligi bois, 1095-yili u fitnada o'ldiriladi.

XII asrning boshlariga kelib Qoraxoniylar taxtiga Arslonxon (1102–1130-yy.) o'tirib, u yarim mustaqil maqomida davlatni boshqargan bo'lsa-da, lekin to'la mustaqillik uchun sa'y-harakatlar olib bordi. Ulamolalar bilan kelishmovchilik tufayli Arslonxon taxtni o'g'li Nasrga topshiradi. Tez orada fitna natijasida Nasr ham o'ldirildi. Shunday vaziyatda Arslonxon saljuqiy Sulton Sanjardan yordam so'raydi. O'sha yili Sulton Sanjar fitnachilarni jazolab, Samarqand shahrini egallaydi va shu davrdan boshlab qoraxoniylar o'z mustaqil-

ligini deyarli yo'qotib, saljuqiylarga butkul qaram bo'lib qolishadi. Og'ir xasta bo'lgan Arslonxon esa Balxda vafot etadi.

Oradan ko'p o'tmasdan Movarounnahrda yangi ko'chmanchi qabilalar qoraxitoylar (kidanlar) hujumi xavfi paydo bo'ladi. XII asrning 30-yillarida qoraxitoylar Sharqiy Turkiston va Yettisuvni, ya'ni Sharqiy qoraxoniylar hududini bosib olishadi. Sharqiy qoraxoniylar ancha zaiflashib qolganligi tufayli o'z mulklarini himoya qila olishmaydi. G'arbiy qoraxoniylarning ham ahvoli bundan yaxshilamasdi. 1137-yildagi Xo'jand yaqinidagi bo'lgan jangda qoraxitoylar qo'shini qoraxoniy Mahmudxon qo'shinlarini tor-mor etadi. Bu paytda Xorazmni egallash bilan band bo'lgan Sulton Sanjar o'z vassali Mahmudxonga yetarli yordam bera olmaydi. Samarqand talon-toroj qilinib, katta tovon undirilgach, qoraxitoylar orqaga qaytishadi.

Oradan ko'p o'tmasdan, ya'ni 1141-yilda qoraxitoylar yana Movarounnahr yerlariga bostirib kelishadi. Ularning hujumini to'xtatish uchun Sulton Sanjar katta qo'shin bilan Samarqand yaqiniga yetib keladi. Bu safar jang Samarqand yaqinidagi Qatvon cho'lida bo'ladi. Hal qiluvchi jangda Sulton Sanjar va Qoraxoniy Mahmudxonlarning birlashgan qo'shinlari qoraxitoylar tomonidan mag'lub etiladi.

Samarqand, Buxoro va butun markaziy Movarounnahrni egallagan qoraxitoylar katta o'ljalari bilan orqaga qaytishadi. Qoraxitoylar Bolasog'undan tashqari hamma yerlar hokimiyatini qoraxoniylar qo'lida qoldirishadi. Qoraxoniylar endi qoraxitoylarga qaram bo'lib, har yili ularning poytaxti Bolasog'unga katta o'lpon yuborib turishardi. Xorazmshohlar 1210-yili qoraxitoylarni mag'lub etishgach, qoraxoniylar xorazmshohlarga qaram bo'lib qolishadi. Sulolaning oxirgi vakili Usmonxon Muhammad Xorazmshohning qizi Xon Sultonga uylanadi. 1212-yilda Samarqandda Xorazmshohlar hukmronligiga qarshi qo'tarilgan qo'zg'olonga ham aynan Usmonxon boshchilik qiladi. Qo'zg'olon bostirilgach, Usmonxon qatl etiladi va qoraxoniylar xonadoniga mansub barcha kishilar o'ldiriladi. Shu tariqa Qoraxoniylar sulolasiga barham beriladi.



Qoraxoniylar sulolasi hukmronligi davrida o'z mulklarining sardadlarini bir necha marta o'zgartirishgan. Misol uchun, Movarounnahrni egallaguniga qadar ularning mulklari Tyan-Shan va uning atroflarini egallagan bo'lsa, XI asr boshlariga kelib esa, xoqonlik chegaralari Amudaryogacha yetgan. Oradan ko'p o'tmay ular Sharqiy Turkistonda Koshg'arni va Xo'jandni qo'lga kiritishadi. Bunday holat xoqonlikning ijtimoiy-iqtisodiy tuzumiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Har bir viloyat ma'lum siyosiy mavqega ega bo'lgan holda xondan kichikroq unvonga ega elekxonlar tomonidan boshqariladigan bo'ladi. Qoraxoniylar davlatini tashkil etilishida yag'mo va chig'il qabilalari muhim rol o'ynashadi. Asrlon – chig'il qabilasining, bug'ro (tuya) – yag'mo qabilasi sardorlari nomiga qo'shiladigan atama bo'lgan. Shu bois yag'mo qabilasidan chiqqanlar keyinchalik nomlariga «Bug'roxon», chig'il qabilasiga bo'lgan hukmdorlar «Asrlonxon» atamalarini qo'shishgan.

Qoraxoniylar Somoniylarga nisbatan davlat tuzilishi va boshqaruvining boshqacharoq shaklini joriy etishga harakat qilishadi. Ularda hokimiyat Somoniylarda bo'lgani kabi to'g'ridan to'g'ri otadan o'g'ilga emas, balki akadan ukaga, keyin sulolaning navbatdagi avlodiga o'tgan. Ayrim olimlarning fikricha, qoraxoniylarning butun urug'i hokimiyatning jamoaviy sohibi bo'lib, sulolaning har bir a'zosi o'zining kelib chiqishiga ko'ra, umumsulola mulkining bir qismiga da'vo qila olardi. Bu mulkning asosiy qismi sulolaning uch ulug' a'zosi – ulug' xoqon, kichik xoqon va elekxonga tegishli hisoblanardi. Ularning har qanday avlodiga o'z hissasi ajratib berilardi.

Qoraxoniylarda ikkita poytaxt: Koshg'ar va Bolasog'un mavjud edi. Ulug' xon shu shaharlardan biridagi qarorgohda o'tirgan. Ulug' xoqon yoki ulug' xon «xoqon ul-xoqon» degan nomda yuritilib, arab manbalarida mazkur unvon «sulton us-salotin», fors manbalaridagi «shahanshoh»ga mos keladi. Qoraxoniylarga qarashli yerlar tang'achxon tomonidan uning o'g'illari, qarindoshlari o'rtasida taqsimlangan edi. Shu bois yer-mulk masalasida ota-o'g'il, amaki va

liyanlar o'rtasida doimiy nizolar yuz berib, u siyosiy ahvolga salbiy ta'sir ko'rsatib turgan.

Qoraxoniylar Movarounnahrni egallagach, bu yerdagi ijtimoiy-siyosiy hayotda katta o'zgarishlar sodir bo'lganligi bois, Qoraxoniylar o'z davlatlarini viloyatlarga bo'lib tashlashadi. Movarounnahr viloyatining poytaxti Samarqand, Farg'onaniki esa O'zgand shahri edi. Bu viloyatlar boshliqlari elekxonlar bo'lib, ular Koshg'ardagi tang'achxonlarga rasman tobe edilar. Qoraxoniylar davrida Samarqand elekxoni ancha kuchayib ketgan. Samarqand elekxoni saroyida Somoniylar davlatida bo'lgani kabi vazir, sohibi-borid, mustavfiy, hojib, rais-muhtasib kabi amaldorlar bo'lishgan. Ta'kidlash joizki, qoraxoniylar hukmdorlari musulmon ulamolari bilan yaqin aloqa o'rnatishgan va imomlar, sayidlar, shayxlar, sadrlarni qo'llab-quvvatlashgan.

Qoraxoniylar davlati boshlig'i lavozimi, xoqonning taxti merosiy sanalgan. Ma'muriy idoralar ikkiga: dargoh va devonga bo'lingan. Xoqonning ulug' hojibi xoqon bilan fuqaro o'rtasida vositachilik qilgan. Xoqon saroyida quyidagi amaldorlar bo'lgan: og'ichi – shoyi kiyimlar xazinachisi; birukg' – mehmonlarni qabul qilish bo'yicha mutasaddi; oshchi – xoqon oshxonasi boshlig'i (bog'archi); bitikchi – munshiy; kotib – mirza; qushchi – xoqon ovinining tashkilotchisi.

Xoqon harbiy qo'shinlari cherik deyilgan, unga suboshi, yoki sipohsolor qo'mondonlik qilgan. Kichik zobit chovush, sipohiy-lar to'dasi qo'mondoni *xaylboshi* deyilgan. Qo'shin o'nlik, yuzlik, mingliklarga bo'lingan. Qoraxoniylar xoqoni qo'shi (harbiy lager) xonto'y deyilgan. Xoqon qo'shida doim 9 ta sariq bayroq hilpirab turgan. Xoqonlikda elchini Yalavoch yoki yalafar deb atashgan.

Xoqonlik hududlari el, viloyatlarga bo'lingan. Ijtimoiy tuzumda mavqeyi ancha baland hisoblangan yirik zamindorlar – dehqonlar qatlami qoraxoniylar davrida o'z ahamiyatini yo'qotadi. O'rta Osiyo ko'hna zodagon toifasining bunday ahvolga tushishiga asosiy sabab, siyosat maydonida yuz bergan sulolalar o'rtasidagi taxt almashuvi, eng ta'sirli jihati esa ko'chmanchilik sharoitiga moslashgan el-uluslarining o'troq aholi hududlarining ishg'ol etish bo'lgan.

Somoniylar zamonida mazkur sulola uchun xos markazlashgan davlat tuzumidan qoniqmagan aslzoda dehqonlar qoraxoniylarni qo'llab-quvvatlagan edilar. Yirik xonadon sohiblari – qoraxoniylar hokimiyatda uzoq davr turisha olishmadi va vaqti kelib, «biz hududimizning asosiy hukmdorlari bo'lib qolamiz», deb o'ylashgan edi. Ularning bunday rejalarini tushungan yag'mo va chig'illarning boshliqlari zodagonlarni quvg'in qila boshladilar. Buning oqibatida keksa boy qatlam vakillari o'z ekinzorlari, uy-joylari, mulklari va boyliklaridan mahrum bo'lishdi. Dehqon degan nom endilikda faqat oddiy jamoachiga nisbatan aytiladigan bo'lib qoldi. Aslzodalar o'zlarining daromad manbai – yer-mulkdan mahrum bo'la boshlagan sari oddiy jamoachi ziroatkorlar ijarachilarga aylana borishdi. Bu paytda yerlar egasiz va qadrsiz bo'lib qoldi. Unumdor joylar yaylovlarga aylandi. Biroq keyingi voqealar jarayonida Movarounnahr ijtimoiy hayotida jonlanish yuz berganligi haqida ma'lumotlar ham uchraydi.

Qoraxoniylarda oddiy xalq budun deyilgan. Soliq to'lovchi fuqaro raiyat deb atalgan. Qabila boshliqlari bek deyilgan, savdogarlar sart deb atalgan. Qoraxoniylar davlatida hunarmandchilik (kulolchilik, to'quvchilik, shishasozlik, temirchilik, zargarlik), shuningdek ziroat va chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlovchi sohalar taraqqiy etgan. Shuningdek, qimmatbaho toshlar, oltin, mis, temir qazib olingan. Shaharsozlik inshootlari pishiq g'ishtdan bunyod etilgan. Mazkur davrda yer egaligining iqto shakli keng tarqalgan. Xususan, Nizomulmulkning «Siyosatnoma» asarida shunday deya ta'kidlanadi: «Iqtoga sohib bo'lganlar (muqtolar) shuni bilishlari lozimki, ular faqatgina raiyatdan haq molini yaxshilik bilan olishga haqlidirlar va odamlar o'z tanuv mollari, bola-chaqalari, asbob-uskunalari bilan xavfsiz bo'lishlari shart. Agar odamlar saroyga kelib, o'z hollarini ma'lum qilmoqchi bo'lsalar, ular qarshilik qilmasinlar va qaysi bir muqto shunday qilsa qo'lini qisqartirib, iqtosini tortib olish, o'ziga jazo berib, boshqalarga ibrat etib ko'rsatish kerak. Ularga shuni bildirib qo'yish lozimki, mulk ham, raiyat ham xonnikidir. Muqtolar

va valiyilar ularni boshlarida shihnadek turib, podshohni raiyat bilan birga xavfsizlikdan saqlaydilar»<sup>1</sup>. Xoqon, vaqf, jamoa mulklari qoraxoniylar tasarrufidagi asosiy yer-mulklar hisoblanadi.

Qoraxoniylar davlatida saljuqiylarda bo'lgani kabi iqto egasi o'z mulkida ishlayotgan ziroatkorlardan belgilangan miqdorda qonun bilan qayd etilgan soliqdan boshqa ortiqcha mahsulot yoki haq olishga huquqi bo'lmagan. Majburiy ravishda biror-bir mahsulot tortib olinmagan, bunday vaziyatda iqtoning ma'lum miqdori qirqib olingan, yoki umuman tortib olingan.

Qoraxoniylar davrida konchilik sohasi ham taraqqiy etgan. Xususan, Qoramozorda (Ohangaron) mis, kumush, qo'rg'oshin, Farg'onada oltin, kumush, simob, temir, mis, feruza, qatron, Nurota tog'larida oltin, mis, qo'rg'oshin, simob, marmar, Buxoro va Ustrushonada oltin, neft, feruza, temir konlari bo'lgan.

Buxoro va Samarqandda yon-atroflarida gazlama to'qish yaxshi rivoj topgan. Paxtadan to'qilgan turli mato-gazlamalar mahalliy bozorlar hamda chet el savdogarlari orasida shuhrat qozongan. Ko'ncilik, hayvon terilaridan turli po'stin, bosh kiyim, poyafzal tayyorlash, echki, tuya, qo'y yunglaridan issiq kiyim (qars), guldor namatlar to'qilgani ham manbalarda alohida tilga olingan. Xususan, ko'ncilikda mo'yni to'ktirish ishida arzital nomli aralashmadan foydalanilganini Mahmud Koshg'ariy ham ta'kidlab o'tgan. Sharqiy Turkiston va Xitoyning arab dunyosi bilan bog'laydigan asosiy savdo yo'li ham Qoraxoniylar davlati hududidan o'tgan. Shahar va qishloq-

<sup>1</sup> Iqto arabcha «aqta'a» so'zidan olingan bo'lib, «kesmoq», «taqsimlab bermoq» degan ma'noni anglatadi. Iqto ma'lum hududdan xiroj solig'i olish huquqini biron-bir shaxsga berilishi bilan ifodalangan. Odatda, davlatga qarashli egasiz va tashlandiq yerlar merosiy va musodara qilish huquqi bilan biror kishiga xususiy mulk, ya'ni muqto tariqasida berilgan. Bu yer uchastkalari qati'a deb atalib, mulkka o'xshash bo'lgan, in'om etish hodisasining o'zi iqto deb atalgan. Aksariyat hollarda muqto (muqtodorlar) yerga o'zlari ishlov bermaganlar, balki yerni o'sha joydagi ijaradorlar bilan qo'shib olganlar yoki sug'orishga mablag' sarflab, o'zlashtirgan yerni ijaraga berganlar. Muqto yerdan ushr to'lagan, unga yer solig'i deb emas, balki zakot sifatida qaralgan.



larda bozorlar, karvonsaroylar orasta va ta'mirlangan, savdogarlar-ning xavfsizligiga katta e'tibor berilgan. Qoraxoniylar hukmronligi davrida Buxoroda Minorayi Kalon, Jarqo'ton, Vobkentda minoralar, O'zgandda maqbara, minora, masjidlar, Samarqandda shifoxona, madrasalar bunyod etilgan. Undan tashqari, mashhur Raboti Malik, karvon-saroylar, sardobalar, ko'priklar, hammomlar, xonaqohlar ham barpo qilingan. Qoraxoniylar davrida turkiylashish jarayoni kuchay-  
di, turkiy til, ayniqsa uning qarluq chig'il lahjasi keng tarqala bosh-landi, turkiy tildagi adabiyot yuzaga keldi.

#### **Qoraxoniylar (927–1212-yy.)**

Abdulkarim Sotuuq Bug'raxon (vafoti – 955-yy.)  
Muso ibn Sotuuq (vafoti – 992-yy.)  
Sulaymon ibn Sotuuq (?)  
Ali ibn Muso (vafoti 998-yy.)  
Ahmad ibn Ali (vafoti taxminan 1015–1018-yy. oralig'i.)  
Mansur Arslonshoh (1015–1024-yy. oralig'i)  
Ahmad II To'g'onxon (taxm. 1024 – 1026-yy.)  
Yusuf Qodiron (1026–1032-yy.)  
Muhammad Ayn ad-Davla (1040-yy.)  
Ibrohim Bo'ritakin (1040–1068-yy.) (Tamg'achxon)  
Shamsulmulk Nasr I (1068–1080)  
Xizrxon, Ahmad ibn Xizrxon (1095-y. o'ldirilgan)  
Mas'ud ibn Muhammadtegin, Xoruntegin, Ibrohim, Hasantegin  
Mahmud ibn Muhammad (vafoti 1141-yy.)  
Ibrohim ibn Muhammad (vafoti 1156-yy.)  
Jaloliddin Ali (vafoti 1160-yy.)  
Mas'ud II (vafoti 1170-yy.)  
Muhammad ibn Mas'ud (vafoti 1173/74-yy.)  
Ibrohim IV (1178–1204-yy.)  
Usmonxon (1204–1212-yy.).

#### **12.4. Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar va Xorazmning siyosiy munosabatlari**

**G'aznaviylar.** Sobiq sovet davri tarixshunosligida G'aznaviylar, xususan mazkur davlatning eng yorqin namoyandasi Mahmud G'aznaviy shaxsi to'g'risida umumiy hamda biryoqlama salbiy qa-rash ustunlik qilgan. Darslik va adabiyotlarda Mahmud G'aznaviyini asosan «talonchi», «zo'ravon hukmdor» deb ko'rsatish odat tusiga kirib qolgan edi. Mavzuning manbashunosligiga to'xtalganda, bu su-lola tarixi Abu Said Gardiziyning «Zayn ul-axbor», Abulfazl Bayha-qiyning «Tarixi Mas'udiy» asarlarida ko'proq o'z aksini topganligini ta'kidlash joiz. Shu bilan birgalikda, Nizomulmulkning «Siyosatno-ma», Nizomiy Aruziy Samarqandiyning «Chahor maqola», Ibn al-Asirning «Al-Komil fit-tarix» va boshqalarda ham G'aznaviylar dav-lati xususida tegishli ma'lumotlar uchraydi.

Somoniylar hukmronligi davridayoq sobiq turkiy qul (g'ulom) lardan tashkil topgan gvardiya saroy hayoti, umuman mamlakat si-yosiy hayotida muhim rol o'ynay boshlagan edi. Ushbu gvardiyaning boshlig'i hojib ham ahamiyatli lavozim egasi bo'lgan. Hojiblarning eng kattasi – Hojibi buzurg (ulug' hojib) bo'lib, u eng yuqori davlat amaldorlaridan biri bo'lgan.

Hojiblar ichida Alptegin alohida salohiyat egasi bo'lib, 35 yoshidayoq Xuroson sipohsolori darajasiga ega edi, qo'lida 2700 nafar harbiy askarlari bo'lgan. U keyinchalik Abdulmalik I davri-da (954–961) katta mavqe va ulkan yer mulklar egasiga aylandi. Amir vafotidan so'ng (961) Alptegin yangi amir Mansur I (961–976) bilan o'zaro nizoga borib qolib, bir qator to'qnashuvlardan so'ng, 961-yili G'azna va uning atrofidagi yerlarni egallaydi. Alp-tegin o'z tarbiyasi va homiyiligiga olgan sobiq turkiy qullar orasida Sabuqtegin ham bo'lgan. 963-yili Alptegin vafot etgach, G'aznada Somoniylar noibi sifatida uni Piri, Ishoq, Bilgategin kabi shaxslar ketma-ket boshqarib kelishdi. Hudud rasman Somoniylarga qarash-li deb hisoblangan.

Qoraxoniylarning o'zaro tafovutlaridan foydalangan Mahmud G'aznaviy 1024-yili Amudaryo bo'ylariga yurish qilib, Chag'oniyon, Qubodiyon, Xuttalon va boshqa chegaradosh viloyatlarni o'z davlati tarkibiga kiritadi. XI asr tarixchisi Gardiziy «Zayn-ul axbor» asarida Mahmud G'aznaviy bilan Tamg'achxon Qodir Qoraxoniyning yuzma-yuz uchrashuvi haqida hikoya qiladi. Uchrashuv 1025-yili Samarqand janubidagi bir joyda bo'lib o'tadi. Shundan so'ng Sulton Movarounnahr ishlariga yanada ko'proq aralasha boshlaydi.

Shia mazhabidagi Buvayhiylar sulolasi hukmronligiga chek qo'ygan sulton Mahmud G'aznaviy 1029-yili Erondagi Ray va Jilob yerlarini ham o'z mulkiga qo'shib oladi. Natijada, Mahmud G'aznaviy musulmon Sharqidagi eng yirik va qudratli davlat sohibiga aylanadi. Albatta, Mahmud G'aznaviy o'z davrining farzandi bo'lib, murakkab va ziddiyatli vaziyat, qarama-qarshiliklarga boy bo'lgan o'rta asrlarda hukmdorlik qilgan. Bu hol uning barcha sa'y-harakatlari, ichki va tashqi siyosatida yaqqol namoyon bo'lgandi.

G'aznaviylarning mashhur sultoni X asr oxirlari, XI asr boshlarida O'rta Sharqda yuzaga kelgan siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy-diniy ahvolni o'z holicha tahlil etishga harakat qildi. Shu davrda musulmon olamida bir qancha diniy oqim va mazhablar, har xil yo'nalishlarning turli darajadagi harakati kuchayib ketdi. Ular orasida ixtiloflar diniy ayirmachilik kayfiyatidagi qarmatlar va ayniqsa, shialikning o'ta so'l oqimi hisoblangan ismoiliylik ko'rinishida xavfli edi. Mazkur oqimlar tinch hayotga raxna solar, qo'rquv va vahimani kuchaytirib, ko'plab begunoh kishilarga zarar yetkazardi.

An'anaviy sunniy oqimiga qarshi turli diniy guruhlar ko'proq Hindiston bilan chegaradosh chekka viloyatlarda o'z faoliyatlarini kuchaytirib yuborishdi. Jumladan, Mo'lton (hozirgi Pokiston hududi) hokimi Abul Futuh Dovud ibn Nasr yangi mazhabga asos solib, o'z aholisini unga da'vat eta boshlaydi. Payg'ambar yo'li – sunniylikning hanafiya mazhabiga sodiq bo'lgan sulton Mahmud G'aznaviy shu oqimlarga qarshi ayovsiz kurash olib boradi. Shubhasiz, uning Hindistonni talon-toroj qilinishini bu bilan oqlab bo'lmaydi. Ammo sa-

bablarni ham ko'zdan qochirmaslik kerak. O'z davri farzandi bo'lgan sulton diniy fitnalarga qarshi kurashda Bag'dod xalifasi farmonlari, Imomi A'zam Abu Hanifa ko'rsatgan yo'l, shariat qonun-qoidalariga inyanar edi.

Misol uchun, aynan qarmatlar 929-yili Makkada talonchilik uyushtirib, Ka'badagi muqaddas tosh «Hajar ul Asvad»ni olib ketishadi. Tosh faqat 20-yildan keyingina joyiga qaytariladi. Abu Rayhon Beruniy «Osor ul Boqiya» asarida qarmatlar boshlig'i Abu Tohir Sulaymon tomonidan Makkada amalga oshirilgan g'ayrinsoniy harakatlarni nadomat bilan ta'kidlab o'tadi.

Eronda Daylam viloyatida qo'nim topgan ismoiliylar esa o'zlaricha nomaqbul deb hisoblangan shaxslarni jismonan yo'q qilubor, o'z faoliyatlarida islom dini qonun-qoidalarini taftish qilib, an'anaviylikka qarshi chiqishar, terror va dahshat uyg'otishni asosiy qurollariga aylantirib olgan edilar. Ko'plab savdo karvonlari bu yerlarni chetlab o'tar, ko'zga ko'ringan arboblardan, ulamo va boshqa shaxslar o'z jonlari uchun qattiq qayg'urishardi. Chunki, ismoiliy josuslari kutilmagan fitnalar bilan ularni «ovlash»ni keng yo'lga qo'yishgan edi. Bag'dodda yuz yildan ziyod siyosiy hukmronlikni qo'lga olgan Buvayhiylar (945–1055) xalifalikning diniy-ma'naviy hayotiga katta talofat yetkazishgan. Bu fikr-mulohazalarga ko'ra shuni aytish mumkin, musulmon xalqlari hayoti faoliyatida, ma'naviyat va tinch-totuv turmush kechirishiga qarmatchilik, ismoiliylik va boshqalar katta xavf tug'dirar, shu bois ham sulton Mahmud G'aznaviy ularga qarshi kurashishni o'zining bosh g'oyasiga aylantirgan edi.

Rayning buvahiylar hukmdori Majdud-davla Rustam (997–1029) yoshligi sababli davlat ishlarini uning onasi malika Sayyida olib borgan. U bilan bo'lgan yozishmalardan so'ng Mahmud ayol hukmdor ustiga yurish qilishni o'ziga ep ko'rmadi. Sayyida hayotlik chog'ida biron marotaba ham Rayga tazyiq o'tkazilmagan. Tarixchi Ibn al-A'bir bergan ma'lumotiga ko'ra, onasi vafot etgach, Rustam ismoiliylardan ko'p aziyat chekadi. Natijada, o'zi sulton Mahmuddan yordam so'rab, murojaat qiladi. 1029-yil Ray egallangach, sulton



qo'lga kiritilgan o'ljaning katta qismini Bag'dod xalifasiga jo'natadi va bu boylik asosan qurilish-obodonchilik ishlariga yo'naltiriladi. Bu xususda mashhur tarixchilar Abulfazl Bayhaqiy, Ibn al-Asir, Gardiziy va boshqalar turli darajadagi ma'lumotlarni yozib qoldirishgan. Mahmud G'aznaviy Hindiston va boshqa yurtlardan olib kelingan o'ljalarni ko'p hollarda obodonchilik hamda qurilish ishlariga sarflagan. Jumladan, u G'aznada ilk davlat madrasasi, mashhur jome masjid, ulkan suv to'g'oni va yana necha-necha inshootlar barpo ettiradi. G'azna tez orada Sharqning eng go'zal va obod shaharlaridan biriga aylanadi. Beruniy G'azna haqida gapirganda, bu shaharda hashamatli saroylar, madrasa va bozorlar ko'pligini qayd etgan edi.

Sulton Balx va Nishopurda ham bir qator qurilish ishlarini amalga oshirgan. Shuningdek, sulton ilm-fan madaniyat arboblari ham homiylik qilgan. Mahmud G'aznaviyning o'zi turkiy, arab, fors tillarini mukammal bilgan, she'riyatdan xabardor bo'lgan. Uning saroyida Farruxiy, Unsuriy, Manuchehriy, Utbiy, Gardiziy, Bayhaqiy va shu singari shoir, tarixchilar ham faoliyat ko'rsatishgan. Beruniyning eng sara asarlari ham G'aznada dunyoga kelgan. U sulton bilan ko'pgina yurishlarda ishtirok etgan. XI asr muallifi Nizomiy Aruzii Samarqandiy o'zining «Chahor maqola» nomli asarida Beruniy bilan sulton o'rtasida ancha iliq munosabat bo'lganligini ta'kidlaydi. Abulfazl Bayhaqiyning mashhur «Tarixiy Mas'udiy»sida, garchi sulton bilan Beruniyning munosabatlari hamisha ham silliq kechmaganligi qayd etilsa-da, lekin sultonning buyuk olimga xayrixohlik bilan qaraganini e'tirof etadi. Beruniy Mahmud G'aznaviy vafotidan (1030) keyin ham G'aznada to umrining oxirigacha, ya'ni 1048-yilga qadar yashab qoladi. U G'aznada rasadxona ochib, shogirdlariga dars beradi, unumli ijod qiladi. Mahmud G'aznaviy otasi Sabuqtegin yozib qoldirgan, «Ma'naviy ulug'vorlik bamisoli alanga va shamol, bularning harakat va parvoz xususiyati bor. Maishat esa, qiya yerdagi qum uyumiga o'xshash, uning tubanlikka surilish xosiyati bor», degan nasihatiga ko'ra, ilm-fan sohasiga ham katta e'tibor bilan qaragan. Shunisi diqqatga sazovorki, sulton 1019-

yili musulmon olamida ilk davlat madrasasini ochib, unga noyob qo'lyozmalarni to'plattirgan.

Aslida Abul Qosim ismli fors shoiriga Firdavsiy taxallusini bergan ham Mahmud G'aznaviy hisoblanadi. Sulton avval Firdavsiyga ijobiy munosabatda bo'lgan. Lekin shoir ijodi uchun munosib haq olmaganligini ro'kach qilib, berilgan 60 000 kumush dirhamni aholiga tarqatish orqali hurmatsizlik ko'rsatgach, sulton bundan qattiq g'azablanadi va uni o'limga hukm qiladi. Ammo Firdavsiyning tava-tazzarusidan keyin ko'ngli yumshab, hukmni bekor qiladi va uni shahardan chiqib ketishini buyuradi. Ta'kidlash joizki, Firdavsiyning turkiy xalqlar borasidagi ba'zi salbiy qarashlari ham sultonga maqbul bo'lmagan edi. Shoir Tusga yo'l oladi.

Firdavsiy saldan keyin sultonni hajv tig'iga olgan baytlar yoza boshlaydi. Bu esa Mahmud G'aznaviy nomining keyinchalik ham Firdavsiy ijodida salbiy ohangda tilga olinishiga zamin hozirlaydi. Umuman olganda, boshqa forsiy zabon shoirlar, masalan, Abulhasan Farruxiy, Abdulmajid Sanoiy va boshqalar sulton saroyida samarali ijod qilishgan.

Mahmud G'aznaviy buyuk olim Abu Ali ibn Sinoning ham o'z saroyida xizmat qilishni xohlagan. O'z vaqtida xorazmshoh Ma'mundan boshqa olimlar qatorida uni G'aznaga yuborishini talab qilgan. Shu bois, Gurganjga Ibn Ali Miqol boshliq elchilarni ham jo'natgan edi. Lekin Masihiy va Ibn Sino sulton Mahmud G'aznaviy saroyida xizmat qilishini istamay, Xorazmdan qochishga qaror qilishadi. Mahmud G'aznaviy Ibn Sinoni o'z saroyiga jalb etishga ko'p urindi, hatto uning siymosini qog'ozga 40 nusxada ko'chirtirib, qanday qilib bo'lmasin, uni topib keltirishga farmon beradi. Ta'kidlash joizki, Ibn Sino va sulton orasidagi munosabatlar chigal xususiyatga ega bo'lib, hali yechimini kutayotgan masalalar qatoriga kiradi.

Sulton Mahmud G'aznaviy davlatining ustuni edi. Uning vafotidan so'ng o'g'li Mas'ud (1030–1041-yy.) shuhrat pog'onasini saljuqiylarga topshirishga majbur bo'ladi. Mas'ud hukmronligi davrida saljuqiylar ta'siri kuchaya bordi. Avval 1038-yili Saraxs yaqini-

da bo'lgan jangda sulton Mas'ud g'alaba qozongan edi. Saljuqiylar bundan tegishli xulosa chiqarib, o'z harbiy tayyorgarliklarini kuchaytirishdi. 1040-yil mayida bo'lib o'tgan Dandanakon jangidan so'ng Xuroson saljuqiylar hukmiga o'tadi. Sulton Mas'ud mag'lub bo'lib, G'aznaga chekindi. Bu esa g'aznaviylar orasida norozilik va fitnaga sabab bo'ldi. Mas'udning ukasi Muhammad taxtni egallab, 1041-yil yanvarida Mas'udni qatl ettiradi. O'zi esa bor-yo'g'i 3 oy hokimiyatni egallab turdi. 1041-yil aprelidagi jangdan so'ng Mas'udning o'g'li Mavdud taxtni egalladi. Sulton Mavdudning (1041–1049-yy.) G'aznaviylar shuhratini qaytarish uchun olib borgan sa'y-harakatlari deyarli besamar tugadi. Tez orada G'aznaviylar davlati qo'li ostida Sharqiy Afg'oniston va Shimoliy Hindistonning bir qismi qoldi, xolos. G'uriylar hukmdori G'iyosiddin Muhammad 1186-yili oxirgi sulton Xisrav Malikni Panjobda o'ldirib, butkul G'aznaviylar sulolasiga xotima beradi.

G'aznaviylar O'rta Sharq hududida yagona geosiyosiy maydonni birlashtirishga muvaffaq bo'lishdi, shuningdek ular hukmronligi davrida ma'naviy hayotga tahdid soluvchi kuchlarga nisbatan chek qo'yildi, ilm-fan, adabiyot, shaharsozlik qurilishida ma'lum taraqqiyot yuz berdi.

Mahmud G'aznaviy X asr birinchi choragida musulmon Sharqi siyosat maydonida katta o'rin tutgan buyuk sarkarda va yirik davlat arbobi sifatida tarixda nom qoldirdi. Har bir tarixiy shaxs kabi uning faoliyati ham ziddiyatli va qarama-qarshiliklardan xoli bo'lmagan. Ayniqsa, bu hol uning butun hukmronlik davrining asosiy mohiyatini tashkil etgan.

G'aznaviylar davlatida boshqaruv tizimi Somoniylar, Qoraxoniylar davridagi boshqaruvga yaqin bo'lgan. Boshqaruv tizimining markazida dargoh va devonlar (vazirliklar) turgan. Dargohda hojiblik xizmati alohida e'tiborga sazovor bo'lgan. Hojiblikning bu davrda tarixchi Bayhaqiy ta'kidlagan quyidagi shakllari bor edi: ulug' hojib, saroy hojibi, navbatchi hojib, hojib-jomador. Ulug' hojib nafaqat hojiblar orasida, balki butun mamlakat hayotida katta mavqega ega

edi. Masalan, Mahmud G'aznaviydan so'ng bevosita hokimiyat ishlarini qo'lga olgan ulug' hojib Ali Qarib ismli shaxs bo'lgan. Rasmiy marosimlar, turli tadbirlarda ulug' hojib hukmdorga eng yaqin joyda turgan. Janglarda ham unga qo'shinning eng salmoqli va mas'uliyatli qismiga boshchilik qilish vazifasi yuklatilgan. Masalan, hukmdor markaziy, sipohsolor o'ng qanot, ulug' hojib esa chap qanotiga boshchilik qilishgan.

Dargoh faoliyatida sipohdor (saroy xizmatchisi), davotdor (hukmdor shaxsiy hujjatlari bilan bog'liq ishlarga bosh), pardador (maxfiy xizmatlarni bajaruvchi), martabador (o'rta darajadagi amaldor), farrosh (kichik xizmatchi), xazinachi, jomaxona (kiyim-kechak saqlovchi xona) boshlig'i kabi mansab va xizmatlarning ham o'z o'рни bo'lgan. Devonlar (vazirliklar) tabiiyki, ijroiya idoralari bo'lib, ularning manbalarda beshtasining nomi keltiriladi: vazir devoni, ya'ni bosh vazir devoni, harbiy ishlar devoni, diplomatik va boshqa rasmiy tadbirlar, hujjatlar devoni, moliya devoni, xat-xabar (pochta) devoni. Shuningdek, mushriflik (davlat nazorati), muhtasiblik xizmatlari ham bo'lgan. Viloyat boshlig'ini voliy deb atashgan, u hukmdor tomonidan tayinlanar edi. Viloyatdagi ijroiya boshqaruv ishlarini amid olib borgan. Shahar boshlig'ini esa rais deb atashgan. Shahar miqyosida shihna, qutvol (qal'a komendanti), sohibi devon (ma'muriy boshqaruvchi) kabi amaldorlar ham faoliyat yuritishgan.

G'aznaviylar, xususan Mahmud G'aznaviy davrida kuchli qo'shin yuzaga kelgan. Bosh qo'mondon – sipohsolor mansabiga sulolaning eng ishonchli kishisi tayin etilgan. Masalan, Mahmud G'aznaviy davrida bu mansabga Muhammad Yusuf tayin etilgan. Yuqori harbiy lashkarboshilar sarhang deyilib, ular xayl (bir necha o'n otliq)larga boshchilik qilishgan. Harbiylar o'z qozilik, xat-xabar xizmatlariga ega bo'lishgan. Dargohda shaxsan saralangan kuchli gvardiya ham alohida tarzda mavjud bo'lgan.

G'aznaviylar davrida ichki va tashqi savdo-sotiq aloqalari ancha rivoj topdi. Shaharlarda hunarmandchilik sohalari, qurilish, binokor-



lik, ganchkorlik va boshqalar taraqqiy etdi. Qishloq xo'jaligi avval boshidagi inqirozdan so'ng yana qaddini rostab ola boshladi, bozorlarda turli mahsulotlar turi ko'paydi va hokazo.

### G'aznaviylar (977–1186-yy.)

Sabuqtegin (977–997-yy.)

Ismoil (997–998-yy.)

Mahmud G'aznaviy (998–1030-yy.)

Muhammad (1030-yy.)

Mas'ud I (1030–1041-yy.)

Muhammad (1041-y.)

Mavdud (1041–1049-yy.)

Ali ibn Mas'ud ibn Mahmud (1049-yy.)

Bahouddavla Ali (1050-y.)

Abdurrashid (1050–1053-yy.)

Farruhzod ibn Mas'ud (1053–1059-yy.)

Ibrohim ibn Mas'ud (1059–1099-yy.)

Mas'ud III (1099–1115-yy.)

Sherzod (1115-y.)

Arsionshoh (1115–1119-yy.)

Bahromshoh (1119–1153-yy.)

Xisravshoh (1153–1160-yy.)

Xisrav Malik (1160–1186-yy.).

**Ismoiliylik. Qarmatiylar harakati.** O'rta asrlar tarixini yoritish, voqea va jarayonlarni tavsiflash vaqtida ma'lum bir joylarda ismoiliylar harakati, ismoiliylik atamalariga murojaat qilindi. Tabiiyki, o'quvchida bu borada o'ziga yarasha savollar paydo bo'ladi. Mazkur diniy oqim xususida at-Tabariy, Otamalik Juvayniy, Rashididdin, Ibn al-Asir va boshqa muarrixlar asarlarida tegishli ma'lumotlar uchraydi. Ushbu masala XXI asr o'zbek tarixshunosligida O.Mahmudovning tadqiqot ishida ham qisman yoritildi.

Ismoiliylik diniy oqimining asoschisi Ismoil shialarning Misrdagi oltinchi imomi Ja'far as-Sodiqning (700–765) katta o'g'li bo'lgan. Ismoil ichkilikka va maishatga berilgan, Bag'doddagi abbosiy xalifalarga qarshi o'ta keskin munosabatda turar edi. 760-yili Ja'far as-Sodiq o'z o'g'lining xulq-atvori va munosabatidan xavfsiragan holda uni vorislikdan mahrum etadi. Ismoil tarafdorlari bu holni tan olishmaydi. Ayirmachilik xarakteridagi g'oyalar bilan chiqa boshlagan Ismoil tarafdorlari o'zlarini ismoiliylar deb nomlashadi. Ismoil o'limidan keyin (762-y.) uning tarafdorlari o'z g'oyaviy doktrinalariga ega bo'lishadi. Keyinchalik turli g'oyalar ta'sirida ismoiliylar o'zlarining diniy- falsafiy tizimini shakllantirishdi.

Ularning ta'limotlarida islom ahkomlarini taftish qilish, an'anaviylikdan uzoqlashish, ichkilik va maishatga izn berish, payg'ambarlarning hammasini ham tan olmaslik, imomlarga e'tiqod qilib, ilohiy imom Mahdiyning qaytib kelishiga qat'iy ishonch bildirish, masjidlar, ziyoratgohlarni tan olmaslik, islomdagi an'anaviylikni bid'at deb tushuntirish va hokazolar ustuvor bo'lgan. Keyinchalik ismoiliylar ochiqdan ochiq islom diniga muxolif g'oyalarni ilgari surishgan. Ismoiliylar Misr va Suriyada abbosiy xalifalar ta'siri zaifligidan foydalangan holda hokimiyatni qo'lga olib, Fotimiylar xalifaligiga asos solishadi.

Ismoiliylardan keyinchalik qarmatlar harakati ham ajralib chiqqan. Ismoiliylarning Eronga yuborilgan targ'ibotchisi (doyi) Husayn al-Ahvoz Hamdon ibn al-Ash'asni o'z tomoniga og'dirib, shu g'oyaning targ'ibotchisiga aylantirishga turtki bo'ladi. Hamdonning laqabi «qarmat» bo'lib, tarixiy manbalarda uni turlicha izohlashgan («kalta oyoq», «qizil ko'z» va hokazo). Shu tariqa Qarmatlar harakati IX asr oxirlarida Janubiy Iroqda vujudga kelgan. Abbosiy xalifalar siyosatidan norozi aholining kayfiyatidan qarmatlar ustalik bilan foydalanishgan. Ismoiliylarning muxolifat ayirmachilik harakati, mantiqiy asosdagi islom ahkomlariga qarshi sa'y-harakatlari, aholi ichida ayirmachilik kayfiyati, nizo-parokandalikni kuchaytirdi, axloq-odob qoidalari, e'tiqod tushunchalariga zahmat yetdi. Fotimiylar xalifali-

gi xayrixohligi ostida qarmatlar 899-yili Bahraynni bosib olishgan. «Umumiy tenglik» g'oyasini niqob qilib olgan holda ko'plab nojoiz harakatlarni amalga oshirishgan. 930-yili qarmatlar Makkaga hujum qilib, uni talon-toroj qilishadi, hajga borganlarni o'ldirishgan, tirik qolganlarni qul qilib sotishgan, «Hajar al-asvad»ni (Ka'badagi muqaddas toshni) o'zlari bilan olib ketishadi. Bahraynda hokimiyatni olgan Abu Tohir «tenglik» g'oyasi ostida odob-axloq qoidalarini oyoq osti qildirgan. Qarmatlar islom dini qoidalariga amal qilishmagan, toat-ibodatlarini bajarishmagan, shariatni tan olishmagan, ro'za tutishmagan, masjidlarga borishmagan.

O'rta Osiyoda qarmatlar harakati ilk bora 907-yili Hirot, G'ur, G'archiston hududlarida yoyila boshlangan. Harakat va uning g'oyaviy rahnamosi Abu Bilol o'sha yiliyoq Somoniylar hukmdori Ismoil tomondan mahv etilgan. Qarmatchilik g'oyalarining yangi targ'ibotchisi Husayn ibn Ali Marvaziy 918-yili somoniylarga qarshi bosh ko'taradi. Harakat o'sha yiliyoq bostirilib, Marvaziy qo'lga olinadi. Qarmatchilik harakatining yana bir targ'ibotchisi Muhammad ibn Ahmad Naxshabiy bo'lib, u ayirmachi g'oyalarini Movarounnahrda olib kirishga harakat qiladi. Makkor va riyokor shaxs bo'lgan Naxshabiy ustalik bilan uni nafaqat «bozor ahli» orasida, balki saroy a'yonlari orasida ham yoyishga muvaffaq bo'ladi. Saroy bosh hojibi, mustavfiy devoni raisi, Buxoro raisi, Iloq viloyati hokimi va boshqalar ham bu g'oyaga xayrixohlik bildirishadi. Naxshabiy o'z ta'sirini hatto Somoniylar hukmdori Nasr II ga (914–943) ham o'tkazishga muvaffaq bo'lgan. Somoniylar amiri hatto Fotimiylar xalifaligiga bir paytlar qatl etilgan Marvaziy uchun tovon puli to'lashga ham rozi bo'lgan. 943-yili Nasr II ning o'z ixtiyori bilan hokimiyatdan ketishi ham uning qarmatchilik ta'siriga tushib qolganligidan norozi harbiylar, amaldorlar, ulamolar norozilik harakatining natijasi edi. Nuh II (943–954) qarmatchilik g'oyasi rahnamosini munozaraga chorladi. Munozarada, tabiiyki, Naxshabiy mag'lub bo'ldi. Shundan so'ng u va uning tarafdorlari qatl etildi.

Ismoiliylarning fotimiylar xalifasi al-Hakim (996–1021) o'zining aql bovar qilmaydigan xatti-harakatlari bilan avval turli diniy ja-

moalarga qarshi kurash boshladi, so'ngra o'zini «Xudo» deb atab, haj safarini man etdi. Ismoiliylar mazhablararo kurashni kuchaytirishar, ma'naviyat asoslari, e'tiqod birligiga raxna solishar, ularning g'oyalarini qabul qilmaganlarni jismoniy jihatdan yo'q qilishardi. Ismoiliylar o'z ayirmachilik g'oyalarini Yaqin va O'rta Sharqda yoyishga harakat qilib, bu yo'lda ko'plab razilliklarni amalga oshirishdi. Avval Ayubiylar (1169–1250), so'ngra Mamluklar sulolalari (1250–1517) hukmronligi davrida Misr va Suriyada ushbu diniy oqim sa'y-harakatlariga deyarli chek qo'yildi. Keyinchalik ismoiliylar o'zlariga markaz sifatida Eron shimolidagi Daylam hududini tanlashdi hamda shu yerdan turib, o'z sa'y-harakatlarini amalga oshira boshlashdi. Daylamdagi ismoiliylar guruhining rahbari Hasan Saboh ushbu harakatga yangidan kuch berib, ayirmachilik ruhiga rivoj berdi. Saljuqiylarning buyuk vaziri Nizomulmulk (1063–1092) o'z faoliyati davrida ismoiliylarga qarshi qat'iy kurash olib bordi.

Ayirmachi harakat josuslari ismoiliylar g'oyalariga qarshi chiqqan saljuqiylarning buyuk vaziri 1092-yili Nizomulmulkni o'ldirishdi, 1135-yili Bag'dod xalifasi al-Mustarshid ham ismoiliylar fitnasi qurboni bo'ldi. Shuningdek, ismoiliylar josusi xorazmshoh Takishning vazirini o'ldirib, sultonning o'ziga ham suiqasd uyushtirdi. Ular o'z josuslari orqali Somoniylar hukmronligi davrida Xuroson va Movarounnahrda mavjud ichki siyosiy ahvoldan foydalanib, ayirmachilik olovini yoqishga ham harakat qildilar. Ismoiliylar qator sulolalar, xususan G'aznaviylar, Saljuqiylar, Qoraxoniylar, Xorazmshohlarning sunniy hukmdorlarini o'zlariga dushman deb bilishgan.

Ismoiliylik harakatiga qarshi avval Mahmud G'aznaviy, so'ngra saljuqiy sultonlar ham kurash olib borishgan. Xorazmshoh Takish 1198-yili ismoiliylarni mag'lubiyatga uchratgan. Ismoiliylar Jalolidin Manguberdi faoliyatiga ham muxolif munosabatda bo'lib, ko'p holda mo'g'ullar bosqiniga yordam berishgan.

Islomiy bilimlar taraqqiy topgan, o'troq madaniy turmush tarzi-ga ega Movarounnahrning mustahkam e'tiqoddagi aholisi bunday ayirmachi diniy harakat g'oyalariga qat'iy qarshi bo'lishgan. Biz-



ning zaminda bu g'oyalar ildiz otishiga yo'l qo'yilmagan. Tarixchi Ibn al-Asir Movarounnahrda so'nggi ismoiliy josus 1045-yili qoraxoniylar hukmdori Ibrohim Tamg'achxon tomonidan o'ldirganligi va boshqa hech qachon bu yerlarda mazkur oqim tarafdorlari paydo bo'lmaganligini qayd etgan. O'rta asr musulmon tarixchilari o'z asarlarida bir ovozdan ismoiliylik harakatini qoralab, islom dini asoslari, aholi turmush tarzi, davlat xavfsizligiga raxna soluvchi kuch sifatida ularga salbiy baho berishgan.

Mo'g'ullarning Xulagu boshchiligidagi qo'shini 1256-yili Elbrus tog'laridagi Alamut qal'asini egallab, oxirgi ismoiliy imomi Hushohni qatl etdi. Mamluklar sultoni Beybars 1273-yili esa Suriyadagi ismoiliylarning so'nggi maskani bo'lgan al-Qahf qal'asini egallab, ushbu oqimning yaqin Sharqdagi bedodligiga chek qo'ydi.

**Saljuqiylar.** Saljuqiylar tarixi xususida bir qator tarixiy manbalar mavjud bo'lib, ular orasida al-Movardiyning «Al-ahkom as-sultoniyah val-valoyot ad-diniyah» («Sultonchilik ahkomi va diniy boshqaruvlar»), Nizomulmulkning «Siyosatnoma», Sadridin Ali Husayniyning «Zubdat at-tavorix», «Tarixi Salojaqa», Zahiriddin Nishopuriyning «Saljuqiynoma», noma'lum muallifning «Hudud ul-olam», Mas'udiyning «Muruj az-zahab», Abul Fazl Bayhaqiyning «Tarixi Mas'udiy», Abu Said Gardiziyning «Zayn ul-axbor», Ibn al-Asirning «Al-Komil fit-tarix» asarlarini alohida ta'kidlash joiz. XIII asr tarixchilari, shu davrda yashagan davlat arboblari al-Bundariy, ar-Ravandiy, Abul Faraj, ibn Bibi, Juvayniy va boshqalarning asarlari, esdaliklari ham shu davrni o'rganishda katta ahamiyat kasb etadi.

XX asr tarixshunosligida saljuqiylar masalasi yuzasidan A. Lempton, K. Kayen, G. Xorst, NV. Kyuner, I. Kafas o'g'li, S. Len-Pul, K. Bosvort, B. Zaxoder va boshqalar tadqiqot ishlarini amalga oshirishgan. Saljuqiylar davlati xususidagi fundamental asar turkman tarixchisi S. Agadjanovga tegishli bo'lib, yuqorida qo'yilgan masala yuzasidan muallif tomonidan e'lon qilingan adabiyotlarda to'laqonli ravishda o'z aksini topgan.

Saljuqiylar kelib chiqishi bo'yicha turkiy o'g'uz qavmiga tegishli bo'lib, Sirdaryoning o'rta oqimidagi yerlarda ko'chmanchi tarzda hayot kechirardi. O'g'uz qabilalari bir necha urug'larga bo'lingan edi. Ushbu urug'lardan biri qiniq urug'i bo'lib, uning sardori – Saljuq ibn Do'kak ismli kishi bo'lgan. Tarixchilar, xususan Ibn al-Asir Saljuqni iste'dodli, o'z fikr-mulohazasiga ega rahbar sifatida ta'riflagan. Ular ma'lum sabablarga ko'ra 925-yili Jand viloyatiga kelib o'rtnashib, so'ngra islom dinini qabul qilishadi. Bu yerda boshqa ko'chmanchi turkiy qavmlar bilan turli darajadagi kurashlar bo'lib o'tadi.

Saljuqning Muso, Yunus, Mikoil va Isroil ismli o'g'illari bo'lgan. Isroil manbalarda Arslon nomi bilan keltiriladi, Dovud esa Chag'ri nomi bilan ataladi. To'g'ul keyinchalik o'ziga Muhammad ismini ham olgan. Tarixiy manbalarning xabariga ko'ra Saljuq Jandda 102 yoshda vafot etib, o'sha yerga dafn etilgan. Mikoil ham o'zaro kurashlarning birida halok bo'lib, uning o'g'illari To'g'ul va Dovudlar Buxorodan 12 farsah uzoqlikdagi yerlarga kelib o'rtnashishadi. Arslonxon (Isroil) Qoraxoniylar xizmatiga o'tib katta mavqega ega bo'lgan, Alpteginga Movarounnahrni olib berishda yordam bergan. Qoraxoniylarning Amudaryodan janubga o'tishlariga qarshi harakat boshlagan Mahmud G'aznaviy saljuqiylarning kuch-quvvati, harbiy salohiyatini guvohi bo'ldi. U saljuqiylardan Arslon ibn Saljuqni ham qo'lga oldi. U 7-yil hibsda bo'lib, 1032-yili vafot etdi. Shundan so'ng saljuqiylarga To'g'ul va Dovud boshchilik qila boshlashdi.

Shu voqeadan so'ng Mahmud G'aznaviy 1025-yili 4000 oildan iborat saljuqiylarga Amudaryodan kechib o'tib, Saraxs, Farova, Obivard atroflaridagi yerlarga kelib o'rtnashishga ruxsat beradi. Saljuqiylarning bir qismi Isfahon va Kirmonga ketishlari ma'lum ziddiyatlarni keltirib chiqardi. 1029-yili Mahmud G'aznaviy ularga qarshi kurash olib bordi. Saljuqiylar avval Mahmud G'aznaviy, so'ngra uning o'g'li Mas'udning soliq siyosatiga qarshi chiqa boshlashadi. Bu paytda Xorazmda ham vaziyat keskinlashadi. G'aznaviylarga qaram bo'lgan Oltuntosh vafotidan so'ng uning o'g'li Xorun ibn



Oltuntosh Xorazm hokimi etib tayinlangan edi. Xorun qoraxoniylar bilan til biriktirgan holda, 1030-yili Xurosonga yurish qildi. Mas'ud Xorunni yo'q qilishga muvaffaq bo'ldi hamda qoraxoniylar bilan diplomatik kelishuvni amalga oshirdi. 1035-yilga kelib saljuqiylarning Xurosonda navbatdagi norozilik isyonlari boshlandi. Isyonlar oqibatida ko'plab nomaqbul ishlar, talonchilik harakatlari ham bo'lib, bu haqli tarzda oddiy aholi noroziligiga olib keldi. 1038–1039-yillarda Mas'ud G'aznaviy Balxdan Saraxs tomon qo'shin tortib, saljuqiylarning o'sha yerdagi qismlarini tor-mor keltiradi. Mas'uddan uzoqroqda bo'lgan To'g'ulbek esa Nishopur atroflarini egallab, katta o'ljani qo'lga kiritadi. Saljuqiylarning To'g'ulbek va Chag'ribek Dovud boshchiligidagi qo'shinlari Xurosonning turli hududlarida o'z mavqelarini oshirishardi. 1040-yil bahorida Saraxs va Marv oralig'idagi sahroda joylashgan Dandanakon nomli kichik qal'a yonidagi jang G'aznaviylar sultoni Mas'ud G'aznaviyning (1030–1041) mag'lubiyati bilan tugaydi.

Mas'ud G'aznaviy qolgan-qutgan qo'shinini olib tezlik bilan orqaga chekinishga majbur bo'ladi. Jang maydonining o'ziga taxt olib chiqilib, To'g'ulbek yangi yuzaga kelgan saljuqiylar davlatining birinchi hukmdori deb e'lon qilinadi (1040–1063). Mas'ud G'aznaviy Xuroson va Movarounnahr aholisi ichida uni qo'llab-quvvatlovchilar ko'p bo'lmasligini anglagan holda Hindiston tomonidan qo'shin yig'ishga harakat qilmoqchi bo'ladi. Shu yo'nalishda o'z ukasi Muhammadni tutqinlikdan ozod qilib, o'zi bilan safdosh qilish rejasi chippakka chiqadi. 1041-yili Muhammad va uning tarafdorlari tomonidan Mas'ud o'ldiriladi. Mas'udning o'g'li Mavdud bu voqeadan xabardor bo'lgach, katta qo'shin bilan Dinur (Fathobod) yonidagi jangda amakisi Muhammadni mag'lubiyatga uchratadi. Mavdud garchi Termiz va Balxni qo'lda ushlab qolgan bo'lsa-da, lekin u yuborgan qo'shin ham saljuqiylardan mag'lub bo'ladi.

Saljuqiylar rahnamosi To'g'ulbek (1040–1063) boshchiligidagi qo'shin tez orada Xurosonning katta qismi, Xorazm, Dehiston, Gurgonni qo'lga kiritadi. 1042-yili To'g'ulbek otliqlari shimoliy Eron-

dagi Ray viloyatini qo'lga kiritishadi. Saljuqiy otliqlar Ozarbayjon, Fors, Iroq yerlariga tez-tez hujum uyushtirib turdilar. To'g'ulbek qo'shini 1055-yili Bag'dodga kirib keladi. Bag'doddagi abbosiylar xalifasi al-Qayum (1031–1075) To'g'ulbek hukmini tan olgan holda, uni «sulton» deb e'lon qiladi. To'g'ulbek qo'shinlari Kirmon va Forsni egallab, Kavkazda Vizantiya imperiyasiga qaqshatqich zarba beradi. Tez orada Xorazm, Xuroson, Eron, Iroq va Kavkazning bir qismini o'z ichiga olgan Saljuqiylar davlati yuzaga keladi. To'g'ulbekning kuchli markazlashgan davlatni yuzaga keltirish, mamlakatda o'zaro parokandalikni tugatish, turli ayirmachi diniy guruhlarga qarshi kurashini aholining katta qismi, xususan xalifaning o'zi ham qo'llab-quvvatlar edi.

To'g'ulbek vafotidan so'ng taxtga uning jiyani Muhammad Alp-Arslon o'tiradi (1063–1072). Alp-Arslon taxtga o'tirgach, uni tan olishni xohlamagan ba'zi saljuqiy qarindoshlariga qarshi kurash olib boradi. Alp-Arslonning amakisi Faxr al-Mulk Hirotda o'zini mustaqil deb e'lon qiladi. Alp-Arslon katta qo'shin bilan Hirotni egalashga muvaffaq bo'ladi. Faxr al-Mulk uni yagona va qonuniy sulton sifatida tan oladi. Shundan so'ng kuchli harbiy lashkarboshi bo'lgan Alp-Arslon Chag'oniyonga yurish qiladi. Chag'oniyon hokimi Muso jangda asir olinadi. 1065-yili Alp-Arslon Jayhun (Ainudaryo)dan o'tib, Jand va Sabronga yurishni amalga oshiradi. Jand ham uning hukmini tan oladi. Shu tariqa davlat hududi yanada kengayadi. Bosib olingan yerlarda odatda mahalliy hokimlar, sulolalar hukmiga deyarli chek qo'yilar edi. Ular o'z aholisidan yillik boj solig'i to'lashar, oliy hukmdor sifatida saljuqiylar sultonini tan olishardi. Sulton esa istilo qilingan yerlarni o'z qarindosh-urug'lari, taniqli harbiy boshliqlarga bo'lib bera boshlaydi.

Alp-Arslon keyingi harbiy harakatlarni davom ettirib, 1071-yili Kichik Osiyodagi Mansikert qal'asi yonida Vizantiya imperatori Roman IV Diogenga (1067–1071) hal qiluvchi zarba beradi. Imperator butun qo'shini bilan Alp-Arslonga asir tushadi. Mansikert yonidagi jang Dandanakon (1040) jangidan so'ng saljuqiylar tomondan amal-



ga oshirilgan ikkinchi yirik harbiy operatsiya bo'ladi. Bu jang hosi-lasi o'laroq saljuqiylarning Old Osiyoga kirib kelishlariga keng yo'l ochiladi. Alp-Arslon Movarounnahrda harbiy yurish vaqtida 1072-yili mahalliy qal'a boshliqlaridan biri Yusuf al-Xorazmiy tomonidan og'ir yaralanadi. Asirlikdagi Yusufning qahramonona xatti-harakati-ga darhol chek qo'yilib, o'zi o'sha zahotiy oq saljuqiy askarlar to-monidan o'ldiriladi. Og'ir yaralangan sulton Alp-Arslon ham tezda vafot etadi. Sulton Marvga dafn etiladi.

Ibn al-Asirning yozishiga ko'ra, Alp-Arslon hayotlik chog'idayoq 1066-yili Eron shimolidagi Radkon (Radakon) degan joyda saroy a'yonlari oldida o'g'li Malikshohni taxt vorisi deya e'lon qilgan edi. Jaloliddin Malikshoh nomi bilan taxtga o'tirgan yangi sulton hukm-ronligi roppa-rosa yigirma yil davom etadi (1072–1092). Uning hukmronligi saljuqiylar davlatining eng gullab-yashnagan davri bo'ladi. Sulton Jaloliddin Malikshoh avval qoraxoniylardan Termiz-ni qaytarib oladi. Qoraxoniylar sulton ustunligini tan olishadi. 1089-yili saljuqiylar sultoni Jaloliddin Malikshoh qoraxoniylar xoni Ah-madxondan norozi guruhlar bilan kelishgan holda Movarounnahrda yurish qilib, Samarqand va Buxoroni egallaydi. Shundan so'ng sulton Koshg'ar tomonga yurish qila turib, Farg'onaning O'zgand shahriga yetib keladi. Sultonning harbiy yurishidan cho'chigan Koshg'ar ho-kimi uning oliy hukmronligini tan olganligi haqida chopar jo'natadi. Keyinchalik Samarqandda ko'tarilgan qo'zg'olon bois shahar ikkin-chi marotaba mahv etiladi.

Jaloliddin Malikshoh davrida saljuqiylar davlatining chegarala-ri Sharqiy Turkistondan O'rta Yer dengiziga qadar cho'zilib ketadi. Ta'kidlash joizki, bu ulkan hududdagi yerlardagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotni boshqarish uchun malakali mutaxassislar kerak edi. Shunday bir vaziyatda Movarounnahr va Xuroson madaniy qat-lamlaridan chiqqan o'qimishli mahalliy xalq vakillarini davlat ish-lariga jalb etish boshlanadi. Shunday kishilardan biri asli Tusdan bo'lgan Abu Ali ibn Ali ibn Is'hoq bo'lib, u deyarli 30 yil davomida (1063–1092) Alp-Arslon, Malikshoh saroylarida bosh vazir lavoz-i-

mida bo'lgan. Uning yuksak salohiyati, aql-u zakovatiga yuqori baho berib, sulton Malikshoh vaziriga «Nizomulmuluk» («Davlat nizomi, qonun-qoidasi») faxriy taxallusini beradi. O'z davrining oqil kishisi bo'lgan Nizomulmuluk mashhur «Siyosatnoma» asarida davlat bosh-qaruvi, siyosat tamoyillari haqida so'z yuritgan<sup>1</sup>.

Davlatni markazlashtirish, o'zaro parokandalik va ayirmachilik-ka qarshi kurash, xo'jalik va madaniy hayotni yuksaltirishda Nizom-ulmulukning hissasi yuqori darajada bo'ladi. Nizomulmuluk markaz-lashgan, qudratli davlat uchun kerak bo'ladigan amaldorlarni tegishli qonun-qoidalar uslubida tarbiyalashda qator shaharlarda «Nizomiya» madrasalarini tashkil etadi. U an'anaviylik tarafdori bo'lib, ijtimoiy-ma'naviy hayotda ismoiliylik diniy oqimiga qarshi turgan<sup>2</sup>. Sohib-qiron Amir Temur ham o'z «Tuzuklari»da Nizomulmuluk faoliyatiga ijobiy baho berib, uning xizmatlarini e'tirof etgan edi. Sulton Jalo-liddin Malikshoh o'limidan so'ng (1092), o'zaro toj-u taxt uchun kurashlar boshlanib ketadi. Bu kurashda sultonning yosh o'g'li Ber-kiyoruq (1094–1105) g'olib bo'ladi. Keyinchalik ham nizolar davom etib, XII boshlarida saljuqiylar davlati amalda ikki qismga bo'linib ketadi. Movarounnahr va Xuroson hududlari kirgan Sharqiy salju-qiylar qismida Malikshohning o'g'li Sanjarning ta'siri ortib boradi. 1097-yildan Xuroson hokimi bo'lgan Sanjar oliy hukmdorga rasman bo'ysunsa-da, amalda mustaqil harakatlar olib boradi. 1099-yil u Toharistonni, 1102-yil Samarqandni qo'lga oladi. Termiz yonida qo-raxoniylar xoni Qodirxon qo'shinini mag'lubiyatga uchratib, Mova-rounnahr taxtiga boshqa qoraxoniylar vakili, o'z jiyani Arslonxonni o'tkazishga muvaffaq bo'ladi.

1104-yili G'azna qo'lga kiritiladi. G'aznaviylardan taxtga o'tka-zilgan Bahromshoh har yili Sanjarga besh ming dinor boj solig'i

<sup>1</sup> Nizomulmulukning «Siyosatnoma» asari 1997-yili o'zbek tiliga tarjima qi-lingan.

<sup>2</sup> Nizomulmuluk tomonidan olib borilayotgan siyosiy yo'l ma'lum davlat amal-dorlariga maqbul emas edi. Turli fitna-fasodlar bois Nizomulmuluk 1092-yil iste'fo-ga chiqib, hajga yo'l olgan paytida ismoiliy josus tomonidan o'ldiriladi.

to'lash majburiyatini oladi. Oliy sulton G'iyosiddin Muhammad I (Muhammad Topar) vafotidan keyin boshlangan o'zaro kurashlarda Sanjar g'olib bo'ladi.

Taxtga sulton Muiziddin Sanjar (1118–1157) nomi bilan o'tirgan yangi hukmdor Sharqiy va G'arbiy saljuqiy hududlarni birlashtiradi. O'z g'alabasidan manfaatdor tarzda Mozandaron, Damovand, Qumis, Damg'on, Ray yerlarini ham egallaydi. Uning hukmdorlik rutbasini Seyiston, Xorazm, G'azna, Movarounnahr yerlari ham tan oladi. Sanjarning sultonlik hokimiyatini olishda xorazmshoh Qutbiddin Muhammad (1097–1127) katta ko'mak ko'rsatadi. Garchi Sulton Sanjar barcha saljuqiylarning oliy hukmdori sanalib, uning nomi ramziy tarzda xutbada, tangalarda qayd etilsa-da, lekin Iroq, Kichik Osiyo, Janubiy Kavkazda uni rasman tan olishar edi. Sulton Sanjar qo'lida uzoq vaqt Mozandaron, Xorazm, Seyiston, G'azna, Movarounnahr qaram bo'lib keladi. Sanjarni uzoq hukmronligi davrida o'z davri kishilik jamiyati, muarrixlar «malik al-mashriq», «buyuk sulton», «sultonlar sultoni», «ulug' shahanshoh» nisbalari bilan ulug'lashgan. Sulton Sanjar o'z poytaxti sifatida Marv shahrini tanlagan.

Ta'kidlash lozimki, Saljuqiylar davlati singari ulkan hududlarni o'z ichiga olgan davlatni yagona markazdan turib boshqarish oson emas edi. Shuning uchun ham markazdan turib boshqaruvdagi qiyinchiliklar, sulola vakillarining toj-u taxt uchun kurashlari, mahalliy hukmdorlarning mustaqillikka intilishlari, qaram o'lkalardagi norozilik harakatlari Saljuqiylar davlatining zaiflashuviga sabab bo'lgan edi. Natijada Sulton Sanjar davriga kelib (1118–1157) Saljuqiylar davlatining g'arbiy Iroq qismida uning ta'siri pasayib ketadi. Mamlakatning Sharqiy qismi – Eron, Afg'oniston, Xorazm va Movarounnahrda sultonning ta'siri birmuncha kuchli edi. Ammo, 1141-yilda Sulton Sanjar va uning vassali hamda ittifoqchisi, qoraxoniylar Mahmudxonning birlashgan qo'shinlari bilan qoraxitoylar o'rtasida Samarqand yaqinidagi Qatvon cho'lidagi jangda Sulton Sanjar qo'shinlari mag'lubiyatga uchraydi. Natijada Movarounnahr qo'ldan ketib, sultonning mavqeyi ancha pasayib ketadi.

Saljuqiylarning mag'lubiyatidan xorazmshoh Qutbiddin Muhammad Otsiz ustalik bilan foydalanib, 1141-yilning qishida saljuqiylarning poytaxti Marvni bosib oladi va 1142-yilda Nishopurga yurish qiladi. Lekin Sulton Sanjar Xorazm qo'shinlarini Xurosondan quvib chiqaradi va Otsizni yana o'ziga bo'ysundirishga erishadi. Sulton Sanjarning harakatlariga qaramay, Saljuqiylar davlati o'zining avvalgi qudratini yo'qota boshlagan edi. Saljuqiylarga hal qiluvchi zarbani Balx va Xuttalon viloyatlarida yashovchi o'g'uz qabilalari beradi. 1153-yilda ular Sulton Sanjar qo'shinlarini tor-mor etib, uning o'zini asir olishadi. O'g'uzlar himoyasiz qolgan Marv va Nishopur shaharlarni talon-toroj qilib, ularga o't qo'yishadi. Sulton Sanjar 1156-yilda asirlikdan qutulishga muvaffaq bo'lsa ham, lekin Saljuqiylar davlatini qayta tiklay olishmaydi. U bir yildan so'ng vafot etdi. Sulton Sanjar vafoti bilan (1157-y.) saljuqiylarning O'rta Osiyodagi hukmronligi o'z poyoniga yetadi.

Saljuqiylar hukmronligi u yoki bu darajada 1157-yildan – 1194-yilgacha faqat G'arbiy Eron va Iroqda saqlanib qoldi. Saljuqiylar davlat boshqaruvi o'ziga xos edi. Davlat boshlig'i, oliy hukmdor saljuqiylar xonadoni vakili bo'lib, sulton ul-a'zam unvoniga ega bo'lgan. Ilgarigi sulolalarda bo'lgan kabi, sulton nomiga xutba o'qilib, tangalar zarb etilgan. Mol-mulk, yer-suv taqsimlash davlat va boshqaruv mansablariga tayinlash, davlat kirim-chiqimlarini nazorat qilib turish, amaldorlar va xizmatkorlar faoliyatini nazorat qilish, yangi qal'alar, shaharlar, hashamatli inshootlar qurishga boshchilik qilish kabilar sultonning zimmasida bo'lgan.

Saljuqiylar boshqaruv tizimida bosh vazir alohida mavqega ega bo'lgan. Manbalarda bosh vazir-ra'is ur-ruaso (raislarning boshlig'i), sayyid ur-ruaso (boshliqlarning kattasi) deb atalib, u barcha devonlar faoliyatiga rahbarlik qilgan holda xazina, moliya, soliq, davlatga tegishli bo'lgan ishlab chiqarish muassasalari ishlarini nazorat qilgan.

Saljuqiylar boshqaruv tizimi dargoh va devonga bo'lingan bo'lib, dargohdagi eng asosiy xizmat va vazifalar quyidagilar edi:



Ulug' hojib – oliy hukmdorning eng yaqin kishisi, dargoh bilan devonlar o'rtasidagi aloqalarni muvofiqlashtirib turuvchi, rasmiy qabullarni uyushtiruvchi amaldor;

Amiri horis – oliy hukmdor chiqargan jazolar hukmlarini ijro etish bilan shug'ullanuvchi amaldor;

Salohdor – saroydagi qurol-aslaha, ayniqsa oliy hukmdorga tegishli narsalarni saqlash bilan shug'ullanuvchi amaldor;

Xos vakil – dargoh ishlarini boshqaruvchi amaldor;

Jangdor – sulton va dargoh xavfsizligini ta'minlovchi amaldor. Undan tashqari, oliy hukmdor huzuridagi dargoh faoliyatini ta'minlashda jomador, sharobdor, choshnigir (sultonning ovqatlani-shiga mas'ul), sarhang, miroxo'r, tashtdor kabi amaldorlar ham xizmatda bo'lgan.

Saljuqiylar davlat boshqaruvidagi devonlar sulolaviy va rasmiy devonlarga bo'lingan. Sulolaviy devonlar oliy hukmdor xonadoni faoliyati bilan bog'liq boshqaruvi va hisob-kitobi bilan shug'ullan-gan. Rasmiy devonlar quyidagilar bo'lgan:

Devoni tug'ro – bu devon oliy hukmdorning farmonlari, qarorlari, rasmiy yozishmalari va hujjatlarini tayyorlab, ularni muhr bostirish-ga taqdim etgan. Joylarga rasmiy hujjatlar yuborish, ulardan hujjat-lar qabul qilish, chet ellarga maktublar yuborish, davlat hujjatlarida maxfiylikni ta'minlash ham shu devonning vazifasi edi;

Devoni istifo (moliya devoni) – davlat kirim-chiqimlarini, soliq-lar, boj va boshqa moliyaviy daromadlar, ularni alohida ro'yxatga olish bilan shug'ullangan. Bu devonning xizmatchilari dargoh kirim-chiqimlari, xazinadagi ahvol, mavjud naqd pulning hisobi, davlat qaramog'ida bo'lganlarga ketadigan xarajat, maosh, nafaqa miqdori kabilarni ham nazorat qilishgan;

Devoni ishrof (davlat nazorati) – moliya-soliq ishlarini nazorat qilish va tekshirish, vaqfga tegishli mulklar ustidan umumiy nazo-rat olib borish, sulolaga tegishli yer-suvlar, qimmatbaho moliya qog'ozlari, zarbxonalar, amaldagi muhrlar, bozor mutasaddilari, so-

liqchilar, qishloq oqsoqollari va boshqa amaldorlar ustidan nazorat olib borgan;

Devoni arz (harbiy vazirlik) – lashkarga mo'ljallangan maosh va ta'minot, harbiylarning ro'yxati, yangilanib turishi, harbiy qismlar-ni tarkibiy soni, ularga ketadigan xarajatlarning turi va hajmi, ot-ulov, harbiy yurishlar paytidagi ta'minot, harbiylar ko'rigini tashkil etish kabi vazifalarni bajargan.

Saljuqiylar hokimiyatida, ayniqsa Sulton Sanjar hukmronligi dav-rida hokimiyatda harbiy sarkardalar katta o'rin egallashgan. Harbiy boshliqlar va sarkardalarning ko'pchiligi turli urug' va qabilalardan (o'g'uz, turkman, xalaj, chig'il va boshq.) chiqqan kishilardan bo'lgan. Harbiy sarkardalar tabaqasi o'z ta'sirini Sulton Sanjar boshqarayot-gan hokimiyatga o'tkazib, ularning ixtiyori bilan ish tutishni talab qi-lishgan. Harbiy sarkardalarning mavqeyi Sulton Sanjarning Qatvon cho'lidagi mag'lubiyatidan so'ng yanada kuchayib ketgan edi.

Saljuqiylar davri mahalliy boshqaruv tizimida viloyat boshliq-lari (voliylar) ham o'z devonlariga ega bo'lishgan. Voliylarni oliy hukmdor tayinlagan va mansabidan olgan. Voliylar butun viloyat hayoti bilan bog'liq barcha sohalarga boshchilik qilishgan. Moliya, soliq, sud, harbiy ishlar, jazo idoralari voliylar nazorati ostida faoli-yat ko'rsatgan. Tumanlar va shaharlar miqyosidagi boshqaruv tizimi ham viloyatlarniki singari bo'lgan.

### **Saljuqiylar (1040–1157-yy.)**

To'g'rulbek (1040–1063-yy.)

Alp Arslon (1063–1072-yy.)

Jaloliddin Malikshoh I (1072–1092-yy.)

Mahmud II (1092–1094-yy.)

Rukniddin Berkiyuruq (1094–1104-yy.)

Malikshoh II (1104–1105-yy.)

G'iyosiddin Muhammad (1105–1118-yy.)

Muiziddin Sanjar (Sulton Sanjar) – (1118–1157-yy.).

## 12.5. Xorazmshohlar-Anushtaginiylar davlati

O'zbek davlatchiligi taraqqiyoti tarixida qadimiy Xorazm vohasi o'ziga xos o'rinni egallaydi. Unda kechgan siyosiy jarayonlar ko'p holda butun mintaqadagi holatga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Iqlim sharoiti nisbatan noqulay bo'lgan vohada asrlar davomida mazkur hududda yashovchi zahmatkash va tanti, shijoatli va mehnatsevar aholi qo'li bilan qator suv inshootlari, qal'a va shaharlar barpo etilganligi, boy madaniy va ma'naviy meros vujudga kelganligini alohida ta'kidlash lozim.

Xorazm eli hukmdori – xorazmshoh unvoniga o'z vaqtida bir qator sulolalar mansub bo'lishgan. Jumladan, 305–995-yillarda Afrig'iylar, 995–1017-yillarda Ma'muniylar, 1017–1034-yillarda G'aznaviylar noibi bo'lgan Oltuntosh avlodlari shular jumlasidandir. Abu Rayhon Beruniy xorazmshohlar unvoniga birinchi sazovor bo'lgan Afrig'iylarni siyovushlarning 22 avlodi bo'lgan Afrig'ga borib taqaladi, degan edi. Afrig'iy-Xorazmshohlar eramizning 305-yilidan to 995-yilgacha Xorazmda hukmronlik qilishgan. Uning poytaxti Tuproqqal'a yodgorligi o'z ko'lamiga bo'yicha hanuzgacha arxeolog olimlarning e'tiborini tortib kelmoqda. Qadimgi Xorazm tarixini o'rganishga ulkan hissa qo'shgan S.Tolstov poytaxt Tuproqqal'ada mustahkam devor yaratgan qadimgi ustalarning mehnati, hudud madaniyatiga katta baho bergan edi. Ushbu davlatda o'ziga xos madaniyat, dehqonchilik, sug'orish tizimi sohalarida tegishli o'zgarishlar ro'y bergan edi.

X asrda Xorazm Somoniylar davlati tarkibiga kirgan edi. Xorazmshohlar esa, Amudaryoning o'ng qirg'og'ida hukmronliklarini davom ettirishgan. Somoniylar davlati inqirozga yuz tutib, 990–992-yillardagi Qoraxoniylar hujumi natijasida Afrig'iylar sulolasi vakili Abu Abdulloh Muhammad hukmronlikni o'z qo'lga olib, Kot (hozirgi Beruniy) shahrini o'z qarorgohi deb e'lon qildi. Shimoliy Xorazm poytaxti – Gurganj, janubniki esa – Kot shaharlari deb e'tirof etildi. Bu ikkala shahar ham o'z davrining yirik savdo-iqtisodiy markazlari bo'lib hisoblanardi.

992-yili ikkala tomon o'rtasida bo'lib o'tgan janglarda shimoliy Xorazm hukmdori Ma'mun ibn Ma'mun g'alaba qozondi hamda xorazmshoh unvonini qabul qilib, Gurganj (hozirgi Ko'hna Urganch)ni poytaxt deb e'lon qildi. Ma'mun ibn Muhammad (992–997), Ali ibn Ma'mun (997–1009) davlat qudratini mustahkamlab, harbiy kuch-qudratni oshirishga katta ahamiyat berishdi. Ushbu davlatni yonatrofdagi davlatlar, Kiyev Rusi ham tan olgan edi. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, hatto knyaz Vladimir Xorazmga o'z vakillarini yuborgan ekan. Ma'muniylar o'z hududlarini ham kengaytirishga muvaffaq bo'lishdi, Volgabo'yi, Sirdaryo, Kaspiy oralig'idagi yerlarni o'z hukmronligi ostiga oldi. Ma'muniylar mamlakatda tartib va osoyishtalik o'rnatib, savdo-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishdi, ilm-fan, madaniyat vakillariga homiylik qilishdi. Abul Abbas Ma'mun (1009–1017) davrida davlat ichki va tashqi siyosatidagi ijobiy harakatlar davom ettirildi. Xususan, uning hukmronligi davrida Xorazmda «Xorazm Ma'mun akademiyasi» nomi bilan dong taratgan ilmiy markaz tashkil qilindi. Qurilish, obodonchilik ishlariga katta e'tibor berildi.

Aynan Anushtaginiylar (1097–1231) davridagina ushbu unvon mavqeyi o'zining baland cho'qqisiga chiqib, mazkur sulolani o'z davrining eng buyuk va nufuzli saltanatiga aylantirishga muvaffaq bo'ldi. Xorazmshoh-Anushtaginiylar davlati tarixiga oid bir qator tarixiy manbalar mavjud bo'lib, ular orasida quyidagilar o'z ko'lamiga ko'ra alohida o'rin egallaydi. Ibn al-Asirning (1160–1234) «Al-komil fi-t-tarix» («Mufasssal tarix»), Rashididdin Fayzulloh al-Hamadoniyning (1247–1318) jahon tarixiga bag'ishlangan «Jome ut-tavorix» («Tarixlar majmuasi»), Shahobiddin Muhammad an-Nasaviyning katta ahamiyat kasb etuvchi «Siyrat us-sulton Jaloliddin Mankburni» («Sulton Jaloliddin Manguberdining hayot faoliyati»), Olovuddin Otamalik Juvayniyning (1226–1283) «Tarixi Jahonkushoy» («Jahongir tarixi»), Hamidulloh Qazviniyning (1281-y.tug'.) «Tarixi guzida» («Saylangan tarix»), Abul Fidoning (1273–1257) «Muxtasar tarix al-bashar» («Bashariyat qisqacha tarixi»), Sharofuddin Abdulloh Vassofning «Tarixi Vassof», Minhojiddin



din Juzjoniyning «Taboqati Nosiriy» («Nosirga atalgan tabaqalar») asarlari shular jumlasiga kiradi.

Xorazmshoh-Anushtaginiylar davlati tarixi XX asr tarixshunosligida ham chuqur o'rganilganligini ta'kidlash lozim. Rus olimlaridan V.V. Bartold, S.P. Tolstov, A.Ya. Yakubovskiy, S. Volin va boshqalar yuqorida ta'kidlangan masalaning u yoki bu jihatlariga e'tibor bergan holda o'z asarlarida tegishli masala mohiyatini yoritib berishgan. Shubhasiz, xorazmshohlar tarixi xususidagi fundamental asar bu sharqshunos olim Z. Bunyodov qalamiga mansub «Anushtagin xorazmshohlar davlati» kitobi hisoblanadi. Muallif o'z asarida xorazmshohlar davlatining paydo bo'lishi, taraqqiyoti, ijtimoiy-siyosiy hayot, iqtisodiy munosabatlar, madaniyat masalalarini mukammal tarzda yoritib beradi.

Ushbu asarni o'zbek kitobxonlari 1998-yildagi tarjima asnosida o'z ona tillarida o'qishga muyassar bo'ldilar<sup>1</sup>. Mustaqillik yillarida mavzuga oid adabiyotlar ichiga Azamat Ziyoning 2000-yili chop etilgan «O'zbek davlatchiligi tarixi» asarini alohida ta'kidlash joiz. Mazkur adabiyotda muallif o'zbek davlatchiligi tarixida Xorazmshoh-Anushtaginiylar davlatining tutgan o'rni va rolini manbalar tahlili asosida ko'rib chiqishga muvaffaq bo'lgan. Mavzuga oid masalalarning ma'lum jihatlarini qator xorijiy olimlar asarlarida ham o'z ifodasini topgan. Ular orasida K. Bosvort, Ibrohim Qafas o'g'li, J.A. Boyl, K.K. Valker, R. Krausset, D. Martin, R. Maxapandita, E. Knoblich, O. Tonariy, G. Brokgelman B. Shpuler, A. Xartmann, F. Daftariy, J. Kolbas, D. Siyoqiy. D. Timoxin va boshqalarning asarlarini ta'kidlash maqsadga muvofiqdir.

Xorazmshoh-Anushtaginiylar sulolasining asoschisi Anushtagin tarixchilardan Rashididdin, Hofizi Abrularning yozishlariga qaraganda, o'g'uzlarning turkiy «bekdili» urug'iga mansub bo'lib, yoshligida qul qilib sotilgan. Uni saljuqiy harbiy amirlaridan Izziddin O'nar

<sup>1</sup> Kitobning yana bir tarjimasi prof. H. Boltaboyev tomonidan 2012-yili tarjima qilindi. *Qarang*: Ziyu Bunyodov. Markaziy Osiyoga doir tadqiqotlar. – Toshkent: «Mumtoz so'z», 2012.

Bilgitagin sotib olgan. Ushbu amir qul bolani sultonga taqdim etgan. Sulton Jaloliddin Malikshoh I (1072–1092) davrida Anushtagin saroyda ishonchli kishilar safidan joy olib, tez orada tashtdorlik mansabini egallagan. Eng ishonchli kishilarga taqdim etiluvchi ushbu mansab egasi tez orada sultonning eng yaqin kishilaridan biriga aylanadi. Keyinchalik u «Xorazm mutasarrufi» mansabiga tayinlanib, unga Xorazm shixnasi (qal'a boshlig'i) unvoni beriladi. Sulton Rukniddin Berkiyoriq (1094–1104) davrida Xuroson hokimi bo'lgan Dodbek Habashiy ibn Oltuntosh (1097-yili vafot etgan) Anushtaginning xizmatlarini inobatga olgan holda uning o'g'li Qutbiddin Muhammadni Xorazm hokimi etib tayinlab, unga «xorazmshoh» unvonini beradi. Aynan shu yildan sulola tarixi ham boshlanadi.

Qutbiddin Muhammad (1097–1127) otasi hayotlik chog'idayoq Marvda o'qib, ta'lim olgan, qator dunyoviy va diniy ilmlardan bo-xabar ma'rifatli shaxs bo'lgan. Tarixiy manbalar uni qobiliyatli rahbar sifatida ma'rifat ahliga homiylik qilganligini alohida ta'kidlab o'tishgan. Ahli Xorazmda «O'z fuqarolariga adolatli» hukmdorning obro'si baland edi. Xorazmshoh Qutbiddin Muhammad saljuqiylarning hokimiyat uchun kurashlarida faol qatnashgan. Jumladan, 1100-yili sulton Jaloliddin Malikshoh I ning o'g'li Sanjar tomonidan Xuroson hududlarini egallashda unga qarshi isyonni bostirishda ishtirok etdi. Shuningdek, u 1118-yili Sanjar tomonida turib, uni sultonlik taxtiga o'tirishiga munosib hissasini qo'shdi. Diplomatik mahorat qobiliyatiga ega bo'lgan xorazmshoh Qutbiddin Muhammad turli nizolarni bartaraf etishda ham faol ishtirok etar edi. Xususan, Saljuqiylar sultoni Sulton Sanjarning (1118–1157) Samarqanddagi qoraxoniylar xoni Arslonxonga (1102–1130) qarshi harakatida Qutbiddin Muhammad vositachiligida ushbu nizo tinch yo'l bilan hal etiladi. Bu esa xorazmshohning o'z davrida qanchalik nufuzi baland bo'lganligidan darak beradi.

O'zi boshqarib turgan hudud uchun qanchalik mas'ul ekanligini his qilgan xorazmshoh ko'chmanchi qabilalarning hujumini bartaraf etishga ham muvaffaq bo'lgandi. Tarixiy yodgorliklarda xorazmshoh

Qutbiddin Muhammadni «Podshoh Qutbid-dunyo vad-din Abul-fath Mu'in Amiral-mo'minin» («Dunyo va din Qutbi, g'alabalar otasi, Mo'minlar amiri – xalifa yordamchisi») unvoni bilan atashgani ham uning obro'li davlat arbobi bo'lganligidan dalolatdir. Xorazmshoh Qutbiddin Muhammad 30 yil davomida Xorazmda uzluksiz hukmronlik qildi. Garchi u to vafotiga qadar (1127) saljuqiylar, xususan Sulton Sanjarga sadoqat bilan xizmat qilgan bo'lsa-da, Xorazm eli manfaatlar uchun imkon qadar harakat qilganligini tarixiy manbalar to'liq tasdiqlaydi. Uning sadoqatli xizmatini e'tirof etgan Sulton Sanjar, xorazmshoh vafotidan so'ng hokimlik kursisini hech ikkilanmay uning 29 yoshli o'g'li Al-Malik Abu Muzaffar Olovuddin Jaloliddin – Otsizga (1127–1156) topshiradi.

Otsiz otasi singari saljuqiylar poytaxti Marvda ta'lim olgan, ilm ahlini qadrlovchi hukmdor bo'lgan. U ulamo va olimlarga homiylik qilgan, o'zi ham forsiyda ruboiylar yozar, ko'plab shoirlarning baytlarini ham yoddan bilar edi. Tarixiy manbalar Otsizni o'z aholisiga g'amxo'r, adolatli, xalq hurmatiga sazovor, uning hukmronlik davri asosan osoyishtalikda o'tganligini ta'kidlashgan.

Musulmon olamida katta ma'naviy nufuzga Bag'dod xalifaligi saljuqiylar mavqeyi kuchayib ketishidan xavfsiragan holda xorazmshohlar bilan o'zaro aloqani o'rnatdi. Bag'dod xalifasi al-Mustarshid (1118–1135) 1133-yili Sulton Sanjarga qarshi ittifoq tuzish va hamkorlik o'rnatish maqsadida o'z elchilarini Otsiz huzuriga jo'natadi. Tabiiyki, bu hol sultonga maqbul emas edi. Asli jasur sarkarda bo'lgan Otsiz, saljuqiylarga xizmati davrida ko'plab muvaffaqiyatlarga erishdi, qator jang-u jadallarda g'olib bo'ldi. Saljuqiylar sultoni ham uning dovyurakligi va jasurligini qadrlar edi. Ikkinchi tomondan esa, Otsizning o'sib borayotgan obro'-e'tibori sulton hokimiyatiga raxna solishidan Sanjar ham xavfsirar edi.

Otsiz nomiga xalifa elchisining jo'natilishi asnosida Sulton Sanjarga qarshi kurash masalasining ko'tarilishi o'zaro keskinlikning kuchayishiga sabab bo'ldi. Bu holat, o'z navbatida, xalifalik tomonidan xorazmshoh Otsizning yuqori obro'-e'tiborga molik hukmdor

sifatida tan olinganligi ham bildirar edi. O'zining o'n yillik hukmronligi mobaynida Otsiz Xorazmni ichki va tashqi jihatdan mustahkamlashga katta e'tibor berdi. Yetarlicha kuch to'plab, o'z hududini mustahkamlab olgan xorazmshoh endilikda qaramlikdan qutulish vaqti yetdi, deb hisoblagan holda ichki va tashqi siyosatda mustaqil harakat qila boshlaydi. Sulton Sanjar itoatiga bo'ysunmagan holda Jand va Mang'ishloq yerlariga yurish uyushtirib, bu hududlarni o'z davlati tarkibiga kiritadi. Bu itoatsizlik esa, o'z navbatida Sulton Sanjarning 1138-yili oktabrida Xorazm tomoniga harbiy yurish qilishiga sabab bo'ladi. Sulton Sanjar shu yo'l bilan boshqa qaram sulolalarga ham tobelikdan chiqish uchun jazolanish muqarrarligini ko'rsatmoqchi edi.

Saljuqiylar bilan bo'lgan jangda xorazmshoh o'n ming nafar jangchisini yo'qotadi. Jangda Saljuqiylar tomonidan o'ldirilganlar orasida xorazmshohning o'g'li Otliq ham bor edi. Sulton Sanjar xorazmshoh Otsiz ustidan qozonilgan g'alaba xususida o'sha davr taomiliga muvofiq barcha tobe o'lka va viloyatlarga fathnomalar jo'natib, Xorazmga yurishini o'z holicha oqlab ko'rsatishga harakat qiladi.

Otsiz mag'lubiyatidan so'ng Sulton Sanjar tomonidan Xorazm uning jiyani Sulaymonshohga iqto sifatida beriladi. Oradan hech qancha o'tmay, 1139-yilning fevralida Otsiz Xorazm aholisining qo'llab-quvvatlashi hamda ko'magi bilan hukmronlikni qaytarib oladi. Shundan so'ng deyarli mustaqil ravishda vohada hukmronlik qilib, o'z xatti-harakatlarida Saljuqiylar sultoniga hisob bermaydi. Jumladan, u Bag'dod xalifasi al-Muqtafiy (1136–1160) bilan elchilik munosabatini o'rnatib, o'zini Xorazm va unga qo'shib olingan hududlar hukmdori sifatida tan olishni so'raydi. Xalifalik tomonidan Otsiz mustaqil hukmdor sifatida tan olinib, unga xalifa al-Muqtafiy tomonidan «sulton» oliy martabasi berilganligi xususida farmon yetib keladi. Otsiz esa mustaqil hukmdorlik ramzi sifatida 1141-yildan o'z nomi ostida oltin tangalar zarb eta boshladi.

Mazkur tarixiy davr o'z murakkablik jihati bilan ham izohlaniшинi ta'kidlash joiz. Bu avvalo Markaziy Osiyo hududlariga bosti-



rib kirgan, keyinchalik yarim asrdan ziyod vaqt davomida mazkur hudud siyosiy jarayonlarida faol qatnashgan qoraxitoylar nomi bilan bog'liqdir.

Asli kelib chiqishi Xitoyning shimoli-g'arbiy qismlaridan bo'lgan ko'p sonli kidan qabilalari XII asr boshlaridan g'arbga qarab yurishlarini amalga oshira boshlashadi. Tarixchi Ibn al-Asirning «Al-komil fi-t-tarix» asarida yozilishicha, qoraxitoylar hukmdorining unvoni «go'rxon» bo'lib, go'rxon as-Sini (ya'ni, «Xitoy tomonidan kelgan», degan ma'noda) 1128-yildayoq Koshg'ar chegaralariga qadar kelib, uning hokimi saljuqiylarga qaram Ahmad ibn al-Hasan bilan to'qnashgan. Tez orada qoraxitoylar markazi Bolasog'un bo'lgan Yettisuv va Sharqiy Turkiston hududlarida o'z hukmronliklarini o'rnatishadi. Shu yerdan turib, ular endilikda Movarounnahrda saljuqiylarga qaram g'arbiy Qoraxoniylar hukmronligiga ham tahdid qila boshlashadi. Musulmon tarixchilari mazkur sulolani «qoraxitoylar» nomi bilan ataganliklari bois ham shu nom ostida ular tarix sahifalaridan joy olishadi.

Qoraxitoylar tez orada qirg'izlar va uyg'urlarni ham o'zlariga bo'ysundirishga muvaffaq bo'lishadi. 1137-yili qoraxitoylar Movarounnahrda bostirib kirib, Xo'jand yonida qoraxitoylar xoni Mahmud ibn Arslonni mag'lub etishadi. Mahmud Samarqandga shoshib chekinib, mudofaa choralari ko'rdi. Tarixchi Ibn al-Asirning yozishicha, «bu voqea Movarounnahr aholisiga salbiy ta'sir etib, ular qo'rqinch va tahlikada tong otgandan oqshomga qadar yetib kelishi mumkin bo'lgan falokatni kutishardi». Qoraxoniylar xoni Mahmud saljuqiylar Sultoni Sanjarga qaram bo'lib, unga sadoqat bilan xizmat ko'rsatardi. Shu bois ham u o'z muvaffaqiyatsizligidan afsus chekib, Sulton Sanjarga yordam so'rab murojaat qiladi. Sulton qoraxitoylarga qarshi urushga olti oy davomida tayyorgarlik ko'radi. Urushga sultonga qaram barcha hududlar: Seyiston, G'ur, G'azna, Mozandaron va boshqa hokimliklar jalb qilinadi. Ibn al-Asirning yozishicha, Sulton Sanjar 100.000 kishilik qo'shin to'plashga muvaffaq bo'lgan.

Xitoy manbalarining ta'kidlashicha, qoraxitoylarning ham 100.000 nafar qo'shini bo'lgan. Sulton Sanjar bilan Go'rxon

o'rtasidagi elchilar almashuvi esa vaziyatni battar chigallashtirib yuboradi. Hal qiluvchi jang 1141-yilning 2-sentabr kuni Samarqand yonidagi Qatvon dashtida ro'y beradi. Sulton Sanjar qo'shini butkul mag'lub bo'lib, uning o'zi arang jang maydonidan chiqib ketadi. Qoraxitoylar tez orada butun Movarounnahrni egallashadi. Ta'kidlash joizki, ko'chmanchi qoraxitoylar o'z oldilariga Movarounnahrda qoraxoniylar hukmronligini yo'q qilishni maqsad qilib qo'yishmagan. Qoraxitoylar uchun ularning qaram – vassal sulola sifatida saqlanib qolinishining o'zi yetarli edi. Qoraxitoylar tez orada markazi Bolasog'un bo'lgan o'z davlatlariga jo'nab ketishadi. Movarounnahrda olinadigan har yilgi o'lpon ularni qoniqtirar, aksariyat holda o'lka ichki ishlariga aralashmasdi. Tarixchi Ibn al-Asir qoraxitoylar go'rxoni alohida olingan yerlarni o'z yaqinlariga bo'lib berishga qarshi bo'lganini ham ta'kidlab o'tadi.

Qoraxitoylar bilan bo'lgan jangda Sulton Sanjarning yengilishi, uning eski shon-shuhrati va obro'siga ancha salbiy ta'sir ko'rsatadi. Sulton keyinchalik Movarounnahrda o'z hukmini qayta tiklashga harakat ham qilmaydi. Mazkur holat xorazmshoh Otsizga ham qo'l keladi. U 1141-yilning oktabrida sulton Sanjarga qarshi bosh ko'taradi. Avval Saraxs, so'ngra poytaxt Marvni ham egallashga muvaffaq bo'ladi. Otsiz Marvdan sulton xazinasi bilan birga ko'plab ilm-fan vakillarini ham Xorazmga olib ketadi. Bu esa, xorazmshohning o'z hududini ilm-fan va madaniyat markaziga aylantirish niyati borligini ko'rsatardi. Shundan so'ng Otsiz Xurosonning asosiy shaharlaridan biri bo'lgan Nishopur va boshqa shahar, qishloqlarni qo'lga kiritadi. Uning Nishopur shahri aholisiga yo'llagan nomasida Xurosonga o'z yurishlarini Sulton Sanjarning biryoqlamalik, nohaq siyosati oqibatidan deya ta'kidlaydi.

Uzoqni ko'ra bilgan Otsiz sultonga qarshi kurashida qoraxitoylarning harbiy kuch-qudratini esdan chiqarmaydi. Qoraxitoylar bilan tuzilgan bitimga ko'ra xorazmshoh har yili ularga 30.000 oltin dinor to'lash majburiyatini oladi. O'z davlatida qoraxitoylar ham Otsizni tegishli vaqtda qo'llab-quvvatlashlari kerak edi.

Sulton Sanjar xorazmshoh Otsizning mustaqil xatti-harakatlari uning davlat asoslariga tahdid sola boshlaganligini e'tirof etgan holda, qoraxitoylardan olgan zarbasidan o'ziga kela boshlagach, sobiq vassaliga qarshi hujumga tayyorgarlik ko'radi. U Marvga qaytib kelib, qo'shinni jangga jam eta boshlaydi. Sulton Sanjarning Xorazmga ikkinchi yurishi natijasida poytaxt aholisi o'z ona shaharlarini mardonavor ravishda himoya qiladilar.

Kuchlar notengligini bilgan hamda aholini talon-toroj, poytaxtni vayronagarchilikdan asrab qolish maqsadida Otsiz Sulton Sanjarga bo'yin egib, sulh tuzishga qaror qiladi. Sulton Sanjar Otsizning mustaqil davlat tuzish tomon harakatlari yana davom etishini anglagan holda uning har bir sa'y-harakatlarini diqqat bilan kuzatib boradi, shu maqsadda o'z nomidan atoqli shoir, adib Sobir Termiziyni Gurganjga vakil sifatida jo'natadi.

Xorazmshoh Otsiz 1145-yilning oktabrida Sirdaryoning Orolga yaqin hududi Jandni beruxsat ravishda, deyarli jangsiz tarzda egalaydi. Mazkur hudud Xorazm davlatining bir qismi deb e'lon qilinadi.

Tabiiyki, Otsizning mazkur xatti-harakati sulton tomonidan salbiy tarzda qabul qilinadi. Otsizning «isyonkorona» deb hisoblangan harakatlari uchun jazolanishi lozim, degan qaror bilan sulton 1147-yil noyabrida xorazmshohga qarshi o'zining uchinchi harbiy yurishini boshlaydi. Xorazm qal'alari, jumladan Hazorasp ikki oy davomida qamal qilinadi. Gurganj yurishi boshlangan vaqtida Otsiz darvesh Ohupo'sh vositachiligida sulh bitimini tuzish taklifini so'raydi. Ta'kidlash joizki, xorazmshoh yana kuchlar notengligini bilgan, qolaversa, o'lkani ortiqcha qon to'kish va xonavayronlikdan saqlab qolmoqchi bo'lgan. Tarixchi Otamalik Juvayniy bu borada quyidagilarni yozib qoldirgan edi: «O'zaro sulh shartnomasiga ko'ra xorazmshoh Otsiz Sulton Sanjarga tobelik bildirib, o'rta asrlar odatiga ko'ra uning oyog'i ostidagi yerni o'pib, ta'zim etishi shart edi. Lekin, xorazmshoh bu kabi tobelik urfini bajarmadi. Sulton Sanjar huzuridagi mulozimatga (xizmatga) keldi va otidan tushmagan holda sultonga salom berdi. Bu ham yetmagandek, xorazmshoh sulton bilan uchra-

shuv joyini birinchi bo'lib tark etdi. Sulton Sanjar Otsizning bu «beodoblidan» jahli chiqsa ham, yaqinda o'zi unga shafqat muruvvat qilgani uchun ahdini o'zgartiradi. Sulton bunga norozilik bildirmay, Marvga qaytib ketdi».

Yuqoridagi tarixiy mulohaza xorazmshoh Otsizning mardonavor xulq-atvorini yana bir karra namoyon etgan edi. Garchi Otsiz Sulton Sanjarga yana bir karra o'z tobeligini bildirsa-da, yangi yuzaga kelgan siyosat maydonida Xorazmshoh-Anushtaginiylar davlati o'rin olayotganligini o'z harakatlari ila isbot qilgan edi. Otsizning Jand va Sirdaryo bo'ylaridagi yerlarga yurishi hamda bu hududlarning egallanishiga endilikda zaiflashib borayotgan Sulton Sanjar hech qanday munosabat bildirmadi. Shuningdek, amir Ko'machning Balxni saljuqiylardan tortib olishi, hozirgi Afg'oniston markazida yuzaga kelgan yangi G'o'riylar davlati rahbari Oloviddin Husayn bilan o'zaro urushlar, Seyiston hokimi Tojiddin Abulfazl, Hirot hokimi Ali Chatriylarning xiyonatlari, qoraxitoylar tomonidan doimiy xavfning mavjudligi, hokimiyat masalasida hukmron doiralardagi o'zaro nizolar – bularning hammasi Sulton Sanjar hokimiyatiga putur yetishiga sabab bo'ldi. Keksayib, kuchquvvatdan qolgan Sulton Sanjarda endilikda ularga qarshi amaliy harakatlar uchun na ma'naviy, na moddiy kuch-qudrat qolmagan edi.

Siyosat maydonida kuchlar nisbatan o'zgardi, bir paytlar qudratli bo'lgan saljuqiylar saltanati umri poyoniga yetib borayotgan edi. Shunday bir murakkab vaziyatda 1153-yilgi o'g'uzlar g'alayoni saltanatga hal qiluvchi zarba bo'lib xizmat qildi. Sultonning soliq borasidagi siyosatidan norozi o'g'uzlarning uyushgan harbiy kuchlari bilan sulton qo'shini o'rtasida 1153-yilning aprelida Balx yaqinida bo'lgan jang sulton harbiy kuchlarining mag'lubiyati bilan tugadi. Qaqshatqich jangda sulton harbiy lashkarlarining katta qismi qirib tashlandi, ko'plab nufuzli amirlar o'ldirildi. Marv shahri ayovsiz talon-toroj qilindi. Marv, so'ngra Nishopurda amalga oshirilgan xunrezliklar bois ko'plab taniqli olim, shoir, ulamolar halok bo'lishdi.

Isyon natijasida bir paytlar o'z davrining qudratli hukmdori bo'lgan Sulton Sanjarning o'zi ham asir olindi. Bunday bir vaziyat-



da xorazmshoh Otsiz saltanat uchun mas'uliyatni o'z bo'yniga olish, qolaversa, shu yo'l bilan hududni kengaytirib, davlatni mustahkamlash maqsadida Amudaryoning yuqori oqimidagi Omul qal'asini egallashga harakat qildi. Shu bois imkon topib, asirga tushgan sultonga chopar yo'lladi.

Asirlikdagi keksa Sulton Sanjar o'z siyosiy tajribasi hamda mavjud ahvolidan kelib chiqqan holda Omul qal'asini olmoqchi bo'lib chopar jo'natgan Otsizga quyidagi javobni yuboradi: «Men senga faqat Omul emas, boshqa juda ko'p qal'alarni ham beraman, faqat shu shart bilan-ki, bizni qutqarish uchun o'g'ling El-Arslon boshchiligida bu yoqqa lashkar yuborasan».

Xorazmshoh Otsiz o'z davlatini qaramlikdan tamomila xalos etish, saljuqiylar hukmronligini tugatishni asosiy maqsadi, deb hisoblar edi. Lekin o'g'uz qabilalarining kuchaya borishi, saltanatda yuzaga kelgan tahlikali vaziyat, o'zaro boshboshdoqlik Otsizning bu xavfga qarshi turishiga sabab bo'ldi. Shu bois ham xorazmshoh Otsiz Seyiston hukmdori Tojiddin Abul Fazlga, G'ur podshohi Olovuddin Husaynga, Mozandaron maligi (hokimi) Abul-fath Rustamga maktablar jo'natib, barchani o'zaro notinchliklarni tugatib, Sulton Sanjarni asirlikdan qutqarib, o'g'uzlar solayotgan xavfga chek qo'yishga da'vat etdi. Shunday bir paytda saljuqiylar taxtiga Sanjarning jiyani Rukniddin Mahmudxon o'tirdi. O'zaro nizo-parokandalik yanada kuchayib ketmasligi uchun Otsiz yangi sultonga o'z xayrixohligini bildirdi. Mazkur holat yana bir karra Otsizning siyosiy mahoratidan darak berar edi.

Saljuqiylarning yangi hukmdori sulton Mahmudxon xorazmshoh Otsizning mintaqada tutgan mavqeyini tushungan holda «o'g'uzlar isyoni»ga qarshi kurashda undan harbiy yordam so'radi. Xorazmshoh Otsiz 1156-yilning aprel oyida katta o'g'li El-Arslon bilan isyonni bostirish hamda Sulton Sanjarni asirlikdan qutqarish maqsadida o'z qo'shiniga boshchilik qilgan holda Xurosonning Shahrison degan joyiga qadar yetib keladi. U yon-atrofdagi hokimliklarga murojat etib, birgalikda sa'y-harakatlarni amalga oshirishga da'vat etadi.

Shunday bir vaqtda Sulton Sanjarning o'g'uzlar asirligidan qochishi vaziyatni birmuncha o'zgartirib yubordi. Otsiz Sulton Sanjarga maktab jo'natib, uning ozodlikka chiqishi bilan tabrikladi hamda unga o'z sadoqatini izhor etdi. Xorazmshohning o'g'uz qabila boshliqlariga isyonga chek qo'yish haqida qilgan murojaatlari hamda Sulton Sanjarning asirlikdan qochishi o'g'uzlar harakatining nisbatan pasayishiga olib keldi. Asirlikdan qutulgan Sulton Sanjar esa ma'lum vaqt Termizda qoldi.

Xorazmshoh Otsiz Xurosonning Habushon mavzeyida turgan vaqtda og'ir dardga chalib qoldi va 1156-yilning 30-iyul kuni 61 yoshida olamdan o'tdi. O'rta asr Sharqi tarixchilari Rashiddin, Ibn al-Asir, an-Nasaviy va boshqalar Otsizning faoliyatini yuqori baholab, «Saljuqiylar saltanatining ustunlaridan biri edi», deya uni ta'riflashgan. Otsiz o'z fuqarolariga nisbatan adolatli hukmdor bo'lib, manbalar tili bilan aytganda, «ularning mol-mulkiga chang solmas, rayiyatga g'amxo'rlik qilar, og'irchilik va osoyishtalik zamonlarida u bilan birga edi». Xorazmshoh doimo sabr-toqat, shijoat bilan mustaqillik uchun kurash olib bordi. Ta'kidlash joizki, aslida Otsiz to'laqonli ravishda Xorazmshoh-Anushtaginiylar davlatining asoschisi hisoblanadi. U Xorazm davlatining xalqaro aloqalarini boshlab berdi, davlat nufuzi va obro'sini ko'tarish jarayoniga zamin yaratdi.

Otsiz vafotidan keyin bo'lgan hokimiyat uchun sa'y-harakatlarda uning katta o'g'li El-Arslonning qo'li g'olib keldi (1156–1172). El-Arslon 1156-yilning 22-avgust kuni Xorazm taxtiga o'tirdi. Taxtga o'tirgan yangi hukmdor o'z otasini siyosatini davom ettirishga harakat qildi. Shu bois janub – Xuroson hududiga katta e'tibor qaratadi. O'z hokimiyatini mustahkamlash, nizo-parokandalikni oldini olish hamda davr taomiliga muvofiq Sulton Sanjarga o'z itoatini bildirib, noma jo'natadi. 1156-yil oktabrda El-Arslon rasman «Xorazmshoh» deya e'tirof qilinadi. Shu davrda Saljuqiylar saltanati bir necha qismlardan iborat bo'lib, ularning aksariyati faqat Sulton Sanjarni oliy hukmdor sifatida tan olishardi. Sulton Sanjar asirlik paytida sultonlik taxtiga o'tirgan uning jiyani Mahmudxonni ko'pchilik saljuqiy

amirlar, harbiy sarkardalar oliy hukmdor sifatida tan olishmasdi. Shunday bir vaziyatda saljuqiylarning buyuk sultoni Sanjar 1157-yilning 9-mayida vafot etdi. Sulton Sanjar ta'siri ostida bo'lgan Movarounnahrda saljuqiylar hukmronligi barham topdi. Xorazmshoh El-Arslonning yangi sulton Mahmudxonga bo'lgan munosabatida ham o'zgarish yuz berdi.

Odatda, xorazmshohlar saljuqiy sultonlariga murojaatlarida o'zlarini «banda», ya'ni «qaram», «qulingiz» deya murojaat etgan bo'lsalar, endilikda El-Arslon ularga nisbatan o'z maktublarida «muxlis» (samimiy do'st) atamasini ishlata boshladi. Bu bilan xorazmshoh o'zining bundan buyon saljuqiylar hukmida emasligini ham ta'kidlagan edi. Sulton Sanjar vafotidan keyin saljuqiylar ichida o'zaro nizo va parokandalik yanada kuchaydi. Vaziyatni keskinlashuvdan Bag'dod xalifalari ham manfaatdor bo'lib qolishga urinishardi. Xurosonda ham ahvol keskinlashdi. Saljuqiylardan Oybek, al-Aziziy, Oytegin, Oy Abo kabi nufuzli amirlar Xuroson siyosiy hayotida muhim rol o'ynay boshlashadi. O'g'uzlar esa hamon Sharqiy Xurosonni egallab turishardi. Hokimiyat masalasida o'zaro nizolashayotgan ko'plab amirlar endilikda mintaqada katta mavqega ega bo'layotgan xorazmshoh El-Arslondan himoya istab murojaat qila boshlashadi. El-Arslon ham Xuroson mulklari uchun kurashga tortiladi. Tez orada Xurosondagi Jurjon va Dehiston hududlari El-Arslon ta'sir doirasiga o'tadi.

Sobiq saljuqiylar amiri Oy Abo bilan Iroq saljuqiylari o'rtasidagi o'zaro nizo va kurashlar bir necha yilga cho'zilib ketadi. 1167-yili xorazmshoh tomonidan Bayhaq, Sabzavor, so'ngra katta ahamiyatga molik Nishopur shahri egallanadi. Nishopurning egallanishi xorazmshohlar va saljuqiylar o'rtasidagi munosabatni tamomila uzilishiga sabab bo'ladi. Xorazm qo'shini Iroq saljuqiylariga zarba berib, Ozarbayjonga qadar kirib boradi. El-Arslon qoraxitoylardan aziyat chekkan qarluqlarga yordam bera turib, Movarounnahr ishlariga ham aralasha boshlaydi. U qoraxitoy va turkman qo'shinlarini yengib, qarluqlarni Samarqand va Buxoro atroflaridagi azaliy yerlariga qaytara-

di. Qoraxitoylarga masalaning bu tariqa yechimi manzur bo'lmaydi. Qoraxitoylar hukmdori o'z vassali bo'lgan Samarqand hukmdori qoraxoniy Qilich Tamg'ochxonga (Abul Muzaffar Mas'ud) «Qarluqlarni Samarqand va Buxoro viloyatlaridan Koshg'arga ko'chirma qilishga» farmon beradi. Qarluqlarning bir qismi xorazmshoh El-Arslon hamda otasi Otsiz davridan buyon qoraxitoylarga boj – xiroj to'lab turar, qarluqlarga bo'lgan munosabat bir vaqtning o'zida qoraxitoylarga qarshi kurashda ularni o'ziga ittifoqchi deb hisoblashini anglatar edi.

Ayyorbek boshchiligidagi qarluqlarning bir qismi xorazmshohlar saltanatidan panohtopadi. Bu esa, o'z navbatida, xorazmshohlar bilan qoraxitoylar o'rtasidagi munosabatni keskinlashtirib yuboradi. 1171-yili qoraxitoylar qo'shini Amudaryodan o'tib, Xorazm yerlariga bostirib kiradi. Davlat xavfsizligi, kuchlar notengligini chamalab ko'rgan El-Arslon suv to'g'onlarini ochib, poytaxt Gurganj yaqinidagi yerlarni suvga bostirishga farmon beradi, o'zi esa Omul qo'rg'oni tomon chekinadi. Qoraxitoylar bilan jangda xorazmshoh xastaligi tufayli qatnasha olmaydi. Jangda qoraxitoylar g'olib kelib, qarluqlar sardori Ayyorbekni asirga olishadi. Kasalligi kuchaya borgan El-Arslon Gurganjga qaytib keladi va 1172-yilning 17-mart kuni vafot etadi.

Xorazmshoh El-Arslon otasi kabi davlat mustaqilligiga to'la erishish, uning hududlarini kengaytirishni o'z hukmronligining asosiy maqsadi deya qaragan edi. Uning hukmronligi davrida xorazmshohlar davlati Xuroson yerlari hisobiga ma'lum darajada kengayadi, xorazmshoh bilan esa ko'pchilik hukmdorlar kelishib ish tutishga majbur bo'lishadi. El-Arslon Bag'dod xalifaligi bilan munosabatlarni muttasil ravishda ijobiy ruhda olib borishga harakat qiladi. Shu bilan birga, hali ushbu davlat qoraxitoylarga boj to'lar, bu esa to'liq siyosiy mustaqillik uchun katta g'ov bo'lib turardi.

Xorazmshoh El-Arslon vafoti arafasida katta o'g'li Olovuddin Takish Jand viloyatida bo'lgani bois, kichik o'g'il Sultonshoh Mahmudni valiahd etib tayinlagan edi. El-Arslon vafotidan keyin xorazm-



shohlar taxti uchun yuqorida nomi zikr etilgan aka-ukalar o'rtasida o'zaro kurash boshlanib ketadi. Sultonshohning o'z inisi Takishni zo'rlab huzuriga olib kelishga urinishlari hamda yolg'iz unigina yagona hukmdor deb tan olishga qaratilgan harakatlari samarasiz tugaydi.

Ushbu voqealardan xabar topgan Takish Jandni darhol tark etib, yordam so'rab qoraxitoylar malikasi Chen Tiyonga (1164–1177) murojaat qiladi. Takishning keyinchalik ham yillik o'lpon to'lab turishi xususidagi va'dasini olgan qoraxitoylar malikasi Fuma boshchiligidagi qo'shinni Xorazmga yuboradi. Qoraxitoylar qo'shini kelayotganini eshitgan Sultonshoh tezda poytaxtni tark etib, Xurosonga chekinaadi. Olovuddin Takish 1172-yil 11-dekabr kuni rasman xorazmshohlar taxtiga o'tiradi. Takishni shijoatli, mohir sarkarda hamda kuchli davlat arbobi, deb hisoblagan xalq ommasining katta qismi uni qo'llab-quvvatlab turardi. Biroq asosiy kurashlar pallasini hali oldinda bo'lib, aka-ukalar o'rtasida toj-u taxt nizolari yigirma yilga qadar cho'zilib ketib, ko'plab qonli janglar, xonavayronchilik keltiruvchi urushlarga sabab bo'ladi. Sultonshoh va Takish o'rtasidagi kurashga avval Nishopur hokimi Oy Abo, so'ngra G'ur Sultoni G'iyosiddin, qoraxitoylar ham aralashadi.

Hokimiyatni olishda Takishga yordam bergan qoraxitoylar endilikda istagan vaqtida «Xorazmdan xohlaganicha o'lpon olish mumkin», deb o'ylab, turli nomaqbul ishlarni amalga oshira boshlashadi. Qoraxitoylar Xorazmda hatto xorazmshoh Takishning hukmini ham tan olmay qo'ya boshlaydi. Bu esa Takish tomonidan ularga qarshi tegishli choralar ko'rishga majbur qiladi. Shu bilan qoraxitoylar bilan o'zaro munosabatlarga sovuqlik tushadi. Qoraxitoylar bilan munosabati keskinlashgan Takishga qarshi harakat qilish mumkin, deb hisoblagan Sultonshoh G'ur sultoni G'iyosiddindan harbiy ko'mak kuchi olishga erishdi. Ikkinchi tomondan, Sultonshoh qoraxitoylarga murojaat qilib, Takishga qarshi kurashda yordam kuchi so'radi. Takish bilan munosabatlari buzilgan qoraxitoylar malikasi Sultonshoh tomonidan turib jang qilish uchun o'z qo'shinini Xorazmga jo'natdi.

Ushbu urushga Takish jiddiy tayyorgarlik ko'rdi, Gurganjga bora-digan yo'llarni suvga bostirdi, qal'alarni mustahkamladi va hokazo. Takish bilan jang qilishga jur'at etolmagan qoraxitoylar sarkardasi Fuma Sultonshohning «Xorazm xalqi u tomonidaligi» haqidagi va'dalari puch ekanligini, aksariyat xorazmlik harbiylar, aholi Takishni qo'llayotganliklarini tushungan holda orqaga qaytib ketdi. Sultonshoh qoraxitoylardan bir qism qo'shin olishga erishib, ular yordamida Xuroson shaharlarini zabt etdi. Marv, Tus, Jom, Niso, Obivard shular jumlasidan edi. Xurosonda yuzaga kelgan vaziyat Takish davlati uchun xavf tug'dirar, shu bois ham u avval Sultonshohga qarshi emas, balki Xurosonda muhim ahamiyatga ega Nishopurni egallashga harakat qildi. Nishopur hokimi Sanjarshoh aslida butun hokimiyatni o'z vaziri Menglitagin qo'lga topshirgan bo'lib, bu vazir esa hokimiyatni o'z holicha boshqarar, viloyatda jabr-zulm, zo'ravonlik haddidan oshgan edi. Nishopurni tinchlik bilan o'z izmiga o'tkazishni lozim deb topgan Takishga Menglitagin xiyonatkorona yo'l tutdi. 1187-yil 27-may kuni 40 kunlik qamaldan so'ng Nishopur taslim bo'ldi. Xorazmshoh «shaharda adolat va rahm-shafqat gilamlarini yoydi, shaharni nafrat va zo'ravonlik axlati va chaqirtoshlaridan tozaladi».

Jabr-zulm bilan tortib olingan barcha narsalar o'z egalariga qaytarildi. Nishopurga xorazmshohning o'g'li Nasriddin Malikshoh hokim etib tayinlandi. Garchi, Xurosonning anchagina qismi xorazmshohlar davlati tarkibiga kirgan bo'lsa-da, ammo Marv, Sabzavor va unga tutash yerlar hali ham Sultonshoh ixtiyorida edi. Sultonshoh o'z inisi Takishga nisbatan ancha kuchsizligini anglab yetsa-da, lekin bir necha marotaba Takish chegaralari, Nishopurga talonchilik yurishlarini amalga oshirdi. Takish vayron bo'lgan Nishopur devorlarini tiklab, o'z qo'shini bilan Kaspiy dengiz janubiy sarhadlaridagi Mozandaron (Tabariston)ga yurish qildi.

Takish bir necha yillik kurashlarda o'zini Xorazmshohlar davlatining haqiqiy hukmdori ekanligini namoyon qildi. Xorazm va deyarli barcha Xuroson yerlari aslida Takish hukmi ostida bo'lib, uning obro'-e'tibori hamda harbiy qudratini xurosonlik amirlarning deyarli

barchasi tan oldi. Bu hol bilan Shubhasiz, Sultonshoh ham kelishishga majbur edi. 1188-yilning bahorida bir qator xurosonlik obro‘-e‘tiborli zotlar vositachiligida Sultonshoh va Takish o‘rtasida sulh bitimi imzolandi. Aksariyat amirlar Takish tomoniga o‘tishdi. Tabiiyki, bunday vaziyatda deyarli qo‘shinsiz qolgan, yon-atrofidagi tayanchlaridan mahrum bo‘lgan Sultonshoh Takish tomonidan taqdim etilgan shartlarga so‘zsiz bo‘ysunishidan boshqa iloji yo‘q edi. Sultonshohga Xurosondagi uch viloyat taqdim etildi. Mazkur bitimdan so‘ng, 1189-yil 4-iyulda Xurosondagi Rodkon degan joyda rasman sulton maqomida Olovuddin Takishning taxtga o‘tirish marosimi o‘tkazildi.

Takishning Xurosondan poytaxt Gurganjga qaytib ketishi bilan Sultonshoh yana o‘z isyonkorona faoliyatini boshladi. U endilikda xorazmshohlar yuksalishidan xavfsirayotgan G‘uriylar davlati, qoraxitoylar bilan o‘zaro munosabatlarni o‘rnatishga harakat qildi. Ular yordamida Xuroson yerlariga yurishlarni amalga oshirdi, Takish yo‘q vaqtida hatto Gurganjni ham qamal qildi. Sulton Olovuddin Takish o‘z isyonkor ukasini batamom bo‘ysundirish maqsadida 1193-yilning bahorida yana Sultonshoh ustiga yurish boshladi. Ularni yana sulhga chorlab, tashkil etilgan muzokaralar ham samarasiz tugadi. Bunday vaziyatda Sultonshohning ishongan so‘nggi vakili Saraxs qal‘asi mustahfizi (qal‘a harbiy boshlig‘i) Badriddin Chaqir sulton Takish tomoniga o‘tib, qal‘a kalitlari, Sultonshoh xazinasini xorazmshohga topshirdi. Mazkur voqea Sultonshohning kelajakda o‘z davlatini yaratish xususidagi orzu-istaklarini chippakka chiqardi. Oradan ikki kun o‘tgach, 1193-yil 19-sentabr kuni boshiga tushgan bu ko‘rgulikni ko‘tara olmagan Sultonshoh Mahmud vafot etdi. Shu tariqa aka-ukalar o‘rtasida davom etgan yigirma yillik kurash o‘z nihoyasiga yetdi. Sultonshoh izmidagi barcha yerlar xorazmshoh ilkiga o‘tdi.

Takish asosiy raqibini mag‘lub etgach, 1193-yildan boshlab tashqi siyosat borasida dadil harakat qilishni boshladi. U avvalo o‘z shimoli-sharqiy sarhadlarini mustahkamlash borasida Jand hududiga alohida e‘tibor berdi. Qoraxitoylar o‘z vaqtida Takishdan tegishli

javob olganliklari uchun ham o‘zlari hujum uyushtirishga jazm qilolmay ko‘chmanchi qipchoq qabilalarini xorazmshohlar davlatiga qarshi gij-gijlashardi. Mazkur hududlar xavfsizligi borasida Takish Sirdaryoning o‘ng qirg‘og‘idagi muhim istehkomlardan biri Barchinlig‘kent, so‘ngra Raboti To‘g‘on shaharlarini o‘z davlati tarkibiga qo‘shib oldi. Buxoroda o‘z nomiga xutba o‘qittirib, Movarounnahrda ham ta‘sirini yoya boshladi.

Iroq saljuqiylari sultoni To‘g‘rul III bilan o‘zaro shartnomaga muvofiq shimoliy Erondagi Ray shahri xorazmshohlar davlati tarkibiga kirdi. Lekin, tez orada To‘g‘rul III shartnomani buzib, Rayni qayta egalladi. Shuningdek, u Bag‘dod xalifasi ta‘sir doirasidagi yerlarga ham hujum qila boshlaydi. Bunday vaziyatda xalifa an-Nosir (1180–1225) Takishdan yordam so‘rab, To‘g‘rul III qo‘li ostidagi yerlarni xorazmshohlarga iqto sifatida berilishi xususida o‘z farmonini xorazmshohga jo‘natdi. Saljuqiylarning o‘zaro shartnomani buzganligi hamda xalifaning murojaati sulton Takishning janubga yurishiga sabab bo‘ldi. Takish huzuriga sulton To‘g‘rul III dan norozi bo‘lgan qator harbiylar bosh egib kelishdi. Takish ularni mehribonlik bilan qabul qilib, iltifot va yordam ko‘rsatdi.

1194-yil mart oyining boshlarida sulton To‘g‘rul III xorazmshohlar qo‘shiniga qarshi urush boshladi. Jangda Iroq saljuqiylarining so‘nggi vakili To‘g‘rul III mag‘lub bo‘lib, xorazmshohlar qo‘shini tomonidan o‘ldirildi. Uning mag‘lubiyatidan so‘ng Takish Hamadon va unga tutash yerlarni ham qo‘lga kiritdi. Sulton Olovuddin Takish tomonidan Iroq Ajaming egallanishi, mazkur yerlarning bir qismi tegishidan umidvor bo‘lgan xalifa an-Nosir bu holdan norozi bo‘ldi. Xorazmshoh Takishni xalifaga itoat etishi xususidagi elchilik sa‘y-harakati esa samarasiz tugadi. Tez orada xorazmshoh Takish va xalifa an-Nosir o‘rtasidagi munosabatlar tamomila uzildi. Xalifa an-Nosirning Xorazmshohlar qo‘li bilan o‘z hududlarini kengaytirish, sulton Takishni o‘ziga itoat ettirish xususidagi rejalari chippakka chiqdi. Takish tomonidan xalifa «Xorazmshoh hukmronligini tan olishi, Bag‘doddagi sulton saroyini Saljuqiylar zamonidagi holda



tiklash» talab qilinganidan keyin vaziyat yanada keskin tus oldi. Ta-biiyki, xalifa an-Nosir bu talabni keskin rad etdi.

Shu tariqa xorazmshohlar va Bagʻdod xalifaligi oʻrtasidagi oʻzaro dushmanlik munosabatlari keyin ham davom etib, u moʻgʻullar istilosiga qadar davom etdi. Takishning Eron yerlaridan uzoqda boʻlishi xalifa qoʻshinlariga qoʻl keldi. Tez orada xalifa qoʻshini Iroq Ajamini egallab olishga muvaffaq boʻldi. Xorazmshohlar davlati tarkibiga kirgan yerlardan Bagʻdod xalifaligi qoʻshini chiqib ketishi toʻgʻrisidagi talab xalifa an-Nosir tomonidan inobatga olinmadi. Shundan soʻng oʻzaro munozarali hududlar bir necha marotaba qoʻldan qoʻlga oʻtdi. Xalifa qoʻshini shimoliy Erondagi Ray viloyatini ham qoʻlga kiritishga muvaffaq boʻldi.

Xorazmshoh Takish xalifa bilan oʻzaro elchilik almashuvi, muzokaralar hech qanday ish bermasligini anglab yetgan holda hamda oʻz davlati manfaatlarini himoya qilish maqsadida Bagʻdod xalifaligiga qarshi qatʼiy harakatlarni boshladi. 1196-yilda xalifa qoʻshinlari tor-mor etilib, Hamadon, Ray, Isfahon va unga tutash yerlar yana Xorazmshohlar davlati ixtiyoriga oʻtdi. Bagʻdod xalifasi an-Nosir (1180–1225) Iroq Ajamni qanday qilib boʻlmasin qoʻlga olish maqsadida Takishga qarshi avval shu yerlar hokimi Mayochoqni, soʻngra Gʻur hukmdori Gʻiyosiddin al-Gʻuriyni qarshi qoʻyishga harakat qildi. Xalifaning bu safargi xatti-harakatlari ham zoye ketgach, u Takish bilan munosabatlarni yoʻlga qoʻyishga intildi. 1198-yili xorazmshoh Takish Xuroson, Turkiston va Iroq Ajam yerlari sultoni ekanligi tan olingan farmon eʼlon qilindi.

Shu tariqa xorazmshohning yuqorida nomi qayd etilgan hududlar mustaqil hukmdori ekanligi tasdiqlandi. Oʻzaro elchilik almashuvi, xususan sulton Takishning jiyani amir Sayfiddin boshchiligidagi xorazmshoh elchilarning Bagʻdodga kelishi ushbu munosabatlarni mustahkamladi. Ushbu munosabatlar Takishning yuqori salohiyatli davlat arbobi hamda mohir diplomat boʻlganligini bir karra tasdiqladi. Oʻzaro nizolardan charchagan Kirmon<sup>1</sup> ahlining Takishga murojaati

<sup>1</sup> Kirmon – Eronning janubi-sharqidagi tarixiy hudud.

ham ijobiy tarzda oʻz yechimini topdi. 1198-yili Takish Kirmondagi nizo-fitnalarga chek qoʻyib, mazkur hududni ham oʻz davlati tarkibiga qoʻshib oldi. Takish oʻz hukmronligining soʻnggi yillarini yaqin va Oʻrta Sharqda xavfsizlik va maʼnaviyatga tahdid soluvchi ismoiliylar diniy guruhiga qarshi kurashda oʻtkazdi. U Eronning Daylam viloyatida joylashgan ismoiliylarning ikkinchi muhim qalʼasi Al-Qohira (Arslon Kushoni) ni qoʻlga olishga muvaffaq boʻldi.

Sulton Olovuddin Takish 1200-yilning 3-iyul kuni (hijriy yil hisobida 596-yil ramazon oyining 19-kuni) Xurosonning Shahrison degan joyida vafot etdi. Uning jasadi poytaxt Gurganjga olib kelinib, oʻzi tomonidan qurdirilgan katta madrasa qoshidagi maqbaraga dafn qilindi. Taʼkidlash joizki, oʻrta asr mualliflari bir ovozdan xorazmshoh sulton Olovuddin Takishni oʻz xalqiga adolatli hukmdor, odatdan tashqari qobiliyat sohibi, buyuk diplomat va kuchli lashkarboshi boʻlganligini qayd etishadi. Xorazmshoh musiqa va adabiyotni sevar, hozirjavob, gapga chechanligi bilan ajralib turardi. Oʻz vaqtida davlatning shimoliy chegaralari xavfsizligi koʻp holatda turkiy qipchoqlar taʼsiriga bogʻliq edi. Takish qipchoqlar bilan oʻzaro ittifoqqa kirib, qipchoqlar xoni Jonkishning qizi boʻlgan Turkon xotunga uy lanadi. Qipchoqlarning bayot urugʻidan boʻlgan Turkon xotun bilan birga koʻplab turkiy qavmlar, harbiylar ham Xorazmga kirib kelishdi. Keyinchalik Turkon xotun ularning qudratli homiysiga aylandi, davlatda esa turkiy harbiy qatlam ham yuzaga keldi.

Tarixiy manbalar Turkon xotunni hokimiyatga intiluvchan, riyo-kor hamda qasoskor ayol boʻlganligini taʼkidlashadi. Uning tugal hosilasi esa keyinchalik sulton Muhammad (1200–1220) hukmronligi davrida toʻliq namoyon boʻldi.

Xorazmshoh Takish tomonidan qoldirib ketilgan ulkan davlat uning vorisi Qutbiddin Muhammad tomonidan davom ettirildi. 1200-yil 3-avgust kuni (hijriy 596-yil shavvol oyining 20-kuni) poytaxt Gurganjda Xorazmshohlar davlatining yangi sultoni Qutbiddin Muhammad tantanali ravishda taxtga oʻtirdi (1200–1220). Keyinchalik u otasining taxallusi Olovuddin nomini ham oldi. Xorazmshoh

Olovuddin Qutbiddin Muhammad o'z hukmronligining dastlabki davridanoq ichki va tashqi siyosat bobida qator muammolarga duch keldi. Mozandaron (Tabariston)da Husomiddin Ardasher Astrobodgacha yerlarni egallab, mazkur hududlardan xorazmlik qo'shinni haydab chiqardi. Ajami Iroqda ham vaziyat og'irlashib, mazkur hududning ham yangi sulton qo'lidan chiqib ketish ehtimoli kuchaydi. Xorazmshoh Muhammad bunday vaziyatda Xurosondagi ahvol ham keskinlashishi mumkin deya hisoblab, ukasi Tojiddin Alishohni Ajami Iroq markazi Isfahondan chaqirib olib, uni Xuroson noibi etib tayinladi.

Tojiddin Alishohning Iroqdan ketishi bu yerdagi mahalliy hokimlarning ajralib ketish xavfini kuchaytirib yubordi. Ular ichida ayniqsa Iziddin Ko'kcha xalifaning izni bilan qat'iy harakat boshladi. O'z vaqtida unga qarshi Shamsiddin Oytug'mish harakat qilib, tez orada butun Fors Iroqi hududlarini egallab olishga muvaffaq bo'ldi. Nishopurning sobiq hokimi, o'zboshimchaligi bois lavozimidan olingan Hinduxon esa avval Marvda isyon ko'tarmoqchi bo'ladi, so'ngra esa G'ur sultoni huzuriga qochib, undan yordam so'raydi. G'ur sulton G'iyosiddin G'uriy xorazmshohlar tushib qolgan mushkul vaziyatdan foydalanib qolish maqsadida Hinduxonga yordam berishga qaror qildi. Shu maqsadda u 1201-yilning fevral oyida katta qo'shin bilan Xurosonga yo'l oldi. Marvga Hinduxonni jazolash maqsadida xorazmshohning vakili Chaqir at-Turkiy jo'natilgan edi. Chaqir at-Turkiy Marvni G'uriylardan qattiq himoya qildi. Lekin kuchlar notengligi, shaharni ortiqcha xonavayron bo'lishidan saqlab qolish maqsadida G'ur sultoniga taslim bo'ldi. Marv esa endilikda u G'ur sultoniga qaram Hinduxon qo'lga topshirildi. Tez orada G'uriylar qo'shini tomonidan Xurosonning Saraxs, Niso, Obivard, Tus shaharlari ham egallandi. Xurosonning ma'muriy markazi bo'lgan Nishopurda yuqorida ta'kidlanganidek, sulton Muhammad Xorazmshohning akasi Tojiddin Alishoh hokimlik qilar edi. Garchi xorazmshoh tomonidan Nishopurdan tezda chiqib ketish haqida buyruq olgan bo'lsa-da, lekin Tojiddin Alishoh shaharni mardonavor himoya qildi. Qattiq

jangdan so'ng, G'iyosiddin G'uriy Nishopurni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldi.

Sulton G'iyosiddin G'uriy yangi istilo qilingan Xuroson shahar va viloyatlariga o'z noiblarini tayin etib, orqasiga qarab ketdi. O'tgan vaqt davomida xorazmshohlar o'zlari tushib qolgan og'ir siyosiy vaziyatdan chiqish yo'lida kuchli va katta qo'shin yig'ishga muvaffaq bo'lishdi. Xuroson yerlariga yurish qilishdan avval xorazmshoh G'ur sultoni G'iyosiddinga murojaat qilib, agarda xorazmshohlar davlati manfaatiga yana zid ish tutgudek bo'lsa, tegishli javob berishi muqarrar ekanligi xususida ogohlantirdi. G'ur sultoniga xorazmshoh Muhammad jumladan shunday deb yozgan edi: «... Biz hozir otamiz ta'ziralari bilan va mamlakat ishlarini tartibga solish bilan mashg'ul bo'lib, sizning ishlaringizga qarshilik qilolmagan edik. Endi biz zaif emasmiz va sizning mamlakingizni va boshqa viloyatlarni bosib olishga kuchimiz yetajak».

Bir necha yillardan beri G'urda hukmronlik qilayotgan sulton G'iyosiddin G'uriy shu vaqtga kelib ancha keksayib, kasalmand bo'lib qolgan edi. Xorazmshoh o'z xatida aynan sultonning shu holatiga ham urg'u berdi. O'z maktubiga javob kelishini ham kutmay xorazmshoh Muhammad 1201-yilning avgustida kutilmagan holda Hirotni qurshab oldi. Hirotni 40 kun qamal qilinsa-da, uni ishg'ol etishning iloji bo'lmadi. Shu payt Hindistondan o'z qo'shini bilan yetib kelgan G'iyosiddinning ukasi Shahobiddin G'uriy bilan bo'lgan o'zaro jang ikki tomonga ham katta talofat yetkazdi. Shahobiddin G'uriyning Xorazm yerlariga kirib kelish yo'lga to'siq qo'yish maqsadida Marvirud daryosi ko'priklari buzib tashlandi. Shundan so'ng xorazmshoh Marv, Nishopur, Saraxs yerlarini qayta egallashga muvaffaq bo'ldi. 1203-yilning boshida G'ur sultoni G'iyosiddin G'uriy vafot etgach, uning davlatida toj-u taxt masalasida nizolar boshlandi.

Xorazmshohlar muvaffaqiyatidan g'azablangan Shahobiddin G'uriy qayta Xorazm tomon yurishga otlandi. Garchi yana suv to'g'onlari buzilib, o'tish yo'llarini suv bosgan bo'lsa-da, lekin g'uriylar yer qurishini bir oy kutib, Qorasuv anhuri bo'yida xo-



razmshohlar qo'shiniga zarba beradi, Shahobiddin boshchiligidagi g'uriylar qo'shini poytaxt Gurganjni qurshab oldi. Poytaxt aholisi o'z jonajon shaharlarini mardonavor tarzda himoya qilishga kirishishdi. Shahar mudofaasida xorazmlik mashhur ulamo Imom Shahobiddin al-Xivaqiy ta'limoti qarshilik harakatining ma'naviy quvvatiga aylanib, butun xalq ommasini dushmanga safarbar qildi. Al-Xivaqiy butun mol-mulkini mudofaa ishi uchun sarf etib, xayrli ishda boshqalarga o'rnak bo'ldi. Turkon xotun ham mudofaa ishida faol qatnashib, uning sa'y-harakati bilan poytaxtda 70.000 nafar qurollangan mudofaachilar otryadlari tashkil etildi. Xorazmshoh esa mamlakatning turli qismlariga chopar jo'natib, piyoda va otliq askarlar yig'ishga buyurdi. Gurganjga hujum qilish uchun daryoni kesib o'tmoqchi bo'lgan Shahobiddin G'uriy qoraxitoylar qo'shiniga duch keldi.

Xorazmshohlarning murojaatiga ko'ra qoraxitoylar xoni Huyurxon tomonidan yuborilgan qo'shin ichida O'tror hokimi Tojiddin, Samarqanddagi qoraxoniylar xoni Usmonxon, qoraxitoylarga qarashli Taroz hokimi Tayangular bosh bo'lib, ular Andhudda Shahobiddin G'uriy qo'shiniga qaqshatqich zarba berishdi. Ushbu jang 1204-yilning oktabr oyi boshlarida bo'lib o'tdi. Shahobiddin G'uriy to'liq mag'lubiyatga uchradi, mol-mulkini bitim asosida topshirib, o'z davlatiga qaytib ketishga majbur bo'ldi. Shahobiddin G'uriy o'z davlatida parokandalik va nizolar oqimiga duch keldi. Bunday vaziyatda (1205-yil yanvar) u xorazmshoh bilan tinchlik shartnomasini imzolab, Xurosonning bir qismini xorazmshohga qaytarib berdi. O'zaro nizo va parokandalikda qolgan g'uriylar davlati ichida vaziyat og'irlashib ketdi.

Shahobiddin G'uriy o'zaro kurashlar qurboniga aylanib, 1206-yilning martida o'ldirildi. Sultonning o'ldirilishi G'uriylar davlatining yemirilishidan darak berardi. Tez orada g'uriylarga xizmat qilgan noib va amirlar turli hududlarda o'z hukmronliklarini o'rnatib boshlashadi. Shunday bir vaziyatda o'zini g'uriylarning yangi sultoni deb e'lon qilgan Mahmud qo'lida bir paytlar g'uriylarga bo'ysungan hududlarning bir qismi qoldi, xolos. Xorazmshoh g'uriylar saltanati

zaif holatga tushib qolganligidan foydalanib, tez orada Balx, Hirot, keyinroq Mozandaron, Seyistonni ham qo'lga oldi. G'uriylar sultoni Mahmud xorazmshoh Muhammad talabiga ko'ra o'zini xorazmshohlar davlatining noibi deb e'lon qildi. U xorazmshoh nomini xutbaga qo'shib o'qitib, uning nomidan tangalar zarb etdi, xorazmshohga o'z itoati ramzi sifatida bitta oq fil hamda o'z xazinasidagi eng qimmatbaho buyumlarni jo'natdi. Shu tariqa xorazmshoh yo'qotilgan yerlarning asosiy qismini qaytib qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldi.

Movarounnahrda shu davrga kelib ancha murakkab siyosiy ahvol yuzaga kela boshladi. Movarounnahrda oliy hukmronlikka da'vogar qoraxitoylar XII asrning 40-yillaridan buyon o'zlariga qarashli yerlardan muntazam ravishda boj solig'i undirib kelishar, har bir shaharda o'zlarining noiblarini qo'yib, jabr-zulmini kuchaytirib yuborgan edilar. Aholi qoraxitoylar talon-toroji va zo'ravonligidan charchagan edi. Samarqand va Buxoroda hukmronlik qilgan qoraxoniy xoni Usmonxon va Movarounnahrning nufuzli zotlari xorazmshohga murojaat qilib, qoraxitoylarga qarshi kurashda undan yordam so'rashadi. Qoraxoniylar xoni Usmonxon yordam evaziga soliqlarni xorazmshohga to'lab, uning nomini xutbaga qo'shib o'qishga, sulton nomidan tangalar zarb etishga va'da beradi. Bu esa Movarounnahr yerlarini xorazmshoh tasarrufiga o'tishini anglatar edi. Buxorodagi Malik Sanjar qo'zg'oloni bu holni biroz orqaga surdi.

1206-yili Buxoroda diniy unvondagi sadrlar hukmiga qarshi asli savdogarning o'g'li bo'lgan Sanjar isyon ko'tardi. O'zini hokim sifatida Malik Sanjar deb nomlagan qo'zg'olonchilar rahbari Buxorodagi «e'tiborli kishilar»ni haydab chiqarib, ularning mol-mulkini musodara etdi. Buxoro sadrlari unga qarshi kurashda xorazmshohdan yordam so'rashdi.

Janubdagi muammolarni muvaffaqiyatli tarzda yechgan xorazmshoh Muhammad qoraxoniylar murojaatiga muvofiq Movarounnahr ishlariga aralashishni boshlaydi. Xususan, u Buxoroga yurish qilib, uni egallashga muvaffaq bo'ladi. Malik Sanjar isyoni bostiriladi, uning o'zi qo'lga olinib, o'ldiriladi. Movarounnahrning asosiy sha-



harlaridan biri – Buxoroning qoʻlga olinishi xorazmshoh mavqeyini yanada oʻsishiga sabab boʻldi. Qoraxoniylar oʻzlarini xorazmshohlar vassaliga aylanganliklarini tan olishadi. Qoraxitoylar Movarounnahr hududlarini xorazmshohlar tassarufiga oʻtishlaridan qatʼiy norozilik asnosida boʻljak urushga jiddiy tayyorgarlik koʻra boshlashadi. Hech qancha oʻtmay jang boshlandi. Xorazmshoh qoʻshinining jonjahdi bilan kurashiga qator xoinliklar salbiy taʼsir koʻrsatdi. Natijada jangda qoraxitoylar xoni Huyurxon boshchiligidagi qoʻshin qoʻli ustun keldi. Jang qoraxitoylar gʻalabasi bilan tugab, xorazmshoh ham asirlikka tushib qoldi. Xorazmshohning jangdan qaytmasligi koʻplab mish-mishlarga sabab boʻldi. Taxtga sultonning akasi Tojiddin Alishoh oʻtirdi. Sulton Muhammad xorazmshoh baxtli tasodif tufayliga asirlikdan qutulishga muvaffaq boʻldi. U tezda poytaxtga yetib keldi. Qonuniy hukmdor taxtda yoʻq vaqtida xiyonat koʻchasiga kirgan kishilar jazolandi, Tojiddin Alishoh esa Firuzkoʻhga qochib, oʻsha yerda jon saqladi. Keyinchalik u va unga joy bergan sobiq Gʻur sultoni Mahmud ham Gurganjga joʻnatilib, qatl etildi. Shu tariqa gʻuriylarning saltanatiga ham butkul barham berildi.

Oʻzaro parokandalikka chek qoʻygan xorazmshoh Muhammad oldida shu vaqtdagi uning asosiy dushmani – qoraxitoylarga qarshi kurash endilikda asosiy maqsad boʻlib qoldi. Bu paytga kelib sultonning mavqeyi shunchalik mustahkamlandiki, endilikda bir necha oʻn yillardan buyon Oʻrta Osiyodagi siyosiy vaziyatga taʼsir koʻrsatib kelayotgan qoraxitoylarga hal qiluvchi zarba berish vaqti yetgan edi.

Maʼlumki, Otsiz hukmronligi davridan boshlab har yili xorazmshohlar qoraxitoylarga tegishli hajmda oʻlpon toʻlab turishardi. 1209-yili sulton xorazmshoh Muhammad huzurida navbatdagi oʻlpon haqi uchun kelgan qoraxitoylar elchisining surbetlarcha harakati sulton paymonasini toʻldirdi. Elchi qatl etilib, qoraxitoylarga qarshi jangga zudlik bilan tayyorgarlik koʻrildi. Butun saltanatda qoraxitoylar jabr-zulmiga qarshi targʻibot ishlari boshlandi. Qoraxitoylar tomonidan ezilib kelayotgan Movarounnahr aholisi uchun xorazmshohlar qoʻshini xaloskorlar sifatida kutib olindi. Tez orada xorazmshoh

qoʻshini Sirdaryodan kechib oʻtib, Ilamish dashtida Tayangu boshchiligidagi qoraxitoylar navkarlari bilan toʻqnashdi. 1210-yil sentabr oyida boʻlib oʻtgan Ilamish dashtidagi jangda qoraxitoylar magʻlub boʻlishdi. Tayanguning oʻzi ham asirga olindi. Butun Sirdaryo boʻylaridagi yerlar, Fargʻonaning Oʻzgan, Oʻror va unga tutash barcha yerlari ham sulton davlati hududiga qoʻshib olindi. Shu tariqa butun Movarounnahr oʻlkasi sulton qoʻliga oʻtdi. Uning barcha shahar va qishloqlariga sulton oʻz kishilarini hokim, shihna (komendant) lavozimlariga tayinladi.

Xorazmshoh Muhammad yuqorida taʼkidlanganidek, qoraxitoylarni magʻlub etganidan soʻng, qoraxoniylar xoni Usmonxon unga qaramlikni tan oldi. Sultonning qizi boʻlgan Xon Sulton unga turmushga chiqdi. Usmonxon sultonga kuyov boʻlgach, turkiylar odatiga koʻra kelin xonadonida bir yil qolishi lozim edi. Samarqanddagi xorazmliklar shihnasi Doʻst Abo Usmonxon yoʻqligidan foydalanib, shaharda jabr-zulmni kuchaytirib, nojoʻya ishlarni amalga oshira boshladi. Usmonxon Samarqandga qaytib kelgach, xorazmshoh vakillari, xorazmlik amaldor, harbiylarni qirib tashlashga buyruq berdi. Sultonning qizi Xon Sulton qalʼaga yashirib, jon saqlashga muvaffiq boʻldi. Usmonxon xorazmshohlar qaramligidan voz kechib, qoraxitoylarga shaharni topshirishni maʼlum qilib, goʻrxonga oʻz elchilarini yubordi.

Sulton bundan qattiq gʻazablanib, oʻz qoʻshini bilan Samarqand ustiga yurish qildi. Samarqand ahli shahar mudofaasida qatnashib, oʻz shaharlarini mardonavor tarzda himoya qildilar. Sulton qoʻshini Samarqandni egallagach, uch kun davomida shahar ahli jazoga mubtalo etildi. Natijada oʻn mingga yaqin odam halok boʻldi. Sultonning qizi Xon Sulton oʻz eri Usmonxonni oʻldirishni talab qildi. Shundan soʻng qoraxoniylar xoni Usmonxon va uning barcha qarindoshlari qatl etildi. Qoraxoniylarga aloqador barcha kishilar oʻz oilalari bilan oʻlimga mahkum qilindi. Qoraxoniylar sulolasining umri shu tariqa 1212-yili oʻz nihoyasiga yetdi. Sulton umri tugab borayotgan qoraxitoylarning Movarounnahr chegaralariga yana yurish qilishlarining



oldini olish maqsadida 10.000 kishilik qo'shinni Isfijob (Sayram) ga yubordi. Naymanlar rahbari Qushlixon esa tez orada qoraxitoylar yerlaridagi hokimiyatni o'z qo'liga oldi.

Sulton shundan so'ng o'z e'tiborini yana janubga – Xuroson, Eron tomoniga qaratdi. Fors Iroqi (yoki Iroqi Ajam – hozirgi g'arbiy Eron yerlari)da ichki vaziyat bir necha yillar davomida keskinlashib, o'zaro kurashlarda Ozarbayjon otabeklari, Bag'dod xalifaligi, turli harbiy noib, sarkardalar faol ishtirok etishardi. 1215-yil Iroqi Ajam (Fors Iroqi)da hokimiyatni olgan Sayfiddin O'g'ilmish (u bir necha yil xorazmshoh xizmatida bo'lgan edi) sulton Muhammad xorazmshoh nomini xutbaga qo'shib o'qitdi. Natijada Fors Iroqi qayta sulton izmiga o'tdi. Keyinchalik Eronning Kirmon viloyati ham qo'shib olindi. Shundan so'ng sulton qo'shini Hindiston va Eron oralig'idagi Mikron, so'ngra Balujistonni ham egallashga muvaffaq bo'ldi. Keyin esa xorazmlik qo'shin Arab dengizi bo'yidagi O'rmuz bo'g'oziga chiqib, uning hokimi Maqiqni ham bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldi. Tarixchi Ibn al-Asir xorazmshoh hukmini hatto Arabiston yarim orolida joylashgan Ummonda ham tan olib, uning nomini xutbaga qo'shib o'qitishganligini ta'kidlab o'tadi.

1216-yili G'azna, G'ur, Bomiyon yerlari qo'lga olindi, sulton Muhammad xorazmshoh davlati Sind daryosi bo'yiga chiqib, bevosita Hindiston bilan chegaradosh bo'lib qoldi. Avvalboshida Fors Iroqi sulton qo'liga o'tganligiga jim qarab turgan Bag'dod xalifasi an-Nosir hamda Ozarbayjon otabegi<sup>1</sup> O'zbek tez orada mazkur hududdan xorazmshoh vakilini siqib chiqarishga harakat qilishdi. Shu maqsadda ularning o'zaro kelishuviga muvofiq Fors Iroqi (Iroqi Ajam)dagi xorazmshoh noibi Sayfiddin O'g'ilmish ismoiliylar rahbari Jaloliddin Hasan tomonidan o'ldirildi. Ozarbayjon hokimi Otabek O'zbek Isfahonni, Otabek Sa'd ibn Zangi Ray, Qazvin, Huvor va Simnon yerlarini egallashdi. Xorazmshoh bu voqeani eshitgach, 100.000 kishilik qo'shin bilan Iroqi Ajamga yurish boshladi. Ray yaqinida Fors

<sup>1</sup> Otabek O'zbek 1225-yilgacha Ozarbayjonda hokim bo'lib turdi. Uni Jaloliddin Manguberdi 1225-yil hokimiyatdan mahrum etgan.

Otabegi Sa'd ibn Zangining qo'shini to'liq mag'lub etildi, o'zi asir olindi. Ozarbayjon tog'liklariga chekingan Otabek O'zbek ham sulton tazyiqidan cho'chib, tez orada tobelikni qabul qildi. Shundan so'ng xorazmshoh Muhammad yerlari tarkibiga Arron, Ozarbayjon, Shirvon va hozirgi Dog'istonning Kaspiy bo'yidagi Darband yerlari ham qo'shib olindi. Sobiq Ozarbayjon Otabegi (hokimi) O'zbek itoatgo'ylik belgisi sifatida o'zi pano'n topgan tog'li Farrozin qal'asini ham topshirdi.

Qo'shib olingan yerlarda sulton Muhammad xorazmshoh nomi xutbalarga qo'shib o'qitilib, uning nomidan tangalar zarb etildi. Shuningdek, xorazmshoh Otabek O'zbekning iltimosini inobatga olgan holda Gruziya qiroli Georgiy IV ga elchi yuborib, bundan buyon Otabek O'zbek yerlari unga qarashli ekanligi, shu bois Ozarbayjon yerlariga hujum qilishdan tiyilishini talab qildi.

1217-yilga kelib sulton Muhammad xorazmshoh davlati tarkibiga Fors Iroqi (Iroqi Ajam), Mozandaron, Arron, Ozarbayjon, Shirvon, Fors, Kirmon, Mikron, Mang'ishloq, Kesh, Seyiston, G'ur, G'azna, Bomiyon yerlari, jumladan, 400 ga yaqin shaharlar kirdi. Tarixchi an-Nasaviy tili bilan aytganda, bu g'alabalarga u o'z «aql-zakovati bilan erishdi va bu g'alabalar bilan o'zini ziynatladi». Sulton qo'shinini tez orada Suriya, Kichik Osiyo va Misr tomoniga yurish qilish haqidagi gap-so'zlar esa Yaqin Sharq hukmdorlarini ancha vaqtgacha behalovat bo'lishlariga sabab bo'ldi. Iroqdan Hindistongacha, Orol dengizi atroflaridan Arab dengizi sohillarigacha bo'lgan yerlarda hukm surgan xorazmshoh Muhammad davlati XIII asr boshlaridagi Sharqning eng buyuk va qudratli davlatiga aylandi.

Shu o'rinda sultonning musulmon Sharqi diniy-ma'naviy rahnamosi bo'lgan Bag'dod xalifaligi bilan munosabatlari masalasiga ham alohida to'xtalish lozim.

Xorazmshohning Bag'dod xalifaligi bilan avval boshida munosabatlari ancha silliq kechdi. Bir necha marotaba elchilik almashuvi ham sodir bo'ldi. Lekin keyinchalik xorazmshoh Bag'dod xalifaligiga o'z ta'sirini o'tkazishga harakat qila boshladi. Endilikda sulton Bag'dod



xalifaligidan xuddi saljuqiylar davridek uning oliy hukmronligini tan olishni talab etadi. Bunga tabiiyki, xalifa an-Nosir rad javobini beradi. Sulton va xalifa o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tobora sovuqlashib bordi. 1212-yili xorazmshoh ulamo va imomlar yig'ilishini o'tkazib, ulardan xalifani taxtdan tushirish, asli kelib chiqishi Ali ibn Abu Tolib avlodidan bo'lgan A'lomulk at-Termiziyni xalifa qilib ko'tarish xususida fatvo chiqarib oladi. Bag'dod xalifasi an-Nosirning o'z vaqtida g'uriylar sultoni hamda qoraxitoy amirlariga Xorazmshohga qarshi kurashga chorlovchi maktublarning Sulton Muhammadga ayon bo'lishi bu munosabatlarga tamomila chek qo'yishga sabab bo'ldi. Bag'dod so'fiylarining boshlig'i, shayxlar shayxi, taniqli zot bo'lgan Shahobiddin Suhravardiyning (1145–1234) xalifalik elchisi sifatida sulton huzuriga kelishi ham vaziyatni o'zgartirmadi. Muhammad xorazmshoh 1217-yilning kuzida 400 000 nafar atrofidagi o'z qo'shinini Bag'dod yurishiga jo'natdi. Xorazmshoh oldindan xalifalik yerlarini bo'lib olishni, ularni kimlarga iqto sifatida bo'lib berishni ham e'lon qilgan edi. Xorazmshoh qo'shini Hulvon viloyatining Asadobod darasiga yetganida to'satdan havo sovib, uch kecha-yu uch kunduz qor yog'di. Izg'irin sovuq hammayoqni qamrab oldi. Jangchilar sovuqdan aziyat chekdi, otlar, tuyalarga qiron keldi. Bu ofatdan iztirobga tushgan sulton o'z qo'shinini orqaga qaytarishga buyruq berdi. 1218-yil martida sulton xalifa nomini xutbadan chiqarib tashlashni buyurdi. Albatta xalifaning bu xatti-harakati ulamolar va din arboblariga ma'qul emasdi. Majdiddin Bag'dodiy va uning tarafdorlarini sulton harakatlariga qarshiligi Xorazmshoh tomonidan qattiq jazolanishlariga sabab bo'ldi.

Sulton tez orada Samarqandni o'z poytaxti deya e'lon qilib, 1218-yil aynan shu shaharga kelib o'rnashdi. Ta'kidlash joizki, xorazmshohlar davlatida o'ziga xos diarxiya – ya'ni ikkihokimlik tuzumi yuzaga kelgan edi. Garchi sulton Muhammad xorazmshoh mutlaq hukmdor, qudratli davlat egasi hisoblansa-da, aslida esa o'z onasi Turkon xotun izmiga to'liq bo'ysunar edi. Ko'p holda sulton farmonlari onasi tomonidan bekor ham qilinardi. Sulton onasiga qarshi hech qachon qarshi chiqmas va bu holatni tarixchi an-Nasaviy quyidagic-

ha izohlab, uni ikki sababga bog'lab ko'rsatgan edi: «birinchidan, onasining unga bo'lgan mehrini qadrlashi, ikkinchidan, mamlakatning barcha amirlari onasining urug'idan ekanligidan». Turkon xotun «Jahon hokimi» degan laqabga ega bo'lib, uning shaxsiy muhri (tug'ro)da: «Ismat ud-dunyo vad-din Ulug' Turkon malika niso al-olamiyn» («Dunyo va uning pokdomoni, Ulug' Turkon, olam ayollarining malikasi»), degan bitik yozilgan edi. Turkon xotun poytaxt Gurganjda doimiy tarzda istiqomat qilar, o'z saroyi, ulkan mulklariga ega edi. Sulton bosib olingan yerlardagi eng boy hududlarni, eng yaxshi o'ljalarni onasiga taqdim etardi. Malika saltanat, moliya ishlarini shaxsan o'zi boshqarar, tegishli tarzda farmonlar berar, noib va amaldorlar tayin etilishini nazorat qilar va hokazo. Turkon xotun Jaloliddin Manguberdini emas, balki kenja Qutbiddin O'zlagshohni taxt vorisi etib tayinladi.

Chunki, O'zlagshohning onasi Turkon xotunning urug'idan edi. Turkon xotun boshqa urug'dan bo'lgan shahzoda Jaloliddinning onasi Oychechakni xush ko'rmas edi. Turkon xotun ko'rsatmasiga ko'ra vaqti-vaqti bilan asir olingan yoki garovda ushlab turilgan shaxslar, sobiq hokimlar qatl etib turilgan.

Xorazmshohlar davlati boshqaruv tartibida an'anaviy dargoh va devon tizimiga rioya qilinar edi. Xorazmshohlar davlatida markaziy boshqaruv idorasi «al-majlis ul oliy al faxri at-toji» deb nomlangan bo'lib, uni vazir boshqargan. Vazir – mamlakatda sultondan keyingi eng yuqori mansabdor shaxs bo'lgan. Vazir sultonning bosh maslahatchisi bo'lib, bevosita unga bo'ysungan. Vazir rasmiy marosimlarda, davlatlararo aloqalarda, mustamlakalar bilan olib boriladigan muzokaralarda xorazmshoh nomidan ishtirok etib, sulton va raiyat (fuqarolar) o'rtasida vositachilik qilgan. Barcha davlat amaldorlari, jumladan, amirlar, beklar va harbiy boshliqlar vazirga bo'ysungan. Vazirning vazifalari quyidagilardan iborat bo'lgan:

– as'hab ad-davanin yoki devonxonalar amaldorlarining boshlig'i. Yuqori mansabli amaldorlarini ishga tayinlagan yoki ishdan bo'shatgan;



- davlat amaldorlariga nafaqalar (arzak) va moddiy yordam (majb) joriy etish ishlarini boshqargan;
- davlat amaldorlarini hayot uchun zaruriy ozuqa va ashyolar bilan ta'minlanishini belgilagan;
- bojxona va xazina faoliyatini nazorat qilgan;
- sultonga muntazam ravishda hamrohlik qilgan, ba'zi paytlarda qo'shin jo'natib, ularga boshchilik qilgan.

Xorazmshohlar davlatida vazirlik lavozimi katta hurmatga ega bo'lib, o'rta asr manbalarining birida vazir haqida shunday ma'lumot beriladi: «Eng yuksak mahkama – vazorat (vazirlik) bo'lib, barcha jamoat ishlari hamda odamlar hayotining to'g'ri yo'ldan borishi u bilan aloqadordir, buning natijasida mamlakatning chiroyi va martabasi ortadi, davlatda tartib va qonunchilik o'rnatiladi... Vazir – idora qilish qonunlarini, davlat kelajagini biladigan, hayotiy tajribaga boy, yaxshi ishlarga undovchi, shon-shuhrat va yutuqlarga yetaklovchi, fuqarolar ahvolidan ro'yi-rost xabardor qilib turadigan, ko'rsatmalariga to'la ravishda ishonish mumkin bo'lgan kishi bo'lishi lozim...»

Vazirlarga sadr, dastur, xojayi buzruk kabi unvonlar berilgan. Vazir lavozimidagi shaxs o'zining siyohdoni (dovot) va ma'lum xil movutdan o'ralgan sallasi (dastor) bilan ajralib turgan. Vazir tashqariga chiqqan vaqtida uning oldida dastasi tilla bilan qoplangan to'rtta nayzalik kishi yurib borgan. Vazirlar aksariyat arab va fors tillarining bilimdonlari bo'lishgan. Qabul vaqtida vazir hukmdorning o'ng tomonida o'tirgan. Xorazmshohlar davlatida vazir lavozimi dastlab Otsiz davrida paydo bo'lgan edi.

Tarixiy manbalarda Xorazmshohlar saroyida turli mansab, lavozimlar haqida ham ma'lumotlar beriladi:

Amiri shikor – sulton ovlarini tashkil etgan.

Amir ul-a'lam (a'lamdor) – sulton bayroqdori.

Qissador – hafta davomida sulton nomiga yozilgan ariza va iltimosnomalarni yig'ib, payshanbadan jumaga o'tar kechasi sultonga topshirar edi. U eng obro'li mansabdorlardan biri bo'lgan.

Tashtdor – sulton hammomlari va hovuzlarining boshlig'i. Uning qo'lida ko'plab qullar ham bo'lgan. U sultonga eng yaqin kishilardan biri bo'lgan. Masalan, xorazmshoh Muhammad tashtdori Ayozga keyinchalik o'n ming otliq lashkar berilgan. Sulton unga malik (hokim) unvonini ham bergan.

Farrosh – sulton o'rni-to'shak saqlanadigan farroshxona boshlig'i bo'lib, uning ixtiyorida gilam, chodir, ko'rpa-to'shaklar bo'lgan. Farroshga ko'plab o'rgatilgan qullar xizmat qilgan.

Choshnigir – dasturxon yozilgan vaqtida sulton taomlari xavfsizligi uchun javob berar edi.

Sharobdor – sulton sharobxonasining boshlig'i.

Xorazmshohlar ijroiya boshqaruvida tug'ro (insho) devoni rasmiy hujjat, yozishlarini tuzish bilan shug'ullangan.

Istifo devoni – moliya ishlari bilan, ishrof devoni – davlat nazorati tadbirlari bilan, devoni arz – harbiy masalalar, qo'shinni qurol-aslaha bilan ta'minlash, shaxsiy tarkibni nazorat qilish, harbiy ko'riklar o'tkazish, harbiylarga ajratilgan mulklar nazorati kabilar bilan shug'ullangan.

Devoni xos – maxsus devon hisoblanib, sulolaga tegishli bo'lgan yer-suv, mol-mulk, sulton xizmatidagilarga maosh berish bilan mashg'ul bo'lgan.

Tarixiy manbalarda berilgan ma'lumotlarga ko'ra Xorazmshoh o'z davlatida majburiy umumxalq harbiy ta'lim tizimini joriy qilgan. Aholining aksariyati harbiy ta'limdan xabardor bo'lgan. Davlatdagi harbiy qo'shin soni davr va yurishlarga qarab o'zgarib turgan. Masalan, 1195-yili harbiy devonxonaning daftarlarida qayd etilishicha, xorazmshoh Takish qo'shinida 170 ming nafar otliq askar bor edi. 1214-yilda xorazmshoh Muhammadning Fors Iroqi, Ozarbayjonga qilgan yurishida 100 ming nafar suvoriy bo'lgan. 1218-yilgi ko'rikda 150 mingga yaqin otliq, 100 ming piyoda askar mavjudligi qayd etilgan.

1211 va 1212-yillarda qoraxitoylarga qilingan yurishlarda xorazmshoh Muhammad otliq askarlari sonining o'zi 400 ming nafar

bo'lganligi alohida tarzda ta'kidlangan. Shuningdek, Bag'dod xalifaligiga qarshi yurishda ham 400 ming nafar suvoriy qatnashganligini harbiy devondagi qayd daftarlari ham tasdiqlaydi. Xorazmshohlar doimiy harbiy qismlardan tashqari, shaxsiy muhofaza qo'shini (xaras)ga ham ega bo'lib, ular yollanma askarlar (mamluklar) dan tuzilgan edi. Xorazmshoh Muhammad shaxsiy qo'shinida 10 ming nafar kishi bo'lgan. Yuqorida ta'kidlanganidek, eng oliy harbiy boshqaruv – devon al-jaysh (harbiy ishlar devoni) hisoblangan.

Xorazmshohlar yangi istilo etilgan o'lka va viloyat yerlarini amirlarga iqto sifatida taqsimlab berishgan. Ularga, o'z navbatida, amiral umaro faxriy unvoni berilar edi. 10 ming kishilik suvoriylar guruhiga qo'mondonlik qilgan kishilarga malik unvoni berilgan. Choparlarga chovush unvoni, ularning boshlig'iga esa muqaddam chovushiya degan nomlar berilgan. Shuningdek, maxsus xufya va ayg'oqchilar bo'linmalari ham mavjud bo'lgan. An'anaviy urush qurollaridan tashqari palaxmonlar (manjaniq), qamal qilish uskunalari (dabbabat), yuradigan minoralar (matarks), devor buzadigan moslamalar (jamalukat), hujum vaqtida ishlatiladigan narvonlar (salalim) ham bo'lgan. Davlatda ko'plab harbiy jihatdan mustahkam qal'alar mavjud edi (Istahr, Ilol, Hurandiz, Qohira, Ustunavand, Ardahn va boshqalar). Qal'alardagi garnizonlarga – musatahfizlar qo'mondonlik qilishgan. Qo'shindagi harbiy nozir – nozir al-jaysh bo'lib, u harbiy devonxonaga boshlig'ining nazorati ostida faoliyat ko'rsatgan. Davlatda aholi tinchligi bilan shihnalari o'z odamlari bilan shug'ullanishgan.

Shihna aholi ichida xavfsizlik masalalariga mas'ul bo'lgan. Urushdan avval xorazmshohlar albatta harbiy kengash chaqirishar, unga yirik harbiy sarkardalar, ulamolar, faqihlar, munajjimlar taklif etilar edi.

Xorazmshohlar davlatida, ayniqsa Takish va Muhammadlar davrida madaniy hayot ancha rivoj topdi. Ayniqsa, she'riyat, adabiyot sohasi gullab-yashnadi. Ular orasida eng ko'zga ko'ringan olim va shoir Rashididdin Muhammad al-Umariy (1115–1182) bo'lgan. U Votvot taxallusi bilan mashhur bo'lib, uch hukmdor – Otsiz, El-Arslon, Takish saroylarida xizmat qilgan.

Votvot arab, fors tillarida nomalar bitishga mohir bo'lgan. Rashididdin Votvot ko'plab adabiyot, madaniyat ahliga homiylik qilgan. Uning ayniqsa, «Rasoil» («Nomalar») she'riy to'plami mashhur edi. Jaloliddin Isfahoniy (vaf.1192-y.) va uning o'g'li Kamoliddin Ismoillar (1172–1237) ham ko'zga ko'ringan qasidago'y shoirlar bo'lishgan. Kamoliddin Ismoil ma'noli g'azallari bois «xalloqi maoniy» (ma'nolar yaratuvchi ijodkor) laqabini olgan. Faryobiy (Xoja Zahiriddin Tohir ibn Muhammad) (1160–1202) – iste'dodli shoir bo'lib, Nishopur, Isfahon, Tabrizda turli sabablarga ko'ra ko'chib yurib, ijod qilgan. Asiriddin Axsikatiy (vaf.1184-y.) – xorazmshohlar davrida atoqli shoir va taniqli ulamo sifatida nom chiqargan. Sulton al-fuzalo (Fozillar sultoni) unvonini olgan bu shoir asli Axsikatda (Farg'ona vodiysidagi shahar) tug'ilgan bo'lib, keyinchalik Ozarbayjonda ijod qildi. Buxoroda yashab, ijod qilgan Sayfiddin Isfarangiy o'zini Axsikatiyga shogird deb bilib, ko'plab g'azal, qasidalar yozgan.

Xorazmshohlar davridagi atoqli shoirlardan yana biri al-Jandiy (G'iyosiddin Abulmajd Muhammad ibn Hasan ibn Ibrohim)ni adabiyot ahli «eng go'zal yozuvchi shoirlardan biri, she'rlari ajoyibdir», deya ta'riflashgan. Shuningdek, Adib al-Xorazmiy (vaf.1165-y.), Umar Xorazmiy (vaf.1155-y.), Ahmad Samarqandiy, Rustam Xorazmiy va boshqa shoirlar ham samarali ijod qilishgan.

Xorazmshohlar davlatida tibbiyot ilmi ham rivoj topgan edi. Masalan, al-Qoniniy atoqli tabib bo'lib, tibbiyotga oid qator asarlar yozgan. U o'zini Umar Hayyomning shogirdi deb hisoblagan. U xorazmshoh Otsizga atab «Kitob fil hikma» («Donishmandlik kitobi») asarini, ibn Xorogiy esa – tarix va falsafa bo'yicha asarlarini yozgan. Salohiyatli olim sifatida Otsiz uni o'z saroyiga chaqirib olgan. Jo'g'rofiya sohasida Najib Bakronning «Jahonnoma» nomli xarita va izohli asari e'tiborga molik ishlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Sharqshunos olim Z.Bunyodov Xorazmshohlar davlatining 50 ga yaqin mashhur shoir, olim, ulamolarining nomini sanab o'tgan.

Sulton yangi madrasalar qurilishini odatda taniqli din arboblari topshirgan. Masalan, Xurosondagi bir madrasa qurilishi – muftiy va



imom Ali Balxiyga, Nishopurdagi madrasa qurilishi – muftiy va mu-darris imom Abduljabbor Kufiyga topshirilgan va hokazo. Bu davrda Buxoro yaqinidagi Dehqon degan joyda xalq kutubxonasi ham ochil-gan edi.


Xorazmshohlar davlatining vazirlari asosan Xorazm, Buxo-ro, Nishopur, Isfahon, Balx, Hirotdan chiqqan arboblilar bo'lishgan. Xorazm davlatiga qarashli viloyatlarning ma'muriy boshqaruvida ham mahalliy vazirlar faoliyat ko'rsatishgan.

Xorazmshohlar davlatining markazi Gurganj shahri edi. Buyuk geograf olim Yoqut Hamaviy mo'g'ullar istilosi arafasida, 1219-yili mazkur shaharda bo'lganida u haqda: «Men Gurganj kabi buyuk, boy va go'zal shaharni ko'rmadim», deb yozgan edi. Shahar. ay-niqsa sulton Takish va xorazmshoh Muhammadlar hukmronliklari davrida gullab-yashnadi. Shaharda 50 dan ziyod hunarmandchilik sohalari taraqqiy etgan, u ichki va tashqi savdo chorrahalarida joy-lashgani bois savdo-sotiq juda taraqqiy topgan. Gurganj savdogar-lari o'z mollarini hatto Ispaniyaga ham olib borib sotishgan. Zaka-riyo Qazviniy shahar aholisining ko'pligi, undagi Tanura va May-don mahallalari, Qobilon darvozasi haqida ma'lumotlarni yozib qoldirgan. Shahar juda obod, xushmanzara, hashamatli imoratlarga boy bo'lgan.

Tarixiy manbalarda bundan tashqari birgina Xorazm vohasida 11 ta shahar mavjud bo'lganligi ham qayd etiladi. Mamlakatdagi boshqa eng yirik shaharlar qatorida Buxoro va Samarqand ham tilga olinadi. Birgina Buxoro viloyatida 5 ta shahar, 50 ga yaqin qishloqlar mavjudligi vohaning boy salohiyatidan darak berar edi. Undan tashqari, O'rta Osiyoning o'zida xorazmshohlarga tegish-li Kesh, Taroz, O'tror, Xo'jand, Termiz, Isfijob, O'zgand, Nasaf, Banokat, Niso, Marv va boshqalar mamlakat hayotida katta rol o'ynashgan. Xorazmshohlarga tegishli boshqa hududlardagi Nisho-pur, Isfahon, Sheroz, Hamadon, G'azna, Balx, Ray va boshqalar katta shaharlar sirasiga kirib, o'z vaqtida madaniy o'choqlar vazi-fasini ham o'tagan.

### Xorazmshoh-Anushtaginiylar (1097–1231-yy.)

- Anushtagin (taxm. 1077–1097-yy.)
- Qutbiddin Muhammad (1097–1127-yy.)
- Olovuddin Otsiz (1127–1156-yy.)
- El-Arslon (1156–1172-yy.)
- Olovuddin Takish (1172–1200-yy., shuningdek, 1172–1193-yy. mobaynida inisi Sultonshoh bilan hokimiyat borasida raqobat qilgan)
- Olovuddin Muhammad xorazmshoh (1200–1220-yy.)
- Jaloliddin Manguberdi (Mankburni) (1220–1231-yy.).



### *Tayanch soʻzlar*

Xalifalik, Tohiriylar, Somoniylar, Qoraxoniylar, Gʻaznaviylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar, turkiy gvardiya, amir, hojib, elekxon, qorluq-chigʻil, devon, dargoh, qoraxitoy, madrasa, ismoiliylik, qar-matchilik, Movarounnahr, Xorazm, xoʻjalik hayot, hokim, sulon, Xuroson, sulola, davlat, rais, ustod, vazir, iqto, shihna, ustod, xiroj, oʻlpon, saltanat, malik, sulola, xutba.

### *Savol va topshiriqlar*

1. IX–XII asrlarda mavjud boʻlgan davlatlar tarixi haqidagi asosiy yozma manbalarni izohlab bering.
2. VIII asr oxiri – IX boshlarida Movarounnahr va Xurosonda siyosiy vaziyat qanday edi?
3. Abdullohning suv taqsimoti haqidagi qonuni haqida nima deya olasiz?
4. Somoniylar davridagi devonlar faoliyatini qanday izohlaysiz?
5. Qoraxoniylar davridagi ijtimoiy-siyosiy hayot qanday kechgan?
6. Mahmud Gʻaznaviy siyosiy faoliyatini qanday baholaysiz?
7. «Siyosatnoma» asari haqida qanday maʼlumotlarga egasiz?
8. Xorazmshoh-Anushteginiylar xalqaro munosabatlari qanday kechgan?

### *12-mavzu boʻyicha foydalanilgan adabiyotlar*

1. *Ibn al-Asir*. Al-kamil fi-t tarix. – Tashkent: «Uzbekistan», 2006.
2. *Alouddin Atomalik Juvayniy*. Tarixi jahongusho. – Tashkent: «Mumtoz soʻz», 2015.
3. *Azamat Ziyo*. Oʻzbek davlatchiligi tarixi. – Tashkent: «Sharq», 2000.
4. *Bosfort K.E.* Musulmon sulolalari. – Tashkent, 2008.
5. *Bunyodov Z.M.* Anushtagin – Xorazmshohlar davlati (1097–1231). – Tashkent: Gʻ. Gʻulom nashriyoti, 1998.
6. *Bunyodov Z.M.* Markaziy Osiyoga doir tadqiqotlar. Xorazmshohlar davlati. – Tashkent: «Mumtoz soʻz», 2012.

7. Buyuk siymolar, allomalar. – Toshkent: «Meros» (uch kitob), 1996, 1998.

8. *Запорожец В.М.* Селджуки. – М.: «Воениздат», 2011.

9. *Кочнев Б.Д.* Нумизматическая история караханидского каганата (991– 1209 гг.). – М.: «Евразия», 2005.

10. *Nizomulmulk*. Siyosatnoma. – Toshkent: «Adolat», 1997.

11. *Eshov B., Odilov A.* Oʻzbekiston tarixi. I jild. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2014.

12. *Eshov B.J.* Oʻzbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2012.

13. *Kamoliddin Sh. Tha Samanids*. The First Islamic Local Dynasty in Central Asia. LAP LAMBERT Academic Publishing. 2011.



### 13-MAVZU

## O'RTA OSIYO XALQLARI TARIXIDA IX–XII ASRLARDA YUZ BERGAN UYG'ONISH DAVRI. AJDODLARIMIZNING JAHON SIVILIZATSIYASIGA QO'SHGAN HISSASI

### Reja:

- 13.1. IX–XII asrlarda madaniy yuksalish omillari. O'rta Osiyolik buyuk qomusiy allomalarning insoniyat tamadduni rivojiga qo'shgan ulkan hissasi.
- 13.2. Xorazm Ma'mun akademiyasida ilm-fanning rivojlanishi.
- 13.3. IX–XII asrlarda islom dini va tasavvuf tariqatlari. Buyuk muhaddis va dinshunos olimlar.
- 13.4. Me'morchilik va san'at.

#### 13.1. IX–XII asrlarda madaniy yuksalish omillari.

#### O'rta Osiyolik buyuk qomusiy allomalarning insoniyat tamadduni rivojiga qo'shgan ulkan hissasi

IX–XII asrlarda O'rta Osiyo hududida yuz bergan madaniy Uyg'onish (Renessans), uning tarixi, mazmun-mohiyati, shu davrda ijod qilgan buyuk allomalarning hayoti va ijodi, ularning bashariyat ilm-fani, madaniyati ravnaqiga qo'shgan ulkan hissasi hamisha jahon olimlarining diqqat markazida turgan. G'arb tarixshunosligida ushbu masala bilan qator olimlar, xususan G. fon. Gryunebaum, A. Mets, L. Daxiyat, F. Lot, U. Uott, K. Brokkelmann, V. Shpuler, K. Bosvort, J. Sarton, L. Massinon, E. Videman, M. Meyerxof, F. Krenkov, A.Z.V. To'g'on, S. Nasr, F. Rouzental, M. Krauze va boshqalar qator tadqiqot ishlarini amalga oshirishgan. Shuningdek, rus va sovet olimlaridan V.V. Bartold, I.Y. Krachkovskiy, C.P. Tolstov, M.E. Masson, I.I. Umnyakov, B.A. Rozenfeld, A. Sagadeyev, P.G. Bulgakov,

o'zbek olimlaridan Ya. G'ulomov, I. Mo'minov, O.I. Islomov, U. Karimov, M. Xayrullayev, B. Ahmedov, I. Abdullayev, N. Ibrohimov, A. O'rinboev, A. Irisov, A. Nosirov, I. Nizomiddinov, A. Ahmedov, H. Hasanov, F. Sulaymonova, N. Komilov, D. Yusupova, U. Uvatov, S. Karimova, Sh. Kamoliddinov va boshqalar qo'yilgan masalaning turli jihatlarini ochib berishga muvaffaq bo'lishdi.

Bizning davrimizgacha IX–XII asrlar madaniyati, ilm-fan va falsafiy tafakkur rivojiga doir anchagina manbalar yetib kelgan. Masalan, Yoqut al-Hamaviy (1179–1229) «Irshod al-arib ila ma'rifat al-adib» asarida IX–XII asrlarda Markaziy Osiyo va Xurosonda yashagan mashhur va iste'dodli fan va madaniyat arboblari haqida, jumladan Mahmud ibn Aziz al-Xorazmiy, Ahmad ibn Muhammad Abul-Fadl, Ahmad ibn Muhammad Abul-Husayn al-Xorazmiy, Hasan ibn al-Muzaffar Abu-Ali, Ali ibn-Iroq, Abulhasan al-Xorazmiy, Muhammad ibn Abul-Qosim Bayjuq, Abul-Fadl al-Xorazmiy al-Odamiy, Nosir ibn Abd-as-Sayid ibn Ali al-Xorazmiy al-Nahviy al-Adib, Yusuf ibn Abu Bakr ibn-Muhammad Abu-Yoqub as-Sakkokiy (Xorazmdan), Al-Qosim ibn-al-Muhammad ibn Muhammad al-Muhammad al-Xorazmiy kabi adib va faylasuflar haqida batafsil ma'lumotlarni beradi.

IX–XII asrlarda Markaziy Osiyoda paydo bo'lgan saltanatlar va ularni boshqargan hukmron sulolalar haqida Muhammad ibn Mansur Marvirudiy o'zining «Tarix-i Muborak-shoh» asarida qimmatli ma'lumotlar bergan. Bu asarda nafaqat o'sha davr siyosiy va ijtimoiy hayoti, shuningdek, ilm-fan, adabiyot va madaniy yuksalish haqida keng ma'lumotlar yozib qoldirilgan.

IX–XII asrlarda Markaziy Osiyo va Xurosondagi madaniy hayot, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy munosabatlar, ilm-fan, adabiyot va san'at sohalarida yuz bergan yuksalish, ya'ni ilk Uyg'onish haqidagi qimmatli ma'lumotlar boshqa ko'pgina manbalarda va boy ma'naviy merosimizni o'rganishga bag'ishlangan ijodiy ishlarda har tomonlama keng sharhlab berilgan.

Ilm-fan, madaniyat va san'atda o'ziga xos o'zgarish yasagan qomusiy bilim sohiblari, olim, fozil va barkamol shaxslar yashagan

ilk oʻrta asrlar zamoni Sharq Uygʻonish davri nomi bilan maʼlum. Oʻzining ijtimoiy, madaniy, maʼrifiy belgilariga koʻra bu davr XV–XVI asrlarda Gʻarbiy Yevropa mamlakatlaridagi madaniy hayot, ilm-fan, falsafiy tafakkur sohasidagi buyuk yuksalishlar yuz bergan Renessans davriga ham qiyos qilinadi.

Sharq Renessansi iborasi va fikri ilk bor yevropalik sharqshunos olim A. Metsning «Musulmon Renessansi» kitobida ilgari surilgan edi. Bu asar IX–X asrlardagi arab xalifaligi tarixiga bagʻishlangan kitob koʻplab olimlarning diqqat-eʼtiborini jalb qildi.

Sharqda Uygʻonish davri deganda koʻpchilik olimlar davrning madaniy taraqqiyot sohasidagi muvaffaqiyatlarini nazarga olib, Uygʻonish gʻoyasini muayyan bir tarixiy davrga xos ilm-fan, madaniyatning yuksalishi degan maʼnoda talqin etishadi. Ularning fikricha, Sharq Renessansi insoniyatning madaniy-tarixiy taraqqiyotidagi ana shu yuksalish davrlaridan biridir. «Renessans» (Uygʻonish) tushunchasi esa Sharqqa nisbatan shartli ravishda qoʻllaniladi: Sharq Renessansi deganda, Gʻarb mamlakatlarida XV–XVI asrlarda yuz bergan Uygʻonish davri anʼanalariga oʻxshash yoki shularga yaqin hodisalar koʻzda tutilishi qayd qilinadi. Muammoga mana shu nuqtayi nazardan qarashda, oʻzlarining qadimiy tarixiy anʼanalariga ega boʻlgan barcha xalqlarning nafaqat qadimgi madaniyatning, xususan, yunon madaniyati va ellinizm anʼanalarining tiklanishi, balki oʻz qadimiy madaniyati, milliy qadriyatlarining ham qayta tiklanishi koʻzda tutiladi.

Sharq va Gʻarb Uygʻonish davrlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy negizlarning turlicha holatlarini koʻrsatish bilan birga, IX–XII asrlarda Sharq musulmon mamlakatlaridagi Uygʻonishning Yevropa Renessansi arafasida jahon madaniyati taraqqiyotidagi muhim bosqich boʻlganini yoddan chiqarish lozim. Sharq Uygʻonish davri tarafdorlarining koʻpchiligi bu nuqtayi nazarni eʼtirof etishadi. Ammo ular Sharqqa nisbatan Renessans – tiklanish, Uygʻonish istilohini shartli ravishda ishlatish mumkin, deb hisoblashadi.

Mingyilliklar davomida turli sivilizatsiya va madaniyatlar, jahon savdo yoʻllari chorrahasida joylashgan oʻlkamiz hududida oʻziga xos

bebaho maʼnaviy qadriyatlar va madaniyat mavjud boʻlgan. Ilgʻor madaniyat, ilm-fan xalifalik hukmi davrida aynan yurtimiz hududida rivoj topgan bevosita Bagʻdod xalifaligidagi musulmon Uygʻonish davri, ilm-fan, madaniyat taraqqiyotiga ijobiy taʼsir koʻrsatdi. Ulkan xalifalik hududlarida taraqqiyot darajasi turlicha oʻlka va xalqlarning bir davlatga birlashuvi, ular oʻrtasida tegishli munosabatlarning oʻrnatilishi, iqtisodiy hayotining ravnaq topishi ichki va tashqi savdo aloqalari rivojiga turtki boʻldi. Bu esa xalifalik xalqlari madaniyatining yuqori taraqqiyot etishiga ham sabab boʻldi. Bu davrda metallurgiya, togʻ-kon, toʻquvchilikda yangiliklar tatbiq etildi, qogʻoz, topol, shisha ishlab chiqish, foydali qazilmalarni qazib olish, qishloq xoʻjaligida sunʼiy sugʻorish, gidrotexnik inshootlardan foydalanish, irrigatsiya shaxobchalarini qurish, turli oʻsimliklarni ekib, koʻpaytirish yoʻlga qoʻyildi. Hunarmandchilikning koʻplab sohalari rivojlanib, turli buyumlar soni va sifati oʻsdi, ichki va tashqi savdo aloqalari juda rivojlandi.

Daryo va dengizlarda ham yangi savdo yoʻllari yurishi boshlandi. Shu davrda yuzaga kelgan koʻplab afsona, rivoyat, hikoyat, jumladan, «Ming bir kecha» ertaklarida mazkur davr qahramonlari faoliyati adabiy talqinda, sharqona lutf bilan bayon etilgan edi. Ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi keng koʻlamli oʻzgarishlar turli muammolarni keltirib chiqarar edi-ki, buni faqat ilm-fan yechishga qodir boʻlgan. Xususan, tabiiy fanlar, matematika, astronomiya, geometriya katta inshootlarni qurish, kemasozlik, savdo-sotiq uchun zarur boʻlgan. Aholi joylashuvi, koʻpayishi, shaharlarning taraqqiyot topishi tibbiyot faniga ehtiyojni tugʻdirgan boʻlsa, hunarmandchilik, togʻ-kon sanoati uchun geologiya, mineralogiya ilmidan boxabarlik taqozo qilingan. Taraqqiyot, shuningdek al-kimyoni rivojiga keng yoʻl ochadi. Ulkan xalifalik hududida arab tili nafaqat vosita tili, balki ilm-fan tiliga ham aylandi. Shu davrda yaratilgan aksariyat ilmiy adabiyotlar arab tilida bitilar edi. Abbosiy xalifalar (750–1258) davrida yuqorida taʼkidlangan oʻzgarishlar yanada taraqqiyot etdi, islom madaniyati, ilm-fan yuqori choʻqqigacha chiqdi. Xalifalik oʻz davlat boshqaruvi,



turmush tarzi, urf-odat, madaniyat, me'morchilik sohalarida ko'proq Sharqiy hududlar, xususan Movarounnahr dan namuna oldi, ko'p holatda Eron, Xuroson, Movarounnahr zaminidan chiqqan arboblarning xalifalik ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotida muhim rol o'ynay boshlashdi. Abbosiylar davrida yaratilgan ma'naviy boylikda ajdodlarimizning ulkan hissasi mavjud edi.

762-yili xalifalik poytaxti Damashqdan Bag'dodga ko'chdi. Tez orada Bag'dod xalifalik ilmiy markaziga aylandi. Abbosiy xalifalardan Xorun ar-Rashid (786–809), ayniqsa al-Ma'mun (813–833) nafaqat ilm-fanga xayrixohlik bilan qaradilar, balki uning rivojiga ham homiylik qilishdi. Xorun ar-Rashid davrida Bag'dodda tashkil etilgan kutubxonada ko'plab noyob kitoblar jam etilib, boshqa tillardagi adabiyotlarni tarjimonlar arab tiliga o'girishardi.

Al-Ma'mun (813–833) hukmronligi davrida ilm-fan sohasiga homiylik yanada kuchaydi. Tabobat, falsafa, astronomiya, matematika fanlariga oid yunon, suriya, sanskrit, pahlaviy, xorazm tillaridagi asarlar arab tiliga tarjima qilindi. Al-Ma'mun diniy ilmlar, falsafa, aniq fanlar bilan qiziqqan va o'zi ham ular bilan muntazam shug'ullangan. Uning bevosita homiyligi ostida Yunoniston, Hindiston, Rum, Eron va Marvdan «Bayt al-hikma»ga katta miqdorda turli mavzudagi kitoblar kelib tushgan. Muhammad Muso al-Xorazmiy, Javhariy, Ahmad Farg'oniy, al-Marvaziy, Ali al-Marvaziy va boshqalar keyingi ijodiy faoliyat yuritish uchun Bag'dodga taklif qildi. Shu tariqa xalifalik poytaxti Bag'dodda «Bayt ul-hikma» («Donishmandlar uyi») – «xalifa Ma'mun akademiyasi» tashkil topdi. Ilm markazida nemis tadqiqotchisi H.Zuter ta'kidlaganidek, olimlarning aksariyati Xuroson, Movarounnahr, Baqtriya, Farg'onadan bo'lgan.

Shu tariqa aksariyat O'rta Osiyo zaminidan chiqqan olimlar qo'li bilan arab tilidagi ilm-fan yuzaga keldi. Yevropada keyinchalik katta xatoga yo'l qo'yilib, ularning barchasini «arab olimlari» deb atashgan edi. «Bayt ul-hikma»da yunon fani, hind-sanskrit madaniyati o'rganildi, tibbiyot, astronomiya, matematikaga oid adabiyotlar tarjima qilindi, ularning ba'zilariga sharh yozildi, zamonaviy algebra,

geometriya, optika asoslari yaratildi, kimyo fani juda taraqqiy topdi. Akademiya nafaqat tarjima va tahlil ishlari bilan, balki ilmiy asnodagi ekspeditsiyalarni ham uyushtirgan. Masalan, 830-yili al-Xorazmiy rahbarligida G'arbiy Hindiston, keyinchalik Vizantiyaga safarlar uyushtirilgan. Shu davrda nafaqat poytaxt Bag'dod, balki Kat, Marv, Buxoro, Samarqand, Balx va boshqa O'rta Osiyo hududlaridagi shaharlarda ham ilm-fan keng taraqqiyot topa boshlagan. Islom dini Qur'on va hadislardagi ta'limotda ilmga intilish, diniy bilimlar bilan bir qatorda dunyoviy ilmlarni ham egallashga imkoniyatini namoyon qildi. Bu esa, o'z navbatida, oddiy aholi ichida ham xat-savod chiqarish, badiiy adabiyotdan boshlang'ich ma'lumot olish, islom diniga oid bilimlar ko'nikmasiga ega bo'lish, afsona, rivoyat, doston, ertaklardagi qahramonlarni madh etish imkoniyatini yuzaga keltirdi. Natijada, she'riyat, adabiyot yuksak darajada rivojlana bordi. Rasmiy doirada ilm-fan, ma'rifatni qo'llab-quvvatlash mazkur soha vakillari obro'-e'tiborini nihoyatda yuksak mavqega erishuviga sabab bo'ldi. Islom dinining birlashtiruvchi kuchi tufayli ilm-fan va madaniyat bobida ulkan muvaffaqiyatlar qo'lga kiritildi. Aksariyat zamonaviy fanlarning poydevori ham aynan shu davrda qo'yildi.

Fanda «Uyg'onish davri» deb ataladigan davr G'arbiy va Markaziy Yevropa mamlakatlarida XIV–XVI asrlardagi rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalash uchun ishlatilgan. Birinchi marotaba «Uyg'onish» atamasini XVI asr italyan rassomi va tarixchisi J. Vazari o'z asarlarida ishlatadi. «Uyg'onish», «Uyg'onish davri» atamaları XIV–XVI asr ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish mohiyatini ochib bermasdan, ko'proq antik davr merosini, ya'ni antik madaniyatga o'xshash madaniyatni qaytadan «tirilishi», «Uyg'onishi» ma'nosida ishlatila boshlandi. Keyinchalik fanda bu atama keng qo'llaniladigan bo'ldi. Shu ma'noda ko'pchilik tadqiqotchilarning IX–XII asrlar O'rta Osiyo xalqlari tarixida madaniyatning rivojlanishini o'ziga xos xususiyatlarini ham «Uyg'onish» davri atashi to'liq maqsadga muvofiqdir.

IX–XII asrlar O'rta Osiyo xalqlari tarixida moddiy va ma'naviy hayotning rivojlanishida oldingi davrlarga nisbatan keskin yuksa-



lish davri bo'ldi. VIII asrda Arab xalifaligi hozirda O'rta Osiyo deb atalgan hududni fath etib bo'lgan, bosib olingan yerlarda islom dini keng yoyilib, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy hayot Arab xalifaligi tartib-qoidalariga butunlay bo'ysundirilgan edi. Xalifalik tarkibiga kiritilgan o'lkalarda faqat islom dinigina emas, balki arab tili va uning imlosi ham joriy etildi. Chunki, arab tili xalifalikning davlat tili bo'lsa, islom dini uning mafkurasi edi. Shu sababli bu mamlakatlarda arab tilini o'zlashtirishga intilish kuchli bo'lgan. Islomni qabul qilgan aholining arab tili bilan muloqoti, ibodat vaqtlarida Qur'on suralarini tilovat qilishdan iborat bo'lgan bo'lsa, mahalliy zodagonlar arab tilini xalifalik ma'murlari bilan yaqinlashish va mamlakatda o'z siyosiy mavqelarini tiklab, uni mustahkamlashning garovi deb hisoblashadi. Arab tiliga bo'lgan bunday ehtiyoj va intilish tufayli ko'p vaqt o'tmay Movarounnahrda hatto o'z ona tilidan ko'ra arab tili va yozuvini yaxshi o'zlashtirib olgan bilimdonlar paydo bo'ldi. Chegaralari borgan sari kengayib, ulkanlashib borayotgan xalifalik uchun ilm ahli suv va havodek zarur bo'lib qoldi.

IX–X asrlarga kelib Movarounnahr hududida mustaqil davlatlarning tashkil topishi ularda siyosiy barqarorlik, iqtisodiy rivojlanish va madaniy hayotning ravnaqiga katta ta'sir ko'rsata boshladi. Buxoro, Samarqand, Gurganj va Marv kabi shaharlar ilm-fan va madaniyat markazlari sifatida shakllanib, rivojlanish yo'liga kirdi.

Yoqut al-Hamaviy «Mo'jam al-buldon» asarida shunday yozadi: «Movarounnahr eng ko'rkam, eng unumdor va xazinasi ko'proq o'lkalardandir. Aholisi esa yaxshilikka va saxovatga rag'batli, chaqirgan kishiga kamtarlik bilan muomala qiluvchi, qo'llarida borini baham ko'ruvchidirlar. Agar bir xonadonda bir kechada yuz, ikki yuz yoki ko'proq odamlar ot-ulovlari bilan mehmon bo'lsa, ulovlariga yem-xashak, o'zlariga taom va ko'rpa-to'shaklar ham topish mumkin edi. Uy egalari esa bu narsa doimiy odat bo'lganligi uchun hech qiyinalishmasdi. Movarounnahr aholisining ko'pchiligi o'z mablag'larini bog'-rog' barpo qilishga, yo'llarni ta'mirlashga sarf qilishga odatlanganlar. Ko'rkamlikda esa butun dunyoda Buxorodan go'zal joy yo'q».

Yuqorida ko'rib o'tilganidek, IX–XIII asr boshlarida O'rta Osiyoda Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar va Xorazmshohlar davlatlari hukm surishdi. Bu davlatlar xalqaro maydonda o'z mavqeyi va tutgan o'rni jihatidan katta e'tibor va nufuzga ega bo'ldilar. Ahmad, Nasr, Ismoil Somoniy, Alptagin, Mahmud G'aznaviy, To'g'rulbek, Sulton Sanjar, Otsiz, Takish singari tadbirkor va uzoqni ko'ra oladigan davlat arboblari davrida O'rta Osiyoda hayotning barcha jabhalarida yuksalishlarga erishildi, davlat hokimiyati mustahkamlandi, nisbatan tinchlik, osoyishtalik va barqarorlik vujudga keldi.

O'rta Osiyo hukmdorlari ilm ahli bilan yaqinlashib, mamlakatni boshqarishda ularning bilimi va maslahatlaridan foydalanishdi. Hukmdorlarning aksariyati bu davrda o'z saroylarida olim, shoir va usta san'atkorlar, turli sohalar bo'yicha qimmatbaho kitoblarni to'plashga odatlanishdi. Saroyga jalb etilgan olim va shoirlar, kutubxonalaridagi nodir qo'lyozma asarlar bilan mag'rurlanishardi.

Damashq, Qohira, Bag'dod, Kufa, Basra va boshqa katta shaharlarda O'rta Osiyodan borib fan, madaniyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shgan ajdodlarimiz soni bu davrga kelib ko'paya bordi. Bag'dod shahri Sharqning ilm-fan markazi sifatida olamga tanildi, chunki IX asrda bu yerda «Bayt ul-hikma» – («Donishmandlar uyi») Sharqning o'ziga xos fanlar akademiyasi tashkil etilgan edi. Bunga monand holda X asr oxirlarida Xorazmda ham xorazmshoh Ma'mun davrida (995–997-yy.) «Donishmandlar uyi» («Bayt ul-Hikma») – «Ma'mun akademiyasi» (Xorazm akademiyasi) tashkil topdi. Bu ikki ilm o'choqlarida Sharqning mashhur va ma'lum olim-u allomalari tahsil olishgan. Ular orasida Ahmad Farg'oniy, Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino va boshqa buyuk allomalarning nomlari bor.

**Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (783–850).** Buyuk matematik, astronom va geograf Muhammad al-Xorazmiy VIII asrning oxiri va IX asrning birinchi yarmida yashab ijod etdi. Bu davrda Movarounnahr va Xuroson Arab xalifaligi tarkibiga kirar edi.

Xorazmiy dunyo fani taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi. U algebra fanining asoschisi edi. «Algebra» so'zining o'zi esa uning «Al-kitob



al-muxtasar fi hisob al-jabr va al-muqobala» nomli risolasidan olingan. Uning arifmetika risolasi hind raqamlariga asoslangan bo'lib, hozirgi kunda biz foydalanadigan o'nlik pozitsion hisoblash sistemasi va shu sistemadagi amallarning Yevropada tarqalishiga sabab bo'ldi. Olimning «al-Xorazmiy» nomi esa «algoritm» shaklida fanda abadiy o'rnatilgan qoldi. Uning geografiyaga doir asari esa arab tilida o'nlab geografik asarlarning yaratilishiga zamin yaratdi. Xorazmiyning «Zij»i Yevropada ham, Sharq mamlakatlarida ham astronomiyaning rivojlanish yo'lini ko'rsatib berdi. Lekin afsuski, fanning bir necha tarmoqlariga asos solgan, «o'z davrining eng buyuk matematigi va agar barcha shart-sharoitlar nazarga olinsa, hamma davrlarning ham eng buyuklaridan biri» (J. Sarton) bo'lgan bunday siymoning hayoti haqida ma'lumotlar deyarli saqlanmagan.

Xorazmiy Xorazm o'lkasida tug'ilgan, o'sdi. Adabiyotlarda 783-yil uning tug'ilgan yili deb qabul qilingan. U dastlabki ma'lumot va turli sohadagi bilimlarni asosan o'z yurtida, O'rta Osiyo shaharlarida ko'pgina ustozlardan olgan.

Ma'lumki, al-Ma'mun 809-yildan Marvda dastlab xalifa Xorun ar-Rashidning noibi, so'ng 813-yildan boshlab xalifa sifatida 819-yili Bag'dodga ko'chadi. Al-Ma'mun Marvda bo'lganida Xorazmiyning, movarounnahrlilik va xurosonlik boshqa olimlarni o'z saroyiga jalb qilgan.

Xalifa al-Ma'mun davrida Bag'dodda Markaziy Osiyo va Xurosondan kelgan bir guruh olimlar ijod etgan. Ular orasida Xorazmiy bilan bir qatorda Marvdan Yahyo ibn Abu Mansur, al-Farg'oniy, Habash al-Marvaziy, Xolid ibn Abdumalik al-Marvarrudiy, Forobdan Abul Abbas al-Javhariy va boshqa olimlar bor edi.

Bag'dodda al-Ma'mun otasi tomonidan asos solingan ilmiy markaz – «Bayt ul-hikma» faoliyatini har tomonlama takomillashtirib, unga yirik davlat muassasasi tusini berib, avvaliga tarjimonlik faoliyatini keng ko'lamda rivojlantirdi. Vizantiya, Hindistondan ko'plab kitoblar keltirilib, «Bayt ul-hikma»ning faoliyat doirasi birmuncha kengaytiriladi, uning qoshida ikkita yirik rasadxona: birinchi-

si 828-yilda Bag'dodning ash-Shammosiya mahallasida, ikkinchisi Damashq yaqinidagi Kasiyun tog'ida 831-yilda barpo etiladi. Ikkala rasadxonaning ham faoliyatini O'rta Osiyo va Xurosondan kelgan olimlar boshqaradi. Xorazmiy bu ilmiy markazning mudiri sifatida uning faoliyatini kuzatib turadi.

Xorazmiy bilan Bag'dodda, keyinchalik «Ma'mun akademiyasi» nomi bilan tanilgan «Bayt ul-hikma»da Suriya, Iroq, Eron va xalifalikning boshqa yerlaridan kelgan olimlar ham faoliyat ko'rsatishgan. Biroq ular orasida o'rta osiyoliklar salmoqli o'rinni egallagan. Xorazmiy ana shunday ilmiy muhitda yashab ijod qildi. U 850-yilda Bag'dodda vafot etdi.

Xorazmiy qalamiga mansub 20 dan ortiq asarlarning faqat 10 tasi bizgacha yetib kelgan. Bular «Al-jabr va al-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob» – algebraik asar, «Hind hisobi haqida kitob» yoki «Qo'shish va ayirish haqida kitob» – arifmetik asar, «Kitob surat-ul-arz» – geografiyaga oid asar, «Zij», «Asturlub bilan ishlash haqida kitob», «Asturlub yasash haqida kitob», «Asturlub yordamida azimutni aniqlash haqida», «Kitob ar-ruhoma», «Kitob at-ta'rix», «Yahudiylarning taqvim va bayramlarini aniqlash haqida risola». Bu asarlarning to'rttasi arab tilida, bittasi Farg'oniyning asari tarkibida, ikkitasi lotincha tarjimada saqlangan va qolgan uchtasi hali topilgan emas.

Xorazmiyning arifmetik risolasi qachon yozilgani noma'lum. Biroq unda olim algebra o'ldirilgan risolasini eslaydi. Demak, bundan Xorazmiy arifmetik risolani algebraik risoladan keyin yozgani ma'lum bo'ladi. Bu risola XII asrda Ispaniyada lotin tiliga tarjima qilingan. Tarjimaning XIV asrda ko'chirilgan yagona qo'lyozmasi Kembrij universiteti kutubxonasida saqlanadi. Risola «Dixit Algorizm», ya'ni «Al-Xorazmiy aytdi» iborasi bilan boshlanadi. Bundan keyin Xorazmiy to'qqizta hind raqamining sonlarni ifodalashdagi afzalliklari va ular yordamida har qanday sonni ham qisqa qilib va osonlik bilan yozish mumkinligini aytadi. Asarning lotincha qo'lyozmasida hind raqamlari ko'pincha yozilmay, ularning o'rni

bo'sh qoldirilgan yoki ahyon-ahyonda 1, 2, 3, 4, 5 sonlarga mos keladigan hind raqamlari yozilgan. Ko'pincha esa hind raqamlari o'sha davrda Yevropada keng tarqalgan rim raqamlari bilan almash-tirilgan.

Xorazmiy hind raqamlari asosida o'nlik pozitsion sistemada son-larning yozilishini batafsil bayon qiladi. U sonlarning bunday yozi-lishidagi qulayliklar, ayniqsa, nol ishlatilishining ahamiyatini alohi-da ta'kidlaydi. Keyin Xorazmiy arifmetik amallarni bayon qilishga o'tadi. Bunda Xorazmiy sonlarning martabalarini, ya'ni razryadlari-ni e'tiborga olishni hamda nolni yozishni unutmazlikni uqtiradi, aks holda natija xato chiqadi, deydi u.

Xorazmiyning arifmetik risolasi XII asrdayoq Ispaniyada sevili-yalik Ioann tomonidan qayta ishlangan. Keyinchalik to yangi davr-gacha Yevropa olimlari Xorazmiy risolasiga qayta-qayta murojaat qilib, u asosida darsliklar yozishgan. Bu qayta ishlangan nusxalar va darsliklarning nomida «Algorizm kitobi» degan ibora bo'lgan.

Xorazmiyning eng yirik astronomik asari – uning «Zij»idir. Olim bu asarini 830-yil atrofida yozgan. Xorazmiy «Zij»i xalifalikdagi dastlabki astronomik asarlardan edi.

Asar 1037-yili ko'chirilgan yagona arabcha nusxasida bizgacha yetib kelgan bo'lib, bu nusxa Strasburg universiteti kutubxonasida saqlanadi.

Geografiyani iqlimlar nazariyasiga to'la rioya etgan holda birin-chi marta Xorazmiy bayon qiladi. U yerning ma'mur, ya'ni insonlar yashaydigan obod qismini yetti iqlimga ajratadi. Xorazmiy qadimgi yunon olimi Ptolemeydan farqli o'laroq mintaqalar, mamlakatlar va ulardagi geografik joylarni emas, balki 1-iqlimdan to 7-iqlimgacha joylashgan joylarni tavsif etadi.

Xorazmiy asarlari dunyoning turli kutubxonalarida saqlanadi. Uning asarlari G'arb va Sharq tillariga tarjima qilingan.

**Abul Abbas Ahmad ibn Muhammad ibn Nosir al-Farg'oniy** (797– 865) O'rta Osiyolik olimlar orasida buyuk astronom, matema-tik va geograf sifatida shuhrat qozongan.

Olimning to'liq ismi Abul Abbas Ahmad ibn Muhammad ibn Ka-sir al-Farg'oniydir. Manbalarda uning farg'onalik ekanligidan tash-qari deyarli boshqa ma'lumotlar saqlanmagan.

Al-Farg'oniy Farg'ona vodiysining Qubo (Quva) qishlog'ida tug'ilgan. Shunisi ma'lumki, al-Farg'oniy xalifa Xorun ar-Rashidning Sharqiy yerlaridagi muovini, o'g'li Abdullohning (bo'lajak xalifa al-Ma'munning) Marvdagi olimlari doirasiga kirgan. 819-yili al-Ma'mun butun saroy a'yonlari va ulamolari bilan birga Bag'dodga ko'chadi. Ular orasida al-Farg'oniy ham bor edi.

Nihoyat, al-Farg'oniyning hayoti haqidagi eng so'nggi va eng aniq xabar 861-yil bilan bog'lanadi. Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, u shu yili Qohira yaqinidagi Ravzo orolida nilometrni, ya'ni Nil daryo-si suvi sathini belgilovchi uskunani yasagan.

Al-Farg'oniyning hayoti haqidagi ma'lumotlar juda kam bo'lganligiga qaramay, o'rta asrlarda Sharqda uning nomi mashhur bo'lgan. Ibn an-Nadim (X asr), Ibn al-Qiftiy (XII–XIII asrlar), Abul Faraj Bar Ebrey (XIII asr), Hoji Xalifa (XVII asr) kabi Sharq fihrist-chilari uni o'z asarlarida salohiyatli olim sifatida eslatishadi.

Al-Farg'oniyning asosiy astronomik asari «Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum kitobi» («Kitob al-harakat as-samoviya va ja-vomi' ilm an-nujum») XII asrda Yevropada lotin tiliga ikki marta va XIII asrda boshqa Yevropa tillariga ham tarjima qilinganidan so'ng, uning lotinlashtirilgan nomi «Alfraganus» shaklida G'arbda bir necha asr davomida keng tarqaladi. Uning bu kitobi shu asrlar davomida Yevropa universitetlarida astronomiyadan asosiy darslik vazifa-sini o'tadi. Al-Farg'oniy asarining lotincha tarjimasi birinchi marta 1493-yilda nashr etilgan bo'lib, u eng qadimgi nashr qilingan kitob-lardan hisoblanadi. 1669-yili mashhur golland matematigi va arab-shunosi Yakob Golius al-Farg'oniy asarining arabcha matnini yangi lotincha tarjimasi bilan nashr etganidan so'ng, al-Farg'oniy va uning asarining Yevropadagi shuhrati yanada ortadi. Yevropa Uyg'onish davrining buyuk namoyandalaridan biri bo'lgan mashhur olim Regi-omontan XV asrda Avstriya va Italiya universitetlarida astronomiya-



dan ma'ruzalarni al-Farg'וניy kitoblaridan o'qigan. Al-Farg'וניy nomi Dante (XV asr) va Shiller (XVIII asr) ham eslagan.

Hozirgi kunda al-Farg'וניyning sakkizta asari ma'lum bo'lib, ularning hammasi astronomiyaga aloqador. Ular quyidagilardir: yuqorida tilga olingan asar (odatda uni «Astronomiya asoslari haqida kitob» nomi bilan ham atashadi) qo'lyozmalari dunyo kutubxonalarining deyarli barchasida bor. «Asturlob yasash haqida kitob» qo'lyozmalari Berlin, London, Mashhad, Parij va Tehron kutubxonalarida, «Asturlob bilan amal qilish haqida kitob» – birgina qo'lyozmasi Rampurda (Hindiston), «Al-Farg'וניy jadvallari» qo'lyozmasi Patnada (Hindiston), «Oyning Yer ostida va ustida bo'lish vaqtlarini aniqlash haqida risola» – qo'lyozmalari Gota va Qohirada, «Quyosh soatini yasash haqida kitob» – qo'lyozmalari Halab va Qohirada saqlanadi. «Al-Xorazmiy «Zij»ining nazariy qarashlarini asoslash» asari Beruniy tomonidan eslatiladi, lekin qo'lyozmasi topilmagan.

Mazkur asarlarning birinchisi 1145-yildan boshlab lotin tiliga bir necha marta tarjima qilingan. Bu tarjimalarning barchasida al-Farg'וניy ismi lotinchada «Alfraganus» shaklida yozilib, shu shaklda fanga kirib qoldi.

Farg'וניyning nomi Xorazmiy kabi butun Sharq va G'arbda mashhurdir. O'rta asrda tabiiy-ilmiy bilimlarning rivojiga ulkan hissa qo'shgan olim sifatida manbalarda, so'nggi G'arb va Sharq mualliflar asarlarida, o'z yurti O'zbekistonda iftixor bilan tilga olinadi, o'rganiladi. 1998-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan allomaning 1200 yillik tavallud sanasi katta tantanalar bilan nishonlandi.

**Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad Forobiy (873–950).** Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzlug' Tarxon – jahon madaniyatiga katta hissa qo'shgan mashhur faylasuf, qomusiy olimdir.

Forobiy o'z zamonasi ilmlarining barcha sohasini mukammal bilganligi va bu ilmlar rivojiga katta hissa qo'shganligi, yunon falsafasini sharhlab, dunyoga keng tanitganligi tufayli Sharq mamlakatlarida

uning nomi ulug'lanib, «Al-Muallim as-soniy» – «Ikkinchi muallim» (Aristoteldan keyin), «Sharq Arastusi» deb yuritilgan.

Forobiy turkiy qabilalardan bo'lgan harbiy xizmatchi oilasida, Sirdaryo qirg'og'idagi Forob – O'tror degan joyda tug'ilgan. Forobiy boshlang'ich ma'lumotni ona yurtida oldi. So'ng Toshkent (Shosh), Buxoro, Samarqandda o'qidi. Keyinroq o'z ma'lumotini oshirish uchun arab xalifaligining madaniy markazi bo'lgan Bag'dodga keldi.

Taxminan 941-yildan boshlab Forobiy Damashqda yashagan. Forobiy 949–950-yillarda Misrda, so'ng Damashqda yashab, shu yerda vafot etgan va «Bob as-sag'ir» qabristoniga dafn qilingan.

Forobiy o'rta asr davri tabiiy-ilmiy va ijtimoiy bilimlarining qariyb barcha sohalarida 160 dan ortiq asar yaratgan. U turli bilimlarning nazariy tomonlari, falsafiy mazmuni bilan ko'proq, qiziqqanligi uchun uning asarlarini 2 guruhga ajratish mumkin: 1) yunon faylasuflari, tabiatshunoslarining ilmiy merosini izohlash, targ'ib qilish va o'rganishga bag'ishlangan asarlar; 2) fanning turli sohalariga oid mavzulardagi asarlar.

Forobiy qadimgi yunon mutafakkirlari – Platon, Aristotel, Yevklid, Ptolemey, Porfiriylarning asarlariga sharhlar yozgan. Ayniqsa, Aristotel asarlari («Metafizika», «Etika», «Ritorika», «Sofistika» va b.)ni batafsil izohlab, qiyin joylarini tushuntirib bera olgan, kamchiliklarini ko'rsatgan, ayni vaqtda bu asarlarning umumiy mazmunini ochib beruvchi maxsus asarlar yaratgan. Forobiyning sharh yozish faoliyati faqat Sharqningina emas, o'rta asr Yevropasini ham yunon ilmi bilan tanishtirishda katta rol o'ynadi. Bu faoliyat uning ilmiy faoliyati taraqqiyotining birinchi bosqichini tashkil etadi. Bu bosqich Forobiyga o'ziga xos maktab xizmatini o'tagan va yangi mavzularda tadqiqotlar olib borish uchun zamin hozirlagan.

Mutafakkir o'z asarlarini o'sha davrda Sharq mamlakatlarida ilmiy-adabiy til hisoblangan arab tilida yozadi. Forobiy shuningdek, arab va fors tillarida falsafiy mazmundagi she'rlar ham yozgan.

Forobiy asariari XII–XIII asrlardayoq, lotin, qadimiy yahudiy, fors tillariga, keyinchalik boshqa tillarga tarjima qilinib, dunyoga keng tarqalgan.

Forobiy «Fozil shahar aholisining maslagi» risolasida jamiyat («inson jamoasi»)ning kelib chiqishi haqida bunday yozadi: «Har bir inson tabiatan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kirita olmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi... Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda, ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo'lgan narsalarni yetkazib beradi. Shuning uchun inson shaxslari ko'paydilar va yerning aholi yashaydigan qismiga o'rinishdilar, natijada inson jamoasi vujudga keldi».

Mutafakkir inson qadr-qimmatini kamsituvchi jamiyatga qarshi chiqdi. «Davlat arbobining hikmatlari» risolasida esa u doimiy urushlar va bosqinchilikka asoslanuvchi jamiyatni adolatsiz, johil jamiyat sifatida qoralaydi.

Forobiy «Baxt-saodatga erishuv yo'llari haqida risola», «Baxt-saodatga erishuv haqida risola» asarlarida o'zining orzu qilgan fozil jamiyatini yana ham yorqinroq tasvirlaydi.

Forobiy «Musiqqa haqida katta kitob» degan ko'p jildli asari bilan o'rta asrning yirik musiqashunosi sifatida ham mashhur bo'ldi. U musiqa ilmini nazariy, amaliy tarmoqlarga, kuylarning ichki tuzilishi, qonuniyatlarini hisobga olib, ta'rif va ilmi iqoga ajratadi.

Forobiy Uyg'onish davrining ko'plab ilg'or mutafakkirlari dunyo-qarashiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

**Abu Rayhon Beruniy** (973–1048-yy.). U o'z zamonasining barcha fanlari – fizika, matematika, astronomiya, geodeziya, tarix, geografiya va bir necha boshqa fanlarni puxta egallagan olim bo'lgan. Olim 362-hijriy yili (973-y.) Xorazmning qadimgi Kat shahrida tug'ilgan.

O'sha davrda Kat shahri Xorazmshoh–Afrig'iylar sulolasining poytaxti bo'lib, muhim savdo va madaniy markazlardan biri edi. Af-suski, Beruniyning tarjimai holi bizgacha yetib kelmagan. Shuning uchun u boshlang'ich ta'limini kimdan, qachon olganligi haqida aniq ma'lumotlar yo'q. Ammo bir narsa aniqki, u yoshligidanoq ilm-fanga juda ham qiziqqan, qobiliyatli, mehnatkash yigit bo'lgan.

U Xorazmdagi Ma'mun akademiyasining eng ko'zga ko'ringan faol ishtirokchilaridan biriga aylanadi. Shu bilan birga, u shoh Ma'mun II ning eng yaqin maslahatchisi sifatida mamlakat siyosiy ishlarida ham faol qatnashadi.

Beruniy keyinchalik mashhur olim Abu Nasr Mansur ibn Iroq qo'lida ta'lim oldi. Ibn Iroq astronomiya, geometriya, matematika oid bir qancha asarlar yozib, shulardan 12 tasini Beruniyga bag'ishlaydi. Beruniy ona tilidan tashqari yana bir qancha tillar: arab, sug'diy, fors, suryoniy, yunon va qadimgi yahudiy tillarini, keyinchalik Hindistonda sanskrit tilini o'rganadi.

Beruniy «Osor al-boqiya an al-qurun al-xoliya» («Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar») asarini Jurjonda muhojirlik davrida yoza boshlagan va 1000-yilda tamomlagan. «Osor al-boqiya» Beruniyga juda katta shuhrat keltirdi, uni fanning hamma sohasiga qiziquvchi buyuk olim ekanligini ko'rsatdi. Bundan tashqari, Beruniy Jurjonda astronomiya, petrologiya tarixiga oid 10 dan ortiq asar yozdi. Beruniy Xorazmning yangi hukmdori Abu Abbas Ma'mun II ibn Ma'mun tomonidan mamlakatning yangi poytaxti Gurganjga chaqirtirildi. U Xorazmshoh tomonidan katta izzat-ikrom bilan qabul qilindi. Beruniy Gurganjda Ma'munning bevosita rahnamoligida vujudga kelgan ilmiy markazda faoliyat ko'rsatdi.

Xorazmning Mahmud G'aznaviy tomonidan bosib olinishi Beruniy hayotiga o'zgarish yasaydi. U xorazmshoh saroyidagi barcha olimlar bilan birga G'azna shahriga olib ketildi. Beruniyning 1017–1048-yillarda G'aznada kechirgan hayoti, bir tomondan, ancha og'ir kechgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, uning ilmiy faoliyati uchun eng mahsuldor davr bo'ldi. Beruniyning «Xorazmning mashhur kishilari» asari ham shu davrda yaratilgan. Beruniyning «Hindiston» nomli mashhur yirik asari – «Tahqiq mo li-l-Hind min ma'quda maqbulat fi-l-aql av marzula» («Hindlarning aqlga sig'adigan va sig'maydigan ta'limotlarini aniqlash kitobi») 1030-yilda yozilgan bo'lib, bu shoh asar G'arb va Sharq olimlari, shu jumladan, hozirgi zamon hind olimlari tomonidan yuksak baholangan. Mahmud G'aznaviyning Hindistonga qilgan



yurishlaridan birida shohga hamroh bo'lgan Beruniy, u yerda sanskrit tilini puxta o'rganishi hind madaniyati, adabiyoti va Hindistonning o'sha davr olimlari bilan yaqindan tanishishga hamda bu mamlakat haqida o'lmas asar yaratishga imkon berdi. «Hindiston» asari yozib tugatilgan yili Mahmud G'aznaviy vafot etdi va uning o'rniga taxtga o'g'li Mas'ud (1030–1041) o'tirdi. Bu davrda Beruniyning ahvoli ancha yaxshilandi. Astronomiyaga oid «Mas'ud qonuni» asarini sulton Mas'udga bag'ishladi. O'sha asr olimlaridan biri Yoqutning yozishicha, «Mas'ud qonuni» kitobi matematika va astronomiya bo'yicha ungacha yozilgan hamma kitoblar izini o'chirib yuborgan».

Beruniy o'z asarlari ro'yxatini tuzgandan keyin yana ikkita muhim kitobini yozgan. Bulardan biri «Mineralogiya»dir. Bu risola o'z zamonasi uchun Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq, hatto Yevropada ham mineralogiya sohasida eng yaxshi, tengi yo'q asar hisoblana-di. Uning «Dorivor o'simliklar haqida kitob»i «Saydana» nomi bilan mashhur bo'lib, unda Beruniy Sharq, ayniqsa, Markaziy Osiyoda o'sadigan dorivor o'simliklarning to'la tavsifini beradi.

Abu Rayhon Beruniy 1048-yil 11-dekabrda G'aznada vafot etgan.

Beruniy avlodlarga katta ilmiy meros qoldirdi. Beruniyning o'z davri ilm-fanning turli sohalariga oid 160 dan ortiq tarjimalari, turli hajmdagi asarlari, yozishmalari qolganligi bizga ma'lum. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan katta hajmdagi asarlaridan tashqari astronomiya, astrologiya, matematika, geodeziya, geologiya, mineralogiya, geografiya, arifmetika, tibbiyot, farmakognoziya, tarix, filologiya masalalariga oid qator risolalar yaratdi va sanskrit tilidan arabchaga, arab tilidan sanskrit tiliga tarjimalar qildi, badiiy ijod bilan ham shug'ullanib she'rlar yozdi.

XIX asrdan boshlab Yevropa va Osiyo mamlakatlarida Beruniy merosi bilan qiziqish yanada keng tus oldi. Uning asarlari lotin, fransuz, italyan, nemis, ingliz, fors, turk tillariga tarjima qilindi. Amerikalik tarixchi olim J.Sarton Beruniyning merosiga katta baho berish bilan birga, uni «o'z davrining jahondagi birinchi donishmandi» deya baholaydi. Atoqli sharqshunos olim V.R. Rozen esa, unga ilmiy qa-

rashlari taajjublanarli darajada kengligi, uning hozirgi ma'nodagi haqiqiy fanning ruhiga xos ekanligini qayd etadi.

Hind olimlari ham Beruniyning Hindiston falsafasi, dini, ilmi, urf-odatlarini o'rganishga qo'shgan ulkan hissasiga yuqori baho berdilar. Beruniy merosi rus olimlarini ham qiziqtirib keldi. Mashhur sharqshunos olim I.Yu. Krachkovskiy Beruniy merosiga katta baho berib, «uning qiziqqan ilm sohalaridan ko'ra qiziqmagan sohalarini sanab o'tish osondir» deb, allomaning qomusiy aqlini yana bir bor ta'kidlab o'tadi.

Beruniyning o'z vatani O'zbekistonda ham uning ijodiga katta e'tibor berib kelinmoqda. H.M. Abdullayev, I.M. Mo'minov, V.Yu. Vohidov, Ya.G'. Gulomov, U. Karimov, S.A. Bulgakov kabi atoqli olimlar Beruniy faoliyati haqida ko'pgina risola, asarlar yaratishdi. Toshkentda unga bag'ishlangan qator xalqaro ilmiy konferensiyalar o'tkazildi. Birinchi bor Beruniyning «Qadimgi yodgorliklar», «Hindiston», «Mas'ud qonuni», «Geodeziya», «Saydana» kabi asosiy asarlarini o'z ichiga oluvchi ko'p jildli saylanma asarlari o'zbek va rus tillarida nashr etildi.

**Abu Ali ibn Sino** (980–1037). Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatini o'rta asr sharoitida dunyo madaniyatining oldingi qatoriga olib chiqqan buyuk mutafakkirlardan biri – Abu Ali ibn Sino bo'lib, u Yevropada «Avitsenna» nomi bilan mashhurdir.

Ibn Sino (asl ismi Husayn, otasining ismi Abdulloh) Buxoroning Afshona qishlog'ida, hijriy 370 (980)-yilning safar oyida amaldor oilasida tug'ildi. 986-yilda Ibn Sino oilasi Buxoroga ko'chib keladi va shu vaqtdan boshlab yosh Husayn boshlang'ich ma'lumot olishga, ilm-fanni o'rganishga kirishadi. Uning yoshligi, yigitlik chog'lari Somoniylar hukmronligining so'nggi yillariga, xususan, Nuh II ibn Mansur Somoniy hukmronligi davri (976–999) ga to'g'ri keladi.

Ibn Sino iste'dodli, xotirasi kuchli, zehni o'tkir bo'lganligidan o'z davrida ma'lum bo'lgan ilmlarni tezda egallay boshladi. 10 yoshidayoq Qur'oni karimni boshdan oyoq yod o'qir edi. 13 yoshidan boshlab boshlang'ich matematika, mantiq, fiqh, falsafa ilmlari bilan



shug'ullana boshlaydi. Ibn Sino yosh bo'lishiga qaramay, Abu Abdulloh Notiliy rahbarligida falsafani, Hasan ibn Nuh al-Qumriydan tibbiyot ilmini har tomonlama o'rganadi, asta-sekin tabiblik bilan ham shug'ullanadi. U o'zidan avval o'tgan Sharq mutafakkirlarining asarlarini chuqur o'rganish bilan birga, qadimgi yunon tabiiy-ilmiy, falsafiy merosini, xususan Aristotel, Yevklid, Ptolemey, Galen, Gipokrat, Pifagor, Porfiriylarning asarlarini ham qunt bilan o'rgandi. 16–17 yoshidayoq Ibn Sino mashhur tabib – hakim bo'lib tanildi. 999-yilda Buxoro Qoraxoniylar tomonidan zabt etilgach, Somoniylar hokimiyati inqirozga uchradi. 1000-yilda Ibn Sino Buxorodan chiqib ketadi va madaniyat markazlaridan biri hisoblangan Xorazmga boradi, u yerda Xorazm hokimi Ali ibn Ma'mun saroyidagi olimlarni birlashtirgan o'z zamonasining akademiyasiga qabul qilindi. Ibn Sino Beruniy, Ibn Miskavayh, Abu Sahl Masihiy, Abulxayr Hammor, Abu Nasr ibn Iroq kabi yetuk olimlar bilan yaqindan tanishdi. Lekin bu davrda kuchayib borayotgan Mahmud G'aznaviyning ta'qibidan qochib, Xorazmni tashlab ketishga va Xuroson, Eronning turli shaharlarida sarson-sargardonlikda yurishga majbur bo'ldi. Obivard, Tus, Nishopur shaharlari orqali Jurjon shahriga kelgan Ibn Sino hokim Qobus ibn Vashmagir saroyida mashhur tabib sifatida yashadi, bo'lajak shogirdi Juzjoniylar bilan tanishdi. 1019–1021-yillarda Hamadonda vazir lavozimida xizmat qildi. 1023-yilda Isfahonga qochdi va butun umrini ilmiy asarlar yozishga bag'ishladi. Ibn Sinoning «Kitob al-qonun fit-tibb», «Kitob un-najot», «Kitob ul-insof» kabi mashhur asarlari, geometriya, astronomiya, o'simlik, hayvonot olami, mantiqqa oid risolalari, «Hayy ibn Yaqzon» falsafiy qissasi so'nggi yillarda yozilgan. U Isfahonda rasadxona qurish bilan mashg'ul bo'ldi. Umrining so'nggi yillarida o'zaro urushlar kuchayib ketganligi, ijtimoiy-siyosiy hayotda o'zi ham faol qatnashganligi tufayli u Isfahon, Ray, Hamadon shaharlari orasida sarson-sargardonlikda yurib, 1037-yil 18-iyunda Isfahon shahrida vafot etdi.

Ibn Sinoning hayot yo'li o'zi yozgan tarjimayi holi va shogirdi Juzjoniylar tomonidan qoldirilgan manbalardan ma'lum.

Ibn Sino asarlarining umumiy soni 450 dan oshadi, lekin bizgacha faqat 160 ga yaqin asari yetib kelgan, xolos. Ko'p manbalarda Ibn Sino avvalo tabib sifatida talqin etiladi, holbuki tabobat uning ilmiy sohalari orasida muhimlaridan biridir. Ibn Sino asarlarining asosiy qismi Yaqin va O'rta Sharqning o'sha davr ilmiy tili hisoblangan arab tilida, ba'zilar fors tilida yozilgan. Uning bizga ma'lum bo'lgan katta asari «Kitob ush-shifo» («Shifo kitobi») 22 jildidan iborat bo'lib, 4 ta katta bo'limini mantiq, fizika, matematika, metafizikaga doir masalalar egallagan. Uning ayrim qismlari lotin tiliga, Yevropadagi boshqa tillarga, Sharq tillariga, shuningdek, rus, o'zbek tillariga tarjima qilingan.

Ibn Sino asarlari o'rta asrlarda Yevropada ilmiy til hisoblangan lotin tiliga, u orqali Yevropaning boshqa tillariga tarjima qilingan. Ibn Sino ilmiy risolalardan tashqari, chuqur falsafiy mazmunli badiiy obrazlar va ma'lum voqealar orqali ifoda etuvchi «Tayr qissasi», «Salomon va Ibsol», «Hayy ibn Yaqzon» kabi falsafiy qissalar yaratgan.

Ibn Sino zamonasining yetuk shoiri ham bo'lgan. U Sharq, xususan, fors poeziyasida ruboiy janrining asoschilaridan biri bo'lib, ruboiylari o'zida chuqur falsafiy xulosalarni ifodalaydi. Ibn Sino tabobat masalalarini ommabop holda nazm bilan izohlovchi «Urjuza» nomli tibbiy asar yaratdi. Uning Aristotel (Arastu) ta'limoti xususida Abu Rayhon Beruniy bilan va o'zining shogirdi – ozarbayjonlik mutafakkir Baxmanyor bilan yozishmalari fan olamida mashhur. Ayniqsa, tabobat u bilan bog'liq holda anatomiya, psixologiya, farmakologiya, terapiya, xirurgiya, diagnostika, gigiyena kabi ilmlar Ibn Sino ijodida bir qancha yangi ixtirolar bilan boyidi va yuqori bosqichga ko'tarildi. Bulardan tashqari, kimyo, mineralogiya, astronomiya, matematika, o'simlik dunyosi, geologik jarayonlarni o'rganish sohasida ham u yangi-yangi fikrlarni olg'a sura oldi. Ibn Sinoning tibbiyot sohasidagi asarlaridan «Kitob al-qonun fit-tibb» («Tib qonunlari»), «Kitob ul-qulanj» («Ichak sanchiqlari»), «Kitob un-nabz» («Tomir ko'rish haqida kitob»), «Fuj ul-tibbiya joria fi majlisih» («Tib haqida hikmatli so'zlar»), «Tadbir ul-manzil» («Turarjoyning tuzilishi»),



«Fil-hindubo» («Sachratqi o'simligi haqida»), «Risola fi-dastur it-tibbiy» («Tibbiy ko'rsatmalar haqida») kabi asarlari mavjud. Uning tibbiyotga oid qomusiy asari «Kitob al-qonun fit-tibb» 5 mustaqil katta asardan tarkib topgan: ularning har biri ma'lum sohani izchil, har tomonlama yoritib beradi.

«Qonun» 800 yil davomida hakimlar uchun asosiy qo'llanma bo'lib keldi. O'rta asrlarda «Qonun» Sharqdagina emas, balki G'arb mamlakatlarining universitetlarida ham talabalar uchun tibbiyotdan yagona qo'llanma edi.

Ibn Sino dunyoqarashi Forobiy asarlari ta'sirida shakllandi, u ijtimoiy-falsafiy masalalarda Forobiy qarashlarini davom ettirdi, ilg'or falsafiy oqimni yangi tabiiy-ilmiy fikrlar bilan boyitib tizimlashtirdi va yangi bosqichga ko'tardi.

Ibn Sino o'zining ko'p tarmoqli mahsuldor ijodi, boy merosi bilan jahon madaniyati taraqqiyotida katta rol o'ynadi. O'z ijodi, ilmiy faoliyatida Ibn Sino Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlaridagi yuqori madaniy ko'tarinkilik, madaniy «uyg'onish»ning ma'naviy yutuqlarini mujassamlashtira oldi, bu bilan butun Sharq va Yevropadagi ma'rifat, madaniyat taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi. U o'z davrida Sharq va Yevropada «Shayx ur-raisa», «Olimlar boshlig'i», «Tabiblar podshohi» kabi eng buyuk nomlarga sazovor bo'ldi. Ibn Sino mashhur murabbiy sifatida Abu Ubayd Jurjoniy, Umar Isfahoniy, Muhammad Sheroziy, Ahmad Ma'suriy, mashhur ozarbayjon mutafakkiri Baxmanyor ibn Marzbon, Yusuf Iyloqiy, ajoyib olim va shoir Umar Xayyom kabi shogirdlarini tarbiyaladi. Uyg'onish davri miniatyura va suratlarida Ibn Sino mashhur qadimgi yunon olimlari Aristotel, Galen, Gippokrat, Ptolemey, Yevklid bilan bir qatorda tasvirlangan. O'simliklarning birinchi ilmiy tasnifini yaratgan tabiatshunos Karl Linney doimo yashil bo'lib turuvchi bir o'simlikni Ibn Sino sharafiga «Avitseniya» deb atagan.

Ibn Sino asarlari Yevropada XII asrdan boshlab lotin tiliga tarjima qilina boshlandi. «Tib qonunlari» asarining o'zi lotinchada 30 martadan ko'p nashr qilindi. «Kitob ush-shifo»ning ko'p bo'limlari,

mantiq, musiqa, yerning tuzilishi, geologik jarayonlar, metafizikaga oid qismlari ham lotinchada nashr etildi.

**Abu Abdulloh al-Xorazmiy** (vafoti 997-y.). O'z davrining bilimli, peshqadam olimlaridan biri Abu Abdulloh al-Xorazmiy bo'lgan.

Bu olim haqida saqlanib qolgan ma'lumotlar juda oz. Olimning to'liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Yusuf al-Xorazmiydir. Uning yoshligi Xorazmning Xiva, Zamaxshar va Qiyot shaharlarida o'tgan. Bu shaharlarda u voyaga yetgan, yashagan, ta'lim olgan. Olim Xurosonda ham yashagan. Uning mashhurligi vazir Abul Hasan al-Utbiy huzurida kotib bo'lib xizmat qilgan davrida cho'qqisiga chiqqan. Shu vazifasi tufayli u «al-kitob al-Xorazmiy» nomi bilan ham tanilgan. O'z xizmat vazifalari yuzasidan Buxoroga tez-tez borib turgan va ko'pgina allomalar bilan hamsuhbat bo'lgan. Ayni vaqtda ilmga chanqoq olim xizmat asnosida amirning boy kutubxonasidan foydalanish huquqini qo'lga kiritgan. Abu Abdulloh al-Xorazmiy 997-yilda vafot etgan.

Olimning dunyoqarashi o'sha davrda keng tarqalgan qadimgi yunon falsafasi va madaniyati, Sharq namoyandalari Yoqub ibn Is'hoq al-Kindiy, Abu Nasr al-Forobiy hamda Abu Bakr ar-Roziy ta'siri ostida shakllandi.

Abu Abdulloh al-Xorazmiyning bizgacha yetib kelgan, arab tilida bitilgan, yagona ma'lum asari – «Mafotih al-ulum» («Ilmlar kalitlari»)dir. «Mafotih al-ulum»ning qo'lyozma nusxalari ko'p emas. Uning to'rt nusxasi bor deb hisoblanadi. Ana shu to'rt nusxadan uchtasi Buyuk Britaniya muzeyida hamda Berlin kutubxonasida saqlanadi.

«Mafotih al-ulum» o'ziga xos qomusiy asar bo'lib, o'sha davrdagi deyarli hamma asosiy fan sohalarini o'z ichiga qamrab olgan. Muallif o'rta asrlardagi har bir ilm mazmunini sharhlash yo'li orqali tushuntirib beradi.

Umuman, asarda Abu Abdulloh al-Xorazmiy o'z davri tabiiy va riyoziyot ilmlarini yaxshi bilganligi, ularni nazariy falsafaga kiritish bilan, bir tomondan, ularning ahamiyatini oshirish va ta'kidlash, ikkinchi tomondan, falsafani boyitishga intilganligi o'z ifodasini top-

gan. Al- Xorazmiyning «Mafotih al-ulum» asari oʻrta asr madaniyati va maʼnaviyatini oʻrganishda muhim ahamiyatga egadir.

**Abu Abdulloh Rudakiy** (860–941). Abu Abdulloh Jaʼfar Rudakiy taxminan hijriy 243 (860)-yilda Samarqand yaqinidagi Panjrudak qishlogʻida, dehqon oilasida tugʻilgan.

Rudakiy yoshligidanoq sheʼriyatga ixlos qoʻydi, oʻz zamonasi-ning mashhur cholgʻuchisi Abul Abbos Baxtiyor qoʻlida musiqadan maʼlumot oldi. Dastlabki maʼlumotni oʻz qishlogʻida olgan Rudakiy oʻqish uchun Samarqandga bordi. U yerda bilim olib, tez orada adabiyot va sanʼat sohasida ham dong chiqarishga muvaffaq boʻldi.

Buxoro hukmdori Nasr II (914–943) davrida Rudakiyning shoirlik shuhrati Buxoro va umuman Sharqqa keng tarqaldi. Rudakiy asarlariga eʼtibor berilsa, uning astronomiya va qadimgi yunon falsafasini ham yaxshi tushunganligini koʻrish mumkin.

Somoniylar davlatining koʻzga koʻringan davlat arbobi, Nasr II ibn Ahmadning yaqin doʻsti Abufazl Baʼlamiy Rudakiy haqida «U faqat mashhur shoir boʻlibgina qolmay, balki oʻz davrining yetuk olimi ham edi», deya baho bergan edi.

Nasr II Rudakiyni oʻz saroyiga taklif etgandan soʻng, uning hayotini koʻp qismi Buxoroda oʻtdi. Uning koʻzi ojiz boʻlgan. Manbalarda uning onadan koʻr tugʻilganligi haqida mulohazalar mavjud. Baʼzi olimlarning fikricha, u saroydan quvilishi oldidan koʻziga mil tortilib koʻr qilingan. Rudakiy keksaygan chogʻida quvgʻinga uchragan, oʻz qishlogʻiga qaytib faqirlikda umr kechirgan. U 941-yilda olamdan koʻz yumdi va oʻz vatanida dafn etilgan.

Rudakiyning adabiy merosidan bizgacha mingta bayt yetib kelgan (2 qasida, 50 ruboiy, sheʼrlar, doston va boshqalar). XII asr shoiri Rashid Samarqandiyning taʼkidlashicha, bironta shoir Rudakiy singari koʻp asar yozgan emas. Baʼzi olimlarning fikricha, Rudakiy bir million uch yuz ming misra sheʼr yozgan. Muhammad Avfiyning xabar berishicha, Rudakiy yuzta toʻplam (daftar) yozgan.

Rudakiyning qasidalaridan «Modari man», «Dar vasfi Buxoro» va «Shikoyat az piri» («Qarilikdan shikoyat») bizgacha yetib kelgan.

Rudakiyning ijodida X asrning ijtimoiy hayoti oʻz aksini topgan. Uning hamma asarlarida xalqning orzu-umidlari, manfaatlari ifoda qilingan.

Buyuk mutafakkir kishilar oʻrtasidagi doʻstlik va oʻzaro hamkorlik kishilik jamiyati uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini bir necha bor taʼkidlab oʻtgan. Uning fikricha, haqiqiy doʻstlik uchun kishilarni, hatto turli dinda boʻlishlari ham xalaqit bera olmaydi. Uning quyidagi satrlari diqqatga sazovordir: «Jahonning shodligi yigʻilsa butun, doʻstlar diydoridan boʻlolmas ustun».

**Yusuf Xos Hojib** (XI asr). Yusuf Balasogʻuniy Yettisuv oʻlkasidagi Kuzoʻrda (Bolasogʻun) shahrida 1016–1018-yillar orasida dunyoga keladi. Bu davrda Yettisuv va Sharqiy Turkiston oʻlkalari turkiy qarluq qabilasidan chiqqan Qoraxoniylar sulolasi qoʻl ostida edi. Bu sulola Turk xoqonligining davomchilaridan boʻlib, IX asr oʻrtalaridan davlatni boshqarib keldi. X asr boshlarida Abdulkarim Sotuq Bugʻraxon islom dinini qabul qildi va shu bilan turkiy elatlar ham uzil-kesil islom mintaqa madaniyatiga kelib qoʻshilishdi. X asr oxiriga kelib, Somoniylar tanazzulga yuz tutgach, Qoraxoniylar Movarounnahrni tugal egallashdi. Bolasogʻun ushbu mamlakatning shimolidagi poytaxti edi.

Shoir haqida maʼlumotlar koʻp emas. U «Qutadgʻu bilig» asarini 50 yoshlarda, hijriy 462-yili (1069/70) yozib tugatgan. Kitobda nomi tilga olingan xoqon Nasriddin Tavgʻach ulugʻ Bugʻro Qoraxon Abu Ali Hasan Xorunxon binni Arslonxon boʻlib, 1075–1103-yillar davomida Qoraxoniylar davlatini boshqargan. «Qutadgʻu bilig» asari unga bagʻishlangan paytda u Koshgʻarda Arslontegin Toʻgʻrul Qoraxoqon Mahmudxon (1059–1075)ning oʻrtoq-qogʻoni sifatida hukm surardi (Qoraxoniylar sulolasida shunday odat boʻlib, Bolasogʻun asosiy xoqon hukmdor boʻlganda Koshgʻarda uning oʻrtoq-qogʻoni ish yuritardi).

Asar mazmuni, tili va uslubidan kelib chiqib aytish mumkinki, Yusuf Xos Hojib arab va fors tillarini mukammal bilgan, bu tillardagi diniy, ilmiy, badiiy adabiyot bilan chuqur tanish boʻlgan. Bundan tashqari, shoir qadim turk yozma adabiyoti, turkiy xalqlar ogʻzaki



ijodini ham yaxshi bilgan, ular muhitida tarbiya olgan. Shoir turkiy elatlarning qadimiy qo'shnilar xitoy, mo'g'ul, hind, eroniy xalqlar madaniyati, yunon falsafasi va boshqa o'sha davr ma'naviy hayotining turli tomonlari haqida mukammal ma'lumot egasi bo'lgan. Bizgacha shoirning yagona dostonidan boshqa asari yetib kelmagan.

Firdavsiy «Shohnoma»si mintaqa xalqlarining o'tmish tarixini badiiy aks ettirsa, Yusuf Xos Hojib asari uning yangi davrdagi holatini badiiy tafakkur qonuniyatlari asosida mujassam etdi. Muallif o'z asarini «Shohnomayi turkiy» deb shuhrat topganini aytadi, bu qiyos shu ma'noda to'g'riki, o'tmishda mintaqa eroniy hukmdorlar – Kayoniy va Sosoniylar hukmida bo'lgan bo'lsa, Yusuf davrida Sosoniylar mulki turkiy hukmdorlar qo'liga o'tgan edi. Bolasog'undan Bag'dodgacha turkiy sulolalar hukm surishardi. Shu sababli endi sulolalar tarixi emas, davlat boshqarish odobi muhim edi. Asarning yana boshqa shuhrat topgan nomlari «Adab ul-Muluk» («Hukmdorlar odobi») va «Oyin ul-mamlakat» («Mamlakatni idora etish qoidalari») xuddi shu jihatni aks ettirar edi.

«Qutadg'u bilig» kitobi avom xalq uchun emas, birinchi navbatda, xoqon va beklar, ya'ni yurtning hukmdorlari uchun atab yozilgandir. Turkiy sulolalar butun islom mintaqasida hukmfarmo bo'lib kelayotgan bir paytda, ijtimoiy jihatdan «Shohnoma»dan ko'ra «Qutadg'u bilig», ya'ni «Hukmdorlar adabnomasi» ko'proq zarur va bu kitob aynan turkiy tilda yozilmog'i kerak edi. Yusuf Xos Hojib ushbu ijtimoiy zaruratni vaqtida anglab yetdi; unga yuksak saviyada javob bera oldi. Abu Ali Hasan Xorunxon uni yaxshi qabul qilgani, shoirni munosib taqdirlagani Kuntug'di va Oyto'ldi timsollari hayotiy haqiqatga ancha muvofiq kelganini ko'rsatadi.

Yusuf Xos Hojib jamiyatni tubdan o'zgartirishni emas, muvojlalashtirish, uyg'unlashtirish, takomil baxsh etishni maqsad qilib qo'yadi. Chunki XI asr islom jamiyatining shakllanib, yuksalib kelayotgan davri bo'lib, unda takomillashtirish takliflari o'rinli edi.

**Mahmud Koshg'ariy** (XI asr). Mahmud Koshg'ariy Markaziy Osiyoda ilk o'rta asr madaniyatining ko'zga ko'ringan arboblardan

bo'lib, tilshunoslik sohasida, xususan, turkiy tillarni o'rganish sohasida mashhur bo'ldi, tarixda o'chmas iz qoldirdi.

Mahmudning otasini ismi Husayn, bobosi Muhammad bo'lib, ke-lib chiqishiga va tiliga ko'ra Koshg'ariy nisbatini olgan. U XI asrda tug'ilib, yashab ijod etdi. Mahmud Koshg'ariy ham o'zining uzoq yillar davomida bunyod etgan «Devon-u lug'otit turk» kitobini hijriy 469 (1074/75)-yilda tugallab, uni abbosiy xalifalar avlodidan bo'lgan Abulqosim Abdulloh binni Muhammad al-Muqtadoga bag'ishlagan. Asarning asosiy matni o'sha davrda keng mintaqa musulmon Sharqida, butun Yaqin va O'rta Sharqda din, fan tiliga aylangan arab tilida yozilgan bo'lib, turkiy tilning boyligini, mazmundor va rang-barangligini tushuntirish uchun yozilgan, deb taxmin qilish mumkin.

Mahmud Koshg'ariy Bolasog'unda tug'ilib, shu yerda yigitlik chog'larini kechirgan bo'lsa ham, uzoq yillar «Yuqori Chindan boshlab butun Movarounnahr, Xorazm, Farg'ona, Buxoro, hozirgi Shimoliy Afg'onistonga qadar cho'zilgan» turkiy o'lkalarni, turkmanlar, o'g'uzlar, chigillar, yag'molar, qirg'izlarning shaharlarini, qishloq va yaylovlarini kechib chiqdi, turli sheva va lahja xususiyatlarini o'rgandi, ularni adabiy til bilan chog'ishtirdi, o'z ishi uchun boy material to'pladi. Lug'at tuzishda arab tilshunoslari yaratgan an'anadan unumli foydalangan holda, ishga ijodiy yondashdi, turkiy til qonuniyatlarini birinchi navbatda inobatga olib, kitobiga tartib berdi.

Koshg'ariy asari, o'zi ta'kidlashicha, «oldin hech kim tuzmagan va hech kimga ma'lum bo'lmagan alohida bir tartibda» tuzilgan. Unda ko'p shevashunoslikka oid qiyosiy qoidalar, grammatik, morfologik, leksik, semantik alomatlar ko'rsatilgan. Asar foydalanuvchilarga osonlik tug'dirish uchun sodda va lo'nda yozilgan. Unda qadim turk alifbosi, fonetik qonuniyatlar, orfoepik va orfografik qoidalar puxta tushuntirib berilgan. Lug'atda turkiy so'z tuzilishi an'analari, jumladan, so'z tartibi, fe'l shakllari, so'z etimologiyasiga oid fikrlar bayon etilgan. Muallif ko'rsatishicha, kitob 8 bo'limdan, muqaddima va xulosadan iborat. Har bir bo'limda ot-ism so'zlar, fe'llar qulaylik uchun alohida ajratib berilgan. «Devon»da 7500 dan ziyod tur-

kiy soʻz va iboralar izohlangan. «Devon-u lugʻotit turk» ham adabiy til, ham asosiy turkiy shevalarni qamrab olgan boʻlib, undagi adabiy til, sheva unsurlari nisbati oʻrtacha adabiy tildagi 10–12 soʻzga, shevaga oid bir soʻzga toʻgʻri keladi, yaʼni umumturkiy adabiy tilga ayri-ayri ajratilgan. Bu holat oʻsha davr islom mintaqasida turkiy adabiy til qancha keng tarqalgani va mustahkam mavqega ega boʻlganini tasdiqlovchi qatʼiy dalildir. Lugʻatda yuzlab kishi ismlari, shahar va qishloq, oʻlka nomlari, daryo, togʻ, yaylov, vodi, dara, yoʻl, dovon, koʻl, soy kabi jugʻrofiy atamalar, turli qabila, urugʻ, elat, sayyora, yulduzlar, fasllar tilga olinadi. Unda izohlangan grammatik koʻrsatkichlar morfemalar hisobi ham mingga yaqin.

Turkiy xalqlar tarixiga oid qadimiy afsona va rivoyatlar, 300 ga yaqin maqol va matallar, hikmatli soʻzlar, 700 satrdan ziyod sheʼriy parchalar ushbu asar sahifalaridan oʻrin olgan. Sheʼriy parchalarning koʻp qismi turkiy xalqlar ogʻzaki ijodiga xos toʻrtliklardan iborat. Ammo «Devon»da keltirilgan sheʼriy satrlardan 150 satrga yaqini islom davri sheʼriyatiga xos boʻlgan «bayt» tipidagi masnaviy, qasida, gʻazal, qitʼa parchalari boʻlib, ularni Koshgʻariy oʻzi ham koʻpincha «bayt» deb ataydi.

Mahmud Koshgʻariy asarida dunyo xaritasi doira shaklida chizib koʻrsatilgan, uning markazida Markaziy Osiyo joylashgan. Bolasogʻun, Shosh, Oʻzgan, Isfijob, Margʻinon kabi shaharlar ushbu hududga aloqador koʻrsatilgan. XII asr jugʻrofiy tasavvurlaridan darak beruvchi xaritaning ilova qilinishi Koshgʻariyning qomusiy allo-ma ekanini yana bir marta isbot etadi.

Xulosa qilib aytganda, Mahmud Koshgʻariyning islomdan ilgari va ilk islom davri turkiy madaniyat obidalarini tadqiq etish, toʻplash va avlodlarga yetkazib berishdagi xizmatlari katta ahamiyat kasb etadi. Uning tarix, etnografiya, tarix-jugʻrofiya xususidagi keng bilim doirasi, til va adabiyot sohasidagi qomusiy salohiyati, tadqiq qudrati bugungi kunda ham hayratlanarli darajada edi. Uning kitobida jamlangan aniq-ravshan maʼlumotlar VIII–XI asrlar ham turkiy adabiy til va badiiy adabiyotning, ham ogʻzaki xalq ijodi na turli lah-

jalarning boy manbai boʻlgani sababli imkon doirasida batafsil tavsif etildi.

Mustaqillik yillarida buyuk ajdodlar ilmiy merosi va faoliyatini qayta oʻrganish boshlandi. Ularning xotiralariga yuksak hurmat va ehtirom davlatimiz siyosatining asosiy qirralaridan biri boʻlib qolmoqda.

### 13.2. Xorazm Maʼmun akademiyasida ilm-fanning rivojlanishi

Ilmiy markaz tuzish, fan taraqqiyotiga xizmat qilish, uning samaralaridan foydalanishga intilish anʼanasi X asr oxiri – XI asrning boshlarida Xorazmda hukmronlik qilgan Maʼmuniylar (995–1017) sulolasi davrida ham davom ettirildi va yanada yuqori pogʻonaga koʻrsatildi.

995-yil Gurganj amiri Maʼmun ibn Muhammad ibn Iroq Afrigʻiylar sulolasiga barham berdi. U Kat shahrini bosib oladi va poytaxtni Gurganjga koʻchirib, oʻzini xorazmshoh deb eʼlon qiladi. Uning vorisi Ali ibn Maʼmunning taklifi bilan 1004–1005-yillarda Abu Nasr ibn Iroq, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Sahl Masihiy, al-Xoʻjandiy, kimyogar olim Abdu Malik as-Solibiy kabi oʻz davrining oʻnlab buyuk olimlari Gurganj shahriga toʻplanishadi. Shu tariqa 1004-yildan boshlab Gurganjda «Dor-ul-hikma va maorif» (baʼzi manbalarda «Majlisi ulamo») nomini olgan ilmiy muassasa toʻla shakllanadi.

Bu yerda ilmning barcha sohalarida tadqiqot va izlanishlar olib borilib, koʻplab manbalar toʻplangan, tarjimonlik ishlari bajarilgan, hind, yunon, arab olimlarining ishlari oʻrganilgan.

XVIII–XX asr tarixchi olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bu dargoh oʻz davrining Akademiyasi boʻlganligini isbotladi. Keyinchalik unga shartli ravishda «Xorazm Maʼmun akademiyasi» deb nom berildi.

Xorazm Maʼmun akademiyasi jahon ilmiy tafakkuri, madaniy va maʼnaviy taraqqiyotining benazir hodisasi sifatida tarixda chuqur iz



qoldirgan. Dunyo sivilizatsiyasi tarixida bunday an'analar qadimiy ildizlarga egadir. Aflotun akademiyasi «bog' suhbatlari» – olimlarning turli mavzular bo'yicha bahs-munozaralari shaklida amal qilgan bo'lsa, keyingi davrlardagi ilmiy markazlar olimlarning doimiy ish olib boruvchi uyushmalariga aylangan. Aynan mazkur akademiyalarda ilm-fan va ta'lim sohalari uyg'unligi namoyon bo'ldi.

Ushbu tarixiy an'analar islom davrida yangi sifat darajasiga yetdi. Bag'dodda Ma'mun ibn Xorun ar-Rashid davrida tashkil topgan «Bayt ul- hikma» Sharqning eng buyuk allomalarini shu jumladan, o'rta osiyolik olimlarni o'z atrofiga to'plagan edi. «Bayt ul-hikma» o'z davri fan taraqqiyotini yuksak darajaga yetkazibgina qolmay, mumtoz yunon-rim antik davri fanining yoyilishiga ham xizmat qildi.

X asr oxiri – XI asr boshlariga kelib Arab xalifaligi siyosiy hokimiyatida tanazzuliy holatlar kuzatilgan bir vaziyatda an'anaviy davlatchilik zanjiri uzoq asrlar davomida uzilmay kelgan Xorazm birmuncha barqaror rivojlanish pallasida edi. Xususan, Afrig'iyalardan hokimiyatni olgan Ma'muniylar davri bor-yo'g'i 22 yilni tashkil etsa-da, ijtimoiy-siyosiy, madaniy sohalarda o'ziga xos jo'shqin davr bo'ldi. Ayni shu qisqa davrning 1004–1017-yillari orasida shakllanib, tez sur'atlar bilan rivojlangan «Bayt ul-hikma» – «Majlisi ulamo» Sharqona «akademiyachilik»da misli ko'rilmagan ilmiy salohiyatni ishga soldi. Bu hodisa ajdodlarimiz ilmiy dunyoqarash an'alarining kuchli ildizlaridan dalolat edi. Asrlar osha to'plangan ilmiy tajribalar, Bag'dod «Bayt ul- hikma»si an'analari tarix taqozosi bilan Xorazm tuprog'ida yanada yuksak pog'onaga ko'tarildi. Xorazm Ma'mun akademiyasi umumbashariy ahamiyatga ega ulkan ilmiy meros qoldirishga erishdi.

Xiva shahrining 2500 yilligiga bag'ishlangan yubiley tantanalari O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I. Karimov Xorazmdagi Ma'mun akademiyasini qayta tiklash tashabbusi bilan chiqdi va 1997-yil 11-noyabrda imzo chekkan Farmoniga binoan Xiva shahrida Ma'mun akademiyasi qayta tashkil qilindi. Bu voqea o'zbek xalqi madaniy va ma'naviy hayotida muhim o'rin egalladi.

O'zbekistonning taklifi va tashabbusi bilan YUNESKO tomonidan Ma'mun akademiyasining 1000 yilligini xalqaro miqyosda nishonlashda ishtirok etish haqida qabul qilingan qaror hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining shunga muvofiq qarori asosida 2006-yil 2-noyabr kuni Xiva shahrida yubiley tantanalari va xalqaro ilmiy anjuman bo'lib o'tdi.

X asr olimlari, sayyohlar Xorazm zamini boyliklarini, madaniy ekinlar turlarini, xalq turmush tarzini ifodalovchi ko'pgina ma'lumotlar qoldirishgan. Ular bu o'lkaning uzumzor, bog'-rog'lari ko'pligini, boy shahar-qishloqlardan tarkib topganini, xalqi bilimli, madaniyatli ekanligi to'g'risida yozishgan.

Masalan, Xorazm Ma'mun akademiyasi allomalaridan Abu Mansur as-Saolibiy u yerdan qo'ylar, mo'yna, ajoyib yo'ylar, tuzlangan baliqlar olib ketilishini bayon qilgan. Xorazmda dehqonchilik yuqori darajada rivojlangan bo'lib, o'sha davrda o'lkada yetishtirilgan poliz mahsulotlari, ayniqsa qovun butun dunyoga mashhur edi.

O'lkada hunarmandchilik ham yaxshi taraqqiy etgan bo'lib, Buxoro, Samarqand, Gurganj hunarmandlari o'z ustaxonalarini Orolbo'yi, Volgabo'yidan tortib, to Xitoygacha bo'lgan hududda tashkil qilishgan. Ular sifati o'sha davr uchun ancha yuqori bo'lgan urush anjomlari, xo'jalik buyumlarini ishlab chiqarishgan.

Bu paytda Amudaryo quyi oqimida joylashgan Gurganj shahri butun Markaziy Osiyodagi yirik iqtisodiy, siyosiy markazlardan biriga aylandi. Xuroson, Movarounnahr, Hindiston, Xitoy va boshqa mamlakatlar karvonlari ushbu shaharda to'xtab, Ustyurt orqali Volgabo'yiga, Qora dengiz atrofiga, Yevropa tomon yo'l olishardi.

Xorazm hukmdorlari Ma'mun ibn Muhammad (995–997), Ali ibn Ma'mun (997–1009)lar davlat mustaqilligini yanada mustahkamlab, uning harbiy qudratini oshirishdi. Endi unga qo'shni bo'lgan, Xurosonda yaqinda tashkil topgan G'azna podsholigi, Arab xalifaligi, Kiyev Rusi ham uni tan olar edi. Xorazm boshqa davlatlar siyosatida ham faol ishtirok etadigan bo'ldi. Hatto Kiyev knyazi Vladimir Xorazmga o'z vakillarini yuborganligi haqida ma'lumotlar

bor. Ma'muniylar mamlakat hududini ham ancha kengaytirishga muvaffaq bo'ldilar: endi Xorazm Sirdaryo, Kaspiy (Hazar) dengizi, Volgabo'yi oraliqlarini o'z ichiga olgan edi.

Chet davlatlar bilan siyosiy, iqtisodiy aloqalarning o'sishi, mamlakat mustaqilligining mustahkamlanishi o'lkada ilm-fan, madaniyatning yuksalishiga ham o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. Xorazmliklar uzoq o'lkalarga borib savdo qilishlari natijasida o'zga xalqlar madaniy hayoti bilan tanishish imkoniga ega bo'lishgan. Xorazmda osoyishtalik va tinchlik qo'shni mamlakatlar olimlari, shoir-u san'atkorlarini o'ziga tortar edi.

997-yil boshida xorazmshoh Ma'mun ibn Muhammad vafot etib, taxtga Abu-l-Hasan ibn Ma'mun o'tirgach, Beruniy Xorazmga qaytib keladi. Lekin Gurganjga kelmay, eski poytaxt Katga keladi. Yangi xorazmshoh bu payt yaqin qo'shni mamlakatlar bilan yaxshi aloqalar o'rnatib, Gurganjga olimlar va adiblarni to'play boshlagan edi. Xorazmshoh Ali ibn Ma'mun bilimdonligi va ilmga bo'lgan qiziqishi bilan mashhur bo'lgan. U hukmronlik qilgan davrda Gurganj Sharqning eng yirik ilm-fan va madaniyat markazlaridan biriga aylandi. Ali ibn Ma'mun saroyidagi olim-u ulamolarga ijodiy faoliyat uchun ularni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi.

Beruniy 998-yil oxirida ba'zi sabablarga ko'ra Kaspiyning janubi-sharqidagi Gurgon shahriga Qobus ibn Vushmagir Ziyoriy (978–1012) saroyiga boradi, Ibn Sino bilan falsafiy yozishmada bo'ladi. Alloma Gurgonda to 1004-yilga qadar muqim turadi. Bu yillar u chuqur ilmiy izlanishlar, astronomik kuzatishlar olib boradi va ancha ilgari Xorazmda boshlagan yirik ilmiy asari «O'tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar» («Osor al-boqiya an al-qurun al-holiya») ni yozib tugatadi. Bu orada Gurganjda xorazmshoh Ali ibn Ma'mun saroyida olim va adiblarning katta guruhi to'plangan edi. 1005-yili u yerga Buxorodan Abu Ali ibn Sino keladi.

O'z tarjimai holidan Abu Ali ibn Sino quyidagilarni yozgan edi: «...keyin zarurat yuzasidan Buxoroni tark etib, Gurganj tomonga

ko'chishimga to'g'ri keldi. U yerda ilmni sevuvchi Abu-l-Hasan as-Sahriy vazir edi, u erning amiri huzuriga kirdik. Amir Ali ibn Ma'mun edi. Men uchun, menga o'xshaganlarga beriladigan miqdorda oylik tayin qilishdi».

Beruniyning Gurganjga kelishi bilan xorazmshoh saroyida to'plangan olimlar davrasi to'ladi. 1004-yilni shartli ravishda Xorazmdagi Ma'muniylar ilmiy to'garagining yoki hozirgi ibora bilan aytganda, Ma'mun akademiasining to'la shakllangan davri deyish mumkin. Ma'mun akademiasida to'plangan olimlar ro'yxati bizgacha yetib kelmagan va ularning tarkibi haqida biz faqat taxminlar qilishimiz mumkin. Lekin Abu Mansur as-Saolibiyning guvohligicha, Gurganjda to'plangan faqat arabiynavis adiblarning o'zi 200 ga yaqin bo'lgan ekan.

Xorazmshoh Abu-l-Abbos Ma'mun saroyidagi ilmiy to'garakning akademiya deyilishi masalasiga kelsak, bunga o'rta asr mualliflaridan Abu-l-Hasan Bayhaqiy (1105–1169) va Nizomiy Aruziy Samarqandiy (1090–1180) guvohlik berishgan. Xususan, Nizomiy Aruziy Samarqandiy o'zining «Chahor maqola» nomli asarida bu haqida quyidagicha xabar beradi: «Xorazmshoh Abu-l-Abbos Ma'munning bir vaziri bor edi, oti Abu Husayn Ahmad Muhammad as-Suhayli edi, falsafiy tafakkur, olijanob qalbgaga ega va ma'rifatparvar edi. Xorazmshohning o'zi ham falsafaga mayli ko'p va zukkolarga muruvvatli edi. Ana shular tufayli saroyda ko'plab faylasuflar va ulamolalar to'plandi. Jumladan, Abu Ali ibn Sino, Abu Sahd Masihiy, Abu-l-Xayr Hammor, Abu Rayhon Beruniy va Abu Nasr ibn Iroq... Ularning hammasi shu xizmatda hayotiy ehtiyojlari bilan to'liq ta'minlangan edi, o'zaro do'st edilar, suhbatlar va yozishmalar bilan orom olardilar». Bayhaqiy ham shu so'zlarni deyarli takrorlaydi.

Gurganj shahri ham aynan shu davrda gullab-yashnagan. Uni Oq qal'aning olti metr balandlikdagi mustahkam devorlari o'rab turgan. Yangi qurilgan chiroyli binolar shahar ko'rkiga ko'rk qo'shgan. Muqaddasiy: «Gurganj kun sayin kengayib borayapti, Xo'jay darvozasi



oldida al-Ma'mun tomonidan kurilgan saroy qad ko'targan. Bu saroy darvozalariga teng keladigani butun Xurosonda yo'q. Uning oldiga al-Ma'munning o'g'li Ali saroy qurdirgan. Saroy oldida Buxorodagidek maydon bor», – deb yozadi.

Ali ibn Ma'mun Gurganjda masjidlar, madrasalar, shifoxonalar qurdirgan. Shahar ko'chalarida tozalik yuqori darajada bo'lgan. Zero, o'sha davrlarda bunga jiddiy e'tibor bilan qaralgan. Yo'llarga silliqlangan toshlarning yotqizilishi, shahar hayotining a'lo darajada tashkil qilinganligi, IX–XII asr shaharlarining alohida tartibli bo'lganligidan darak beradi.

X asr oxiri – XI asr boshlarida Gurganj notinchliklardan xoli bo'lib, u yerda ilm fidoyilari uchun yetarli sharoit mavjud edi. Shaharda o'z vaqtida Abdushukur Balxiy, Abulqosim Firdavsiy, Abu Nasr Forobiy kabi IX–X asrlarning ulug' allomalari ijod qilishgan. Ma'rifatparvarligi, ilm ahliga e'tibori bilan mashhur bo'lgan Ma'mun ibn Ma'mun ham o'z saroyidagi olimlarga izzat-hurmat ko'rsatib, ularning ijodiy yutuqlariga katta qiziqish bilan qaragan.

Xorazmshoh Ma'mun ibn Ma'mun akademiyasi («Majlisi ulamo»)da Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Saxl Masihiy, Abu Nasr ibn Iroq, Abu Said ibn Ahmad ibn Muhammad ibn Mujavayx, Abu Mansur as-Saolibiy, Ahmad Muhammad as-Sahriy, Zaynuddin Jurjoniy, Abulkarim Zirg'aliy, Abu Abdulloh al-Vazir, Abul Hasan Ma'mun, Abu Muhammad Xorazmiy, Abduavval ibn Abdusamadiy, Abu Azoq ibn Baxnom, al-Kosiy, Abu Abdulloh Iloqiy, Abu Abdulla an-Naysaburiy al-Xorazmiy, al-Hamdakiy, Ahmad Mas'uriy, Abu Muhammad Rakkoshiy, Abu Abdulloh Xorazmiy, Abubakr Muhammad Xorazmiy, Ahmad ibn Muhammad as-Suxayl al-Xorazmiy va boshqa olimlar matematika, astronomiya, astrologiya, ruhiyot, mantiq, tibbiyot, falsafa, tarix, tilshunoslik, ta'lim-tarbiya, kimyo, adabiyot, musiqa, geografiya, geodeziya, topografiya, mexanika singari turli fan sohalari bilan shug'ullanib, bu ilmlarning kelajakdagi taraqqiyotiga zamin hozirladilar.

### 13.3. IX–XII asrlarda islom dini va tasavvuf tariqatlari. Buyuk muhaddis va dinshunos olimlar

IX–XII asrlarda islom dini O'rta Osiyo xalqlari davlatchiligi tarixida katta rol o'ynay boshladi. Movarounnahrda bu davr arab xalifaligidan mustaqil bo'lgan davlatlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi davri bo'lgan bo'lsa, islom bu vaqtda Sharqda keng tarqalib jahon dini darajasiga ko'tariladi, musulmon dunyosining mafkurasiga aylanadi. Arab tili esa davlat tili darajasiga ko'tarilib yuksaladi. Azaldan savodli bo'lgan, madaniyat darajasi yuqoriga ko'tarilgan Movarounnahrda tez orada nafaqat arab tilini, balki islomni ham chuqur o'rganib, arab tili va shariat masalalarida kitoblar yozadigan olimlarni yetishib chiqdi.

Xalifalikdan ajralib chiqqan mustaqil davlatlar Somoniylar, Qoraxoniylar, Saljuqiylar va G'aznaviylar, Xorazmshohlar davrida bu mustaqil markazlashgan davlatlarni yanada mustahkamlash uchun islom diniga, uning ta'limotiga, tarixiy ahkomlariga e'tibor bir necha bor kuchayadi. Shaharlarda masjid-u madrasalar qurilishiga e'tibor berila boshlanadi. Masalan, manbalarning darak berishicha, Buxoroda dastlabki madrasa Kavushdo'zlar timi yaqinida barpo qilinadi. Hatto qonunshunoslar uchun ham maxsus «Faqihlar madrasasi» degan ixtisoslashtirilgan madrasa qurdirilgan. Bunday bilim maskanlarida Qur'oni karim, hadis ilmi va shariat asoslari har tomonlama mukammal o'rganilgan.

O'sha davr shaharlari orasida islom dini ta'limotini chuqur targ'ib qilishda Buxoro shahri alohida o'rinni egallaydi. Yuqorida qayd qilinganidek, madrasa-yu maktablarning borligi bu yerda yetuk ilohiyot fani namoyandalarini yetishib chiqishiga xizmat qiladi. Shuning uchun bo'lsa kerak, Buxoro shu davrdan boshlab «Qubbatul islom»– «Islom dinining gumbazi» nomi bilan shuhrat qozonadi.

Sekin-asta markazlashgan davlatning asosiy mafkurasiga aylangan islom dini boshqa diniy qarashlarni siqib chiqaradi va xalq ommasini itoatda ushlab turish uchun qurol vositasi rolini ham bajarishni yo'lga qo'yadi.

Bu davrda islom ta'limotiga bebaho hissa qo'shgan Imom al-Buxoriy va Iso at-Termiziy kabi ko'plab ulamolar yetishib chiqishdi. Ular shu kunga qadar hadis ilmining eng ko'zga ko'ringan, butun musulmon dunyosi tomonidan tan olingan allomalari darajasiga ko'tarilgan zotlardir.

**Imom Buxoriy (810–870-yy.)** Hadis ilmining rivojida oltin davr hisoblangan hijriy uchinchi (milodiy to'qqizinchi) asrda hadiss-hunoslikda katta muvaffaqiyatlar qo'lga kiritilgan. Chunonchi, butun islom dunyosidagi eng nufuzli manbalar deb tan olingan oltita ishonchli hadislar to'plamining mualliflari yashab ijod qilishgan. Yana shunisi diqqatga sazovorki, mazkur olti muhaddisning deyarli hammasi Markaziy Osiyolik bo'lib, ular: Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Imom Muslim ibn al-Hajjoj (206/819–261/874), Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy (209/824–279/892), Imom Abu Dovud Sulaymon Sijistoniy (202/817–275/880), Imom Ahmad An-Naso'iy (215/830–303/915), Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Yazib ibn Mojja (209/824–273/886) kabi siymolardir. Shular ichidan «Hadis ilmida amir al-mo'miniyn» degan sharafli nomga sazovor bo'lgan Imom al-Buxoriy alohida e'tiborga molik buyuk olimdir.

Uning to'liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn al-Mag'iyra ibn Bardazbeh al-Juafiy al-Buxoriy bo'lib, u hijriy hisobda 194-yil shavvol oyining 13-kuni (810-yil 20-iyul)da Buxoro shahrida tavallud topgan. U yoshligidan aql-idrokli, o'tkir zehni va ma'rifatga havasi kuchli bo'lib, turli ilm-fanlarni, ayniqsa, hadis ilmini zo'r qiziqish bilan egallaydi. Manbalarda ko'rsatilishicha, u o'n yoshidan boshlab o'z yurtidagi turli rivoyatchilardan eshitgan hadislarni, shuningdek, Abdulloh ibn al-Muborak va Vakiy kabi olimlarning hadis to'plamlarini mutolaa qilib, yodiagan, ustozlari Shayx Dohiliy bilan hadis rivoyatchilari haqidagi qizg'in bahslarda qatnashgan. 825-yili o'n olti yashar al-Buxoriy onasi va akasi Ahmad bilan Hijozga qarab yo'l tutadi, muqaddas shaharlar Makka va Madinani ziyorat qilib, bir necha yil Hijozda yashab, hadis ilmidan o'z bilimni yanada oshirish maqsadida o'sha paytda ilm-fanning yirik markaz-

laridan hisoblangan Damashq, Qohira, Basra, Kufa, Bag'dod kabi shaharlarda yashab, u joylardagi mashhur olimlaridan hadis bilan bir qatorda fiqh ilmidan ham ta'lim oladi, yirik olimlar davrasida ilmiy bahslar-u munozaralarda qatnashadi va ilm toliblariga dars ham beradi. Imom al-Buxoriy hayotining ko'p qismi xorijiy ellarda, musofirchilikda o'tdi.

Ilm oshirish maqsadida Imom Buxoriy ko'plab olimlardan ta'lim oladi. O'z navbatida Imom Buxoriy ham ko'pgina shogirdlariga ustozlik qilgan. Is'hoq ibn Muhammad ar-Ramodiy, Abdulloh ibn Muhammad al-Masnadiy, Muhammad ibn Xalif ibn Qutayba, Ibrohim al-Harbiy, Abu Iso at-Termiziy, Muhammad ibn Nasr al-Marvaziy, Muslim ibn al-Hajjoj kabi yetuk olimlar uning shogirdlaridir.

Termizlik mashhur muhaddis Abu Iso Termiziy Imom Buxoriyga ham shogird, ham safdosh hisoblanib, ularning o'zaro munosabatlari ibratli bo'lgan. Uzoq yillar Sharqning turli-tuman mamlakatlariga safar qilgandan keyin umrining oxirlarida al-Buxoriy besh (863–868) yil Nishopurda yashab, madrasada hadis ilmidan dars bergan. O'sha paytda Nishopur musulmon Sharqidagi eng yirik ilmiy markazlardan biriga aylanganligi sababli ko'p mashhur olimlar shu shaharda to'planishgandi. Al-Buxoriyning at-Termiziy bilan uchrashuvi ham Nishopurda yuz berib, diyorimizdan chiqqan ikki mashhur muhaddis o'rtasida unutilmas, qizg'in ilmiy bahslar, ko'pdan ko'p ijodiy, do'stona uchrashuvlar bo'lib o'tadi. At-Termiziyning yozishicha, u o'z asarlari uchun ko'p ma'lumotlarni al-Buxoriy bilan uchrashuvlaridan olgan. Shu bilan birga al-Buxoriy ham at-Termiziyning bilimini yuqori baholab: «Men sendan ko'rgan foyda sen mendan ko'rgan foydadan ortiqroq», deb unga nisbatan chuqur hurmatini bildirgan. At-Termiziy o'z ustozlari va safdoshi al-Buxoriyni butun umri davomida hurmatlab, unga samimiy sadoqatda bo'lgan.

Imom al-Buxoriy nafaqat yirik olim, balki o'zining go'zal xulq-atvori, odamoxunligi, muruvvatligi, himmatligi va beqiyos saxovatligi bilan boshqalardan tamomila ajralib turgan. U zehni o'tkirligi va yodlash qobiliyatining kuchliligi bilan ham xalq orasida g'oyat



shuhrat qozongan. Manbalarda al-Buxoriyning 600 mingga yaqin hadisni yod bilgani qayd qilingan.

Imom al-Buxoriy xoriydan qaytgach, o'z vatani Buxoroda ko'plab shogirdlar va ulamolarga hadis ilmidan saboq berish bilan mashg'ul bo'ladi. Aksariyat omma uni hurmat qilgan, ammo ba'zi hasadgo'y, qora niyatli kishilar al-Buxoriyning ko'rolmas edilar. Natijada hasadgo'ylarning xatti-harakati tufayli Buxoro amiri Xolid ibn Ahmad az-Zuhaliy bilan al-Buxoriyning aloqasi buzilib qoladi. Bunga sabab, amir olimdan uning huzuriga kelib, «Al-jome' as-sahih», «At-ta'rix» kitoblarini o'qib berishni talab qiladi. Lekin al-Buxoriy: «Men ilmni xor qilib, uni hokimlar eshigi oldiga olib bormayman, kimga ilm kerak bo'lsa, o'zi izlasin. Lekin Alloh oxirat kuni ilmni yashirmay uni toliblarga sarf qilgani uchun meni kechiradi», degan javobni aytadi. Amirga javob yoqmay, fitnachi, shaxslarning gapiga kirib, al-Buxoriyga shaharni tark etishni buyuradi. Shundan keyin al-Buxoriy Samarqandga qarab yo'l oladi va birmuncha muddat Xartang qishlog'ida o'z shogirdlari va qarindosh-urug'larinikida yashagandan keyin og'ir kasalga chalinib, hijriy 256-yil (milodiy 870-yil 1-sentabr) 60 yoshida vafot etadi va shu yerda dafn qilinadi.

Imom al-Buxoriy avlodlarga boy va qimmatli ilmiy meros qoldirgan bo'lib, u yozgan asarlarning soni yigirmadan ortiqdir. Ulardan «Al-jome' as-sahih», «Al-adab al-mufrad», «At-ta'rix as-sag'iy», «At-ta'rix al-avsot», «At-ta'rix al-kabir», «Kitob al-ilal», «Barr ul-volidayn», «Asomi us-sahoba», «Kitob al-kuna» va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Buyuk allomaning eng muhim asari, shubhasiz, «Al-jome' as-sahih»dir. Bu asar «Sahiyh al-Buxoriy» nomi bilan ham mashhur. Uning g'oyat ahamiyatli tomoni shundaki, Imom al-Buxoriygacha o'tgan muhaddislar o'z to'plamlariga eshitgan barcha hadislarini tanlab o'tirmay qatorasiga kiritaverishgan. Imom al-Buxoriy esa turli roviylardan eshitgan hadislarini tabaqalarga bo'lib, ularning ishonchlilarini ajratib, alohida kitob yaratdi.

Alloma ibn Salohning ta'kidlashicha, al-Buxoriyning bu asariga kiritilgan ishonchli hadislarning soni takrorlanadiganlari bilan birga 7275 ta bo'lib, takrorlanmaydigan holda esa 4000 hadisdan iborat.

Bu sharaffi ishni birinchi al-Buxoriy boshlab bergan bo'lib, keyin qator olimlar unga taqlid kilib, shu zaylda hadislar to'plamini yaratishgan. Imom al-Buxoriyning ushbu yirik asari yozilganiga taxminan 1200 yil bo'ldi, o'sha davrdan boshlab toki shu vaqtgacha u islom ta'limotida Qur'ondan keyingi ikkinchi o'rinda turadigan muhim manba sifatida yuqori baholanib kelinmoqda. Imom al-Buxoriyning ushbu asarining ko'plab nusxalari turli shaharlarda tarqalgan.

«Al-jome' as-sahih» va «Al-adab al-mufrad» kitoblari Toshkentda qaytadan nashr qilinishi al-Buxoriy merosini o'rganishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Toshkentdagi diniy oliy institutining Imom al-Buxoriy nomi bilan atalishi bundan o'n ikki asr muqaddam ilmfan yo'lida beqiyos katta xizmat qilgan buyuk olimga chuqur hurmat-e'tiborning ramzidir. Allomaning Xartang qishlog'ida joylashgan salobatli maqbarasi eng obod va ko'rkam qadamjoldardan biri sifatida ardoqlanib, islom ahli va barcha mehmonlar uchun tabarruk ziyoratgoh sifatida mashhurdir. 1998-yili buyuk hadisshunos allomaning 1225 yillik tavalludi keng jamoatchilik tomonidan katta hurmat va ehtirom ila nishonlanib, uning maqbarasi qayta qurildi. Hozirda bu joy nafaqat mamlakatimiz fuqarolarini, balki butun musulmon dunyosi ahlini ziyoratgoh joyiga aylangan.

**Imom Termiziy (824–892).** Katta ahamiyatga ega asarlar yaratgan buyuk allomalardan biri – mashhur muhaddis (hadis ilmi olimi) Abu Iso Muhammad Termiziydir. Uning to'liq ismi Abu Iso Muhammad ibn Savra ibn Muso ibn ad-Dahhok as-Sullamiy (umrining oxirlarida ko'zi ojiz bo'lib qolganligidan ad-Dariyr taxallusi bilan ham atalgan) at-Termiziy bo'lib, u hijriy hisobda 209 (milodiy 824)-yilda Termizda, o'rtahol oilada tavallud topdi. Markaziy Osiyolik mashhur olim va tarixchi Abu Saad Abdulkarim as-Sam'oniyy (113/1167) «Al-Ansob» nomli asarida yozishicha, at-Termiziy Bug' (hozirgi Shero-bod tumani) qishlog'ida vafot etganligi uchun uning nomiga al-Bug'iy



taxallusi ham qoʻshilgan. Uning yoshlik yillari Termiz shahrida oʻtib, dastlabki maʼlumotni ham shu shaharda olgan. Bolaligidan oʻta ziyarakligi, yodlash qobiliyatining kuchliligi, noyob qobiliyati bilan oʻz tengqurlaridan ajralib turgan at-Termiziy diniy va dunyoviy fanlarni, ayniqsa, hadis ilmini alohida qiziqish bilan egallab, bu boradagi oʻz bilimlarini muttasil oshirish maqsadida koʻplab Sharq mamlakatlari-ni ziyorat qilgan. Jumladan, u uzoq yillar Iroqda, Isfahon, Xuroson, Makka va Madinada yashagan. Koʻp yillar davom etgan safarlari chogʻida at-Termiziy ilm-fanning turli sohalari – ilm al-qiroat, ilm al-bayon, fiqh, tarix, ayniqsa, oʻzi yoshligidan qiziqqan hadis ilmidan oʻz davrining yirik olimlari – mashhur muhaddislaridan taʼlim oladi. Uning ustozlaridan imom al-Buxoriy, imom Muslim, imom Abu Dovud, Qutayba ibn Saʼiyd, Isʼhoq ibn Muso, Mahmud ibn Gʻaylon va boshqa mashhur muhaddislarni koʻrsatish mumkin.

Musofirchilikdan qaytgan Imom Termiziy oʻz yurtida yirik muhaddis olim sifatida shuhrat qozondi va ijodiy ish, shogirdlar tayyorlash bilan mashgʻul boʻldi. U hijriy 279 (milodiy 892)-yilda Termizdan uzoq boʻlmagan Bugʻ qishlogʻida vafot etadi va shu yerda dafn qilinadi.

At-Termiziy qalamiga mansub asarlarning aksariyati bizgacha yetib kelgan. «Al-jomiʼ» («Jaʼmlovchi»), «Ash-shamoil an-nabaviya» («Paygʻambarning alohida fazilatlarini»), «Al-ilal fi-l-hadiys» («Hadislardagi ogʻishishlar»), «Risola fi-l-xilof va-l-jadal» («Hadislardagi ixtilof va bahslar haqida risola»), «At tarix» («Taʼrix»), «Kitob az-zuhd» («Taqvo haqida kitob»), «Kitob ul-asmo val-kuna» («Ismlar va laqablar haqida kitob») kabi asarlar shular jumlasiga kiradi.

At-Termiziyning asarlari ichida eng mashhuri, shubhasiz, «Al-jomiʼ» boʻlib, avval eslatib oʻtganimizdek, paygʻambar alayhissalomga doir oltita ishonchli hadislar toʻplamlaridan biridir. Ushbu asar ilmiy adabiyot va manbalarda «Al-jomiʼ al-kabir» («Katta toʻplam»), «Al-jomiʼ us-sahiyh» («Ishonchli toʻplam»), «Jomiʼ at-Termiziy» («Termiziy toʻplami»), «Sunan at-Termiziy» («Termiziy sunnatlari») nomi bilan ham atalib, paygʻambar alayhissalom hayoti va faoliyatiga doir muhim manbalardan hisoblanadi.

At-Termiziyning mashhur asarlaridan yana biri «Ash-Shamoil an-nabaviya» («Paygʻambarning alohida fazilatlarini») boʻlib, baʼzi manbalarda «Ash-shamoil fi shamoil an-nabiy sallolohu alayhi vasallam» nomi bilan ham keltirilgan. Nomidan ham koʻrinib turibdiki, bu asar paygʻambar alayhissalomning shaxsiy hayotlari, u kishining suvrat va siyratlari, ajoyib fazilatlarini, odatlariga oid 408 hadisi sharifni oʻz ichiga qamragan manbadir.

«Ash-shamoil an-nabaviya»ning birinchi qismida keltirilgan hadisi shariflar paygʻambarimiz sallallohu alayhi vasallamning suvrat (tashqi qiyofa)lariga, ikkinchi qismida keltirilgan hadisi shariflar esa ichki dunyolari-yu axloqiy fazilatlarini bayon qilishga bagʻishlangan.

Xulosa qilib aytganda, buyuk vatandoshimiz Abu Iso Muhammad at-Termiziy bizga boy va katta ilmiy meros qoldirgan. Mustaqillik yillarida uning merosi chuqur va har tomonlama oʻrganilmoqda. Al-loma dafn etilgan joy esa obod qilinib, umumxalq ziyoratgohi maqomiga aylangani unga boʻlgan ulkan hurmat va eʼtibordan darak beradi.

**Abu Mansur al-Moturidiy** (vafoti 945-y.) sunniy eʼtiqodidagi ikki yirik oqimlardan biri boʻlgan – moturidiya oqimining asoschilaridan hisoblanadi. Uning hayoti haqida maʼlumotlar juda oz. Toʻliq nomi Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud al-Hanafiy al-Moturidiy as-Samarqandiydir. Buyuk kalom imomi va fiqh olimi asli Samarqandning Moturid qishlogʻidan (hozirgi Jomboy tumanida joylashgan) boʻlib, uning taxallusi shu qishloqqa nisbatan olingandir. Abu Mansur al-Moturidiy dastlabki taʼlimni shu qishloqda olib, keyinchalik Movarounnahrning oʻsha davrdagi diniy va maʼrifiy markazi boʻlgan Samarqandda davom ettiradi.

Al-Moturidiy yashagan vaqt Somoniylar hukmronlik qilgan davrga toʻgʻri keladi. Samarqand dastlab bu davlatning poytaxti boʻlib, soʻngra IX asrning oxiridan boshlab poytaxt Buxoroga koʻchirildi. Biroq oʻsha vaqtda ham Samarqand Buxoro bilan bir qatorda Movarounnahrning iqtisodiy-madaniy markazi boʻlib qolaverdi.



Abu Mansur al-Moturidiy tugʻilgan yili haqida aniq maʼlumotlar yoʻq. U Samarqandda 944–945-yilda vafot etgan va shahar chekkasidagi Chokardiza degan qabristonga dafn etilgan.

Al-Moturidiy fiqh va kalom masalalari bilan qiziqib, hanafiya mazhabi olimlaridan dars olib oʻz bilimini oshiradi. Shu vaqt davomida koʻplab mashhur faqihlar va muhaddislar bilan muloqotda boʻlgan va munozaralar qilgan. Butun umri davomida shu sohaga oid asarlar yozib qoldirgan. Mahmud ibn Sulaymon al-Kafaviyning (vafoti 1582-yil) «Katoib ul-aʼdom al-axyor fi taboqot va mashaoyix mazhab an-Nuʼmon» («Nuʼmon mazhabiga mansub boʻlgan taniqli allo-ma faqihlar va shayxlar haqidagi kitob») nomli kitobida al-Moturidiy va uning asarlari haqida ayrim maʼlumotlar beriladi. Masalan, quyidagi asarlari nomlari keltirilgan: «Kitobi Tavhid», «Kitob Maqomat», «Kitob rad avomil lil adila lil kabiy» («Kaʼbiy zalolatlarining boshlanishini rad qilishga bagʻishlangan kitob»), «Kitob bayon va hum ul-maʼtazila» («Muʼtazila gʻavgʻolari va undan qoʻrqmaslik haqidagi kitob bayoni»), «Kitob Taʼvilot al-Qurʼon» («Qurʼon taʼvili kitobi»).

Abu Mansur umri davomida faqihlar, muhaddislar bilan muloqotda boʻlgan va munozaralar olib borgan. U islom dinining hanafiya mazhabini Movarounnahrda tarqatish va oʻzidan keyingi avlodlarga qusursiz yetkazish ishiga muhim hissa qoʻshdi.

Al-Moturidiy nafaqat fiqh, kalom ilmiga, balki boshqa fanlarga oid asarlar ham yozgan deb aytish mumkin. Al-Moturidiyning ovchilikka oid asari bunga dalil boʻladi. Bu asarning bir qoʻlyozma nusxasi «Risola jonvor doriy» («Jonvorlarga oid risola») deb nomlangan boʻlib, unda ovchi qushlarni boqish haqida fikr yuritiladi. Bu asarda ovchi burgutlarning har xil zotlari, ularning tashqi koʻrinishlari, oziqlantirish, ovga yaroqliligi bilan bir qatorda koʻpaytirish, izi va chatishtirish usullari kabi masalalar haqida soʻz boradi.

Al-Moturidiy oʻz davrining islomiy ilmlari sohasida eng yetuk bilim sohibi hisoblanib, musulmon dunyosi olimlari tomonidan tan olingan va hozirda ham turli diniy asarlarda kam ehtirom bilan tilga olinadi.

Al-Moturidiyning ulugʻlab «Imom al-mutakallimin» («Hidoyat yoʻli imomi va mutakallimlar imomi») kabi nomlar bilan ham atashgan.

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan 2000-yilda allomaning 1130 yillik tavallud sanasi mamlakatimizda keng miqyosda nishonlandi.

**Qaffol ash-Shoshiy** (903–976). Toshkent (oʻrta asr arab manbalarida esa Shosh) – tarix jarayonida koʻplab shoir va adiblar, allomalar, riyozat va tabobat ahllarini yetishtirgan. Ana shunday allomalardan biri Qaffol ash-Shoshiydir. Qaffol ash-Shoshiyning toʻliq ismi Abu Bakr ibn Ali Ismoil Qaffol ash-Shoshiy boʻlib, arab manbalarida uning hurmatini bajo keltirish uchun nomiga katta, ulugʻ yo muhtaram maʼnosini ifodalaydigan «al-Kabir» soʻzini qoʻshib yozishadi. Bu bilan oʻtmishdoshlarimiz Qaffol ash-Shoshiyga nisbatan buyuk ehtiromni ifoda etishgan. Qaffol ash-Shoshiy hunarmand oilada dunyoga kelgan koʻrinadi. Shu sababdan «Qaffol» – qulfsos deya mashhur boʻlgan. Qaffol ash-Shoshiy asli qulfsos usta boʻlib, kichik va nozik qulflar yasaydigan, qoʻli gul usta edi.

Qaffol Shoshiy dastlabki taʼlimni oʻz yurtida, keyinchalik Markaziy Osiyoda mavjud maʼrifat oʻchoqlarida oladi. U Samarqand, Buxoro, Termiz kabi shaharlarni kezadi. Bu yerlarda undan sal oldinroq oʻtgan va anchagina meros qoldirgan Imom Ismoil al-Buxoriy (810–870), Abu Iso Muhammad at-Termiziy (824–892) kabi yirik mutafakkir olimlar merosi bilan tanishadi, ulardan bahramand boʻladi. U birmuncha vaqt Samarqandda yashab, u yerda taʼlim oldi. Qaffol ash-Shoshiy qattiq kirishib fiqhshunoslikni oʻrganadi. Zero, bu fan musulmon sharqiy oʻlkalarida keng tarqalgan va ijtimoiy hayotda muhim ahamiyatga ega boʻlib, bu fanni egallagan kishilar hamma joyda qadrlanar, ularga zarurat ham katta boʻlgan. Chunki, ijtimoiy hayotda qonunshunoslikka talab katta boʻlib turishi tabiiy hol edi. Qaffol ash-Shoshiy fiqh ilmini egallash bilan birga fikr doirasi keng, falsafa, mantiq, adabiyot sohalarini ham puxta egallagan, bu sohalarda eng bilimdonlar bilan munozara qila oladigan qudratga ega boʻlgan bir zot edi.

Qaffol ash-Shoshiy doimo ilm-ma'rifat istagida qo'nim topmay, bir o'lkadan ikkinchisiga – ilm chashmalaridan bahramand bo'lish niyatida Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarini kezadi. Hijoz, Bag'dod, Damashq kabi shaharlarga boradi, u yerlarda zamonasining ko'zga ko'ringan olimlaridan ilm-ma'rifatni o'rganadi.

Qaffol ash-Shoshiyning ustozlariga qarab ham uning bilimi, qanday fanlarni o'rganganligini bilish mumkin. Manbalarning ko'rsatishicha, Qaffol ash-Shoshiyning qonunshunoslik va tarix sohasidagi ustozlari mashhur olim at-Tabariy (839–923) edi. Ma'lum bo'lishicha, Abu Ja'far Muhammad ibn Jarir at-Tabariy musulmon Sharqi mamlakatlarining eng yirik tarixchisi bo'lib, ko'p jildlik asarlar muallifi edi.

Qaffol ash-Shoshiy qonunshunoslik, mantiq kabi sohalarga oid asar yozgan. Uning «Odob al-qozi» («Qozining fe'l-atvori»), «Odob al-bahs» («Bahs odobi») degan ta'lifi bo'lib, arab tilidagi she'rlari ma'lum. Bu xususda yuqorida zikr qilingan arab olimi ibn Xallikon shunday deb yozadi: «Qonunshunoslardan dastlab otilib chiqib «Husni jadal» («Dialektika go'zalligi») degan asar yozgan kishi ham shu Qaffol ash-Shoshiy edi».

Qaffol ash-Shoshiy 976-yili Toshkentda vafot etgan va shu yerda dafn etilgan. Hozir Toshkentning xalq orasida «Xastimom» deb ataladigan joy shu mo'tabar zotga nisbatan aytiladigan nom «Hazrati imom»ning qisqartirilgan shakli bo'ladi. Aslida bu joyning nomi Hazrati Imom Qaffol ash-Shoshiydir. Uning qabri tegrasida Toshkentda mashhur bo'lgan mo'tabar zotlar dafn etilgan. Toshkent shahri – «Islom madaniyatining poytaxti», deb e'lon qilinishida ana shu zotlarning ham xizmatlari e'tiborga olingan.

Qaffol ash-Shoshiy maqbarasi Toshkentning qadimiy, ko'zga ko'ringan tabarruk qadamjosi sanaladi. Istiqlo' yillarida mazkur maqbara va majmua qayta ta'mirlanib, zamonaviy Toshkentning eng e'tiborli maskanlaridan biriga aylandi.

**Mahmud az-Zamaxshariy** (1075–1144). Ko'hna Xorazm zaminida jahon fani va madaniyati rivojiga munosib hissa qo'shgan ko'plab

buyuk allomalar yetishib chiqqan. Abul Qosim az-Zamaxshariy ana shunday ulug' siymolardan biridir.

Allomaning to'liq ismi Abul Qosim Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariy bo'lib, u hijriy 467-yil rajab oyining 27-kuni (1075-yil 19-mart) Xorazmning katta qasabalaridan biri – Zamaxshar qishlog'ida tavallud topdi. Az-Zamaxshariy haqidagi ma'lumotlar asosan o'rta asr arab manbalarida keltiriladi. Otasi unchalik badavlat bo'lmas-da, savodli, taqvodor, diyonatli kishi bo'lgan va aksariyat vaqtini Qur'on tilovati-yu, namoz o'qish bilan o'tkazib, Zamaxshardagi bir masjidida imomlik ham qilgan.

Az-Zamaxshariylar oilasi islomning mu'taziliy ta'limotiga mansub bo'lib, yosh Mahmudning dunyoqarashi mana shu dindor, taqvodor otasining ta'sirida shakllandi va dastlabki bilimni ham o'z otasidan oldi. Alloma haqidagi ma'lumotlardan ma'lumki, uning bir oyog'i yog'ochdan bo'lib, tarixchilar bu haqida: «Bir oyog'i yog'ochdan edi va uzun yaktagini tushirib kiygani uchun ko'rgan odam uni cho'loq deb o'ylardi», – deb yozishgan. Og'ir illat tufayli u yoshligidan bir oyoq bo'lib qolgan va shundan so'ng otasi uni endi og'ir mehnatga yaramaydi, deb kiyim tikuvchi ustaga shogirdlikka bermoqchi bo'ladi. Biroq yoshligidan ilmga havasmand o'sgan Mahmud otasidan o'zini madrasaga o'qishga yuborishni so'raydi. O'g'lidagi ilmga bo'lgan zo'r ishtiyoq va havasni sezgan otasi uni madrasaga beradi.

Az-Zamaxshariy ilm-fanning turli sohalari bilan qiziqib, tolibi ilmlar orasida zo'r iste'dodini namoyon qila boshlaydi. U madrasada o'qitiladigan ilmlarni, ayniqsa, arab tili va adabiyoti, diniy ilmlarni puxta egallashga kirishadi, o'sha davrda ilm ahli orasida qadrlangan xattotlik san'atini ham mukammal egallab, o'z tirikchiligini bir qadar tuzatadi. So'ng, arab tarixchisi va biografi ibn Xallikonning yozishicha, talabalik yoshiga yetgach, bilimni yanada oshirish, har tomonlama kamol toptirish maqsadida Buxoroga yo'l oladi. Buxoro, mashhur olim Abu Mansur as-Saolibiyning (961–1138) iborasi bilan aytganda: «Somoniylar davridan boshlab shon-shuhrat makoni, saltanat ka'basi va zamonasining ilg'or kishilari jamlangan: yer yuzi adiblarining



yulduzlari porlagan va o'z davrining fozil kishilari yig'ilgan (joy) edi». Az-Zamaxshariy Buxoroda o'qishni tugatgach, bir necha yil Xorazmshohlar xizmatida bo'lib, kotiblik bilan shug'ullanadi, hukmdorlar bilan yaqinlashishga urinadi. Biroq qobiliyati, ilmi, fazilatiga yarasha biror mansab va munosib e'tibor ko'rmagach, o'zga yurtlarga safar qiladi, matlub-u maqsadlarining ushalishiga umid bog'laydi. 1118-yili az-Zamaxshariy og'ir dardga chalinadi, bu kasallikdan tuzalgach esa hukmdorlar xizmati-yu mansab va mol-dunyo tamasidan mutlaqo voz kechadi, qolgan umrini faqat ilm-fanga bag'ishlashga, asarlar ta'lif etishga astoydil qaror qiladi.

Az-Zamaxshariy hayoti davomida Marv, Nishopur, Isfahon, Shom, Bag'dod va Hijozda, ikki marta Makkada bo'ldi. Olim bu yerda ilmiy ishlarini davom ettirdi, arab tili grammatikasi va lug'atini hamda mahalliy qabilalarning lahjalari, maqollari, urf-odatlarini chuqur o'rgandi, bu mintaka jug'rofiyasiga oid xilma-xil ma'lumotlarni to'pladi.

Adib ko'p asarlarini Makkaligida yaratadi. O'z hayotida chuqur iz qoldirgan Makkada az-Zamaxshariy besh yilcha yashaydi. Shu boisdan u Jorulloh («Allohning qo'shnisi») degan sharafli laqabga muyassar bo'ladi.

O'z davrining yirik olimi darajasiga ko'tarilgan az-Zamaxshariyning Xorazmda ham Sharqning boshqa ko'pgina shaharlarida ham ko'pdan ko'p shogirdlari bo'lgan, alloma ko'p vaqtini o'shalarga bag'ishlardi. U qarindosh-urug'larining qistovlariga qaramasdan, hayotida biron marta ham uylanmagan. Ilmiy asarlar yaratish va munosib shogirdlar tayyorlashni farzand o'stirishdan a'lo deb hisoblagan. Az-Zamaxshariy oxirgi marta Makkadan qaytib, Xorazmda bir necha yil yashaydi va hijriy 538-yilda, arafa kechasi (1144-yil 14 aprel) vafot etadi. 1333-yili Xorazmda sayohatda bo'lgan mashhur arab sayyohi ibn Baxtuta (1304–1377) «Sayohatnoma» asarida az-Zamaxshariyning ustida qubasi bo'lgan maqbarasini ko'rganini yozadi.

Buyuk mutafakkir az-Zamaxshariy arab grammatikasi, lug'atshunoslik, adabiyot, aruz ilmi, jug'rofiya, tafsir, hadis va fiqhga oid el-

likdan ortiq asarlar yaratgan, ularning aksariyati bizgacha yetib kelgan. Arab tilshunosligi va grammatikasining turli tomonlariga oid asarlar az-Zamaxshariy ijodida salmoqli o'rin egallaydi. Jumladan, arab tili grammatikasiga oid «Al-Mufassal» (1121-yil) nomli asarini u Makkada yashagan paytida, bir yarim yil davomida yozgan. «Al-Mufassal» arab tili nahv-u sarfini o'rganishda yirik qo'llanma sifatida azaldan Sharqda ham, G'arbda ham shuhrat topgan asarlardan hisoblanadi.

Az-Zamaxshariy adabiyot, tafsir, hadis, fiqh ilmlari bo'yicha ham mukammal asarlar yaratgan.

Az-Zamaxshariyning keng tanilgan «Al-Kashshof an haqiqi it-tanziyl va uyun il-aqoviyl fi vujuh it-ta'viyl» («Qur'on haqiqatlari va uni sharhlash orqali so'zlar ko'zlarini ochish») asari Qur'on tafsiriga bag'ishlangan. Ma'lumki, o'rta asrlardan boshlab Qur'onni tafsir yoki sharh bilan o'qish odat tusini olgan. Shu boisdan ham Qur'on yaratilgan davrdan boshlab unga bag'ishlangan tafsirlar, sharhlar yozishga katta ehtiyoj sezilgan. Turmush taqozosi bilan shunday vaziyatda islom tarixida Qur'onga bag'ishlangan ko'pdan ko'p tafsirlar, sharhlar vujudga kelgan. Az-Zamaxshariy ham tafsir yozishdan avval o'zidan oldin yaratilgan Qur'on tafsiriga bag'ishlangan ko'plab asarlarni qunt bilan o'rgangan. «Al-Kashshof» az-Zamaxshariy Makkada turgan paytida, uch yil davomida yozilgan.

Az-Zamaxshariyning chuqur bilimi, dahosi va fanning turli sohalariga oid o'lmas asarlari hali u hayot paytidayoq butun musulmon Sharqida unga katta shuhrat keltirgan. Allomani chuqur hurmat va mehr bilan «Ustoz ul-arab va-l-ajam» («Arablar va g'ayri arablar ustoz»), «Faxr-u Xvarazm» («Xorazm faxri») kabi sharafli nomlar bilan atashgan. Mashhur olimlar, shoirlar, adiblar davrasida u doimo peshvolardan biri bo'lib, qizg'in ilmiy bahslar, munozaralarda uning fikri inobatga olinardi.

**Burhonuddin al-Marg'iboniy** (1123–1197). Buyuk faqih Ali ibn Abu Bakr ibn Abd ul-Jalil al-Farg'oniy ar-Rishtoniyy al-Marg'iboniy 1123-yil 23-sentabrda tug'ilgan. U Qur'onni, hadis ilmlarini mukam-

mal egallab, fiqh – islom huquqshunosligi borasida benihoya chuqur ilmga ega bo'lganligi va bu sohada beqiyos durdonalar yaratganligi tufayli Burhonuddin val-l-milla va Burhonuddin al-Marg'inoniy nomlari bilan mashhurdir.

Burhonuddin al-Marg'inoniy dastlabki ta'limni Marg'ilonda olib, keyinchalik Movarounnahrning o'sha davrdagi diniy va ma'rifiy markazi bo'lgan Samarqandga ko'chib borgan va umrining oxirigacha o'sha yerda yashagan. Burhonuddin al-Marg'inoniy yoshlik chog'laridanoq Qur'oni karimni yod olib, hadislarni chuqur o'rgangan.

Burhonuddin al-Marg'inoniy islom dinidagi sunniylarning to'rta asosiy mazhabi asoschilarining asarlarini o'rganish bilan birga o'zi ham fiqhga oid bir qator asarlar yaratgan. Bizgacha yetib kelgan asarlaridan «Bidoyat al-muntahiy» («Boshlovchilar uchun dastlabki ta'lim»), «Kifoyat al-muntahiy» («Yakunlovchilar uchun tugal ta'lim»), «Nashr ul-mazhab» («Mazhabning yoyilishi»), «Kitob ul-mazid» («Ilmni ziyoda qiluvchi kitob»), «Manosik ul-haj» («Haj marosimlari»), «Majma ul-navozil» («Nozil bo'lgan narsalar to'plami»), «Kitob ul-faroiz» («Farzlar kitobi») va boshqalar ma'lum.

Al-Marg'inoniyning butun islom olamida mashhur bo'lgan «Hidoya» asari 1178-yili Samarqandda yozilgan.

Keyinchalik bu asarlarning ham hajmi kattalik qilib, yanada mo'jaz bo'lgan, butun islom olamida hanafiya mazhabining fiqh masalalarida asosiy qo'llanmasiga aylangan al-Marg'inoniyning «al-Hidoya» asari yaratildi. Bu asar butun musulmon olamida mashhur bo'lib ketdi. musulmon huquqi – fiqh bo'yicha eng aniq, izchil, mukammal asar sifatida tan olindi.

«Hidoya»da huquqiy masalalarning yechimi dastlab yirik fiqh olimlari fikrlarining bayoni va unga boshqa mualliflar e'tirozlari yoki qo'shilishlarini izhor etish yo'li bilan berilgan. Ana shu obro'li mualliflar fikrlaridan kelib chiqib, muayyan masalada eng ma'qul yechimni tanlab olish yo'liga amal qilingan. Shu tariqa unda qonunning aynan ifodasigina emas, balki uning mukammal sharhi ham asoslab keltiriladi.

«Hidoya» bir necha asrlar davomida ko'plab musulmon mamlakatlarida, jumladan, Markaziy Osiyoda ham huquqshunoslik bo'yicha eng asosiy qo'llanma hisoblanib, bu yerda 1917-yilgi davlat to'ntarishidan keyin ham to XX asr 30-yillargacha shariat qozilari bekor qilinib, sovet sud sistemasi joriy qilinguncha amalda bo'lib keldi. Hozirgi kunda ham islom shariati asosida ish yuritadigan musulmon mamlakatlar huquqshunosligida bu asardan keng foydalaniladi. «Hidoya»ning 1893-yilda rus tilida qisqartirilgan tarjimai N.P. Grodekov tomonidan nashr etilgan.

O'zbekistonning mustaqillikka erishuvi tufayli islom yodgorliklari, jumladan, shariat, fiqhga oid asarlarni o'rganish, bu sohadagi boy merosimizni nashr etish imkoniyati vujudga keldi. Vatandoshimiz al-Marg'inoniyning «Hidoya» asari islom huquqshunosligida mashhurligini e'tiborga olib, «Hidoya»ning 1-kitobi Toshkentda 1994-yilda A.X. Saidovning so'zboshisi va sharhi bilan qayta nashr etildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qaroriga asosan 2000-yilda al-Marg'inoniyning 910 yillik tavallud sanasi keng jamoatchilik tomonidan tantanali ravishda nishonlandi.

**Tasavvuf tariqatlari.** Tasavvufning ijtimoiy asosini shaharlardagi hunarmandlar, mayda savdogarlar tashkil qilgan. IX–X asrlardayoq Iroq va Eronda uning yirik vakillari vujudga keladi. Movarounnahrda esa tasavvuf ta'limoti X asrdan boshlab yoyila boshladi. Hozirgi O'zbekiston hududida tasavvufning rivojlanishida **Yusuf Hamadoniy** ta'limoti muhim rol o'ynaydi. Manbalarda qayd qilinishicha, Yusuf Hamadoniy 1043–1049-yilda Eronning Hamadon shahrida tug'iladi. Dastlabki bilimlarini Hamadon va Bag'dodda oladi. Imom G'azzoliy kabi buyuk allomalarni tarbiyalab voyaga yetkazgan shayx Abu Ali Farsadiyga shogirdlikka tushadi. Yusuf Hamadoniy umrining ko'p qismini O'rta Osiyoda o'tkazgan. U hunarmandchilik-kosibchilik bilan shug'ullangan. Shuning uchun ham bo'lsa kerak, uning ta'limoti asosan hunarmandlar orasida keng tarqalgan va ularning manfaatlarini ifodalagan. Yusuf Hamadoniy so'fiylik ilmi bo'yicha ko'plab shogirdlar tayyorladi. U Buxoroda maxsus xonaqo qurdirib,



o'sha yerda shogirdlarga dars bergan. Hamadoniy ta'limotida vatanparvarlik g'oyalari o'z ifodasini topgan. Uni pir deb bilgan shogirdlaridan 213 tasi mashhur shayxlar bo'lib yetishgan ekan. Hamadoniy ta'limotidan O'rta Osiyoda ikki tasavvuf maktabi – yassaviylik va naqshbandiylik kelib chiqadi.

O'rta Osiyo hududida birinchi vujudga kelgan so'fiylik oqimi yassaviylikdir. Bu oqimga 1105-yilda Yassa (Turkiston) shahrida tug'ilgan **Ahmad Yassaviy** asos solgan. Ahmad Yassaviy Buxoroda Yusuf Hamadoniydan ta'lim olgach, yana ona shahri Turkistonga qaytib keladi va shogirdlar tarbiyasi masalasi bilan shug'ullanadi. Madrasa va xonaqolar qurdiradi. Yassaviy ta'limotining asoslari turkiy tilda yozilgan «Devoni Hikmat» asarida bayon etilgan. U o'troq va ko'chmanchi turkiy xalqlar orasida so'fiylik ta'limotini targ'ib qilishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Yassaviy tariqatining boshqa tariqatlarda bo'lganidek, o'ziga xos qoidalari bor. Ular: 1. Murid hech kimsani o'z shayxidan afzal ko'rmasligi, unga mutlaqo taslimiyat izhor etmog'i lozim. 2. Murid shunchalik zukko va idrokli bo'lishi kerakki, to o'z shayxining barcha rumuz va ishoralarini mukammal anglay olsin. 3. Shayxining barcha ahvoli (so'zlari) va a'folari (ishlari)ga murid sodiq bo'lib, unga mutlaqo mute va mutaqid bo'lmog'i lozim. 4. Murid o'z murshidi (piri)ning barcha topshiriqlarini chaqqonlik bilan sidqidildan bajarib, uni hamisha rozi qilib yurmog'i lozim. 5. Murid o'z so'ziga sodiq, va'dasiga rosin bo'lib, o'z murshidi ko'nglida hech qanday shak-u shubha tug'dirmasligi zarur. 6. Murid o'z va'dasiga vafodor va so'zida ustuvor bo'lishi kerak. 7. Murid o'z ixtiyoridagi barcha mol-mulkni, butun bor-u yo'g'ini o'z shayxiga nisor (baxshida) etmoq uchun doimo tayyor bo'lmog'i kerak. 8. Murid o'z shayxining barcha sir-asroridan ogoh bo'lib, uning ifshosini (oshkor etishni) hech vaqt xayoliga keltirmasligi kerak. 9. Murid o'z shayxining barcha takliflarini nazarda tutmog'i, uning mushkulotini oson qilmog'i, pand-u nasihatlarini bajo keltirmog'i shart. 10. Murid Alloh visoli uchun o'z shayxi yo'lida butun moli va jonini nisor

etmoqqa tayyor turishi, uning do'stiga do'st, dushmaniga dushman bo'lib yashamog'i shart.

Ahmad Yassaviyning fikricha, shariatsiz tariqat, tariqatsiz ma'rifat, ma'rifatsiz haqiqat bo'la olmaydi. Ular doimo bir-birini to'ldiradi. Bu yo'l kamolot yo'li bo'lib, inson hayotining asl mohiyatini tashkil etadi. Ahmad Yassaviy ba'zi ma'lumotlarga ko'ra 100 yoshdan ziyod umr ko'rgan deyiladi. U O'rta Osiyo hududida mashhur zotga aylanib, «Sulton ul-orifin» degan sharaflı nomga ham musharraf bo'lgan.

Yusuf Hamadoniyning yana bir shogirdi **Abdulxoliq G'ijduvoni** bo'lgan. Yassaviy bilan G'ijduvoni shu darajada iqtidorli shogirdlardan bo'lishganki, keyinchalik ulardan biri «Yassaviya», ikkinchisi «Naqshbandiya» tariqatining asoschilari bo'lib yetishadilar. Xoja Abdulxoliqning tarjimai holi, tug'ilgan va vafot etgan sanalari aniq. U 1103-yilda G'ijduvonda tug'ilib, 1179-yilda o'z vatanida vafot etadi. Xoja Abdulxoliqqa dastlabki savodni o'z tug'ilgan yurtida Imom Sadridin beradi. Keyinchalik o'qishni Buxoroda davom ettirib, yuqorida qayd qilinganidek, Yusuf Hamadoniyga shogird tushadi. Tarixiy manbalarning xabar berishicha, ustoz va shogirdning bir-birlariga hurmati, mehr-oqibati shu darajada kuchli bo'lgan ediki, ular birgalikda Sharqning fan va madaniyat o'choqlaridan bo'lgan Samarqand, Buxoro, Marv, Isfahon, Balx singari shaharlarga borishgan va u yerlarda tasavvuf sohasidagi o'z bilimlarini yanada chuqurlashtirishgan.

Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni Sharq falsafa tarixida o'ziga xos o'rin egallaydi. Uning falsafiy dunyoqarashi tasavvufdagi Xojagon (Xojalar) halqasida shakllandi. Agar bizgacha Ahmad Yassaviyning «Hikmatlar»i meros bo'lib qolgan bo'lsa, Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniyan «Risolayi Sohibiya», «Risolayi Shayx buyuk Hazrati Abu Yusuf Hamadoniy» kabi asarlar meros bo'lib qolgan. Ammo bu asarlar hali yaxshi o'rganilmagan va keng xalq ommasi orasida targ'ib qilinmagan. Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni ustozidan ko'p narsalarni o'rganar ekan, o'zi ham ko'p hollarda mustaqil fikr yuritib,

ba'zi masalalarda o'z yo'lini shakllantirishga harakat qilgan. U zikr aytish usuli bo'yicha «Zikri Xufiya», «Zikri dil» amalini targ'ib qila boshlagan. Xoja Abdulxoliqning ustozlari Yusuf Hamadoniy o'sha vaqtda o'z sahobalari bilan «Aloniya» zikr tushish amalini bajargan. Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni yuqorida qayd qilinganidek, «Xojagon» (Naqshbandiya) tariqatining asosiy qonun-qoidalarini ishlab chiqqan buyuk allomadir.

**Najmiddin Kubro (1145–1221-yy.)** – tasavvuf ta'limotining O'rta Osiyodagi yirik vakillaridan biri. So'fiylikdagi Kubraviya oqimining asoschisidir. U 1145-yilda Urganchda (Gurganj) tug'ilib, Misr, Tabriz va Hamadonda ilm olgan. Keyin Urganchga qaytib, o'z ta'limotini rivojlantirib, shu yerda yangi so'fiylik oqimiga asos soladi. U «Favoix al-Jamol va fovotix al-Jalol» («Jamolining muattarligi va kamolotning egalari»), «As-usul al-ashara» («O'nta qonun va qoidalar») nomli qator risola va asarlar yozib, o'z ta'limotini takomillashtirishga erishdi. Kubroviya tariqatining asosini 10 tadan iborat qonun-qoidalar tashkil etadi. Ularga asosan «tavba», «zuhd» («moldunyodan voz kechish»), «tavakkal» («Alloh yo'lida»), «qanoat», «uzlat», «doimiy zikr», «tavajjuz», «sabr», «muroqaba» («kamolot topish») va «rizo» (Haqqa yetishish) kabi qoidalar kiradi. Kubroviya tariqati yassaviya tariqatidan farq qilib, tarkidunyochilik rad etiladi. Unda kamolot yo'lida olib boriladigan mashaqqatli mehnat jarayonida bu dunyo noz-ne'matlaridan bahramand bo'lish kerakligi ilgari suriladi. Bu ta'limotda vatanga, xalqqa bo'lgan muhabbat g'oyasi nihoyatda kuchli bo'lib, har qanday og'ir sharoitda ham xalq bilan birga bo'lish, vatan himoyasi uchun kurashish, uning mustaqilligini saqlash zarurligi da'vat qilinadi. O'z g'oyasiga sodiq Najmiddin Kubro Vatan himoyasi yo'lida shahid bo'ldi va jasorat namunasini o'z muridlariga ko'rsata oldi.

Shunday qilib, tasavvuf Movarounnahr aholisining ma'naviy hayoti bilan chambarchas bog'langan ta'limot bo'lib, o'rta asrning xalqparvar adib va mashoyixlari uni chuqur bilishga va u orqali om-maga ziyo va ma'rifat tarqatishga intilishgan.

#### 13.4. Me'morchilik va san'at

IX–XII asrlarda o'lkada markazlashgan yirik davlatlarning shakllanishi va ularning rivoji, davlatchilikning mustahkamlanishi, ma'naviy hayot, ilm-fanning rivojlanishigagina emas, balki moddiy madaniyatning ham rivojlanishiga asos bo'ldi. Samarqand, Buxoro, Urganch (Gurganj), Termiz, O'zgan va Marv kabi shaharlarda saroylar, masjid, madrasalar, minoralar, maqbaralar, tim va karvonsaroylar ko'plab qurila boshladi.

Bu davr O'rta Osiyo me'morchiligida ijtimoiy sharoitdan kelib chiqib, qurilish materiali sifatida paxsa, xom g'isht va pishiq g'isht hamda bog'lovchi element sifatida ganchdan foydalanish keng yo'lga qo'yilgan edi. Bu vaqtda sinch qadab quriladigan uy-joylar va umum ahamiyatga ega bo'lgan binolar, saroylar, masjidlar, madrasalar qurilishida yog'och ham muhim o'rin egallay edi.

X asrlarga kelib binokorlikda qurilish tartibi ham o'zgarib boshladi. Mahobatli qurilishda tomi gumbaz bilan yopilgan kub shaklidagi binolar muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Buxoroda qurilgan Ismoil Somoniy qabri ustiga pishiq g'isht bilan qurilgan go'zal maqbara fikrimizga misol bo'la oladi. Bu bino to'rtburchak shaklida bo'lib, tomi gumbaz qilib yopilgan. To'rtburchak nayzali ravotlar yordami bilan sakkiz qirrali shaklga o'tilgan. Shu bilan birga bu bino to'rt fasadlidir. Uning to'rttala tomoni ham bir xil, old tomonidek bezatilgan. Oddiy qilib aytganda, binoning oldi, yoni va erqa tomoni yo'q. Hamma tomoniga bir xilda bezak berilgan. Ismoil Somoniy maqbarasini qurish va bezatishda arablardagi o'sha davr uchun xos bo'lgan me'moriy xususiyatlardan ham unumli foydalanilgan. Masalan, binoning tashqi burchaklariga ustunlar o'rnatish. Bino ichidagi bunday shakldagi, shuningdek dumaloq manzarali maydonlar ham islomgacha bo'lgan yodgorliklarda uchraydi.

IX–X asr me'morchiligi uslublarini saqlanib qolganligini ko'plab masjidlar misolida ham kuzatish mumkin. Yozma manbalarda qayd qilinishicha, Somoniylar davridagi ko'pgina masjidlar o'z vaqtida



arablargacha bo'lgan ibodatxonalarning masjidga moslashtirish asosida qurilgan. Ular bir xonali bo'lib, masjidning tomlari ustunga tayanib turgan. Masjidlarning tomi odatda gumbaz shaklida bo'lgan. Masjidlarda, ayniqsa, mehroblari shaklli, yozuvli qilib qirqilgan g'ishtlar, o'yma ganchlar va hatto tilla suvlar bilan bezatilgan. X–XI va XII asrlarga oid maqbaralar va Arabota (Tim qishlog'i), Mir Sayid Bahrom maqbarasi (Karmana) Buxorodagi Mag'oki Attoron, Poykand masjidlarini qayd qilish mumkin. Bu yodgorliklar O'rta Osiyoda diniy me'morchilikning rivojlanish yo'llarini kuzatish imkoniyatini berdi.

Narshaxiyning yozishicha, amir Nasr ibn Ahmad Buxoro Registonida o'zi uchun katta saroy qurdirgan va uning qurilishiga katta mablag' sarflagan. Bu saroy nihoyatda go'zal bo'lgan. Saroyning oldida esa devonlar uchun binolar qurilgan. Amir va hokimlar saroyi Nishopur, Marv, Samarqand va boshqa shaharlarda ham bo'lgan. Bu saroylar o'zlarining kattaligi va go'zalligi bilan ajralib turgan. Ko'p hollarda bunday saroylar xushmanzara joylarda, bog'lar ichida bunyod etilgan.

Saroylarning go'zalligini Termiz shahridagi saroy misolida ham ko'rish mumkin. Bu saroy to'liq ochib o'rganilgan. Saroy shahar mudofaa devorlaridan tashqarida, bog'lar orasida joylashgan va 10 gek-targa yaqin maydonni ishg'ol etgan. Saroy mudofaa devorlari bilan o'ralgan. U o'zining mahobatligi, serhashamligi va bag'oyat go'zal, nafis bezaklari bilan odamni o'ziga jalb qiladi.

Somoniylar davriga oid shahar va qishloq aholisining uylari to'g'risida hozir arxeologiya ancha ma'lumotlarga ega. Bu borada qadimiy Samarqand-Afrosiyob, Xorashkent-Qanqa, Binkent, Termiz, Marv, Dehiston kabi o'nlab yodgorliklarda olib borilgan izlanishlarning natijasi diqqatga molikdir. Afrosiyobda bu davrga oid katta bir mahalla ochib o'rganilgan.

Somoniylar davrida me'morchilik o'z taraqqiyotida katta yutuqlarni qo'lga kiritgan. O'rta Osiyo me'morlari bu davrda shunday noyob binolar, san'at durdonalarini bunyod etganlarki, ular asrlar osha odamlarni hayratga solib kelmoqda.

Qoraxoniylar O'rta Osiyoni bosib olgandan so'ng bu yerdagi madaniy hayotda ham katta o'zgarishlar ro'y berdi. Shaharlar taraqqiy yetdi, hunarmandchilik, savdo-sotiq rivojlandi. Shaharlar rivojlanishi bilan shahar aholisi soni ham ko'payib bordi. Somoniylar davridayoq yirik shaharlar bo'lgan Samarqand, Buxoro, Termiz, Marv, Qoraxoniylar davrida yanada kengaydi. Bu shaharlar endi uch qismli – ark, shahriston, rabotdan iborat edi. Ularda yangidan yangi hashamatli imoratlar paydo bo'lib, bu imoratlar o'z tuzilishi va naqshlari bilan ajralib turardi.

Qoraxoniy hukmdori Shams-ul-Mulk Buxoro yaqinida saroy barpo etdi va bundan tashqari Hazara qishlog'i yaqinida Dingaron masjidini va Rabot-i-Malik nomi bilan mashhur bo'lgan karvonsaroy qurdiradi. Buxoro shahrida 1127-yilda Qoraxoniy Arslonxon tomonidan mashhur imorat – Minorayi Kalon barpo etildi. Vobkentda XII asrning oxirida Buxoro sadri Abdulaziz II tomonidan qurilgan minorani, Jarqo'rg'onda (Surxondaryo viloyati) Qoraxoniylar tomonidan 1108–1109-yillarda barpo etgan minorani, shuningdek Buxorodagi Namozgoh va Attoriy masjidini alohida ta'kidlab o'tish mumkin.

Qoraxoniylar davrida Samarqand shahrida ham ko'plab binolar barpo etildi. Afrosiyobdagi arxeologik qazilmalar shundan dalolat berib turibdi. Lekin mo'g'ullar istilosidan so'ng bu binolar vayronaga aylandi.

Termiz shahri XI–XII asrlarda ancha rivojlandi, yangi mustahkam mudofaa devori qurildi, bu yerda barpo etilgan Termiz hukmdorlari saroyi ayniqsa mashhurdir. Bu saroyi qazib ochgan arxeologlar turli idishlar bilan birga afsonaviy hayvonlar tasvirini ham topishdi. XI–XII asr boshlarida Xorazmda ham ko'pgina binolar qad ko'tardi, jumladan, Gurganjdagi Faxriddin Roziy va Shayx Sharif maqbarasini, ko'plab karvon saroylarni, Buronqal'a, Nayifqal'a va boshqalarni aytib o'tish mumkin.

Shu davrda me'morchilikdan tashqari bir necha suv inshootlarini qurish va unda yo'nilgan tosh, pishiq g'isht, suvga chidamli qurilish qorishmalaridan – bandlar, novlar, ko'priklar, sardobalar

va korizlar qurilgan. Bu inshootlar mamlakatda fan va ishlab chiqarishni g'oyatda rivojlanganligidan dalolat beradi. 1,5 mln m.kub suvni to'plash imkoniyatiga ega bo'lgan Xonbandi nomli suv omborining qurilishi fikrimizning dalili bo'la oladi. Manbalardan ma'lum bo'lishicha, bunday suv inshootlarini qurish uchun suvning vertikal va gorizontal bosim kuchlarini hisoblab chiqish va tog'da qurilganligi uchun tez-tez yerning qimirlab turish kuchlarini ham matematik yo'llar bilan hisoblab chiqish lozim bo'lgan va bu ish muvaffaqiyatli amalga oshirilgan.

Bu davr me'morchiligi bilan bir qatorda, unga bog'liq bo'lgan naqqoshlik va tasviriy san'at ham jadal sur'atlar bilan rivojlandi. Imoratlarni o'ymakor ustunlar va to'sinlar, devorlarni esa bo'yoqli, ganchkor naqshlar bilan bezash keng rasm bo'la boshladi. Sekin-asta naqqoshlik san'atida ham ilgari gidek. odamlar va hayvonlarni tasvirlangandan ko'ra murakkab geometrik va gulli naqshlarga o'tila boshlandi.

Naqqoshlik san'ati qadimgi Termizda juda rivojlangan edi. Bu borada Hakim Termiziy maqbarasi davridan saqlanib qolgan o'yma naqsh parcha ayniqsa qimmatlidir. Unda Samarqand usulini eslatuvchi sebarcha shaklidagi o'ziga xos uslublar mavjuddir. Bu davrda xattotlik san'ati kitoblarni ko'chirishdagina emas, balki binolarni bezashda ham keng qo'llanila boshlangan.

IX–XII asrlarda madaniy hayotning yana bir tarkibiy qismini tashkil etuvchi musiqa san'ati ham rivojlandi. Albatta, markazlashgan yirik davlatlarda iqtisod, xalqlarning turmush tarzi yaxshilana borgani sari ilm-fan, me'morchilik, tasviriy san'at bilan birga musiqa ham rivojlana boshlaydi. Albatta, har yerdagidek bu yerda ham bayramlar, to'ylar, xalq sayillari musiqa va qo'shiqlarsiz o'tmagan. Bu haqda Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit-turk» asarida keltirilgan ma'lumotlar diqqatga sazovordir. Bu davrda quyidagi musiqa asboblari bo'lgan: ud, tanbur, qubuz, rubob, nay, surnay, karnay, qo'shnay kabi g'oyat xilma-xil torli, zaburli va puflab chalinadigan cholg'u asboblardan keng foydalanilgan. Bu davrda hatto yangi

sozlar ixtiro etilgan. Masalan, Rudakiyning zamondoshi Abu Hafz Sug'diy nayga monan shohrud nomli torli asbob yaratgan edi. Manbalarda Abu Bakr Rubobiy, Bunasr, Buamir, changchi Lo'kariy kabi sozanda hamda hofizlarning nomlari saqlanib qolgan. Rudakiy rud va tanbur kabi sozlarni yaxshigina chaladigan sozanda va xushovoz hofiz bo'lgan. Uning mashhur «Bo'yi jo'yi Mo'liyon» she'ri ushshoq kuyida aytilib, nihoyatda shuhrat qozongan. Ana shu davr kuylari, qo'shiqlari xalqimizning klassik quyi «Shashmaqom» va boshqalar uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Bu davrda she'riyatning g'oyatda taraqqiy etganligini qayd qilingan edi. She'riyat doimo musiqa bilan, o'z navbatida musiqa musiqashunoslik fani bilan uzviy ravishda bog'liq holda rivojlanadi. O'sha davrning buyuk allomalaridan Al-Forobiy, Abu Ali ibn Sinolar musiqa va musiqashunoslikka katta e'tibor berishdi va o'zlarining nodir asarlarini yaratishdi.

#### *Tayanch so'zlar*

Movarounnahr, Xuroson, Xorazm, Buxoro, Samarqand, falakiyot, handasa, akademiya, madrasa, Renessans, Uyg'onish, ilm-fan, islom dini, adabiyot, she'riyat, me'morchilik, san'at, hadis, muhad-dis, «Bayt ul-hikma», Xorazm Ma'mun akademiyasi, alloma, olim, madaniyat, fiqh, tavsir, sharh, shariat, mazhab, tasnif, ulamo, zot, nabiy, lug'at, falsafa, madaniyat, tibbiyot, tarix.

#### *Savol va topshiriqlar*

1. IX–XII asrlar madaniy yuksalishning asosiy omillari qanday bo'lgan?
2. Ummaviylar va Abbosiylar xalifaligining madaniyat borasidagi siyosatidagi farqlar nimada?
3. «Bayt ul-hikma» haqida qanday ma'lumotlarga egasiz?
4. Xorazm Ma'mun akademiyasi qachon va kim tomondan tashkil etilgan?



5. Xorazm Ma'mun akademiyasi faoliyatiga bag'ishlangan referat tayyorlang.
6. «Shayx ur-raisi» unvoniga sazovor qaysi olimlarni bilasiz?
7. Movarounnahr hadisshunoslik maktabi hamda so'fiylik ta'limoti haqida gapirib bering.
8. Istiqlol yillarida buyuk ajdodlarimiz ilmiy merosini o'rganishda qanday ishlar amalga oshirildi?
9. Mavzuga oid atamalarning qisqa izohli lug'atini tuzing.

### *13-mavzu bo'yicha foydalanilgan adabiyotlar*

1. *Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy*. Hadislar. 1–4-jild. – Toshkent, 1997.
2. *Azizxo'jayev A.* Davlatchilik va madaniyat. – Toshkent: «Sharq», 1997.
3. *Asqarov A.A.* O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. – Toshkent: Universitet, 2007.
4. *Bahodirov R.* Abu Abdulloh al-Xorazmiy va ilmlar tasnifi tarixidan. – Toshkent, 1995.
5. *Burhonuddin al-Marg'ironiy*. Hidoya. – Toshkent, 2000.
6. Buyuk siymolar, allomalar. – Toshkent: «Meros» (uch kitob), 1996, 1998.
7. *Jaloliddin Rumiy*. Ma'naviy masnaviy / Asqar Mahkam tarjimasi. – Toshkent, 1999.
8. *Jaloliddin Rumiy*. Ichindagi ichingdadir / U. Abdurahob tarjimasi. – Toshkent: «Yozuvchi» 1997.
9. *Komilov N.* Tafakkur karvonlari. – Toshkent, 1999.
10. Ma'naviyat yulduzlari. – Toshkent: Abdulla Qodiriy xalq merosi nashriyoti, 2001.
11. Moziydan taralgan ziyo. Imom al-Buxoriy. – Toshkent, 1998.
12. *Nasafiy*. Xoja Ahmad Yassaviy. – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 1993.
13. *Sulaymonova F.* Sharq va G'arb. – Toshkent, 1997.
14. *Uvatov U.* Donolardan saboqlar. – Toshkent: Abdulla Qodiriy xalq merosi nashriyoti, 1994.

15. *Usmon Orif*. Bahouddin Naqshband va uning ta'limoti haqida. – Toshkent: Universitet, 1993.

16. *Xayrullayev M.* Uyg'onish davri va Sharq mutafakkiri. – Toshkent, 1971.

17. *Xayrullayev M.* O'rta Osiyoda ilk uyg'onish davri madaniyati. – Toshkent: «Fan», 1994.

18. *Qodirov A.* O'rta Osiyoda meditsinaning paydo bo'lishi. – Toshkent, 1990.

19. *Hoji Ismatulloh Abdulloh*. Markaziy Osiyoda islom madaniyati. – Toshkent: «Sharq», 2005.

20. History of civilizations of Central Asia. UNESCO publishing. – Paris 1996.

---

**14-MAVZU**  
**O'RTA OSIYOGA MO'G'ULLAR BOSQINI VA**  
**UNGA QARSHI KURASH**

**Reja:**

- 14.1. Mo'g'ul davlatining tashkil topishi. Chingizxon va Muhammad Xorazmshoh munosabatlari.
- 14.2. Movarounnahrda mo'g'ul bosqinining amalga oshirilishi.
- 14.3. Jaloliddin Manguberdi – Vatan qahramoni.
- 14.4. Mo'g'ullar istilosidan keyingi siyosiy vaziyat. Chig'atoy ulusi davridagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar.
- 14.5. XIII asrning ikkinchi yarmi va XIV asrning birinchi yarmidagi madaniy hayot.

**14.1. Mo'g'ul davlatining tashkil topishi. Chingizxon va Muhammad Xorazmshohning munosabatlari**

Movarounnahr va Xurosonga nisbatan amalga oshirilgan mo'g'ullar bosqini haqida bir qator tarixiy manbalar mavjud. Ular orasida Ibn al-Asirning «Al-komil fit-tarix» («Mufassal tarixi»), Shahobiddin Muhammad an-Nasaviyning «Siyrat as-sulton Jaloliddin Mankburni» («Sulton Jaloliddin Manguberding hayot tafsiloti»), Minhajiddin Juzjoniyning «Taboqati Nosiriy» («Nosirga atalgan jadvallar»), Atomalik Juvayniyning «Tarixiy jahongushoy» («Jahonni fotihi tarixi»), Fayzulloh Rashididdin Hamadoniyning «Jome at-tavorix» («Solnomalarning jamlanishi»), Hamidulloh Qazviniyning «Tarixi go'zida» («Saylanma tarix»), Abul Fidoning «Muxtasar tarix al-bashar» («Insoniyat muxtasar tarixi»), Ibn Kasirning «Kitob al-bidoya va nihoya» («Boshlanish va tugash haqida kitob»), al-Hamaviyning «At-tarix al-Mansuriy» («Mansur solnomasi») asarlari ayniqsa katta aha-

miyat kasb etadi. Shuningdek, Ibn Xaldun, Muiniddin Natanziy, al-Makriziy, Ibn Vosil, Badriddin Mahmud al-Aynin, Mirxond, Mirzo Ulug'bek, Abulg'azi Bahodirxon asarlarida ham mo'g'ul bosqinining ma'lum jihatlari yoritilgan. Arman va gruzin tarixiy manbalari, Xitoy solnomalaridan «Yuan-shi», «Shen u sin chjen lu», «Tan-Shu» va boshqalarda mavzuga oid tegishli ma'lumotlar mavjudligini ham ta'kidlash joiz.

XX–XXI asrlar tarixshunosligida mo'g'ullar istilosi bilan bog'liq voqelik va jarayonlar g'arbda A.K. D'osson, M. Persheron, R. Krausset, A. Makkenzi, D. Martin, J. Dyupon, X. Lamba, J. Degin, L. Gambis, P. Rachnevskiy, L. Kayen, J.A. Boyl, rus va sovet tarixchilaridan V.V. Bartold, L.L. Viktorova, B.Ya. Vladimirev, I.P. Petrushevskiy, N.S. Munkuyev, Z.M. Bunyodov, E.I. Kichanov, M. Kutlukov, A. Galstyan, D. Timoxin, M. Xrapachevskiy, T. Sultonov, S. Akimbekov va boshqalar tomonidan chop etilgan turli xarakterdagi adabiyotlarda o'z aksini topgan. Shu bilan bir vaqtda pokistonlik olim X. Xon, Iroq olimi al-Ubid, turkiyalik I. Kafes o'g'li, eronlik olimlar D. Siyoqiy, A.R. Hamadoni, I. Hakimiy, iordaniyalik E.A. Latif, hind olimi R. Mahapandita va boshqalar asarlarida mo'g'ul istilosining Sharqdagi holati, Jaloliddin Manguberding ozodlik kurashi ma'lum darajada aks etgan.

Mo'g'ullar haqida ko'plab ma'lumotlar mavjud bo'lib, ular menu (menva) nomi ostida Xitoyning Tan sulolasi (618–908) solnomasida ilk bora tilga olinadi. Ular Oltoy va Janubiy Sibirdagi turkiy qabilalarga yaqin va qondosh bo'lganliklari ehtimoldan xoli emas. Bu xususda olimlar turli fikrlarni bildirishadi. Mo'g'ul etnogenezi ham murakkab masala bo'lib, ular elat sifatida XIII asrda yuzaga kelgan. X–XI asrlarda esa asli Amur daryosi bo'ylarida yashagan 16 ta urug'-aymoqlarga bo'lingan tatan (tatar)larning tarkibiy qismi sifatida ularning bir urug'idan alohida, moxe (mo'g'ul) qabilasi vujudga kelgan, deb hisoblanadi. Bu qabila tezda kuchayib, 1135–39-yillari Xitoyga qator yurishlarni amalga oshirdi. Hatto Xitoy imperatorlari 1147-yili mo'g'ullar bilan ittifoq tuzishga ham majbur bo'lishadi.



XII asr o'rtalariga kelib Baykal ko'li atrofi, hozirgi Mo'g'uliston hududlarida yashovchi turkiy va tungus-manjur qabilalarining ko'pchiligi mo'g'ullar rahnamosi Yesugay bahodir ta'siriga o'ta boshlashadi. Lekin unga qarshi turgan tatar, markit qabilalarini bo'ysundirish osonlik bilan kechmaydi. Yesugayni tatarlar ziyofat paytida xiyonatkorona o'ldirishgandan so'ng, uning o'g'li bo'lgan Temuchinning ta'siri mo'g'ullar ichida ko'tarila boshlaydi. Temuchin (1155–1227) (mo'g'ulcha – temir ustasi) – kuchli va tadbirkor, ayyor sarkarda bo'lib, parokanda qabilalarni turli yo'llar bilan o'z qo'li ostida mustahkam birlashtirishga muvaffaq bo'lgan shaxs edi<sup>1</sup>. 1186-yilda u boshqa bir mo'g'ul sarkardasi Jamuxa yordamida o'zining eski raqibi markitlarni bo'ysundirdi. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, bu g'alabadan so'ng mo'g'ul no'yon (harbiy boshliqlar)lari va navkarlari uni olqishlab, mo'g'ul hukmdori – xon deb e'lon qilishgan. XIII asr boshida esa yana bir boshqa kuchli qabila – tatarlar ustidan ham g'alaba qozoniladi. Temuchin 1203-yili kerayitlarning xoni O'ngxonni mag'lub etib, qo'ng'iroq va naymanlar ustidan o'z hukmronligini o'rnatdi.

Mo'g'ullarni birlashtirish chog'ida Temuchin kuchli harbiy tuzilmani tashkil etdi. Unga ko'ra mo'g'ul qabilalari mingliklarga bo'lingan bo'lib, u butun bir boshli harbiy okrug vazifasiga to'g'ri kelar edi. Okruglar tepasiga sadoqatli kishilar qo'yilar edi. Temuchin juda intizomli, sadoqatli va o'ta jangovar harbiy tuzilmalarni yaratishga muvaffaq bo'ldi. Ularni boshqarishni esa avvalo, o'z o'g'illari Jo'chi, Chig'atoy, O'gedey, Tuli, nufuzli xotini Burte-fujen, safdoshlari Subutoy, Jebelarga topshirdi. O'z hokimiyatini to'liq mustahkamlab olgach, Temuchin 1206-yili mo'g'ullarning umum qurultoyi (mo'g'ulcha – *xalq xohishi*)ni chaqiradi. Qurultoyda u oliy mo'g'ul hukmdori – xon deb tantanali ravishda e'lon qilinib, unga bosh shaman Teb-Tangriy «Chingizxon» degan faxriy nom beradi. «Chingiz»

<sup>1</sup> Temuchin (Chingizxon) tavalludi sanasi yuzasidan hozirda turli qarashlar ham mavjud. Shartli ravishda 1155-yil qabul qilingan.

so'zi tarixchi Rashiddinning yozishicha, «kuchli», «buyuk» degan ma'noni anglatadi.

Qurultoyda odat bo'yicha Chingizxon o'z tug'i – bayrog'ini ko'tardi, 10 ta lavozim joriy etib, uni o'z yaqinlariga taqdim etadi. Sahrodagi Qoraqurum shahrini markaziy poytaxt deb belgiladi. O'z qo'li ostidagi mansablarni esa 3 toifaga bo'lib, ularga aniq vazifalarni bo'lib berdi. Ularga Boorgu, Muxali, Nayaa ma'sul bo'lishdi. U o'z qo'shinlarini ham isloh etdi. Butun Mo'g'uliston 95 ta harbiy-ma'muriy birlikka bo'lindi. Yangi mo'g'ul davlati – Eke Mo'ng'ol ulus (buyuk mo'g'ul davlati) deb atala boshlandi.

Qurultoydan avvalroq 1203-yildayoq hali bir tizimga ega bo'lmagan qonunlar to'plami vujudga kelib, u o'z ichiga yorliqlar (buyruqlar), yasoq (qonunlar), bilik (nasihat)larni olgan edi. «Yasoq» bizgacha to'liq yetib kelmagan bo'lib, u turli ko'rinishlarda, manbalarda qayd etiladi. «Yasoq» o'z ichiga quyidagilarni kiritgan: xalqaro, shaxsiy, savdo va sud huquqlari. Chingizxon tayin etgan davlat bosh hakami Shiki Xutuxuga «yasoq»qa qarab ish tutishni qat'iy belgilab bergan edi. «Yasoq» qonunlari mo'g'ullarning qadimiy urf-odatlarini, an'analari, mavjud siyosiy tuzum mohiyatidan kelib chiqqan holda keskin va juda qattiq ohangda, patriarxal harbiy tuzumni o'zida aks ettirgan ravishda tuzilgan edi. «Yasoq» qonunlarining asosiy yo'nalishlari quyidagicha bo'lgan:

1. Hukmdor (xon) «Yasoq»qa qat'iy rioya etishi xususida qasamyod qilishi va unga amal qilishi, amal qilmagudek bo'lsa xonni umrbod qamash mumkin bo'ladi;

2. Chingizxon mo'g'ullar orasida diniy adovat kelib chiqmasligi uchun barchaga to'la diniy erkinlik beradi. Ruhoniylar soliqdan ozod etiladi;

3. Ayollar naslni davom ettiruvchi bo'lganliklari uchun ham urush vaqtida ularning gunohlari kechirilishi lozim;

4. Jazolash darajasi sifatida o'lim jazosini eng ko'p miqdorda qo'llash;

5. Bosib olinayotgan mamlakatlar xalqlariga mutlaqo rahmshafqat qilmaslik.

Chingizxon shaxsiy gvardiyasi sonini (keshiktan) 9000 kishigacha yetkazdi. Uning a'zolari har 3 kunda navbatchilik qilar, ularning ishini shaxsan xonning o'zi nazorat qilardi. 1204-yili uyg'ur alifbosi mo'g'ul yozuvi uchun qabul qilindi. Shuningdek, mustaqil davlat belgisi bo'lgan muhr (tamg'a) hamda taqvim qabul qilindi. Chingizxon 1209-yilda tang'utlarni, 1211-yilda uyg'urlarni, 1215-yilda esa shimoliy Xitoyni poytaxt Chjundu (Pekin) bilan birgalikda o'ziga tobe qilib oldi. Xitoydagi Sin sulolasi tugatilib, katta miqdorda o'lja olingdi. Xitoy yurishi vaqtida yuksak harbiy mahorat va urushning yangi usullari qo'llanildi. Madaniy jihatdan ancha qoloq bo'lgan mo'g'ullar ko'p jihatdan uyg'ur va musulmon ahli tajribasidan keng foydalanishdi. Sharqiy uyg'urlarning boshlig'i Ediqut (Saodatbek) Chingizxonning do'sti va maslahatchisi, sobiq naymanlar xoni Tayanxonning muhrdori uyg'ur Tatatunga esa mo'g'ullarni savodga o'rgatar edi. Musulmon savdogarlarining zehni, tadbirkorligiga Chingizxon doimo yuqori baho berib, ulardan ko'pincha ayg'oqchilar sifatida ham foydalanar edi.

Ta'kidlash joizki, Xitoyni zabt etgan Chingizxon ushbu istilo bilan kifoyalanib qolmasligi aniq bo'lgan. Movarounnahrning badavlat savdo ahli, o'lkaning behisob boyliklari, yuqori madaniyatli ajdodlarimiz yaratgan ajoyib me'moriy binolar, qolaversa, qadimiy yurtimizning fayz-u tarovati mo'g'ullarni anchadan beri o'ziga jalb qilayotganligi ma'lum edi. Musulmon mamlakatlarining behisob boyliklari to'g'risidagi afsona-rivoyatlarni eshitib, tekin o'lja va boyish istagida bo'lgan mo'g'ul harbiy zodagonlari Chingizxon boshchiligida zimdan harbiy yurish qilish istagida turishardi. Chingizxon davlati g'arbda Qipchoq cho'llari, qoraxitoylarning ko'chmanchi G'arbiy Lyao (Si Lyao) va Xorazmshoh-Anushtaginiylar davlati bilan chegaradosh bo'lib qolgan edi. Shubhasiz, uning g'arbdagi eng yirik va kuchli qo'shnisi hamda raqibi buyuk Xorazmshoh-Anushtaginiylar davlati (1097–1231) hisoblanar edi.

1215-yili Dashti Qipchoq yurishida xorazmshoh qo'shinlari mo'g'ullarning Jo'chi boshchiligidagi harbiy qo'shiniga duch keladi.

Ushbu to'qnashuv To'rg'oy dashtida bo'lib o'tgan. Hozirgi adabiyotlarda uning sanasi 1217-yil deb ham ta'kidlanmoqda. Mo'g'ullar bu yerlarda Chingizxonning buyrug'iga ko'ra markit qabilalariga zarba berish uchun yurish qilishgandi. O'zaro to'qnashuvdan so'ng mo'g'ullar Chingizxondan Xorazmshohlar davlatiga nisbatan yurish qilish xususida hech qanday ko'rsatma olmaganliklari uchun orqaga chekindilar. Juzjoniyning yozishicha, sultonni har vaqt undan Sharqda joylashgan davlatlar qiziqtirar va uning Xitoy tomoniga harbiy yurish qilish niyati ham bo'lganligi aniq edi. Lekin Xitoy Chingizxon tomonidan o'sha yili olinganligini eshitgan sulton bu holni tasdiqlatish va qolaversa, Chingizxon davlati xususida aniq ma'lumot olib kelish maqsadida sayidlar avlodidan bo'lgan taniqli zot Bahovuddin Roziyni o'z elchisi sifatida xon huzuriga jo'natadi.

Bahovuddin Roziy boshchiligidagi elchilar 1215-yil iyunida Pekinga kirib kelishadi. Chingizxon elchilarni katta hurmat va ehtirom ila qabul qildi. Ular qaytib ketishlari chog'i sultonga atab ko'plab hadya va tuhfalarni taqdim yetdi. Bu xususda Chingizxonning elchiga bergan nomasi ahamiyatlidir. Unda: «Xorazmshohga ayt, men – Sharqning hokimimen, sen – G'arbning hokimisen! Ikkimiz o'rtamizda do'stlik va sulh haqida qat'iy bitim bo'lsin. Ikki tarafning savdogarlari va karvonlari omon borib, omon qaytsin va mening yerlarimdagi qimmatbaho buyumlar va oddiy matolarni ular sening tarafinga olib kelsinlar», – deya ta'kidlagan edi. Ta'kidlash joizki, bu bilan Chingizxon hali g'arbga hujum qilmoqchi emasligini, bu davrda savdo-sotiq munosabatlariga katta ahamiyat berishini ko'rish mumkin. Sultonga taqdim etilgan sovg'alar orasida Xitoy tog'laridan keltirilgan tuya o'rkachidek sof oltin bo'lib, uni alohida aravaga qo'shib jo'natishgan. Chingizxon Bahovuddin Roziy bilan birgalikda o'zining 500 tuyadan iborat karvonini ham jo'natdi. Ushbu karvon va undagi elchilar sulton tomonidan 1218-yil bahorida Buxoroda kutib olindi. Xitoy yerlariga endilikda yurish qilish mumkin emasligini anglagan xorazmshoh o'z diqqat-e'tiborini yana janub hamda g'arb yerlariga qaratadi.



Xorazmshohlar bilan Bagʻdod xalifaligi munosabatlari oʻrtasidagi oʻzaro keskinlik xorazmshoh Takish davridayoq yuzaga kelgan edi. 1215-yili Fors Iroqi hududini egallagan xorazmshoh Muhammad xalifa an-Nosirdan (1180–1225) bir vaqtlar saljuqiy sultonlari singari uning nomini ham oliy hukmdor sifatida xutbaga qoʻshib oʻqishni talab qilgan edi. Bu borada sulton tomonidan yuborilgan elchilar natijasiz orqaga qaytdilar. Undan tashqari, Gʻaznadan topilgan, sobiq Gʻuriylar sultoni Gʻiyosiddinga xalifa tomonidan xorazmshohlarga qarshi yurishga chorlovchi maktublarning qoʻlga tushishi, xalifaning ismoiliylar va moʻgʻullar bilan oʻzaro aloqalari – bularning barchasi oʻzaro munosabatlarni yanada chigallashuvga sabab boʻldi.

1217-yili Bagʻdod xalifasi an-Nosir (1180–1225) sultonning Bagʻdodni unga topshirishi va uning nomini xutbaga qoʻshib oʻqishini qatʼiy rad etgach, xorazmshoh katta kishilik qoʻshin bilan Abbosiylar xalifaligiga yurishni boshlab yuboradi. Xorazmshohlar tangalari va xutbalardan xalifa nomi chiqarib tashlandi. Sulton farmoniga koʻra termizlik shayx Aʼlamulk at-Termiziy xalifa etib tayinlandi. Sultonning yuqoridagi xatti-harakatlari koʻpchilik ulamolar tomonidan maʼqullanmaydi. Ular sultonga xalifa ustiga harbiy yurish qilish, islom dunyosida xorazmshohga nisbatan salbiy munosabat keltirib chiqarishini tushuntirmoqchi boʻlishadi. Ulamolar noroziligini hisobga olmagan sulton ularning koʻpchiligini jazoga tortadi. Xususan, mashhur diniy arbob Majdiddin Bagʻdodiy qatl etiladi.

Abbosiylar xalifaligiga muvaffaqiyatsiz yurishdan soʻng, 1218-yili Muhammad Xorazmshoh oʻzining yangi poytaxti deb eʼlon qilgan Samarqand shahriga kirib keldi va xutba, tangalardan esa xalifa nomini chiqarib tashlash xususida farmon berdi. Ibn al-Asirning maʼlumotiga koʻra 1218-yil fevralida sulton Nishopurda xalifani vafot etgan deb eʼlon qilib, uning nomini xutbadan chiqarib tashlagan edi. Oʻsha yili Muhammad Xorazmshoh Chingizxon huzuriga yana oʻz elchilarini yuboradi. Bunga javoban Chingizxon kechiktirmasdan qimmatbaho sovgʻalar va mollar ortilgan katta karvon bilan oʻz elchilarini xorazmshohlar sultoni huzuriga yuboradi. Elchilarga

xorazmlik taniqli savdogar Mahmud Yalavoch (Mahmud al-Aromiy) rahbar etib tayinlanib, uning safdoshlari, buxorolik savdogar Ali Xoʻja va oʻrorlik Yusuf Qanqalar elchilik rutbasiga ega edilar.

Sulton Muhammad bu elchilarni 1218-yil bahorida Buxoro shahrida qabul qildi. Elchilar Chingizxon sultonning zafarli yurishlaridan xabardor ekanligi, uni qudratli podshoh sifatida tan olib, «oʻzining eng ardoqli oʻgʻillari qatorida» koʻrishini bayon etishadi. Chingizxonning sultonga yuborgan nomasida jumladan shunday deyilgan edi: «Sening ishing qanday ulkanligi menga yashirin emas, sen oʻz hukmingda nimaga erishganing ham va sening farmonlaring yerdagi koʻp mamlakatlarda menga maʼlum. Men bildimki, sening mulklaring keng bajo keltiriladi. Sen bilan totuvlikni saqlashni men oʻzimning vazifalarimdan biri, deb bilaman. Sen men uchun eng aziz oʻgʻlimdeksan. Senga maxfiy emaski, men Xitoyni va qoʻshni yurtlarni egalladim, ularning qabilalari menga boʻysundilar».

Elchilar nomasi, shubhasiz, sultonga maʼqul boʻlmadi. Ayniqsa, moʻgʻul davlatining xoni, uni oʻz «oʻgʻli» qatorida koʻrishi, bu Sharq ustamonligida qaram qilish yoki oʻz homiyligiga olish degan maʼnoni anglatishini sulton yaxshi tushunar edi. Elchilarga sulton javobi maʼlum emas, lekin oʻsha tunda u oʻz yoniga Mahmud Yalavochni chorlab, bor haqiqatni bayon etishni, uning xizmatiga oʻtib, maxfiy josus boʻlib xizmat qilishni buyuradi. Oʻz hayotidan xavfsiragan Mahmud Yalavoch, muarrix an-Nasaviyning yozishicha, «sulton eshitishni xohlagan» maʼlumotni aytib, sulton taklifiga koʻnadi. Xorazmshoh unga qimmatbaho javohir sovgʻa qilib, Chingizxon bilan shartnoma tuzishga rozi ekanligini bildirdi.

Chingizxon Mahmud Yalavoch guruhi xizmatidan, toʻplangan maʼlumotlardan mamnun boʻladi. Zero, Yalavoch soxta «josus» rolini oʻynab, bor haqiqatni Chingizxonga yetkazgan edi. Oʻsha yiliyoy, yaʼni 1218-yili, Chingizxon sulton Muhammadga oʻz minnatdorchiligini izhor etish va oʻzaro shartnoma tuzish maqsadida katta savdo va elchilar karvonini joʻnatadi. Ulkan savdo karvoni 450 ta musulmon savdogari va 500 ta tuyaga ortilgan qimmatbaho mollar-



dan iborat edi. Har bir savdogarlarga tegishli mollar olib kelishlari uchun bitta oltin va bitta kumush bolishdan (75 dinor) mablag' berildi. O'z davlati qudratini namoyon etish niyatida Chingizxon Tang'ut va boshqa davlatlardan o'lja olingan, janubiy Sibir va Xitoydan talab keltirilgan ajoyib, sara mollar bilan xurjunlarni to'ldirgan edi. Karvon bilan shuningdek Chingizxon elchisi, mo'g'ullardan bo'lgan Uxuna ham bo'lib, u xorazmshohga Chingizxon nomasini olib kelayotgan edi. Noma jahon fotihligiga da'vo qilayotgan Chingizxon nomidan buyruqnamo ohangda yozilgan bo'lib, unda jumladan, «... biz bundan buyon davlatlar o'rtasida tinchlik o'rnatilishini buyuramiz...» deyilgan edi. Noma Chingizxon ochiq-oydin jahon egasi bo'lishga ishtiyoqi baland ekanligidan dalolat berardi.

Shu o'rinda bir voqelik ham e'tiborga molikdir. 1218-yili mo'g'ullar va xorazmshohlar qo'shini o'rtasida bo'lgan jangda Jaloliddin Manguberdining jasorati bois Jo'chi qo'shini mag'lubiyatga uchraydi. Bu xususda Jo'chi otasi Chingizxonga jang tafsilotlari, xususan Xorazm askarlari va Jaloliddin haqida so'zlab bergan edi. Mazkur jangga munosabat Chingizxon tomonidan javobsiz qoldirildi. Har holda Chingizxon uzoqni mo'ljallagan siyosiy strategiyasida bu to'qnashuvni sinov deb qabul qilgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

Yuborilgan karvonda asli movarounnahrlik bo'lgan Umarxo'ja O'troriy, hammol Merokiy, Faxruddin Dizaqiy Buxoriy, Aminuddin Haraviy singari savdogarlar karvon sarbonlari hamda o'rda elchilari bor edi. Karvon Urganch (Gurganj) tomon yo'l olgandi. Lekin xorazmshohlarning chegara viloyati O'tror yerlariga kirib kelishi bilanoq bu karvon ushlab qolindi. O'tror hokimi Inalxon (Inolchiq, uning forsiy taxallusi G'oyirxon bo'lgan) Turkon xotunning yaqin qarindoshi, xorazmshohga yaqin shaxs bo'lgan. Inalxon, Ibn al-Asir, an-Nasaviylarning yozishlaricha, xorazmshoh ijozati bilan bu karvonlarni talashga buyruq berib, karvon a'zolarini josuslikda ayblaydi va ularni qirib tashlaydi. Talab olingan mollar Samarqand va Buxoro savdogarlari o'rtasida taqsimlanib, xorazmshoh ushbu savdo mollari pulini o'ziga oladi. Ba'zi tarixiy manbalarda esa Inalxon garchi

karvonni to'xtatish buyrug'ini olgan bo'lsa ham, o'z holicha uni qirib tashlagan deb ham aytiladi. Nima bo'lganda ham xorazmshohlar qo'pol siyosiy xatoga yo'l qo'yib, elchilarni qirg'inbarot qildirishadi.

O'tror fojeasidan so'ng Chingizxon ibn Kafrojiy Bug'roni ikki mulozim bilan xorazmshoh huzuriga elchi etib jo'natdi. As-Subqiyning yozishicha, Chingizxon O'tror fojeasining aybdori Inalxonni tutib mo'g'ullar qo'liga topshirishini, elchilar o'limining sabablarini keskin tarzda so'raydi. Mo'g'ullar bilan munosabatlarni keskinlashtirmaslik uchun «O'tror hokimini Chingizxon qo'liga topshirish kerak», degan taklifni ko'targan shahzoda Jaloliddinning fikrini sulton rad etadi. Sulton buyrug'i bilan elchi bo'lgan ibn Kafrojiy Bug'ro o'ldirilib, ikki mulozimning soqol-mo'yovlari sharmandali tarzda qirib tashlanadi. Xorazmshoh mo'g'ullar bilan ertami-kechmi, urush bo'lishini yaxshi anglagan, qolaversa, mamlakatda mo'g'ullar bostirib kirishi xususida turli mish-mishlar ham avj olgan edi. Nima bo'lganda sulton ham Chingizxonga shu yo'sinda dag'dag'ali javob berishga qaror qildi. Tarixchi Rashiddin o'zining «Jome at-tavorix» asarida yozishicha, xorazmshohning ushbu dag'dag'asi va qilmishi «Chingizxonning yuragiga shunday ta'sir qildiki, unda ortiq chidam va toqat qolmadi. Nafrat o'ti bilan yonib, u bir o'zi tepalikka ko'tarildi, bo'yniga belbog'ini tashlab, bosh yalang yerga yotib ibodat qildi. Uch kungacha yig'lab xudoga nola qilib yordam so'radi...»

Chingizxon islom olamining dushmani bo'lib qolmaslik uchun shunday yo'l tutdiki, urush boshlanishiga rasman xorazmshoh sababchi bo'lib qoldi, o'zini esa «olijanob xaloskor» deb hisobladi. Aslida esa, urush bo'lishini u har jihatdan xohlar, barcha harakatlarini urush boshlashi uchun safarbar qilgan edi. Albatta xorazmshoh ham katta xatoga yo'l qo'ygan edi, lekin urushning sababchisi va boshlovchisi faqat sulton Muhammad xorazmshoh bo'lmaganligini, urush boshlanishiga har ikkala tomon ham sababchi bo'lganligini tarixiy voqeliklar tahlili orqali bilib olish mumkin.

Mo'g'ullar xorazmshoh ustiga harbiy yurish qilishdan avval, xonning buyrug'iga ko'ra harbiy sarkarda Jebe Yettisuv va Koshg'ar



ustiga 1218-yili harbiy yurishlar qilib, Kuchluk davlatini tor-mor keltirdi. Musulmonlarni doimo ta'qib etib kelgan Kuchlukka qarshi bosh ko'targan Sharqiy Turkiston aholisi Jebeni naymanlar zulmidan ozod etuvchi «xaloskor» deb qabul qildi. Zero, Jebe musulmonlar uchun din erkinligi kafolatlanishini e'lon qilib, mo'g'ullar hukmronligini mustahkamlagan edi. Shunday qilib, mo'g'ullar O'rta Osiyoga harbiy yurish qilishdan avval zaxira kuchlarini mustahkamlab, Talas vodiysigacha bo'lgan yerlarni o'z davlatlari tarkibiga qo'shib oldilar. Shu tariqa Chingizxon davlati bevosita xorazmshohlar bilan chegara-dosh bo'lib qoldi.

XIII asr boshlaridagi Xorazmshoh-Anushtaginiylar davlati yuqorida ta'kidlanganidek, o'z hududining kengligi, saltanat egasining nufuzi, xalqning salohiyati, madaniyati, xo'jalik hayotining yuqori saviyada bo'lganligi bilan musulmon olamida buyuk davlat sanalar edi. O'zining ko'proq qang'li-qipchoq hamda turkmanlardan iborat muntazam qo'shiniga ega edi. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra umumiy qo'shinning soni 400.000 ga qadar yetib, bu mo'g'ullar qo'shiniga nisbatan ikki baravar ortiq bo'lgan. Davlat musulmon olamida qabul qilingan qonun chiqaruvchi-dargoh hamda ijroiya- devonlar tizimida boshqarilar, davlat boshlig'i sulton hokimiyatining huquqlari hech bir qonun-qoida bilan chegaralanmagan edi. Saltanatni hokimlar, noiblar, vazirlar, lashkar boshliqlaridan iborat kuchli harbiy aslzoda guruhlar, mustavfiy (daftardor hisobchilar), qozilar, sadrlar va boshqa ko'plab saroy mansablaridan iborat ulkan arkoni davlat doirasi qurshab turardi.

Hokimlar ko'p holda o'z bilganicha ish tutishar, soliqlar to'plashning ham aniq tizimi yo'q edi. Hashar yo'li bilan biron-bir yo'l, ko'prik, qal'a va boshqa inshootlarni qurish (suhra girifan) keng tarqalgan edi. Davlat ahvoli tang bo'lganda ko'p holda iqtadorlarga ishonch qolmas edi. Ayrim viloyat hokimlari shaxsan Turkon xotunga bo'ysunib, o'z bilganlaricha ish tutishardi. Sulton Muhammadning validasi Turkon xotunning qo'shin oliy sarkardalari bo'lgan qipchoq sarkardalari bilan aloqasi mustahkam, o'zi shu qabilaga mansub

bo'lganligi uchun ularni hamisha qo'llab-quvvatlab turardi. Sarkardalar, qo'shin boshliqlari, vazirlar, hokimlar ko'p holda uning ijozati va ko'rsatmasi bilan tayin etilar, ular ham, o'z navbatida, avvalo Turkon xotunga bo'ysunar edilar. Turkon xotun boshqa turkiy qabiladan bo'lgan kelini Oychechak va uning o'g'li, nevarasi Jaloliddinni yoqtirmas, ular o'rtasida ixtilof kuchli edi. Xorazmshoh «farzandlik mehri va hokimiyatga olib kelgan shaxs» sifatida onasining so'zini ikki qilmas, hamisha uning fikrlariga xohlasa-xohlamasa qo'shilar edi. Xorazmshohning onasi Turkon xotun aslida davlatdagi birinchi darajali shaxs hisoblanar, uning shiori «e'tasamtu Billohi Vahda» (ya'ni, «Yolg'iz Allohdan panoh so'rayman») muhriga yozilgan bo'lib, hukmdor farmoniga shu muhri bilan u birinchi imzo qo'ysa, uning farmoni vojib hisoblanar edi. Turkon xotun amri bilan taxt vorisi etib o'z qavmidan bo'lgan nevarasi O'zloqshoh tayin etilgan.

Muhammad xorazmshoh qo'shini soni garchi son jihatdan ko'pchilikni tashkil etsa-da, bu qo'shin harbiy intizomi uncha mustahkam bo'lmagan, salohiyati ancha past, ko'proq janubliklardan olingan yollanma qo'shin edi. O'z navbatida, bu qo'shin vatan mudofasi uchun emas, balki ko'proq istilo, talon-toroj, o'lja olish uchun mo'ljallangan qo'shin edi. Haqiqatda xorazmshoh kuchli, o'ziga munosib keluvchi raqib bilan kurash olib borgani yo'q hisobi, bu esa yuqorida qayd etilganidek, o'z harbiy mahoratiga noxolis tarzda yuqori baho berishiga olib kelgan edi.

Joylarda noib va hokimlik lavozimidagi amaldorlar oddiy xalqqa nisbatan ko'pincha zo'ravonlik, tazyiq ila munosabatda bo'lar, bu esa xorazmshohlar davlatiga nisbatan aholining noroziligiga sabab bo'lgan. Soliqlar miqdori bir me'yorda turmas, mehnatkash ommaning ahvoli ancha og'ir edi. Masalan, 1218-yili xorazmshoh xiroj solig'ini bir yo'la uch marotabagacha undirib olishga buyruq bergan edi. 1206, 1212-yillarda ro'y bergan Buxoro va Samarqanddagi xalq g'alayonlari o'z navbatida zo'ravonlik va soliqlar oshib ketishiga qarshi qaratilgan edi. Soliqlar va zo'ravonlikdan ezilgan xalqning sulton Muhammadga e'tiqodi va ishonchi mo'g'ullar bosqini arafasida

susayib ketdi. Shuningdek, sultonning Bagʻdod xalifaligiga yurishi va oʻz holicha termizlik sayidlardan boʻlgan Shayx Aʼlamulk Termiziyning xalifa deb eʼlon qilinishi, taniqli din arboblarning taʼqib etilishi Movarounnahr ulamolari ichida norozilikka sabab boʻlgan edi.

Chingizxon oʻzining rivojlangan tizimga asoslangan aygʻoqchilar tarmogʻi orqali xorazmshohlar davlatidagi ushbu ahvoldan boxabar boʻlgan. Shuningdek, u ushbu qadimiy madaniyat va yuqori salohiyatga ega Movarounnahr ahlini osonlikcha boʻysundirib boʻlmasligini ham yaxshi bilib, boʻlajak mahorabaga jiddiy tayyorgarlik koʻrdi. Oʻtror voqeasidan avvalroq Chingizxon qoʻshinlarining Yettisuvga qilgan harbiy yurishlari sulton Muhammadni tashvishga solib qoʻygan edi. Garchi xorazmshoh katta qoʻshinga ega boʻlsa-da, oʻzaro ixtiloflar, sarkardalarga nisbatan ishonchsizlik, oʻz atrofidan xavfsirash xorazmshoh qoʻshinining zaiflashuvi, harbiy intizomning pasayishiga olib kelgan edi.

#### **14.2. Movarounnahrda moʻgʻul bosqinining amalga oshirilishi**

Chingizxon 1219-yili oʻz oʻgʻillari boshliq 200 mingga yaqin asosiy harbiy kuchlari bilan anchadan beri puxta tayyorlangan Xorazmshoh- Anushtaginiylar davlati ustiga harbiy yurishni boshladi. Bu kuchlar yozni Irtish daryosi boʻyida oʻtkazib, sentabr oyida chegaradan oʻtadi. Chingizxonga uygʻur ediquti (xon) Baurchak, qarluqlar xoni Arslonxon va Olmaliq hukmdori Sigʻnoqteginlar ham oʻz qoʻshini bilan kelib qoʻshilishdi. Chegaradan oʻtgan Chingizxon oʻz qoʻshini bilan janubiy choʻllarining Sirdaryoga tutashgan joyidagi Oʻtror shahri yaqinida toʻplab, uni 4 qismga boʻldi.

Chigʻatoy va Oʻqtoy qoʻshinning bir qismi bilan Oʻtrorni qamal etib, uni egallash uchun qoldirildi. Ikkinchi qism esa Joʻchi boshchiligida Sirdaryoning yuqori oqimidagi Jand, Yangikent, Borchigʻligʻkent, Sigʻnoq shaharlarini bosib olish uchun yuborildi. Uchinchi qismdagi besh ming chogʻli qoʻshinga Uloq noʻyon va Su-

ketu cherbi bosh boʻlib Oʻtrordan janubga yurish, Xoʻjand va Banokatni egallash vazifasi topshirildi. Chingizxon oʻzi bosh boʻlgan toʻrtinchi, asosiy qism (uning tarkibida taniqli sarkardalar Jebe va Subutoy ham bor edi) Zarafshon vohasi tomon – Buxoro hamda Samarqandni istilo etish uchun yoʻl oldi.

Shunday qilib, moʻgʻul bosqini boshlangach, Muhammad xorazmshoh moʻgʻullarga zarba berish xususida Urganchda (Gurganj) harbiy kengash chaqiradi. Unda koʻzga koʻringan davlat arboblari, aslzodalar, harbiy sarkardalar ishtirok etishadi. Asli xivalik mashhur fiqhshunos hamda davlat arbobi Shahobiddin al-Xivaqiy bor qoʻshinni Sirdaryo boʻyiga toʻplab, uzoq yoʻl bosib kelayotgan moʻgʻul qoʻshiniga chegara boʻyidayoq hal qiluvchi zarba berish toʻgʻrisida harbiy jihatdan haq fikrni bildirdi. Moʻgʻullarga qarshilik koʻrsatishning ikkinchi rejasini shahzoda Jaloliddin taklif etgan edi. Unga koʻra dushmanni Movarounnahrda kiritib, soʻngra mahalliy hududni dushmanga nisbatan yaxshi bilganlikdan foydalanib, uni yoʻq qilish koʻzda tutilgan edi. Jaloliddin shu yoʻl bilan dushmanni Xuroson va Iroqqa oʻtkazmaslikni rejalashtirgan edi. Undan tashqari, yana ikki taklif ham oʻrtaga tashlangandi. Lekin Xorazmshoh oʻz sarkardalariga, ayniqsa qipchoq harbiylariga ishonchsizlik bilan qarar, katta qoʻshinni bir joyga toʻplashdan, qoʻshin yigʻilganda esa oʻzini taxtdan agʻdarib tashlashlari mumkin ekanligidan choʻchir edi. Shuning uchun sulton va uning onasi tazyiqi bilan kengash mudofaa usuliga oʻtishni maʼqul deb topdi. Jami 450 taga yaqin shahar (qalʼa) va viloyatlardan iborat boʻlgan davlatda qoʻshin katta jangga kirib, vatan sharafini himoya qilish oʻrniga shahar va qalʼalarga boʻlib tashlandi. Baʼzi markaziy shaharlar, jumladan «Buxoro va Samarqand mudofaasini mustahkamlash zarur», degan fikrga kelindi, xolos. Ammo bu mudofaa tizimi ham qoniqarli darajada tashkil etilmadi. Bu paytda moʻgʻul qoʻshini allaqachon chegara yerlaridan ancha ilgari ketib boshlagan edi.

Chegaradagi Oʻtror mustahkam shahar qalʼa boʻlib, moʻgʻullarga olti oy davomida mardonavor ravishda qarshilik koʻrsatdi. Oʻtror ho-



kimi Inalxon (G'oyirxon) qo'lida 20.000 chog'li suvoriy bo'lib, xozrazmshoh unga yordam tariqasida 50.000 kishilik «lashkari birun»ni ham yuborgan edi.

Qamal davomida qo'shimcha tarzda yana Qoracha Hojib boshchiligidagi 10.000 kishilik otryad ham yuborildi. O'tror hokimi jasur va mard sarkarda Inalxon unga mahorat bilan boshchilik qilar edi. Ammo ayrim zotlar, xususan Qoracha Hojibning xiyonatkorigi tufayli, mo'g'ullar shaharga yorib kirishdi. Besh oylik qamaldan so'ng Inalxon yana bir oy davomida 20.000 nafar qo'shini bilan shahar qal'asida qarshilikni davom ettiradi. Oxir-oqibatda Inalxon deyarli bir o'zi qolib, qal'a tomiga chiqib, qo'lga tushgan narsasi bilan mo'g'ullarga hujum qildi. Mard sarkardani mo'g'ullar tiriklayin qo'lga tushirib, Samarqandga Chingizxon huzuriga yuborishgan. Chingizxon esa manbalarning yozishiga ko'ra, «kumushni eritib o'z huzurida sarkardaning quloq va ko'ziga quyishni buyurgan». Inalxon shu tariqa vahshiyona ravishda o'ldirilgan. O'tror shahri o'z jasorati evaziga mo'g'ullar tomonidan butkul vayron etilib, buzilib tashlandi.

Xiyonat yo'lini tutgan Qoracha Hojib esa O'tror olinganidan so'ng mo'g'ullar tomonidan qatl etildi. O'trorning sobiq noibi Badriddin al-Amidning ham sultonga nisbatan eski hisob-kitobi bor edi. Sulton bir paytlar uning otasi va qarindoshlarini qatl etgan bo'lib, shundan keyin Badriddin sultonga xufiyona dushmanlik yo'lini tutardi. Badriddin al-Amid Chingizxon tomoniga o'tib, sultonga ta'sir o'tkazishning bir hiylasini taklif qildi. Unga ko'ra asirga olingan sulton va uning onasi qarindoshlari nomidan soxta xat tayyorlandi. Xatda sulton qipchoq harbiylari, onasiga bepisandlik bilan munosabatda bo'lgani, endilikda Turkon xotun sultonni bir o'zini yordamsiz qoldirish to'g'risida buyruq bergani ta'kidlangan edi. Ushbu xat davlat ichida tez tarqalib, sulton qo'lga ham yetib bordi. Shundan so'ng sulton qo'shinni yanada tezlik bilan parchalab, tarqata boshlaydi. Bu esa davlat halokatini yanada tezlashtirdi.

Buxoro yo'nalishida ketayotgan Chingizxonga esa Zarnuq (Zerih) va Nur qal'alari jangsiz taslim bo'lishdi. Chingizxon 1220-yil-

ning fevral oyi boshlarida (ba'zi adabiyotlarda 7-fevralda deyiladi), Sharqdagi islom dini gumbazi, «butun musulmon shaharlari onasi» nomini olgan «islomiy ilmlar markazi» Buxoro yaqinida paydo bo'ldi. O'rta asr tarixiy manbalarida Buxoro «Sharq mamlakatlari»ning islom qubbasi va shu mamlakatlarning tinchlik shahri, musulmonlar ahli shaharlarining onasi («Quvvat al-islom fi bilodi-sh-Sharq va madinatu-s-salom hazihil-bilod va ummu jami'ul-muminil muslimin») nomi bilan dong taratgan edi.

Uch kunlik shahar qamali boshlandi. Buxoroda bu paytda 12.000 kishilik shahar garnizoni va 20.000 kishilik «lashkari birun» mavjud bo'lgan. Lashkarlarga nufuzli sarkardalar Ixtiyoriddin Qo'shlu, Inanchxon O'g'ulhojib, Hamid Pura Qoraxitoy, Suyunchxon mo'g'ullardan qochib o'tgan uyg'ur sarkardasi Ko'kxon (Go'rxon) bosh edilar. Avvalboshida qo'shin mo'g'ullarga zarba berishga muvaffaq bo'ldi. Keyin esa mo'g'ullarning qo'li ustun kela boshlaydi.

Sarkardalardan Inanchxon bazo'r Amudaryodan o'tib qutulishga muvaffaq bo'ldi, Hamid Pura Qoraxitoy esa mardonavor tarzda jangda halok bo'ldi, qolgan-qutgan harbiylar esa Buxoroga qaytib chekinishga majbur bo'lishdi. Ahli Buxoro o'z himoyachilaridan ayrilgandan so'ng, shahar ahlining jonini salomat saqlab qolish niyatida shaharliklar maslahatlashib, Buxoro qozisi Badriddin qozi boshchiligidagi bir guruh oqsoqollarni Chingizxon huzuriga yuborishadi. 1220-yili 10-fevral kuni mo'g'ullar Buxoroga kirib keldilar. Buxoroga kirib kelgan Chingizxonning xatti-harakatlari xususida Rashiddin shunday deb yozgan edi: «Chingizxon otda masjidi jome oldiga kelib to'xtadi va shaharning kazo-kazolarini o'z huzuriga chaqirtirdi. Mo'g'ullar shahar omborxonalarini ochib, g'allalarni tashib oldilar. Qur'on nusxalari saqlanadigan sandiqlarni otlarga oxur qilishdi, masjidlarga meshlarda sharob keltirib joylab qo'yishdi, shahar hofizlari va o'yinchilarini chorlab, raqsga tushirishdi. Mo'g'ullar dol-g'uliga keltirib, o'z ashulalarini aytishardi. Oqsuyaklar, ulamolar va shayxlar otboqarlar o'rnida otlarni qo'riqlash uchun otxonalarda turar va o'sha qabila kelishlarini, amr-farmonlarini bajo keltirish bilan mashg'ul

edilar». Buxoro talon-toroj xususida muarrix ibn Attor shunday yozgan edi: «Ul kun haqiqatda dahshatli kun bo'ldi. Bori manguga ketgan yerlarining, xotinlarning, bolalarning tovushlarigina eshitilib turdi. Vahshiyalar xotinlarni, qizlarni ham o'zlarining birodarlari ko'z oldida tahqirladilar. Bu tahqirlarga ularda ko'z yoshlaridan o'zga qurol topilmadi. Ko'plar dahshatli manzaralardan ko'ra o'limni ortiq ko'rishdi. Qozi Badriddin, Imom Rukniddin va uning o'g'li bu nomussizlik manzaralariga chiday olmay, g'azablanib, o'zlari teng bo'lmagan dushmanga hujum qilib, halokat topdilar».

Aksariyat shaharliklar o'z qarshiliklarini davom ettirishdi, tunda esa yashirincha askarlarga yordam berib, mo'g'ul qo'shiniga qarshi hujumlar uyushtirishdi. Chingizxon bunga javoban shaharni yoqib yuborishga buyruq berdi. Ko'kxon boshchiligidagi 400 ta mudofaachilar Buxoro arkida yana 12 kun qattiq qarshilik ko'rsatishdi. Arkni egallash uchun qilingan mo'g'ullar xatti-harakatlari zoye ketdi. Qal'adagi chuqurliklar odam va hayvon o'liklari bilan to'lib ketdi. Ko'kxon va u boshchiligidagi mudofaachilar qahramonona halok bo'lganlaridan so'nggina ark egallandi. Buxoroliklar qarshiligi mo'g'ullarni qattiq g'azablantirdi. Bu jasorat evaziga mo'g'ullar shahar ahlidan 30000 chog'li kishini qirib tashladilar. Kelib chiqishidan qat'i nazar, omon qolgan aksariyat aholi qullikka mahkum etildi. Ma'rifatli, nozikta'b, madaniyatli va ilmli Buxoro ahli istilochilar tomonidan zulm va tahqirlanish girdobiga tortildi. Buxoroning egalanihi sulton hokimiyati tugab borayotganligini namoyon qildi. Tez orada Qunduz, Balx va boshqa hududlardagi hokim, amaldorlarning ko'pchiligi hech ikkilanmay mo'g'ullar tomoniga o'ta boshladilar.

Buxorodan so'ng Chingizxon Samarqand shahri tomon yo'l oldi. 1220-yil mart oyi boshida u Samarqandga yetib kelib, yon-atrofdagi qishloqlarni yer bilan yakson qildi. Chingizxon Samarqandni egalashga alohida ahamiyat berdi. Samarqandning Movarounnahr uchun, xorazmshohlar davlati uchun ahamiyati beqiyos ekanligini Chingizxon yaxshi bilar edi. Shaharda jang uchun 110 ming askar mavjud bo'lib, ularning 60 mingini turkiylar, g'ullar, halajlar, xurosonliklar

tashkil etar edi. Shahar noibi Turkon xotunning ukasi To'g'ayxon bo'lgan. Samarqandda, shuningdek, bir necha taniqli amirlar, sarkardalar ham jangga shay bo'lib, mahalliy xorazmliklar qo'shini 50 ming kishini tashkil etardi. Shaharda hatto jangga o'rgatilgan 20 ta fil ham mavjud bo'lgan.

Shahar oziq-ovqat zaxirasi, mudofaa istehkomlarining puxtaligi jihatidan bir necha yillik qamalga ham chidashi mumkin edi. O'z qarrogohini mo'g'ullar bosqini boshlanishi bilanoq sarosimada Balxga ko'chirgan sulton Muhammad ham Samarqand mudofaasiga umid ko'zi bilan boqar edi.

Chingizxonning o'zi shahar tashqarisidagi Ko'ksaroy qo'rg'onidan turib, shahar qamaliga boshchilik qildi. Shahar hokimi To'g'ayxon Chingizxon tomoniga o'tib, Samarqandni taqdir zarbasiga qoldirdi. 1220-yilning mart oyining boshlarida shahar qattiq qamal qilinib, to'xtovsiz hujum boshlandi. Qamalning uchinchi kunidan boshlab unga Chingizxonning shaxsan o'zi boshchilik qila boshlaydi. Qamalning beshinchi kuni ulamo, zodagon, shahar harbiy boshliqlari «keyingi qarshilik maqsadga muvofiq emas va ommaviy qirg'in bo'lishini oldini olish kerak», degan maqsadda mo'g'ullarga taslim bo'lishga qaror qilishadi. Shahar qozisi va shayxulislom boshchiligi-da Chingizxon huzuriga Samarqand ahli nomidan elchilar tashrif buyurishadi. Mo'g'ullar Samarqand bosh suv inshooti – «Jo'yi arziz» – «Qo'rg'oshin novasi»ni buzib tashlab, shaharni tashnalik girdobiga muhtalo qilishadi. Shahar istehkomi buzib tashlandi. 20 000 chog'li shahar mudofaachilari suv toshqini bois taslim bo'lishga majbur bo'lishdi. Taxminan 1000 nafarli mudofaachilar esa, sulton tomonidan 1211–1214-yillarda qurilgan jome masjidiga kirib, dushmanga zarba bera boshlashdi. Mo'g'ullar masjidga o't qo'yib, mudofaachilarni tirik o'limga mahkum etishdi. Shahar qozisi va shayxulislom vakolati bilan tashqariga olib chiqib ketilgan 50.000 nafar kishidan boshqa barcha aholi qatlamlari behad talon-toroj qilindi. 30.000 nafar hunarmand ahli Chingizxon qarindosh-urug'lariga taqsimlab berildi. Tirik qolgan shahar ahliga 200.000 dinor o'lpon to'lash majburiyati



yuklatildi. Samarqandda jami aholining faqat  $\frac{1}{4}$  qismigina tirik qoldi, xolos. Mo'g'ullar tomoniga xiyonatkorona o'tib ketgan sobiq shahar noibi To'g'ayxon tez orada o'zining 30.000 kishisi bilan Chingizxon buyrug'iga ko'ra qirib tashlandi. 1220-yil 17-mart Samarqand mo'g'ullar tomonidan istilo etilgan sana hisoblanadi.

Taslim bo'lgan shaharda mo'g'ullar qilgan talon-torojliklar tufayli «Sayqali ro'yi zamin ast» deb ulug'langan, Sharqning buyuk shaharlaridan biri, bir paytlar gullab-yashnab turgan Movarounnahr poytaxti huvillab qolib, yer bilan yakson qilindi.

Sulton Muhammad xorazmshohning mas'uliyatsizligi, harbiy boshliqlarning o'zaro ittifoqda bo'lmaganligi, xalq, mamlakat taqdirini o'z holiga tashlab qo'yishi oqibatida bu dahshatli voqea sodir bo'lgan edi. Chingizxonning to'la g'alabaga erishishi uchun ikkita holat to'sqinlik qilib turar edi. Birinchisi – Xorazmshohlar poytaxtini egallash bo'lsa, ikkinchisi – sulton Muhammad xorazmshohni qo'lga olish hisoblangan. Musulmon Sharqining eng katta davlati hukmdorini qo'lga tushirish Chingizxon oldiga qo'ygan asosiy maqsadlaridan biri edi. Buning uchun Chingizxon Jebe va Subutoy boshchiligida 20 ming kishilik saralangan askarlarni tanlab, ularga xorazmshohni izma-iz ta'qib qilish, uni qo'lga olib, mo'g'ullar hukmdori huzuriga keltirish vazifasini topshirdi. Samarqand istilosidan so'ng sulton tezlik bilan janub tomonga yo'l oldi. U janub tomon shunchalik shoshildiki, tarixchilardan Ibn al-Asir, Juzjoni, Juvayniy, Rashididdinlar bir ovozdan ta'kidlashganlariga ko'ra Amudaryodan o'tayotgan vaqtida 70 yuk tillani ham daryoga cho'ktirib yuborgan. Bu qimmatbaho yuklardan tashqari sulton xazinasi ham suvga g'arq qilingan edi. Bu vaqtda sulton Muhammad xorazmshoh Balxga yetib kelib, o'z qarorgohidan voqelikni befarq kuzatuvchisi sifatida qarar edi. Mo'g'ullar kirib kelayotgan vaqtdayoq unga Iroqqa qarab chekinishni ba'zi amaldorlar maslahat berishgan, shu bois u uzoqroq yerlarga chekinishni ham ma'qul deb hisoblar edi.

Ta'kidlash joizki, anchagina qo'shin to'plash imkoniyati bo'lgan Xuroson yerlarini tark etish katta xatolik edi. Sababi, aynan

Xurosondan davlat mudofaasi uchun kerakli qo'shin yig'ish imkoniyati mavjud bo'lgan. Sulton 1220-yil aprelida Nishopurga yetib keldi. U Jebe va Subutoy boshchiligidagi mo'g'ul qo'shini uni izma-iz ta'qib etishayotganidan xabardor bo'lgani bois Nishopurni ham tezda tark etadi. An-Nasaviyning yozishicha, sulton Bistomga kelgach, amir Tojiddin al-Bistomiya Damovand va Mozandaron oralig'idagi tog'li hududdagi Ardahn qal'asiga o'nta sandiqqa joylashgan qimmatbaho toshlarni olib borib qo'yishni buyurgan. Ularning qiymatiga baho bergan an-Nasaviy ikki sandiq bahosining o'zini «butun dunyoning xirojiga teng», deya baho bergan edi. Bistomdan so'ng sulton yana qal'ama-qal'a, shahar-u qishloq bo'ylab yurib bordi. Chingizxon Xuroson qal'a va shaharlar hokimlarini agarda ular sultonga boshpana berishsa, keyinchalik o'zlarining taqdiri ayanchli bo'lishini avvaldan choparlar orqali ogohlantirib qo'ygan edi. Shu bois joylarda mo'g'ullardan hayiqqan mahalliy hokimlar sultonni istamaygina, sovuq qarshi olishardi.

Xorazmshoh o'limi yaqin qolganini bilgan holda bir paytlar onasi tazyiqi bilan valiahd deb e'lon qilgan Qutbiddin O'zlagshohni taxt vorisligidan mahrum qilishini bildirdi. Katta o'g'li Jaloliddin, boshqa o'g'illari O'zlagshoh va Oqshohlarni yoniga chorlab, an-Nasaviyning yozishiga ko'ra shunday degan ekan: «Hokimiyat iplari uzildi, saltanat asoslari bo'shshadi va buzildi. Bu dushmanning maqsadi ayon bo'ldi: uning changali va tishlari mamlakatga qattiq sanchildi. Men uchun faqat o'g'lim Jaloliddingina qasos ololadi. Endi men uni taxtga valiahd etib tayinlayman».

Xurosondagi ko'pgina sargardonliklardan so'ng sulton Kaspiy dengizining janubidagi Ashuradi (Ashura) oroliga borib o'rtnashadi. Uzoq sargardonlik, g'am-alam, saltanat va toj-u taxtdan ayrilish sultonning sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ham jismoniy, ham ruhiy, ham ma'naviy jihatdan ezilgan sobiq hukmdor bu yerda plevrit (o'pka qobig'iga suv yig'ilishi) kasaliga chalindi. Sulton qilgan gunohlari-ga iqror bo'lgan holda azob-uqubat bilan ushbu orolda 1220-yilning dekabr oyida vafot etdi. Oradan birmuncha vaqt o'tgandan so'ng, Ja-

loliddin otasining murdasini tog'liq Ardahn qal'asiga olib borib dafn etadi. Ardahn mo'g'ullar tomonidan zabt etilgandan so'ng, o'z vaqtida sultonni tiriklayin qo'lga tushira olmagan alamzada mo'g'ullar uning murdasini kavlab olib, O'gedeyga (O'ktoy) yuborishgan. O'gedey esa uning murdasini yoqib yuborishni hamda kulini ko'kka sovurishni buyurgan. Shuningdek, xorazmshohlarning o'z vaqtida sulton tomonidan Ardahnga yashirilgan eng qimmatbaho 10 ta sandiqqa joylangan javohirlari harn mo'g'ullar qo'lga o'lja bo'lib tushgan edi.

Farixiy manbalarda sultonning jami 20 million miqdordagi oltin dinorlari, 1000 yuk atlas, qimmatbaho matolar, 30 000 ot-xachirlari va boshqa boyliklarning hammasi mo'g'ullar qo'lga o'tib ketganligi qayd etiladi. Chingizxonning katta o'g'li Jo'chi boshchiligidagi mo'g'ul bosqinchilari reja bo'yicha Sirdaryoning yuqori qismidagi yerlarni egallashi lozim edi. Bosqinchilar ma'lum muddatdagi qamaldan so'ng Sig'noq va Borchilig'kent shaharlarini egallashadi. Sig'noq aholisi Jo'chining elchisi Hasan hojini o'ldirib, yetti kun mardonavor ravishda qarshilik ko'rsatishadi. Shahar olinganidan so'ng esa uning barcha aholisi qirib tashlanadi.

Sirdaryoning yuqori tomonidagi Jand, Shahrikand, Yorkent himoyasi 10 ming kishilik qo'shin bilan amirlar amiri (amiri amiron), Turkon xotunning yaqin qarindoshi Qutlug'xon qo'lga topshirilgan edi. Qutlug'xon hadudni o'z holiga tashlab, xoinlik bilan Xorazmga ketib qoldi. Mo'g'ullar tomonidan Jandga yuborilgan Chin Temur agar shahar Jo'chiga bo'yin egsa aholisi omon qolishini va'da qildi. 1219-yil 4-aprelda Jand mo'g'ullar tomonidan jangsiz egallandi. Shahar aholisi tashqariga haydab chiqilib, to'qqiz kun och-nahor dalada ushlab turildi. Bu vaqtda mo'g'ullar Jand va uning yon-atrofini butkul talon-toroj qilishdi. Uch kunlik qamaldan so'ng Banokat shahri ham egallanib, aholining bir qismi qilichdan o'tkazildi. Mo'g'ullarning keyingi e'tibori Xo'jandga qaratildi.

Mo'g'ullar mustahkam qal'a hisoblangan Xo'jandga hujum boshlashdi. Ular 20.000 nafar qo'shin va 50.000 chog'li asirga tushgan hasharchilarni Xo'jand atrofiga yig'ishdi. Xo'jand hokimi Temur

Malik asli turkiy sarkardalardan bo'lib, xorazmshohlar davlatida mo'hir sarkarda sifatida nom chiqargan, sulton va uning oilasiga tanish bo'lgan shaxs edi. Mo'g'ullarga qarshi tura olish mumkin emasligini sezgan Temur Malik (*malik* – hokim ma'nosida) taxminan 1000 nafar askari bilan Xo'janddan bir kilometr naridagi Sirdaryoning mo'jazgina orolida joylashib oladi. Qulay strategik ahamiyatga ega bo'lgan bu orolga mo'g'ullar o'qlari, palaxmon toshlari yetib bormas edi. Temur Malikning buyrug'iga ko'ra 12 ta qayiq yasatilib, ulardan o'q o'tmasligi, yonib ketmasligi uchun bu qayiqarning usti namat bilan qoplanib, sirka shimdirilgan loy bilan suvab chiqiladi.

Temur Malik uzoq vaqt mudofaa uchun endilikda orolchada turib qolish maqsadga muvofiq emasligini tushunib, mavjud oziq-ovqat zaxirasi va askarlarini 70 ta kemaga joylab, tunda daryoning quyi oqimi bo'ylab suzib ketadi. Mo'g'ullar daryoni ikki sohili bo'ylab Temur Malik kemalariga to'xtovsiz hujum uyushtirishardi. Hatto Banokat bo'yida daryoning u sohilidan bu sohiliga zanjir ham tortib qo'yishadi. Uzoq, uzluksiz jang bilan Temur Malik va jangchilari Jandga qadar yetib keldi. Mo'g'ul sarkadasi Ulus Idi Barchilig'kent va Jand yaqinida manjaniqlar (tosh otar zambaraklar) o'rnatib, qayiq-larni bir-biriga tutashtirgan holda jasur sarkarda yo'lini to'sadi. Uzoq janglardan so'ng Temur Malik Gurganjga yetib keldi va shahar himoyasida qatnashib, Jaloliddinning ozodlik kurashida faol ishtirok etadi. Keyinroq, uzoq sargardonliklardan so'ng sarkarda Temur Malik o'z yurtiga darvesh sifatida kelib, qahramonona ravishda mo'g'ul harbiylari qo'lida halok bo'ladi.

Chingizxon 1220-yilning yozini Movarounnahr janubida o'tkazmoqchi bo'ldi. Chunki, u janub shaharlarini egallashga shaxsan bosh qo'shgan edi. Zero, janubda hali bosqinchilar qadami yetmagan bir qator boy viloyat va shaharlar mavjud edi. Avval u Naxshabga bostirib bordi. Shaharliklar mo'g'ullarning mislsiz zo'ravonlik va bosqinidan yaxshi xabardor edilar. Shu bois Naxshab ahli dahshatga tushib, shaharni mo'g'ullarga ixtiyoriy tarzda topshirishdi. Shunday bo'lsa ham shahardan katta o'lpon undiriladi.



Chingizxon yozni Naxshabda o'tkazib, 1220-yilning kuzida Termizga yurishni boshlaydi. Termiz Hindiston va O'rta Osiyo savdo yo'llari tutashgan qulay yerda joylashgan bo'lib, uning Amudaryo sohiliga tutashgan qal'asi o'z vaqtida mustahkam ravishda barpo etilgan edi. Termiz hokimi Faxriddin mo'g'ullar bosqiniga mardonavor tarzda turib javob berishga qaror qildi. Mudofaaning o'n birinchi kuni shahar egallandi. Shahar butkul talon-toroj qilinib, xonavayron etildi. Shahar ahli esa dashtga haydab chiqilib, qirib tashlandi.

Movarounnahrning asosiy qismlari – Sirdaryo havzasi, Zarafshon, Qashqadaryo, Buxoro vohalari, Shosh va Farg'ona vodiysi egallan-gach, Chingizxon endilikda o'zining asosiy e'tiborini xorazmshohlar davlatining markazi Xorazm o'lkasiga qaratdi. Bu yurishga o'g'illari Jo'chi, Chig'atoy, O'ktoy (Ugedey)larni mas'ul qildi. Ayniqsa, xon musulmon Sharqining eng katta shahri bo'lgan, madaniyat, savdo gullab-yashnagan qadimgi Urganch (Gurganj) istilosiga katta ahamiyat bilan qaradi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Chingizxon o'z oldiga qo'ygan ikkinchi muhim masala bu – Xorazmshohlar davlati poytaxtini egallash edi.

Bu borada Chingizxon poytaxtda turgan Turkon xotun huzuriga o'z vakili Donishmand hojibni yubordi. Vakil olib kelgan nomada Chingizxon xuddiki o'zini Turkon xotun manfaatlari himoyachisi deb hisoblab, unga bo'ysunishini talab qildi. Evaziga esa Turkon xotunga Xorazm, Xuroson, Amudaryoning janub tarafidagi yerlar taqdim etilishini bildirdi. Gurganj mustahkam mudofaa devoriga ega, hatto 1204-yili g'uriylar sultoni Shahobiddin al-G'uriyning qamaliga ham dosh bergan, poytaxt ahli o'z jasorati va harbiy tayyorgarligi bilan ham ajralib turar edi. Donishmand hojib «malikai olam» Turkon xotunga uning o'g'li sulton Muhammad allaqachon qochib ketganligi, davlatning qator hududlari mo'g'ullar qo'lga o'tganligini ta'kidladi.

Tabiiyki, bu xabarlar Turkon xotun matonati-yu jasoratini bukib tashladi. U barcha qimmatbaho ashyolarni yig'ib, poytaxtni tezlik bilan tark etishga kirishdi. Poytaxtdan chiqib ketish chog'ida u yana bir yovuzlikka qo'l urdi. Malika garovda saqlangan, bir vaqtlar asir-

ga olingan turli o'lka, shahar, hududlar hokimlari, ularning o'g'illari, jami 26 nafar kishini Amudaryoga cho'ktirishni buyurdi. Turkon xotunning ketish jafosiga qilgan bunday g'alamisligi ko'pchilikning undan yanada ko'ngli sovushiga olib keldi. Turkon xotun o'z yaqinlari, jami boyliklari bilan Mozandarondagi Ilol qal'asiga borib berkindi. Qal'a juda mustahkam, oziq-ovqat zaxirasi, qurol-yarog' yetarlicha edi. Mo'g'ullar qal'ani 4 oy qamal qilishdi.

Qamal azobi va suv tanqisligidan charchagan Turkon xotun oxir-oqibatda taslim bo'ldi. Mo'g'ullar sultonning yosh o'g'illarini o'ldirishdi, ayollar esa Chingizxonning yaqinlariga bo'lib berildi. Turkon xotunga Chingizxon ayollariga cho'ri sifatidagi ayanchli hayot nasib etdi. U xor-zorlikda 1233-yili Qoraqurumda vafot etdi.

1221-yilning boshida «sulton» deb e'lon qilingan Jaloliddin o'z inilari Oqshoh, O'zloqshohlar bilan Gurganjga keladi. Lekin Gurganjdagi siyosiy vaziyat, sobiq Jand noibi Qutlug'xonning unga qarshi suiqasdi, qipchoq sarkardalarining o'zlarini xoinona tutishlari Jaloliddinni shahar mudofaasiga bosh bo'lish fikridan qaytardi. Qipchoqlar uni hokimiyat tepasiga kelishini xohlamas edilar. Bunday vaziyatda mudofaani tashkil etib bo'lmasligi aniq bo'lib qolgan edi. Ushbu voqealardan so'ng Jaloliddin Temur Malik bilan birgalikda shaharni tark etib, Xurosonga yo'l oladi. Uning ortidan esa, tez orada Oqshoh va O'zloqshohlar ham uning ortidan ketishadi. Jaloliddin qismatini alohida qayd etib o'tish maqsadga muvofiq bo'lgani uchun keyingi qismlarda bu buyuk shaxs faoliyati to'g'risida batafsil to'xtalib o'tiladi.

Gurganjda esa shahardagi qipchoq sarkardalari – O'g'ul Hojib, Yerbuqa pahlavon va boshqalar Turkon xotunning jiyani, yosh Xumorteginni «sulton» deb e'lon qilishadi.

Xumortegin layoqatsiz, o'z fikriga ega bo'lmagan, qo'rqqoq shaxs edi. Gurganjga Chingizxonning o'g'illari Jo'chi, Chig'atoy, O'gedey, taniqli mo'g'ul sarkardalari Tulun cherbi, Ustun no'yon, Qozon no'yon va boshqalar ham o'z harbiy kuchlari bilan yetib kelishadi. Xorazm Jo'chi boshqaruvi ilkiga tushganligi uchun ham, u shahar-



ni tinchlik bilan mo'g'ullarga topshirishni talab etadi. Lekin nima bo'lganda ham shaharning jasur himoyachilari mudofaaga qat'iy tay-yorgarlik ko'rib, jonajon shaharlarini mo'g'ullarga berishdan qat'iy ravishda bosh tortdilar. Poytaxt atrofini 100.000 dan ziyod mo'g'ullar qo'shini o'rab olib, shahar devorlarini buzish uchun manjaniqlar o'rnatildi. Mo'g'ullar shaharni katta kuch bilan zabt etishga kirishdilar. Afsuski, yangi «sulton» shahar mudofaasiga bosh bo'la olmadi. Holbuki, shaharda 90 ming kishilik qo'shin ham bor edi.

1221-yil boshidan boshlangan Gurganj qamali deyarli 7 oy davom etadi. Shahar ahli mo'g'ullarning qurol-yarog'i, palaxmon toshlarni otuvchi manjaniqlari, zambaraklaridan cho'chimay, mardonavor kurashga kirishadilar. Nayza va kamon o'qlaridan qo'rqmay, shahar devorlarining buzilgan yerlarini qayta tiklay boshlashadi. Bir guruh urganchlik harbiy navkarlar shahardan deyarli bir farsax uzoqlikdagi Bog'i-Xurram degan joyda mo'g'ullarga zarba berishga harakat qilib, qahramonona jang qilishadi. Lekin Juvayniyning yozishiga ko'ra, jangda qo'shin va qurol jihatidan ustun bo'lgan mo'g'ullar shu yerlik tinch aholi, jangchilar bilan birgalikda 100.000 dan ziyod aholini qirib tashlaydilar. Sulton zobitlarining boshlig'i Faridun G'uriy o'zining 500 kishilik harbiy otryadi bilan mardonavor tarzda shahar devorlari va darvozalari himoyasiga bosh bo'ldi. Lekin qo'rqoq va zaif «sulton» Xumortegin shahar darvozasini ochib berib, o'z hayotini saqlab qolish maqsadida xiyonatkorona ravishda mo'g'ullarga taslim bo'ldi. Istilochilar shaharga bostirib kira boshlashadi. Tarixchilardan an-Nasaviy, Juvayniylarning yozishlariga ko'ra, Gurganj aholisi har bir ko'cha, mavzeni jon-jahdlari bilan himoya qilishgan. Ko'prik ustidagi jangda shaharliklar 3000 nafardan ziyod mo'g'ul askarlarini qirib tashlashga muvaffaq ham bo'lishgan.

Shahardagi janglarda xorazmlik mashhur alloma, faylasuf va olim, «Kubroviya» tariqatining asoschisi Ahmad ibn Umar Abul Janob Najmiddin al-Kubro al-Xeva'iy (1145–1221) ham faol qatnashdi. O'ziga «Yo Vatan, yo sharofatli o'lim» degan g'oyani shior qilib olgan bu 76 yoshdagi buyuk shayx mo'g'ullarning taslim bo'lish ha-

qidagi takliflarini rad etib, o'zining ko'plab shogird, do'st-u yoron, muxlis-u safdoshlari bilan shahar ichki mudofaasida ishtirok etadi. Uning jangovar chaqirig'iga muvofiq har bir qarich yerni shaharliklar qahramonona tarzda, bir tomchi qonlari qolguncha himoya qiladilar. Najmiddin Kubro qahramonona tarzda jang qilib, o'lim oldidan mo'g'ul navkariga tashlandi, uni avval halok qilib, so'ngra o'zi ham mardonavor halok bo'ldi.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I. Karimov o'zining «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida ma'naviy jasorat xususida so'z yuritganda, «Urganchni bosqinchilardan himoya qilishda bayroq tutib jon bergan Najmiddin Kubro qahramonligini», beqiyos kuch – ma'naviy jasorat egalaridan biri sifatida haqli tarzda e'tirof etib o'tganini alohida ta'kidlash lozim. Shahar mudofaasi cho'zilib, hatto Chingizxonning o'g'illari Jo'chi va Chig'atoy o'rtasida ham ixtilof chiqib, shaharni egallash boshqa bir o'g'il – Ugedeyga topshiriladi. Behisob qon to'kilib, bundan so'nggi himoya befoydaligini sezgan shaharliklardan tirik qolgan qismi o'z jonini omon saqlab qolish maqsadida taslim bo'lishdan o'zga choralarini qolmaydi.

Gurganjdagi madaniy yodgorliklar, minglab jildga ega boy kutubxonalar yer bilan bitta qilindi. Shahar ahliga omonlik so'rab borgan taniqli ulamo Olovuddin al-Hayotning yolvorishlari ham zoye ketdi. Shahardan 100.000 dan ko'proq hunarmandlar ajratib olinib, Mo'g'ulistonga jo'natildi. Shahar ahli dashtga haydab chiqarilib, bolalar va ayollar bo'lib olindi. «Ortiqcha» asirlar haqoratli o'limga muhtalo etildi. Juvayniyning yozishicha, har bir mo'g'ul askariga shaharliklardan 24 ta asir askar to'g'ri kelgan ekan. Qolgan barcha narsalar ham beayov talon-toroj qilindi. Shahar qo'lga olinganidan so'ng uning asosiy qismi buzilib, xonavayron etildi. Bu razolatga ham qoniqmagan mo'g'ullar Amudaryo to'g'onini buzib, shaharni suvga bostiradi. Bu xususda an-Nasaviy: «Gurganj qashqirlar uyasi hamda boyo'g'li va qarq'alarning boshpanasiga aylandi», deb yozgan edi.



Gurganj qamali bilan bir vaqtda Chingizxon 1221-yilning bahorida o'zining e'tiborini Amudaryodan janubdagi yirik savdo yo'llari ustida joylashgan boy madaniy markazlar bo'lgan Balx, Hirot, G'azna, Qandahor, Nishopur va boshqalarga ham qaratdi. Chingizxon shaxsan Balx yurishiga boshchilik qilib, shaharni zabt etdi. Balx aholisini esa qirib tashladi. Ba'zi bir janublik xorazmshoh noiblari, jumladan Amin-al mulk ham xiyonatkorona ravishda mo'g'ullar tomoniga o'tib ketishdi.

Xurosonda mo'g'ullar yo'lidagi birinchi shahar Niso bo'lgan. Mo'g'ullar 20 ta toshotar zambarak (manjanik) o'rnatib, 15 kun davomida shaharni to'xtovsiz tarzda qamal qilishdi. Shahar qo'lga kiritilgach, uning aholisini tashqariga haydab chiqarib, 70 ming kishini o'ldirishdi. Bu xususda an-Nasaviy afsus-nadomat bilan «ular bilan yirtqich hayvonlarni va osmondagi qushlarni to'yg'azdilar. Qanchadanqancha qonlar to'kildi, ayollar zo'rlandi, qanchadan qancha bolalar o'ldirilgan onalarning ko'kraklari yonida o'ldirildi! Bu esa Xuroson viloyatlaridan faqat birginasi edi!» – deb yozgan edi. Nisoda Xorazmshohlar davlatining taniqli namoyandalaridan biri Shahobiddin al-Xivaqiy ham o'ldirildi. Yo'l-yo'lakay mo'g'ullar duch kelgan mahalliy aholi vakillarini qilichdan o'tkazib borishdi. 1221-yilning fevralida Xurosonning ko'zga ko'ringan shahri Marv aholisi boshiga ham shu kun tushdi. Marv shahri bir necha marotaba shafqatsizlarcha talon-toroj qilindi. Oxir-oqibatda shaharda biron-bir kimsa ham qolmadi. Holbuki, shahar musulmon olamida o'z madrasalari va kutubxonalarini, olim-u ulamolari bilan mashhur bo'lib, o'z vaqtida «Marvi jahon» nomini olgan edi.

Jaloliddinga qarshi kurash vaqtida bir qator qal'a, shaharlar ham qattiq janglar bilan ishg'ol qilindi (Bomiyon, G'azna, Qandahor, Gardiz, Valiyon va boshqalar). Mo'g'ullarning janubdagi oxirgi egalagan shahri Hindistonning shimoli-g'arbidagi Mo'ltan shahri bo'lib qoldi (1222-yil).

Ta'kidlash joizki, uch yil ichida buyuk Xorazmshohlar davlati mo'g'ullar tomonidan istilo qilindi. Shu o'rinda qayd qilish lozim-

ki, Chingizxon bu davlatni bosib olish rejasini darrov amalga oshirmagan. Tarixiy jarayonlarga qaralsa, shu hol namoyon bo'ladiki, 1216-yildagi sulton elchilariga Chingizxon Xorazmshohi qudratini tan olishini bayon qiladi. Keyingi uch yil ichida esa Xorazmshohlar davlati tarixiga bag'ishlangan mavzuda qayd etilganidek, Chingizxon ushbu saltanatning barcha zaif jihatlaridan voqif bo'ladi. Mo'g'ullarga sultonning o'z saltanatidagi mahalliy hokim va amaldorlarni davlat hokimiyatidan chetlashtirishi, Bag'dod xalifaligi bilan keskin munosabati, xorazmshohlarning ulkan (400 ming) lashkari amalda o'z mahoratini ancha yo'qotgani, ichki siyosiy nizolar, sultonning din arboblari bilan ixtilofi va boshqalar juda qo'l keldi. Janglarda mo'g'ullar harbiy taktikasi o'z ustunligini ham namoyon qilgan edi. Sultonning beqarorligi, mo'g'ullar kuch-qudratiga ortiqcha baho berishi, vaziyatni to'g'ri va sog'lom tarzda tahlil qila olmasligi, toj-utaxt, mamlakat, saltanat taqdiri borasidagi ikkilanishlari va boshqalar ham davlat halokatini tezlashtirishga ko'mak berdi. Mo'g'ullar esa aholini bo'ysundirishning yagona usuli sifatida faqat o'limga urg'u berishdi.

Manbalarda «Jahon sultonlari poytaxti» va «Insoniyat buyuk farzandlari beshigi» nomini olgan Urganch (Gurganj), Sharqdagi «islom tayanchi» Buxoro, qadimiy Afrosiyob vatani Samarqand, masjidlarining soni (1200 taga yetgan) bilan mashhur «qubbatul islom» Balx, o'z madrasalari bilan dong'i ketgan Marv, o'zining nozikta'b ilmli kishilari bilan ma'lum Nishopur va ko'plab mashhur shaharlar talon-toroj etilib, vayron qilindi. Mo'g'ullarning kuchli zarbasiga uchragan ba'zi shaharlar, masalan, O'tror, Sig'noq, Borchilig'kent va boshqalar umuman uzoq vaqtgacha dasht-u biyobonlarga aylanib qoldi. Shu davrda yashagan arab tarixchisi Ibn al-Asir (1160–1244) mo'g'ul bosqini xususida shunday deb yozgan edi: «Ular (ya'ni, mo'g'ullar) hech kimga shafqat qilishmadi, aksincha xotinlar, bolalar, erkaklarni o'ldirishdi, tug'ilmagan go'daklarni nobud qilishdi... Bu musibat to'lqinlari turli tomonlarga tarqaldi va uning fojeasi umumiy bo'lib qoldi hamda u shamol bulutlarni turli tomonga haydagani kabi butun

viloyatlarga yoyildi. Xitoy chegaralaridan bir xalq chiqib, Turkistondagi Koshg'ar va Bolasog'un kabi viloyatlarni. Movarounnahrda Samarqand, Buxoro va boshqa shaharlarini vayron etib, qirg'in qilib, talon-toroj qilib egalladi. Tatarlar hech qaysi shaharlarni omon qoldirishmadi, ketayotib hamma yerni vayron etishdi. Ular nimaniki yonidan o'tgan bo'lsalar, o'zlariga yoqmagan barcha narsalarga o't qo'yishdi».

### 14.3. Jaloliddin Manguberdi – Vatan qahramoni

Tariximizdagi ulug' zotlardan biri – mo'g'ul bosqinchilariga qarshi mardonavor kurashgan, Vatan ozodligi yo'lida jon fido qilgan buyuk sarkarda, mardlik timsoli bo'lgan Jaloliddin Manguberdi hisoblanadi. O'rta asr musulmon mualliflari, jumladan uning vaziri va munshiyi bo'lgan an-Nasaviy uni Mankburni (ya'ni, mank – «belgi», «xol», «xoldor burunli» degan ma'noni anglatgan) nomi bilan atashgan.

Istiqlol sharofati bilan ozodlik va erk kurashchisi bo'lgan buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberding tarixiy nomi qayta tiklandi. Respublikamiz Birinchi Prezidenti I. Karimovning: «Bu yurt tengsiz alomalar, aziz avliyolar, podshoh-u sarkardalar, botir va pahlavonlarni ko'p ko'rgan. Ular orasida milliy qahramonimiz Jaloliddin Manguberding betakror nomi yulduzdek charaqlab turadi. Sulton Jaloliddin siymosi nafaqat Xorazm, balki butun O'zbekistonning faxr-u g'ururidir», – degan ta'rifi qo'yilgan mavzu mohiyatini to'liq o'zida mujassam etadi.

Istiqlol yillarida nomi unut bo'lgan ko'plab buyuk tarixiy siymolarning nomlari qayta tiklanib, tarixiy adolat qaror topdi. Bu esa o'rta asr tarixini yanada chuqur o'rganishga imkoniyat yaratdi. Mustaqillik yillarida chop etilgan darslik va adabiyotlarda mazkur davr voqeligi to'liq o'z aksini topa boshladi. Mustaqillik yillarida an-Nasaviyning mashhur asari hamda tarixchi olim Z.M. Bunyodovning kitoblari o'zbek tiliga o'girilib, keng kitobxonlar ommasiga havola etildi.

1998-yili Jaloliddin Manguberding 800 yilligiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda esa mavzuning ko'plab o'rganilmagan qirralari ma'lum qilindi.

Jaloliddin og'ir bir paytda, Movarounnahr urush domiga tortilgan, mamlakatning katta qismi mo'g'ullar tomonidan istilo etilgan, xorazmshohlar qo'shini yakson qilingan, amirlarning bir qismi xoinlik, qolgani o'z joni-mulkini asrash yo'lga tushgan, sulton mamlakatni o'z holiga tashlab qo'ygan, o'zaro sarosima va tahlika hukm surgan bir vaqtda tarix sahnasida paydo bo'ldi. Jaloliddin shunday bir og'ir vaziyatda, Vatan va xalq erki uchun kurashib, mo'g'ullarga qarshi 11 yil davomida kurash olib bordi, 14 marotaba mo'g'ullarga qarshi ot surib, uning 13 tasida g'oliblikni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldi.

Mo'g'ullar bosqini arafasida Jaloliddin garchi katta o'g'il bo'lsa-da, buvisi Turkon xotun tomonidan hokimiyatdan chetlatilgan bo'lib, taxt vorisi etib Turkon xotun urug'idan bo'lgan boshqa bir shahzoda – Qutbiddin O'zloqshoh valiahd deb e'lon qilingan edi.

Taomilga ko'ra shahzodalarga turli hududlar mulk etib bo'lib berilgan edi. Xususan, G'azna, Bomiyon, al-G'ur, Bo'st, Takinobod, Zamin-Davora va Hindiston bilan chegaradosh yerlar Jaloliddinga mulk etib berilgan edi. Garchi Jaloliddin buvisining izmi bilan markazdan chetlatilgan bo'lsa-da, lekin sulton unga alohida muhabbat bilan qarar, uning jasurligini qadrlar, o'g'lini o'zidan uzoqlashib ketmasligini xohlar edi. Shuning uchun ham unga vazir etib taniqli davlat amaldori Shams-al Mulk Shahobiddin Alp al-Haraviyni, noib (o'rinbosar) sarkarda etib esa Kuzbar Malikni tayinlaydi.

Mo'g'ullar ta'qibidan hayiqib, ma'lum vaqt Xurosonda sargardon bo'lgan Muhammad Xorazmshoh plevrit (o'pkaga suv yig'ilish) kasali bilan og'rib, taxminan 1220-yilning oxirlarida (hijriy 617-y.) quvg'inlikda Kaspiy dengizidagi Ashuradi (Ashura) orolida vafot etdi. O'limi oldidan sulton Jaloliddinni «taxt vorisi» deb e'lon qilib, sultonlik ba'zi rutbalarini unga topshirdi. Jaloliddin o'z inilari O'zloqshoh va Oqshohlar bilan otasini dafn etgach, 70 ta kishisi bi-



yotgani va mo'g'ullar undan Qandahorda zarbaga uchraganligidan g'azablanib, no'yon Shiki Xutuxu boshchiligidagi qo'shinni uning ustiga yuboradi. U 1221-yilning kuzida Jaloliddin yerlariga yaqinlashib keladi. Bu vaqtda mo'g'ullarning Tekechuk va Molgor boshchiligidagi peshqadam guruhi Chorikordan shimolroqdagi Valiyon qo'rg'onini qamal qilishni boshlagan edi.

Jaloliddin bir hamladayoq mo'g'ullarni zarbaga uchratishga muvaffaq bo'ldi. Bu jangda mo'g'ullarning 1000 dan ziyod kishi halok bo'ldi. Ko'plab tarixchilar, jumladan, Ibn al-Asir, Juvayniy, Rashididdin bu jangga yuqori baho berishgandi. Jaloliddinning mo'g'ullarga qarshi muhim janglaridan biri 1221-yilning kuzida shimoliy Afg'onistonning Lagar daryosi bo'yidagi Parvon dashti yaqinida bo'lib o'tadi. Birlashgan qo'shinga shaxsan Jaloliddinning o'zi lashkarboshilik qilib, o'ng qanotga Amin Malik, chap qanotga Sayfiddin O'g'roq boshchilik qilishadi. Mo'g'ullar jon-jahdlari bilan kurashga kirishadi. Hatto Shiki Xutuxuning buyrug'i bilan Jaloliddin qo'shiniga xavf tug'dirish maqsadida har bir mo'g'ul askarining orqasiga namatdan yasalgan soxta qo'g'irchoq – tulup ham o'tkazib qo'yishadi. Parvon jangi mo'g'ullarning mutlaq mag'lubiyati bilan tugab, Shiki Xutuxu qolgan-qutgan qo'shini bilan Chingizxon huzuriga zo'rg'a qochishga ulguradi.

Parvon yaqinidagi jang Movarounnahr va Xuroson ahli uchun nihoyatda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Shu paytgacha mo'g'ullarning «ilohiy», «yengilmas» kuch-qudratga egaliklari xususidagi gap-so'zlariga, afsonalarga batamom chek qo'yildi. Jaloliddinning g'alabasidan Movarounnahr va Xuroson xalqlarining ruhi ko'tarildi, g'alaba ta'sirida Saraxs, Marv, Hirot va boshqa Xuroson shaharlarida mo'g'ul istilochilariga qarshi xalq isyonlari boshlanib ketdi. Buxoroda bosh ko'targan aholi esa mo'g'ullarni shahardan siqib chiqarishga muvaffaq bo'ldi. Chingizxon Jaloliddinning kuchayib borishi, uning xalq ommasi tomonidan qo'llab-quvvatlanishi mo'g'ullar bosib olgan yerlar uchun qanchalik xavf tug'dirishini yaxshi anglab yetgan edi. Shu sababdan ham shaxsan o'zi Jaloliddinni qanday qilib bo'lmasin

mag'lub etish maqsadida shitob bilan katta qo'shinga bosh bo'lib, janub tomon yo'l oldi.

Jaloliddinning qo'shini Parvon jangidan so'ng katta o'ljani qo'lga kiritgan edi. Ushbu o'ljaning taqsimlanishi vaqtida Jaloliddinning ikki sarkardasi Amin Malik va Sayfiddin O'g'roq o'rtasida ixtilof chiqadi. Istilof natijasida Sayfiddin O'g'roq va undan keyin boshqalar ham qo'shindan ajrab chiqib ketishadi. Jaloliddinning qo'shini nisbatan kamayib, uning o'zi tang bir ahvolda qoladi. Jaloliddinning uni tark etgan sarkardalarga qayta ittifoq tuzish, dushmanga qarshi birgalikda kurash olib borish to'g'risidagi murojaatlari zoye ketadi. Jaloliddin ichuk og'rig'i kasaliga duchor bo'lib turgan paytida mo'g'ullarning peshqadam guruhi Gardizga (G'aznadan 50 km. Sharqda joylashgan shahar) o'rnashganligidan xabardor bo'ladi. Sarkarda xastaligiga qaramasdan Gardizdagi mo'g'ul askarlariga to'satdan zarba berib, O'rxon boshligidagi mo'g'ul otryadini mag'lubiyatga uchratadi. U Chingizxonga qarshi ozchilik qo'shin bilan kurasha olmasligini anglab, Sind (Hind) daryosi bo'yiga chekinishga qaror qiladi.

Jaloliddinni qanday qilib bo'lmasin mag'lub etish va uni qo'lga tushirish ilinjida bo'lgan Chingizxon uni izma-iz ta'qib etib kelar edi. Jaloliddinni ta'qib etib kelayotgan mo'g'ullarga ayniqsa Bamiyon qal'asi qattiq qarshilik ko'rsatadi. Bamiyon qamali vaqtida Chig'atoyning o'g'li, Chingizxonning suyuqli nevarasi Mutulk halok bo'ladi. Bundan darg'azab bo'lgan Chingizxon qal'adan bironta o'lja, bironta odamni asirlikka olmay, barcha qal'a ahlini qirib tashlashni buyuradi. Yer bilan yakson qilingan sobiq Bamiyon qal'asi keyinchalik mo'g'ullar tomonidan «Mo'balig» (ya'ni, ahmoqona shahar) nomini oladi.

Nihoyat, 1221-yilning 25-noyabr payshanba kuni (hijriy 618-yil shavvol oyining sakkizinchi kuni) Sind daryosi bo'yida uch kun davom etgan hal qiluvchi jang boshlanadi. Bir qator o'rta asr musulmon tarixchilarining ta'kidlashlaricha, bunday qonli, keskin va dahshatli jang tarixda ro'y bermagan ekan. Jaloliddin va uning qo'shini misli ko'rilmagan darajada jasorat va bahodirlik namunalari ko'rsatadi.

Faqat uchinchi kunga kelib, Chingizxon qo'shini ustunlikka erisha boshlaydi. Jaloliddinning taxminan 7–8 yoshli o'g'li Chingizxon otryadi qo'lga tushib qolib, o'ldiriladi. Jangda mardonavor kurashgan Amin Malik va boshqa ko'plab sarkarda, navkarlar ham halok bo'lishadi. Chingizxon qanday qilib bo'lmasin Jaloliddinni tiriklayin qo'lga olishga buyruq beradi. Jaloliddin esa uni qo'lga olishga intilayotgan mo'g'ul qo'shini qurshovini faqat shaxsiy bahodirligi tufayli yorib chiqib, Sind daryosi bo'yiga yetib kelishga muvaffaq bo'ladi. Daryo bo'yida uni onasi Oychechak va haramdagi boshqa ayollar kutib turishardi. Shundoq ham bu jangdan ruhan va jismonan ezilgan Jaloliddinga ular: «Alloh nomi bilan sendan yolvorib so'raymiz, bizlarni o'ldir va shu tariqa asir tushishdan qutqar», deya murojat qilishadi. Jaloliddin barcha haram ayollarini suvga cho'ktirishga ko'rsatma berishdan boshqa iloji qolmaydi. An-Nasaviy bu voqelikni: «Bu ko'z ko'rib, quloq eshitmagan baxtsizlik, og'ir qayg'u edi», deya yozgan edi. Jaloliddin oti bilan suvga sakrab, daryoning narigi qirg'og'i – Hindiston tomonga suzib o'tadi.

Jaloliddinning har qanday vaziyatda ham o'zini yo'qotmasligi, uning jasorati va mardligiga, metindek irodasiga Chingizxon ham tan beradi. Tarixchilardan Juvayniy, Rashididdin va boshqalarning yozishlariga qaraganda, Jaloliddinning jasoratiga qoyil qolgan Chingizxon o'z o'g'illariga qarata: «Otaning faqat shunday o'g'li bo'lishi lozim. U olovli jang maydonidan o'zini qutqarib, halokatli girdobdan najot qirg'og'iga chiqdimi, undan hali ulug' ishlar va qiyomatli isyonlar keladi!» – deydi va uning orqasidan ta'qib etishni taqiqlaydi. Sind daryosi bo'yidagi jangdan so'ng Chingizxon uch oy davomida Jaloliddin qo'shinidan o'z vaqtida ajrab ketgan sarkardalar qal'alarini qo'lga olib, ularni yo'q qilish bilan band bo'lgan.

Rashididdinning yozishiga ko'ra, Jaloliddin daryodan taxminan 4000 ta tirik qolgan kishilari bilan Hindiston qirg'og'ida uchrashadi. Daryodan tirik chiqqanlar orasida 300 dan ziyod otliqlar ham bo'lgan. Ular sarkardalar Qulbars Bahodir, Kabkux, Sa'daddin Ali ash-Sharobdor boshchiligida bo'lib, daryoning turli qirg'oqlariga

chiqishib, uch kun ichida uni izlab uchrashishgan edi. Jaloliddin ham, tirik qolganlar ham ma'naviy-ruhiy og'ir janglardan so'ng jismoniy ezilgan holda murakkab bir ahvolda qolishgan edi. Bu vaqtda Shatra deb atalgan hududdagi<sup>1</sup> mahalliy hind rojalaridan biri bir necha ming chog'li otryadi bilan daryoning bu betiga suzib o'tgan xorazmliklarni qirib tashlash uchun yetib keladi.

Faqatgina Jaloliddinning tengsiz bahodirligi va qahramonona xatti-harakati tufayli roja o'ldirilib, qo'shin orqaga chekindi. Bu jangdan xorazmshoh askarlarining ruhi ham ko'tarilib, tez orada Jaloliddin o'z atrofiga bir necha ming kishilik askarni yig'ishga muvaffaq bo'ldi. Og'ir vaziyatlarda ham o'zini yo'qotmay, qaddi bukilmagan sarkarda Hindistonga o'tgach, Sind daryosi bo'yidagi yerlarni ishg'ol qila boshlaydi. Tez orada Jaloliddin hokimiyatini Dehli sultoni Shamsiddin Eltutmish (1211–1236) va Sind, Uchcha, Mo'ltan, Lohur va Peshovar hokimi bo'lgan Nosiriddin Qubacha (1205–1227) ham tan olishadi. Eron va Xurosondan bir qator amirlar ham Jaloliddinga kelib qo'shilishadi. Jaloliddin Nosiriddin Qubachaning qo'shinini yengib, bir qator shahar va qal'alarni egallashga muvaffaq bo'ladi, mo'g'ullarga qarshi Mo'ltan tomonga ham yurish qiladi. Dehli sultoni Shamsiddin Eltutmish ham Jaloliddinga o'zaro hamkorlik qilish to'g'risida maktub jo'natadi. Jaloliddin Hindistonda o'z nomidan kumush tangalar zarb qiladi, unga qarashli mulklarda xorazmshoh nomiga xutba ham o'qiladi.

Ta'kidlash joizki, Hindistonda muqim qolish Jaloliddin rejalardan joy olmagan edi. Qolaversa, Hindistondagi mahalliy hokimlar xufiyona ravishda uni o'lkadan siqib chiqarishni ham rejalashtirgandi. Shunday qilib, Jaloliddin mo'g'ullarga qarshi kurashni davom ettirish maqsadida yana g'arb tomonga yo'l oladi.

Jaloliddin 1223-yilning oxirlarida, xorazmshohlarning azaliy mulki bo'lgan Iroq va Eronni o'z izmiga kiritish, mo'g'ullarga qarshi kurashni davom ettirish maqsadida yo'lga otlandi. O'z o'rniga noib

<sup>1</sup> Shatra viloyati «Jud» deb nom olgan tog'lik qismini o'z ichiga olgan.



etib, taniqli sarkarda Jahon polvon O'zbekni qoldirib ketadi. Jahon polvon to 1229-yilgacha Hindiston mulklarini boshqarib, so'ngra Jaloliddin huzuriga Iroqqa qarab ketadi va uning harbiy yurishlarida yelkadosh bo'lib xizmat qiladi.

1224-yilning boshida Jaloliddin 4000 kishilik qo'shin bilan Kirmonga keldi. U o'zining asosiy maqsadi mo'g'ul istilochilariga qarshi kurashib, mustaqil davlat yalovini tiklash ekanligini bildiradi. Uning Sheroz va Isfahonga tashrifini xalq ommasi katta tantana bilan kutib oladi. Kirmon va unga tutash yerlar hokimi, Jaloliddinning inisi G'iyosiddin Pirshoh avvalboshida akasiga bo'ysunishni istamadi. Jaloliddinning qat'iyligi, mardligi, azm-u shijoati, markazlashgan kuchli davlat barpo etish g'oyasi xalq ommasining turli qatlamlari manfaatlariga ma'qul keldi. Hatto G'iyosiddinning onasi ham Jaloliddin faoliyatini ma'qulladi. Shundan so'ng G'iyosiddin hukmidagi yerlar sulton Jaloliddin qo'lga o'tdi. Jaloliddin o'zboshimchalik va parokandalikka chek qo'ydi.

1224–1225-yillar boshlarida Ozarbayjon va Arron o'lkalari egalandi. Xususan Marog'a aholisi unga murojaat qilib, Ozarbayjon otabegi O'zbekning bepisandligi va loqaydligi, uning xotini saljuqiylar so'nggi sultoni To'g'rul III ning qizi Malika xotunning beboshligidan shikoyat qilib, shaharni o'z himoyasi ostiga olishni so'radi.

1225-yil mayda Marog'a jangsiz taslim bo'ldi. Marog'ada turib Jaloliddin yon-atrofdagi hokimliklar – Ko'niya sultoni Kaykubod I ga, Jazira hokimi Malik al-Ashrafga, Damashq hokimi Malik al-Muazzamga, Misr hokimi Malik al-Komilga maktublar jo'natib, o'zaro do'stlik aloqalarini o'rnatish, kelgusida birgalikda mo'g'ullarga qarshi kurashish maqsadini bayon etadi. U Marog'a va Tabrizda obo-donchilik ishlarini amalga oshiradi, beboshlik, o'zboshimchalik, talonchilikni ancha bartaraf etadi.

Jaloliddin mo'g'ullarga qarshi birgalikda kurash olib borish maqsadida ukasi G'iyosiddin Pirshoh, Bag'dod xalifalari az-Zohir (1225–1226), so'ngra al-Muntasir (1226–1242), Gurjiston malikasi Rusudana va boshqalarga ham murojaat qiladi. Lekin mo'g'ullar

qasosi, qolaversa, Jaloliddinning hokimiyati kuchayib ketishidan cho'chigan ko'pchilik musulmon hukmdorlari u bilan ittifoq tuzishni xohlamaydi. Bag'dod xalifaligi, ismoiliylar hokimi Muhammad III (1221–1255)lar esa mo'g'ullar bilan yaqinlashishga, Jaloliddinga qarshi ochiqdan ochiq kurashishga bel bog'lashadi. Malika Rusudana va uning vaziri Avak bilan o'zaro ittifoq xususidagi takliflari zoye ketgandan so'ng, 1226-yil fevralida sarkarda Gurjistonga yurish qiladi. Gurjiston qattiq jang ila egallanib, bu yerda ko'plab kurashlar bo'lib o'tadi. Bosh ko'targan Gurjiston ikkinchi marotaba 1228-yil egallandi. Ozarbayjon, Shirvon, Gurjiston Jaloliddinning o'limiga qadar uning qo'lida bo'ldi.

Bir vaqtning o'zida Jaloliddin Manguberdi Kirmonda unga qarshi bosh ko'targan xiyonatkor Barak Hojibga va ismoiliylarga ham qarshi kurash olib borishga to'g'ri keldi. Shuningdek, strategik jihatdan ahamiyatli hisoblangan Ararat tog'liklari etaklarida joylashgan Xilat qal'asi ham Jaloliddinga uzoq vaqt mobaynida qarshilik ko'rsatdi. 1227-yil kuzida mo'g'ullarning Eronga kirib kelish niyatlari borligini bilgan Jaloliddin ularga qarshi qat'iy jangga kirishga tayyorgarlik ko'radi. Mo'g'ullarning o'sha yili yuborilgan 2000 kishilik avangardi tor-mor etilib, ulardan 400 tasi Isfahonda namoyishkorona tarzda jazolanadi.

1227-yil 5-sentabrda Eronni zabt etish uchun kelgan Taynal no'yon boshchiligidagi mo'g'ul istilochilari bilan Isfahon yaqinida hal qiluvchi jang bo'lib o'tdi. Garchi jang vaqtida G'iyosiddin Pirshoh xoinlik qilib, o'z qo'shini bilan Luristonga chekingan bo'lsa-da, Jaloliddin qat'iy ravishda, bu holatga e'tibor qilmay, shiddatli kurash olib bordi. Manbalarning so'zlashicha, hatto mo'g'ul no'yonining o'zi: «Haqiqatan ham u o'z davrining bahodiri va tengqurlarining dohiysidir!» – deb uning jasoratiga tan bergan ekan. Jaloliddin bu jangda butkul g'oliblikni qo'lga kiritadi. U sakkiz kun mobaynida Erondagi mo'g'ullarni izmaiz ta'qib etib, ularni mamlakatdan haydab chiqardi.

Jaloliddin erta tongda muzaffar sarkarda sifatida Isfahonga kirib kelgach, xalq uni g'olib sulton sifatida shod-u xurramlik bilan



kutib oladi. Jaloliddinning zafarli g'alabasi ovozasini butun islom olamiga keng tarqaldi. O'sha yili hatto mo'g'ullarning buyuk xoni bo'lgan Tuli Jaloliddinning mo'g'ullar ilkiga tushib qolgan egachisi Xonsulton orqali unga maktub yuborib, u bilan sulh tuzish niyati borligini ham bayon qiladi. Jaloliddin bu diplomatik kelishuvdan voz kechib, xatni<sup>1</sup> javobsiz qoldirdi. Shu o'rinda masalaning yana bir jihatiga e'tiborni qaratish joiz. Xonsulton tomonidan yuborilgan maktubda sulh tuzish imkoniyati bilan birga qasos olish to'g'risidagi gaplar ham bor edi. Jaloliddin shu paytda nihoyatda murakkab harbiy-siyosiy vaziyat domiga tushib qolgandi. Bir tomonda mo'g'ullar, boshqa tomonda yon-atrofdagi arab, fors, turkiy hokimliklar, ularning manfaatlari, Bag'dod xalifaligi bilan chigal munosabatlar, o'z davlatidagi siyosiy nizolar – bularning barchasi yuqorida qayd etilgan mulohazaning mantiqiy tasdig'i bo'lib xizmat qilardi.

Jaloliddin har qanday ixtilof, nizolarni bartaraf etib, yon-atrofini o'z bayrog'i ostida birlashtirgan holda mo'g'ullarga qarshi kurashni davom ettirishni rejalashtirgan edi. Shu boisdan ham u sulh tuzish haqidagi mo'g'ullar murojaatini javobsiz qoldirgan. 1229-yili jangda xiyonat qilgan ukasi G'iyosiddinni Jaloliddin avf etadi, biroq tez orada yana fitnachilar domiga tushib qolgan G'iyosiddinning o'zi uning qurboniga aylanib, Baraq hojib tomonidan o'ldirildi. Bundan voqif bo'lgan Jaloliddin fitnachilarni jazolab, Kirmonda osoyishtalik o'rnatadi. Xorazmshoh Jaloliddin Kirmon, Fors, Fors Iroqi, Ozarbayjon, Gurjiston va unga tutash yerlarda katta davlat barpo etishga muvaffaq bo'ldi.

<sup>1</sup> Xonsulton Gurganj olinganidan so'ng Chingizxonning o'g'li Jo'chiga xotin qilib berilgan edi. Xatning mazmuni quyidagicha bo'lgan: «Sening kuching, qudrating va mulklarning ulkanligi haqidagi xabar xoqonga yetdi. Shuning uchun u sen bilan qarindosh bo'lishga qaror qilib, mulklaringiz chegarasini Jayhun daryosi bo'yicha o'tkazish haqida kelishib olmoqchi: senga – daryogacha bo'lgan, unga – daryodan narigidagi yerlar. Shuning uchun, agar sen ularga qarshi turishga kuch yig'a olsang, qasos ol, ular bilan jang qil. Agar yengsang xohlaganingcha foydalalanib, ularning istagi bo'yicha sulh tuz!».

Jaloliddin murakkab va ziddiyatli davrda yashadi. Shubhasiz, u ham ushbu davrning farzandi edi. U qo'shinlarining ko'plab harbiy yurishlar vaqtida talonchilik, zo'ravonlik qilishlariga gohida ko'z yumdi. Bu esa Eron, Ozarbayjon, Iroq, Gurjiston ahlida ma'lum salbiy fikrlarning yuzaga kelishiga, noroziliklarning paydo bo'lishiga ham olib kelgan edi. Harbiy yurishlar vaqtida ba'zi amaldorlar, xususan vazir al-Jandiyning riyokorligi Jaloliddinning obro'-e'tiboriga ancha zahmat yetkazdi.

Qaltis va tahlikali vaziyatga qaramay, sulton Jaloliddin ichki hayotdagi salbiy holatlarga qarshi kurashishga jazm qildi. O'z riyokorligi va mansabini suiiste'mol qilganligi bilan nom chiqargan, Jaloliddin yo'q vaqtida xazinani talon-toroj qilgan vazir al-Jandiy jazolanadi. Jaloliddin o'z mansablarini suiiste'mol qilgan, bu tufayli xalqqa ko'p jabr-zulm keltirgan boshqa amaldorlar faoliyatini tashqir qilib, ularni ham jazoga tortadi. Tabrizga tashrif buyurgan sulton barcha arzchilarning arz-dodini tinglab, tegishli choralarni ko'radi. Xalq ommasiga xayrixohlik nuqtayi nazaridan Tabrizni uch yillik soliqlardan ozod qiladi. Doimiy jang harakatlarida bo'lishiga qaramay, Isfahonda otasiga atab madrasa qurishni boshlaydi, ancha vaqt qamal qilingan Xilat qal'asini qayta tiklashga buyruq beradi va hokazo. Bu xususda jumladan tarixchi an-Nasaviy shunday deya yozgan edi: «Jaloliddin davrida bir qancha fitnalar, g'am-qayg'u, mashaqqat-u anduhlarga, vazirlarning tarqalib ketishiga va mehnatkash ommaning atroflarda boshpana izlab yurishlariga barham berildi. Ular birlashtirildi va mustahkamlandi».

Lekin nima bo'lganda ham Jaloliddin Manguberdi o'zining asosiy maqsadi mo'g'ul istilochilariga qarshi kurashish ekanligini yodida saqladi. Bu kurashda u yon-atrofdagi musulmon hukmdorlarining qo'llab-quvvatlashlariga umid bog'lagan edi. Lekin ko'p holda, yuqorida qayd etilgan ma'lum sabablarga ko'ra ular bilan umumiy til topishish imkoni bo'lmadi. O'z vaqtida turk, arab, musulmon hokimlari uning hokimiyatini Yaqin Sharqda kuchayib ketishidan xavfsirashar, Jaloliddin bilan ittifoq tuzishni xohlashmas edi. Ularning



ba'zilari hatto mo'g'ullar bilan ochiqdan ochiq yaqinlashish siyosati tarafdori ham edilar. Ayniqsa, Xilat qal'asining Jaloliddin tomonidan egallanishi unga da'vogar hokimlarning izzat- nafsini toptagan edi. Jaloliddin unga qarshi ittifoq vujudga kelganidan xabardor bo'lsa-da, hech bo'lmaganda uni ma'lum turkiy hukmdorlar qo'llaydi, deb yanglishgan edi. Jaloliddin va ittifoqchilar qo'shini o'rtasidagi birinchi jang 1230-yil 7-avgustda Yassi Chaman (Arzinjon yonida) tekisligida bo'lib o'tdi. Jaloliddin birlashgan ittifoqchilar qo'shinini mag'lub etsa-da, lekin ularni oxirigacha ta'qib etmadi. Bu hoi ittifoqchilar qo'shiniga qo'l keldi.

1230-yil 10-avgustida Ko'niya sultoni, Xims hokimi, Damashq hokimi, Xartabart hokimi, Halab hokimi, Mayafariqin hokimi va Baynas hokimlarining birlashgan ittifoqining ikkinchi jangida Jaloliddin mag'lub etildi. Ismoililar esa butkul xoinlik yo'lini tutib, Jaloliddinning mag'lubiyati to'g'risida mo'g'ullarga yashirin noma ham yuborishdi. Jaloliddin mag'lubiyatidan foydalangan mo'g'ullar uning Ozarbayjonning Mug'on, Shirkabutdagi qo'shin yig'ishi mumkin bo'lgan joylariga qo'qqisdan zarba berishdi. 1231-yil bahorida u Ganjaga kelib, barcha gina-kuduratlarini unutib, yana mo'g'ullarga qarshi ittifoq tuzish uchun musulmon hukmdorlariga murojaat etdi. Jaloliddin Ganjada turib, o'zaro birlashish haqida qo'shni o'lkalar hokimlariga yuborilgan maktublarga javobni 17 kun davomida kutdi. Jaloliddinga hech qayerdan javob xati kelmadi. Jaloliddin Arrondan chiqib, Kichik Osiyo tomon yo'l olish va u yerda kuch to'plash niyatida edi. Lekin Amid (Diyorbakir) amiri Malik al-Mas'ud taklifiga ko'nib, Ko'niya sultoniga qarshi kurash rejasini qabul qildi.

Shunda Amid yo'li yaqinida unga to'satdan mo'g'ullar hujum qilib qolishdi (1231-yil avgust boshi). Uni 15 chog'li mo'g'ul navkarlari ta'qib etishdi. Jaloliddin o'z sheriklaridan ajrab, Mayafariqin (hozirgi Turkiyaning Silvan viloyati) yaqinida Ayn-ad-dar qishlog'iga keladi. Ushbu tog'lik qishloqda u kurdlar qo'lga tushadi. O'zini «sulton» deb tanishtirgandan so'ng uni kurdlar o'ldirishga jazm etishmaydi. Uni tegishli joyga yetkazib qo'yish evaziga kurd-

larga mukofot va'da qilinadi. Lekin kurdlar rahbari xonadonidan joy olgan, horib-tolgan Jaloliddinni boshqa bir kurd kishisi o'lgan inisi xuni evaziga o'ldiradi. Bu voqea taxminan 1231-yilning avgust oyi 17-20-sanalari oralig'ida ro'y beradi. Ertasi kuni sulton buyumlarini sotib yurgan kurd xususida Mayafariqin hukmdori al-Malik al-Muzaffarga xabar berishganda, u qishloqqa o'z sarkardasi Shahobiddin G'oziy yuboradi. Shahobiddin G'oziy sulton jasadini olib, qishloq erkaklarining barini o'ldiradi va qishloqqa o't qo'yib yuboradi. Muarrix an-Nasaviy buni eshitib, shaxsan Mayafariqinga o'zi keladi. Jaloliddinning amakisi, vazir O'turxon uning jasadini tanib, qattiq iztirobga tushadi. Jaloliddin Manguberdining murdasi Mayafariqinga dafn etilib, mo'g'ullar kirib kelgudek bo'lsa, haqoratlanmasin degan maqsadda qabri yer bilan tekislab yuboriladi.

Jaloliddinning ashaddiy dushmani Damashq hokimi al-Malik al-Ashrafga sulton halokati xususida xabar yetkazib suyunchi so'raganlarida, u qayg'uga botib: «Sizlar uning o'limi bilan meni qutlamoqchimisizlar? Ammo siz voqeaning achchig'ini tatib ko'rasizlar. Alloh nomi bilan qasam ichamanki, uning halokati islom olamiga mo'g'ullarning bostirib kirishini anglatadi. Endilikda biz bilan ya'juj va ma'jujlar o'rtasida devor bo'lib turgan Xorazmshohdek odam yo'qdir», – deb javob bergan edi. Ibn Vosil esa uni, «mo'g'ullar va musulmonlar orasidagi istehkom bo'lgan», deb ta'riflagan edi. Jaloliddinning o'limidan so'ng uning shonli nomi tez orada xalqlar tilida doston bo'lib ketdi. «Jaloliddin tirik», «Jaloliddin qaytib kelayapti» degan ovozarlar uzoq vaqtgacha mo'g'ullarni tahlikaga solib kelgan. Sulton Jaloliddin nomi bilan bog'liq har qanday ma'lumot, voqelikni mo'g'ullar sinchkovlik bilan tekshirishgan. O'zini «men Jaloliddinman» deb nomlagan turli shaxslar mo'g'ullarga qarshi ko'p holatda isyon va qo'zg'olonlarga boshchilik qilishgan (masalan, 1236-yili Eronning Ustundorida ko'tarilgan qo'zg'olon, 1255-yili Amudaryo bo'yidagi voqealar va hokazo).

O'rta asr musulmon tarixchilari o'z asarlarida hamisha uni mard va jasur sarkarda sifatida ta'riflashgan edi. Jaloliddin Manguberdini



shaxsan bilgan tarixchi an-Nasaviy unga shunday deya ta'rif bergan edi: «U turkiy bo'lib, qora mag'iz yuzli, burni oldida qora xoli bor, o'rta bo'yli yigit edi. Fors tilida ham bemalol so'zlasha olar edi. U dovyuraklikda tengi yo'q, sherlar ichida arslon, otliqlar ichida eng jasuri edi... Qisqa so'zli, hech qachon so'kinmagan, yomon so'zlarni o'ziga ep ko'rmagan, juda jiddiy, atrofdagilar oldida o'zini sipo tutar, hech qachon kulmas, faqatgina tabassum qilib qo'yar edi, xolos. U adolatni sevgan, lekin zamon zayli uni o'zgartirishga majbur qilgan. U o'z fuqarolari dardini yengillashtirishga harakat qilgan. Shuni xohlagan, lekin tanazzul davri bo'lganligi bois ham zo'ravonlikka yo'l bergan. O'zini ulug'lashlarini istamagan. Bachkana ta'riflarni yoq-tirmagan, faqat «sulton» deya murojaat qilishlarini so'ragan. Uning farmonlarida yolg'iz so'z: «Yordam yolg'iz Alloh dandir!» degan shior bo'lgan».

Xorazmshohlar avlodidan bo'lgan Misr hokimi al-Muzaffar Sayfiddin Kutuz ajdodlarning shonli kurash yo'lini davom ettirib, 1260-yil 4-aprelda Falastindagi Ayni Jalut yonida mo'g'ullarga qaqshatqich zarba berib, ularning Suriya va Misrga kirib kelishlariga chek qo'yadi<sup>1</sup>.

Jaloliddinning ozodlik va mustaqillik kurashlari tarixi asrlar davomida Sharq xalqlari tillarida doston bo'lib ketdi. Eron, Turkiya, Misr, Pokiston, Suriya, Hindiston, Iroq va boshqa davlatlarda uning jasoratli hayot yo'lini aks ettirgan asarlar nashr etilishi hamda buyuk sarkarda faoliyati xususida Yevropada ham tarixiy adabiyotlar chop etilganligi, 1998-yil Jaloliddin Manguberdining 800 yillik tavalud to'yiga bag'ishlab o'tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda ta'kidlanganidek, sarkardaning «insoniyatga ozodlik yo'lida kurashning, yurtni istibdod va zulmdan qutqarishning yorqin namunasi» sifatida bashariyat tarixida o'chmas iz qoldirganligidan darak beradi.

Jaloliddin Manguberdi (Mankburni) xotirasini abadiylashtirish va tarixiy adolatni qaror toptirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi

<sup>1</sup> Al-Maqriziy Sulton Kutuzning haqiqiy ismi Mahmud ibn Mahmud, uning otasi Jaloliddinni amakisining o'g'li bo'lgan, deb yozgan edi.

Vazirlar Mahkamasi 1998-yil 24-sentabrda 408-sonli maxsus qaror qabul qildi. Ushbu qarorga muvofiq buyuk sarkardaning tavallud to'yi keng miqyosda nishonlandi. Yubiley munosabati bilan Urganchda sarkardaga ulkan memorial yodgorlik o'rnatildi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Xorazm Ma'mun akademiyasi, bir qator oliy o'quv yurtlari, turli jamg'armalar mutaxassislari tomonidan ko'plab risolalar chop etildi, mohir rassom T.Quryozov tomonidan sarkardaning portreti yaratildi. «Jaloliddin Manguberdi – Vatan, yurt himoyachisi» mavzusida xalqaro ilmiy anjuman o'tkazildi, yurtimiz mehmonlari ishtirokida ulkan teatrlashtirilgan tomoshalar bo'lib o'tdi.

1999-yil noyabrda Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yil-ligining keng nishonlanishi, uning vatani Xorazmda unga mahobatli haykal o'rnatilishi, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I. Karimov ta'kidlaganidek, «G'anim oldida bosh egmagan, tiz cho'kmagan, Vatan deya halok bo'lgan» milliy qahramonimizga xalqimizning buyuk ehtiromi, muhabbati, ajdodlar xotirasini muqaddas saqlashi ramzi bo'lib qoldi. 2000-yil 30-avgustda «Jaloliddin Manguberdi» ordenining ta'sis etilishi esa uning sarkardalik faoliyatining yana bir e'tirofi bo'ldi.

#### **14.4. Mo'g'ullar istilosidan keyingi siyosiy vaziyat. Chig'atoy ulusi davridagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar**

Mo'g'ullar istilosidan so'ng Movarounnahr, Xorazm, Xurosonning gullab-yashnagan dehqonchilik vohalari tamomila halokatga uchradi. Sharqda dong'i ketgan qadimiy va obod shaharlar, jumladan Samarqand, Buxoro, Urganch (Gurganj), Xo'jand, Marv, Termiz, Balx, Nishopur va boshqa shaharlar xarobazorga aylantirildi. Marvdagi suv bilan shaharni ta'minlovchi Sultonband, Balxob daryosidagi Bandi amir, Samarqand shahrini suv bilan ta'minlaydigan yagona to'g'onlarning hammasi Chingizxon buyrug'iga ko'ra buzib tashlandi. Jumladan, Balx va uning atroflari olti oy mobaynida suv ofatini



boshdan kechirdi. Samarqandning asosiy aholisi, buxoroliklarning ko'pchiligi, Urganch (Gurganj) va Marv kabi ulkan shaharlar ahlining barchasi ona shaharlarini yo tark etishdi yoki qirib tashlandi. Istilochilar ilk bora yuqori madaniyatli aholining ilm-fan, me'morchilik sohalaridagi yutuqlarini, yuksak darajadagi hunarmandchilik, tijorat, sug'orma dehqonchilikni shu o'lkaga kelib ko'rishdi.

Bosqindan so'ng Sharqqa dong'i ketgan zargarlik, qurol-aslaha yasash, nafis matolar to'qish, naqshinkor nimchalar ishlab chiqarish va boshqalar barham topdi. Vohalarda suvsizlikdan yerlar qaqrab, dehqonchilikka qiron keldi. Bir necha asrlik tarixga ega bo'lgan mashhur savdo yo'llari izdan chiqdi. Ilm-fan, madaniyat namoyandalari xor-zor etildi, tirik qolgan aholi esa zulm va zo'ravonlik, ochlik va qashshoqlikka mahkum etildi.

Chingizxon tiriklik vaqtidayoq o'z o'g'illariga mulklarini ulus qilib bo'lib berishni boshlagan edi. 1207-yildayoq katta o'g'il ilkiga Selenga daryosidan Irtishgacha bo'lgan yerlar mulk etib berilgan edi. Chingizxon o'limidan oldin (1225-yil avgust) esa boshqa o'g'illariga ham turli zabt etilgan yerlarni ulus etib bo'lib berdi. Janubiy Sibirdan Xorazm va Darbandgacha bo'lgan yerlar Jo'chiga, Oltoy tog'larining janubiy sarhadlaridan to Amudaryo va Sindgacha bo'lgan yerlar ikkinchi o'g'il Chig'atoyga, Xitoy va Mo'g'uliston voris bo'lgan uchinchi o'g'il O'gedeyga, Eron va Xuroson Tuliga ulus tarzida bo'lib berildi.

Rashididdinning ma'lumotiga ko'ra, Chingizxon vafotidan so'ng Chig'atoyga 4000 ta askar tekkan ekan. Ularning boshliqlari o'z navbatida barlos, jaloyir, qavchin va orlot qabilalaridan bo'lgan. Ibn Arabshohning yozishicha, qavchinlar Amudaryo shimoli, Buxoroning Sharqiy tomonlarida, barloslar Qashqadaryo vohasida, orlotlar Afg'oniston shimolida joylashishgan. Keyinchalik Mahmud Yalavoch ham o'z siyosati borasida shu qabilalarga suyanib ish ko'rar edi. Mo'g'ullar ko'chmanchi xalq bo'lgani uchun boshqaruv tizimini yaxshi tushunishmasdi. Chingizxon tiriklik vaqtidayoq xorazmlik taniqli savdogar, mo'g'ullar xizmatida anchadan beri faoliyat

ko'rsatayotgan Mahmud Yalavochni Movarounnahr noibi etib tayinlashini bildirgan edi va u tez orada Movarounnahr noibi etib tayinlanadi. Uning qarorgohi esa Xo'jand shahrida joylashadi. Shubhasiz, Mahmud Yalavoch yirik va boy savdogar bo'lib, manbalarning xabariga ko'ra uning boyligi shunchalik ko'p bo'lganki, hatto u butun Movarounnahrdan olinadigan soliqni oldindan to'lashi ham mumkin edi. Uning ixtiyorida mo'g'ullarning tayanchi bo'lgan soliq yig'uvchi mo'g'ul bosqoqlari, mahalliy hokimlar, dorug'alar – harbiy ma'murlar hamda birmuncha mo'g'ul harbiy otryadlari bor edi.

Mahmud Yalavochga soliqlar tushumini muntazam nazorat etish, o'lkada mo'g'ullarga qarshi g'alayon bo'lishining oldini olish ma'suliyati yuklatilgan edi. Ko'pchilik aslzoda zodagonlar, savdogarlar, qisman ulamolar ham o'z jonlari va qolgan mol-mulklarini saqlab qolish borasida xiyonatkorona tarzda bosqinchilar xizmatiga o'ta boshlashadi.

O'z navbatida, o'lkada o'zlarining tayanch vositasi bo'lishlariga harakat qilgan mo'g'ullar ham bu toifadagi kishilarni qo'llab-quvvatlay boshlaydi. Mo'g'ul xonlari (viloyat hokimlari – xon, oliy hukmdor esa – qoon yoki xoqon deb yuritilgan) va mahalliy zodagon, yer egalarining zulmi natijasida mehnatkash xalq endilikda ikki tomonlama eziladi. O'lpon-u soliqlarning miqdori tobora oshib boradi, undan tashqari, aholidan yig'ib olinadigan turli to'lov-u yig'imlar, jarimalarning soni haddan tashqari oshib ketadi. Yangi yer solig'ining nomi – «kalon» deyilib, u hosilning o'ndan bir miqdorida olingan. 1235-yilgi qurultoydan so'ng chorva mol boshidan olinadigan yalpi soliq – «qopchur» ta'sis etilgan. Unga ko'ra 100 tadan bir miqdorda chorva soliqqa to'lanar edi. (Bu soliq asosan mo'g'ullar turmush tarzi xususiyatini hisobga olgan holda joriy etilgandi). «Yasoq»qa ko'ra davlat xazinasi uchun «Shulen» deb nom olgan oziq-ovqat solig'i joriy qilingan.

Mazkur soliqqa ko'ra har bir podadan ikki yashar qo'y, qimiz uchun har mingta otdan bir biya hisobidan olingan. Soliqlar asosan xonlar tomonidan barot (ijara) tarzida oldindan xazina uchun undi-

rilib, so'ngra aholidan zo'ravonlik bilan oshirilgan miqdorda undiriladi edi. Ayniqsa, hunarmandlarning ahvoli og'ir bo'lgan. Ularning o'z yurtlarida tirik qolganlariga mahalliy xonlarning mulki sifatida muomala qilinardi. Masalan, 1262-yil Buxoroda bo'lgan Xubilay qonning vakili bu yerda 5000 ta hunarmand Botuxonga, 3000 tasi malika Siyurko'kteniga (Xubilay va Munqalarning onasi) tegishli bo'lganligini qayd etadi. 1246-yil Mo'g'ulistonda bo'lgan sayyoh Plano Karpini eng yaxshi hunarmandlar xoqon xizmatida ekanligini va ularga qullarcha munosabatda bo'lishlarini qayd etib o'tadi. Bu guruh shaharlik hunarmandlarga esa kundalik ovqat berilib, ularga haqiqatan qullarcha munosabatda bo'lingan bo'lsa, ikkinchi guruh shaharlik hunarmandlarga esa katta soliqlar solingan.

Mo'g'ullarga qarashli bo'lgan harbiy qurol-aslaha va anjomlar ishlab chiqaradigan ustaxonalar «korxonalar» nomini olgan bo'lib, u yerdagi hunarmandlar esa qul darajasidagi kishilar hisoblanardi. Hunarmandlar to'laydigan maxsus soliqning nomi «tamg'a» deb atalgan. Mo'g'ullar, shuningdek, batamom huquqsiz qullar mehnatidan ham foydalanishar edi. Mo'g'ullar hukmronligi davrida yer egaligi holati ham o'zgarib, yangi in'om etilgan yerlar mo'g'ulcha «suyurg'ol» nomini olgan. Suyurg'ol hajmi jihatidan (uning tarkibiga juda katta yer maydonlari, suv havzalari, dasht-yaylovlar ham kirib ketardi) iqtodan farq qilardi edi. Bu davrda davlat, mulk (xususiy yerlar), vaqf (diniy idoralar ixtiyorida) yerlar yerlarda ko'p holda ijaraga chorakor dehqonlar mehnat qilishgan. Bir qismi *ijarador*, o'rtahol dehqonlar esa *muzoriylar* deb yuritilgan.

Buyuk xoqon hisoblangan O'gedey (1229–1241-yy.) davridayoq mo'g'ullar o'zlariga xizmat ko'rsatayotgan ayrim kishilar, katta yer egalari, savdogarlarga turli yorliq va payzalar bera boshlashgan. Payza qimmatbaho metall (oltin, kumush) yoki jez, yog'och taxtalardan ishlangan bo'lib, unga no'yonning muhri qo'yilardi edi. Bunday payzaga ega bo'lgan kishilar, shu jumladan elchilar, soliq yig'uvchilar va boshqa shaxslar aholidan turli yig'im, to'lovlarni talab qilib olish huquqiga ega edilar. Ko'plab beriladigan payza egalari aholidan te-

kinga ot-ulov, yem-xashak, yotar-joy, oziq-ovqat talab qilishga ham haqli edi. Savdo yo'llarida joylashgan bekatlar «yom» (jom) deyilib, ularning xizmati va xarajati mahalliy aholi bo'ynida edi. Bu bekatlar bo'ylab davlat ishlari bo'yicha ko'plab elchi, chopar, vakil va boshqalar o'tib, xalq ularga tekinga xizmat qilib, yana ularni ta'minlab turishi ham lozim edi. 1235-yildan boshlab xoqon farmoniga ko'ra har bir yomning aloqa xizmati va harakati ikkita tuman aholisiga yuklatildi. «Yomlar bo'yidagi aholidan toqat va majol ham qolmagan edi», – deb yozgan edi tarixchi Rashiddin.

Mahalliy aholi – hunarmand, dehqon, chorvador, kim bo'lishidan qat'i nazar, umumhashar ishlarida qatnashishi va tekinga ishlab berishi shart edi. Mo'g'ullarning ichki xo'jalik hayot, savdo-sotiq sohasini bir oz jonlantirish borasida chiqargan past qiymatli tangalari aholi ichida o'z o'rnini topmadi. Aksincha, zo'rlik – po'pisaga qaramay, 1232-yildan boshlab Samarqandda pul muomalasi barham topdi, savdo-sotiq ayriboshlov darajasiga tushib qoldi. Farg'ona, Shosh, Termez va boshqa viloyatlarda mo'g'ul istilosidan so'ng, pul zarb etish o'z-o'zidan tugagan edi. Natijada, tez orada butun Movarounnahrda pul muomalasi butkul izdan chiqdi.

Mislsiz jabr-zulm, aholining xo'rlik va qashshoqlik domiga tashlanishi, soliqlarning haddan ziyod o'sishi, mehnatkash aholining tinka-madorini quritib yubordi. Aholi ichida mo'g'ullarning zo'ravonligi va istibdodiga qarshi norozilik harakati tobora kuchayib, bu norozilik ayniqsa, 1238-yilgi Mahmud Tarobiy qo'zg'olonida o'z aksini namoyon qildi. Bu ozodlik qo'zg'oloni 1238-yil Buxorodan uch farsah (taxminan 18–21 km) uzoqlikdagi Tarob qishlog'ida boshlandi. Bu qo'zg'olonda mo'g'ullar va mahalliy zodagonlar zulmidan ahvoli og'irlashgan hunarmand, dehqon va kambag'al aholi ayniqsa faol qatnashadi. Qo'zg'olonga esa asli Tarob qishlog'idan bo'lgan g'alvir yasovchi hunarmand usta Mahmud Tarobiy boshchilik qiladi.

Mahmud Tarobiy avval o'z qishlog'ida istilochilar zulmi, bedodligiga qarshi otashin chaqiriqlar bilan chiqadi. O'z atrofiga yig'ilgan qo'zg'olonchilarga murojaat etib: «Ey haq toliblari, qa-



chongacha kutamiz va intizorlik tortamiz. Ro'yi zaminni tangridan qo'rqmaydiganlardan pok qilmoq lozim. Kimning qanday qurolga qurbi yetsa, qilichmi, o'q-yoymi, kaltakmi, qo'lga olsin. Qo'ldan kelgancha tangridan qo'rqmaydiganlardan birontasini ham tirik qo'ymaslik lozim», – degan so'zlar bilan ozodlik kurashiga xalqni da'vat etadi. Shu paytda Sherozdan kelgan harbiy anjomlar orilgan karvon qo'zg'olonchilarning qurollanishiga yordam beradi. Qo'zg'olon kuch-qudrati oshib borayotganligini, xalq qo'zg'olonchilar tarafiga o'tib borayotganligini ko'rgan mo'g'ul no'yonlari Movarounnahr hokimi Mahmud Yalavochdan yordam so'rashga majbur bo'ladi. Mahmud Tarobiy o'zining ko'plab tarafdorlari bilan Buxoro tomon yo'l oladi.

Buxorolik aqoid (diniy ilm) olimi, mashhur shayx Shamsiddin Mahbubiy ham qo'lga qurol olib, o'z safdoshlari bilan qo'zg'olonchilar safiga qo'shiladi.

Tarixchi Juvayniy Mahmud Tarobiy haqida shunday deb yozgan edi: «U akobir, boy-badavlat kishilarni haqorat qildi, sharmandasini chiqardi, o'ldirtirdi, ularning bir qismi esa undan qochib qutuldi. U oddiy xalqqa va darbadarlarga aksincha, iltifot va marhamat ko'rsatdi». Darhaqiqat, Mahmud Tarobiy Buxoro ahliga muruvvat namunalarini ko'rsatdi. Buxorodan qochgan mo'g'ul harbiylari va buxorolik zodagonlar Karmanaga kelib panoh topishgandi. Bu yerda ular ma'lum kuch to'plab, Mahmud Tarobiy ustiga harbiy yurishni boshlashdi. Bundan xabardor bo'lgan Mahmud Tarobiy dushmanga qarshi kurashish maqsadida shahar chetidan Karmana yo'lga katta harbiy kuch bilan chiqadi. Ikki o'rtadagi qattiq jangdan so'ng istilochilar yengilib, orqaga chekinishadi.

Qo'zg'olonchilar mo'g'ullarni to Karmanagacha quvib borishadi. Ushbu jangda mo'g'ullardan 10.000 kishi qirib tashlandi. Lekin bu zafarli jangda qo'zg'olonchilar rahbarlari Mahmud Tarobiy va Shamsiddin Mahbubiylar halok bo'lishadi. Qo'zg'olonchilar endilikda halok bo'lgan Mahmud Tarobiyning o'rniga uning ukalari Muhammad va Alini rahbar etib saylashadi. Lekin bu yangi rahbarlarning harbiy

tajribalari yo'q, xalq ularni yaxshi tanimas, omma ichida nufuzga ega emas edilar. Bu esa qo'zg'olonning borishiga salbiy ta'sir o'tkazdi. Oradan bir hafta o'tmay mo'g'ullarning Yelduz no'yon va Chag'an qo'rchi boshchiligidagi yangi qo'shini qo'zg'olonni bostirish uchun yetib keldi. Ikki tomonlama jangda Mahmud Tarobiy tarafdorlari butkul tor-mor qilinib, ikkala tomondan 21 mingdan ziyod jangchi halok bo'ldi.

Mahmud Tarobiy boshchiligidagi ushbu xalq ozodlik qo'zg'oloni xalqimiz ozodlik kurashlari tarixida o'ziga xos iz qoldirdi. U avvalo istilochilar va ular tomoniga o'tib ketgan mahalliy zodagonlarning umumiy zulmiga qarshi ko'tarilgan kurash edi. Bu ozodlik qo'zg'oloni mo'g'ul istilochilariga ular qanchalik shafqatsiz tuzum o'rnatmasinlar, xalq hamisha o'z ona vatani ozodligi yo'lida kurashdan cho'chimasligini namoyon qildi. Mo'g'ullar bu qo'zg'olondan so'ng bosqoqlar tomonidan yig'iladigan soliq va o'lponlarni tartibga keltirishga harakat qilishdi. Mahmud Tarobiy qo'zg'olonidan keyin Chig'atoy qo'zg'olonni bostirishda sustkashlik qilgan, degan maqsadda Mahmud Yalavochni o'z amalidan chetlashtirib, uni Movarounnahrdan chiqartirib yuborishdi. Tez orada xoqon uni Dasin (Pekin) ga shahar noibi etib jo'natadi. Shundan so'ng Movarounnahr noibi hamda ijaradori sifatida Mahmud Yalavochning o'g'li Mas'udbek tayin etiladi. U o'limiga qadar (1289-y.) shu lavozimni egallab turadi.

XIII asrning ikkinchi choraklaridan boshlab, mo'g'ullarning ichida ham endilikda ma'lum siyosiy nizolar, parokandaliklar kelib chiqa boshlaydi. 1241-yilga kelib bosib olingan Rossiya, Volgabo'yi, Ural va boshqa yerlarda Oltin O'rda davlati tashkil topdi. Mo'g'ullar 1256-yili Xulagu boshchiligida Eron, Kurdiston, Iroq va Yaqin Sharqning boshqa yerlariga hujum qilishdi. 1258-yili Bag'dod egallanib, xalifa o'ldirildi. Mo'g'ul xonlari o'rtasida oliy hukmdorlik uchun kurash avj oladi. Ayniqsa, buyuk xoqon Guyukxonning (1246–1249) o'limidan so'ng bu kurash keskin kuchayadi. 1251-yili hokimiyat tepasiga Botuxon va Berkaxonlarning qo'llab-quvvatlashlari bilan Tulining to'ng'ich o'g'li Munqa (1251–1259) ulug' xon sifatida



saylanadi. U dastlab Chig'atoy ulusini mulk sifatida tugatadi va uni Botuxon bilan bo'lib oladi. Keyinchalik Munqaning o'limidan so'ng Chig'atoyning nevarasi Olg'uxon (1261–1266) Oltin O'rdaga qarshi kurashib, Chig'atoy ulusini qayta tiklashga muvaffaq bo'ladi.

XIII asrning 60–70-yillariga kelib, rasman yagona hisoblangan mo'g'ullar imperiyasi aslida Erondagi Xulagiylar, Movarounnahrda-gi Chig'atoylar, Oltin O'rda kabi deyarli mustaqil qismlarga bo'linib ketgan edi. Har bir ulus xoni o'zini tamomila mustaqil sanab, payti kelganda qo'shni uluslarga o'lja uchun hujum ham qilib turishardi. Masalan, 1272-yili Xulagiylarning Oqbek boshchiligidagi askarlari Kesh va Nahshab shaharlarini, 1273-yil yanvarida Buxoroni talon-toroj etishadi. Buxoro dahshatli qirg'inbarotni boshdan kechirib, yetti yilgacha vayrona tarzda yotadi. Mo'g'ullar to'g'risida so'z ketganda yana bir muhim xususiyatni e'tiborga olish lozim bo'ladi. Endilikda bosib olingan yerlarda mo'g'ul harbiy sarkardalari, no'yonlari, zodagonlari orasida siyosiy dunyoqarash ham o'zgarib boshlaydi.

Ba'zi no'yon, xonlar, harbiy ma'murlarning kichik qismi, ularga ergashgan mahalliy zodagonlar, savdogarlar, ulamolalar va boshqalar o'troq hayotga o'tish, markaziy hokimiyatni kuchaytirib, savdo-sotiq-ni rivojlantirish tarafdorlari edi. Dehqonchilik va savdo-sotiq xazinaning asosiy manbai bo'lishi mumkin edi. Buning uchun esa shahar va qishloqlarni tiklash, ekinzorlarni o'zaro payxon etishga chek qo'yish, soliqlarni tartibga tushirish, shaharlar rivoji, savdo, hunarmandchilikka homiylik qilish darkor edi. Yuqorida ta'kidlangan madaniylashishga xayrixohlar safiga Munqaxon (1251–1259) va Chig'atoy noibi, xoqonning yaqin maslahatchisi Mas'udbek (1238–1289) ham kirar edi. Munqaxon shubhasiz tadbirli va zeharli Movarounnahr noibi Mas'udbekning ta'siri ostida ba'zi bir ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirdi.

Butun mo'g'ullar imperiyasida soliqlar bir xil tarzda undirilmas edi. Masalan, Xitoyning shimoli, Movarounnahrda badavlat kishi 10 dinor, kambag'al 1 dinor to'lasa, Xurosonda badavlat kishi 7 dinor, kambag'al esa 1 dinor to'lar edi va hokazo. Munqaxon soliq va hashar ishlarini tartibga solish borasida maxsus farmon-yorliq chiqardi.

Unga ko'ra Chingizxon o'limidan so'ng berilgan payza va yorliqlar bekor etildi, yomlar bo'ylab aloqa vositasi uchun ajratiladigan otlar soni belgilanib, aholidan ortiqcha ot- ulov talab etish, yomlar uchun belgilangan otlarda shaxsiy maqsadda foydalanish taqiqlab qo'yildi. Munqaxonning qonunlashtirib qo'ygan chora-tadbirlari aholini behisob soliq va yig'inlardan ozod etib, ularning tinchlik-osoyishtaligini birmuncha ta'minladi, shahar hayotining, ichki va tashqi savdoning rivojlanishiga qisman imkon yaratib berdi. Bu islohotlar natijasida mamlakatning shimoli-sharqiy hududlari, jumladan Farg'ona vodiysida xo'jalik, iqtisodiy hayotda jonlanish sodir bo'la boshlaydi.

Ayniqsa, xo'jalik-iqtisodiy hayotni bir me'yorga tushirish, savdo va pul muomalasini izga solishda Chig'atoy ulusi noibi Mas'udbekning xizmati va islohotlari katta o'rin tutgan. Mas'udbekning mo'g'ul qononlariga shaxsan yaqinligi ham uning islohotlar o'tkazilishiga imkon bergan edi. 1271-yili mo'g'ullarning madaniy, o'troq hayot tarafdorlari madadi hamda Talas qurultoyi (1269-y.) qarorlariga tayanib, Mas'udbek yangi pul (moliyaviy) islohoti o'tkazishga kirishdi. Unga ko'ra har qanday shaxs o'ziga kerakli tangalarni zarbxonalarga olib borib, uni xohlagan tarzda, lekin bir xil hajm, qiymat, vaznda zarb etishi mumkin edi. Avvalboshda qiyinchilik bilan kechgan bu jarayon XIII asrning 80-yillariga kelgandagina faollasha bordi. Tez orada 16 ta yirik shahar va viloyatlarda bir xil vazn va yuqori qiymatga ega sof kumush tangalar zarb etilib, muomalaga kiritildi. Garchi atrofdagi islohotlarga qarshi mo'g'ul harbiylari Erondan, Yettisuvdan Movarounnahr-ga vayronagarchilik keltirib chiqaruvchi kurashlarni amalga oshirib tursalarda, lekin islohotlar borishiga to'sqinlik qila olishmadi. Mas'udbek 1273–1276-yillari qayta talangan Buxoroning tiklanishiga o'zi boshqosh bo'ldi. 1282–1283-yillarda Buxorodagi zarbxonalar to'laqonli ishlashga kirishdi. Savdo-iqtisodiy munosabatlar rivojlanib borayotgan Farg'ona vodiysida esa Chig'atoy xoni Duvaxon (1291–1306) davrida qadimgi manzilgoh o'rnida Andijon shahriga asos solindi.

XIII asrning 1-yarmiga kelib, Chig'atoy ulusida mo'g'ullarning o'troqlashuv jarayoni kuchayib, mo'g'ul zodagonlarining katta qismi



savdo doiralari bilan yaqinlashib, islom madaniyati ta'siriga berilishi kuchayib bordi. Movarounnahr madaniy o'lkasi bilan yaqin aloqa o'rnatib, o'troq hayot kechirishga intilgan Chig'atoy xonlaridan biri Kebekxon (1309, 1318–1326) bo'ldi. U butunlay Movarounnahrni ko'chib kelib, o'z qarorgohini Nasaf shahri yonida barpo etdi. Keyinchalik bu saroy o'rnida yangi Qarshi shahri yuzaga keldi. Kebekxon davlatni idora etish, uning ma'muriy tuzilishini qayta tashkil etish, iqtisodiy hayotni tartibga solish maqsadida ikki xil: ma'muriy va moliyaviy islohot o'tkazdi. Ma'muriy islohotga ko'ra mahalliy tuzilmalar tumanlarga, viloyatlarga aylantirildi. Mahalliy hokimlar- maliklar, sadrlarning o'rinlari turkiy-mo'g'ul urug' boshliqlari qo'lga o'tdi. Noiblik esa merosiy bo'lib qoldi. Bu islohot davlatni birmuncha mustahkamlashda o'zining ijobiy samarasini berdi.

Mas'udbek davrida pul islohoti amalga oshirilgan bo'lsa-da, Kebekxon uni takomillashtirmoqchi bo'ldi. Jumladan, u Xulaguiylar va Oltin O'rda tangalari namunasida ikki xil pul: yirik kumush tanga – «dinor» va mayda kumush tanga – «dirham»lar zarb ettiradi.

Dinor (2 misqol – 8 gr. atroflarida) 6 ta dirhamdan iborat bo'lib qoldi. Kebek nomidan tangalar asosan Buxoro va Samarqandda zarb etilar edi. Shuningdek, O'tror zarbxonasi ham faol ishlay boshladi.

Kebekxonning islohotlari anchadan beri o'troq hayot, mahalliy aholi madaniyati bilan yaqinlashuviga qarshi bo'lgan guruhlarning ham faoliyatini kuchaytirib yuboradi. Kebekxonning ukasi Oloviddin Tarmashirin (1326–1334) akasining siyosatini davom ettirib, o'troq hayot an'analarini qattiq turib himoya qiladi. XIV asr mashhur sayyohi Ibn Battuta o'zining «Sayohatnoma» asarida Tarmashirin faoliyatiga ijobiy baho beradi. U islom dinini qabul qilib, Chig'atoy ulusining rasmiy diniga aylantirdi. Obodonchilik va qurilish ishlariga xayrixoh bo'ldi, savdo-sotiq va hunarmandchilik rivojiga o'z hissasini qo'shdi. Tarmashirin siyosatidan norozi bo'lgan ko'chmanchi mo'g'ul zodagonlari isyon ko'tarib, 1334-yilda uni o'ldirishdi. Tarmashirindan so'ng hokimiyat tepasida bo'lgan Changshi (1334), Bo'zan (1334–1338), Eson-Temur (1338–1342), Muhammad (1342–

1343)lar davrida Movarounnahrning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotida sezilarli o'zgarishlar bo'lgani yo'q. Aksincha, mahalliy qabilalar hokimiyati, urug' boshliqlarining ta'siri bu paytga kelib yanada kuchayib, Chig'atoy ulusi hokimiyati qudrati pasaya boshlaydi.

XIV asrning 40-yillariga kelib, Yettisuvda Dug'lot amirligining yuzaga kelishi, amalda Chig'atoy ulusining tarqab ketishidan, o'rniga Movarounnahr amirligi yuzaga kelganligidan dalolat berar edi. Chig'atoy xonlarining so'nggi vakillaridan biri Qozonxon (1343–1346) markaziy xon hokimiyati kuch-qudrati ta'sirini ko'tarib, ichki siyosatda Kebekxon-Tarmashirin yo'lini tutishga harakat qildi. U ko'chmanchi harbiylarga qarshi kurash olib borib, Qashqadaryo vohasida hatto ularga qarshi tayanch markazi etib Zanjirsaroy qal'asini ham barpo etgan edi. Qozag'on boshchiligidagi bir guruh talonchilik siyosati tarafdorlari 1346-yili fitna natijasida Qozonxonni o'ldirishga muvaffaq bo'lishdi.

Qozag'on amir unvonini olib, davlat boshqaruvini o'z qo'lga oldi. Movarounnahr Qozag'on davridayoq bir necha yarim mustaqil qismlarga bo'linib ketgan edi. Mamlakatda siyosiy tarqoqlik avj olib, o'zaro nizolar yanada kuchaygan edi. Kesh (Shahrisabz) atrofidagi yerlar Hoji Barlos boshchiligidagi barlos urug'iga, Xo'jand Boyazid Jaloyiriyga qaram bo'lib qoldi, Balx va uning atrofidagi yerlar Qozag'onning nevarasi amir Husaynga tobe bo'ldi, Shibirg'on esa Muhammadxo'ja Apverdi qo'lga o'tib ketdi. Bundan tashqari, Buxoroda diniy ulamolardan iborat – sadrlar, Xuttalonda mahalliy hokimlardan bo'lgan Kayxusrav, Termizda – sayidlar, Badaxshonda o'zboshimcha mahalliy shohlar hokimiyatni qo'lga olishdi.

#### **14.5. XIII asrning ikkinchi yarmi va XIV asrning birinchi yarmidagi madaniy hayot**

XIII asrning ikkinchi yarmi – XIV asrning birinchi yarmidagi xo'jalik, iqtisodiy hayotdagi siljishlar, savdo-sotiqning rivojlanishi, qolaversa, Chig'atoy mo'g'ullarining tobora o'troq hayotga mosla-



sha borishi, bosqinchilik vaqtida tanazzulga yuz tutgan madaniy hayotning nisbatan jonlanishiga olib keldi. Avvalo shaharsozlik bilan bog'liq binokorlik va me'morchilik yo'lga qo'yila boshlandi. Mahalliy diniy ulamolar va dunyoviy zodagonlar, gohida mo'g'ul zodagonlarining ba'zilar qurilish ishlariga homiylik qilishdi.

Me'morchilikda alohida o'rin tutgan ganchkorlik, g'isht o'ymakorligi, koshinpazlik, me'moriy xattotlik qayta tiklandi. Movarounnahr, Xorazmda mahalliy binokorlar ishtirokida xonaqo, maqbara, masjid, madrasa, saroy, minoralar qad ko'tara boshladi. Shu davrlarda barpo etilgan ko'pgina me'moriy obidalar u yoki bu ko'rinishda hozirgi kunlargacha yetib kelgan. Jumladan, Buxorodagi Sayfiddin Boharziy maqbarasini birinchilardan barpo etilgan me'moriy inshoot sifatida ko'rish mumkin. Taniqli buxorolik shayx Sayfiddin Boharziy nufuzli diniy ulamolardan biri bo'lib, u 1258-yili olamdan o'tgan edi. Uning qabri ustida tez orada katta maqbara va xonaqo barpo etildi. 1333-yili Buxoroda bo'lgan arab sayyohi Ibn Battuta ushbu maqbaraga yuqori baho bergan edi. Shuningdek, shu davrda barpo etilgan Samarqanddagi Qusam ibn Abbos maqbarasi ziyoratxonasi, Xoja Ahmad maqbarasi, Urganch (Gurganj)dagi Najmiddin Kubro va To'rabekxonim maqbaralari, masjid va ikkita baland minoralar (minoraning hozirgacha saqlangan qismi 62 metrni tashkil etadi, minoralarning bittasi XX asr boshlarida qulab tushgan), Xo'janddagi Duvaxon maqbarasi (keyinchalik vayron bo'lgan) va boshqalarni tilga olib o'tish mumkin. Qarshidagi saroy, Mas'udbek hukmronligi davrida (1238–1289) Buxoroda barpo etilgan «Mas'udiya», «Xoniya» madrasalari va boshqalar to'g'risida manbalarda ma'lumot berib o'tiladi.

Mazkur davr binokorligi va me'morchiligida pishiq g'isht, koshin, parchin, me'moriy o'ymakor g'ishtlar hamda ganch va ohak, pista ko'mir, qumlardan tayyorlangan maxsus qorishmalar kabi qurilish mahsulotlaridan ham binolarni qurishda hamda ularni me'moriy jihatdan bezashda keng foydalaniladi. Hashamatli binolarning aksariyati esa bir yoki ikki gumbazli, toq-u ravoqli va peshtoqli bo'lgan. Naqshinkor g'isht, koshinlar, kitoba (lavha) bilan naqsh berish

an'analari davom ettirilgan. Shuningdek, naqshlarning turli-tuman, guldor bo'lishi, o'ymakor amaliy san'at qayta tiklanganligidan ham darak berar edi. Kulolchilik, misgarlik, zargarlikda ham naqsh bilan ishlov berish holati avj oladi.

Shubhasiz, Chingiz o'rdalarining bosqini Movarounnahr va Xuroson ilm-fan, adabiyot o'choqlariga katta zarba bo'lib tushdi. XIII asr–XIV asr oxirlariga qadar mo'g'ullar qadami yetmagan yoxud ularning ta'siri kam bo'lgan Dehli sultonligi, janubiy Eron, Kichik Osiyo, qisman Suriya va Misrda ilm-fan, ma'rifat, adabiyot taraqqiy eta boshlagan edi. Faqatgina XIV asr oxiri – XV asr boshlariga kelibgina ma'rifat, madaniyat o'choqlari yana Movarounnahr va Xurosonga ko'chadi.

XIII asr–XIV asrning ikkinchi yarmida fors-tojik adabiyotida ayniqsa Jaloliddin Rumiy (1207–1273), Muslihiddin Sa'diy Sheroziy (1219–1293), Amir Xusrav Dehlaviylarning (1253–1325) o'rni va mavqeyi ko'tarilib, ular jahon adabiyoti olamiga keng taniladi. Asli Balx shahridan bo'lgan Rumiy 14 yoshligida o'z oilasi bilan mo'g'ul bosqinidan qochib, Kichik Osiyoning Ko'niya sultonligiga borib qoladi. Ko'niya, Halab, Damashqda tahsil olib, buyuk tasavvuf ilmi shoiri va faylasufi bo'lib taniladi. U she'riyatda so'fiy-falsafiy janrni rivojlantirib, o'zining 36 ming baytdan iborat «Masnaviyi-ma'naviy» degan dostonini yaratadi. Sa'diy esa o'zining «Guliston» va «Bo'ston» asarlari, g'azallari, axloqiy fikrlari bilan keng shuhrat qozonadi. Uning asarlarida ona-Vatanga muhabbat, insonparvarlik, mehr-muhabbat g'oyalari hamisha barq urib turadi. U o'z asarlarida kishilarni o'zaro hamjihatlik va totuvlikka, hukmdorlarni adolat va insofqa chaqirib, salbiy xususiyatlarni qoralab chiqadi. Sa'diy o'z umrini ona shahri Sherozda tugatadi.

Xusrav Dehlaviy Hindistonning shimoliga mo'g'ul bosqinidan qochib borgan asli Kesh (Shahrisabz) lik kishilar xonadonida dunyoga keladi. U Dehlida sulton saroyida yashab, o'zining ajoyib «Xamsa» dostonini, Hindistonda hozirgacha mashhur «Xizraxon va Duvalra»ni, «Miftah al-futuh» (G'oliblik kaliti) «Nuh sipehr» (Falakning to'qqiz gumbazi) kabi asarlarni yozadi.



XIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab tarixnavislik ham rivoj topa boshlaydi. Bu davrda asli G'ur viloyatidan bo'lgan Abu Umar Minhojiddin Juzjoniyning 1260-yil yozilgan «Tabaqoti Nosiriy» (Nosirga atalgan tabaqalar), Alouddin Atomalik Juvayniyning «Tarixi jahongusho» (Jahon fotihi tarixi), Fayzulloh Rashididdin Hamadoniyning «Jome at-tavorix» (Tarixlarning jamlanishi), Shahobiddin an-Nasaviyning «Siyrat as-sulton Jaloliddin Mankburni» (sulton Jaloliddin Manguberding hayot faoliyati) kabi nodir tarixiy asarlari ham jahon yuzini ko'rdi.

Bu asarlar, o'z navbatida, mo'g'ullar istilosi va undan keyingi davrni o'rganish bobida birinchi darajali manbalar hisoblanadi. Bu paytda, shuningdek, islom, axloq-odob va taqvodorligi asosida turkiy tildagi adabiyot ham rivoj topa boshladi. Xorazmdagi bu adabiyotning bir vakili mashhur faylasuf shoir va mutafakkir Pahlavon Mahmud (1247–1326) hisoblanadi. U nafaqat shoir, mutafakkir bo'libgina qolmay, Hindiston, Sheroz, Rumda ham yelkasi yerga tegmagan kurashchi polvon ham edi. Xuddi shu ma'noda «Pahlavon» taxallusi unga haqli ravishda berilgan. Xalq ichida esa uni yana behad saxovatli, bag'rikeng, adolatli inson sifatida hurmati katta edi. U g'oliblikdan tushgan mukofotlarni yetim-yesir, nogironlarga hadya etar, po'stindo'zlik hunaridan kelgan daromadini atrofidagi kambag'allar bilan baham ko'rar edi. O'z yonidan hatto XIV asr boshlarida maqbara ham barpo etadi. Uning mardligi, tantiligi, haqparvarligi to'g'risida bizning kunlarimizga qadar turli hikoyat, rivoyatlar ham yetib kelgan. Uning insonga xos bo'lgan ajoyib fazilatlarini ulug'lovchi ruboiylari xalq orasida keng tarqalgan edi. U inson aql-zakovati, axloqiy kamolati va axloqiy pokligini qadrlaydi. Turkiy tilda ijod qilgan yana bir shaxs, bu nomi bizga hali yaxshi tanish bo'lmagan Nosiriddin Burhonuddin Rabg'uziydir. U XIII asrning oxiri – XIV asr boshlarida yashab, ijod qilgan. Bizgacha uning birgina «Qissayi Rabg'uziy» (Qissasul anbiyo) asari yetib kelgan. Bu asarda muallif o'zini «Rabot o'g'uzining qozisi Burhon o'g'li Nosiriddin» deb tanishtiradi. Ushbu asar islom dinini qabul qilgan mo'g'ul beklaridan

biri bo'lgan Nosiriddin To'qbug'aning iltimosiga ko'ra hijriy 709 (milodiy 1309–1310)-yilda yozilgan. Ushbu asar 72 qismdan iborat bo'lib, payg'ambarlar (Dovud, Sulaymon, Muhammad) haqidagi qismlar, diniy rivoyat va hikoyatlar, xalq og'zaki ijodi, tarixiy asarlar, diniy kitoblar asosida bayon etilgan diniy-falsafiy, tarixiy, axloqiy asardir. Ushbu asar xalq, baxshi va oqinlar orasida hamisha mashhur bo'lib kelgan. Asarda bayon etilgan axloqiy fazilatlar, ta'lim-tarbiya, ma'rifat xususida fikrlar hozirgi kunga qadar o'zining dolzarb ahamiyatini yo'qotmagan.

Bu paytga kelib turkiy adabiyot rivoji bilan bir qatorda, tasavvuf, din ilmlarining ham rivojlanishi ko'zga tashlanadi. Tasavvuf ilmining mashhur namoyandasi, naqshbandiylik tariqatining asoschisi Bahouddin Naqshband (Sayid Muhammad ibn Jaloliddin, 1318–1389) avvalo o'z mehnati bilan halol kun ko'rish g'oyasini yoqlaydi. Uning «Dil ba yor-u, dast ba kor» (ya'ni, Diling Allohda bo'lsin-u, qo'ling mehnatda) degan shiori keyinchalik xalq orasiga keng tarqaldi. Uning nomi xalq orasida ma'lum va mashhur bo'lib ketib, Buxoro yaqinidagi qabri musulmonlar ziyoratgohlaridan biriga aylanib qolgandi.

Mustaqillik sharofati bilan Bahouddin Naqshband siymosiga ham munosib hurmat va ehtirom ko'rsatildi. O'tgan buyuk zo'lar mangu orom topgan joylarda, jumladan Bahouddin Naqshband qabrida ham yodgorlik majmuasi barpo etildi. Hozir ushbu majmua muqaddas qadamjo sifatida ziyoratchilar oyog'i arimaydigan ziyoratgohlar qatoridan joy olgan.

#### *Tayanch so'zlar*

Sulton, xon malik, xos hojib, dorug'a, qopchur, Shulen, yom, yasoq, bosqoq, suyurg'ol, no'yon, mulk, Movarounnahr, Xorazm, Gurganj, Samarqand, Buxoro, Hindiston, Kirmon, Sind, Ozarbayjon, Kichik Osiyo, Xuroson, Eron, mo'g'ul, qipchoq, qang'li, sadr, ustozdor, barot, Chig'atoy ulusi, mo'g'ul, malik, qo'shin, jang, xorazmshoh, hokim, davr, mudofaa, qahramon.

### *Savol va topshiriqlar*

1. Xorazmshoh-Anushtaginiylar davlati tarkibiga qaysi hududlar, qachon, qay usulda kirganligini izohlab bering;
2. Xorazmshoh-Anushtaginiylar davlati manbashunosligi haqida gapirib bering.
3. Jaloliddin Manguberdiga bag'ishlangan tezis tayyorlang.
4. Sirdaryo bo'yi va Xurosonda mo'g'ul bosqini qanday kechgan?
5. Xorazmshohlar xonadoni a'zolari taqdiri haqida so'zlab bering.
6. XIII asrning ikkinchi yarmi – XIV asr birinchi yarmi Chig'atoy ulusi siyosiy tarixi qanday kechgan?
7. Jaloliddin Manguberdi tomonidan olib borilgan qaysi janglarni bilasiz?
8. Xorijda mo'g'ul bosqini haqida chop etilgan qaysi asarlarni bilasiz?
9. Chig'atoy ulusi davridagi xo'jalik hayot holati xususida so'zlab bering.
10. Chig'atoy ulusi davrida madaniy hayot haqida nimalarni bilasiz?

### *14-mavzu bo'yicha foydalanilgan adabiyotlar*

1. *Azamat Ziyo*. O'zbek davlatchiligi tarixi. – Toshkent: «Sharq», 2000.
2. *Ahmedov B.* Tarixdan saboqlar. – Toshkent: «O'qituvchi», 1994.
3. *Buniyodov Z.* Markaziy Osiyoga doir tadqiqotlar: Anushtagin Xorazmshohlar davlati (1097–1231). – Toshkent: «Mumtoz so'z», 2012.
4. *Bo'riyev O.B., Toshev N.T.* Jaloliddin Manguberdi. – T. 1999.
5. *Ibn al-Asir*. Al-komil fit tarix. – Toshkent: «O'zbekiston», 2006.
6. *Ivanov M.* Ikki buyuk sarkarda. Chingizxon va Amir Temur. – Toshkent: «Xazina», 1994.
7. *Кыдрниязов М.Ш.* Культура Хорезма в XIII–XIV вв. – Самарканд: «Зарафшон», 2015.
8. *Alouddin Atomalik Juvayniy*. Tarixi jahongusho (Jahon fotihi tarixi). – Toshkent: «Mumtoz so'z», 2015.
9. *Sagdullayev A.S. va boshq.* O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. – T.: «Akademiya», 2000.
10. *Saidov Sh.* Sulton Jaloliddin Manguberdi davlati va jangovar harakatlar xaritasi. – Toshkent, 2000.

11. *Тимохин Д.М.* Соперник Чингиз-хана Хорезмшах Джалал ад-Дин Манкбурны, личность и эпоха. – Москва: МБА, 2013.

12. *Shahobiddin an-Nasaviy*. Sulton Jaloliddin Manguberdining hayot faoliyati. – Toshkent, 1999.

13. O'zbekiston tarixi. Xrestomatiya. II jild, 2-kitob. – Toshkent: «Fan va texnologiya», 2014.

14. *Eshov B.J., Odilov A.A.* O'zbekiston tarixi. II jild. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2014.

15. History of civilizations of Central Asia. UNESCO publishing. Volume IV. Paris. 1998.



---

**15-MAVZU**  
**BUYUK IPAK YO'LI –**  
**MULOQOT VA HAMKORLIK YO'LI**

**Reja:**

- 15.1. Eng qadimgi aloqa yo'llari.
- 15.2. Buyuk ipak yo'li: shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari.
- 15.3. O'rta asrlar davri savdo-iqtisodiy yo'llari.
- 15.4. Buyuk ipak yo'li va hozirgi zamon.

**15.1. Eng qadimgi aloqa yo'llari**

O'rta Osiyoda qadimgi aloqa-savdo yo'llarining paydo bo'lishi va rivojlanishi bir necha tarixiy bosqichlarni bosib o'tgan. Mintaqada ilk aloqa yo'llari tarmoqlarining shakllanishi tosh davrida boshlanib, antropogen landshaftlarning kengayib borishi, ibtidoiy turmush tarzi, xo'jalik ehtiyojlariga mos ravishda rivojlanib borgan. Aloqa yo'llarining ilk tarmog'i va davriy jihatdan eng qadimgisini, qadimgi makonlarni oziq-ovqat va suv manbalari, xomashyo zaxiralari mavjud joylar bilan bog'lovchi yo'llar tashkil etib, ular tor mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan. Tosh davridayoq yo'llarni antropogen landshaftlarning muhim tarkibiy qismi sifatida anglash shakllanib, aloqa yo'llari bilan bog'liq tushunchalar paydo bo'lgan.

Ilk aloqa yo'llari shakllanishida turli qabilalar o'rtasida o'zaro mahsulot ayirboshlash va aholi migratsiyasi jarayonlari muhim o'rin tutgan. So'nggi tosh davrida boshlangan va keyingi tarixiy davrlarda tabiiy-geografik jarayonlar va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga bog'liq ravishda bosqichma-bosqich rivoj topgan migratsiya jarayonlari ham O'rta Osiyoda ilk aloqa yo'llari tarmoqlarining izchil kengayib borishiga olib kelgan. O'zlashtirilmagan yoki kam o'zlashtirilgan suv

manbalariga, xomashyo zaxiralari boy va umuman, yashash uchun qulay hududlarni egallab borish jarayoni ilk aloqa yo'llarining yangi tarmoqlariga, nisbatan uzoq hududlarni o'zaro bog'lovchi yo'llarning shakllanishiga turtki bergan.

Qadimgi aholining turmush tarzi va xo'jaligidagi tafovutlar, xomashyo zaxiralari notekis joylashganligi dastlab o'zaro qo'shni qabilalar o'rtasida mahsulot ayirboshlashni yuzaga keltirgan. So'nggi mezolit va neolit davrlaridan boshlab nisbatan uzoq hududlar o'rtasidagi mahsulot ayirboshlash yo'lga qo'yila boshlanadi.

Eneolit va bronza davrida sug'orma dehqonchilik va chorvachilikka ixtisoslashgan xo'jaliklarning tashkil topib, qadimgi dehqonlar mintaqadagi daryo vodiylarini janub-shimol yo'nalishida bosqichma-bosqich o'zlashtirib, o'troq hayotga moslashgan aholi punktlariga, ilk urbanizatsiya va shaharsozlik madaniyati shakllanishiga asos solishgan. Xo'jaligida chorvachilik yetakchi o'rin tutuvchi qabilalar tomonidan yemishga boy tog' va tog'oldi adirlari, bepoyon cho'l va dashtlar egallanib, so'nggi bronza – ilk temir davriga kelib mintaqa xalqlari ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotida, keyingi tarixiy davrlarda ham katta o'rin tutgan ko'chmanchi chorvachilikka asos solindi. Qadimgi dehqonlar va chorvador qabilalar bu davrda turli metallar, polimetallar va minerallardan, nodir metallar va qimmatbaho toshlardan foydalanishni o'zlashtirib, mintaqa va qo'shni hududlarda konchilik va metallurgiya rivojiga ham katta turtki berishdi. Bu o'zgarishlar mintaqadagi aloqa yo'llari yo'nalishlari tarmoqlari kengayishiga, iqtisodiy-madaniy aloqalar rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Bu davrda mahalliy va tranzit ahamiyatga ega aloqa-savdo yo'llarining nisbatan barqaror yo'nalishlari shakllangan. 1. Aloqa-savdo yo'llarining birinchi guruhiga mahalliy ahamiyatga ega yo'llar kirib, ular o'troq dehqonchilik markazlarini ularning tasarrufida bo'lgan hududlar – dehqonchilik qilinadigan yer maydonlari, yaylovlar, ov qilinadigan hududlar, xomashyo (metall va nometall qazilmalar, metall eritish va kulolchilikda zarur bo'lgan yoqilg'i manbalari – o'rmonzor, to'qayzor, daraxtzor va boshqalar) zaxiralari mavjud joy-

lar, suv manbalari va boshqalar bilan bog'lashga, yagona madaniyatga mansub makonlarning o'zaro aloqalarini ta'minlashga hamda mintaqa shimolidagi dashtlar hamda tog' va tog'oldi hududlari orqali o'tib, chorvador qabilalar xo'jaligida muhim o'rin tutgan qishliq-yaylov-qishliq yo'nalishidagi harakatni ta'minlashga xizmat qilgan.

2. Aloqa-savdo yo'llarining ikkinchi guruhiga mintaqaviy ahamiyatga ega yo'llarni kiritish mumkin. Ular O'rta Osiyodagi eneolit va bronza davriga mansub turli madaniyatlarning o'zaro aloqalarini ta'minlashga xizmat qilgan. Mintaqaning ichki iqtisodiy-madaniy taraqqiyotida katta o'rin tutgan ko'p tarmoqli bu yo'llar yo'nalishlari mintaqaning o'zlashtirilishiga mos ravishda kengayib borgan. O'rta Osiyoning qadimgi dehqonlar va chorvador qabilalar tomonidan o'zlashtirilib borishining o'ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarini o'rganish bu davrda savdo va madaniy aloqalar, tranzit harakat uchun mo'ljallangan qadimgi yo'llar shakllanib borganligidan dalolat beradi. Xususan, bu davrda O'rta Osiyodagi turli madaniyatlarga mansub makonlarni – Anov, Namozgoh, Oltintepa (Janubiy Turkmaniston), Sopolli, Jarqo'ton (Surxon vohasi), Tozabog'yob (Xorazm vohasi), Zamonbobo, Sarazm (Zarafshon vohasi) bir-birlari bilan bog'lovchi aloqa yo'llari, ularning asosiy va yordamchi tarmoqlari shakllandi. Iqtisodiy hayotdagi o'zgarishlar, ishlab chiqaruvchi xo'jaliklar rivoji va ortiqcha mahsulotlarni ayirboshlashga bo'lgan ehtiyoj sababli bronza davridan boshlab qadimgi yo'llarning savdo va madaniy aloqalar uchun ixtisoslashuvi kuchayib bordi. Bu, o'z navbatida, karvon yo'llarida tegishli infratuzilmalar – yo'lovchilar uchun vaqtinchalik qo'nalg'alar yoki yo'lbo'yi inshootlari barpo etilishi, odamlar va ulov vositalari uchun suv va boshqa oziq-ovqatlarga bo'lgan ehtiyojni hamda xavfsizlikni ta'minlash xizmatining yo'lga qo'yilishi va boshqalarning shakllanishi jarayoniga ham asos soldi.

Eneolit va bronza davrida Qadimgi Sharq sivilizatsiyasi (Mesopotamiya, Old Osiyo, Misr, Elam, Hind daryosi vodiysi, O'rta Osiyo va boshqalar) taraqqiyotini tezlashtirgan bir qator tarixiy jarayonlar yuz berdi. Ular ichida metallurgiyaning, sug'orma dehqonchilikning,

shahar-davlatlarning va yirik davlat uyushmalarining paydo bo'lishi, suv transporti hamda quruqlikda foydalaniladigan dastlabki ulov (ot, tuya, eshak va boshqalar) va transport vositalaridan (arava) foydalanishning boshlanishi kabi muhim kashfiyotlarning ahamiyati katta edi. Bu davr O'rta Osiyoning Qadimgi Sharq dunyosi bilan xalqaro iqtisodiy-madaniy aloqalari ilk bora yo'lga qo'yilgan davr sifatida katta ahamiyatga egadir.

Eneolit va bronza davrida O'rta Osiyoni Qadimgi Sharq sivilizatsiyasini markazlari bilan bog'lovchi tranzit aloqa yo'llari shakllanishida iqtisodiy omillar, aniqrog'i Qadimgi Sharq mamlakatlarida O'rta Osiyoning janubiy o'lkalaridan olib ketiladigan turli xomashyolarga, xususan, metall va nometall mahsulotlar, qimmatbaho toshlar va nodir minerallarga talab katta bo'lganligi muhim ahamiyat kasb etgan. Bunday mahsulotlar ichida Qadimgi Sharqda yuksak qadrlangan Badaxshon lojuvardi ham bor edi. Badaxshon yaqinidagi (Afg'oniston hududidagi) mil. avv. IV–II mingyilliklarga oid o'troq makonlardan, shuningdek, O'rta Osiyo, Eron, Mesopotamiya va Old Osiyoda, Qadimgi Misrdagi qadimiy makonlardan topilgan lojuvardan tayyorlangan taqinchoqlar O'rta Osiyo janubidan qadimgi Hindiston, Eron, Mesopotamiya, Kichik Osiyo va Misrga olib boruvchi «Lojuvard yo'li» yo'nalishlarini aniqlashga yordam beradi.

O'rta Osiyoning tashqi aloqalarida muhim o'rin tutgan va tranzit aloqa yo'llari ichida davriy jihatdan eng qadimgisi hisoblanadigan bu transmintaqaviy aloqa yo'li Tog'li Badaxshondagi Lojuvard konlaridan boshlanib, Mesopotamiya va Misr hududigacha yetib borgan edi. Bu haqda Qadimgi Shumer va Akkaddagi hamda Misr shaharlaridan topilgan lojuvarddan yasalgan turli buyumlar dalolat beradi.

Badaxshondagi lojuvard konlaridan boshlangan yo'l Amudaryoning chap qirg'og'ida, Ko'kcha daryosining Amudaryoga quyilish joyidan shimoliroqda joylashgan Sho'rto'qay makoni orqali o'tgan. Bu yerda yo'l tarmoqlanib, bir yo'nalishi Kobul daryosi vodiysi va Hindikush tog' dovonlari orqali Shimoliy Hindistonga olib borgan. Lojuvard yo'lining Mesopotamiyaga qarab ketgan yo'nalishi



Sho'rto'qaydan hamda xarobalari hozirgi Afg'onistonning Qandahor shahri yaqinida topilgan qadimiy Mundigak va Eron Seyistonidagi Shahri So'xta orqali o'tgan. Lojuvard yo'lining keyingi yo'nalishlari Fors qo'ltig'i qirg'oqlaridagi dehqonchilik manzilgohlari orqali Mesopotamiyadagi shahar davlatlarga o'tgan. Badaxshon lojuvardidan yasalgan turli buyumlar Mesopotamiyaning qadimgi shaharlaridan bo'lgan Uruk shahri xarobalaridan, Ur shahridagi «Podsho qabri»dan topilgan. Shumer sopol bitiklarida ham uzoq tog'li hududdan oltin, kumush va lojuvard olib kelingani haqida ma'lumotlar mavjud. Bu topilmalar Lojuvard yo'li yo'nalishlarini aniqlashtirish bilan birga, lojuvarddan qadimgi davrlardayoq turli taqinchoqlar yasashda, hukmdorlar saroyini bezatishda foydalanib kelinganligini ko'rsatadi.

Kichik Osiyoda joylashgan mashhur Troya shahri (Gissarlik tepa) va Darak yodgorliklaridan Badaxshon lojuvardidan tayyorlangan mahsulotlar topilgani «Lojuvarad yo'li»ning bir yo'nalishi mil. avv. II mingyillikda Amudaryo yuqori oqimidan Eron hududi orqali Kichik Osiyoga ham kirib borganligidan dalolat beradi.

Kavkazdagi Maykop qo'rg'onidan ham lojuvard munchoqlar topilgan bo'lib, ular bu hududga Mesopotamiya yoki qadimgi Xorazm oqali kirib kelgan.

Yuqoridagi ma'lumotlar Badaxshondagi lojuvard konlaridan foydalanish boshlangan davrni mil. avv. IV mingyillik bilan belgilashga imkon beradi.

O'rta Osiyoning Qadimgi Sharq sivilizatsiyasi markazlari bilan aloqalarida nafaqat lojuvard savdosi katta o'rin tutgan, balki bu aloqalar iqtisodiy-madaniy hayotning barcha sohalarini qamrab olgan. Mintaqaning Hindiston va Eron, Mesopotamiya va boshqa o'lkalar bilan aloqalari mil. avv. IV–III mingyilliklarga kelib yanada faollashdi. Bu tegishli aloqa yo'llari tarmoqlarining shakllanishiga ham olib kelishi tabiiy edi. Xususan, eneolit va bronza davrida O'rta Osiyoning janubiy va markaziy hududlarini Eron va Mesopotamiya bilan bog'lovchi aloqa yo'llari tizimi shakllanib bo'lgan edi. Bu aloqa yo'llarining asosiy yo'nalishi janubiy Turkmanistondagi Anov,

Namozgoh va Oltintepa kabi eneolit va bronza davri yodgorliklari orqali o'tib, O'rta Osiyoning ichki hududlariga olib kelgan. Bu yo'llar nafaqat iqtisodiy-madaniy aloqalarda, shu bilan birga aholi migratsiyasi jarayonlarida ham katta o'rin tutgan. Xususan, bronza davridagi migratsiya yo'llari masalasiga to'xtalgan ba'zi mutaxassislar O'rta Osiyoda naqshli sopol idishlarning paydo bo'lishini Janubiy Eron qabilalarining ko'chishi bilan bog'liqligini va bu ko'chish ikkita: 1) Janubiy (janubi-g'arbiy Eron – janubiy Afg'oniston – Balujiston) va 2) Shimoliy (janubi-g'arbiy Eron – Kopetdog' – Marg'iyona – janubiy Baqtriya – Surxon vohasi) yo'nalishda bo'lganligini ta'kidlashadi.

Eneolit va bronza davrlarida O'rta Osiyoning markaziy hududlari ham Qadimgi Sharq sivilizatsiyasi markazlari, xususan Mesopotamiyadagi shahar davlatlar bilan aloqalar o'rnatgan edi. Zarafshon daryosining yuqori oqimida eneolit davridayoq shakllangan Sarazm manzilgohidan Mesopotamiya an'alariga mos yasalgan muhr va boshqa topilmalar uchrashi bu hududlar o'rtasidagi aloqalardan dalolat beradi. Mesopotamiyadan Zarafshon daryosining yuqori oqimiga olib keluvchi aloqa yo'li Janubiy Turkmanistondagi manzilgohlar orqali o'tgan bo'lib, Mesopotamiya – Shahri So'xta – Namozgoh – Zamonbobo – Sarazm yo'nalishida bo'lgan.

O'rta Osiyo hududining eneolit va bronza davridagi tashqi iqtisodiy-madaniy aloqalarida Shimoliy Hindiston ham katta o'rin tutgan. Zamonaviy tadqiqotlarning ko'rsatishicha, mil. avv. IV–III mingyilliklardan boshlab, O'rta Osiyo va Hindiston o'rtasida izchil iqtisodiy-madaniy aloqalar va doimiy aloqa yo'llari yo'nalishlari vujudga kela boshlaydi. Mil. avv. III mingyillikda Hind daryosi vodiysida paydo bo'lgan va qadimgi Sharq sivilizatsiyasi rivojida muhim o'rin tutgan Xarappa va Maxenjo-Daro madaniyatlari bilan O'rta Osiyodagi bronza davri madaniyatlari o'rtasida doimiy aloqalar yo'lga qo'yildi va sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarildi. Bu aloqalarda Shimoliy Balujistondagi Kvett yodgorligi (Pokiston) oraliq punkt sifatida katta o'rin tutgan.

Mil. avv. II mingyillikdan boshlab Hindistonni Murg'ob vohasidagi makonlar bilan bog'lovchi yo'llar ham shakllana boshlaydi. Bu aloqa yo'li quyidagi ikki yo'nalishda bo'lgan:

1) Xarappa – Kvett – Mundigak – Oltintepa – Murg'ob vohasidagi Kulolli makonlari majmuasi;

2) Xarappa – Sho'rto'qay – Dashli – Murg'ob vohasi. Bu aloqa yo'li faoliyatini Murg'ob vohasidagi va Hindistondagi ayrim topilmalar va me'moriy inshootlarning o'xshashligida ham ko'rish mumkin.

Hindistonning O'rta Osiyo bilan aloqalaridagi yana bir muhim yo'nalish Shimoliy Afg'oniston va Surxon vohasi, qadimgi Baqtriya hududidagi bronza davri makonlari (Dashli, Sopolli, Jarqo'ton) orqali o'tib, mintaqaning ichki hududlariga olib kelgan. Surxon vohasida ushbu tranzit aloqa yo'li quyidagi bir necha tarmoqqa bo'lingan:

1. Birinchi yo'nalish Ternir darvoza orqali Qashqadaryo vohasiga o'tgan va ikkiga ajralib, birinchisi Qashqadaryoning yuqori oqimi orqali Sarazmga o'tgan bo'lsa, ikkinchisi Quyi Qashqadaryo orqali Zarafshonning o'rta (xususan Karnob koniga) va quyi qismiga (Zamonbobo makonlariga), Markaziy Qizilqumga qarab ketgan. Bu yo'nalish Zarafshon vohasidan Chotqol-Qurama tog'lari va Markaziy Qozog'istondagi mis-qo'rg'oshin konlariga ketuvchi yo'llarga qo'shilgan;

Ikkinchi yo'nalish Surxon vohasidan Amudaryo qirg'oqlari yoki suv yo'li bo'ylab Xorazm vohasiga;

3. Uchinchisi Amudaryoning chap qirg'og'idagi Dashli yodgorligi orqali Murg'ob daryosi vodiysiga, Tajan vohasiga va Janubiy Turkmanistonga olib borgan.

Bronza davrida Hindistondan O'rta Osiyo orqali Ural va Sibir hududlariga olib chiquvchi tranzit aloqa yo'li faoliyati ham boshlangan. Bu aloqa yo'li orqali hind mahsulotlari, birinchi galda turli taqinchoq va zeb-ziyatlar Ural va Sibirdagi chorvador qabilalarga yetib borgan bo'lsa, bu hududlardan Hindistonga asosan turli metall xomashyosi olib ketilgan.

O'rta Osiyoning tashqi aloqalari yo'nalishlarini ko'rib chiqishda Sibir, Oltoy, Sharqiy Turkiston, Mo'g'uliston va Xitoy hududlari bilan bo'lgan aloqalarga ham e'tibor qaratish lozim. Mil. avv. I mingyillikda ancha rivojlangan bu aloqalar bronza davridayoq asos solingan aloqa yo'llari orqali amalga oshirilganligini bir qator faktik manbalar tasdiqlaydi.

Tegishli ma'lumotlar tahlili «Buyuk ipak yo'li» nomi bilan mashhur bo'lgan xalqaro transmintaqaviy aloqa yo'li faoliyati hali boshlanmagan bronza davridayoq Osiyoning ikki buyuk mintaqalari – O'rta Osiyo va Xitoy o'rtasidagi aloqalar yo'lga qo'yila boshlanganligini ko'rsatmoqda. Bu aloqalarda mintaqaning urbanizatsiya jarayonlari jadal kechgan janubiy hududlari katta rol o'ynagan. Xususan, Pomir tog' dovonlari orqali Xitoyga o'tuvchi yo'llarni o'zlashtirish bronza davridayoq izchil yo'lga qo'yila boshlagan. Surxon vohasidagi bronza davriga oid Sopollitepa yodgorligidan ipak buyumlar topilgani hamda bu davrda mintaqamizning boshqa hududlarida ipakdan tayyorlangan buyumlar uchramaganligi O'rta Osiyo – Xitoy munosabatlarida ushbu yo'nalishdagi aloqa yo'li faoliyati asosiy o'rin tutganligini ko'rsatib turibdi.

So'nggi bronza – ilk temir davridayoq O'rta Osiyoning shimoli-sharqiy hududlarining ham Xitoy bilan aloqalari o'rnatila boshlangan. Xitoyda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar davrida Tyan-Shanning janubiy yonbag'irlaridan topilgan so'nggi bronza – ilk temir davriga mansub Ukunbaka (Sinbaka) makonidan topilgan moddiy topilmalar ichida O'rta Osiyodan keltirilgan temir o'roq va dastali bronza oyna hamda naqshi va shakliga ko'ra Chust va Burg'ulik madaniyatlari sopol idishlariga o'xshash idishlarning topilishi borligi mintaqamizning Sharqiy Turkiston bilan aloqalarining qadimiyligi, bu aloqalarda qadimgi Choch vohasi va Farg'ona vodiysining tutgan o'rnidan dalolat beradi.

Shu tariqa, mintaqaviy va transmintaqaviy ahamiyatga ega bo'lgan qadimgi karvon yo'llari tizimining shakllanishida mil. avv. IV–II mingyilliklar muhim o'rin tutgan. Bu davrda o'z xususiyatiga



ko'ra, mahalliy va tranzit ahamiyatga ega bo'lgan, tog' dovonlari, daryo vodiylari, dasht va cho'llar orqali o'tgan ko'p tarmoqli aloqa-savdo yo'llari tizimi shakllandi, ilk ulov va transport vositalaridan foydalanishga o'tildi. Bronza va ilk temir davrini, shuningdek tog' yo'llari va dasht-cho'llar orqali o'tgan mahalliy yo'llardan mavsumiy foydalanish boshlangan davr sifatida talqin qilish mumkin.

O'rta Osiyoning janubida eneolit va bronza davrida keng tarmoq otgan aloqa yo'llarining mavjudligi, bu hudud ham eng qadimgi davrlardayoq xalqaro iqtisodiy-madaniy aloqalardan chetda turmaganligini ko'rsatdi. Bu tranzit yo'llar kommunikatsiya tizimining eng muhim bo'g'inini tashkil etgan bo'lib, ular orqali amalga oshirilgan iqtisodiy-madaniy aloqalar bronza davrida O'rta Osiyo sivilizatsiyasi markazlarining paydo bo'lishi va ularning mintaqadagi ta'siri oshib borishida katta o'rin tutgan.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga yakun sifatida shuni qayd etish kerakki, eneolit va bronza davrida O'rta Osiyoni Hindiston, Eron va Mesopotamiya, Old Osiyo, Misr, Sharqiy Turkiston va Xitoy hamda mintaqa shimolidagi dashtlar orqali Sibir va Uralorti bilan bog'lovchi aloqa yo'llari faoliyat ko'rsatib, ushbu hududlarning o'zaro aloqalarida iqtisodiy omillar yetakchi o'rin tutgan. Mintaqada metall va nometall qazilma boyliklar hamda boshqa xomashyo zaxiralarining mavjudligi, Qadimgi Sharqda ularga bo'lgan talab mintaqada tranzit ahamiyatga ega bo'lgan yo'llarning paydo bo'lishiga olib kelgan muhim omillardan bo'lgan. Bu tranzit yo'llar orqali amalga oshirilgan iqtisodiy-madaniy aloqalar bronza davrida O'rta Osiyo sivilizatsiyasi markazlarining paydo bo'lishi va ularning mintaqadagi ta'siri oshib borishida katta o'rin tutdi.

Mil avv. I mingyillik – mil. I mingyillikning birinchi yarmini ham O'rta Osiyoning ichki va tashqi aloqalari yuksak rivojlangan davr sifatida qayd etishimiz mumkin. Bu davrda mintaqada iqtisodiy-savdo markazlari sifatida katta ahamiyatga ega yirik shaharlar paydo bo'lgan va rivojlanib borgan hamda qadimgi davlat uyushmalari, tarixiy-madaniy viloyatlar tashkil topib, mintaqaviy va xalqaro

ahamiyatga ega karvon yo'llarining nisbatan barqaror yo'nalishlari shakllangan. Miloddan avvalgi I mingyillikning birinchi yarmida-yoq O'rta Osiyoda tashkil topgan Parfiya, Baqtriya, Sug'diyona, Marg'iyona, Xorazm, Farg'ona, Shosh, Ustrushona kabi o'lkalar o'rtasida mustahkam iqtisodiy-madaniy aloqalar o'rnatilgan edi. Bu aloqalar mazkur viloyatlarni bog'lovchi karvon yo'llari turli tarmoqlarining shakllanishi va rivojlanishiga olib keldi. Bu yo'nalishlarning ayrimlari kichik o'zgarishlar bilan keyingi tarixiy davrlarda ham o'z ahamiyatini saqlab qoldi.

Ilk temir va ahamoniylar davri O'rta Osiyoning tashqi aloqalari rivojida alohida o'rin tutadi. Bu, birinchi galda, tashqi aloqalarda iqtisodiy omillar bilan bir qatorda, siyosiy manfaatlarining paydo bo'lishi bilan ham bog'liq edi. Bu davrda mintaqamizning tashqi aloqalarida Eron, Hindiston, Mesopotamiya, Misr, Old Osiyo, Oltoy va Sharqiy Turkiston, Ural va Sibir hududlari katta o'rin tutib, nafaqat mintaqa, shu bilan birga tranzit ahamiyatga ega aloqa-savdo yo'llarining tarmoqlari shakllandi. Ular ichida Oltoydan boshlanib Eron, Mesopotamiya, Arabiston va Shimoliy Afrikaga hamda Itil va Yoyiq daryolari oralig'idagi dashtlardan Hindistonga olib boruvchi «Dasht yo'li», Tog'li Oltoydagi oltin konlaridan boshlanib, O'rta Osiyo orqali Hindiston va Eronga olib boruvchi «Oltin yo'li», «Shoh yo'li» va boshqa yo'nalishdagi yo'llarni alohida aytib o'tish kerak.

Ahamoniylar saltanati tarkibiga kirgan O'rta Osiyo satrapliklarining markaziy shaharlaridan Persopol, Suza va imperiyaning boshqa yirik shaharlariga olib boruvchi aloqa-savdo yo'llari mil. avv. VI–IV asrlarda mintaqaning iqtisodiy-madaniy va ijtimoiy-siyosiy hayotida katta o'rin tutgan. Bu davrdagi Baqtra shahridan Murg'ob vohasi va Janubiy Turkmaniston orqali Ahamoniylar davlatining savdo shaharlariga olib boruvchi aloqa-savdo yo'li, ayniqsa katta ahamiyatga ega edi. Baqtra–Marv–Nisa–Ekbatan–Persopol–Suza yo'nalishidagi markaziy aloqa yo'liga mintaqa shimolidan, Qadimgi Sug'd shaharlaridan (Maroqanda, Nautaka, Ksenippa, Buxoro, Poykent va bosh-

qalar) hamda Xorazm vohasidan keluvchi yo'llar Murg'ob vohasining markaziy shahri bo'lgan Marvda qo'shilgan.

Bu davrda O'rta Osiyoning shimoli-sharqiy hududlari Oltoy va Sharqiy Turkiston yerlari orqali Xitoy bilan aloqalar o'rnatganligi ehtimoli bor. Ma'lumki, yaqin vaqtlargacha Xitoyda ipakchilikning paydo bo'lishi va ipak savdosining boshlanishini mil. avv. I mingyillik o'rtalariga olib kelib bog'lovchi ilmiy qarashlar hukmron edi. Lekin so'nggi yillarda xitoylik arxeologlar Tayxu ko'li bo'yidagi Chmetszyan viloyatida olib borgan tadqiqotlari natijasida bundan to'rt ming yillar oldingi davrga oid ipak buyumlarini topishga erishishdi. Eng so'nggi arxeologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, mil. avv. V–IV asrlardan boshlab Xitoy ipak buyumlari G'arbgga ham olib chiqila boshlaydi. Ayrim tadqiqotchilar Hindistonda ipakchilik mustaqil ravishda paydo bo'lganligi ehtimolini ham qayd etishgan bo'lsa-da, mil. avv. I mingyillik o'rtalarida Xitoy ipagi Hindistonga ham kirib boradi.

O'zbekiston janubidagi bronza davriga oid Sopollitepa yodgorligidan, Shimoliy Baqtriyadagi Xolchayon yodgorligidan, qadimgi Termiz va boshqa hududlardan ham ipak buyumlar topilgan. Bu ma'lumotlardan Xitoyning O'rta Osiyo bilan aloqalari Buyuk ipak yo'li faoliyati boshlanishidan ancha ilgari shakllana boshlanganligi haqida xulosa qilish mumkin.

O'rta Osiyoning bu davrdagi aloqalari tizimida Sharqiy Turkiston va Xitoy hududi bilan bo'lgan iqtisodiy munosabatlar ham o'ziga xos o'rin tutgan. Chust makonidan nefritdan ishlangan buyumning topilishi Farg'ona vodiysining Sharqiy Turkiston bilan aloqalari mil. avv. I mingyillik boshlaridayoq yo'lga qo'yilganidan dalolatdir. Parfiya va Rim saltanatiga ipak yetkazib beruvchi Syerlar haqidagi ma'lumotlar ham Baqtriyadan Pomir tog'lari orqali Sharqiy Turkistonga (Tarim daryosi havzasiga) olib chiquvchi yo'llar faoliyatidan dalolat beradi. Yunon manbalarida Syerlar yurtidan Baqtriyaga va Hind okeani portlariga olib chiquvchi aloqa yo'li haqida ma'lumotlar mavjud.

Tarixiy tadqiqotlar I mingyillik o'rtalaridayoq Badaxshondan Pomir tog' dovonlari orqali Xitoyga olib boruvchi yo'llar o'zlash-

tirilib, Xitoyga ham Badaxshon lojuvardi yetkazib berilganligini ko'rsatmoqda. Shunga asoslanib, o'rta asr yozma manbalarida keng ta'riflangan Badaxshon yo'lining bu yo'nalishi (Badaxshondan Pomir tog' dovoni va Qashqar orqali Xitoyga olib boruvchi savdo yo'li) shakllanishini yuqorida keltirilgan sana bilan belgilashimiz mumkin. Faqat qisqa yoz mavsumida izchil faoliyat yuritgan bu tog' yo'lidan odatda kichik savdo karvonlari, elchilik missiyasi a'zolari, sayyohlar, budda rohiblari va boshqalar foydalanishgan. Mil. avv. II mingyillikning ikkinchi yarmi, ayniqsa so'nggi asrlaridan boshlab O'rta Osiyoning Xitoy bilan doimiy aloqalari yo'lga qo'yildi. Natijada, Xitoy hududidan boshlanib, Rim imperiyasi va G'arbiy Osiyo mamlakatlariga olib borgan ulkan savdo magistrali bo'ylab amalga oshiriluvchi xalqaro iqtisodiy-madaniy aloqalarda mintaqa shaharlari faol ishtirok eta boshladilar.

Shu tariqa, mil. avv. I mingyillikda O'rta Osiyoning tashqi iqtisodiy aloqalarida Eron va Mesopotamiya, Hindiston, Oltoy hududlari bilan bo'lgan munosabatlar yetakchi o'ringa chiqdi. Bu jarayon Buyuk ipak yo'li shakllangandan keyin yanada rivojlandi.

## 15.2. Buyuk ipak yo'li: shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari

Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, mil. avv. III asrning oxiri – II asrlarda xalqaro ahamiyatga va aniq yo'nalishga ega bo'lgan savdo-tranzit yo'li shakllana boshlaydi. Bu yo'l XIX asrning ikkinchi yarmida (1877) nemis olimi Ferdinand Paul Vilgelm Rixtgofer tomonidan dastlabki marta «Ipak yo'li» degan nom oldi va keyinchalik butun dunyo tadqiqotchilari tomonidan «Buyuk ipak yo'li» deb e'tirof etildi.

Buyuk ipak yo'lining qisqacha tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, Xan imperiyasining U-di hukmronligi davrida (mil. avv. 140–86-yy.) mamlakatning g'arbiy hududlariga bo'lgan qiziqish kuchayadi. Xitoyliklar bu hududlarda o'sha davrda ancha xavfli bo'lgan



harbiy kuchlar – xunlar bilan to‘qnashadi. Xunlarga qarshi kurashda ittifoqchilar topish va ular bilan harbiy ittifoq tuzish maqsadida imperator U-di mil. avv. 138-yilda diplomat, sayohatchi va savdogar Chjan Syanni O‘rta Osiyoga jo‘natadi. Chjan Syan bir necha yil xunlar qo‘lida asirlikda bo‘ladi va mil. avv. 128–126-yillarda Farg‘ona (Davan)ga keladi. Davan hukmdorlari bilan harbiy ittifoq tuzishda muvaffaqiyatsizlikka uchragan Chjan Syan ko‘p qiyinchiliklardan so‘ng yurtiga yetib keladi. Chjan Syan missiyasi Xitoy uchun G‘arbiy o‘lkalarga chiqishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Mil. avv. 111–105-yillarda imperator U-di Parfiya (Xitoy manbalarida Ansi deb eslatiladi) podsholariga, Qang‘ hukmdorlariga, keyinroq esa Baqtriya yerlariga (Kushonlar) o‘z elchilarini jo‘natib, ular bilan diplomatik-savdo aloqalarini o‘rnatadi. Shu tariqa, mil. avv. II–I asrlarda Sharq bilan G‘arbni bog‘lovchi Buyuk ipak yo‘liga asos solinadi. O‘z davrida nihoyatda katta ahamiyatga ega bo‘lgan bu yo‘lning dastlabki tarmog‘i Xitoydagi Sian shahridan boshlanib, Sharqiy Turkiston, O‘rta Osiyo, Eron, Mesopotamiya orqali O‘rta Yer dengizigacha cho‘zilgan.

Chjan-Szyanning sayohat yo‘nalishi Buyuk ipak yo‘li shakllanishiga asos bo‘ldi. Buyuk ipak yo‘lining dastlab quyidagi ikkita – Janubiy va Shimoliy yo‘nalishi bo‘lgan bo‘lsa, mil. era boshlariga kelib boshqa yo‘nalishlari ham o‘zlashtiriladi.

Janubiy tarmog‘i (Nandao) Yuyminguan (Yanguan) – Shanshan (Pshamshan) – Lobnor ko‘li (Tuzliko‘l) – Kunlun (Janubiy tog‘)ning shimoliy tizmalari – Shag‘ (Yorkent) – Vaxon yo‘lagi – Badaxshon o‘lkasi. Bu yerda yo‘l ikki tarmoqqa bo‘linib: Katta yuejlar yurti (Baqtriya) va Ansi (Parfiya)ga hamda Hindistonga olib borgan.

Buyuk ipak yo‘lining markaziy tarmog‘i O‘zgan orqali O‘shga o‘tib, Quva – Marg‘ilon – Qo‘qon orqali Xo‘jand, Samarqand, Buxoroga o‘tgan. Buxoroga kelgan markaziy tarmog‘i ikkiga bo‘lingan. Bu tarmoqning janubiy yo‘nalishi Buxoro – Qarshi – G‘uzor – Kesh – Termiz orqali Balxga o‘tgan va Hindikush tog‘ dovonlari orqali Hindistonga o‘tib ketgan. Ikkinchi yo‘nalish Buxorodan Marv va Ni-

shopur orqali o‘tgan. Bu yerdan yo‘l Tehron – Qazvin – Hamadon – Bog‘dod – Palmira yo‘nalishi bo‘ylab O‘rta Yer dengizi bo‘yidagi Tir shahrigacha cho‘zilgan.

Shimoliy tarmog‘i (Beydao) G‘arbiy Chesh hokimi qarorgohidan boshlanib, «Shimoliy tog‘» – Tyan-Shanning Sharqiy tizmalari yonbag‘irlari bo‘ylab Qashqadaryo oqimi yo‘nalishida Qashg‘arga, Tyan-Shan tog‘idagi dovoni orqali Davan (Farg‘ona)ga, keyin Qang‘ga, Yansay va Ansiga (Yansiga) olib kelgan. Ipak yo‘lining asosiy karvon yo‘llaridan tashqari, ichki savdo yo‘llari ham mavjud edi.

Mil. avv. I mingyillikning oxiri – milodiy I mingyillikning boshlariga kelib Tinch okeanidan Atlantika okeaniga qadar cho‘zilgan ulkan geografik hudud madaniyati yuksak rivojlangan sivilizatsiyalarning yagona tizimiga birlashadi. Bu hududda joylashgan davlatlar – Xitoydagi Xan saltanati, Kushon podsholigi, Qang‘ davlati, Parfiya davlati, Rim saltanatining chegaralari bir-biriga tutash edi. Ushbu zabardast saltanatlar va sivilizatsiyalar markazlari insoniyat tarixidan birinchi bo‘lib «Buyuk ipak yo‘li» deb nomlanuvchi bir yo‘l bilan bog‘lanishdi. Umumiy uzunligi 12 ming km bo‘lib, Xitoydan O‘rta Yer dengizining shimoliy qirg‘oqlariga qadar cho‘zilgan bu yo‘l orqali ko‘pgina xalqlar va elatlar turli tomonlama munosabatlar o‘rnatishdi. Podsholarning o‘zaro elchilar yuborishlari, bir-birlariga har xil sovg‘alar in‘om etishlari an‘anaga aylandi. Sharq bilan G‘arb madaniyatining bir-biriga ta’siri kuchaydi. O‘sha davrdagi ko‘plab madaniy o‘xshashliklar ham shu tufayli yuzaga keldi.

Agar geografik xaritaga e‘tibor beradigan bo‘lsak, O‘rta Osiyoni qadimgi sivilizatsiyalar o‘zaro aloqalar tizimining markazida joylashganligini kuzatishimiz mumkin. Aynan mana shu geografik joylashuv tufayli O‘rta Osiyoda muhim etnik jarayonlar (hind-yevropa, hind-eroniy, turklarning ko‘chishi) bo‘lib o‘tishiga, madaniyatlarining o‘zaro ta’sir doirasi faollashuviga keng imkoniyatlar yaratildi. Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab keng miqyosdagi savdo-sotiq jarayonlari bo‘lib o‘tdi, diplomatik shartnomalar hamda harbiy ittifoqlar tuzildi. Osiyoning ichkarisiga va Uzoq Sharqqa harfiy yozuv va dunyo



dinlarining (buddaviylik, xristianlik, zardushtiylik, moniy, islom) yoyilishida O'rta Osiyo xalqlari ulkan hissa qo'shishdi. Buyuk ipak yo'li faqat karvon yo'li bo'libgina qolmasdan, Yevroosiyo xalqlari sivilizatsiyasi tarixida o'chmas iz qoldirgan, uning har tomonlama taraqqiy etishida ulkan omil bo'lib xizmat qilgan jarayondir.

Aloqa-savdo yo'llari tizimi rivojida ulov va transport (asosan turli aravalar) vositalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etdi. Ot, tuya, eshak va boshqa hayvonlardan ulov vositalari sifatida foydalanish. Ulov vositalaridan – tuya, ot, eshak va boshqa hayvonlardan ilk ulov vositalari sifatida foydalanish eneolit va bronza davridan boshlanib, turli hududlar o'rtasidagi o'zaro mahsulot almashuvi va iqtisodiy munosabatlar rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. G'ildirakning kashf etilishi esa yirik uy hayvonlarining tortish kuchi bilan harakatga keltiriladigan ilk transport vositasi – aravalarining paydo bo'lishiga olib keldi. Aloqa yo'llari tizimining muhim bo'g'inini tashkil etgan bu jarayonlar umumiy iqtisodiy-madaniy yuksalish, mintaqa sivilizatsiyasi taraqqiyoti bilan bog'liq holda paydo bo'ldi va rivojlandi. Qadimgi yo'llar tarmoqlari rivojida ulov va g'ildirakli transport vositalaridan foydalanish katta o'rin tutib, ular eneolit-bronza davridan to zamonaviy yo'llar va transport vositalari paydo bo'lguncha ichki va tashqi iqtisodiy-madaniy aloqalarda asosiy o'rin tutib keldi.

Buyuk ipak yo'li orqali olib borilgan keng ko'lamlı iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar karvon yo'llari infratuzilmalari paydo bo'lishi va bosqichma-bosqich kengayib borishiga olib keldi. Ma'lumki, savdo yo'llari tizimining muhim bo'g'inini yo'lbo'yi inshootlari tashkil etadi. O'rta Osiyoda yo'lbo'yi inshootlarini barpo etish qadimgi aloqa-savdo yo'llari rivojiga mos ravishda paydo bo'lgan va rivojlanib borgan. Aloqa-kommunikatsiya tizimining asosiy bo'g'inlaridan bo'lgan karvonsaroylar, rabotlar, sardobalar so'nggi bronza – ilk temir davridan boshlab nafaqat savdo karvonlari, shu bilan birga yo'lovchilar, sayyohlar, harbiy qo'shinlar, elchilik missiyalari a'zolari va boshqalar uchun uzoq va mashaqqatli safarda hordiq olinadigan, kerakli oziq-ovqat, ulov vositalari uchun yemish

mavjud bo'lgan makonlar sifatida ham faoliyat yuritgan. Yo'lbo'yi inshootlari karvon yo'llarida xavfsizlikni ta'minlashda ham o'ziga xos o'rin tutgan.

O'rta Osiyoning karvon yo'llarida o'z davrining barcha talablariga javob bera oladigan keng tarmoqli xizmat ko'rsatish tizimi ham ancha mukammal yo'lga qo'yilgan edi. Yo'lbo'yi inshootlari va savdo markazlarida savdo karvonlariga, sayyohlarga va yo'lovchilarga yuqori sifatli xizmat ko'rsatish tizimi ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan. Tilmochlar, yo'lbo'lovchilar, qo'riqchilar, tabiblar, o'z ulov vositalari bilan karvonlarga xizmat qiluvchi kirakashlar faoliyati hamda ichki va tashqi savdo aloqalaridan manfaatdor bo'lgan markaziy va mahalliy hukumat tomonidan yo'llarni ta'mirlash, xavfsizlikni ta'minlashga katta e'tibor berilgani savdo-sotiq va karvon yo'llari tizimiga xos xususiyat edi.

Karvon yo'llarida xizmat ko'rsatish tizimining samarali faoliyatida mintaqada siyosiy barqarorlikning mavjudligi, markaziy va mahalliy hukumatning bu sohaga bo'lgan e'tibori hamda boshqa ko'plab omillar o'ziga xos ahamiyat kasb etgan. Savdo yo'llarida xizmat ko'rsatish tizimi faoliyati darajasi jamiyatdagi iqtisodiy-madaniy taraqqiyot ko'rsatkichlariga mos kelib, bu soha rivoji umuman sivilizatsiya taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqlikda bo'lgani haqida xulosa chiqarish mumkin.

O'rta Osiyoda xalqaro yo'llar rivojiga mos ravishda urbanizatsiya jarayoni bosqichma-bosqich rivojlanib bordi. Savdo yo'llari bo'ylab ko'plab shaharlar paydo bo'lib, ular ichki va tashqi iqtisodiy-madaniy aloqalarda faol ishtirok etgan. Shaharlarning iqtisodiy markazlar sifatidagi funksiyalari savdo karvonlariga xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan infratuzilmalar shakllanganligida ham ko'rinadi.

Qadimgi yo'llar turli tarixiy davrlarda tegishli ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sabablar, tabiiy-geografik omillar bois o'z yo'nalishlarini o'zgartirib turgan. Ba'zi bir yo'nalishlardan foydalanish uzoq muddatga yoki butunlay to'xtab qolgan bo'lsa, ayrim aloqa yo'llari kichik bir o'zgarishlar bilan o'z yo'nalishini, ahamiyatini saqlab qol-



gan. Yangi yo'llar bo'yida shaharlar, mustahkam qal'alar va qishloqlar paydo bo'lib, savdo yo'llarida xizmat ko'rsatish tizimi (yo'lbo'yi inshootlarining qurilishi, yo'lovchilarga va ulov – transport vositalariga xizmat qiladigan maxsus kishilar guruhlarining paydo bo'lishi va boshqalar) shakllanib, bosqichma-bosqich rivojlanib, o'z ahamiyatini yo'qotgan tarmoqlarda esa bunga teskari jarayonlar yuz bergan.

Dehqonchilik va chorvachilik xo'jaliklarida yetishtiriladigan mahsulotlar, sifatli hunarmandchilik buyumlari, nodir metallar va qimmatbaho toshlar, turli xomashyolar ichki va tashqi iqtisodiy-savdo aloqalarida asosiy o'rin tutgan. O'rta Osiyoda yetishtirilgan qishloq xo'jalik va hunarmandchilik mahsulotlari ichki ehtiyojni to'liq ta'minlab, katta miqdorda qo'shni mamlakatlarga ham sotilardi. Chetdan esa ipak va boshqa nafis matolar, chinni buyumlar, turli-tuman hunarmandchilik mahsulotlari, metall, metall buyumlar va boshqalar olib kelingan. Savdo aloqalarida mahsulot ayriboshlash va naqd pulga savdo qilish, chek tizimi orqali olib borilgan xalqaro savdo rivoj topgan.

O'rta Osiyoda hukmronlik qilgan sulolalar ichki va tashqi savdo rivojining kafolati bo'lib maydonga chiqqan. Buni savdo-sotiqni rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar – yo'llarni, yo'lbo'yi inshootlarini va ixtisoslashgan bozorlarni qurish va ta'mirlash, savdo karvonlarining xavfsizligini ta'minlash xizmatini yo'lga qo'yish, ichki va tashqi savdo bilan shug'ullanuvchi ijtimoiy tabaqalarga, shu jumladan xorijlik savdogarlarga imtiyozlar berish, savdo aloqalarini o'rnatish bo'yicha xalqaro bitimlar tuzish va boshqalar misolida ko'ramiz.

Karvon yo'llari qadimgi davr va o'rta asrlar davomida nafaqat savdo-iqtisodiy aloqalar amalga oshiriladigan, shu bilan birga, keng ko'lamdagi madaniy muloqot yuzaga keladigan, ilm-fan va texnologik yangiliklar tarqaladigan, diniy-falsafiy ta'limotlar o'zaro ta'sirga kirishadigan muloqot yo'li sifatida ham katta ahamiyatga ega bo'lib keldi. Shu sababli, karvon yo'llari nafaqat iqtisod, balki madaniy hayot rivojida ham muhim o'rin tutadi.

Buyuk ipak yo'lining mintaqamiz orqali o'tgan yo'nalishlari faoliyatida suv yo'llari ham o'ziga xos o'rin tutgan. Dengiz va okeanlardan uzoqda joylashgan O'rta Osiyoda qadimdan suv yo'llari ham katta ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Mintaqadagi suv yo'llaridan foydalanish ko'p mingyillik tarixga ega. Amudaryo va Sirdaryo hamda ularning irmoqlari oqimi bo'ylab o'tgan suv yo'llari ichki kommunikatsiya tizimining muhim tarmoqlarini tashkil etib, iqtisodiy-madaniy aloqalarda katta o'rin tutgan.

O'rta Osiyoning aloqa-savdo yo'llari ichida o'ziga xos o'rin tutadigan suv yo'llaridan foydalanish rivoji suvda harakatlanishga ixtisoslashgan ulov-transport vositalari – qayiqlar va kemalar faoliyati bilan chambarchas bog'liq edi. Amudaryo va Sirdaryo suv yo'li hamda Orol va Kaspiy dengizi bo'yidagi aholi manzilgohlari, bandargohlar mintaqada kemachilik shakllanishida, ushbu daryolar va ularning irmoqlari havzasida suv yo'llari bilan bog'liq infratuzilmalar paydo bo'lishida asosiy o'rin tutib kelgan.

O'tgan tarixiy davrlar davomida mintaqadagi yirik daryolar orqali kemachilik va u bilan bog'liq kasb-hunarlar (kema va qayiqlar yasash, ta'mirlash, ijaraga berish, yuklarni va yo'lovchilarni tegishli manzilga olib borish va boshqa xizmatlar) mavjud bo'lgan. Bu daryolar qirg'oqlarida kechuvlarni nazorat qiladigan, boj soliqlari undiriladigan va kemalar to'xtashi uchun xizmat qilgan shaharlar va qal'alar paydo bo'lib, ularda suv yo'llari bilan bog'liq tegishli infratuzilmalar rivojlanib kelgan.

Shu tariqa, Xitoydan to O'rta Yer dengizi qirg'oqlarigacha yetib borgan, ramziy ravishda «Buyuk ipak yo'li» nomi bilan atalgan bu xalqaro tranzit-kommunikatsiya yo'li O'rta Osiyoning tashqi iqtisodiy-madaniy aloqalari tarixida, aloqa-savdo yo'llari tizimi rivojida alohida muhim bosqichni tashkil etadi. Buyuk ipak yo'lining asosiy yo'nalishlari O'zbekiston hududlaridan o'tib, qadimgi davr va o'rta asrlardagi ichki va tashqi iqtisodiy-madaniy aloqalar rivojida, sivilizatsiyalararo muloqotda katta o'rin tutib kelgan. Mintaqaning iqtisodiy-madaniy aloqalari rivojida muhim o'rin tutgan bu aloqa-savdo

yo'llari davrlar o'tishi bilan kengayib, uning yangi-yangi tarmoqlari paydo bo'lgan. Tashqi aloqalar o'z navbatida ichki yo'llar tarmoqlarining kengayishiga va tegishli xizmat ko'rsatish tizimi rivojiga olib keldi. Bu jarayonlar keyingi tarixiy davrlarda ham kengayib bordi.

### 15.3. O'rta asrlar davri savdo-iqtisodiy yo'llari

Ilk o'rta asrlar (V–VIII asrlar) O'rta Osiyoning aloqa yo'llari tizimi rivojida muhim bosqich bo'lib, ichki aloqa yo'llari bilan bir qatorda tashqi aloqalar geografiyasi jadal kengayib bordi. Xususan, Turk xoqonligining Vizantiya bilan aloqalari asosida Buyuk ipak yo'lining shimoliy tarmog'i bo'ylab iqtisodiy-madaniy hamda elchilik munosabatlari rivojlanib bordi.

Ilk o'rta asrlardagi savdo yo'llari ichida Samarqanddan Naxshab va Kesh shaharlari orqali Amudaryoning o'rta oqimidagi kechuvlarga, Hisor tog' dovonlari va Temir Darvoza orqali Toxaristonga o'tgan yo'nalish katta ahamiyatga ega bo'lgan. Sug'diyonadan Toxaristonga o'tuvchi yo'llar xitoylik sayyoh, budda rohibi Syuan Szyan kundaligida ham aks etib, unda Chag'oniyon (Budrach yodgorligi) va Termiz shaharlari Surxon vohasining yirik savdo markazlari sifatida qayd etiladi.

Bu davrda ayniqsa Samarqand – Buxoro yo'nalishining ahamiyati ancha oshdi. Buxoro Xitoy manbalarida An nomi bilan qayd etilib, Sharqiy Turkiston va Yettisuvdagi xoqon qarorgohini Poykent, Amul va Marv orqali Eron bilan bog'lovchi yo'lining muhim bo'g'inini tashkil etgan. Turk xoqonining sug'd savdogari Maniakh boshchiligi-da elchilari ham bu yo'nalishda Eronga borishgan.

Toxariston va Sug'ddan Xorazm vohasi shaharlari orqali Kaspiybo'yiga, Ustyurtdan quyi Volgabo'yiga o'tuvchi karvon yo'lida katta ahamiyatga ega bo'lgan. Shimoliy Kavkazdagi makonlarda O'rta Osiyodan keltirilgan hunarmandchilik mahsulotlari, tangalar va boshqa topilmalar uchrashi mintaqaning Vizantiya va Hazar xoqonligi bilan aloqalaridan dalolat beradi.

Sug'd va Xorazmning Farg'ona vodiysi va shimoliy dasht hududlari bilan savdo aloqalari rivojida Ustrushona va Choch vohasi o'ziga xos ahamiyatga ega edi. Farg'ona vodiysidagi shaharlar esa O'rta Osiyo – Xitoy munosabatlarida muhim o'rin tutgan. O'zgandan Yas'ad dovoni orqali Norin daryosi vodiysi, Axsikentdan Qorako'l dovoni orqali Chu daryosi vodiysi bilan bog'lovchi yo'nalishlarni ta'kidlab o'tish kerak. Turk xoqonligi davrida Buyuk ipak yo'lining shimoliy tarmog'i orqali Sharqiy Turkistondan Yettisuvga va Farg'ona vodiysiga o'tgan yo'nalishlarning ahamiyati oshdi.

Shu tariqa, ilk o'rta asrlarni xalqaro madaniy va iqtisodiy munosabatlar, ichki va tashqi savdo bilan shug'ullanuvchi savdogarlar va yirik savdo uyushmalari faoliyati yuksak rivojlangan davr sifatida ta'riflash mumkin.

IX–XIII asr boshlarida O'rta Osiyoning xalqaro savdo munosabatlari rivojlangan davr sifatida ahamiyatga ega. Mintaqaning Eron shaharlari va Bog'dod bilan savdo aloqalarida Marv shahri katta o'rin tutgan. Manbalarda Bog'doddan Nishopur, Saraxs, Marv, Amul kechuvi orqali Buxoroga keluvchi karvon yo'li haqida ma'lumot mavjud. Marv-Amul yo'lida bir necha rabotlar va quduqlar, shuningdek kechasi karvonlar adashmasligi uchun olov yoqib signal beruvchi minoralar bo'lgan.

Qashqadaryo vohasidagi savdo yo'llari Buxoro va Samarqandni Balx va Xurosonning boshqa shaharlari bilan bog'lovchi tranzit yo'llar, Chag'oniyon, Xuttalon orqali o'tgan karvon yo'llari yo'nalishlari, Termizdan Balx va Badaxshonga, Marv va Murg'ob vohasiga hamda Hindikush dovonlari orqali Kobuldaryo havzasiga o'tuvchi yo'llar Buyuk ipak yo'lining bu davrdagi asosiy yo'nalishlaridan bo'lgan.

O'rta Osiyoning ichki va tashqi iqtisodiy-savdo aloqalarida Farg'ona vodiysi orqali o'tuvchi yo'llar katta ahamiyatga ega edi. Vodiydagi muhim ahamiyatga ega Xo'jand – Axsikent yo'li Konibodom, Xavakand (Qo'qon) va Bob (Pop) orqali o'tgan. Xo'janddan O'shga Konibodom, So'x, Rishton, Zandarmish va Quba (Quva) or-



qali kelingan. O'sh va O'zgandan Yassi dovoni orqali Yettisuvdagi O'tbosh shahriga boruvchi yo'l boshlangan. Bu yo'nalishlar Farg'ona vodiysining aloqalari tizimida muhim ahamiyatga ega edi.

Eron va Xurosondan Xitoyga o'tuvchi tranzit savdo yo'lining asosiy yo'nalishi Samarqand, Shosh vohasi, Farg'ona vodiysi orqali o'tgan. Manbalarga ko'ra, Amudaryodagi Farob kechuvidan Buxoro, Samarqand va Xo'jand orqali O'zgand shahriga olib boruvchi yo'nalish muhim ahamiyatga ega bo'lib, uni karvonlar 23 kunda bosib o'tgan. Bu yo'lining birinchi muhim qismi Buxoro – Samarqand yo'nalishi hisoblangan. Samarqanddan Farg'ona va Shoshga Dizak (Jizzax) va Zomin orqali o'tilgan. Samarqanddan Xo'jandga o'tuvchi yo'lni karvonlar 8 kunda bosib o'tishgan. X–XII asrlarda Buxorodan Nurota orqali Shosh va O'troga olib borgan yo'llardan ham izchil foydalanilgan.

Mintaqa janubiy hududlarining Yettisuv va Sharqiy Turkiston bilan iqtisodiy aloqalarida Toshkent vohasi (Shosh va Iloq) shaharlari muhim o'rin tutardi. Arab geograflari Shoshdagi 27 ta, Iloqdagi 14 ta shahar nomini keltirib o'tishadi.

Sirdaryoning quyi oqimidagi shaharlar Movarounnahr va Xorazmning shimolidagi chorvador qabilalar bilan aloqalarda katta o'rin tutgan. Binkatdan Isfijob, Toroz, Qulan, Aspara, Chu vodiysidagi Suyab shahri orqali Issiqko'lning janubi-sharqida joylashgan yuqori Barskanga kelingan. Bu yerda O'zgandan O'tbosh orqali keluvchi janubiy yo'l birlashgan va Santosh dovoni orqali Sharqiy Turkistonga olib chiqqan. Sirdaryoning quyi oqimida joylashgan Jand shahri esa Xorazmdan Farobga o'tishda muhim manzil hisoblangan.

IX–XIII asr boshlarida karvon yo'llari tizimi yuksak taraqqiyotga erishdi. Bu davrda mintaqaning ichki aloqa-savdo yo'llari barcha yirik shaharlar va qishloqlarni, foydali qazilmalarga boy konlarni va bepoyon yaylovlarni qamrab olgan bo'lib, tog' dovonlari, daryo kechuvlari, dasht va cho'llar hududlari orqali o'tgan. Karvon yo'llari keng tarmoqli xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yilgan tizim sifatida faoliyat ko'rsatdi. Xalqaro ahamiyatga ega savdo yo'llari Movarounnahr-

ning deyarli barcha shaharlari va viloyatlarini kesib o'tgan bo'lib, ushbu shaharlar aholisi turli yo'nalishlar bo'ylab o'zaro savdo-iqtisodiy, madaniy aloqalar olib borgan. Mazkur yo'llarning ayrimlari, o'z navbatida, Buyuk ipak yo'lining tranzit-kommunikatsiya tarmoqlari sifatida ham katta ahamiyatga ega edi.

O'rta asrlarda O'rta Yer dengizi qirg'oqlaridan boshlanib, xalifalik markazi Bog'dod orqali Eron, Movarounnahr, Sharqiy Turkiston va Xitoyga, Movarounnahrdan Xorazm orqali Volgabo'yiga – Hazar va Bulg'or podsholiklariga, Sharqiy Yevropa mamlakatlariga olib boruvchi karvon yo'llaridan izchil foydalanildi. O'rta Osiyo hududini Hindiston, Xitoy, Eron, Kavkaz, Qora dengiz bo'ylari mamlakatlari bilan bog'lovchi qadimdan mavjud bo'lgan tranzit yo'llar Movarounnahr shaharlari rivojiga, savdo- sotiqlik, hunarmandchilik taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mo'g'ullar istilosi tufayli Buyuk ipak yo'li bo'ylab olib borilgan madaniy va iqtisodiy aloqalar inqirozga uchrab, faqatgina XIII asrning 60–70-yillaridan boshlab shaharlar tiklanib, hunarmandchilik va savdo-sotiq ishlari yo'lga qo'yila boshlandi. Aloqa-savdo yo'llari faoliyati markaziy hokimiyat nazoratida bo'lib, bir kunlik yo'l masofasida maxsus bekatlar – yomlar barpo etildi. Savdo yo'llari bo'ylab harakatlanayotgan elchilik missiyalari, davlat xizmatchilari va pochta xizmatlari uchun zarur xarajatlarni qoplash karvon yo'llari bo'yida joylashgan shahar va qishloqlar aholisi zimmasiga yuklangan edi.

Yevropa mamlakatlari hukmdorlari tomonidan mo'g'ullar saltanati poytaxti Qoraqurum va Pekinga jo'natilgan Yevropa mamlakatlari elchilik missiyalari yo'nalishlari bu davrdagi savdo yo'llarini o'rganishga imkon beradi. Elchilar Qora dengiz orqali Saroy Berkaga, bu yerdan Buyuk ipak yo'lining shimoliy tarmog'i bo'ylab shimolga – Orol dengizining shimolidagi dashtlar, Yettisuv va Sharqiy Turkiston orqali Qoraqurumga yetib borgan.

Marko Poloning «Dunyoning ajoyibotlari haqida kitob» asarida Buyuk ipak yo'lining yo'nalishlari haqida muhim ma'lumotlar kel-

tiriladi. Bu kitobda Marko Poloning otasi (Nikolo Polo) va amakisi (Meffi Polo)ning 1254–1269-yillardagi hamda Marko Poloning ular bilan 1271–1295-yillardagi Xitoyga sayohatlari tafsilotlari aks etgan.

XIII asrda Buyuk ipak yo‘li shimoliy tarmog‘ining ahamiyati oshdi. O‘rta Osiyoning karvon yo‘llari haqida marokashlik sayyoh Ibn Battuta ham muhim ma‘lumotlar qoldirgan. Manbalarda Sirdaryoning quyi oqimidagi Yangikentdan Zarnuq orqali Nurotaga olib kelgan va «Xon yo‘li» nomi bilan atalgan yo‘nalish ham eslatiladi.

Chingizxon istilosi O‘rta Osiyoning iqtisodiy aloqalari va savdo yo‘llari faoliyati tizimiga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. Asosiy savdo va hunarmandchilik markazlarining vayron etilishi, sug‘orish inshootlarining izdan chiqarilishi ichki va tashqi bozor uchun mahsulot ishlab chiqarish tizimi inqirozini keltirib chiqardi. Natijada uzoq yillar Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab iqtisodiy-madaniy aloqalar to‘xtab qoldi. O‘rta Osiyoning karvon yo‘llaridan harbiy-siyosiy maqsadlarda foydalanish keng yo‘lga qo‘yildi. Bu davrda Buyuk ipak yo‘lining shimoliy tarmog‘i faoliyatining ahamiyati oshdi. Buni, bir tomondan, mintaqaning shaharsozlik madaniyatidan birmuncha chetda bo‘lgan shimoliy dasht qismidagi karvon yo‘llari harbiy istilolar davrida kam zarar ko‘rgani bilan izohlasa bo‘ladi.

Umuman olganda, O‘rta Osiyoda mo‘g‘ullar hukmronligi davrini karvon savdosi inqirozi davri sifatida qayd qilish mumkin.

#### **15.4. Buyuk ipak yo‘li va hozirgi zamon**

1987-yilda YUNESKO BMTning butunjahon dekadasi doirasida madaniy rivojlanish bo‘yicha «Buyuk ipak yo‘li – muloqot yo‘li» dasturini qabul qildi. Ushbu dasturda O‘rta Osiyo sivilizatsiyasi tarixini har tomonlama va chuqur o‘rganishga katta e‘tibor qaratildi. Undan tashqari, bu dasturning asosiy maqsadi – Sharq va G‘arb o‘rtasidagi madaniy va iqtisodiy aloqalarni yanada chuqurlashtirib mustahkamlash, bu ulkan mintaqalarda yashayotgan ko‘p sonli xalqlarning o‘zaro munosabatlarini yanada yaxshilashdan iborat edi.

2000-yilga qadar mo‘ljallangan ushbu dastur asosida ko‘pgina ekspeditsiyalar («Marko Polo izidan», 1987, Istambul – Pekin; «Dengiz» ekspeditsiyasi, 23.X.90-y. – 23.II.91; Xivada yakunlangan «Markaziy Osiyo Respublikalari bo‘ylab», 1991; «Ko‘chmanchi madaniyatlari yo‘nalishi bo‘ylab ekspeditsiya», iyun-avgust, 1992; «Yevropa ipak yo‘li», 1995, Istambul – Leon) ko‘plab ilmiy-amaliy xalqaro anjumanlar (Samarqand, 1990; Turku, Finlandiya, 1993; Kipr, 1994; Buxoro, 1996; Boku, 1998) o‘tkazildi.

Buyuk ipak yo‘lini o‘rganish va qayta tiklashda O‘zbekiston rahbariyati ham alohida e‘tibor qaratmoqda. Chunonchi, respublikamiz hududlarida uyushtirilgan ekspeditsiyalar natijasida ko‘pgina tarixiy-madaniy obidalar o‘rganildi. Qadimgi yo‘llar va yo‘nalishlar aniqlandi, milliy-ma‘naviy boyligimiz hamda an‘analarimiz o‘rganildi. Samarqandda Markaziy Osiyo tadqiqotlari Xalqaro instituti ochilgan bo‘lib, uning asosiy tadqiqot yo‘nalishlaridan biri Buyuk ipak yo‘li va uning bo‘ylarida joylashgan shaharlarni o‘rganishdir. 1997-yilning mayida O‘zbekiston ham o‘z hissasini qo‘shgan Mashhad – Saraxs, Saraxs – Mashhad temir yo‘li ochildi. Bu bilan O‘rta Osiyo mamlakatlari Fors qo‘ltig‘iga, Yevropa xalqlari esa O‘rta Osiyoga temir yo‘l orqali chiqish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. 1998-yil Boku shahridagi Buyuk ipak yo‘lini quruqlikda Yevropadan Yaponiyagacha qayta tiklash masalalariga bag‘ishlangan xalqaro anjuman bo‘lib o‘tdi. Yevropa – Kavkaz – Osiyoni bog‘laydigan ushbu transport yo‘li (TRASEKA) qurilishida O‘zbekiston ham ishtirok etmoqda va bu yo‘l butun dunyo iqtisodiyotini yuksaltirishiga xizmat qilishi shubhasizdir.

Bugungi kunda «Buyuk ipak yo‘li»ning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bu yo‘lni tiklash maqsadida O‘zbekiston bilan bir qator mamlakatlar o‘rtasida ko‘plab shartnomalar tuzildi. Buyuk ipak yo‘lini tiklash uchun O‘zbekiston – Turkiya – Eron davlatlari o‘zaro iqtisodiy, madaniy, ilmiy-texnikaviy hamkorlikni ta‘minlash borasida bir necha yo‘l variantlarida ish olib borildi. O‘zbekiston Markaziy Osiyodagi temir yo‘llardan foydalanib, Krasnovodsk va Boku port-



laridan Julfa bekatiga o'tish, undan Fors qo'ltig'iga, so'ngra Turkiya orqali Yevropaga chiqish yo'llari ustida ham ish olib bormoqda. Afg'onistonga an'anaviy savdo yo'llaridan foydalanib, Peshovar (Pokiston) orqali Karachi portiga va undan Sharq bozoriga chiqish ustida ham samarali ish olib borilmoqda.

Mustaqilligimizning dastlabki yillarida davlatimiz sa'y-harakati bilan mintaqaviy iqtisodiy hamkorligidagi davlatlar tomonidan 1996-yilning dekabrda 295 kilometrli Tajan – Saraxs temir yo'li qurilib ishga tushirildiki, natijada O'zbekistondan chetga olib chiqiladigan yuklar muddati ikki haftaga qisqardi.

Buyuk ipak yo'li an'alarini tiklash bilan bog'liq bir qator muammolar ham mavjud. Bular quyidagilar:

1. O'zbekiston Respublikasi qanchalik tabiiy boyliklarga boy, geopolitik jihatdan qulay bo'lmasin, dengiz davlati emas. Hozir xalqaro savdo-sotiqda savdoning 80% dengiz savdosi salmog'iga to'g'ri keladi.

2. Respublikamizning xorij bilan to'g'ridan to'g'ri hamkorlik qilish imkoniyatlari qiyindir. Chunki qo'shni Afg'onistonda salkam o'ttiz yildan ortiq davom etayotgan urush va uning asoratlari hanuzgacha to'xtagan emas.

Bu muammolarning bartaraf etilishi esa mamlakatimizni rivojlangan davlatlar qatoriga chiqishi uchun keng istiqbollar ochib beradi.

1998-yil may oyida Bryusselda Yevropa Komissiyasi, Markaziy Osiyo hamda Kavkaz orti mamlakatlari, shuningdek Yevropa Ittifoqi davlatlarining vakillari uchrashuvi bo'lib o'tdi. Uchrashuvdan ko'zda tutilgan maqsad – yangi mustaqil davlatlar – Markaziy Osiyo va Kavkaz orti mamlakatlarining jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi imkoniyatlarini ko'rib chiqish edi. Bu masala, avvalo, transport va kommunikatsiya tizimini rivojlantirish bilan bog'liq edi. Xususan, birgina O'zbekiston misolida aytadigan bo'lsak, Yevropaga chiqish uchun faqat Rossiya orqali o'tishga to'g'ri kelar, bu esa bizga juda qimmatga tushardi.

Bryussel uchrashuvida Yevropa va Osiyoni bir-biriga bog'laydigan «Yevropa – Kavkaz – Osiyo» trans yo'lagini barpo etish masalasi ko'rib chiqildi va shu bo'yicha Deklaratsiya qabul qilindi. Aytish mumkinki, ayni shu uchrashuv Buyuk ipak yo'li an'alarini tiklash borasidagi dastlabki qadam bo'ldi. Yevropa va Osiyoni bog'laydigan TRASEKA yo'li dasturi ishlab chiqildi.

1998-yil 8-sentabrda Boku shahrida xalqaro konferensiya chaqirildi. Unda TRASEKA dasturini amalga oshirish masalalarini muhokama etildi. Mazkur anjumanda jahonning 32 mamlakati hamda BMT, Yevropa tiklash va taraqqiyot banki. Jahon banki kabi o'ndan ortiq nufuzli xalqaro tashkilotlardan vakillar ishtirok etishdi.

TRASEKA loyihasini amalga oshirish O'zbekistonni Yevropa va Osiyo transport tarmoqlariga tutashtiribgina qolmasdan, uning eksport imkoniyatlarini oshirdi, loyihada ishtirok etuvchi mamlakatlardan bilan savdo aloqalarini yanada kengaytirdi. Dastlabki yillar ma'lumotlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 1996-yil Transkavkaz yo'lagi bo'yicha O'zbekistonga keltirilgan va olib chiqib ketilgan mahsulot hajmi salkam 140 ming tonnani tashkil etgan bo'lsa, 1997-yil bu ko'rsatkich 285 ming tonnaga yetdi. 1998-yilning sakkiz oy ichida esa tashilgan yuk hajmi 240 ming tonnadan ziyod bo'ldi.

Hozirga qadar jahonning 50 ta mamlakati TRASEKA yo'lagi orqali o'z yuklarini manzillariga yetkazmoqda. Mazkur loyihaga qo'shilishni istovchi mamlakatlar soni ham tobora oshib boryapti. O'zbekiston bugun TRASEKA dasturi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarda faol ishtirok etish bilan cheklanib qolmay, transport kommunikatsiyasi imkoniyatlarini kengaytirish borasida boshqa loyihalarni ham amalga oshirmoqda. O'zbekiston qo'shni Qirg'iston hamda Xitoy bilan Toshkent – Andijon – O'sh – Irkeshtom yo'lini qurish va ta'mirlash bo'yicha yaqindan hamkorlik qilayotir. Buyuk ipak yo'lining bir qismi hisoblangan bu yo'nalish Yevropa mamlakatlarini Janubiy Sharqiy Osiyo davlatlari va Tinch okeani bilan bog'laydi.

Boku anjumanida Yevropa–Kavkaz–Osiyo trans yo‘lagini rivojlantirish bo‘yicha xalqaro transport to‘g‘risidagi ko‘p tomonlama bitim imzolandi. Mazkur hujjat xalqaro yuk va yo‘lovchi tashishni rivojlantirish va boshqarish, transport sohasidagi huquqiy mezonlarni o‘zaro muvofiqlashtirishni ko‘zda tutadi. Shuningdek, anjumanda Boku Deklaratsiyasi hamda Buyuk ipak yo‘lini tiklashga bag‘ishlangan xalqaro konferensiya bo‘yicha yakuniy Komyunike ham qabul qilindi. TRASEKA loyihasiga a‘zo davlatlar hududlarida o‘zaro yo‘lovchi va tovarlarni barcha turdagi transport vositalarida erkin aylanishi, yuklarning xavfsizligi va saqlanishi, transport sohasida bojxona ishlari hamda huquqiy me‘yorlarni o‘zaro uyg‘unlashtirishni ko‘zda tutuvchi mazkur hujjatlar trans-milliy yo‘lakni barpo etish yo‘lidagi harakatlarga yangi kuch berdi.

Bugungi kunda Buyuk ipak yo‘lini qayta tiklash tobora global ahamiyat kasb etmoqda. Necha asrlar davomida ko‘plab mamlakatlarning taraqqiyotiga xizmat qilgan Buyuk ipak yo‘li bugun yana qaytadan tug‘ilmoqda. Bu yo‘l mamlakatlar o‘rtasidagi do‘stlik, madaniyat, iqtisodiy ravnaq, hamkorlik, bir so‘z bilan aytganda, taraqqiyot yo‘lidir.

#### *Tayanch so‘zlar*

Eng qadimgi yo‘llar, ulov, transport vositalari, Lojuvard yo‘li, shimoliy mintaqa, janubiy mintaqa, transmintaqaviy va mintaqaviy yo‘llar, mahalliy yo‘llar, Dasht yo‘li, Oltin yo‘li, Shoh yo‘li, Buyuk ipak yo‘li, Chjan Szyan, o‘rta asrlar yo‘llari, buyuk geografik kashfiyotlar.

#### *Savol va topshiriqlar*

1. Eng qadimgi yo‘llar paydo bo‘lishining asosiy omillari haqida gapirib bering.
2. Eng qadimgi yo‘llar haqida nimalarni bilasiz?

3. Buyuk ipak yo‘li haqida gapirib bering.
4. Mintaqaviy Buyuk ipak yo‘li va mahalliy yo‘llar haqida ma‘lumot bering.
5. Buyuk ipak yo‘lida Farg‘ona haqida nimalarni bilasiz?
6. O‘rta asrlar yo‘llari haqida gapirib bering.
7. Hozirgi davrda Buyuk ipak yo‘li tiklanishdagi harakatlar qaysi jayronlarda o‘z aksini topmoqda?
8. Qadimgi savdo-aloqa yo‘llariga oid xaritalarni jamlang va ularni tahtil qiling.

#### *15-mavzu bo‘yicha foydalanilgan adabiyotlar*

1. *Agzamova G.A.* So‘nggi o‘rta asrlar O‘rta Osiyo shaharlari – hunarmandchilik va savdo markazlari. – Toshkent: «O‘zbekiston», 2000.
2. *Анарбаев А.* Благоустройство средневекового города Средней Азии. – Ташкент: «Фан», 1981.
3. *Буряков Ю.Ф.* По древним караванным путям Ташкентского оазиса. – Ташкент: «Фан», 1978.
4. *Буряков Ю.Ф., Грицина А.* Мавераннахр на Великом шелковом пути. – Самарканд – Бишкек, 2006.
5. *Зиёуев Х.* Сибир, Volga va Ural bo‘ylaridagi o‘zbeklar (eng qadimgi davrlardan XX asr boshlarigacha). O‘zbek va rus tillarida. – Toshkent: «Sharq», 2003.
6. *Камалиддинов Ш.С.* Историческая топография Южного Согда Тохаристана. – Ташкент: «Фан», 1996.
7. *Кобзева О.П.* Великий шелковый путь: история и современность. – Ташкент: «Фан», 2005.
8. *Кобзева О.П.* История изучения Великого шелкового пути во второй половине XIX – начале XX вв. – Ташкент: «Зар Қалам», 2006.
9. *Mavlonov O‘.* Markaziy Osiyoning qadimgi yo‘llari: shakllanishi va rivojlanish bosqichlari. – Toshkent: «Akademiya», 2008.
10. *Mavlonov O‘., Mahkamova D.* Madaniy aloqalar va savdo yo‘llari. – Toshkent: «Akademiya», 2004.
11. *Ртвеладзе Э.В.* Великий шелковый путь. – Ташкент: «Шарқ», 1999.



12. *Xo'jayev A.* Buyuk ipak yo'li: munosabatlar va taqdirlar. – Toshkent: O'zME, 2007.

13. *Eshov B.J., Odilov A.A.* O'zbekiston tarixi. I jild. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2014.

14. Atlas of Central Asian artistic crafts and trades. – Tashkent – Bishkek, 1999–2002. Vol. 1–3.

15. *Buryakov Y.F., Baipakov K.M., Taschbaeva K., Yakubov Y.* The Cities and Routes of the Great Silk Road. – Tashkent: «Sharq», 1999.

16. *Schafer, Edward H.* The Golden Peaches of Samarkand: A study of T'ang Exotics. University of California Press. 1985.

---

## 16-MAVZU

### ETNOGENEZ VA ETNIK TARIX MASALALARI

#### Reja

16.1. Etnogenez va etnik jarayonlarning xususiyatlari.

16.2. Qadimgi migratsiyalar va etnomadaniy jarayonlar.

16.3. O'zbek xalqining shakllanishi masalasi.

#### 16.1. Etnogenez va etnik jarayonlarning xususiyatlari

Etnogenez masalalari, O'rta Osiyo xalqlari, jumladan o'zbek xalqining kelib chiqishi tarixi bo'yicha turli yillarda A.Yu. Yakubovskiy, S.P. Tolstov, L.V. Oshanin, A.N. Bernshtam, T.K. Xodjayev, I.M. Jabborov, K.Sh. Shoniyozov, A.A. Asqarov kabi olimlar tadqiqot ishlari olib borishgan.

Etnogenez yoki birorta xalqning kelib chiqish tarixi masalalari tarix fanining yutuqlari bilan chambarchas bog'liqligi ko'pchilik tadqiqotchilar tomonidan e'tirof etilgani ma'lum. Ammo tarix fanining boshqa yo'nalishlariga (arxeologiya, etnografiya, antropologiya va boshq.) nisbatan o'zbek xalqi etnogenezi hamon jiddiy tadqiqotlar talab etadi. Etnogenez va etnik tarix masalalari tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bu yo'nalishdagi ayrim kuzatishlarni yunon, xitoy, rim, arab, eron va turkiy tillarda yozilgan qadimgi hamda o'rta asr mualliflari va sayyohlari asarlarida uchratish mumkin. Ular o'z asarlarida xalqlarning tashqi qiyofasidagi umumiylik, ba'zi urf-odatlarining yaqinligi va tillarning o'xshashligini ta'kidlashgan. Biroq qadimgi va o'rta asrlar mualliflari bu jarayonlarning asl sabablarini ochib bera olishmagan. XIX–XX asrlar boshlarida olib borilgan tadqiqotlar nisbatan samarali bo'lishiga qaramay, ular ham xalqlarning kelib chiqishi, madaniyati va tillaridagi o'xshashlik sabablari va mohiyatini to'la ochib bera olmadi.

Arxeologik, antropologik, etnografik va tilshunoslik tadqiqotlar natijalarini umumlashtirgan holda har bir xalqning etnogenezi va etnik tarixini o'rganishda olimlar tomonidan quyidagi tamoyillarga asosiy e'tibor berish taklif etildi:

1) biror xalqning kelib chiqishi tarixi ko'p qirrali jarayon bo'lib, u o'z ichiga shu xalqning madaniyati va ijtimoiy tuzilmasi, uning biologik xususiyatlari, o'zining jamiyatda tutgan o'rnini tushunish, tili va o'zligini tanishni qamrab oladi;

2) etnogenez masalasiga bir tomonlama qarab, uni soddalash-tirish bilan chegaralanib qolmasdan, shu xalqning kelib chiqish ta-rixida ma'lum ahamiyat kasb etgan barcha tarkibiy qismlar ham e'tiborga olinishi shart;

3) etnogenez murakkab va uzoq davom etgan jarayon. Binoba-rin, bu jarayonni bosqichma-bosqich tiklash maqsadga muvofiqdir.

Etnologiya fanida qo'llanilgan ilmiy-uslubiy nazariyaga ko'ra etnogenez jarayonida antropologik va etnogenetik xususiyatlar et-nik omillar va belgilarni (muayyan elat, xalqning hududiy, iqtisodiy, madaniy birligi, tili, dunyoqarashlari) hamda boshqalarni o'rganish muhim ahamiyatga ega. Etnogenez jarayonida hamda qadimgi etnik tarixda tub joyli (avtohton) aholi an'analari va kelgindi aholi guruh-larining etnomadaniy sintezi (qo'shilishi, qorishib ketishi) natijasida yangi an'analarning vujudga kelishi e'tiborga molik.

O'rta Osiyoda, xususan O'zbekiston hududlarida qadimgi davrlarda sodir bo'lgan etnik jarayonlarni har tomonlama yoritishdan avval ayrim fanlar sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlarni oxiriga yetkazish bilan un-dan boshqa soha mutaxassislari ham foydalanishi mumkin bo'lgan da-rijasiga chiqarish maqsadga muvofiqdir. So'nggi yillardagi arxeologik izlanishlar qadimgi aholining moddiy va ma'naviy madaniyati, uning turmush tarzi, uy-ro'zg'or ashyolari, an'anaviy xo'jaligi va boshqalar haqida muhim ma'lumotlar olish imkonini berdi. Bu jarayon esa yangi antropologik ma'lumotlar to'plash va ularni tahlil etishga asos bo'ldi.

Etnogenez va xalqning etnik rivojlanishini o'rganishda etnik bel-gilar va etnik omillarning tarkib topish jarayonini kuzatib borish et-nogenetik tadqiqotlarni to'g'ri yo'nalishga soladi. Etnologiya fanida

e'tirof etilgan nazariyaga ko'ra, etnik omillar tarkibini hududiy iq-tisodiy-madaniy birlik, antropologik tip birligi va siyosiy uyushma birligi, ya'ni, etnosning ma'lum bir davlat doirasida uyushqoqligi tashkil etadi. Etnik belgilarga esa til birligi, etnik nom va o'zlikni anglash birligi, ya'ni, tarixiy taqdirning umumiyliigi kiradi. Yuqo-rida ta'kidlanganidek, mazkur omillar va belgilarning tarkib topishi bir davrda yuz bermaydi, balki uzoq davom etgan tarixiy jarayonda birin-ketin shakllanib boradi. Ularning asosiy qismi tarkib topgach, elat - xalq shakllanadi.

Tarixiy adabiyotlardan bizga ma'lumki, xalqlar haqidagi fanga bundan 2,5 ming yil ilgari Qadimgi Yunonistonda asos solingan. Shu-ning uchun ham zamonaviy fanda yunon tilidan olingan so'zlar ko'p uchraydi. Bunday so'zlarni xalqlar haqidagi fanlarda ham uchratish mumkin. Qadimgi yunonlarda «xalq» tushunchasini ifodalovchi bir necha so'zlar bo'lgan. Shulardan biri «demos» bo'lib, bu so'z orqa-li aholining asosiy qismi tushunilgan («demokratiya» - «xalq hoki-miyati», «demografiya» - «xalqlarni ta'riflash» va boshq.). Shunday so'zlardan yana biri «etnos» bo'lib, aynan tarjimasida «xalq» demakdir. Etnografik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, har qanday etnos o'z shakl-lanishining dastlabki pallasida bir-biri bilan iqtisodiy jihatdan o'zaro bog'liq odamlar jamoasidan iborat bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, xalqlarning kelib chiqishi tarixini o'rganishda ijtimoiy-gumanitar fanlarda «etnik birlik» va «etnos» atamaları ish-latiladi. Etnik birlik - ma'lum bir ijtimoiy tuzumda, tabiiy-tarixiy taraqqiyot jarayonida vujudga kelgan ijtimoiy va etnik uyushmadir. Ularning sinonimi esa etnosdir. Ammo etnik birlik «xalq» tushuncha-siga nisbatan ma'no jihatdan aniq tushunchadir. Etnos atamasi, ya'ni, xalq juda keng ma'noda ham, tor ma'noda ham ishlatilishi mumkin. Masalan, keng ma'noda, Amerika xalqi, Rossiya xalqi, jahon xalqla-ri, O'zbekiston xalqi; tor ma'noda esa, rus xalqi, ingliz xalqi, o'zbek xalqi, qozoq xalqi va boshq. Kichik bir guruhga nisbatan ham unu-miy tarzda, aholi sifatida «xalq» iborasi qo'llanilishi mumkin. Masa-lan, mahalla xalqi, oroicha xalqi, qishloq xalqi, guzar xalqi va boshq.



Fanda etnik birlikning uch bosqichi, ya'ni, uch turi mavjud: qabila, elat (xalq) va millat. Ketma-ket kelgan bu atamalar turli davrda vujudga kelgan bo'lib, ular o'z davriga xos xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanadi. Qabila – ibtidoiy jamoa tuzumining so'nggi bosqichida xos etnik birlik hisoblanadi. Qabila urug'larga bo'linish xususiyatlari bilan elatdan farq qiladi. Qabilaning o'ziga xos tili (lahjasi), hududi, qabila nomi (etnonimi)ning bo'lishi va qabila an'alariga uning a'zolari bo'ysunishi bilan boshqa qabilalardan ajralib turadi. Kishilik jamiyatining taraqqiy etib borishi va davlatchilik tizimining paydo bo'lishi bilan qabila uyushmasi o'z ahamiyatini yo'qotadi. Ammo qabila atamasi va unga tegishli bo'lgan ba'zi xususiyatlar ayrim jamiyatlarda (ularga moslashgan holda) saqlanib qolgan.

«Elat» atamasi turkiy va forsiy tilli aholi o'rtasida qabila, qabila ittifoqi, davlat yoki ma'lum hudud aholisiga nisbatan «xalq» atamasi o'rnida ishlatib kelingan. Shuning uchun «elat» atamasi turkiy va forsiy til muhiti hukmron doirasida yaratilgan og'zaki yer egali manbalarda uchraydi. Keyinchalik, o'troq hayot uzoq vaqt kundalik turmush tarziga aylangan etnik birliklar uyushmasiga nisbatan «xalq» atamasi, «el», «elat» o'rnida ishlatib kelinadi.

Etnologiya fanida «etnografik guruh» va «etnik guruh» atamaları ham keng qo'llaniladi. Etnografik guruh – ma'lum bir etnosning ajralmas qismi, uning tarkibidagi bo'linmalaridan biri bo'lib, o'ziga xos lahjasi, xo'jalik faoliyati, turmush tarzining ba'zi bir tomonlari bilan muayyan elatdan farq qiladi. Etnografik guruh deb, odatda bir qabila yoki elatning boshqa yerga borib, ikkinchi bir xalq tarkibiga hali mutlaqo singib ketmay, balki u birga yashab kelayotgan etnik birlikka aytiladi. Tarixdan bizga ma'lumki, qipchoqlar, quramalar, umuman ko'chmanchi turkiy qabilalar etnografik guruhlar bo'lishgan. Ayrim etnoslar (eroniyalar, arablarning said va xo'ja toifasi) asrlar davomida mahalliy aholi orasiga singib ketib, ba'zi hollarda o'z tili va urf-odatlarini saqlab qoldilar. Hozirgi kunda xalq, millat darajasiga ko'tarilgan etnografik guruhlar mavjud emas.

Etnik guruh esa, muayyan bir xalqning parchalanib, alohida qismlarga bo'linib ketishi natijasida vujudga keladi. Bu guruhning

etnografik guruhdan farqi shundaki, parchalangan xalq tarkibida uzoq muddat yashab, shu xalqning tili, xo'jalik faoliyati, madaniyati, urf-odatları va turmush tarzini qabul qilib, ularni o'ziga singdirib, o'zini uning nomi bilan ataydigan bo'ladi.

Etnik birliklar tarkibiga kirgan etnik guruhlar o'rtasidagi etnik, iqtisodiy-xo'jalik va madaniy aloqalarning uzluksiz rivojlanib borishiga «etnik jarayonlar» deyiladi. Tadqiqotchilar etnik jarayonlarni bo'linib ketish va birlashishga moyil jarayonlarga ajrashadi. Bo'linib ketish ko'proq ko'chmanchi chorvadorlarga, birlashish tamoyili esa o'troq turmush tarzi kechirgan aholiga xosdir.

Ayrim etnoslarni bir-biridan farqlovchi muhim belgilaridan biri bu madaniy xususiyatlardir. Mazkur xususiyatlarni har bir xalq o'z tarixiy-madaniy rivojlanishi jarayonida o'zlashtiradi va avloddan avlodga qoldiradi. Fanda bu jarayon «etnik an'alar» deyiladi. Bunday an'alar har bir xalqning ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy geografik shart-sharoitlari bilan bog'liq bo'lgan u yoki bu tarixiy davrlarda shakllanadi. Etnosni qisqacha qilib uyushgan til-madaniy jamoasi deyish mumkin. Ilmiy adabiyotlarda «etnik jamoa» degan so'z ham ko'p ishlatiladi. Faqatgina alohida xalqlarni emas, balki ularning kelib chiqishida qarindoshchiligi bo'lgan guruhlarini ham etnik jamoa, deb atash mumkin.

Tadqiqotchilarning fikricha, qarindosh-urug'chilik etnik jamoalari asta-sekinlik bilan urug' jamoalariga aylanib boradi. Urug' – birga yashab, hamkorlikda mehnat qilgan qarindoshlar uyushmasi bo'lib, ma'lum xalqlarning etnik shakllanishidagi dastlabki bosqichlardan biri sifatida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

## 16.2. Qadimgi migratsiyalar va etnomadaniy jarayonlar

O'rta Osiyo hududi inson tomonidan qadimgi tosh davrida o'zlashtirilganligi bizga ma'lum. So'nggi paleolit va mezolit davrida urug'chilik jamoalari tog'lar va tog'oldi, daryo vohalari, dengiz va ko'llar bo'ylarida joylashishgan. Ovchilik, baliqchilik va termachilik –

o'zlashtiruvchi xo'jaliklar talablaridan chiqqan holda, oziq-ovqat mahsulotlariga boy atrof-muhitni va tosh qurollar yasash uchun xomashyo zaxiralari mavjud yerlarni o'zlashtirish jarayoni tobora kengayib bordi. Shu bois aholining bir hududdan ikkinchisiga ko'chishi – migratsiyalar rivojlandi. Umumiy mintaqa doirasida ko'chishlar ichki migratsiyalar hisoblanib, tub joyli aholi vakillarining hududiy joylashuvi chegaralarining kengayishini belgilab beradi. Tashqi migratsiyalar olis yurtlardan ko'chib kelgan aholi guruhlarining harakatlari bilan bog'liq bo'lgan.

Bu borada tub joyli (avtoxton) va kelgindi aholisining o'zaro munosabatlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Mazkur mavzuga tegishli fanda ikki nazariya ma'lum. Birinchisi, jamiyatning asosan avtoxton bosqichma-bosqich rivojlanishini tan oladi, ikkinchisi – xalqlarning avtoxtonli va migratsiyalar o'zaro bog'liqlikda taraqqiy topishi jarayoni bilan belgilanadi.

Tarixiy etnografiyadan ma'lumki, tashqi madaniy-iqtisodiy ta'sirsiz, ichki ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari bilan chegaralangan, avtoxton an'analari asosida rivojlangan «yopiq» jamiyatlar madaniy taraqqiyot jihatdan orqada qolib ketgan. Avtoxton va migratsiyalar o'zaro aloqadorligi va ta'siri yo'lidan qadam bosgan xalqlar qadim zamonlardan madaniy, iqtisodiy va texnologik yutuqlarga erishgan. O'rta Osiyo xalqlari tarixida ham migratsiyalar natijasida moddiy va ma'naviy madaniyat, til, e'tiqodlar va diniy qarashlarning tubdan o'zgarishi, siyosiy jihatdan yangi davlatlarga asos solinishni haqida talaygina misollar keltirish mumkin.

Bu holat juda muhim, chunki etnogenez va etnik tarixi masalalarini o'rganishda, u yoki bu xalq etnogenezining boshlang'ich nuqtasini aniqlash, uni tanlangan voqealar va alohida qabilalar sa'y-harakatlari bilan bog'lash hozirgi nashrlarda keng o'rin topdi. Umuman olganda, xalqlarning kelib chiqish masalasi jahon tarixi fanida o'z dolzarbligi bilan ajralib turgan muhim va o'ta murakkab muammo bo'lib, nazariy va amaliy jihatdan ilmiy va g'ayriilmiy usullar qarama-qarshiligida yoritilgan.

O'tgan asrning 30-yillari o'rtalarida O'rta Osiyo xalqlari tarixini yozish masalalari ro'yobga chiqarildi. Shu munosabat bilan arxeologik va etnografik ekspeditsiyalar tashkil qilina boshlandi, ko'pdan-ko'p muammolarni qayta ko'rib chiqish, jumladan, etnogenez jarayonlarni tahlil qilish alohida vazifaga aylandi.

XX asrning 40-yillarida, o'zbek xalqining shakllanishini XV asr oxirlari – XVI asr boshlarida Dashti Qipchoqdan kirib kelgan «ko'chmanchi o'zbeklar» bilan bog'lash, tarixiy haqiqatga zid bo'lgan an'anaviy qarash rad etildi. «Ko'chmanchi o'zbeklar» guruhlarini O'rta Osiyo Ikkidaryo oralig'idagi tub joyli turkiy tilli aholisiga aralashib, unga «o'zbek» nomini berdi, o'zbek xalqi etnogenezi esa Turk xoqonligidan boshlanadi, degan xulosa ilgari surildi (A.Yu. Yakubovskiy). Biroz keyinroq o'zbeklar etnogenezining boshlang'ich sanasi mil. avv. IV–III asrlarga qadar qadimiylashtirildi (S.P. Tolstov). Hozirgi kunda o'zbek xalqi etnogenezining boshlanishi so'nggi bronza davri bilan belgilanmoqda (A.A. Asqarov). Shunday qilib, o'zbeklar etnogenezining boshlang'ich nuqtasi taxminan mil. avv. XV asrgacha qadimiylashtirildi. Biroq bronza davriga qadar mintaqada yashab kelgan tub joyli aholi etnogenez jarayonida qanday ahamiyat kasb etgan, degan savol ochiq bo'lib qoldi.

XXI asrning boshlariga kelib, O'rta Osiyo respublikalarida chop etilgan ayrim nashrlarda «oriylar-eroniyalar», «oriylar-turkiylar» va «prototurklar» hamda «bronza davri o'g'uzlari» kabi barchasi kelgindi chorvador qabilalar bilan zamonaviy xalqlar etnogenezining boshlang'ich bosqichini belgilash ilmiy jihatdan yetarlicha asoslab berilmagan.

Bunday yondashuv insoniyatning ko'plab avlodlari vakillarining obyektiv vorisiyligi jarayoniga sirayam to'g'ri kelmaydi, o'z navbatida u yoki bu qadimgi elatlarning har biri o'z ajdod va avlodlariga ega bo'lganlarki, bu umumtarixiy qonuniyat hisoblanadi.

Xalqlar (etnoslar) insonlarning, alohida qabilalarning irodasiga muvofiq shakllanmagan, ammo shunga qaramasdan, ba'zi mualliflar, tarixiy jarayonning obyektiv rivojlanish qonunlarini nazar-pisand qilmasdan, hech ikkilanmay o'z xalqi qadimiyroq davrlarda shakllanishini qayd etib o'tishga harakat qilishgan.



Antropologik, etnik, etnomadaniy va lingvistik mezonlar bahosi nuqtayi nazaridan xalqlarning kelib chiqishi – etnogenez – bu uzoq davom etadigan, serqirra jarayondir. Xalqning shakllanishi xronologik jihatdan uzoq davr oralig'ini qamrab oladi, mazkur jarayonda uning o'z-o'ziga nom berishining yuzaga kelishi etnogenez jarayonining boshlanishi bilan qiyoslaganda nisbatan kechroq sodir bo'ladigan hodisadir.

Uzoq o'tmishda har qaysi urug' va qabila ma'lum hududda umrguzaronlik qilishgan, xo'jalik yuritishgan hamda zaruriyat taqozo etganda qo'shni qabilalarning hududga bo'ladigan da'volari va bosqinlaridan himoyalanihgan. Aholi sonining o'sishi nafaqat ushbu hududning to'la o'zlashtirilishiga, balki yangi yerlarni o'zlashtirish maqsadida uning hududlaridan tashqariga chiqilishiga ham olib kelgan. Yangi qabilalarning alohida qabilaga emas, balki o'zaro qarindosh qabilalar guruhiga birikishiga asoslangan yangi hududlar shu tariqa tashkil topgan.

Ishlab chiqaruvchi xo'jalik shakllari – ziroatchilik va chorvachilikning vujudga kelishi bilan yangi hududlarni o'zlashtirish jarayoni (suv manbalari, unumdor yer va yaylovlar izlash) tezlashgan. O'zlashtirilgan hududlarning kengayishiga muvofiq turli mavzelerde insonlarning joylashuvi aralash xususiyat kasb eta boshladi hamda urug'-jamoat tuzumi uchun ulkan ahamiyatga ega bo'lgan qon-qarindoshlik aloqalari o'zining ilgarigi ahamiyatini yo'qotdi. Muayyan hudud doirasida tig'iz joylashgan qabilalar guruhi asosida etnik jamoalar – qadimgi xalqlar shakllandi. Yangi etnik jamoalar ichida til va madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy aloqalar rivojida hudud asos vazifasini o'tadi.

Endi qadimgi xalqning o'z-o'ziga nom berishi xususida etnologiyada odatda ehtimolga yaqin bo'lgan ikkita variant ajratib ko'rsatiladi:

– xalqning o'z-o'ziga nom berishi u yashagan hudud nomi bilan bog'liq, ya'ni u toponim hisoblanadi;

– xalqning o'z-o'ziga nom berishi uning etnik xarakterini aks ettiradi hamda etnonim hisoblanadi.

Shu bilan birga, alohida qadimgi etnoslarning o'z-o'zini nomlashi ko'pincha boshqa tushunchalar bilan ham bog'lanadi hamda etnonim yoxud toponim hisoblanmaydi.

Agar tarixiy dalillarga nisbatan betakalluflarcha munosabatda bo'lish usulidan voz kechiladigan bo'lsa, u holda O'rta Osiyodagi alohida bir zamonaviy xalqning etnonimi o'ta qadimiyligi to'g'risidagi g'oya butkul zaif ekanligi fosh bo'ladi.

O'rta Osiyoning bronza davri mil. avv. III mingyillik o'rtalari – II mingyilliklardagi aholisi tarixi, bu davrga oid yozma manbalar noma'lumligicha qolayotganligi bois, faqat arxeologiya materiallari asosida o'rganiladi.

Besh-to'rt ming yillar avvalgi davr va undan yanada oldingiroq davrlarga taalluqli arxeologiya ma'lumotlari jamiyat moddiy va ma'naviy madaniyatining turli tomonlarini yetarli darajada tahlil qilishga imkon beradi. Biroq, agar gap yozuv paydo bo'lishi davri tarix xususida borar ekan, bu aynan mintaqaning ko'rib chiqilayotgan davriga ham tegishli ekanligi obyektiv dalil, bu o'rinda arxeologiya manbalari muayyan etnos va etnonimni belgilab beruvchi indikator vazifasini o'tay olmaydi. Mil. avv. III–II mingyilliklar va undan ancha qadimiyroq davrga oid u yoki bu arxeologik topilmalar taalluqli bo'lgan qabilalar, garchi ular so'zsiz zamonaviy xalqlarning qadimgi ajdodlari hisoblansalar-da, nomsizliklaricha qoladilar. Qachonki buni rad etuvchi yozma manbalar topilmas ekan, ushbu dalil o'z kuchida qolaveradi.

Bundan quyidagi xulosalar kelib chiqishi muqarrar:

– O'rta Osiyoda 5–4 ming yillar avval va tabiiyki, undan oldingi davrlarda istiqomat qilgan qadimgi qabilalarning nomlari zamonaviy tarix faniga ma'lum emas;

– u yoki bu viloyatda yashagan aholi xususida arxeologik ma'lumotlarga asoslangan holda, biroq yozma axborotga ega bo'lmay turib, biz ular haqida mintaqa miqyosida aniq bir etnosning, ayniqsa zamonaviy etnosning qadimiy vakili, deb hukm chiqara olmaymiz.

Endi oriylar (ariylar) qabilalari xususida. Ko'plab olimlarning fikricha, ya'ni hind-eroniylar etnomadaniy birligiga tegishli bo'lgan. dastlab Volgabo'yi va Janubiy Ural dasht hududlarida yashashgan. Boshqa bir taxminga ko'ra – Old va Kichik Osiyoda, Bolqonda hamda Qora dengiz bo'ylaridagi dashtlarda yashashgan. «Arya» atamasi Rigveda madhiyalarida (mil. avv. II mingyillik o'rtalari), «Avesto»da hamda mil. avv. VI–V asrlarga oid qadimgi fors bitiklarida uchraydi. Ahamoniylar sulolasidan bo'lgan qadimgi fors podsholari ham o'zlarini oriylar hisoblashgan: «Men kim Doro, buyuk shoh..., oriy, oriylar urug'idan».

Arxeologiya fanida hind-eroniylar mil. avv. II mingyillik o'rtalarida Janubiy Ural, Markaziy Qozog'iston va Sibir, dasht doirasidagi O'rta Osiyoga ko'chib kelgan yoxud «dashtli bronza» Andronovo madaniyati qabilalariga mansub ekanligi e'tirof etiladi, shuningdek ular turkiy tilli qabilalar bilan bog'lanadi. Dashtning chorvador qabilalari kelgan paytda O'rta Osiyoning turli viloyatlarida ziroatchilik bilan shug'ullanuvchi, ko'psonli, tub o'troq aholi istiqomat qilardi. Ularni olis ajdodlar safidan chetda qoldirish unchalik to'g'ri bo'lmasa kerak. O'rta Osiyo ziroatchilari yuqori darajada taraqqiy topgan moddiy madaniyat, hunarmandchilik, binokorlik va me'morchilik bilan ajralib turishgan. Ziroatchilik vohalariga kirib olgan, chorvador guruhlar sekin-asta mahalliy aholi ichiga singib ketishdi va uning madaniyatini qabul qilishdi. Mazkur jarayon ilk boshda tinch vaziyatda kechgan bo'lishi ehtimoli bor, ammo harbiy to'qnashuvlarni ham istisno etib bo'lmaydi. «Avesto»ning qadimgi qismlarida qabilalar bir-birlari bilan o'zaro nizolashgan, urush va bosqinlar insonlarga cheksiz iztirob va o'lim olib kelgan notinch va tahlikali zamonlar xususida hikoya qilinadi.

O'rta Osiyoning bronza davri mahalliy aholisining tili va madaniyati kelgindilar tilidan farq qilgan, shu boisdan bo'lsa kerak turli muzofotlarda ma'lum vaqtgacha ikkitillilik saqlanib turgan, ammo keyinchalik kelgindilarning tili va e'tiqodi keng ko'lamda yoyilib ketgan. Ilk yozma manbalarning guvohligiga ko'ra, mil. avv. I mingyillikning birinchi yarmida O'rta Osiyoning o'troq dehqonchilik vo-

hularida parfiyon, baqtriy, sug'd va xorazm tillari yoyilgan bo'lib, vaqt o'tishi bilan ular turkiy va tojik tillari tomonidan siqib chiqarilgan, shu bilan birga so'nggi jarayon turli joylarda ma'lum bosqichlarda ikkitillilik sharoitida kechgan.

Bo'lg'usi xalqlar va davlatlar hududiy chegaralarining rivoji ilk boshqa yagona etnosning joylashuvi bilan bog'liq bo'lmagan hamda hamisha murakkab va doimiy yangilanib boruvchi etnik va madaniy jarayonlarni aks ettirgan. Etnik va davlat-siyosiy chegaralari shakllanishidan ancha ilgari aholi joylashuvining tabiiy, geografik chegaralari belgilangan va yuzaga kelgan. Ming yillar mobaynida ko'plab qabila va elatlar, ayniqsa, ularning hududda aralash joylashib istiqomat qilganlari umumiy madaniy an'analarga ega bo'lishgan. Ularning yaqin qo'shnichiligi, uzoq davom etgan munosabatlar va o'zaro ta'sirlari nafaqat madaniy, balki etnik qorishib ketishga ham olib kelgan.

O'rta Osiyo tarixining xususiyati shundan iboratki, hali olis o'tmishlardayoq mahalliy aholi tarkibi turli davrlarda nafaqat ichki o'sish hisobiga, balki tashqi migratsiyalar evaziga ham kengaya borgan. Arxeologiya ma'lumotlarining guvohligiga qaraganda migratsiya jarayonlari eneolit va bronza davriga kelganda ayniqsa kuchayadi. Bu davrda qadimgi ziroatchilarning Kopetdog'oldi hududlari, Murg'ob daryosi etaklari, Shimoliy Afg'oniston hamda Surxon va Zarafshon vohalariga keng joylashuvi qayd qilinadi. Shuningdek, Moxenjaro va Xarappa aholisining Hind daryosi vodiysidan Panj daryosi havzasiga bosqichma-bosqich singib ketishini ham ta'kidlash joiz. Mil. avv. II mingyillikning o'rtalari – ikkinchi yarmida chorvador aholining Yevroosiyo dashtlaridan O'rta Osiyoga jadal siljishi boshlanadi. Mazkur jarayon to mil. avv. IX–VIII asrlarga qadar davom etadi. Bularning barchasi etnik joylashuvning ancha murakkab manzarasidan dalolat beradi. Eng qadimgi migratsiyalarning asosiy sabablari ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy omillar ta'sirida ro'y bergan. Shunday qilib, O'rta Osiyoning eng qadimgi tarixi qabilaviy migratsiyalar, turlicha iqtisodiy asosdagi qabilalar o'rtasida assimillatsiya



(qorishib ketish) jarayonlari hamda uzoq davom etgan o'zaro madaniy-iqtisodiy hamkorlik bilan tavsiflanadi.

Shu boisdan ham, zamonaviy xalq qaysidir alohida qabilalarning to'g'ridan to'g'ri etnomadaniy yoxud genetik avlodlaridir yoki oriylar (eroniylar, turkiylar, prototurklar)ning mintaqa hududlariga migratsiyasi natijasida zamonaviy xalqning etnogenezi boshlandi, degan tezis yana bir bor shubha uyg'otadi. Bularning bari zamonaviy xalqning kelib chiqishini «buyuk etnoslar»ga olib borib taqashga muvaffaqiyatsiz urinishdan boshqa narsa emas. Qadimgi etnogenez jarayoni, etnik tarix rivoji quyidagi tartibda kechgan: tub (avtohton) an'analar – sintez (qorishish, qo'shilish) – yangilanish, yana an'analar hamda etnomadaniy yangiliklarning (innovatsiya) ro'y ko'rsatishi, shunday ekan, bunday kelgindi qabilalar uzoq vaqt mobaynida o'zgarmasdan saqlanib qola olishmasdi. O'rta Osiyo, shimoli-sharqiy Eron, Afg'oniston hamda Hind-Pokistonga yoyilgan xuddi o'sha oriylar sekin-asta qadimiy mahalliy aholi orasiga singib, aralashib ketishdi. Yangi etnik jarayonlar shu asosda rivojlandi va O'rta Osiyoning ilk yozma manbalardan ma'lum bo'lgan qadimiy elatlarining shakllanishi ro'y berdi. Ular mintaqaga zamonaviy xalqlarning ajdodlari edi.

O'rta Osiyo xalqlarining tarixiy-madaniy merosiga va ayniqsa, etnogenez hamda etnik tarixi muammosiga murojaat etish bugungi kunda ham, kelgusida ham raqobatlashuv elementlaridan xoli bo'lmog'i lozim. Shu boisdan mintaqaviy hamjihatlikni saqlab qolish va mustahkamlash hamda zamonaviy davlatlar o'rtasida hamkorlik va yaxshi qo'shniçilik munosabatlarini qo'llab-quvvatlash masalasi muhim ahamiyatga ega. Bularning bari mintaqaviy mas'ullik muammosi bilan uzviy bog'liq.

### 16.3. O'zbek xalqining shakllanishi masalasi

Qadimshunoslar yozishicha, o'zbek xalqining kelib chiqishi tarixini o'rganishni qancha erta davrlardan boshlasak, uning tarkibida hozirgi kunlarga saqlanib kelinayotgan irqiy va etnik unsurlar-

ning mahalliy xalq tarkibiga kirgan davri va uning nisbiy miqdori to'g'risida shunchalik keng fikr yurita olamiz.

O'zbek xalqiga xos O'rta Osiyo Ikkidaryo oralig'i irqining shakllanish davri, makoni va tarixi masalalarida fanda yaqingacha yagona fikr yo'q edi. Bir guruh olimlar bu irq bundan 6–8 ming yil ilgari, ikkinchi bir guruh tadqiqotchilar bundan 3 ming yil ilgari shakllangan desa, uchinchi guruh olimlari esa, VI asrda shakllandi, deb hisoblashardi. Keyingi yillardagi antropologik tadqiqotlari natijasida olimlar O'rta Osiyo Ikkidaryo oralig'i irqining shakllanishi bundan 2200–2300-yil ilgari boshlanganligini asoslab berishdi.

Ahamoniylar, Makedoniyalik Aleksandr, yuechji-kushonlar, Turk xoqonligi, Arab xalifaligi, mo'g'ullar yurishlari va davri migratsiyalar O'rta Osiyo xalqlari madaniyatiga, tiliga, turmush tarziga va diniga albatta o'z ta'sirini o'tkazgan. Ammo bu jarayonlarning mahalliy xalqlarni irqiy va etnik tarixiga bo'lgan ta'siri kam ekanligini ta'kidlash joiz. Antropologik nuqtayi nazardan ular mahalliy xalq «qonini» yoki genetikasini tubdan o'zgartira olishmadi. Ular son jihatdan ko'pchilikni tashkil etgan mahalliy aholi tarkibiga singib ketishdi. Bu o'rinda mahalliy va kelgindi aholi orasidagi o'zaro munosabatlarning fanda ma'lum holatlarini eslatib o'tish joiz. Antropolog T. Xo'jayevning maxsus antropologik tadqiqotlariga qaraganda, barcha tarixiy davrlarda mahalliy xalq kelgindi aholidan hamisha ustun bo'lgan.

Ilk temir davridan boshlab o'lkamizning qadimgi dehqonchilik vohalarida yashovchi o'troq aholi o'zlari yashab turgan hudud nomlari bilan atala boshlangan. Bular, Sug'diyonadagi sug'diylar, qadimgi Xorazmdagi xorazmiylar, qadimgi Baqtriyadagi baqtriyaliklardir. Shuningdek, yozma manbalarda ko'chmanchi qabilalar sakmassagetlar tilga olingan. Bu etnonimlarni ilk yozma manbalarda uchratish mumkin.

Oldingi bandda etnogenez va etnik tarixi rivojlanishida avtohton (tub joyli) an'analari va migratsiyalar natijasida sintez tufayli mazkur jarayon asosida mintaqa hududlarida qadimiy elatlar, ya'ni zamona-

viy xalqlarning ajdodlari shakllanishi haqida soʻz yuritildi. «Avesto» tili hamda antik davrga oid mahalliy yozuv namunalari (xorazm, sugʻd, baqtriya yozuvlari) boʻyicha Oʻrta Osiyo oʻtroq aholisi Sharqiy eroniy tilli elatlar boʻlgan.

Ahamoniylar davrida (mil. avv. VI asr ikkinchi yarmi – mil. avv. IV asr) tub joyli aholi guruhlari til va madaniyati jihatdan oʻzgarmaydi, ular oʻtroq zirotchilar va koʻchmanchi chorvadorlardan iborat boʻlgan. Yozma manbalarga koʻra, Xorazm, Sugʻd va Baqtriya Sharqiy eron tilli aholisidan iborat boʻlgan, shuningdek, Sirdaryo havzasi va Fargʻona vodiysidagi jamoalar turkiy tilli boʻlishi ehtimoldan xoli emas. Bu tilda Quyi Sirdaryo havzasida mil. avv. V–IV asrlarda Chirikrabot, Babishmoʻlla madaniyatiga asos solgan qabilalar va biroz keyin Qangʻ aholi soʻzlashgan. Bu borada Amudaryo va Sirdaryo oraligʻida hamda uning atrofida Sharqiy eron tilli elatlari va turkiy tilli qabilalarning yaqin qoʻshnichiligi va oʻzaro aloqalariga eʼtibor berish lozim.

Oʻrta Osiyo xalqlarining keyingi davr etnik shakllanishida bu hududga koʻchib kelgan turli elat va qabilalar maʼlum maʼnoda ishtirok etishgan. Yuechjilar, xioniylar, kidariylar, eftaliylar shular jumlasidandir.

IV asrning oxirlaridan boshlab Oʻrta Osiyoda yirik turkiy etnoslar xioniylar va eftaliylarning oʻtroqlashuv jarayonlari kuchayadi. V–VI asrlarga kelib eftaliylar va xioniylarning asosiy qismi oʻtroq hayotga oʻtishadi. Bu qabilalar oʻtroq hayot kechirib anʼanaviy chorvachilik bilan bir vaqtda dehqonchilik bilan ham shugʻullanganliklari haqida yozma va arxeologik manbalar maʼlumotlar beradi.

Turk xoqonligi davrida (VI–VIII asrlar) Toshkent vohasi, Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo vohalari va Fargʻona vodiysi, Xorazm hududlariga turkiyzabon guruhlarning kirib kelishi yanada kuchaydi va ularning koʻpchiligi bu hududlarda oʻtroqlashib qoldi. Mazkur hududlarda ikkitillilik – Sharqiy eroniy va turkiy tilli aholi guruhlarning rivojlanishi davom etadi.

VIII asr boshlarida arablar Movarounnahr va Xorazm hududlariga bostirib kirgani oqibatida bu hududlardagi oʻtroq va yarim oʻtroq turkiyzabon aholi, sugʻdiylar va Xorazmning tub yerli aholisi etnik jihatdan oʻzgarmaydi. VII asrning oʻrtalaridan VIII asrning oʻrtalariga qadar Xuroson va Movarounnahr (Marv, Buxoro, Qarshi vohasi) koʻchib keladi. Tadqiqotchilarning yozishicha, bir qator kelgindi arab qabilalari (amir, quraysh, xuzail va boshqa) Qashqadaryo va Zarafshon vohalarida yangi manzilgohlarga asos solishgan, shuningdek, ular shaharlarda (Marv, Buxoro) alohida gularlarni egallab olishgan. Bu voqealar yozma manbalardan maʼlum Arab tili islom dini tili va adabiy tilga aylanadi.

VIII asrning ikkinchi yarmidan turkiy qarluq qabilalari kuchaya boshlaydi. IX asrning oʻrtalariga kelib Yettisuv, Chimkent viloyati, Toshkent vohasi, Fargʻonaning shimoliy qismlarini oʻz ichiga olgan Qarluq davlati tashkil topadi. Koʻpchilik tadqiqotchilarning eʼtirofi etilishlaricha, oʻzbek elatining shakllanishida Qarluq davlatining ahamiyati katta boʻladi. X asr oʻrtalaridan boshlab bu davlat tarixiy manbalarda Qoraxoniylar davlati nomi bilan tilga olinadi.

Qarluqlar koʻp sonli, nufuzli «xalq» boʻlib, bir qismi chorvachilik bilan shugʻullangan. Qarluqlar yashagan hududlarda yirik qabilalar – chigillar, yagʻmolar, xalachlar ham yashagan boʻlib, ular bir-biriga qon-qarindosh boʻlib, turkiy tilda soʻzlashishgan.

XI asrning boshlarida janubiy hududlarning to Balx viloyatigacha boʻlgan yerlari dastlab qoraxoniylar turkiylar, soʻng esa Gʻaznaviylar qoʻliga oʻtdi. Buning natijasida navbatdagi katta turkiy qatlam Sugʻdiyona, Xorazm va Toxariston yerlariga kirib boradi. Qoraxoniylar davrida Movarounnahrning barcha hududlarida turkiy qatlamlar mavjud edi.

Qoraxoniylar davlatida qarluq–chigʻil turkiy til lahjasi keng tarqaldi. Keyinchalik shu til asosida adabiy turkiy til yuzaga kelib, uni Mahmud Koshgʻariy «eng ochiq va ravon til» deb atagan. Turkiy tilda IX–XII asrlar mobaynida bir qator asarlar yozilgan boʻlib, Ahmad Yugnakiyning (775–869) «Hibatul haqoyiq» (Haqiqatlar tuhfa-



si) dostoni, Yusuf Xos Hojibning (XI asr), «Qutadg'u bilik» (Saodatga yo'lovchi bilim) asari, Ahmad Yassaviyning (1041–1167) «Hikmatlar»i hamda «O'g'uznoma», «Alpomish», «Go'ro'g'li» kabi dostonlar shular jumlasidandir.

Movarounnahr va Xurosonning forsiy-dariy tilda so'zlashuvchi aholisi X asrdan boshlab o'zini «tozik», ya'ni «tojik» deb yurita boshlashadi. Qoraxoniylardan keyin hukmronlik qilgan sulolalar, G'aznaviylar (997–1187), Saljuqiylar (1040–1147), Xorazmshoh-Anushtaginiylar (1097–1231)ning barchasi turkiy qavmga tegishli bo'lib, o'z vaqtida nafaqat O'rta Osiyo, balki O'rta Sharqda ham hukmronlik mavqeyiga ega bo'lishgan. X–XI asrlarda Sharqiy eroniy tillarini (xorazm, sug'd) turkiy va fors-tojik tillari butunlay siqib chiqaradi.

Mo'g'ullar bosqini davrida Toshkent vohasi, Farg'ona vodiysi, Qashqadaryo va Surxondaryo vohalariga turkiy va mo'g'ul qabilalari kelib joylashishadi. Jaloir, barlos, ming, mang'it, qo'ng'iroq qabilalari va boshqalari shular jumlasidandir. Shuningdek, Amudaryo va Sirdaryo oralig'i hududlarida mo'g'ul (mongoloid) irqiga mansub aholi guruhlari biroz ko'payadi. XIV asrning o'rtalariga kelib mo'g'ul qabilalari turkiylashib ketishadi.

«O'zbek» etnonimining kelib chiqishi haqida qisqacha fikr yuritadigan bo'lsak, bu etnonimning kelib chiqishini ayrim guruh tadqiqotchilar Oltin O'rda xoni O'zbekxonning (1312–1341) nomi bilan bog'lashadi. Boshqa bir guruh tadqiqotchilar esa bu fikrni inkor etishadi va «o'zbek» nomi O'zbekxongacha Oq O'rda mintaqasida, uning G'arbiy Sibir va Qozog'iston qismida yashagan turkiy qabilalariga mansub (xon nomi qabilalar nomidan olingan bo'lishi mumkin) degan fikrni ilgari surishadi. Ayrim tadqiqotchilar esa «o'zbek» atamasini «o'zi bek», «erkin», «mustaqil» so'zidan kelib chiqib, XII–XIV asrlarda xalqimizga nisbatan ishlatila boshlangan deb hisoblashadi.

O'zbek etnonimi kelib chiqishi davriga qarab o'zbek, turkman, qozoq, qoraqalpoq xalqlarini aniq bir vaqtda paydo bo'lgan, deb

aytib bo'lmaydi. Bu xalqlar ko'p asrlar davomida hozirgi joylashgan mintaqalarida yashashgan. Lekin olis paytlarda hali zamonaviy nomi bilan atalgan emas. Ular umumiy nom bilan «turkiy» deb, yoki bo'lmasa, o'z qabilalari nomlari bilan atalishgan.

Tarixning qadimgi davrlarida aholi ko'p hollarda o'zlari yashagan joy nomi bilan atalgan bo'lib, o'rta asrlarga kelib bu nomlar o'zgaradi. Xususan, Dashti Qipchoq hududlarida yashagan turkiy aholi XV asr oxiri – XVI asr boshlarida Movarounnahr yerlariga kelib, bu yerda yashayotgan tub joyli turkiy aholi bilan uyg'unlashib ketgan va aholini nomi «o'zbek» deb atalgan. O'rta asrlar tarixiy adabiyotlarida ham bu nom «o'zbek», «o'zbeklar» sifatida tilga olinadi. Ammo shu narsa aniqki, Dashti Qipchoq hududlaridan kelgan turkiy qabilalar mahalliy aholi etnogenezig, urf-odat va madaniy an'analariga sezilarli darajada ta'sir etishmaydi. Aksincha, ular orasiga singib ketib, chuqur tarixiy ildizlari ega yuqori darajadagi madaniyat ta'sirida bo'ldilar. Tadqiqotlarga ko'ra, o'zbek xalqi ikki etnik qadimiy Sharqiy eron va turkiy tilli qatlamdan tashkil topgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'zbek xalqining asosini hozirgi O'zbekiston hududlarida qadimda shakllangan yer egali manbalarda tilga olingan mahalliy ziroatchi elatlar va ular bilan qorishib ketgan kelgindi chorvador qabilalar tashkil etgan.

Hozirgi fanda mavjud ilmiy qarashlarga ko'ra, o'zbek elati Sharqiy eroniy va turkiy tilli aholisining (xorazmliklar, sug'diylar, baqtriyaliklar va turkiy qabilalar) qorishib ketishi natijasida X asrda shakllanadi. XI–XII asrlarda uning rivojlanishi turkiy komponentlar asosida o'tadi. Etnogenez jarayonida til, shubhasiz, muhim jihat bo'lgan, shuningdek, mazkur muammoni o'rganishda antropologik, genetik belgilarga e'tibor berish lozim. Misol tariqasida, turkiy tilli o'zga xalqlar – qozoqlar va qirg'izlar mongoloid irqiga mansub, o'zbeklar va turkmanlar esa asosan yevropeoid irqi vakillaridir.

Tahlil qilingan ma'lumotlar shundan guvohlik beradiki, O'rta Osiyo zamonaviy xalqlarining kelib chiqish jarayoni turli antropolo-

gik, etnik va xo'jalik-madaniy asoslarda rivojlangan. Eneolit va bronza davridagi hanuzgacha tarix fanida noma'lum mahalliy tillar, mil. avv. I mingyillikning boshlariga kelib, yozma manbalaridan ma'lum Sharqiy eroniy tillarga almashtiriladi. Shuningdek, mil. avv. VII–VI asrlarda Sharqiy Kaspiybo'yi, Orolbo'yi, Markaziy va Sharqiy Qozog'iston oralig'idagi dashtlarda istiqomat qilgan ko'chmanchi chorvadorlarning tarkibida turkiy tilli qabilalarning mavjud bo'lganligi ehtimoldan xoli emas. Xususan, bu davrda o'troq va ko'chmanchi aholi o'rtasida o'zaro ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar keng rivojlanib, keyingi davrlarda ham taraqqiy topadi.

#### *Tayanch so'zlar*

Etnogenez, etnik shakllanish, etnik tarix, urf-odatlar va an'analar, avtohton qatlam, etnik belgilar, etnik omillar, etnik til birligi, etnik nom, etnik birlik, etnos, xalq, elat, el, qabila, etnografik guruh, etnik guruh, etnik birlashish, etnik bo'linib ketish, etnik an'analar, etnik jamoa, urug', mahalliy aholi, O'rta Osiyo Ikkidaryo oralig'i irqi, O'rta Yer dengizi irqi, Xorazm, baqtriy, sug'd tillari, etnik-madaniy jarayonlar, o'zbek etnonimi, o'zbeklar.

#### *Savol va topshiriqlar*

1. Etnik tarix haqida ma'lumot bering.
2. Etnogenez va uni o'rganish masalalari bo'yicha nimalarni bilasiz?
3. Etnogenez va etnik tarixning nazariy va ilmiy-metodologik tamoyillari nimalardan iborat?
4. Etnik atamalar haqida ma'lumot bering.
5. O'lkamiz hududlaridagi qadimgi aholi haqida gapirib bering.
6. O'zbek xalqining shakllanish bosqichlari haqida nimalarni bilasiz?
7. Qadimgi migratsiyalar va etnomadaniy jarayonlar masalalari bo'yicha nimalarni bilasiz?
8. «O'zbek» atamasi haqida ma'lumot bering.

#### *16-mavzu bo'yicha foydalanilgan adabiyotlar*

1. *Asqarov A.* O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi. – Toshkent: «O'zbekiston», 2015.
2. *Ahmedov B.A.* O'zbek ulusi. – Toshkent: «Meros», 1992.
3. *Ashirov A., Atadjanov Sh.* Etnologiya. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2007.
4. *Бромлей Ю.* Очерки теории этноса. – М.: «Наука», 1983.
5. *Вишневская О.А.* Культура сакских племен низовьев Сырдарьи в VII–V вв. до н.э. – М.: «Наука», 1983.
6. *Гумилёв Л.Н.* Этногенез и биосфера земли. – М.: «Наука», 1993.
7. *Кармышева Б.Х.* Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – М.: «Наука», 1976.
8. Краткий этнологический словарь. – М.: Социальный мониторинг, 2000.
9. *Кузьмина Е.Е.* Откуда пришли индоарии? Материальная культура племен андроновской общности и происхождение индоиранцев. – М., 1994.
10. *Ртвеладзе Э.В.* Цивилизация, государства, культуры Центральной Азии. – Ташкент, 2005.
11. *Ртвеладзе Э.В., Сагдуллаев А.С.* Современные мифы о далеком прошлом народов Центральной Азии / Издание 2-е, дополненное. – Ташкент, 2007.
12. *Ходжайов Т.К.* O'zbek xalqi etnogenezi tarixidan. – Toshkent, 1995.
13. *Ходжайов Т.К., Ходжаева Г.К.* Историческая антропология. Узбеки. – М.: «Наука», 2011.
14. *Shoniyozov K.Sh.* Qang' davlati va qang'lilar. – Toshkent: «Fan», 1990.
15. *Shoniyozov K.Sh.* O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. – Toshkent: «Fan», 2001.
16. History of civilizations of Central Asia. UNESCO publishing. – Paris. 1996.



## GLOSSARIY

- Avorizot** – favquloddagi xarajatlar uchun to‘planadigan yig‘im.  
**Avfoq** – masjid va madrasalarning vaqf xo‘jaligi bilan shug‘ullanuvchi.  
**Agema** – Makedoniyalik Aleksandrning maxsus otliq qo‘shini.  
**Ajam** – arab xalqlari va mamlakatlaridan o‘zga yurt va xalqlar.  
**Azarxurra** – otashparastlar sig‘inadigan muqaddas olov, o‘t.  
**Akkor** – koranda, qishloqning ziroatkor aholisi.  
**Amazonkalar** – qadimgi yunon asotirlarida qurollangan jangchi ayollar.  
**Amiri shikor** – sulton oylarini tashkil etgan.  
**Amid ul-mulk** – davlat hujjatlari va elchilik aloqalari vaziri.  
**Amir ul-umaro** – amirlar amiri, bosh sarkarda.  
**Amir ul-a‘lam (a‘lamdor)** – sulton bayroqdori.  
**Anabasis** – yunoncha davlat ichkarisiga dengizdan uzoqlashgan harbiy yurish.  
**Anaxita** – suv, yer va hosildorlik ilohasi.  
**Animizm** – insonni qurshab turgan muhitda ruhlar va jonlarning mavjudligiga ishonish.  
**Antik davr** – qadimgi dunyo tarixi davri.  
**Ariz** – qo‘shin ta‘minoti bilan shug‘ullanuvchi vazir.  
**Ark** – ichki qal‘a, hukmdorning shahar ichidagi qo‘rg‘on-saroyi, qarorgohi.  
**Aryonam Vayjo (Aryonam Vaychax)** – oriylarning dastlabki vatani.  
**Arxeologiya** – yunoncha «arxayos» – qadimgi, «logos» – fan, qadimshunoslik.  
**Axriman** – zardushtiylik dinining zulmat, ochlik, o‘lim, gunoh va barcha yovuzlik xudosi.  
**Assimilyasiya** – qorishib ketish, aralashish.  
**Axuramazda** – zardushtiylik dinining bosh tangrisi, yorug‘lik, farovonlik, sihat-salomatlik, tinchlik va barcha ezguliklar xudosi.  
**Basilevs** – yunoncha «podsho».  
**Band** – toshlardan bino qilingan suv omborining to‘g‘oni, suv ombori; to‘g‘on.  
**Banno** – g‘isht teruvchi binokor.

- Bantak** – qul.  
**Barzikor** – qo‘shchi, ziroatkor, qishloqning mehnatkash aholisi.  
**Barid** – kirim.  
**Barot** – ijaraga olish.  
**Bek** – el-yurt, viloyat hokimi.  
**Begor** – jamoat ishlariga safarbar etish; hashar.  
**Biy** – urug‘, qabila oqsoqoli.  
**Boj** – savdogarlardan olinadigan soliq.  
**Borgoh** – podshoh saroyidagi qasr, qabulxona.  
**Bosqoq** – mo‘g‘ullar hokimlik qilgan XIII– XIV asrlardagi mahalliy hokim.  
**Bronza** – mis bilan qalay qotishmasi.  
**Burong‘or** – qo‘shinning o‘ng qanoti.  
**Burj** – shahar va qal‘a devorlaridagi harbiy minora.  
**Burg‘u** – karnay.  
**Budun** – chorvador aholi, qora budon – qora, oddiy xalq.  
**Vara** – devor bilan o‘ralgan to‘rtburchakli istehkom.  
**Vazir** – devonxona boshlig‘i.  
**Vazkirom** – seliq yig‘uvchi, moliya xodimi.  
**Vag‘n** – ibodatxona.  
**Vag‘npat** – ibodatxona ruhonasi.  
**Vag‘nze** – ibodatxona yer va mulklari.  
**Vis** – «Avesto»da – urug‘.  
**Visoqboshi** – to‘rt nafarli askariy guruh boshlig‘i, chodir boshlig‘i.  
**Goplit** – yunon-makedonlarning og‘ir qurollangan jangchisi.  
**Gipparx** – Makedoniyalik Aleksandr davrida fors satrapini o‘rniga tayinlangan viloyat hokimi.  
**Davirpat** – kotib, elchi, sarkotib.  
**Debo** – tovlanuvchi nafis ipak mato.  
**Dehnishin** – o‘troq, qishloq aholisi.  
**Diadoxlar** – Makedoniyalik Aleksandr davlatini qismlarga bo‘lib, o‘z qullariga kiritgan lashkarboshilar, «merosxo‘rlar».  
**Dehqon** – ilk o‘rta asrlarda «qishloq hokimi», yer egasi.  
**Digir** – charxpalak va chig‘irlarga ariqdan yoki chig‘ir xandaqdan suv botirgich ko‘za.

**Dinor** – bir misqol (4,8 gr) og'irlikda zarb etilgan oltin yoki kumush tanga.

**Dmana** – «Avesto»da – oila.

**Dovul** – katta nog'ora.

**Dorug'a** – harbiy ma'mur.

**Dorug'ona** – dorug'alar foydasiga olinadigan to'lov (soliq).

**Dudang** – hosilning oltidan ikki hisobida olinadigan dehqonchilik solig'i.

**Do'lob** – charxpalak; quduqdan suv chiqaradigan charx.

**yom** – jom, savdo yo'llaridagi qo'noq.

**Jizya** – islom diniga o'tmaganlardan olinadigan jonboshi solig'i.

**Jome'** – masjid – juma kunlari jamoat namozi o'qiladigan katta masjid.

**Joriya** – cho'ri.

**Juvong'or** – qo'shinining so'l qanoti.

**Juybon** – suv taqsimlovchi mirob.

**Zantu** – «Avesto»da – qabila.

**Zakot** – chorvadan olinadigan soliq, to'plangan boylikdan daromad solig'i.

**Zarbxona** – chaqa va tangalar zarb etiladigan ustaxona.

**Zobitona** – kirimni hisoblovchi moliya xodimi uchun olinadigan to'lov (soliq).

**Ibodatxona** – muqaddas deb e'lon qilingan, qadimda odamlar xudolarga sig'ingan bino yoki joy.

**Izofa** – zaxira qism.

**Ilmi aruz** – poetika.

**Ila** – yunon-makedonlar safida o'tliq harbiy qo'shin (200 ta suvoriy).

**Ilmi hayat** – astronomiya.

**Innovatsiya** – yangilanish, tarixiy jarayonda, madaniyatda, fanda vujudga kelgan yangi uslublar, ixtirolar va kashfiyotlar.

**Ixshid** – ilk o'rta asr viloyati hokimi, alohida mulk hukmdori.

**Iqto', iqta** – yirik mansabdorlarga hadya etilgan yer va mulk.

**Kadivar** – ilk o'rta asrlarda yirik yer egalari qaram bo'lgan ziroatkor qishloq aholisi; chorikor.

**Kavi** – «Avesto»dagi mamlakat sardori, podshosi.

**Kaviylar** – Kayyoniyar «Avesto» va «Shohnoma»dagi podsholar sulolasi.

**Kalavachi** – ip yigiruvchi.

**Kalon** – XIII asrdagi yer solig'i.

**Kanbul** – qo'riqchi askariy bo'linma.

**Karbos** – bo'z; paxta ipidan to'qilgan mato.

**Karsharvar** – zardushtiylar ta'limotida dunyoning iqlim qismlarini belgilab beruvchi tushuncha.

**Kashovarz** – ilk o'rta asrlardagi ozod qo'shchi, ziroatkor.

**Kahhol** – ko'z tabibi.

**Keshik** – XIII asrda mo'g'ullar qo'shinidagi zaxira qism; gvardiya, guruh.

**Kibor** – aslzoda ulug' kishilar.

**Koriz** – yer osti suv inshooti.

**Korikor** – xizmatkor.

**Kofiya** – arab tili morfologiyasi.

**Koshin** – sirli, rangdor, qurilishdagi sopol bezak.

**Koh** – saroy, ichki qal'a, ark, o'rda.

**Kohin** – qadimda ibodatxonalarda diniy marosimlarni amalga oshiruvchi e'tiqodlar xizmatchisi, xudolar va odamlar o'rtasida vositachi, ibodatxona ruhoniysi.

**Koroplastika** – sopol haykalchalar.

**Ko'handiz** – hukmdor qarorgohi.

**Ko'ragon** – xon kuyovi.

**Ko'shk** – istehkomli baland uy-qo'rg'on.

**Qissador** – hafta davomida sulton nomiga yozilgan ariza va iltimosnomalarni yig'ib, payshanbadan jumaga o'tar kechasi sultonga topshiruvchi amaldor. U eng obro'li mansabdorlardan biri bo'lgan.

**Labirint** – tanbur, dalon, darvoza oldi istehkomi (adashturuvchi yo'lak).

**Lavh** – yozuv taxtasi, yozuv kursichasi, yoki kursi.

**Lak** – yuz ming.

**Lahm** – yer osti yo'li.

**Loyqoq** – sel loyqalari qoplagan maydon.

**Madrasa** – oliy diniy ilmgoh.

**Majus** – otashparast.

**Majusiy** – otashparastlik dindori.

**Manglay** – ilg'or guruh.

**Mesh** – suv yoki qimiz olib yuradigan teri xalta yoki to'rva, sanoch.



**Mikrolit** – mayda tosh qurol.  
**Mirixazora** – minglik harbiy bo‘linmaning amiri (sardori).  
**Mirob** – suv xo‘jaligi boshqaruvchisi.  
**Mirobona** – suv solig‘i.  
**Moi sardaraxt** – bog‘ va daraxtzorlardan olinadigan soliq.  
**Muzoriy** – qo‘shchi, ziroatkor, ekin ekuvchi.  
**Mulk** – xususiy er.  
**Mulki vaqf** – madrasa va masjidlar tasarrufidagi yer-mulk, xayrli ishlar uchun ajratilgan mol-mulk.  
**Mulki devoniy** – davlat yerlari.  
**Mamlakai xos** – davlat mulklari.  
**Musallas** – uzum yoki mayizdan tayyorlangan shirin sharob, may.  
**Mustavfiy** – markaziy hokimiyat devonxonasi daftardor hisobchisi; molliya vaziri.  
**Muxassilona** – soliq yig‘uvchilar uchun to‘lov.  
**Muhrkash** – chit va matolarga gul bosuvchi.  
**Muxtasib** – o‘rta asrlarda maxsus davlat amaldori, bozorlarda tosh va tarozilarning to‘g‘riligini hamda savdoni nazorat qilish, mahsulotlarning sifatini tekshirib turish, qoidabuzarlikka yo‘l qo‘ymaslik kabi ishlarni amalga oshiruvchi shaxs.  
**Mushrif** – saroy ish boshqaruvchisi.  
**Muqto‘yoki iqtador** – iqto‘y yer va mulklariga ega bo‘lgan yer egasi.  
**Muhoraba (mahoraba)** – jang, urush, harbiy to‘qnashuv.  
**Muhrdor** – devonxonaning muhr saqlovchisi; muhr bosuvchi, muhr sohibi.  
**Naus** – zardushtiy xilxonasi, ossuariylar saqlanadigan inshoot.  
**Naf** – shahar va qishloq aholisi.  
**Naftandoz** – neftli va pilikli ko‘zachalarni irg‘itadigan palaxmon, harbiy moslama.  
**Nasassalar** – zardushtiyilar dafn marosimlarini amalga oshiruvchi kishilar.  
**Nmana** – «Avesto»da oila jamoasi, uy  
**Nova (nov)** – suv tashlag‘ich tarnov; suv tashlag‘ich.  
**Nomozgoh** – iyd ibodatlari o‘qiladigan masjid; iydgoh.  
**Nohid** – zardushtiyilarning hosildorlik va farovonlik ma‘budasi.  
**Numizmatika** – tangashunoslik fani.

**Oykumena** – yunonlar tasavvurlarida insonlar joylashgan dunyo hududlarining chegaralari.

**Oriylar (ariylar)** – bronza davrida O‘rta Osiyo, Eron va Hindiston hududlariga Yevroosiyo dashtlaridan kirib kelgan chorvador qabilalar, boshqa nazariyalarga ko‘ra, ular Old Osiyodan kelib chiqishgan.

**Ostadon (ossuariy)** – sopol tobutcha.

**Otashkada** – muqaddas o‘choq; o‘txona, olovxona.

**Otashgoh** – zardushtiyilarda muqaddas olov yonib turgan maxsus joy, inshoot, ibodatxona.

**Ohangar** – temirchi.

**Payza** – mo‘g‘ullar davrida imtiyozli shaxslarga beriladigan yorliq.

**Paykon** – kamon o‘qi yoki nayzaning tosh, suyak yoki metalli uchi.

**Palaxmon** – toshotar; harbiy qurol.

**Pandus** – ko‘tarma yo‘l.

**Parchin** – sirlangan rang-barang g‘isht parchalari.

**Polis** – yunoncha «shahar».

**Poykor** – kichik mirob; qishloq mirobi.

**Rabod** – shaharning tashqi qismi, karvonsaroy.

**Rais** – shahar hokimi.

**Ra‘dandoz** – o‘t otgich; harbiy qurol.

**Riyoziyot** – matematika.

**Savquljaysh** – strategiya.

**Sadoq** – o‘qdon.

**Sadoqxona** – kamon va o‘qdonlar ombori.

**Sardoba (obdon)** – pishiq g‘ishtdan qurilgan gumbazli hovuz; suvxona.

**Sarissa** – yunon-makedonlar qurollangan 4 metr uzunligidagi og‘ir nayza.

**Sari Shumor** – jonbosh solig‘i.

**Sarroj** – egar va jabduq yasovchi usta.

**Satrap** – harbiy-ma‘muriy o‘lka hokimi (ahamoniylar va antik davrda).

**Satraplik** – hududiy-ma‘muriy bo‘lim, alohida yoki viloyatlar birlashmalari (ahamoniylar va antik davrda).

**Strateg** – mudofaa va qo‘shin vaziri (antik davr).

**Saxronishin** – sahroyi, tuyakash.

**Sohibi jamoa** – hosil miqdorini belgilovchi ma‘mur uchun yig‘iladigan to‘lov.

**Sohibi muayyid** – maktubod va axborot vaziri.

**Sohibi Shurot** – harbiy vazir.

**Suvoriy** – otliq askar.

**Suyurg'ol** – oliy tabaqa zodagonlariga in'om qilingan yer-mulk.

**Terrakota** – loydan ishlangan va xumdonlarda pishirilgan sopol haykalchalar.

**Tavajjuhota xorijiy** – favquloddagi xarajatlar solig'i.

**Tamg'a** – savdo boji; savdogarlardan olinadigan soliq.

**Tanob** – 200–250 kv. m. hajmdagi yer maydoni.

**Tarbiyat ul-jaysh** – harbiy taktika.

**Tashtdor** – sulton hammomlari va hovuzlarning boshlig'i. Uning bo'lida ko'plab quillar ham bo'lgan. U sultonga eng yaqin kishilardan biri bo'lgan. Masalan, Xorazmshoh Muhammad tashtdori Ayozga keyinchalik malik (hokim) urvonini ham bergan.

**Tirkash** – kamondan o'q uzadigan nishon tuynugi.

**Totem** – urug' yoki qabila jamoalari sig'inadigan hayvon, o'simlik yoki jism.

**Totemizm** – totemlarga sig'inish.

**Toq yoki tim** – usti yopiq bozor va hunarmandchilik rastasi.

**Tudun** – turk xoqonligining viloyat hokimliklaridagi vakili, viloyat hokimi.

**Tuman** – o'n minglik harbiy qism.

**Tuman og'asi** – o'n minglik askariy qism amiri, qo'mondon.

**Tug'ro** – davlat nishonasi, ramzi, gerbi.

**Urbanizatsiya** – aholi va ishlab chiqarishning shaharlarda to'planish jarayoni.

**Usturlob** – astronomiya asbobi.

**Ushr** – hosildan 10% hisobida olinadigan dehqonchilik solig'i.

**Farmondor** – boshqaruvchi.

**Farna** – zardushtiylardagi baxt va tole xudosi.

**Farrosh** – sulton o'rni-to'shaklari saqlanadigan farroshxona boshlig'i bo'lib, uning ixtiyorida gilam, chodir, ko'rpa-to'shaklar bo'lgan. Farroshga ko'plab o'rgatilgan quillar xizmat qilgan.

**Fulus** – mayda chaqa.

**Xabargir** – xabarchi, ayg'oqchi, kuzatuvchi.

**Xazora** – minglik askariy bo'linma.

**Xandaq** – mudofaa inshooti, zovur.

**Xaraj-u maraj** – boshboshdoqlik, o'zboshimchalik, beboshlik.

**Xatib** – din peshvosi.

**Xattot** – kitob, risolalar ko'chiruvchi kotib.

**Xvabu** – viloyat hokimi, yirik yer egaligi.

**Xvatov** – hokim.

**Xiroj** – hosilning 25–33% hisobida olinadigan qishloq xo'jalik solig'i; XV asrda bu soliq «mol» deb yuritilgan.

**Xona Shumor** – har xonadondan olinadigan jonboshi solig'i.

**Xonaqoh** – g'aribxona, musofirxona.

**Xonbodi (konbandi)** – suv ombori, katta hovuz.

**Xoqon yoki qog'on** – hukmdor yoki podsho.

**Xronologiya** – asrlar, davrlar, vaqt o'lchovi haqidagi fan, yunoncha «xronos» – vaqt, «logos» – fan so'zlaridan kelib chiqqan tushuncha.

**Xu Shun** – yuz nafarlik harbiy bo'linma.

**Xu Shunboshi** – yuzlik bo'linma zobiti.

**Chilangar** – temirchi.

**Chilangarlik** – temirchilik.

**Chig'ir** – tuya yoki ho'kiz qo'shib aylantiriladigan suv ko'targich inshooti.

**Chokar** – harbiy drujina, ko'ngillilar to'dasi.

**Chokardiza** – chokarlar qal'asi, turarjoyi.

**Chorikor** – hosildan 25% olish hisobiga ishlovchi yollanma qo'shchi ziroatkor.

**Chohpar** – o'ra.

**Shajara** – kishilarning kelib chiqishi, ajdodlari va qon-qarindoshlik majmui.

**Shayxulislom** – din va ilm peshvosi.

**Sharobdor** – sulton sharobxonasining boshlig'i.

**Shahriston** – ichki shahar.

**Shod** – o'n minglik lashkar boshlig'i.

**Shulen** – XIII asrda olingan oziq-ovqat solig'i.

**Yeloq** – kichik yurt, kichik mulk.

**Yetnogenez** – xalq va elatlarning kelib chiqish jarayoni.

**Yabg'u yoki jabg'u** – el-yurt hokimi, mahalliy hokim.

**Yasovul** – soqchi.











Ahamoniylar davlati




Makedoniyalik Aleksandrning harbiy yurishlari





Salavkiylar davlati



Yunon-Baqtriya podsholigi





Kushon podsholigi



Arab xalifa. VIII asr oxiri - IX asr boshlari







## IJODIY GURUH TO'G'RISIDA MA'LUMOT

1. Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich – akademik, tarix fanlari doktori, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti «Arxeologiya» kafedrası professori
2. Eshov Bahodir Jo'rayevich – tarix fanlari doktori, Qarshi davlat universiteti professori
3. Mavlonov O'ktam Maxmasobirovich – tarix fanlari doktori, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti «Arxeologiya» kafedrası professori
4. Kobzeva Olga Petrovna – tarix fanlari doktori, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti «O'zbekiston tarixi» kafedrası professori
5. Odilov Abror Anvarovich – tarix fanlari nomzodi, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti «O'zbekiston tarixi» kafedrası dotsenti
6. Xoliqulov Axmad Boymaxmatovich – tarix fanlari nomzodi, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti «O'zbekiston tarixi» kafedrası dotsenti
7. Xidirov Abror Mo'minovich – Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti «O'zbekiston tarixi» kafedrası katta o'qituvchisi

8. Saipova Kamola Davlataliyevna – tarix fanlari nomzodi, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti «O'zbekiston tarixi» kafedrası dosenti
9. Shaydullayev Alisher Shapulatovich – tarix fanlari bo'yicha PhD, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti «Arxeologiya» kafedrası o'qituvchisi
10. Tog'ayev Jasur Erkinovich – Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti «O'zbekiston tarixi» kafedrası o'qituvchisi



## MUNDARIJA

KIRISH .....	3
<b>1-MAVZU. «O'zbekiston tarixi» fani to'g'risida umumiy ma'lumotlar</b> .....	8
1.1. «O'zbekiston tarixi» fanining ijtimoiy fanlar tizimida tutgan o'rni. Fanning maqsadi, vazifalari va ahamiyati.....	8
1.2. «O'zbekiston tarixi» fanining nazariy-uslubiy asoslari, usullari va do'zarb masalalari.....	13
1.3. O'zbekistonning qadimgi va o'rta asrlar tarixini davrlashtirish. Jahon tarixini davrlashtirish to'g'risidagi nazariyalar.....	19
1.4. Manbashunoslik va tarixshunoslik masalalari.....	26
<b>2-MAVZU. O'zbekiston tarixining eng qadimgi davri</b> .....	35
2.1. Insoniyatning dastlabki ajdodlari. Antropogenez jarayoni.....	35
2.2. Paleolit – qadimgi tosh davri tarixi.....	41
2.3. Mezolit, neolit va eneolit davri tarixi.....	51
2.4. Ibtidoiy e'tiqodlar va tasviriy san'at.....	66
<b>3-MAVZU. Bronza davri tarixi</b> .....	74
3.1. Ziroatchilik va chorvadorlar madaniyatlari doirasining kengayib borishi.....	74
3.2. Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar.....	80
3.3. Madaniy aloqalar, aholi va etnik jarayonlar.....	85
<b>4-MAVZU. O'zbekiston davlatchiligining shakllanish asoslari</b> .....	94
4.1. Ilk davlatlar rivojlanishining davrlashtirilishi.....	94
4.2. Boshqaruv tizimi va ilk davlatlar paydo bo'lishining ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy asoslari.....	97
4.3. Davlatchilik kelib chiqishiga doir nazariyalar.....	108
4.3.1. Davlat shakllari va boshqaruv tizimi.....	108
4.3.2. Davlat turlari va shakllari, boshqaruv tizimi.....	111
<b>5-MAVZU. «Avesto» va zardushtiylik</b> .....	116
5.1. «Avesto» – tarixiy manba sifatida.....	116
5.2. Geografik-hududiy nomlar. Ijtimoiy-iqtisodiy ma'lumotlar va siyosiy tarix.....	125

5.3. Diniy falsafa va dafn etish marosimlari.....	130
5.4. Axloqiy va huquqiy qoidalar. Jinoyat va jazo turlari.....	134

<b>6-MAVZU. Qadimgi davlatlar tarixi</b> .....	141
6.1. Qadimgi fors bitiklari va ilk yunon manbalari.....	141
6.2. Tarixiy-madaniy viloyatlar va qadimgi davlatlar.....	151
6.2.1. Qadimgi Baqtriya.....	151
6.2.2. Sug'd (Sug'diyona).....	155
6.2.3. Qadimgi Xorazm.....	158
6.2.4. Sak-massagetlar.....	162
6.2.5. Choch va Farg'ona.....	165

<b>7-MAVZU. Mil. avv. VI asr o'rtalari – IV asr tarixi. O'rta Osiyo Abamoniyalar davlati tarkibida</b> .....	171
7.1. Siyosiy tarix.....	171
7.2. Iqtisod va ijtimoiy tuzum.....	177
7.3. Din.....	184

<b>8-MAVZU. Makedoniyalik Aleksandrning Baqtriya va Sug'diyonaga yurishlari</b> .....	190
8.1. Yozma manbalar ma'lumotlari.....	190
8.2. Siyosiy voqealar. Aleksandr va Spitaman. Yunon-makedonlarga qarshi kurash.....	200
8.3. Tarixiy geografiya.....	208

<b>9-MAVZU. O'zbekistonning antik davr davlatchiligi. Salavkiylar va Yunon-Baqtriya davlatlari</b> .....	219
9.1. Salavkiylar davlati.....	219
9.2. Yunon-Baqtriya davlati.....	226
9.3. Antik davr shaharsozlik va me'morchilik an'analari.....	229

<b>10-MAVZU. Xorazm, Qang', Davan, Yuechji-Kushon va Kushon davlatlari</b> .....	237
10.1. Xorazm davlati.....	237
10.2. Qang' davlati.....	247
10.3. Davan davlati.....	255
10.4. Yuechji-Kushon va Kushon davlati.....	262

<b>11-MAVZU. Ilk o'rta asrlar tarixi</b> .....	285
11.1. Kidariylar, xioniyalar va eftaliylar.....	285

11.2.	Turk xoqonligi davrida O'rta Osiyo .....	300
11.3.	Arab xalifaligi davrida Movarounnahr .....	315
11.4.	Arablar bosqiniga qarshi kurash. Movarounnahrda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar .....	320
<b>12-MAVZU. IX–XII asrlar tarixi</b> .....		<b>333</b>
12.1.	Arab xalifaligining parchalana borishi. Tohiriylar davrida Movarounnahr va Xuroson .....	333
12.2.	Somoniylar hukmronligi davri .....	342
12.2.1.	Ijtimoiy-iqtisodiy hayot .....	350
12.3.	Qoraxoniylar davlati .....	359
12.4.	Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar va Xorazmning siyosiy munosabatlar .....	373
12.5.	Xorazmshohlar-Anushtaginiylar davlati .....	396
<b>13-MAVZU. O'rta Osiyo xalqlari tarixida IX–XII asrlarda yuz bergan Uyg'onish davri. Ajdodlarimizning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi</b> .....		<b>434</b>
13.1.	IX–XII asrlarda madaniy yuksalish omillari. O'rta Osiyolik buyuk qomusiy allomalarning insoniyat tamadduni rivojiga qo'shgan ulkan hissasi .....	434
13.2.	Xorazm Ma'mun akademiyasida ilm-fanning rivojlanishi .....	461
13.3.	IX–XII asrlarda islom dini va tasavvuf tariqatlari. Buyuk muhaddis va dinshunos olimlar .....	467
13.4.	Me'morchilik va san'at .....	485
<b>14-MAVZU. O'rta Osiyoga mo'g'ullar bosqini va unga qarshi kurash</b> .....		<b>492</b>
14.1.	Mo'g'ul davlatining tashkil topishi. Chingizxon va Muhammad Xorazmshoh munosabatlari .....	492
14.2.	Movarounnahrda mo'g'ul bosqinining amalga oshirilishi .....	504
14.3.	Jaloliddin Manguberdi – Vatan qahramoni .....	520
14.4.	Mo'g'ullar istilosidan keyingi siyosiy vaziyat. Chig'atoy ulusi davridagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar .....	535
14.5.	XIII asrning ikkinchi yarmi va XIV asrning birinchi yarmidagi madaniy hayot .....	545
<b>15-MAVZU. Buyuk ipak yo'li – muloqot va hamkorlik yo'li</b> .....		<b>552</b>
15.1.	Eng qadimgi aloqa yo'llari .....	552
15.2.	Buyuk ipak yo'li: shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari .....	563

15.3.	O'rta asrlar davri savdo-iqtisodiy yo'llari .....	570
15.4.	Buyuk ipak yo'li va hozirgi zamon .....	575
<b>16-MAVZU. Etnogenez va etnik tarix masalalari</b> .....		<b>581</b>
16.1.	Etnogenez va etnik jarayonlarning xususiyatlari .....	581
16.2.	Qadimgi migratsiyalar va etnomadaniy jarayonlar .....	585
16.3.	O'zbek xalqining shakllanishi masalasi .....	592
GLOSSARIY .....		600
ILOVALAR .....		609



# O'ZBEKISTON TARIXI

I kitob

TOSHKENT – «DONISHMAND ZIYOSI» – 2020

Muharrir	<i>I. Ahmedov</i>
Badiiy muharrir	<i>D. Mulla-Axunov</i>
Musahhih	<i>G. Azizova</i>
Sahifalovchi	<i>K. Goldobina</i>

Nashriyot litsenziyasi AA № 0049, 18.03.2020-y.  
Bosishga 2020-yil 25-dekabrda ruxsat etildi.  
Bichimi 60×84<sup>1</sup>/<sub>16</sub>. Bosma tabog'i 39. Shartli bosma tabog'i 36,27.  
«Times New Roman» garniturasida. Ofset qog'ozida bosildi.  
Adadi 80 nusxa. Buyurtma raqami № 02.

«Donishmand ziyosi» MCHJ, Toshkent sh., Navoiy ko'chasi, 30.  
Tel: +998-71-244-40-91, 99-808-19-49.

«Kamalak-PRESS» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Manzil: Toshkent sh., Navoiy ko'chasi, 30-uy.

«DONISHMAND ZIYOSI»

ISBN 978-9943-6445-3-3



9 789943 644533

